
N.A.HUSANOV
R.SH.XO‘JAQULOVA
N.A.DILMURODOVA

O‘ZBEK TILI



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI

TOSHKENT MOLIYA INSTITUTI

HUSANOV NISHONBOY ABDUSATTOROVICH
XO‘JAQULOVA RA’NO SHARIPOVNA
DILMURODOVA NILUFAR ASATULLAYEVNA

O‘ZBEK TILI

O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi tomonidan darslik sifatida tavsiya etilgan

(Iqtisodiyot oliy o‘quv yurtlarining bakalavr bosqichi umumiy guruh talabalari uchun)

TOSHKENT
“Excellent Polygraphy”
2020

UO‘K: 811.512.133(075.8)
KBK: 81.2O‘zb-923

Taqrizchilar: *p.f.n.dots.* **M. Berdiyeva;**
f.f.n.dots., **O‘. Lafasov**

H 84 O‘zbek tili: *Darslik (Iqtisodiyot oliy o‘quv yurtlarining bakalavr bosqichi umumiy guruh talabalari uchun)* / N.Husanov, R.Xo‘jaqulova, N.Dilmurodova; – T.: “Excellent Polygraphy”, 2020. – 528 b.

“O‘zbek tili” darsligi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi tavsiya qilgan namunaviy dastur asosida tuzilgan. Darslik rejaga binoan o‘quv yili davomida olib boriladigan mavzularni o‘z ichiga oladi.

Har bir dars matnlar, grammatik materiallar, mavzuni o‘zlashtirish va mustahkamlash uchun yo‘naltirilgan topshiriqlar, pedagogik texnologiyalar bilan boyitilgan.

Darslikda talabalarning og‘zaki va yozma nutqini rivojlantirish maqsadida rus tilida ham matnlar va topshiriqlar berilgan.

Ushbu darslik iqtisodiyot oliy o‘quv yurtlarining bakalavr bosqichi umumiy guruh talabalari uchun mo‘ljallangan.

UO‘K: 811.512.133(075.8)
KBK: 81.2O‘zb-923

ISBN 978-9943-13-914-5

© N.Husanov, R.Xo‘jaqulova, N.Dilmurodova, 2020
© «Excellent Polygraphy», 2020

SO‘ZBOSHI

“Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi” talabiga muvofiq oliy ta’limda barcha fanlar kabi til fanini o‘qitishda ham tub o‘zgarishlar ro‘y berayapti.

Ta’limning oliy bosqichida o‘zbek tilini o‘qitishning mazmuni yanada takomillashtirildi.

Hozirgi kunda o‘zbek tilining ijtimoiy mavqei tobora ortib borayotganligi, lotin yozuviga asoslangan yangi o‘zbek alifbosi va imlo qoidalarining joriy etilganligi, ish yuritishda to‘liq davlat tiliga o‘tilganligi barcha mutaxassislarning millatidan qat’iy nazar, o‘zbek tilini puxta egallashlarini taqozo etmoqda.

O‘zbek tilini o‘qitish tamoyillari, mazmuni va uslubini o‘zgartirib, o‘zbek tilini o‘rganish jarayonini tezlashtirish, talabalarning o‘rta maktabda, akademik litsey va kollejlarda olgan bilimlarini chuqurlashtirish, takomillashtirish bilan bog‘liq bo‘lgan nutqiy ko‘nikmalarni hosil qilish, o‘zbek tilining boy imkoniyatlaridan o‘z mutaxassisligi bo‘yicha foydalanish, fikrni to‘g‘ri, aniq, mantiqli ifoda etishga o‘rganish ko‘zda tutiladi. Shularni nazarda tutib darslik nutqiy ko‘nikmalarni shakllantirishga yo‘naltirilgan kommunikativ tamoyilga asoslanib tuzildi.

Ushbu darslik birinchi o‘ringa asosiy mavzu sifatida nutqiy mavzularning qo‘yilishi bilan farqlanadi. Grammatik bilimlar fikr ifodalash vositasi bo‘lib, asosiy maqsadning amalga oshishiga xizmat qiladi.

O‘zbek tili ta’limi turmush va mehnat faoliyatidagi nutq mavzulari doirasini yanada kengaytirilgan hamda ixtisoslikka moslashtirilgan tarzda o‘zbekcha nutqni tinglash, so‘zlash, o‘qish va yozish amallarini uyg‘unlashtirib o‘rgatish bilan ajralib turadi. Bunda talaba oldiga ilmiy-badiiy adabiyotlarni o‘qib tushunish, mutaxassislik sohasida matn yaratish, matnni shakl va mazmun jihatdan yangilash, boshqa nutq uslubiga ko‘chira olish kabi talablar qo‘yildi.

Asosiy e’tibor matn ustida ishlashga qaratildi. Har bir mashg‘ulotda topshiriqlar, suhbat, bahslashuv orqali mustaqil yozma ishlarni uyushtirish, matn tuzdirish talabalarning ixtisosligiga ko‘ra belgilanadi.

Darslikda talabalar mustaqil ta’lim olishlari uchun qo‘shimcha materiallar berildi.

SAMARQAND IQTISODIYOT VA SERVIS INSTITUTI
AXBOROT RESURS MARKAZI
№ 60610

1-MAVZU. O‘ZBEKISTON - YAGONA VATAN

Farzandlarimizni mustaqil fikrlaydigan, zamonaviy bilim va kasb-hunarlarni chuqur egallaydigan, mustahkam hayotiy pozitsiyaga ega, chinakam vatanparvar insonlar sifatida tarbiyalash biz uchun hamisha dolzarb masala hisoblanadi.

Shavkat Mirziyoyev

O‘zbekiston

O‘zbekiston - O‘rta Osiyoning markaziy qismida joylashgan. Shimoliy qismi mo‘tadil, janubiy qismi subtropik mintaqaga mansub. Iqlimi ham mo‘tadil iliq, keskin kontinental, hududi 447,4 ming kv. km. Aholisi 33 million kishi. O‘zbekiston ma’muriy jihatdan Qoraqalpog‘iston Respublikasi va Andijon, Buxoro, Jizzax, Navoiy, Qashqadaryo Namangan, Samarqand, Sirdaryo, Surxondaryo, Toshkent, Farg‘ona, Xorazm, viloyatlaridan va Toshkent shahridan iborat ma’muriy hududlarga bo‘lingan. O‘zbekiston poytaxti – Toshkent shahri (aholisi 3 millionga yaqin).

O‘zbekiston xalq xo‘jaligida ilg‘or texnika bilan qurollangan sanoatning yuzdan ziyod tarmoq va sohasi mavjud. Muhim strategik xomashyo – paxta va undan qayta ishlangan mahsulotlarning eksporti bo‘yicha Markaziy Osiyoda birinchi va jahonda ikkinchi o‘rinni egallaydi. O‘zbekiston ko‘pgina boshqa mahsulotlarni ham eksport qilish imkoniyatiga ega bo‘lib bormoqda. O‘zbekistonning har bir qarichi oltinga teng. Nodir qazilma boyliklarning ishga solinishi mamlakatning jahon bozoriga chiqishini ta’minlaydigan yangi sanoat tarmoqlarini, masalan, avtomobilsozlikni yaratish imkonini bermoqda.

O‘zbekiston o‘zining boy o‘tmishi, tarixiy va ko‘hna madaniyatiga ega.

O‘zbekiston hududi Markaziy Osiyoda bundan 500-700 ming yil ilgari odamzod paydo bo‘lgan joylar sirasiga kiradi. Selung‘urda

topilgan "Farg'ontrop" (Farg'ona odami) bunga misol. Miloddan avvalgi VII asr - milodiy IV asrlar davomida tarixiy madaniy o'lkalar - Xorazm, Sug'd, Baqtriya va boshqa davlatlar shakllangan. Bu davlatlar harbiy-demokratik tuzilishga ega bo'lganlar. Markaziy Osiyoda saklar, massagetlar, sug'dliklar, baqtriyaliklar singari xalq va qavmlar yashagan. O'zbekiston o'tmishda Movarounnahr, Turonzamin, Turkiston nomlari bilan mashhur bo'lib kelgan.

Mustaqillik uchun kurashgan To'maris, Shiroq, Spitamen, Muqanna, Torobiy kabi ko'plab xalq qahramonlari tarixdan ma'lum.

O'zbekiston Amir Temur, Imom al-Buxoriy, Imom at-Termiziy, al-Xorazmiy, Ahmad Farg'oniy, Abu Rayhon Beruniy, Ibn Sino, Zamaxshariy, Forobiy, Ahmad Yassaviy, Alisher Navoiy, Mirzo Ulug'bek, Zahiriddin Muhammad Bobur singari buyuk siymolar yashagan tabarruk zamindir.

Xususan, Sohibqiron Amir Temur Markaziy Osiyo, O'rta va Yaqin Sharq mamlakatlarining kattagina qismini birlashtirdi. Amir Temur barpo etgan buyuk davlat ilm-fan, madaniyat va ma'rifatning behad ravnaqini ta'minladi. Hozirgi kunda turli dinga mansub 130dan ortiq millat va elat vakillari bu diyordan makon topgan (ularning 80,0 foizi o'zbeklar, 4,0 foizi ruslar, 5,2 foizi tojiklar, 4,5 foizi qozoqlar, 1,7 foizi qoraqalpoqlar).

Mustaqillik O'zbekistonning siyosiy tizimida jiddiy o'zgarishlarga olib keldi. Mamlakatimiz tarixida birinchi bor muqobillik asosida Prezident saylandi. O'zbekiston Respublikasining yuksak demokratik talablariga monand Asosiy qonuni - birinchi Konstitutsiyasi va shu asosda ko'pdan-ko'p qonunlar qabul qilindi.

Eng muhimi - O'zbekiston iqtisodiyotida bosqichma-bosqich tub islohotlar o'tkazilmoqda. Inson ma'naviyati, yuksak axloq va madaniyatimizning yangi qatlamlari ochildi, milliy an'analar tiklandi. Ma'naviy merosimiz durdonalari ona tilimizda va boshqa tillarda ko'plab nashr etila boshladi.

O'zbekiston jahon sahniga chiqdi. O'zbekiston ko'plab mamlakatlar bilan diplomatik aloqa o'rnatdi.

O'zbekiston Birlashgan Millatlar Tashkiloti, Yevropada Xavfsizlik va hamkorlik tashkiloti kabi o'nlab nufuzli xalqaro tashkilotlarga a'zo bo'ldi.

O‘zbekiston o‘z davlat ramzlari - bayrog‘i, gerbi, madhiyasi, poytaxtiga ega. O‘zbekiston tarkibida suveren Qoraqalpog‘iston Respublikasi mavjud.

Endilikda O‘zbekiston siyosiy va iqtisodiy mustaqilligi barqaror, suveren, demokratik respublikadir.

1-topshiriq:

a) matnni o‘qing, matn mazmunini to‘liq tinglab tushuning;

b) matndagi tayanch so‘z va iboralarni ajratib yozing;

d) matndagi asosiy fikrni yozma ravishda ifodalang.

2-topshiriq. Quyidagi tayanch so‘zlarni yod oling:

Ma’muriy [boshqaruvga, ma’muriyatga aloqador] - ma’muriyatga doir. Ma’muriyat yo‘li bilan amalga oshiriladigan. *Ma’muriy hudud.*

Viloyat [chekka joy, o‘lka] - mamlakatning bir va undan ortiq shaharlarini o‘z ichiga oladigan yirik ma’muriy-hududiy bo‘linma. *O‘zbekistonning 12 viloyati.*

Hudud - ma’lum chek-chegaraga ega bo‘lgan, chegara bilan o‘ralgan yer; ma’lum davlat, viloyatga tegishli bo‘lgan yer, maydon. *O‘zbekiston hududi.*

Sanoat [ishlab chiqarish] - xalq xo‘jaligining xomashyoni qayta ishlash, yer osti boyliklarini qazib olish, ishlab chiqarish vositalarini va keng iste’mol mollarini yaratish. *Yengil sanoat. Oziq-ovqat sanoati.*

Soha - inson faoliyati, ilm-fan, madaniyat va boshqalarning har bir tarmog‘i. *Sanoat sohalari. Qishloq xo‘jaligining yetakchi sohalari.*

Mahsulot - ishlab chiqarilgan narsa. *Yalpi mahsulot.*

Intellektual mahsulot - ma’naviyat, ilm-fan, texnika sohasidagi izlanishlarning natijalari, adabiyot va san’at asarlari majmui.

Eksport - [*ingl.* export < *lot.* exportare - chetga (tashqi bozorga) chiqarmoq] - sotish yoki boshqa maqsadlarda chet ellarga

mol yoki kapital chiqarish. *O'zbekiston ko'pgina mahsulotlarni eksport qilish imkoniyatiga ega.*

Demokratik - demokratiya tamoyillariga asoslangan, demokratiyani amalga oshiruvchi. *Demokratik davlat.*

Ma'rifat - [bilim, fan; ma'lumot] - ta'lim-tarbiya, iqtisodiy, siyosiy, diniy, falsafiy g'oyalar asosida kishilarning ong va bilimini, madaniyatini oshirishga qaratilgan faoliyat. *Amir Temur barpo etgan buyuk davlat ilm-fan, madaniyat va ma'rifatning behad ravnaqini ta'minladi.*

Parlament - [*fr.* parlement - rasmiy so'zlashish joyi < parler - gapirmoq, so'zlamoq] - demokratik mamlakatlarda butunlay yoki asosan saylov asosida tuziladigan oliy vakillik va qonunchilik organi. *Mustaqil O'zbekistonning parlamenti - Oliy Majlis.*

Partiya - [*fr.* parti <*lot.* pars, partis - bo'lak, qism; guruh] - g'oyaviy jihatdan maslakdosh, manfaatlari mushtarak bo'lgan kishilar guruhidan iborat, muayyan ijtimoiy guruh yoki qatlamlarning manfaatlarini ifodalovchi va himoya qiluvchi siyosiy tashkilot. *Xalq demokratik partiyasi.*

Diplomatik - 1. Davlatning chet mamlakatlar bilan bo'ladigan rasmiy munosabatlari va diplomatiyaga oid. *Diplomatik munosabat.* 2. Diplomatlarga, ya'ni elchilarga oid. *Diplomatik vakolat.*

Suveren [*fr.* souverain - oliy; suverenitetga, mustaqillikka ega bo'lgan; erkin, hur; mustaqil] - xalqaro huquq, mustaqil oliy hokimiyat egasi. *O'zbekiston siyosiy va iqtisodiy mustaqilligi barqaror, suveren, demokratik respublikadir.*

Burch - ado etilishi, bajarilishi majburiy bo'lgan vazifa; majburiyat. *Vatanparvarlik burchi.*

3-topshiriq. Vatan haqidagi she'rlardan namunalar yod oling.

TAVALLO

Oq yo'rgakka o'ragansan o'zing bizni,
Ham oq yuvib-taragansan o'zing bizni.
Beshigimiz uzra bedor ona bo'lib,
Kunimizga yaragansan o'zing bizni.

Fidoying bo‘lgaymiz seni, O‘zbekiston,
Hech kimga bermaymiz seni, O‘zbekiston!..

Qalqoning bor, kim qasd qilsa gar joningga,
Alpomishlar ruhi yor har o‘g‘loningga.
Asragaymiz giyohing ham gulday o‘pib,
Yovlar yaqin yo‘lolmagay qo‘rg‘oningga.
Adoying bo‘lgaymiz seni, O‘zbekiston,
Hech kimga bermaymiz seni, O‘zbekiston.

Tuzing totib, unutganlar xor bo‘ladi,
Ko‘zlariga ikki dunyo tor bo‘ladi.
Shodon daming ko‘rolmagan yurtfurushlar
Bir kun bir kaft qumlog‘ingga zor bo‘ladi.
Yoningda turgaymiz seni, O‘zbekiston,
Hech kimga bermaymiz seni, O‘zbekiston!..

Gul ko‘ringan dashtingdagi giyoh-xasdir,
Soddadilu ulug‘vorlik senga xosdir.
Sevamizki, cho‘llaring ham bizga jannat,
Tuprog‘ing ham Makka misol muqaddasdir.
Onadek ko‘rgaymiz seni, O‘zbekiston,
Hech kimga bermaymiz seni, O‘zbekiston!

Muhammad Yusuf

GRAMMATIKA

Orfoepiya qoidalari. O‘zbek tilida tovushlar talaffuzi.

Nutqning xarakteriga ko‘ra, adabiy talaffuzni 2 guruhga ajratish mumkin: to‘liq talaffuz; qisqargan talaffuz; ma’ruzachilar, aktyorlar, diktorlar nutqi to‘liq talaffuzni aks ettiradi, chunki bunda har bir so‘z, uning morfemalari adabiy til qoidasiga mos ravishda to‘la, aniq, dona-dona talaffuz qilinadi.

So‘zlovchi o‘z nutqiga beparvo qarashi orqasida, o‘z shevasi ta’sirida ayrim fonemalar turli o‘zgarishlarga duch keladi, so‘zning

ba'zi birliklari qisqaradi. Masalan, olib keldi — obkeldi; olib bordi — obbordi. Bu qisqargan talaffuzdir.

Orfoepiya orfografiya bilan zich bog'langan. Biroq so'zning yoki so'z shakllarining jonli talaffuzi hamma vaqt ham ularning yozuvdagi ifodasiga teng bo'lavermaydi. Jumladan, yozuvda bor ba'zi tovushlar talaffuzda sezilmaydi: biroq, bilan, tuhmatchi, adabiyotchi kabi; yozuvda berilgan tovushlar talaffuzda tushib qoladi: badbax, ayol-man, abstrak, Samarqan kabi; yozuvda ifodalangan tovush talaffuzda boshqasi bilan almashtiriladi: obod-obot, kitob-kitop, peshvoz-peshvos kabi. Talaffuzdagi ana shu murakkab tomonlarni hisobga olgan holda yagona orfoepik qoidalar yaratish lozim bo'ladi.

4-topshiriq. Nuqtalar o'rniga **u** yoki **o'** harflaridan mosini qo'yib, so'zlarni ko'chiring va tarjima qiling.


...zak	k...z	...pka	...simlik	b...zoq
...zbek	k...z	q...sh	...tkir	d...st
...zoq	s...z	q...sh	...loq	...ch
...zuk	s...z	...rmon	b...taloq	...ch
...zum	...ng	...lug'	t...rt	t...rmush
...yin	...n	...mid	t...rt	q...ruq
...yinchoq	...n	...nvon	...g'il	q...m
...y	...roq	t...n	t...g'ri	t...g'ri
...y	...rtoq	t...n	m...shuk	q...shiq
...yqu	k...l	...nli	q...l	...zun
...lka	k...l	...rg'u	q...l	...tin
s...r	k...r	z...r	t...r	q...r

5-topshiriq. Nuqtalar o'rniga **i** yoki **u** harflaridan mosini qo'yib ko'chiring.

tuz...m	yoz...sh	bul...t	ko'r...k	...t
kum...sh	to'q...v	bo'y...n	o'r...k	ur...g'
mud...r	yoz...v	to'lq...n	ko'ng...l	o'r...n
mumk...n	to'q...moq	uchq...n	huq...q	qosh...q
o'r...n	bo'l...m	bur...n	ho'k...z	but...n

6-topshiriq. FSMU jadvalini to'ldiring.

O'zbekiston jahondagi eng rivojlangan davlatlar orasidan munosib o'rin egallashi uchun qanday tadbirlarni amalga oshirishi kerak.



7-topshiriq. Matndan foydalanib "Men nechun sevaman O'zbekistonni" mavzusida insho yozing.

8-topshiriq. Savollarga javob bering.

1. O'zbekiston jahonga qanday mahsulotlar eksport qiladi?
2. O'zbekiston paxta yetishtirish bo'yicha dunyoda nechinchi o'rinda turadi?
3. O'zbekistonda qanday tabiiy boyliklar bor?
4. O'zbekistonning yengil sanoati haqida nimalar bilasiz?
5. O'zbekiston Respublikasining qanday Davlat ramzlari bor?
6. Davlat madhiyasining muallifi kim?
7. Davlat madhiyasining musiqasini kim bastalagan?
8. O'zbekiston Davlat bayrog'i qachon qabul qilingan?
9. Davlat gerbi qachon qabul qilingan?
10. Milliy valyuta qachon kuchga kirgan?
11. Vatan deganda nimani tushunasiz?
12. Vatanga muhabbat qanday namoyon bo'ladi?
13. Vatan uchun, Mustaqillik uchun kurashgan shaxslardan kimlarni bilasiz?
14. Fuqarolik burchi nima?
15. Vatanparvarlik burchi qanday namoyon bo'ladi?
16. Mashhur sarkardalardan kimlarni bilasiz?

9-topshiriq.

Respublika baynalmilal madaniyat markazi haqida qisqa ma'lumot tayyorlang.

Eslab qoling!

Vatanga mehr-muhabbatli bo'lish - g'oyat chidam, g'oyat yuksak ong talab etuvchi o'ziga xos ilm. Buni egallash ham beshikdan boshlanmog'i va oqibat so'nggi nafasga qadar davom etmog'i joiz. Vatanparvarlik - Vatanni sevmoqlikni anglatsa, bu ilmni egallagan kishi Vatanga jonini atagan komil inson martabasiga yetgan bo'ladi.

Vatandan olganimiz - qarz, qarzni esa qaytarmoq farz. Biz, har birimiz, Vatanni sevamiz, chunki Vatan - biz nafas olayotgan havodir.

10-topshiriq. B/B/B jadvalini to'ldiring.

Matnni belgilash tizimi

(v) -Bilaman (-) - Bilishni xohlayman (+) - Bilib oldim

Tushunchalar	V	-	+
O'zbekiston Respublikasining Davlat ramzlari			
O'zbekiston iqtisodi			
O'zbekiston Qurolli kuchlari			
O'zbekiston tabiiy boyliklari			

11-topshiriq. Berilgan so'zlarni to'g'ri joylashtirib gap tuzing.

a) mustaqillik, O'zbekiston, xalq, uchun, ahamiyat, ega, muhim, juda;

b) shahar va qishloqlar, O'zbekiston, chiroy, ochmoq, kundan-kunga;

d) O'zbekiston, bo'lmoq, a'zo, BMT, tan olmoq 180dan ortiq davlat;

e) O'zbekiston, yoshlar, o'z, yurt, asrab-avaylamoq, xalqini;

f) mustaqillik maydoni, o'zbekistonliklar, mehmonlar, va, katta, bilan, bayram qilmoq, shodiyonalar.

O'zbekiston Qurolli Kuchlari

O'zbekiston Qurolli Kuchlari - harbiy birlashmalar, qo'shilmalar, qismlar hamda tuzilmalardan iborat bo'lib, ular davlat tomonidan tashkil qilinadi va ta'minlanadi. O'zbekiston Qurolli kuchlarining vazifasi - urush va qurolli tajovuzlarning oldini olish, O'zbekiston Respublikasining davlat suverenitetini va hududiy yaxlitligini, O'zbekiston fuqarolarining tinchligi va xavfsizligini ta'minlashdan iborat. 1992-yil 14-yanvarda O'zbekiston hududida joylashgan barcha harbiy qismlar, qo'shilmalar, harbiy o'quv yurtlari, harbiy sohaga tegishli muassasalar va tashkilotlar, boshqa harbiy tuzilmalar hamda ularning moddiy-texnikaviy va moliyaviy ta'minoti O'zbekiston Respublikasi tasarrufiga o'tkazildi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida O'zbekiston Qurolli Kuchlarining maqomi, asosiy vazifalari va faoliyat doirasi belgilanib, ularning huquqiy zamini mustahkamlangan. O'zbekiston Respublikasining 1993-yil 29-dekabrdagi Qonuniga muvofiq, har yilning 14-yanvarida "Vatan himoyachilari kuni" nishonlanadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1992-yil 20-fevralda imzo chekkan Farmoniga binoan, O'zbekiston Respublikasi ixtiyoridagi harbiy qismlarga rahbarlik qilish O'zbekiston Respublikasi Mudofaa ishlari bo'yicha vazirligiga topshirildi. 1992-yil 3-iyulda O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi tomonidan "Mudofaa to'g'risida"gi Qonun qabul qilinib, Mudofaa ishlari bo'yicha vazirlik Mudofaa vazirligiga aylantirildi. 2001-yil 11-mayda bu Qonun Oliy Majlis tomonidan yangi tahrirda tasdiqlanib, mudofaani tashkil qilishning asosiy yo'nalishlari belgilab berildi.

O'zbekiston Qurolli Kuchlari Quruqlikdagi qo'shinlar, Havo hujumidan mudofaa qo'shinlari, Harbiy havo kuchlari, Maxsus

qo'shinlar, Chegara qo'shinlari, Ichki ishlar vazirligining ichki qo'shinlari, Milliy xavfsizlik xizmatining harbiy tuzilmalari, Favqulodda vaziyatlar vazirligi, shuningdek, boshqa vazirliklar, muassasalar va boshqarmalar harbiy tuzilmalaridan tashkil topgan. O'zbekiston Respublikasining Prezidenti - Qurolli Kuchlarning Oliy Bosh Qo'mondoni. Uning rahbarligida Vazirlar Mahkamasi, Mudofaa vazirligi, O'zbekiston Qurolli Kuchlarining birlashgan shtabi ish olib boradi. O'zbekiston hududi harbiy okruglarga bo'lingan.

Yuksak malakali harbiy kadrlar tayyorlash maqsadida Toshkentda Qurolli Kuchlar akademiyasi va Oliy umumqo'shin qo'mondonlik bilim yurti, Chirchiqda Oliy tank qo'mondonlik-muhandislik bilim yurti, Samarqandda Oliy harbiy avtomobil qo'mondonlik-muhandislik bilim yurti, Toshkent Axborot texnologiyalari universiteti qoshida maxsus fakultet, Chirchiq, Samarqand, Namangan va Qarshi shaharlarida serjantlar tayyorlash maktablari ishlab turibdi.

12-topshiriq:

a) matnni o'qing;

b) matnni rus tiliga tarjima qiling;

d) matn yuzasidan savollar tuzing;

e) matnni reja asosida gapirib bering, nutqingizda tovushlar talaffuziga ahamiyat bering.

13-topshiriq. Quyidagi tayanch so'zlarni yod oling.

Qurolli - urush, jang qurol-yarog'lari bilan ta'minlangan; qurol tutgan. *Qurolli kishi.*

Qurolli kuchlar - harbiy harakatlar (hujum yoki mudofaa) olib borish hamda davlat xavfsizligini saqlash maqsadida davlat tomonidan ta'minlanuvchi qurollangan kishilarning uyushgan birlashmasi; harbiy qismlar, armiya. *O'zbekiston Qurolli Kuchlari.*

Mudofaa - [himoya qilish; himoya, to'siq] - jangovar harakatning dushman kuchlari hujumini qaytarish, ularga jiddiy talafot

yetkazish, pozitsiyani qo'lda tutib turish va hujumga o'tish uchun qulay sharoit yaratish maqsadida qo'llanadigan bir turi. *Dushman mudofaasi.* 2. Dushmandan saqlanish, o'zini himoya qilish uchun zarur bo'lgan yoki hozirlangan vosita va choralar majmui. *Mamlakatning mudofaasini kuchaytirish.*

Vazirlik - rivojlangan davlatlarda alohida bir sohada rahbarlik qiladigan ijrochi organ. O'zbekiston Respublikasida davlatning markaziy boshqaruv organi, davlat mahkamasining muhim qismi. *Mudofaa Vazirligi.*

Boshqarma - davlat boshqaruvi tizimida biror yirik tarmoq yoki xo'jalik sohasida yuqori (oliy) yoki o'rta bo'g'indagi idora, tashkilot. *Markaziy bankning viloyat boshqarmasi.*

Serjant - [*fr.*sergent<*dot.*serviens - xizmatchi] - militsiya, politsiya va armiyada kichik komandirlarga beriladigan unvon va shu unvonga ega bo'lgan shaxs. *Kichik serjant.*

Kontrakt - [lot. contractus - bitim, kelishuv] - tomonlarning huquq va majburiyatlari ko'rsatilgan holda tuzilgan ikki yoki ko'p tomonlama shartnoma, bitim. *Kontrakt bo'yicha harbiy xizmat.*

Ofitser - [*nem.* offizier <*lot.* officiarius - mansabdor shaxc< officium - ish, xizmat] - qurolli kuchlar, politsiya va jandarmeriyaning komandirlar tarkibidagi harbiy xizmatchisi. *Aloqa ofitseri.*

Okrug - [*r.* okrug - tevarak, atrof <окружать - "qurshab olmoq; atrofini o'ramoq" fl.dan] - ba'zi davlatlarda ma'muriy hududiy birlik. 2. Yirik hududiy harbiy birlashma, bo'linma. *O'zbekiston hududi harbiy okruglarga bo'lingan.*

Shtab - [*nem.* stab - podsholik alomati bo'lgan aso, hassa; harbiy qarorgoh] - harbiy qismlarni boshqaruvchi asosiy organ. *Bosh shtab.*

14-topshiriq. Matndan foydalanib yoshlarning majburiy harbiy xizmatni bajarish burchi haqida dialog tuzing. Nutqingizdagi orfoepiya qoidalari buzilgan jihatlarga ahamiyat bering.

15-topshiriq. O'zbekiston Qurolli Kuchlari haqida taqdimot tayyorlang.

16-topshiriq. She'rni yod oling.

VATANIM

Men dunyoni nima qildim,
O'zing yorug' jahonim,
O'zim xoqon,
O'zim sulton,
Sen taxti Sulaymonim,
Yolg'izim,
Yagonam deymi,
Topingan koshonam deymi,
O'zing mening ulug'lardan
Ulug'imsan, Vatanim...

Shodon kunim gul otgan sen,
Chechak otgan izimga,
Nolon kunim yupatgan sen,
Yuzing bosib yuzimga.
Singlim deymi,
Onam deymi,
Hamdardu hamxonam deymi,
Oftobdan ham o'zing mehri –
Ilig'imsan, Vatanim.

Sen Mashrabsan,
Xalqda tumor,
Balxda dorga osilgan,
Navoiysan, shoh yonida
Faqirini duo qilgan.
Yassaviysan, meniki deb,
Ko'ringan da'vo qilgan,
Ming bir yog'i ochilmagan
Qo'rig'imsan, Vatanim.

Sen Ho‘jandsan,
Chingizlarga
Darvozasin ochmagan,
Temur Malik orqasidan
Sirdaryoga sakragan,
Muqannasan qorachig‘i
Olovlarga sachragan,
Shiroqlarni ko‘rgan cho‘pon
Cho‘lig‘imsan, Vatanim.

Kim Qashqarni qildi makon,
Kim Enasoy tomonda,
Jaloliddin – Qurdistonda,
Boburing – Hindistonda,
Bu qanday yuz qarolig‘ deb
Yotarlar zimistonda,
Tarqab ketgan to‘qson olti
Urug‘imsan, Vatanim…

O‘g‘lim desang osmonlarga
G‘irot bo‘lib uchgayman,
Chambil yurtda Alpomishga
Navkar bo‘lib tushgayman,
Padarkushdan pana qilib
Ulug‘beging quchgayman,
G‘ichir-g‘ichir tishimdagi
So‘lig‘imsan, Vatanim…

O‘tgan kuning – o‘tgan kundir,
O‘z boshingga yetgan kun,
Qodiriyni bergan zamin,
Qodiriyni sotgan kun.
Qo‘lin bog‘lab,
Dilin dog‘lab,

Yetaklashib ketgan kun,

Voh bolam! deb aytolmagan
Dudug‘imsan, Vatanim.

Yoningda qon yig‘lagan bir
Shoiringga qarab qo‘y,
Gar Qo‘qonga yo‘ling tushsa,
Detdomlarni so‘rab qo‘y.
Hech bo‘lmasa Usmon xokin
Keltirmoqqa yarab qo‘y,
Olislarda qurib qolgan
Qudug‘imsan, Vatanim…

Sen – shoxlari osmonlarga
Tegib turgan chinorim,
Ota desam,
O‘glim deb,
Bosh egib turgan chinorim,
Qo‘ynimdagi iftixorim,
Bo‘ynimdagi tumorim,
O‘zing mening ulug‘lardan
Ulug‘imsan, VATANIM !

Muhammad Yusuf

17-topshiriq. Matnni o‘zbek tiliga tarjima qiling.

Многонациональный Узбекистан

Сегодня в Узбекистане работает более 100 (ста) национальных культурных центров, что дает возможность каждому гражданину Узбекистана – русскому и украинцу, туркмену и белорусу, корейцу и еврею – изучать самобытную культуру разных народов, а также развивать свои национальные традиции, обычаи. По инициативе и при участии активистов Центров в городах и районах Республики постоянно проводятся

SAMARQAND IQTISODIYOT VA SERVIS INSTITUTI
AXBOROT RESURS MARKAZI
№ 60610

музыкальные национальные праздники, фестивали, Дни культуры и искусства, различные выставки. Стало традицией проводить в Узбекистане Фестиваль творчества народов Узбекистана, Праздник славянской письменности, проведение русским культурным центром Пушкинских дней, Есенинских чтений, Вечеров русской поэзии. Республиканский украинский культурный центр регулярно проводит вечера «В доброй хате», где исполняются украинские песни и танцы, можно приготовить и попробовать украинские национальные блюда. Много людей приходит на вечера белорусской культуры «Сиреневые зори», на национальные праздники с участием представителей татарского, корейского, польского, уйгурского, немецкого, еврейского народов, живущих в нашей стране.

2-MAVZU. O‘ZBEK TILI – DAVLAT TILI

Ma’lumki, o‘zlikni anglash, milliy ong va tafakkurning ifodasi, avlodlar o‘rtasidagi ruhiy-ma’naviy bog‘liqlik til orqali namoyon bo‘ladi. Jamiki ezgu fazilatlar inson qalbiga, avvalo, ona allasi, ona tilining betakror jozibasi bilan singadi. Ona tili - bu millatning ruhidir.

Islom Karimov

O‘zbekiston Respublikasining Davlat tili haqidagi (yangi tahrirda) qonuni 24 ta moddadan iborat.

1-modda. O‘zbekiston Respublikasining Davlat tili o‘zbek tilidir.

2-modda. O‘zbek tiliga Davlat tili maqomining berilishi respublika hududida yashovchi millat va elatlarning o‘z ona tilini qo‘llashdan iborat Konstitutsiyaviy huquqlariga monelik qilmaydi.

10-modda. Korxonalar, muassasalar, tashkilotlar va jamoat birlashmalarida ish yuritish, hisob-kitob, statistika va moliya hujjatlari - Davlat tilida yuritiladi.

O‘zbek tili, o‘zbek alifbosi va imlosi

O‘zbek tili O‘zbekiston Respublikasining davlat tilidir. Vatanimizdagi 33 millionga yaqin xalq o‘zbek tilini ona tilim deydi. Bundan tashqari o‘zbek tili Saudiya Arabistonida, Turkiyada, AQShda, Afg‘oniston, Qoshg‘ar hamda bir qancha boshqa davlatlarda yashovchi o‘zbeklarning ham ona tilidir.

O‘zbek (turkiy) tili qadimiy tillardandir. Dastlabki yozma yodnomalar VI-VII asrlarga oid O‘rxun-Enasoy yozuvlarida uchraydi.

X-XI asrlardan boshlab o‘zbek (turkiy) tilida yirik asarlar yaratila boshlandi. Jumladan, Mahmud Qoshg‘ariyning “Devonu lug‘atit turk”, Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig”, Ahmad Yugnakiyning “Hibbatul haqoyiq” asarlari.

Ahmad Yassaviy, Rabg'uziy, Lutfiy, Sakkokiy, Xorazmiylar turk (o'zbek) tilining rivojlanishida katta xizmat qildilar. Turk tilining rivojida Alisher Navoiyning o'rni beqiyosdir. Alisher Navoiy o'zbek tilini ham nazariy, ham amaliy jihatdan barqaror etdi.

1920-yillardan boshlab, maktab-maorif sohasida madaniyat va adabiyotda o'zgarishlar ro'y berdi. Adabiyotimizga yangi yorqin iste'dodlar kirib keldi. O'zbek tilining lug'at tarkibi boyidi, grammatik qurilishi aniqlasha bordi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi 1989-yil 21-oktyabrdagi sessiyasi o'zbek tiliga davlat tili maqomini berdi, O'zbekiston Respublikasining Davlat tili deb e'lon qilindi.

O'zbekiston Respublikasi davlat hokimiyati va boshqaruv organlari faoliyatida qurultoy, sessiya, konferensiya, majlis va kengashlar respublika davlat tilida olib boriladi va aynan tarjimasi ta'minlanadi. Bu o'zbek xalqining siyosiy va madaniy hayotidagi eng yirik va muhim voqealardan biri bo'ldi.

1992-yil 2-sentyabrda O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining o'n uchinchi sessiyasida "Lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosini joriy qilish to'g'risida" O'zbekiston Respublikasining qonuni qabul qilindi.

1-topshiriq:

a) matnni o'qing;

b) matnni rus tiliga tarjima qiling;

d) matn asosida savollar tuzing;

e) matndagi asosiy fikrni ajratib gapirib bering.

2-topshiriq. Quyidagi tayanch so'zlarni yod oling:

Imlo - [yozish, to'g'ri yozish] - yozuv, yozuvga, to'g'ri yozuvga oid; imloviy. *Imlo qoidalari. Imlo xatolari.*

Devon - [she'rlar to'plami] - muayyan bir shoirning radif va qofiyalarga rioya etgan holda alifbo sirasi bilan tartib etilgan she'rlarining to'liq to'plami. *Navoiy devoni.*

Boshqaruv - davlatni idora qilish usuli. *Prezidentlik boshqaruvi.*

Davlat - [mamlakat] - o‘z fuqarolarining ijtimoiy-siyosiy huquqlarini himoya qiluvchi, bunga qarshi turuvchi kuchlarning qarshiligini sindiruvchi hokimiyat organlari va siyosiy tashkilotlari tizimiga ega bo‘lgan mustaqil mamlakat. *O‘zbekiston davlati.*

Ona tili - bolaning go‘daklikdan kattalarga taqlid qilib o‘rgangan tili, tug‘ma til (odatda gapiruvchi shaxs mansub bo‘lgan xalq tili). *Ona tilim.*

Madaniy - [shaharlik; madinalik] - madaniyatga oid, madaniyat, ilm-ma’rifat bilan bog‘liq, madaniyatni egallagan; madaniyatga erishgan, madaniyat talablariga javob beradigan. *Madaniy meros.*

Alifbo - [Arab alifbosi boshidagi 1-va 2-harf (*alif* va *bo)* nomidan] - biror til yozuv shakllarining (harf va belgilarining) ma’lum tartibda joylashgan majmui. *O‘zbek alifbosi.*

Amaliy - kishining kundalik faoliyatiga oid. 2. Bevosita amalga oshiriladigan, amalda ko‘riladigan, qilinadigan. 3. Amalda tatbiq etiladigan, tajribada qo‘llanadigan. *Amaliy natijalar.*

Yozuv, yozmoq - muayyan bir tilda qabul qilingan yozma belgilar yoki tasvirlar tizimi. *Arab yozuvi.* 2. Grafik belgilarning tasviri, harflar. Yozilgan narsa, matn, xat.

Yozma - xat, yozuv vositasida ifodalangan, yozilgan. *Yozma ma’lumot.*

Nazariy - [mushohadaga asoslangan, mavhum, fikriy] - nazariyaga oid, nazariya masalalariga bog‘liq bo‘lgan, nazariyaga asoslangan. Biror sohaning nazariyasi bilan shug‘ullanadigan. *Nazariy tadqiqotlar.*

Lug‘at - [so‘z, ibora] - biror tildagi so‘zlarni ma’lum tartibda (odatda alifbo tartibida) jamlab, izohlab yoki boshqa tilga tarjima qilib berilgan kitob. *O‘zbekcha-ruscha lug‘at.* 2. So‘z; tildagi barcha so‘zlar majmui; so‘z boyligi. *O‘zbek tili lug‘at boyligi.*

Xalqimizning yozuvlari

Arab yozuvlari miloddan o‘rta hisob bilan ming yil muqaddam ma’lum bo‘lgan. Miloddan avvalgi birinchi ming yillikning boshlaridan to milodimizning VII asrigacha, ya’ni arablar istilosigacha, xalqimiz runik yozuvidan keng foydalangan. Arab istilosigacha va

undan keyin ancha vaqtgacha O‘rxun-Enasoy, Avesto, Sug‘d, Qadimgi Xorazm, Qadimiy uyg‘ur yozuvlaridan keng foydalanilgan. Jumladan, Avesto yozuvida zardushtiylik dinining 27 jilddan iborat muqaddas kitobi, o‘z davrining haqiqiy ensiklopediyasi hisoblangan “Avesto” bitilgan. 2001-yilda YUNESKO qarori bo‘yicha butun dunyo bo‘ylab “Avesto”ning 2700 yilligi nishonlandi. Yuqorida sanab o‘tilgan har bir yozuvda ko‘plab badiiy, falsafiy mazmunda yaratilgan, qadimiy rivojlangan davlatlar madaniyati o‘z ifodasini topgan. Afsuski, bu asarlar, ular saqlangan kutubxonalar arab istilochilari tomonidan shafqatsiz yo‘q qilingan. Lekin, xalq ongida va amaliy hayotida arab istilosigacha mavjud bo‘lgan yozuvlardan foydalanish odati qisman XVI asrgacha saqlangan.

Xalqimizning arab istilosigacha bo‘lgan yozuvlari tarixini o‘rganish, ularning alifbo tizimi bilan ommani tanishtirish, shu yozuvlarda yaratilgan asarlarni topish va nashr etish, shu asosda millatimiz dunyoqarashini kengaytirish, tariximizning barcha ma’naviy boyliklaridan xabardor qilish mustaqillikni mustahkamlashning shartlaridan biridir.

3-topshiriq:

a) matnni o‘qing, matn mazmunini so‘zlab bering;

b) matn yuzasidan savollar tuzing.

Eslab qoling!

O‘zbek tilida gapning odatdagi tartibida avval ega, gap oxirida kesim, ular bilan bog‘langan ikkinchi darajali bo‘laklar ularning orasida keladi.

Bu turfa olam

Alisher Navoiy o‘z davrida tilshunoslik fanining rivojlanishida juda katta xizmat qildi.

Navoiyning fikricha, til inson ruhiy faoliyatining natijasidir. Har bir jonivor ovoz chiqara oladi, lekin inson nutqining asosiy maqsadi

- biror ma'noni ifodalashdan iborat. Inson aqlu zakovatigina so'z orqali muloqot qilishga qodirdir.

Navoiy xorijiy tilni bilish inson uchun juda foydali ekanligini tashviqot qilgan, o'zi fors va arab tillarini mukammal bilgan. Xalqparvar bobomiz turkiy tilning jamiyatdagi mavqeini tiklash, mamlakatda tillar teng huquqligini amalga oshirish uchun g'amxo'rlik qildi.

Eslatma. Ma'lumki, o'zbek va tojik xalqlari asrlar davomida bir hududda yashab, bir xil tarixiy sharoitda turmush kechirganlar. Buning natijasida tojik va o'zbek tillari bir-birini boyitgan: o'zbek tili lug'atiga ***barg, korxona, chamadon*** kabi ko'pgina tojikcha so'zlar o'tgan; ***qaymoq, qayroq, qanor, yurt*** kabi ko'pgina o'zbekcha so'zlar tojik tili lug'atiga qo'shilgan. Shunday bo'lishiga qaramay, o'zbek va tojik tillarining fonetikasi va grammatik qurilishi bir-biriga o'xshamaydi. Buning sababi bu ikki tilning ikki xil til oilasiga mansubligidir; o'zbek tili oltoy tillar oilasining turkiy turkumiga, tojik tili esa hind-yevropa tillari oilasining eron turkumiga kiradi.

Rus tili

Rus tili hind-yevropa tillari oilasiga mansub bo'lib, slavyan tillari turkumiga kiradi. Rus tili qadimgi slavyan tili negizida XI asrda mustaqil til sifatida shakllangan. "Injil", "Igor lashkari jangnomasi" va boshqa kitoblar qadimgi slavyan tilida yozilgan edi.

Qadimgi slavyan tilining o'z yozuvi bo'lgan. Bu yozuvni bolgar olimlari aka-uka Kirill va Mefodiy yaratganlar. Rus alifbosi hozirgi shakliga XVIII asrning boshida kirgan.

Rus tili rus xalqining milliy tili. Shuningdek, Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi mamlakatlari xalqlarining o'zaro muomala vositasidir. Bundan tashqari, rus tili xalqaro tillardan biridir. Uning jahonshumul ahamiyati rasmiy ravishda tan olingan: barcha qit'alardagi hamma davlatlar o'zaro turli shartnoma va bitimlarni faqat olti tilda, ya'ni ingliz, fransuz, rus, ispan, arab va xitoy tillarida tuzadilar.

4-topshiriq. "Men o'zbek tilini o'rganayapman" mavzusida suhbat qiling.

GRAMMATIKA. Imlo qoidalari

O'zR Oliy Majlisi 1995-yil 6-mayda "Lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosini joriy etish to'g'risida"gi Qonunga o'zgartirishlar kiritish haqida qaror qabul qildi. Qarorga binoan, lotin yozuviga asoslangan yangi o'zbek alifbosi 26 harf va 3 harflar birikmasidan iborat etib belgilandi.

Yangi alifbo asosida O'zR Vazirlar Mahkamasining 1995-yil 24-avgustdagi 339-sonli qaroriga ilova tarzida "O'zbek tilining asosiy imlo qoidalari" tasdiqlandi.

"O'zbek tilining asosiy imlo qoidalari" quyidagi bo'limlardan tashkil topgan:

- harflar imlosi (unlilar va undoshlar);
- asos va qo'shimchalar imlosi;
- qo'shib yozish;
- chiziqcha bilan yozish;
- ajratib yozish;
- bosh harflar imlosi;
- ko'chirish qoidalari.

1993-yil 2-sentyabrda qabul qilinib, 1995-yil 6-mayda o'zgarishlar kiritilgan o'zbek alifbosi

YANGI ALIFBO

Bosma shakli	Harf nomi	Bosma shakli	Harf nomi
Aa	a	Qq	qe
Bb	be	Rr	er
Dd	de	Ss	es
Ee	e	Tt	te
Ff	ef	Uu	u

Gg	ge	Vv	ve
Hh	he	Xx	xe
Ii	i	Yy	ye
Jj	je	Zz	ze
Kk	ke	O o	o‘
Ll	el	Gg	g‘e
Mm	em	Sh sh	she
Nn	en	Ch ch	che
Oo	o	Ng ng	nge
Pp	pe		

5-topshiriq. Namunaga asoslanib har bir harfga bittadan iqtisodiy so‘zni keltiring. **Namuna:**

Aa – aksioner	Qq – qism
Bb – byudjet	Rr – rentabellik
Dd – delegatsiya	Ss – ssuda
Ee – eksport	Tt – tadbirkor
Ff – foiz	Uu – ulgurji
Gg – garov	Vv – veksel
Hh – hamkor	Xx – xususiy
Ii – import	Yy – yig‘imlar
Jj – jamg‘arma	Zz – zarar
Kk –kompaniya	O‘o‘ – o‘lja
Ll – litsenziya	G‘g‘ – g‘azna
Mm –marketing	Sh sh– shartnoma
Nn – narx-navo	Ch ch – chakana
Oo – omonat	Ng ng – teng
Pp – pul	

6-topshiriq. Quyidagi so‘zlarni o‘qing, ulardagi unlilar talaffuziga e’tibor bering.

A	**o**	**u**	**o‘**	**e**	**i**
abadiy	odob	ulug‘	o‘lka	ezgulik	ishbilarmon
majburiyat	chiroq	umid	o‘rindiq	egri	ibrat
savod	tijorat	ulush	do‘st	elak	idrok

iroda	kitob	sug‘urta	mo‘tadil	elchixona	ijodiy
mablag‘	mutolaa	ustama	osmono‘par	erkin	izchil
zakovat	obod	unum	o‘qi	erta	ilg‘or
qo‘llanma	nomzod	umumta’lim	o‘lcham	ega	ilduz
himoya	oddiy	unum	o‘simlik	ekin	igna

7-topshiriq. Quyidagi o‘zbekcha va ruscha so‘zlarni qiyoslab o‘qing. “U” va “O‘” tovushlarining har ikki tildagi talaffuziga ahamiyat bering.

O‘zbekcha	**Ruscha**
supa	супа
tut	тут
gul	гул
sud	суд
pud	пуд
tom	том
ibo	ибо
zina	зина

8-topshiriq. Nuqtalar o‘rniga **e**, **ye**, **yo**, **yu**, **ya** harf birikmalaridan mosini qo‘yib ko‘chiring va tarjima qiling.

...gona	...l	...vinmoq	...v
...lim	...v	...gurdak	...vvoyi
...dlamoq	...lka	...kun	...lang‘och
...lduz	...z	...ng	...gurmoq
...lla	...z	...zuv	...ngil
...maloq	...r	...r	...zuvchi
...lmog‘iz	...lvormoq	...ngi	...mshoq
...pqa	b...t	...lg‘iz	b...hayo
...proq	...rak	v...rgul	...lg‘on
...rmoq	...sanmoq	d...vor	...xlamoq
...shamoq	...toqxona	bu...m	qu...n
k...lin	bu...k	...shin	s...vinch
ba...n	niho...t	su...k	xa...l
tu...q	t...r	hiko...	sh...r
a...l	su...q	bo‘...q	madani...t
imkoni...t	sa...hat	s...zgir	faoli...t
...kshanba	...qumli	...rqiroq	...mon

9-topshiriq. So‘zlarni o‘qing, “j” tovushining ikki xil turini ajratib aytib bering.

Jurnal, jaholat, jarayon, juda, jar, jim, jiyda, joy, ajab, majlis, peysaj, passajir, ehtiyoj, juma, byudjet.


10-topshiriq. Savollarga javob bering.

1. O‘zbeklar yana qaysi davlatlarda yashaydilar?
2. Turkiy tilda ijod qilgan qanday buyuk ijodkorlarni bilasiz?
3. “O‘zbekiston Respublikasining davlat tili haqidagi qonuni” qachon qabul qilingan?
4. Davlat tili haqidagi qonun nechta moddadan iborat?
5. “Lotin alifbosiga asoslangan o‘zbek alifbosini joriy etish to‘g‘risida”gi qonun qachon qabul qilindi?
6. O‘zbek tili qanday tillar oilasiga kiradi?
7. Eski o‘zbek adabiy tilining asoschisi kim?
8. Xalqimiz qanday yozuvlardan foydalangan?
9. Qadimiy turkiy yozuv yodgorligi qanday nomlanadi?
10. O‘zbek kirill alifbosiga qachon va nima sababdan o‘tilgan?
11. O‘zbek tili qaysi tillardan ko‘p so‘z o‘zlashtirgan?
12. O‘zbek (turkiy) tilidan boshqa tillarga qanday so‘zlar o‘zlashtirilgan?

11-topshiriq. Dunyo tillari haqida taqdimot tayyorlang.

12-topshiriq. “Men o‘zbek tilini o‘rganyapman” mavzusida dialog tuzing va uni inssenirovka qiling.

13-topshiriq. Xalqimizning yozuvlari matni yuzasidan klaster tuzing va shu asosda so‘zlab bering.



14-topshiriq. Quyidagi tayanch so'zlarni yod oling:

Istilo [qo'lga kiritish, bosib olish] - qurol kuchi bilan o'zga mamlakatni bosib olish. *Arablar istilosi.*

Istilochi - istilo etuvchi yoki etgan; o'zgalarning yerini, mamlakatini qurol kuchi bilan bosib olgan; tajovuzkor. *Arab istilochilari.*

Falsafiy - falsafaga oid. Tabiat va jamiyat haqidagi teran dunyoqarashni o'zida ifoda etgan. *Falsafiy oqim.*

Tilshunoslik - tilshunos ishi, kasbi. Til haqidagi fan, lingvistika. *Tilshunoslik masalalari.*

Kutubxona ["kitob"ning ko'pl. + xona] - kitob, jurnal va shu kabilarni to'plash, saqlash va ularni tashviqot qilish, o'quvchilarga foydalanish uchun berish bilan shug'ullanuvchi muassasa. *O'zbekiston Milliy kutubxonasi.*

Xalqparvar [xalqni sevuvchi] - xalqqa g'amxo'rlik qiladigan, xalq manfaatini ko'zlaydigan; xalqni sevadigan. *Xalqparvar insonlar.*

Dunyoqarash - tabiat va jamiyatga, ularning ayrim voqea-hodisalariga bo'lgan ilmiy, mafkuraviy, ma'naviy, ilohiy qarashlar tizimi. *Har qanday odamning ham o'ziga xos dunyoqarashi bo'ladi.*

Omma [oddiy xalq] - biror ijtimoiy guruhning katta ko'pchiligi, umum, ko'pchilik, xalq. *Mehnatkashlar ommasi.*

Ma'naviy [ma'noviy; aqliy; axloqiy] - ma'naviyatga oid, ma'naviyat, axloq bilan bog'liq. *Ma'naviy meros.*

Ma'naviy zarar - muayyan shaxsning sha'ni, qadr-qimmatiga dog' tushirish, ishbilarmonlik obro'siga putur yetkazish.

Milod [tug'ilish] - Iso payg'ambarning tug'ilgan kuni yil hisobi. *Miloddan oldin.*

Hamkorlik - biror sohada o'zaro bog'lanib, birgalikda, hamkor bo'lib, uni teng bajarib ish olib borish. *Iqtisodiy hamkorlik.*

Avvalgi - vaqt e'tibori bilan boshqasidan oldin, ilgari bo'lgan. *Avvalgi davr.*

Boylik - boy bo'lishlik, mol-mulkning yig'indisi, majmui; mo'llik. Tabiiy, moddiy resurslar majmui. *1. Qazilma boylik.* 2. Aqliy, ruhiy, ma'naviy faoliyat hosilasi, majmui. *Ma'naviy boylik.*

Zardushtiylik - Zardusht asos solgan, miloddan avvalgi VII-VI asrlarda paydo bo'lgan otashparastlik dini; majusiylik. *Zardushtiylik dini.*

15-topshiriq. Matnni o'zbek tiliga tarjima qiling. Matnga nom bering.

Узбекский язык входит в состав тюркской группы языков, является разговорным и письменным литературным языком узбеков, живущих в Узбекистане.

Узбекский разговорный язык имеет много диалектов. Это объясняется большим количеством этнических групп, участвовавших в формировании узбекского народа.

Узбекский литературный язык формировался на протяжении длительного исторического периода. Известны три этапа его развития: древнетюркский литературный язык, староузбекский и современный узбекский язык.

Огромное влияние на формирование узбекского языка оказало творчество Алишера Навои. В XV веке под его влиянием староузбекский язык стал единым литературным языком, который использовался до конца XIX века.

Вначале XX века в узбекском литературном языке стали происходить значительные изменения: он стал более демократичным, более простым и доступным. С годами он все более приобретал черты современного узбекского языка.

В основе современного литературного узбекского языка лежат ташкентская и ферганская группа диалектов. Исторически сложившийся лексический состав языка постоянно обогащался словами всех диалектов и народных говоров узбекского народа.

Основу лексики узбекского языка составляет общетюркская лексика, которая активно пополняется новыми узбекскими словами, появляющимися в процессе изменений в социально-экономической, политической и культурной жизни узбекского народа.

3-MAVZU. MILLIY QADRIYATLAR – MILLAT IFTIXORI

Xalqning aniq maqsad sari harakat qilishi, davlatmand bo'lishi, baxtli bo'lib izzat-hurmat topishi, jahongir bo'lishi yoki zaif bo'lib xorlikka tushishi, baxtsizlik yukini tortishi, e'tibordan qolib, o'zgalarga tobe va qul, asir bo'lishi ularning o'z ota-onalaridan bolalikda olgan tarbiyalariga bog'liq.

Abdurauf Fitrat

Mehmondo'stlik

Mehmondo'stlik - ulug' axloqiy fazilat. Xalqimizda "Mehmon kelgan uy – barakali", "Mehmon kelar eshikdan, rizqi kelar teshikdan", "Mehmon – uyning ziynati" kabi ko'plab maqol va hikmatlar bejizga aytilmagan. Xalqimiz mehmondo'stlikni yaxshilik ramzi deb biladi. Uyiga tez-tez mehmon kelib turgan oilaning mahallada obro'si ortadi. Ularning farzandlarida ham xushfe'llik, samimiylik kabi yaxshi sifatlar shakllanadi.

Mehmon kutish fazilat hamda o'ziga xos mas'uliyat talab qiladigan vazifa. Mehmon kutishning bir qancha odoblari bor.

Avvalo, uyga kelgan mehmonni ochiq chehra bilan kutib olish hamda uni uyga taklif qilish lozim bo'ladi. Mehmonning oldiga dasturxon yoziladi. Birinchi bo'lib dasturxonga meva-cheva tortilgani yaxshiroq. Dasturxonga qo'yilgan ne'matlar odamning qo'li yetadigan joyda bo'lishi, faqat yeyiladigan ne'matlar qo'yilishi maqsadga muvofiq bo'ladi. Mehmonni taomga taklif qilish, ammo bu ishda haddan oshmaslik kerak. Mehmonning huzurida sukutni cho'zib yubormaslik hamda go'zal suhbatlar qilish lozim bo'ladi. Mezbon mehmon o'tirgan xonaga kirib chiqayotganda xursandligini izhor qiladi. Mehmonni uzoq vaqt yolg'iz qoldirmaydi, shuningdek, mehmonning yonida uydagi yosh bolalarga yomon munosabatda

bo‘lmaydi. Mehmon izn so‘raganda, izn beriladi va ochiq chehra bilan kuzatib qo‘yiladi.

Mehmondo‘stlik bag‘rikenglik, jo‘mardlik, saxovat, yuksak insonparvarlik, shirinsuxanlik kabi go‘zal axloqiy fazilatlarni o‘zida mujassamlashtiradi. Axloq va nafosat manbai hisoblangan mehmondo‘stlikda insonparvarlik, odamiylik, do‘stlik va o‘rtoqlik, poklik va ozodalik kabi odob qoidalari buloq bo‘lib qaynaydi. Asrlar mobaynida xalqimizga xos bo‘lgan mehmondo‘stlik, kelgan mehmonni samimiy kutib olish, unga hurmat-ehtirom ko‘rsatish kabi go‘zal fazilatlar xalqimiz tarixida ming yillardan beri o‘rin olib kelayotgan an’analarimizdandir. Yusuf Xos Xojib “Qutadg‘u bilig”, ya’ni “Saodatga eltuvchi bilim” nomli asarida ham mehmondo‘stlik fazilatiga alohida to‘xtaladi:

Agar sen chorlasang uyingga mehmon,
Oldin taraddud qil, ey dono inson.
Pok bo‘lsin oshu non, uy-joy, to‘n-to‘shak,
Bergan tuzing manzur bo‘lmog‘i kerak.
Yemoq-ichmoq bo‘lsin pokiza, ezgu,
Qo‘l cho‘zganda bo‘lsin havas va orzu.
Taklif etmasang-ku aybi bir bo‘lar,
Chorlasang, u ko‘rib, birni ming qilar.
Do‘stu qardoshlaring uzoq va yaqin –
Barini chorla, to o‘tagin haqqin.
Kelivchisi kelar, kelmasa agar,
Shu sabab dili ko‘p shodlanib qolar.

1-topshiriq:

a) matnni o‘qing, o‘z fikringizni bildirib so‘zlab bering;

b) matn yuzasidan savollar tuzing;

d) o‘zbek milliy urf-odatlardan birortasini ta’riflab bering;

e) yordamlashish mavzusidagi vaziyatni ifodalovchi dialog tuzing.

2-topshiriq. Matndagi tayanch so‘zlarni yod oling:

Do‘stlik - do‘st maqomida bo‘lishlik; yaqinlik, oshnolik; ahillik. *Axloq va nafosat manbai hisoblangan mehmondo‘stlikda*

insonparvarlik, odamiylik, do'stlik va o'rtoqlik, poklik va ozodalik kabi odob qoidalari buloq bo'lib qaynaydi.

Fazilat [afzallik, ijobiy xislat] - ijobiy xislat, yaxshi xulq yoki xususiyat. *Mehmonga hurmat-ehtirom ko'rsatish kabi go'zal fazilatlar xalqimiz tarixida ming yillardan beri o'rin olib kelayotgan an'analarimizdandir.*

Insonparvarlik - insonparvar shaxsga xos xususiyat, xatti-harakat. *Mehmondo'stlik bag'rikenglik, jo'mardlik, saxovat, yuksak insonparvarlilik, shirinsuxanlik kabi go'zal axloqiy fazilatlarni o'zida mujassamlashtiradi.*

Jo'mardlik –[fors-tojikcha mard, botir, dovyurak; oliyjanob, oliyhimmat] - *uning chaqmoqday shiddatli, shijoatli umri botirlik, jo'mardlik timsolidir.*

Mezbon [mehmonlarni kutib oluvchi] - mehmon kutuvchi. *Kelish mehmondan, ketish mezbondan.*

Mehmondo'st [Mehmonni do'st ko'ruvchi] - mehmonni, mehmon kutishni, mehmon chaqirishni yaxshi ko'radigan. *Mehmondo'st o'zbek xalqi.*

Mehmon [mehmon, tashrif buyuruvchi] - to'y, ziyofat va sh.k. munosabati bilan yo'qdab kelgan (borgan) shaxs. *Kelish mehmondan, ketish mezbondan.*

Nafosat – [nafislik, go'zallik, latofat] - *nafosatga oshufta inson ma'naviy boy, qalbi pok, niyati xolis, umuman, ichki madaniyatga ega bo'ladi.*

Odamiylik - odamga, chin insonga xos xislatlar; insonlik. *Odamning odamiyligi uning farzandlariga, oilasiga va yaqinlariga bo'lgan muruvvatidan boshlanadi.*

Ozodalik - toza, pokiza, saranjom-sarishta bo'lish. *Ozodalikka amal qilmoq, oziq-ovqat, kiyim-kechak, yashash joyni toza va pokiza saqlash inson salomatligini ta'minlashda asosiy o'rinni egallaydi.*

Poklik - sof vijdonlilik, halollik, to'g'rilik. *Zamonlar o'tar, fidoyilik, samimiylik, poklik - buyuk tuyg'uligicha qolar.*

Shirinsuxan [shirinso'z, yoqimli gapiradigan] - *u ham xotiniday juda shirinsuxan, hazilkash odam ekan.*

An'ana [nasldan-naslga o'tuvchi qoida] - hayotda qaror topgan (topayotgan) udum, urf-odat va boshqa amallar. *...ya'ni tabiat go'zalligidan bahra olish - bu oilaning avloddan-avlodga o'tib kelayotgan an'anasi!*

Axloq [kishining tabiati] - muomala, xatti-harakat odobi. *Aslini olganda, axloq – ma'naviyatning o'zagi.*

3-topshiriq. Gaplarni tahrir qilib, qayta ko'chiring. Qaysi uslubga xosligini ayting.

Mahalla - urf-odatlarimizni muqaddas saqlaydigan va rivojlantiradigan, shu bilan birga, qanday bo'lib yetishishiga kelajak avlodlar bevosita ta'sir tarbiya ko'rsatadigan o'chog'i, tasavvur etamiz hayot maktabini.

O'zini o'zi mamlakatimizda jamiyatining boshqarish organlari fuqarolik asosiy instituti sifatida takomillashib yildan-yilga bormoqda. Shuningdek, mazkur organlarning boshqaruv tizimidagi ko'lamining kengayib borishi bilan huquqiy tamoyillar asosida davlatning o'z vakolatlarini demokratik amalga oshirishi uchun qulay va paydo bo'lmoqda keng imkoniyatlar.

4-topshiriq. Biror milliy bayram, marosimdan olgan taassurotlaringiz asosida esse yozing.

5-topshiriq. Savollarga javob bering.

1. Milliy qadriyat deganda nimani tushunasiz?
2. O'zbek milliy urf-odatlari deganda nimani tushunasiz?
3. Qanday o'zbek milliy urf-odatlarini bilasiz?
4. Oilangizda, mahallangizda Navro'zni qanday nishonlaysiz?
5. Navro'z necha ming yillik tarixga ega?
6. Milliy qadriyatlarimizga qachondan e'tibor berila boshlandi?
7. Sumalak qanday tayyorlanishini bilasizmi?
8. Mehmondo'stlik nima?

9. Mehmondo'stlik qanday axloqiy fazilatlarni o'zida mujassamlashtiradi?

10. Yusuf Xos Xojib o'zining qaysi asarida mehmondo'stlik fazilatiga alohida to'xtalgan?

GRAMMATIKA. O'zbek tilida so'z yasalishi.

O'zbek tili lug'at tarkibidagi (shuningdek nutqimizda qo'llanadigan) so'zlar dastlab tub va yasama so'zlarga bo'linadi. Masalan: paxta-tub so'z, paxtakor esa yasama so'z; bug'doy, rang so'zlari alohida-alohida olinganda tub so'zlar, ammo bug'doy rang (rangning bir turi)-yasama so'z; tog'-tub so'z, ammo tog'ma-tog' yasama so'z; besh, o'n tub so'zlar, o'n besh yasama so'z; qo'l, qo'ydi so'zlari alohida-alohida tub so'zlar sanalsa, qo'l qo'ydi yaxlit holda yasama so'z hisoblanadi. So'z yasovchi affiksi bo'lmagan so'zlar tub so'z deyiladi. Ma'lum bir so'z negizida ma'no jihatidan (ba'zan ham ma'no, ham grammatik jihatdan) undan farqlaydigan yangi so'z (yangi leksik birlik) hosil qilish so'z yasash deyiladi.

Qiyoslang: ish-ishchan, jon-jonlandi, oq-oqla, g'alla-g'allazor. Hozirgi o'zbek tilida so'z yasashning asosan ikki usuli ajratiladi:

1) affiksatsiya (yoki morfologik) usuli;

2) kompozitsiya (yoki sintaktik) usuli.

O'zakka so'z yasovchi qo'shimcha qo'shish orqali yangi leksik birlik hosil qilish affiksatsiya usuli bilan so'z yasashdir. Masalan: mevali daraxt, *serhosil yer* kabi birikmalardagi mevali, serhosil yasama so'zlar bo'lib, ular meva o'zagiga ***-li***, hosil o'zagiga ***ser-*** affikslarini qo'shish orqali yasalgan so'zlardir.

Ikki va undan ortiq so'z formalarining (ko'pincha mustaqil so'zlarning qo'shilib bir so'zga aylanishi kompozitsiya usuli bilan so'z yasashdir. Masalan: belbog', oshqozon, mehmondo'st, so'z boshi, bir yuz o'n, ahd qilmoq, bir oz va boshqalar. Juftlik modelida qo'llangan ayrim so'zlar ham yasama so'z sanaladi, masalan: yildan-yilga, zo'r-bazo'r, uyma-uy kabi.

6-topshiriq. Quyidagi hadislarni o'qing va tahlil qiling.

1. Ishni puxta va chiroyli bajaruvchi odamni Tangri do'st tutadi. 2. Uch kundan ortiq arazlashib yurish islomda yo'q. 3. O'lib ketganlarni yomonlab haqorat qilmanglar, chunki ular qilmishlariga yarasha mukofot yoki jazo oladigan joyga ketganlar. 4. Uylaringizdagi yonib turgan o'tni o'chirmasdan uyquga ketmanglar! 5. O'q otish mashqida jonli narsani nishon qilib qo'ymanglar! 6. Kimki birovga yomonlik qilsa, shu dunyoning o'zidayoq jazosini ko'radi. 7. Rahm qilmaganga rahm qilinmaydi, kechirmaganni kechirilmaydi va birovning uzrini qabul qilmaganning tavbasi ham qabul qilinmaydi. 8. Biror kasbu hunar orqasidan rizqu nasibaga ega bo'lib yashayotgan odam, shu kasbni beuzr o'zgartirmasin! 9. Kimki ota-onasining roziligini olgan bo'lsa, unga qanday yaxshi! Tangri uning umrini uzaytiradi. 10. Kimki birovning yozayotgan yoki kelgan xatini beruxsat o'qishga intilsa, go'yoki u do'zaxga intilgan bo'ladi.

7-topshiriq. Matnni rus tiliga tarjima qiling.

Hashar – sharq xalqlari orasida keng tarqalgan udumlarimizdan biri bo'lib, qadimdan o'zbek xalqi hayotida muhim o'rin tutib kelgan. Hashar - bu ko'pchilikning bir yoqadan bosh chiqarib, bir maqsadda birgalashib harakat qilishidir.


Qadim zamonlarda ota-bobolar qishloqlarda xo'jalik ishlarini ko'p hollarda hashar yo'li bilan bitirib olishgan. Yozloqlarda ko'milgan toklarni ochish, kesish, tarash, bog'bellash, xashaksomon to'plash, bog'hosilini yig'ib-terib olish, katta ariq, kanallar boshlab kelish, shox ariqni qish arafasida kovlab tozalash kabi og'ir ishlarning hammasi hashar yo'li bilan bajarilgan.

8-topshiriq. Quyidagi hadislarni tahlil qiling va eslab qoling.

1. Nonni e'zozlang. 2. Avvalo onangga, yana onangga va yana onangga, so'ng otangga yaxshilik qil. 3. Barcha balo tildandir. 4. Bir-birlaringiz bilan salomlashib yuringlar. 5. Shunda o'rtalaringda mehru muhabbat uyg'onur. 6. Ayollarga erkaklar o'z

tug‘ishgan opa-singillari kabi munosabatda bo‘lishlari kerak. 7. Uyiga mehmon qo‘nmaydiganlar yomon odamlardir. 8. Chaqirilgan joygagina boring. 9. Garchi Xitoyda bo‘lsa ham ilmga intilinglar, chunki ilm olishga harakat qilish har bir mo‘minga farzdir. 10. Aroqdan saqlaninglar, chunki u barcha yomonliklarning kalitidir. 11. Pora beruvchi ham, uni oluvchi ham do‘zaxga mahkumdir.

9-topshiriq. Venn diagrammasidan foydalanib o‘zbek xalqi va boshqa xalqlarning urf-odatlarini taqqoslang va tahlil qiling.



10-topshiriq. “Turli millatlarning urf-odatlari” mavzusida polilog tuzing va uni inssenirovka qiling.

SOVCHILIK

Vatan ostonadan, hovli bo‘sag‘adan, oila sovchilikdan boshlanadi. Sovchi ikki xonadonga qarindoshlik rishtasini bog‘lashga da’vat etilgan kishidir. Sovchi kamida ikki, yo‘qsa uch-to‘rt kishidan iborat bo‘lib, ikki jinsdagi erkak va ayol sovchilar ham bor. Har ikki to‘p alohida, mustaqil harakat qiladi.

Odatda sovchilar kayvoni, el orasida obro‘-e’tiborli, tagli-tugli, oqilu fozil kishilardan tanlanadi. Chunki ularning vazifasi og‘ir, mas’uliyatli. Sovchining gap-so‘zi mantiqli, ishonarli, tosh bosadigan, zalvorli bo‘lmog‘i lozim.

Sovchilar yigitning oilasi nomidan qiznikiga, bo‘lajak kelinnikiga elchilik qilib, uning qo‘lini so‘rab borishadi. Umr savdosining pishish-pishmasligi, avvalo, kuyov bo‘lmishning o‘zi, ota-onasi, qarindosh-urug‘i, qolaversa, sovchilarning mahorati-yu

tajribasiga, quda bo‘lmishlar ko‘ngil qulfiga kalit sola olishiga ko‘p jihatdan bog‘liq. Ayni paytda o‘z vazifalarining butun mas’uliyatini bo‘yniga olgan bunday kishilar, har ikki oilani, ularning farzandlarini yaxshi bilganlar. Bilishmasa, so‘rab-surishtirishgan. Muayyan tasavvur hosil qilgach, undan so‘ng vazifalariga kirishganlar. Bo‘lmasa, birovning guldek farzandi umriga zomin bo‘lib, bir tomonni o‘tda kuydirib yashashni katta gunoh deb bilishgan.

Sovchilar “qizi borning nozi bor” degan naqlga amal qilib, vaqt o‘tkazib, kelin bo‘lmishnikiga uch-to‘rt marta boradilar. Odatda sovchilikdan qaytgan mutasaddilarni “bo‘rimi yoki tulki” deb qarshi olinadi. Agar ular ishni o‘rinlatib, xushxabar bilan qaytishgan bo‘lsa, sovchilar “bo‘ri” deb javob qilishadi. Bu gal ish pishmagan bo‘lsa, “tulki” deyishadi.

Ayol sovchilar ham qizning “ostonasini cho‘ktiradilar”. Yigit bilan qiznikiga bo‘zchining mokisidek qatnayverib, kovushlarini to‘zitadilar. Ayol va erkak sovchilarning maqsadlari ro‘yobga chiqqach, o‘sha zahotiyoq non sindiriladi. Ya’ni “non sindirish” fotiha bilan sovchilik taomili o‘z vazifasini o‘tab bo‘ladi.

11-topshiriq:

a) matnni o‘qing, kichik qismlarga ajratib reja tuzing;

b) reja asosida matn mazmunini so‘zlab bering.

12-topshiriq. Quyidagi tayanch so‘z va iboralarning ma’nosini izohlang.

Ostona, bo‘sag‘a, oila, xonadon, qarindoshlik rishtasi, kayvoni, obro‘-e’tiborli, tagli-tugli, mas’uliyatli, mantiqli, ishonarli, zalvorli, quda, xushxabar.

13-topshiriq. Matnni o‘zbek tiliga tarjima qiling va sarlavha toping.

Национальный узбекский танец необычайно выразителен. Он олицетворяет собой всю красоту узбекской нации. Главные

отличия узбекского танца от других танцев народов Востока – это, во-первых, акцент на сложные и выразительные движение рук, а во-вторых – богатая мимика. Различают два вида узбекского танца - традиционный классический танец и народный (фольклорный) танец.

Классический традиционный узбекский танец – это искусство, которое культивируется в особых танцевальных школах, а затем демонстрируется на большой сцене. Можно выделить три школы узбекского танца: ферганскую, бухарскую и хорезмскую. Танцы ферганской группы отличают мягкость, плавность и выразительность движений, лёгкий скользящий шаг, оригинальные движения на месте и по кругу. Бухарский танец также отличает резкость движений, откинутые плечи и очень красивый золотошвейный костюм. Оригинальные и самобытные движения отличают хорезмский стиль.

В народном узбекском танце представлены практически все регионы, здесь царит необыкновенное разнообразие. Эти танцы оживают на всех семейных, деревенских, городских праздниках. Эти танцы передаются от поколения к поколению, в них сохраняются старинные танцевальные традиции.

14-topshiriq. Matnni o‘zbek tiliga tarjima qiling. O‘z millatingizga xos urf-odatlar haqida gapirib bering.

ОБЫЧАИ И ТРАДИЦИИ

Основными особенностями характера узбекской семьи является гостеприимство и традиционно почтительное уважение к старшим по возрасту. Узбеки обычно живут большими семьями, состоящими из нескольких поколений, поэтому предпочтение отдается большим домам на земле. Значительное место в быту, как элемент гостеприимства, занимает чайная церемония. Причем, заваривание чая и разливание его гостям является исключительной прерогативой хозяина.

Принято всегда принимать приглашения на обед или ужин и приходить вовремя. Направляясь в гости, желательно захватить с собой сувениры или сладости для детей хозяина. За руку здороваются обычно только с мужчинами. С женщинами и лицами, сидящими в отдалении, здороваются, прикладывая правую руку к сердцу и сопровождая этот жест легким наклоном головы. Во время рукопожатия традиционно интересуются здоровьем, состоянием дел на работе и дома.

В сельской местности в случае прихода гостя женщины обычно не садятся за один стол с мужчинами, чтобы не мешать их беседе. Не принято восхищаться красотой женщин и обращать на них пристальное внимание. Необходимо занимать место, которое указывает хозяин. Причем, чем дальше оно от входа, тем оно почетнее.

15-topshiriq. O‘zbek urf-odat va rasm-rusumlari haqida B\B\B jadvalini chizing va to‘ldiring.

4-MAVZU. TARIX VA ZAMONAMIZ

Bizning havas qilsa arziydigan buyuk tariximiz bor. Havas qilsa arziydigan ulug' ajdodlarimiz bor. Havas qilsa arziydigan beqiyos boyliklarimiz bor. Va men ishonaman, Xudo xohlasa havas qilsa arziydigan buyuk kelajagimiz ham albatta bo'ladi.

Shavkat Mirziyoyev

Tarixiy xotira

Tarixiy xotira - g'urur va iftixor hissining zaminlaridan biri.

Millat va elatlar asta-sekin, tarixan tashkil topadilar. Bu jarayon, vaziyatga qarab, bir necha o'n yildan boshlab bir necha asrgacha cho'zilishi mumkin. Ana shunday uzoq davr ularga o'zlarini anglash, tilini, madaniyatini, ma'naviyat, ma'rifat, an'analar, urf-odatlar va rasm-rusumlarni butun bir o'zaro bog'langan tizim holiga keltirish uchun kerak. Demak, xalqning shakllanishi, ayni vaqtda xalq tomonidan o'z o'tmishini, tarixini, ajdodlarining mehnati, qahramonligi, ma'naviyat va madaniyatining barcha yo'nalishlari, tarmoqlari, xilma-xilligini hamda o'ziga xosligini o'rganish, ularga ishlov berib, shu jarayonda takomillanishdir. Tarixiy xotira xalqning o'z o'tmishini bilishi, bu o'tmishni tahlil qilish, undagi bo'lib o'tgan voqealar va hodisalarning asl mohiyati va tarixdagi o'rnini asoslab berishni talab qiladi.

Xalqning tarixiy xotirasi qanchalik boy, mazmunli va uzviy bog'langan bo'lsa, bu xalq shunchalik uyushgan, tadbirkor, harakatchan, hamjihat bo'ladi. O'z ajdodlari va avlodlarining sha'niga yarashadigan xizmatlarni, ishlarni bajarishga intiladi. Hozirgi zamon va bozor munosabatlari - xalqlarning o'zaro ijobiy va ijodiy musobaqasi davridir. Bu musobaqada oldingi o'rinda bo'lish uchun yirik xalq bo'lish shart emas. Yirik bo'lmagan gollandlar, shvedlar, finlar, singapurliklar, janubiy koreyaliklar yirik millatlar va yirik davlatlarni hamma sohada ham lol qoldirmoqdalar.

Tarixi boy o'zbek xalqi ham ana shunday ko'rsatkichlarga erishish yo'lidan izchil bormoqda.

Demak, tarixiy xotiramiz hozirgi vaziyatda katta amaliy ahamiyatga egadir. U davlatimizning, xalqimizning manfaatlariga xizmat qilishi lozim.

1-topshiriq:

a) matnni o'qing;

b) matnni qisqartirib so'zlab bering.

2-topshiriq. Quyidagi tayanch so'zlarni yod oling:

Urf [odat, o'rganish] - umum tomonidan qabul qilingan va amal qilinadigan tartib-qoida. *Urf-odat va rasm-rusumlar.*

Xotira [fikr, tafakkur; g'oya] - biror kimsa yoki narsa haqidagi yodda saqlangan taassurot. *Xalqning tarixiy xotirasi.*

Millat [xalq; din, mazhab] - kishilarning yagona tilda so'zlashishi, yaxlit hududda istiqomat qilishi, mushtarak iqtisodiy hayot kechirishi, umumiy madaniyat va ruhiyatga ega bo'lishi asosida tarixan tashkil topgan barqaror birligi. *O'zbek millati.*

Mohiyat [haqiqat, har narsaning asli, tub-negizi] - biror narsaning zamiridagi tub, eng muhim ma'no, ichki mazmun. *Hodisalarning asl mohiyati.*

Hamjihat [ham + jihat] - ish-faoliyatda bir-biridan ajralmay intilish, ahil bo'lish. *Hamjihat qo'shnilar.*

Hodisa [voqea, holat] - tabiatda, jamiyat hayotida yuz beradigan o'zgarish. *Bo'lib o'tgan hodisalar.*

Asr [davr, zamon] - yuz yillik davr. *Yigirma birinchi asr.*

Elat - kishilarning millat shakliga kelmasdan oldingi tarixiy birligi. Bir joyli yoki bir qabilaga, urug'ga mansub kishilar. *Mamlakatimizda ko'plab elatlar yashaydilar.*

Madaniyat [sivilizatsiya] - jamiyatning ishlab chiqarish, ijtimoiy, ma'naviy-ma'rifiy hayotida qo'lga kiritgan yutuqlari majmui. 2.O'qimishlilik, ta'lim-tarbiya ko'rganlik, ziyolilik, ma'rifatlilik. *Madaniyatning barcha yo'nalishlari.*

Ajdod ["jadd" (bobo) so'zining ko'pligi] - ilgari o'tgan nasl-nasab, ota-bobolar (avlodga nisbatan). *Ajdodlarining mehnati, qahramonligi.*

Avlod [o'g'illar, bolalar, nasl] - ota-bobo va uning nasli; sulola. *Temur avlodi (temuriylar).*

3-topshiriq. Tarixiy so'zlarning zamonaviy muqobillarini toping.

GRAMMATIKA. Tilning leksik qatlamlari.

Hozirgi o'zbek tilining lug'at tarkibi (so'z boyligi) o'zbek tilining butun tarixiy taraqqiyoti davomida shakllangan hodisadir. O'zbek xalqi ham o'z tarixining turli davrlarida boshqa xalqlar bilan iqtisodiy, madaniy, siyosiy aloqada bo'lgan va bu xalqlarning tili o'zbek tiliga ma'lum darajada o'z ta'sirini qoldirgan. Xususan, boshqa tillardan o'zbek tiliga ko'plab so'zlar o'zlashganini shu ta'sir bilan izohlash mumkin. Natijada o'zbek tili lug'at tarkibida shu tilning o'ziga xos leksik qatlam bilan birga o'zlashgan qatlam ham yuzaga kelgan.

O'z qatlam.

1. Umumiy turkiy so'zlar. Qadimdan ishlatilib kelinayotgan bo'lib, asosan, bir va ikki bo'g'inli tub so'zlardan iborat. Masalan: bosh, qosh, qo'l, yer, bobo, burun, etak, bo'l, ol, kel.

2. O'zbekcha so'zlar. O'zbek tilining ichki imkoniyatlari asosida paydo bo'lgan so'zlardir. Olinma so'zlarga o'zbekcha qo'shimchalar qo'shib yasalgan so'zlar ham o'zbekchadir. Masalan: adash, buyurtma, narsa, paxta, olomon, yozuvchi, tennischi, asfaltlamoq, gulchilik, durkun, ayovsiz kabi.

O'zlashgan qatlam.

Forscha-tojikcha so'zlar. Fors-tojik tilidan so'zlar tovush o'zgarishlarisiz olingan. So'z o'rtasi va oxirida qo'sh undoshlar keladi, tarkibida ***no-, ba-, be-, ham-***kabi old qo'shimchalari bo'ladi.

Masalan: *andisha, barg, bahor, daraxt, farzand, daromad, buromad, ozoda, noma'lum, bedarvoza, hamkasb.*

Arabcha so'zlar. Arab tilidan o'zlashgan so'zlarning ko'pchiligi fan va dinga oid bo'lib, asosiy qismi fors tili orqali kirgan. Masalan: *adabiyot, kitob, oila, davlat, mehnat, muqaddas, san'at, a'lo, mutolaa, doim, inshoot* kabi.

Ruscha-baynalmilal so'zlar. Rus tili va u orqali g'arb tillaridan o'zlashgan so'zlar fan-texnika, siyosiy-iqtisodiy sohalarga oid. Bu so'zlar ikki usulda: aynan va kalkalab olish bilan o'zlashgan. Bunday so'zlar o'rtasida undoshlar yonma-yon keladi, so'z oxirida qo'sh undoshlar, qorishiq tovushlar, old qo'shimchalar ishlatiladi. Masalan: *benzin, vokzal, stol, deputat, dialekt, diagramma, byudjet, sentyabr, metall, interaktiv* kabi.

"Temur tuzuklari"

"Temur tuzuklari" XIV-XV asrlar voqealari va hayotini yorituvchi qimmatli manba, Amir Temurning harbiy va siyosiy faoliyatidan ma'lumot beruvchi asar. Qachon va kim tomonidan yozilganligi asarda ko'rsatilgan emas.

"Temur tuzuklari"dagi barcha voqealar Amir Temur nomidan hikoya qilinadi. Asli eski o'zbek tilida yozilgan, fors, fransuz, ingliz, urdu, rus va hozirgi o'zbek tiliga o'girilgan. Bu asar ikki qismdan iborat bo'lib, birinchi qismda Amir Temurning Movarounnahrda saltanatni qo'lga kiritish uchun olib borgan urushlari va bu borada o'z yaqinlari bilan o'tkazgan kengashlari, amirlar bilan olib borgan muzokaralari haqidagi tafsilotlar diqqatni jalb qiladi.

Buyuk sohibqironning kuchli markazlashgan davlat tuzish va qo'shni mamlakatlarning o'z tasarrufiga o'tkazish borasidagi faoliyati haqida mufassal so'z yuritiladi. Xususan, Movarounnahrgagina emas, balki qadimiy Rusiyaga ham xavf solib turgan Oltin O'rda xoni To'xtamishxonga Amir Temurning jiddiy zarba berishi Rusiyaning mo'g'ul istilosidan qutulishini yengillashtirgani diqqatga sazovordir.

"Temur tuzuklari"ning ikkinchi qismida Amir Temurning davlatni boshqarish, mamlakatni idora qilish uslubi haqidagi tuzuklari, ya'ni yo'l-yo'riqlari, qonun-qoidalari, pand-nasihatlari o'rin olgan. Jumladan, saltanatni boshqarishda Amir Temur islom dini va shariat talablariga, adolat, insof va haqiqatga tayanadi, turli tabaqa va toifaga mansub kishilarni teng ko'rib, qilgan xizmatiga qarab, ularni hurmat qiladi, mamlakatni boshqarishda, eng avvalo, olimu fuzalo, sayyidlar, shayxlar va oriflarga tayanadi.

"Temur tuzuklari"da do'stlik, vafodorlik, iymon va e'tiqod, kasb-hunar va boshqa insoniy fazilatlarga rioya qilish to'g'risida fikr yuritiladi, fuqarolarning shariat qonun-qoidalariga bo'ysunish lozimligi aytib o'tiladi, qozilarning qonunlarga to'la amal qilish, tartibbuzarlarni ayamay jazolash, sipohlar va askarlarni saqlash va ularga oziq-ovqat, maosh to'lash qoidasi, vazirlar va ularning vazifalari, amirlar, sipohlar va boshqalarni taqdirlash tartiblari, ularning bir-birlariga muomalasi va turli boshqa masalalar bo'yicha mufassal ma'lumot beriladi.

"Temur tuzuklari"dagi ko'plab fikrlar hozir ham o'z ahamiyatini yo'qotgani yo'q va mustaqil O'zbekistonni mustahkamlashda undagi fikr, xulosa, pand-nasihatlardan foydalanilmoqda.

4-topshiriq:

a) matnni o'qing;

b) matn yuzasidan savollar tuzing va so'zlab bering;

d) matndagi termin va iboralarning ma'nosini izohlang.

5-topshiriq. Matnni o'qing. Matnga munosabat bildirib, kengaytirib so'zlab bering.

Amir Temurning iqtisodiy siyosati

Sharq iqtisodiy tafakkurining rivojlanishida Amir Temurning iqtisodiy g'oyalari, u ishlab chiqqan va amalda yuritgan iqtisodiy siyosati mislsiz ahamiyatga ega. Temur iqtisodiy g'oyalarining o'ziga xos ulug'vorligi shundaki, ular xayoliy emas, balki aniq hayotdan kelib chiqqan va unda o'z ifodasini topgan.

Temurning iqtisodiy g'oyalari "Temur tuzuklari" asarida bayon etilgan. Unung iqtisodiy g'oyalari va siyosati zamirida inson, uning manfaati, farovon va tinch hayot kechirish tashvishlari yotadi. U odamlarga kasb-hunar berish, ish bilan ta'minlash, tadbirkorlik faoliyati va tijorat ishlari bilan mashg'ul bo'lish uchun yetarli sarmoya berish, yetarli uy-joylar qurib berish haqida qayg'uradi.

Sohibqironning iqtisodiy qarashlari va yuritgan yangicha iqtisodiy siyosati tarbiyani yo'lga qo'yish ishlarida biz uchun muhim dasturulamal, tarixiy yo'l-yo'riq bo'lib xizmat qiladi.

6-topshiriq. Matnni o'qing. Matn mazmunini qisqartirib rus tilida so'zlab bering.

Valyuta

Valyuta (ital. Valuta, lat. Valere - qadrlamoq, qiymat) - mamlakatning pul birligi va uning turi (oltin, kumush, qog'oz); pulga tenglashtirilgan to'lov vositalari; pul hisob - kitoblarini taqozo etadigan xalqaro iqtisodiy ayirboshlash va boshqa aloqalarda qatnashadi. Valyuta sifatida milliy pul birligi (masalan: AQShda dollar, Germaniyada marka) valyuta kursida ifodalanadigan xalqaro bahoga ega. Amaliyotda valyuta milliy banknotlar, shuningdek, to'lov vositalari va hisob-kitobning kredit hujjatlari shaklida qo'llanadi. Bundan tashqari, xalqaro shartnomalar asosida tashkil topgan hisoblarga yozib qo'yish ham valyutaga kiritiladi. Metall pul muomalasi sharoitida valyuta oltin yoki kumushga maydalanadigan milliy pul kreditlari shaklida namoyon bo'lgan edi. Valyutani qimmatbaho metallarga maydalash to'xtatilgandan keyin xalqaro hisob-kitoblarda foydalanadigan barcha milliy valyutalar qog'oz bo'lib qoldi. Xalqaro to'lov muomalasi erkin almashtiriladigan yoki Xalqaro valyuta fondi belgilagan kurs bo'yicha erkin almashtiriladigan valyuta bilan amalga oshiriladi. Cheksiz konvertlashtirilgan valyuta boshqa valyutalarga hech qanday chegarasiz almashtiriladi. Ushbu valyuta yana "qat'iy valyuta" deb ham yuritiladi, chunki u boshqa pullarga qaraganda yetarli stabil kursga ega.

"Yarim konvertlashtirilgan valyuta" deganda mamlakatning milliy valyutasi faqatgina bir nechta chet el valyutasiga almashtirilishi tushuniladi.

Konvertlashtirilmagan valyuta deb faqatgina bitta mamlakatning ichida ishlatiladigan va chet el valyutasiga almashtirilmaydigan valyutaga aytiladi.

Jahon iqtisodiyoti mamlakatlar orasida tartibga solingan valyutalar aloqa tizimlarisiz ish yuritolmaydi. Ular tashqi iqtisodiyot aloqalarining pul formasi bo'lib hisoblanadi, chunki valyuta bu tashqi savdogarchilik va kredit-moliya operatsiyalarining tayanchi hisoblanadi.

7-topshiriq. Matnni o'qing, rus tiliga tarjima qiling.

Hissadorlik jamiyati

Hissadorlik jamiyati - bir guruh shaxslar (aksionerlar) aksiya va obligatsiyalarni xarid qilishdan tushgan mablag'lar hisobidan tashkil topgan korxona.

Aksiyalar o'z egalariga daromad (dividend) keltirib, ularga aksionerlar yig'ilishida ovoz berish huquqini beradi. Obligatsiyalar esa qat'iy foiz orqali faqat daromad olib keladi.

Hissadorlik jamiyati kengash majlisida saylangan jamoa orqali boshqariladi. Asosan, hissadorlik jamiyatining boshqaruvi aksiyalarning eng yirik qismiga ega bo'lganlar qo'lida bo'ladi. Umumiy majlisga jami aksionerlar yig'ilmasligi sababli, ovoz yig'ish uchun 5-20 foiz aksiya bo'lishi yetarli.

Aksionerlik jamiyatining boshqarish huquqi bilan ta'minlanishi "Nazorat paketi" deyiladi.

Aksiyalar bir necha xil bo'ladi: oddiy, xususiy, imtiyozli. Aksiyalarni sotish, sovg'a qilish va meros qoldirish mumkin.

8-topshiriq. "Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q" mavzusida insho yozing.

9-topshiriq. Tarixiy asar yoki filmlardan biri haqidagi taassurotlaringizni yozing. Tarixiy shaxslardan birini tasvirlab yozma portpet yarating.

10-topshiriq. Matnni rus tiliga tarjima qiling va uni nomlang.


O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy-iqtisodiy hayotida transport tizimining yana bir muhim qismi bo'lgan avtomobil transporti va avtomobil yo'llari ham o'rin tutadi. Milliy iqtisodiyotning avtomobil transportidan foydalanmaydigan birorta sohasi yo'q. Qisqa masofalarga yuk va yo'lovchilarni tashishda, zamonaviy transportning boshqa xillari mavjud bo'lmagan manzilgohlarda aholi va tashkilotlarga xizmat ko'rsatishda, ayniqsa transport uchun noqulay bo'lgan tog'li joylarda avtomobil transportining ahamiyati beqiyosdir.

O'zbekiston hududida avtomobil yo'llari tarmog'i ancha keng har 1000 km² maydonga avtomobil yo'llarining zichligi 210 kmga yetadi. Qator avtomobil yo'llari xalqaro va davlat ahamiyatiga ega. Hozirgi kunda avtomobil yo'llarining umumiy uzunligi 115 ming km dan ortiq. Shularning 95,6 foizi qattiq qoplamali yo'llardir. Toshkent, Samarqand, Qashqadaryo, Surxondaryo va boshqa viloyatlar orqali o'tgan Katta O'zbek avtomobil trakti mamlakatimiz hayotida muhim o'rin tutadi. Ushbu ravon yo'l qanchadan-qancha yuk va yo'lovchilar tashishga hamda hududlar orasida transport xizmati ko'rsatishni yaxshilashga olib keldi.

11-topshiriq. Tilning leksik qatlamlari mavzusi bo'yicha referat tayyorlang.

12-topshiriq. Biror tarixiy hikoyani ifodali o'qing, tarixiy so'zlarning ma'nosini izohlang. Ko'rgan tarixiy joyingiz, muzeyingiz haqida gapirib bering. Hozirgi kunda tarixiy obidalarga qanday e'tibor berilyapti? Shu haqda maqola yozing.

11-topshiriq. "Qanday?" sxemasini to'ldiring.



14-topshiriq. Quyidagi tayanch so'zlarni yod oling:

Qadimiy [o'tmishga oid] - qadimga oid, qadimdan bor, o'tmishdan saqlanib kelayotgan. *Qadimiy shahar.*

Metro [*fr.* metro] - yer ostiga qurilgan shahar elektr temiryo'li. *Toshkent metrosi.*

Muzey [*lot.* museum <*yun.* museion - muzalar ibodatxonasi] - san'at, texnika, tabiat namunalarini, tarixiy va ilmiy ahamiyatga ega bo'lgan narsalarni yig'ish, saqlash, o'rganish va xalqqa namoyish qilish bilan shug'ullanadigan muassasa. *Temuriylar tarixi Davlat muzeyi.*

Yosh - tug'ilgan yoki yaratilgan vaqtdan boshlab yashab o'tkazilgan yoki hisoblangan yillar jami; umr uzoqligi. Inson yoki hayvon hayotidagi bosqich, davr. *Toshkent shahrining yoshi 2200 yildan oshib ketdi.*

Hikoya [gapirib, so'zlab berish; qissa; tarix] - kimsa, narsa va u bilan bog'liq voqea-hodisalarning og'zaki tavsifiy bayoni. *Hikoya tinglamoq.*

Hikoya qilmoq - bayon qilmoq, so'zlab bermoq. *Ular xalqimizning boy tarixi va bugungi yutuqlari haqida hukoya qiladi.*

Navqiron [yangi + birikish] - avji kuch-quvvatga to'lgan, qirchillama, yosh. *Toshkent - juda qadimiy va navqiron shahar.*

Barpo [barqaror, qurilgan, o'rnatilgan], barpo bo'lmoq (yoki etmoq) – bunyod bo'lmoq, vujudga kelmoq, tashkil etmoq, qurmoq. *Ko'plab yangi binolar barpo etilmoqda.*

Shahar [mamlakat] - aholisi asosan, sanoat, savdo, shuningdek, xizmat ko'rsatish, boshqaruv, fan va madaniyat sohalarida band bo'lgan yirik ma'muriy, madaniy aholi manzilgohi. *Markaziy shahar.*

Sayyoh [turist] - sayohat qiluvchi; sayohatchi. *Sayyohlar tashrif buyurdi.*

Poytaxt [taxtning quyi, etak qismi, asosi] - davlatning bosh shahri, mamlakatning ma'muriy-siyosiy va madaniy markazi. *O'zbekistonning poytaxti Toshkent shahridir.*

15-topshiriq. Savollarga yozma javob bering.

1. "Temur tuzuklari" qanday asar?
2. "Temur tuzuklari" qachon va kim tomonidan yozilgan?
3. "Temur tuzuklari" necha qismdan iborat?
4. "Temur tuzuklari" bugungi kunda qanday yozma hujjatga tenglashtiriladi?
5. Amir Temurning iqtisodiy g'oyalari qaysi asarda berilgan?
6. Amir Temurning iqtisodiy g'oyalari nimalardan iborat?
7. Toshkent shahri necha yillik tarixga ega?
8. Toshkent shahrining metrosi qachon ishga tushgan?
9. Toshkent shahrining markazi qayer?
10. Toshkent shahrida nechta ma'muriy tuman bor?
11. "Yirik xalqning iqtisodi ham katta bo'ladi" degan fikrga qo'shilasizmi?
12. Tarixiy xotira hozirgi kunda (vaziyatda) qanday ahamiyatga ega?

13. Tarixiy xotira necha yilni o‘z ichiga qamrab oladi?

14. Har bir shaxsning tarixiy xotirasi qayerdan yoki qachondan boshlanadi?

15. “Temur tuzuklari” qaysi tilda yozilgan?

16. “Temur tuzuklari” qaysi asr voqealarini yoritadi?

17. “Temur tuzuklari” asari qachon va kim tomonidan yozilgan?

16-topshiriq. Matnni o‘zbek tiliga tarjima qiling.

ШАХРИСАБЗ

Шахрисабз – исторический и культурный центр Кашкадарьинского оазиса. Он до сих пор сохранил черты древнего азиатского города.

Здесь, вблизи Шахрисабза, в кишлаке Ходжа-Ильгар 9 апреля 1346 года в семье знатного вельможи Тарагая родился мальчик – будущий великий Амир Темур. Здесь прошли его детство и юность, а впоследствии Темур сделал Шахрисабз второй столицей своего огромного государства. Здесь похоронены его отец Тарагай, духовный наставник Шамс ад-Дин Кулал, его старшие дети Джахангир и Омар Шейх.

Темур благоустраивал и украшал родной город. Был построен грандиозный дворец Ак-Сарай, остатки сооружений которого говорят о необыкновенной красоте и величии этого памятника.

Сохранился мавзолей Дорус-Сиадот, окруженный вековыми чинарами. Здесь похоронен Джахангир. Сохранились древняя мечеть Кок-Гумбаз, архитектурные сооружения древнего крытого рынка Чорсу, баня со сводчато-купольными перекрытиями.

Шахрисабз – это вечно зеленый город, чистое небо, величественные древние памятники архитектуры. Все это привлекает нескончаемый поток туристов, ученых, любителей древней истории и культуры.

5-MAVZU. ULUG‘ AJDODLARIMIZ

Biz jahon madaniyati xazinasini boyitgan ulug‘ allomalar merosxo‘rimiz. Ulkan madaniy, ma’naviy merosga egamiz. Qonimizda ana shunday buyuklar qoni oqar ekan, biz farovon va go‘zal turmush yaratish uchun beqiyos imkonimiz bor, desak bo‘ladi.

Islom Karimov

O‘RTA OSIYO RENESSANSI

O‘rta Osiyo mintaqasida IX-XII asrlarda iqtisodiy, madaniy-ma’naviy va ilmiy taraqqiyot yuksalgan davr. O‘rta Osiyo Islom dini tarqalishi tufayli, Yaqin Sharq, O‘rta Sharq, Shimoliy va G‘arbiy Afrika hududlarini qamrab olgan ulkan Arab halifaligining tarkibiga kirdi. Natijada boy va serqirra madaniyati taraqqiyotning yanada kengroq sahniga chiqdi. Mintaqamiz olimlari, mutafakkirlari, ziyolilari, sayyohlari qadimiy yunon va Rum madaniyati yutuqlari bilan tanishish hamda o‘rganish imkoniga ega bo‘ldilar. O‘rta asrlarda islom olamida din, fan va siyosatning umumtili hisoblangan arab tili O‘rta Osiyo olimlari va mutafakkirlari uchun ilm-fan va ma’naviyatni yangi pog‘onaga ko‘tarishga bebaho ko‘prik bo‘lib xizmat qildi. Shu davrlarda yashab ijod qilgan al-Xorazmiy, al-Farg‘oniy, al-Farobiy, al-Beruniy, Ibn Sino va boshqalar tabiiy va ijtimoiy fanlar rivojiga bebaho hissa qo‘shdilar. Vatandoshimiz Imom al-Buxoriy, at-Termiziy, al-Moturudiy, Ahmad Yassaviy, Najmiddin Kubro va boshqalar islom dini va Qur’oni Karimning mazmunini hamda mohiyatini tahlilu talqin etgan, jamiyat, inson, xulq va haq, odob va tartib, harom va halol, axloq va nafosat haqida o‘zlarining asrlar osha eskirmaydigan va mangu joziba kuchiga ega asarlarini yaratdilar. O‘rta Osiyodan chiqqan mashhur olimlarning ilmiy kashfiyotlaridan butun insoniyat, xususan, yevropaliklar keng foydalandilar.

IX-XV asrlarda Yevropadagi har bir universitetda Alfarganusning (Al Farg'oniy) va Al Xorazmiyning (Algoritmi – lotinchasiga) matematikaga oid ishlari darslik va qo'llanma sifatida o'rganildi. Ibn Sinoning "Tib qonunlari" va boshqa asarlari bu qit'a shifokorlari, tabiblari uchun kundalik qo'llanmaga aylandi. Bu narsalar G'arb olimlari tomonidan bir necha asrlardan beri qayd etib kelinadi, lekin O'rta Osiyo olimlari tomonidan kam o'rganilgan.

O'rta Osiyo Renessansi davri – hali ko'p jihatdan ochilmagan qo'riq. Uning behisob boyliklaridan xalqimizning bahramand va jahon fanini xabardor etish umummilliy vazifalarimizdan biridir. Buning uchun milliy mustaqillik tufayli barcha imkoniyatlar yaratilgan.

2014-yil 15-16-may kunlari Samarqand shahrida bo'lib o'tgan "O'rta asrlar Sharq allomalari va mutafakkirlarining tarixiy merosi, uning zamonaviy sivilizatsiya rivojidagi roli va ahamiyati" mavzusidagi xalqaro konferensiyalarda yurtimizda ta'lim-tarbiya, ma'naviy-ma'rifiy ishlar, gumanitar va ijtimoiy-iqtisodiy fanlar sohalarida erishilgan yutuqlar yana bir bor e'tirof etildi va amalga oshirilishi lozim bo'lgan vazifalarning konseptual yo'nalishlari belgilab berildi.



1-topshiriq:

a) matnni o'qing;

b) matnni qismlarga bo'lib, har bir qismni nomlang;

d) matn mazmunini kengaytirib gapirib bering.

Abu Rayhon Beruniy (973-1048)

Jahon, xususan, Sharq madaniyati va fanining yorqin siymolaridan biri Abu Rayhon Muhammad ibn Ahmad al-Beruniy 973-yilda Xorazmda tug'ildi.

Beruniy Xorazmshoh Ma'mun rahbarligida Urganchda vujudga kelgan o'z davrining yirik ilmiy markazlaridan biri - Ma'mun akademiyasida faoliyat ko'rsatdi. Keyinchalik esa har xil sabablarga ko'ra G'azna shahriga ketishga majbur bo'ldi, ona yurtidan yiroqda ham yirik fan va jamoat arbobi sifatida katta obro' qozondi.

Abu Rayhon Beruniyning o'rta asrlar fanlariga, xususan, astronomiya, fizika, matematika, geodeziya, geografiya, geologiya, falsafa, xronologiya, fanlar tarixi va boshqa fanlarga qo'shgan ulkan hissasi uni butun dunyoga tanitdi. U ilmiy tabiatshunoslikka asos solgan allomalardan biri bo'lib, turli sohalarda o'z davri uchun taajjubga soluvchi fikrlar, xulosalar va ilmiy farazlarni olg'a surgan ediki, ular bir necha asrlardan so'ng Yevropa ilmida o'z isbotini topdi. Aniq ilmiy yondashuv asosida mashhur yunon mutafakkiri Aristotel qarashlarini rivojlantirdi, zaif tomonlariga esa tanqidiy nuqtai nazardan yondashishga harakat qildi.

Beruniy komil insonparvar shaxs sifatida xalqlar do'st, inoq va birdamlikda yashashi uchun kurashdi, insoniyatga, u yaratgan fan va madaniyatga qirg'in keltiruvchi urushlarni qoraladi. Allomaning Hindiston va boshqa mamlakatlarda amalga oshirgan keng ilmiy-tadqiqot ishlari xalqlar o'rtasidagi do'stlik, o'zaro hamkorlik, madaniy, ilmiy aloqalarni mustahkamlashga qaratilgan edi.

Beruniy ulkan meros, o'z davri ilm-fanining turli sohalariga oid 160dan ortiq asarlar, bir necha tillardan qilingan tarjimalar, turli yozishmalar qoldirdi. Ular orasida jahon fanida eng ishonchli va muhim manbalar sirasiga kiritilgan "Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar", "Geodeziya", "Hindiston", "Mas'ud qonuni", "Mineralogiya" ("Saydana") kabi asarlari alohida o'rin tutadi. O'rta asrlardan boshlab uning asarlari lotin, fransuz, ingliz, nemis, fors, turk tillariga o'girildi.

O'zbekiston olimlari Beruniy merosini o'rganishga katta hissa qo'shmoqdalar. Asosiy asarlarini qamragan ko'p jildlik saylanma nashrlar o'zbek va rus tillarida O'zbekiston Fanlar akademiyasi tomonidan chop etildi. Hozirgi kunda ulug' alloma merosiga jahon miqyosida qiziqish tobora ortib bormoqda. O'zbekistonda fan va texnika sohasidagi eng yaxshi asarlar uchun beriladigan Davlat

mukofoti Beruniy nomi bilan ataladi. 1973-yilda YUNESKO tashabbusi bilan Beruniy tavalludining 1000 yilligi jahon miqyosida keng nishonlandi.

2-topshiriq:

b) matnni o'qing;

b) matndagi atama va terminlarni izohlang;

d) matn mazmunini kengaytirib gapirib bering;

e) matnni qismlarga bo'lib, har bir qismni nomlang.

GRAMMATIKA.

Atamalar va ularning vujudga kelishi.

Ilmiy adabiyotlarda ta'kidlanishicha, ma'lum fan, ishlab chiqarish sohasidagina qo'llaniladigan va asosan o'sha soha kishilari tushunadigan maxsus so'zlar terminlar – atamalar sifatida qaraladi.

Atamalarning shakllanishi ham xalqning tarixi qadar qadimiydir. To'nyuquq, Kultegin, Bilga hoqon singari bitiktoshlarda xalqimiz mashg'ul bo'lgan hunarlarga oid atamalarni uchratamiz. Ular xalq tomonidan yaratilgan afsonalarda, qahramonlik qo'shiqlarida ham mavjud bo'lgan. Ularni mujassam qilgan Mahmud Qoshg'ariyning "Devonu lug'otit-turk" asari ularning bizgacha yetib kelishida katta tarixiy vazifani bajargan.

Atamalarning dastlab ikki katta guruhga ajratish to'g'ri bo'ladi:

1. Umumiylik xususiyatiga ega bo'lgan atamalar.

2. Xususiylik xususiyatiga ega bo'lgan atamalar.

Umumiy atamalar sirasiga bir terminologik tizimning barcha yo'nalishlari uchun tushunarli bo'lgan atamalar kiradi. Masalan, sportdagi *musobaqa, sovrin, sovrindor, yutuq, g'alaba, birinchilik, chempionat, ko'rik, trener, hakam* atamalarini sportning barcha turlarida bemalol qo'llash mumkin. Fizikaga oid *issiqlik, temperatura, jism, elektr, magnit, gaz, harakat, energiya, maydon* singari atamalar haqida ham shu gaplarni aytish mumkin.

E'tirof etish kerakki, o'zbek tilida chetdan qabul qilingan ilmiy-texnikaviy atamalarning salmog'i katta. An'anaga ko'ra ularni quyidagi yo'nalishlarda o'rganamiz:

1. Arabcha: *amaliyot, asar, asos, izoh, ilm, in'ikos, ilova, isloh, istiloh, islohot, maqola, misol, masala, maxraj, manfiy, musbat, mavzu, mazmun, mantiq, ma'naviy, ma'rifiy, muqaddima, mushohada, tajriba, taqriz, tahlil, uslub, fan, falsafa* va hokazo.

2. Forscha-tojikcha: *bastakor, duradgor, zabtkor, navosoz, navoxon, shogird, peshqadam, sovrin, sozanda, ustoz, chavandoz, yakkaxon, havaskor, hamshira* kabi.

3. Ruscha-baynalmilal: *abzas, agronomiya, agrotexnika, arxeologiya, gazeta, kodeks, lingvistika, matematika, nekrolog, plenum, realism, romantizm, sessiya, syezd, fizika, fonetika, fonologiya* va hokazolar. Ularning ma'lum qismlari:

4. Lotincha: *abbreviatsiya, abstrakt ot, agglyutinatsiya, adverbializatsiya, adyektivatsiya, aktualizatsiya, aksentologiya, alliteratsiya, areal, artikulyatsiya, assimilyatsiya, affiks, affiksoid, affrikata* kabi.

5. Yunoncha: *allegoriya, allomorph, allofon, alfavit, amorf tillar, analitik tillar, analogiya, anomaliya, antiteza, antonim, antroponim, apokopa, arxaizm, aforizm* singari.

3-topshiriq. Quyidagi tayanch so'z va iboralarning ma'nosini izohlang.

Tavallud, ilmiy markaz, ilmiy ishlar, astronomiya, darslik, qo'llanma, dunyo, mashhur, risola, qo'lyozma, kutubxona, lotin tili, olim, noshir, jadval.

4-topshiriq. Hikmatlarni o'qing va mazmunini tushuntiring.

Odamlar o'rgangan, odatlangan va ko'pchilikka ma'qul bo'lgan narsaga ko'r-ko'rona qarshilik ko'rsatmaydi.

Tenglik hukm surgan joyda sotqin, aldamchi ehtiroslar, g'am-g'ussa bo'lmaydi.

Bilim - qaytarish va takrorlash mevasidir.

Ehson qilgan kishining minnati ehsonini yo'qqa chiqaradi.

Yaxshi bilmagan narsasiga uringan kishi sharmanda bo'ladi.

Bilmaganligimiz sababli bilgan narsalarimizni aytmay qo'yishimiz ham yaxshi emas.

Har bir insonning qadr-qiymati o‘z ishini qoyil qilib bajarishida.

Yer dumaloq bo‘lmaganda, odamlar yashaydigan joylar kengligi jug‘rofiy mintaqalarga ajralmas edi, yozu qishda kecha bilan kunduz uzunligi o‘zgarmas edi, yoritgichlarning ufqqa nisbatan vaziyatlari va sutkali yo‘llari hozirgidek ko‘rinishda bo‘lmas edi.


Delfin - dengiz hayvoni bo‘lib, damlangan teriga o‘xshaydi. U odamni sevadi, kemalarni kuzatadi, g‘arq bo‘lganlarni o‘lik-tirikligidan qat’iy nazar qutqaradi.

Inson hayotidagi zarurat, ehtiyojlar ularning ilmlarga bo‘lgan talablarini keltirib chiqaradi. Shu ehtiyojlarga ko‘ra ilmlar har xil tarmoqlarga bo‘lindi. Ilmlarning foydasi ochko‘zlik bilan oltin-kumush to‘plash uchun bo‘lmay, balki u orqali inson uchun zarur narsalarga ega bo‘lishdir.

Abu Rayhon Beruniy

5-topshiriq. Qanday? sxemasini to‘ldiring.

Jahon sivilizatsiyasiga katta xissa qo‘shgan o‘zbek allomalaridan kimlarni bilasiz? Ularni **qanday** hizmatlari uchun e’zozlaymiz?



6-topshiriq. Algebra va meditsina so'zlarining kelib chiqish tarixi haqida kursdoshingiz bilan dialogga kirishing.

7-topshiriq. Matnning asosiy mazmunini rus tilida qisqartirib so'zlab bering.

Abu Rayhon Beruniyning iqtisodiy ixtirosi

Pul paydo bo'lgan davrdan boshlab, ayniqsa, tanga shaklidagi turli metallardan pul zarb etish boshlangan. Misrda Movaroynnahr va Xurosonda juda katta miqdorda to'la qiymatga ega bo'lmagan tangalar zarb etish avjga chiqqan. Masalan, muomalada bo'lgan "Ismoiliy" dirhamlari qimmatga ega bo'lmagan metallardan zarb qilingan. Buxoro dirhami - "gitrifiy" yoki past sifatli kumushdan yasalgan "Muhammadiy" tangalar muomalaga chiqarilgan. Bunday hol turli xil qallobliklarning, aldashlarning kuchayishiga qulay sharoit yaratdi. Buning oqibatida oltin dinorlar ham muomalada qatnashmay qolishiga olib keldiki, natijada oltin tangalar oddiy tovarlar kabi tortib beriladigan vaziyat vujudga keldi.

Ma'lumki, Abu Rayhon Beruniy mineralogiya va metalshunoslik bo'yicha o'z davrining eng yirik olimi edi. U iqtisodiy taraqqiyotga putur yetkazayotgan bunday ahvolga qarab turmadi. U juda katta tadqiqotlar, izlanishlar, amaliy tajribalar o'tkazib, minerallar tarkibidagi qimmatbaho metallar hissasini oppish uslubi - maxsus o'lchov asbobini yaratdi. Bu asbob pul munosabatlari tarixida, uning rivojlanishida bebaho ahamiyatga ega bo'ldi. Bu asbob yordamida turli metallardan yasalgan tangalar tarkibidagi qimmatbaho metallarning haqiqiy miqdorini o'lchash mumkin bo'ldi. Bunday asbobning yaratilishi pullar o'rtasidagi haqiqiy nisbatlarni aniqlash, ularni o'zaro almashtirishning adolatli asoslariga ega bo'lish imkoniyatini berdi. Beruniy o'zi yasagan asbobning tuzilishini, uning qanday mexanizmlardan va qay usulda yasalganini "Mineralogiya" nomli asarida bayon qilgan.

8-topshiriq. Jahon sivilizatsiyasiga katta hissa qo'shgan o'zbek allomalari haqida taqdimot tayyorlang.

9-topshiriq. Jahon iqtisodiyoti rivojlanishiga katta hissa qo'shgan taniqli iqtisodchilar haqida ma'lumot to'plang.

10-topshiriq. Buyuk allomalarimizdan birining asarlari ro'yxatini tuzing.

11-topshiriq. Savollarga o'gzaki javob bering.

1. Jahon sivilizatsiyasiga munosib hissa qo'shgan o'zbek allomalaridan kimlarni bilasiz?
2. Algebra, meditsina so'zlarining shakllanish tarixi haqida nimalar bilasiz?
3. Beruniyning qanday asarlarini bilasiz?
4. Beruniyning jahon madaniyatiga qo'shgan hissasi nimalardan iborat?
5. Beruniyning iqtisodiy ixtirosi haqida nimalar bilasiz?
6. Jahon fanida eng ishonchli va muhim manbalar sirasiga kiritilgan "Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar", "Geodeziya", "Hindiston", "Mas'ud qonuni", "Mineralogiya" ("Saydana") kabi asarlar muallifi kim?
7. Nechanchi yilda YUNESKO tashabbusi bilan Beruniy tavalludining 1000 yilligi jahon miqyosida keng nishonlandi.
8. Jahon fanida eng ishonchli va muhim manbalar sirasiga kiritilgan "Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar", "Geodeziya", "Hindiston", "Mas'ud qonuni", "Mineralogiya" ("Saydana") kabi asarlar muallifi kim?
9. Beruniy shunday asbob yaratdiki, bu asbob yordamida turli metallardan yasalgan tangalar tarkibidagi qimmatbaho metallarning haqiqiy miqdorini o'lchash mumkin bo'ldi. Bu asbob haqida qaysi asarida yozgan?
10. Beruniy G'azna shahriga ketishdan oldin qayerda faoliyat ko'rsatdi?

12-topshiriq. Matnni tarjima qiling.

АЛЬ-ХОРЕЗМИ (783-850)

Мухаммад ибн Мусо аль Хорезми, великий учёный, получил начальное образование у себя на родине у частных учителей, затем обучался в медресе в Мерве, был приглашён в Багдад в "Дом учёных" ("Байт-ул-хикма"). В этом научном заведении он совершенствует своё образование с такими учёными, как Ахмад аль-Фаргани, Хамид ибн Абдумалик Марварруди, Аббос Жавхари.

Термины, "алгебра", "алгоритм" из его произведений "Аль-жабр ва аль-мукобала", "Аль-жабр" стали известны, и дошли до наших дней. В таких трудах, как "Книга по индийскому исчислению", "Астрономические таблицы", он исследует проблемы астрономии. В них он даёт сведения о солнечном, лунном исчислении движения планет, параметрах Луны и её движении, определении синуса по дуге, таблицу отрицательных синусов. В книге "О состоянии Земли" даются сведения о расположении, координатах и характерах более чем 2400 городов, морей, островов и других объектов. Он создал географические карты и виды реки Нил, Азовского, Каспийского и Аральского морей. Нам известны 16 его книг, таких, как "Книга о работе с астролябией", "Книга об эре иудеев и определении их праздников", "Книга по истории", "Книга о психическом состоянии" и др.

13-topshiriq. Matnni tarjima qiling, ***insert texnologiyasi*** yordamida o'zlashtiring.

МИРЗО УЛУГБЕК (1394-1449)

Мирзо Мухаммад ибн Шахрух ибн Тимур Улугбек Кураган – великий астроном и математик, выдающийся ученый своей эпохи, государственный деятель, внук прославленного правителя и полководца Амира Темура.

Улугбек (Мухаммад Тарагай) родился 22 марта 1394 года в городе Султания на территории нынешнего Азербайджана.

После смерти великого Сахибкирана в 1405 году Мавероуннахр был отдан в управление внуку Амира Темура – Улугбеку. В 1409 году Улугбек был объявлен правителем Самарканда, а после смерти своего отца Шахруха в 1447 году стал главой династии Темуридов.

В юности Улугбек проявлял большую склонность к наукам и искусствам, особенно к математике и астрономии. Расширению его интеллектуального кругозора способствовала собранная его дедом и отцом богатая библиотека, в которой он проводил большую часть времени.

При Улугбеке Самарканд стал одним из мировых центров науки средневековья.

В 1417-1420 годах Улугбек построил в Самарканде медресе, которое стало первым строением в архитектурном ансамбле Регистан. В это медресе Улугбек пригласил большое количество астрономов и математиков исламского мира. Другие два медресе были построены в Гиждуване и Бухаре.

Но большой страстью Улугбека и его соратников-ученых астрономов, таких, как Казы-заде-ар-Руми, Джемшид Гияс-ад-дин-ал Каши, Али Кушчи и др., стало создание обсерватории. Строительство обсерватории, как считают ученые-исследователи, было завершено в 1428-1429 гг.

Под руководством и при участии великого астронома Улугбека был составлен главный труд обсерватории "Зиджи-Гурган" – "Звездные таблицы Улугбека". В каталоге содержатся координаты 1018 звезд, определенные этой Самаркандской обсерваторией с невероятной точностью впервые после Гиппарха. Создание астрономического каталога является выдающимся вкладом в сокровищницу мировой астрономической науки.

Старший сын Улугбека Абдул-Латиф, находившийся под влиянием радикальной части духовенства, объявил отцу войну. Сын предложил отцу паломничество в Мекку. По дороге в Мекку Улугбек был предательски убит по решению шариатского суда.

Богатое научное наследие Улугбека свидетельствует о том, что он был не только великим сыном мусульманских народов, но и своим творчеством внес неоценимый вклад в развитие науки всего человечества. Поэтому, спустя многие века и поныне, имя Улугбека остаётся символом, объединяющим народы Востока и Запада во имя достижения благородных целей.

По инициативе президента Республики Узбекистан Ислама Каримова Национальный университет Узбекистана назван именем этого выдающегося ученого. Это свидетельствует о высоком научно-просветительском потенциале республики.

В 2009 году в Париже состоялась международная научная конференция, посвященная 615-летию Мирзо Улугбека.

6-MAVZU. VATAN VA VATANPARVARLIK

Barchamizga ayon bo'lishi kerakki, qayerdaki beparvolik va loqaydlik hukm sursa, eng dolzarb masalalar o'zi bo'larchilikka tashlab qo'yilsa, o'sha yerda ma'naviyat eng ojiz va zaif nuqtaga aylanadi. Va aksincha – qayerda hushyorlik va jonkuyarlik, yuksak aql-idrok va tafakkur hukmron bo'lsa, o'sha yerda ma'naviyat qudratli kuchga aylanadi.

Islom Karimov

VATAN

Vatan (arabcha "vatan" - ona yurt) - inson yashab turgan, unib-o'sgan joy, hudud, ijtimoiy muhit, mamlakat.

Vatan bir-birini taqozo etuvchi tashqi muhit va ichki kechinmalar hamda tushunchalarni o'z ichiga oladi. Tashqi muhit nuqtai nazaridan Vatan kishi yoki avlodlar tug'ilib o'sgan va kamol topgan joy, zamin, o'lkadir. Vatan ostonadan boshlanadi, deb bejiz aytmaydi xalqimiz. Biroq kishi ulg'aygan sayin, uning Vatan haqidagi tushunchasi ham kengayadi. Natijada tili, e'tiqodi, urf-odatlari va milliy sifatlari bir bo'lgan avlodlar yashagan va yashayotgan geografik muhit Vatanni ifoda etadi. Ichki tushuncha va kechinmalarni ko'zda tutib fikr yuritsak, Vatan tarixiy rivojlanish jarayonida paydo bo'lib, tashqi muhit va davrlar ta'sirida shakllangan va o'zgarib kelgan ijtimoiy-ruhiy tuyg'udir.



Millatlar va elatlar o'rtasidagi iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy aloqalarning o'sishi avvallari faqat bir elat yoki millat uchun Vatan bo'lgan o'lkani bu o'lkada yashab turgan barcha elat va millatlar uchun Vatanga aylantiradi. Res-

publikamizda hozir yashayotgan yuzdan ziyod millat va elatlarning O'zbekistonni o'z Vatani deb bilishi ham ana shunday jarayonlar va o'zgarishlar natijasidir. Shu boisdan, Vatan tushunchasi tor milliy qarashlardan kengroq bo'lib, u bir joy, zamin, o'lkada yashayotgan kishilarni ularning millatidan qat'iy nazar birlashtiruvchi ijtimoiy tuyg'udir. 1920-yillarda yurtimizdan chet ellarga ketishga majbur bo'lgan vatandoshlarimizning farzandlari va nevaralari ham O'zbekistonni o'z Vatani deb biladilar. Bu o'rinda milliy-ma'naviy tushunchalar va an'analar ko'proq ta'sir qilayotgani ayondir.

Vatan, eng avvalo, obyektiv muhit, borliq, zamin bilan bog'liq bo'lgani uchun kishi ongida aniq tasvir, qiyofa, siymolar tarzida shakllanadi. Mavhum Vatan yo'q. Vatan har doim aniq ko'rinishga ega bo'ladi. Shuning uchun ham u kishidan aniq va maqsadli munosabatlarni talab etadi. O'zaro bir-birimizga, ota-bobolarimizga, tariximizga, yon-atrofimizni qurshagan tabiatga va farzandlarimizga bo'lgan munosabatlar oxir-natijada Vatanga bo'lgan munosabatlarimizdir.

Xalq madaniyati, an'analari, urf-odatlari, milliy ong ham Vatan tushunchasi bilan mustahkam bog'liq. Kishining shakllanishida ushbu qadriyatlar yetakchi o'rin tutgani sababli, ular Vatan tushunchasiga bog'lanib qolishi tabiiy. Demak, Vatan kishining, avlodlarning butun hayoti, turmush tarzi, ongi, o'tmishi va kelajagi bilan bog'liq bo'lgan keng qamrovli tushunchadir.

1-topshiriq:

a) matnni o'qing;

b) matnni kichik qismlarga ajratib reja tuzing;

d) matnni reja asosida birinchi shaxs nomidan so'zlab bering.

2-topshiriq. Quyidagi tayanch so'z va iboralarning ma'nosini izohlang.

Ona, yurt, o'lka, tashqi muhit, ijtimoiy tuyg'u, chet el, vatandosh, xalq madaniyati, turmush tarzi, kelajak.

VATANPARVARLIK

Vatanparvarlik - kishining o'zi tug'ilib o'sgan, kamol topgan joy, zamin, o'lkaga bo'lgan mehr-muhabbatini, munosabatlarini ifoda etadigan ijtimoiy va ma'naviy-axloqiy xislatlari, fazilatlaridir. Vatanparvarlik aniq muhitda, zaminda va mavjud ma'naviy-axloqiy qadriyatlar asosida shakllanadi. Shaxs vatanparvarlik tuyg'usini yaratmaydi, balki uni tayyor holda qabul qilib, asta-sekin o'z ongiga singdiradi. Chunki vatanparvarlik uzoq tarixiy rivojlanish jarayonida shakllanadigan ijtimoiy tuyg'udir.

Vatanparvarlik kishilarning ijtimoiy va ma'naviy-axloqiy xislatlarining, fazilatlarining yuksak darajada namoyon bo'lishidir. Zero, ular negizida ota-bobolardan meros qolgan zaminni sevish, urf-odatlarni, qadriyatlarni saqlash, el-yurt ravnaqi uchun chin dildan mehnat qilib, Vatanni dushmanlardan himoya qilish, har qanday qaramlikdan ozod etish, hatto, zarur bo'lsa, uning ozodligi va mustaqilligi uchun jonini ham ayamaslik kabilar yotadi. Vatanparvarlik el-yurt manfaatlariga xizmat qilish, el-yurt manfaatlarini shaxsiy manfaatlardan ustun qo'yish demakdir.

Fidoyilik vatanparvarlikning bosh belgisi hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasining mustaqil davlat sifatida mustahkamlanishi, uning iqtisodiy, ma'naviy-madaniy taraqqiyoti, mehnatkashlarning tezroq farovon hayotga erishishi uchun tinmay mehnat qilishi va izlanishini fidoiylik deyishimiz mumkin. Fidoiylik Vatanga bo'lgan sadoqatdan, muhabbatdan boshlanadi. Istagan sohada vatanparvarlik tuyg'usini namoyon qilish mumkin. Tabiatni muhofaza qilish, ota-bobolarimiz qoldirgan madaniy meroslarni to'plash, o'rganish, avaylab saqlash va targ'ib qilish kabilar ham vatanparvarlik hisoblanadi.

Vatanparvarlikning oliy ko'rinishi jasoratdir. Jasorat kishining Vatan va yurtdoshlari uchun o'z manfaatlaridan, kerak bo'lsa, jonidan ham kechib namoyon etadigan yuksak ma'naviy-axloqiy fazilatlaridir. Jasorat xalq farovonligi, ilm-fan va madaniyat ravnaqi, Vatan himoyasi uchun qilingan uzoq mehnatda ham, o'zini fido qilishni talab etadigan favqulodda holatlarda ham namoyon bo'lishi mumkin.

Vatanparvarlik o‘zbek xalqining milliy tuyg‘usini rivojlantirish, milliy yuksalish g‘oyalarini targ‘ib qilish, mamlakatimizda yashayotgan turli elat va millatlar o‘rtasidagi do‘stlik, tinchlik va ahillikni mustahkamlash uchun kurashishda ham namoyon bo‘ladi. Xuddi shuningdek, u O‘zbekistonda demokratiya va hurfikrlilikning qaror topishiga g‘ov bo‘layotgan hollarga qarshi kurashishni ham o‘z ichiga oladi.

Vatanparvarlik hissini uyg‘otish, mustahkamlash va uning talqinini kengaytirish - mustaqil O‘zbekiston fuqarolarining muhim vazifasi ekanligi shubhasizdir.

3-topshiriq:

a) matnni o‘qing;

b) matnga savollar tuzing;

d) matnni kichik qismlarga ajratib reja tuzing;

e) reja asosida matn mazmunini so‘zlab bering.

4-topshiriq. Quyidagi tayanch so‘z va iboralarning ma’nosini izohlang.

Zamin, mehr-muhabbat, ma’naviy-axloqiy qadriyatlar, urf-odatlar, el-yurt ravnaqi, shaxsiy manfaat, fidoyilik, madaniy meros, sadoqat, jasorat, xalq farovonligi, ilm-fan va madaniyat ravnaqi.

GRAMMATIKA

Ijtimoiy-siyosiy leksika.

O‘zbek tiliga davlat tili maqomining berilishi hamda mustaqillikka erishganligimiz munosabati bilan tilimizda qo‘llanilib kelayotgan ruscha va rus tili orqali kirib kelgan terminlarning anchasi har ikkala tildagi mos muqobillari bilan almashtirila boshlandi. Masalan, o‘zbek tilida qo‘llanib kelgan terminlar quyidagicha almashtiriladi: Abstrakt – mavhum, avtograf – dastxat, adaptatsiya – moslashish, administratsiya – ma’muriyat, direktiva – ko‘rsatma, krizis – tanglik va b.

Ijtimoiy-siyosiy terminlarning paydo bo'lish tarixini qadimdan boshlashimiz zarur. Umumturkiy meros bo'lmish O'rxun-Enasoy va boshqa yodnomalarda o'z ifodasini topgan qag'an, budun, baliq ("shahar" ma'nosida), sab ("kengash" ma'nosida), bitikchi ("kotib" ma'nosida), alp ("qahramon" ma'nosida) kabi terminlar buning yaqqol misolidir. Ijtimoiy-siyosiy hayotdagi o'zgarishlar, tabiiyki, o'zining leksik qatlamlarida ham o'z ifodasini topadi. Bu fikrimizni M.Qoshg'ariyning "Devonu lug'otit turk" asaridagi quyidagi ijtimoiy-siyosiy terminlar misolida ham ko'rish mumkin: and, buzun, baæ, boæun ("jamoa" ma'nosida), bachèg' ("ahd" ma'nosida), beg, æarlèg', boæ ("qabila" ma'nosida), æag'è, bulg'aq ("fitna" ma'nosida), æer ("mamalakat" ma'nosida) va hokazo.

Ijtimoiy-siyosiy hayotdagi har qanday o'zgarish uning terminologiyasida ham o'z izini qoldiradi. Ijtimoiy-siyosiy terminologiya deganda siyosiy tuzum, ijtimoiy va siyosiy guruhlar, partiyalar, oqimlar va ularning vakillari, hukumat yig'ilishlari va muassasalari, davlatni boshqarish va uning organlari, dunyoqarashlar, mulkiy munosabatlar, ichki va tashqi siyosat, ijtimoiy-siyosiy hujjatlar, axloq masalalari, xullas, ijtimoiy-siyosiy hayot bilan bog'liq tushunchalarni ifodalovchi leksik birliklar majmui tushuniladi. O'zbek tilining ijtimoiy-siyosiy terminologik lug'ati 1976-yildayoq nashr etilgan edi.

5- ***topshiriq.***

Tarixda o'z jasorati bilan nom qoldirgan qahramonlar haqida hikoya tuzing.

6-topshiriq.

"Vatanparvarlik nima?" mavzusida esse yozing.

7-topshiriq.

Davriy nashrlardagi maqolalar asosida fidoyiligi bilan tanilgan zamondoshlarimiz haqida ma'lumot tayyorlang.

8-topshiriq. So'zlarni tartib bilan qo'yib, gaplar tuzing.

1. Talabalar, jo'nab ketishdi, bugun, yordam berishga, paxtakorlarga.

2. Singlisiga, Asror, sotib oldi, bir quti qalam, bir rasm daftar.
3. Bo‘lmadi, o‘tgan yil, qishda, sovuq, qattiq.
4. Cho‘mildik, yozda, suv omborida, Kattaqo‘rg‘on.
5. Olindi, bu yil, paxtadan, mo‘l hosil.
6. Ikkita, gilam, biz, sotib oldik, chiroyli.
7. Singlisi, Javohirning, Madina, qiz, aqlli va kamtarin.
8. O‘tadi, oqib, O‘zbekistondan, daryo, ikkita, katta.
9. Ertalab, turasiz, har kuni, siz, soat nechada, uyqudan?
10. Universitetni, bitirgani, akam, yo‘q, hali.

9-topshiriq. “Tinchlik” so‘ziga sinkveyn tuzing.

“Sinkveyn” (5 qator) texnikasi

1-qator – tushuncha - ot
2-qator –2 so‘zdan iborat sifat
3-qator –3 so‘zdan iborat fe’l
4-qator –4 so‘zdan iborat munosabat
5-qator –1 so‘zdan iborat sinonim

10-topshiriq. Matnni o‘qing. Qaysi uslubga xosligini ayting.

Oila - tabiatning shoh asari

Oila tabiatning shoh asarlaridan biridir, degan edi J.Santayana. Odam oilada kamol topadi. Xuddi mana shu yerda birinchi quvonch va tashvishlarini tatib ko‘radi.

Ulug‘ mutafakkir Kaykovus “Qobusnoma”da farzandning aql egasi bo‘lishini hamma narsadan ulug‘ deb bilib, shunday nasihat qilgan edi: “Agar molsizlikdan qashshoq bo‘lsang, aqldan boy bo‘lmoqqa harakat qil, chunki mol bila boy bo‘lmog‘dan, aql bila boy bo‘lmoq yaxshiroqdir. Aql bila mol jam etsa bo‘lur, ammo mol bila aql o‘rganib bo‘lmas. Bilgilki, aql bir qimmatbaho narsaki, uni o‘g‘ri ololmas, u o‘tda yonmas va suvda oqmas”.

Husayn Voiz Koshifiy deydi: “Eng yaxshi tarbiya bolaning bezori va badxulq kishilar bilan aloqa qilmasligini kuzatib turish

kerak. Bola aqlli, zehnli kishilar bilan ish tutishi lozim. Uning oldida doimo dono, bilimdon, fozil kishilarni maqtash zarur. Yomon qiliq va xatti-harakatlarni qoralash darkor, toki bolada ularga nisbatan nafrat uyg'onsin".

11-topshiriq. Quyidagi matnni o'zbek tiliga tarjima qiling.

Свободные экономические зоны

Свободные экономические зоны (СЭЗ) - это ограниченные территории, на которых создаются максимально благоприятные условия для вложения капитала, в первую очередь, иностранного - это льготы для инвестирования, отмена таможенных пошлин на ввоз и вывоз сырья и продукции, резко сниженные налоги на прибыль.

Свободные экономические зоны - это полигон, где испытываются новые методы управления производством и привлечения иностранного капитала, где испытываются новая техника и технология, проверяется надежность различных систем менеджмента, маркетинга и международного бизнеса, где испытываются новые модели налогообложения.

Свободные зоны обеспечены особым юридическим статусом: местные власти относительно свободны от центрального правительства в принятии экономических, а иногда и политических решений.

СЭЗ создаются там, где есть достаточно рабочей силы, где много дешевого местного сырья, где, по оценкам экономистов, можно получить большой экономический эффект.

Создание СЭЗ обеспечивает ускорение экономического роста в целом по стране, расширение выпуска товаров народного потребления, увеличение экспорта товаров и услуг.

12-topshiriq. Matnni tarjima qiling. Qo'shimcha ma'lumotlar asosida o'zbek tilida gapirib bering.


История предпринимательства в Узбекистане

Предпринимательство в Узбекистане имеет многовековую историю, но предпринимательство рыночных его форм, процесс создания промышленных, торговых, финансовых фирм активизировался в конце XIX в., когда число их резко возросло. Центрами хлопковой торговли, где открывались хлопковые фирмы, отделения различных крупных банков, становились Ташкент, Самарканд, Андижан и др. по свидетельству историков, 1 производственно-промышленное предприятие возникло в 1868г, когда на станции Горчаково (недалеко от Маргелана) был открыт хлопкозавод, оборудованный 6 джинами, паровым двигателем. Примечательно, что круг крупных узбекских предпринимателей производственно-промышленной сферы приложения капитала первоначально формируется на базе торгово-коммерческого направления хозяйственной деятельности. Еще в 1890-е годы старинные купеческие династии стали инвестировать свой капитал в закупку и первичную обработку хлопка, т.е. в реальной хозяйственной практике Узбекистана начался процесс интеграции финансовой и коммерческой и производственной сфер предпринимательства.

В 1889 г. в Туркестане функционировало одно отделение Госбанка, в 1891 г. - 5 отделений коммерческих банков. В 1912 г. в центрально-азиатском регионе финансовые услуги отечественным деловым кругам оказывали уже 7 отделений Госбанка, 40 коммерческих банков. Предпринимательская инициатива узбекского народа уходит своими корнями в историческое прошлое. В частности уже на рубеже XIX-XX вв на территории Узбекистана стали активно формироваться и функционировать предпринимательские структуры разных сфер бизнеса, имеющие в определенных чертах принципиальное сходство с реалиями сегодняшнего дня.

7-MAVZU. MUZEYLAR-O‘TMISH VA KELAJAK ORASIDAGI KO‘PRIK

Kim kitob o‘qishdan to‘xtasa, bilingki,
u fikrlashdan ham to‘xtagan bo‘ladi
Deni Dedro



Muzeylar... Bu madaniyat maskanlari yosh avlod uchun katta ahamiyatga ega. Chunki, muzeylarimizda bizning shonli va sharafli o‘tmishimiz, tariximiz aks etgan. O‘zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti I.A.Karimov: “Tarixsiz – kelajak yo‘q”, - deganlari-dek, tariximizni bilish, uni o‘rganish bizning oliy va sharafli burchimizdir. Bunday paytlarda, bizga tarixiy muzeylarimiz katta yordam beradi.

1996-yil 18-oktyabr kuni Sohibqiron tavalludining 660-yilligi munosabati bilan Amir Temur xiyoboniga tutash hududda Temuriylar tarixi davlat muzeyi barpo etildi. Muzeyning balandligi 31, diametri 70 metr. Muzey gumbazini yoritib turgan “Zumrad” deb nomlangan muazzam qandilning og‘irligi ikki tonnadan oshadi. Unda besh yuzta yoritgich jamlangan. Muzey uch qavatdan iborat. Birinchi qavatida xazinaxona, kutubxona, anjumanlar zali, ma’-muriyat joylashgan. Ikkinchi qavatdagi devor markazidan davlatimiz rahbari Islom Karimov g‘oyasi asosida miniatyurachi rassomlar S.Qoraboyev, G‘.Kamolov, X.Nazirov, T.Boltaboyev tomonidan ishlangan “Buyuk Sohibqiron – buyuk bunyodkor”, - deb nomlangan panno joy olgan. Uchinchi qavatda Markaziy Osiyoning ilk Uyg‘onish davridan to Sohibqiron davrigacha va temuriylar hayotidan hikoya qiluvchi eksponatlar, rang-barang osori atiqalar

o‘rin olgan. Dastlab muzey fondidan 600 eksponat joy olgan bo‘lsa, bugungi kunda ularning soni uch yarim mingdan oshadi.

Muzeyda turli mavzularda ko‘rgazmalar tashkil etish yaxshi ana’anaga aylangan. “Noyob qo‘lyozmalar xazinasidan”, “Amir Temur – Klavixo – Samarqand”, “Xorijdagi merosimiz”, “Samarqand durdonalari”, “Shohruhiya topilmalari” kabi ko‘rgazmalar shular jumlasidandir. Muzey xodimlarining sa’y-harakati bilan “Temuriylar davri madaniy yodgorliklari”, “Amir Temur va temuriylar davri: yangi tadqiqotlar” to‘plamlari nashr qilindi. Ayni paytda “Temuriylar davri madaniy yozma yodgorliklarining O‘zbekistonda va xorijda o‘rganilishi”, “O‘rta Osiyoda kitobat san’ati (temuriylar davrida yaratilgan asarlarning qo‘lyozma va toshbosma nusxalari)” kabi mavzularda tadqiqotlar olib borilmoqda. O‘tgan davr mobaynida muzey xalqimizning qutlug‘ qadamjolaridan biriga aylandi.

Temuriylar tarixi davlat muzeyi ilmiy –ma’rifiy maskanlardan biri bo‘lib, bu yerga doim o‘qituvchi va o‘quvchilar muzeyni tomosha qilish, uni o‘rganish va o‘zlariga bir olam zavq, taassurotlar olish uchun tashrif buyuradilar. Muzeyga kirar ekansiz, milliy urf-odatlarimiz, qadriyatlarimiz, an’analarimiz aks etgan tarixiy buyumlarga, jihozlarga duch kelasiz.

Mamlakatimizga tashrif buyurgan oliy va yuqori martabali mehmonlar, rasmiy delegatsiyalar vakillari yurtimizning boshqa diqqatga sazovor joylari qatori Temuriylar tarixi davlat muzeyini ham katta qiziqish bilan tomosha qiladi. Muzeyga tashrif buyuruvchilar orasida davlat, hukumat va parlament delegatsiyalari, xalqaro tashkilotlar vakillari, ishbilarmonlar, fan va madaniyat namoyandalari, sayyohlarning ko‘pligi tariximizga xorijda ham qiziqish tobora ortib borayotganidan dalolatdir.

1-topshiriq:

a) matnni o‘qing;

b) matndagi termin va iboralarning ma’nosini izohlang;

d) matnga munosabat bildirib so‘zlang.

GRAMMATIKA

Sohaviy terminlar va ularning qo'llanishi.

Iqtisodiyot terminologiyasini, umuman, boshqa soha terminologiyalarini ham boyitishda ona tili imkoniyatlaridan foydalanish haqida gap ketganda quyidagi uch holatga e'tibor berish zarur bo'ladi:

1. Muayyan bir tilda, shuningdek, o'zbek tilida ham iqtisodga oid tushunchalarni aniq ifodalovchi qator leksemalar qadim-qadimdan qo'llab kelinmoqda. O'zbek adabiy tili boyligining bir qismi o'laroq, bunday so'zlar keyinroq, konkret terminologik tizim vujudga kela boshlashi bilan iqtisod fanining maxsus tushunchalarini ifodalash uchun jalb qilina boshlangan edi. Masalan, *haq, bitim, pay, garov, dallol, pul, so'm, sug'urta, savdo, omonat, g'amlama* va boshqalar.

2. Iqtisodiyot bilan aloqasi bo'lmagan, boshqa-boshqa sohalarda qo'llanadigan terminlar ham maxsuslashtiriladi, ya'ni iqtisodiy terminlar sifatida ishlatiladi. Masalan, *taklif, sohibkor, o'sim, qoldiq, daraja, palata, kadrli, yetakchi, yig'im, qonun, qaydnoma, baho, xo'jalik* kabi yuzlab leksemalar iqtisodiy terminologik tizimda yakka holida ham, so'z birikmalarining tarkibiy qismlari sifatida ham ushbu soha terminlari sifatida amal qilinaveradi.

3. Iqtisodiyot terminologiyasining boyishidagi yana bir manba, bu iqtisodiy tushunchalarni ifodalash uchun xilma-xil affikslar ishtirokida hosil qilingan yasama lug'aviy birliklar hisoblanadi: *jamg'arma, ijarachi, ishsizlik, uyushma, tejamkor, iqtisodiyot, tadbirkor, bojxona, qarzdor, boylik* kabilar shular jumlasidandir. Bunday terminlarning bir qismi tegishli ruscha-baynalmilal muqobillarining o'zbek tilidagi kalkasi sifatida yuzaga kelgan.

Hozirgi o'zbek tili lug'at tarkibida, uning iqtisodiy terminlar tizimida yuqoridagidek umumturkiy, o'zbek terminlari bilan bir qatorda fors-tojikcha, arabcha, shuningdek, ruscha-baynalmilal leksemalar ham qo'llanib kelinayotir. Masalan, *sarmoya, savdogar, tojir, sarkor, daromad, dastmoya* kabi fors-tojikcha so'zlar asosiy iqtisodiy terminlar bo'lib qo'llanmoqda. O'zbek tili iqtisodiyot

terminologiyasining ruscha-baynalmilal terminlar hisobiga to'l-dirilishi haqida gap ketganda shuni aytish kerakki, rus tili leksikasi imperiya davrida mahalliy tillarga, xususan, o'zbek tiliga ham o'z ta'sirini o'tkazdi. Masalan, *veksel, preyskursant, kredit, tovar, buxgalter, bank, kassir, avans, makler* va boshqalar.

3-topshiriq. Matnni o'qing. Matnga nom bering. Matn mazmunini kengaytirib so'zlab bering. "O'zbekiston muzeylari" haqidagi bilimlaringiz asosida B/B/B jadvalini to'ldiring.

"Muzeylar xalqimizning uzoq tarixidan hikoya qiluvchi, moziydan sado beruvchi ma'naviyat maskanlari bo'lib, milliy mafkura va tafakkurni rivojlantiruvchi, yoshlarda milliy g'urur va iftixorni yuksaltirishga ulug' qadamjolar bo'lib qolmoqda".

Muzeylar yo'nalish va kolleksiyalariga qarab tarmoq, o'lkashunoslik va me'morial muzeylarga bo'linadi.

Tarmoq muzeyi ishlab chiqarish, fan va sa'natning biror tarmog'iga tegishli bo'ladi. Masalan: tarixiy muzeylar, zoologiya muzeylari.

O'lkashunoslik muzeylari muayyan ma'muriy hududning tarixi, tabiati, xo'jaligi, sa'nati, etnografiyasi va boshqa sohalarini kompleks aks ettiradi.

Memorial muzeylar muhim tarixiy voqealar, atoqli arboblarga bag'ishlanadi.

Muzeylar dastlab qadimgi Yunoniston va Rimda paydo bo'lgan. Bu mamlakatlarda ayrim sa'nat yodgorliklari ibodatxonada to'planib, turli ko'rgazmalar tashkil etilgan. Keyinchalik ellinizm davrida muzey kolleksiyalari vujudga keldi.

Muzeylarda sa'nat, madaniyat va fan erishgan yutuqlar namunalaridan iborat kolleksiyalar to'plandi.

Keyinchalik muzeylar Uyg'onish davrida Italiyada, so'ng Angliyada, Fransiya, Germaniya va boshqa joylarda rasm bo'ldi. Londondagi Britaniya muzeyi (1753-yil), Parijdagi Luvr muzeyi (1776-yil), G'arbiy Yevropadagi ilk ommaviy muzeylardir.

Jahondagi yirik muzeylar asosan 19-asrda paydo bo'ldi. Madriddagi Prado muzeyi (1819-yil), Moskvadagi Tarix muzeyi (1873-yil), Sankt-Peterburgdagi Ermitaj (1852-yil), Nyu-Yorkdagi Metropoliten muzeyi (1870-yil), Toshkentdagi Oybek nomidagi O'zbekiston Xalqlari tarixi muzeyi (1976-yil) shular jumlasidandir.

B/B/B
JADVALI

B/B/B JADVALI - Bilaman/ Bilishni xohlayman/ Bilib oldim. Mavzu, matn, bo'lim bo'yicha izlanuvchanlikni olib borish imkonini beradi. Tizimli fikrlash, tuzilmaga keltirish, tahlil qilish ko'nikmalarini rivojlantiradi. Talabalar:

1. Jadvalni tuzish qoidasi bilan tanishadilar. Alohida, kichik guruhlarda jadvalni rasmiylashtiradilar.
2. "Mavzu bo'yicha nimalarni bilasiz" va "Nimani bilishni xohlaysiz" degan savollarga javob beradilar. Jadvalning 1 va 2 bo'limlarini to'ldiradilar.
3. Topshiriqni tinglaydilar, mustaqil o'qiydilar.
4. Mustaqil, kichik guruhlarda jadvalning 3-bo'limni to'ldiradilar.

Bilaman	*Bilishni*	***Bilib oldim***
+	*xohlayman?*	-

4-topshiriq. "O'zbekiston muzeylari" mavzusi bo'yicha albom tayyorlang.

5-topshiriq. Matnni o'qing. Iqtisodiy atamalarni daftaringizga yozing va izohlang.

Bozor iqtisodiyoti

G'arbda bozor iqtisodiyoti deganda, iqtisodiy yechimlar asosan markazlashmagan tarzda qabul qilinadigan iqtisodiyot tushuniladi.

Bozor iqtisodiyotining faoliyat ko'rsatishi asosan bozor mexanizmlari orqali amalga oshiriladi. G'arb adabiyotida bozorning ko'pgina ta'riflari mavjud. Lekin ularning hammasi shundan iboratki, bozor mustaqil ravishda qarorlar qabul qiluvchi alohida xo'jalik yurituvchi subyektlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlar, aloqalar shakli hisoblanadi. Har doim ham bozor iqtisodiyoti sharoitida erkin bozor bo'lmay, balki raqobatli bozor o'z faoliyatini ko'rsatadi. Uning faoliyat ko'rsatishi uchun dastavval mulkchilikning xilma-xil shakllarini (xususiy, kooperativ, aksiyadorlik, davlat va boshqalarni) ro'yobga chiqarishini va bozor infrastrukturasini vujudga keltirishini talab etadi.

6-topshiriq. O'zbekiston muzeylaridan biri haqida taqdimot tayyorlang.

7-topshiriq. Soha muzeyi haqida matn tuzing.

8-topshiriq. O'qing. Matnni rus tiliga tarjima qiling.

Investitsiyalar

Investitsiyalar (nem. Investition, lot. *Investere* - o'rish) iqtisodni rivojlantirish maqsadida mamlakat yoki chet ellarda turli tarmoqlarga uzoq muddatli kapital kiritish, kapital sarflash tushunchasiga to'g'ri keladi. Uning moliyaviy va real turlari mavjud.

Moliyaviy investitsiya – aksiya, obligatsiya va boshqa qimmatbaho qog'ozlarni sotib olish; real investitsiya – mamlakat ichkarisida va chet ellarda ishlab chiqarishga kapital qo'yish, shuningdek, yosh suveren davlatlarga qarz va subsidiya berish shakllarida amalga oshiriladi. Investitsiyani davlat, banklar yoki xususiy sohibkorlar berishi mumkin. Keyingi davrda xalqaro iqtisodiy munosabatlarda investitsion hamkorlik rivoj topdi: bunday hamkorlikning real, (ishlab chiqarish tarmoqlariga uzoq muddatli pul qo'yilmalari), moliyaviy, (qimmatbaho qog'ozlar muomalasini qamraydigan xalqaro kredit - moliyaviy faoliyat), intellektual

(mutaxassislarni kurslarda tayyorlash, tajribani litsenziyalarni, hamkorlikda bajariladigan ilmiy ishlanmalar va boshqaga sarflash) turlari bor. Investitsion hamkorlik umumjahon va milliy muammolarni hal qilishga xizmat qiladi.

9-topshiriq. Matnni tarjima qiling. Jahonning mashhur muzeylari haqidagi ma'lumotlardan foydalanib ulardan biriga taqdimot (batafsil ma'lumotlar asosida) tayyorlang.

На сегодняшний день в мире насчитывается **более 100 тыс. музеев**, и каждый из них по – своему уникален. Однако существуют музеи, побывать в которых мечтает каждый интересующийся историей и культурой человек. Это самые известные музеи мира. Первое место в плане известности и уникальности специалисты отдают **Лувру**.

Лувр – знаменитый памятник архитектуры Парижа (Франция), ярчайший образец архитектуры эпохи Возрождения. Лувр, известный ранее как королевский дворец, в настоящее время – центральный музей искусств Франции.

Этот музей открылся во Франции, в Париже в 1793 году. До этого крепость, где расположена экспозиция, являлась резиденцией французских королей. В музее представлена огромная коллекция произведений искусства, а также различные исторические и научные экспонаты. Здание музея было построено в 1546-74 годах по проекту архитектора П.Леско и скульптура Ж.Гужона. в 1793 году Лувр был преобразован в Национальный художественный музей. Он собрал всемирно известные произведения искусств Леонардо да Винчи, Микеланджело, Тициана, Рубенса. Коллекция экспонатов Лувра распределена по разделам: изобразительное искусство, прикладное искусство, скульптура (средние века, эпоха Возрождения), памятники античности, древнего Востока и древнего Египта.

Британский музей находится в столице Великобритании г. Лондон. Заведение первый раз открыло двери для посетителей в 1753 году. Площадь этого музея равна 9 футбольным полям, коллекция представленных здесь экспонатов является одной из крупнейших на планете.

Музей Метрополитен (The Metropolitan Museum of Art) находится в г. Нью-Йорк, США. Он был открыт в 1872 году группой прогрессивных американцев, и изначально находился по адресу: 5 Авеню, здание 681. Позже музей дважды переезжал, но с 1880 года и по сей день местонахождение его неизменно – это Центральный парк, Пятая авеню. Коллекция Метрополитен музея насчитывает около 3 млн. экспонатов. Это произведения искусства со всего мира.

Галерея Уффици находится во Флоренции, Италия. Это один из самых известных музеев искусства в мире. Свое название он получил благодаря площади Уффици, на которой находится. В музее широко представлена живопись и скульптура итальянских мастеров, а также работы великих творцов со всего света. **Картинная галерея Уффици** была основана в XVI веке. Уникальным архитектурным произведением является само здание галереи. В галерее представлены картины итальянских живописцев XIII-XVII веков, а также произведения французской, немецкой, нидерландской, голландской и фламандской живописи и античной архитектуры.

Музей Мадам Тюссо в Лондоне – экспозиция, известная своей уникальностью. Здесь собрано более 400 восковых фигур – в их числе не только исторические личности, но и современные звезды.

Государственный Эрмитаж – достояние России. Заведение находится в г. Санкт-Петербург и обладает мировой известностью. Коллекцию музея начали собирать еще россий-

ские императоры, а свободный доступ в Эрмитаж был открыт только в 1863 году. Экспозиции Эрмитажа насчитывают более 3-х млн. экспонатов. Среди них не только произведения искусства, но и археологические находки, нумизматический материал, драгоценности. Сегодня музей занимает пять зданий: Зимний дворец, Малый Эрмитаж, Старый Эрмитаж, Придворный театр и Новый Эрмитаж.

Государственный музей Эрмитаж в Санкт-Петербурге – это величайший музей мира, в котором хранится свыше двух с половиной миллионов памятников культуры разных эпох, стран, народов.

История Эрмитажа тесно связана с историей зданий, в которых разместился современный музей. Зимний дворец и три здания Эрмитажа составляют один из самых замечательных архитектурных ансамблей Санкт-Петербурга.

Коллекция музея насчитывает более 15 тысяч картин, 12 тысяч скульптур, 600 тысяч археологических памятников, 1 миллион монет и медалей, 224 тысячи памятников прикладного искусства.

Музей Прадо – национальный музей Испании, находится в столице – г. Мадриде. В этом музее собрана огромная коллекция произведений изобразительного искусства европейских школ.

Египетский музей в Каире является наследием великой цивилизации. Впервые выставка экспонатов состоялась здесь в 1835 году. Сегодня это крупнейший музей древнеегипетского искусства. Здесь находится более 120 тыс. уникальных экспонатов, возраст которых начинается с доисторических времен.

8-MAVZU. KELAJAK BILIMLI YOSHLAR QO'LIDA

Yoshlarimizning mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma'naviy salohiyatga ega bo'lib dunyo miqyosida o'z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo'sh kelmaydigan insonlar bo'lib kamol topishi, baxtli bo'lishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etamiz.

Shavkat Mirziyoyev

O'zbekiston yoshlari

O'zbekiston - yoshlar mamlakati. Rasmiy ma'lumotlarga ko'ra, O'zbekiston aholisining 60 foizdan ortig'ini yoshlar, ya'ni o'ttiz yoshdan oshmaganlar tashkil qiladi. Bu - boshqa mamlakatlarning ko'rsatkichlaridan ikki-ikki yarim barobar ko'p. Demak, har yili yarim milliondan oshiq yangi tug'ilgan go'daklar aholi qatoriga qo'shilmoqda.

Respublikadagi 33 million aholining deyarli 21 millioni yoshlardir. O'zbekiston davlati bu omillarni inobatga olgan holda, yoshlar haqida doimiy g'amxo'rlik qilmoqda: 1991-yil noyabrida O'zbekiston Respublikasining "Davlat yoshlar siyosatining asoslari to'g'risida"gi Qonuni qabul qilindi; undan keyin ikki oy o'tar-o'tmas, 1992-yil yanvarida jismoniy tarbiya va sport to'g'risida, 1992-yil iyulda maorif va o'quv-o'qituv masalalari bo'yicha qonunlar e'lon qilindi. 1996-yil aprelida Respublika Prezidentining Farmoni bilan "Kamolot" yoshlar jamg'armasi ta'sis etildi. 1997-yil yanvarida esa Respublika Prezidenti Farmoniga binoan "Umid" iste'dodli yoshlarni rag'batlantirish jamg'armasi ta'sis qilindi, so'ngra "Iste'dod" tashkiloti ishga kirishdi. O'zbekiston, mustaqil davlatlar orasida birinchi bo'lib, "Sog'lom avlod uchun" ordeni hamda dasturini e'lon qildi, serfarzand oilalarga turli yordam, ko'mak yo'llarini yaratdi va yaratmoqda. Bu borada o'zini o'zi boshqarish organlariga, mahallalarga keng yo'l ochib berilgan.

Mustaqil O'zbekistonning yoshlar siyosati quyidagi asosiy yo'nalishlardan iborat bo'lishi kerak:

1. Yoshlarni jismonan va aqlan sog'lom bo'lib o'sishini ta'minlash.

2. Ularga tadbirkorlik, ishchanlik, mustaqil fikr yuritish qobiliyatini hayotdagi birinchi qadamlaridanoq singdirish.

3. Har bir yoshni o'z Vataniga mehr va muhabbat, sadoqat va fidokorlik ruhida tarbiyalash.

4. Bu mehr-muhabbat va sadoqatning ildizi chuqur bo'lishi uchun yoshlar o'z yurti tarixini, urf-odatlari va rasm-rusumlarini, uning jahon sivilizatsiyasi maydonidagi o'rnini har tomonlama bilishini ta'minlash.

5. Sport va jismoniy tarbiyani rivojlantirish, sportdan mamlakat va millatni ulug'lovchi xolis vosita sifatida foydalanish.

Yoshlarni tarbiyalashda birinchi o'ringa yangi texnika, texnologiya va fan yutuqlarini o'zlashtirish qo'yilishi lozim. Bu omillarni tadbirkorlik va ishbilarmonlik bilan uyg'unlashtirish, ularning birligiga erishish O'zbekiston oldida turgan asosiy vazifani - zamonamizning rivojlangan davlatlaridan biri bo'lish vazifasini amalga oshirishni tezlashtiradi. Istibdod yillarida hukmron mafkura amri bilan biz insoniyatning ko'pchiligini tashkil qilgan va fan, texnika, texnologiya sohasida tub o'zgarishlarni qo'lga kiritayotgan bozor munosabatlariga asoslangan mamlakatlardan uzilib qoldik, iqtisodni mafkuraga bo'ysundirdik. Uning ustiga-ust fuqarolar ongidan xususiy mulk, shaxsiy tashabbus va tadbirkorlik ko'nikmalarini hamda hissini uzil-kesil siqib chiqarish maqsadida izchil ish olib borildi.

Yosh avlod bilan tarbiyaviy ish shunday olib borilishi kerakki, u o'zining birinchi qadamlaridanoq o'z Vatanining, uning yer osti va yer usti boyliklarining egasi ekanligini va shu Vatanning gullab-yashnashi uning mehnatiga, tadbirkorligiga bog'liq ekanini chuqur anglab yetsin.

1-topshiriq:

a) matnni o'qing;

b) matnnig mazmunini kengaytirib (ijodiy yondashib) so'zlab bering.

GRAMMATIKA

O'zbek tilida sinonimlar.

Sinonim. So'z ma'nosi asosida o'zaro turli munosabatda bo'ladi. Ba'zi so'zlar ma'nosi asosida o'zaro bir-biriga yaqin bo'lsa, ba'zisi bir-birini inkor qiladi. Ma'nosi bog'lanmasa-da, tashqi tomoni (aytilishi, yozilishi) bir xil bo'lgan so'z ham bor bo'lib biri boshqasining mavjudligini eslatib turadi. Shunga ko'ra, sinonim, antonim, omonim va paronim ajraladi.

Tilda bir so'z ko'p ma'noni anglatishi bilan birga bir necha so'z bir tushunchani bildirishi ham mumkin. Masalan, osmon, falak, ko'k, samo, gardun; yurak, qalb, dil, ko'ngil kabi. Bir tushunchani turli ma'noda ifodalaydigan so'z sinonim deyiladi. Ma'nodosh so'zning atash ma'nosi o'zaro qo'shimcha ma'nosi bilan farqlanadi. Masalan, yuz, aft, bashara, chehra so'zining atash ma'nosidagi hissiy va uslubiy bo'yoq farqli.

Sinonim grekcha synonym so'zidan olingan bo'lib, **syn** "bir" va **onoma** "nom" demakdir. Shakli har xil, bir tushunchani bildiruvchi til birligi sinonim deyiladi.

Sinonimik qator. Sinonim so'z qatori sinonimik qator deyiladi. Sinonimik qator birdan ortiq so'zdan tashkil topadi: osmon, ko'k, samo, falak; qiziq, g'alati, ajoyib, alomat, antiqa, ajab, ajib kabi.

2-topshiriq. O'ng tomondagi so'zlardan chap tomondagi so'zlarning sinonimlarini toping va har bir sinonimik qatorni alohida-alohida ko'chirib yozing.

Namuna: yuz, bet, aft, bashara, chehra, jamol, diydor, oraz, ruxsor.

yuz	iljaydi, bet, qidirdi, aft, jilmaydi, bashara,
kuldi	axtardi, chehra, jamol, diydor, oldin, oraz,
avval	xoxoladi, quvonmoq, ruxsor, qadim,
izladi	kulimsiradi, tirjaydi, suyunmoq, quvnamoq,
sevinmoq	burun, shodlanmoq.

3-topshiriq. Quyida berilgan sinonim otlar qatorini davom ettiring.

Aldamchi, firibgar...
Baxt, iqbol...
Vatan, mamlakat...
Gulshan, guliston...
Dunyo, jahon...
Janjal, to'polon...
Ovoz, un...
Ishq, muhabbat...
Chiqim, xarj...
Yuz, oraz, ruxsor...
O'rtoq, birodar, ulfat...
Hiyla, firib...
G'am, anduh, musibat...
Kuch, majol, darmon...

Eslab qoling!

Komil inson g'oyasi – ham milliy, ham umumbashariy mohiyatga ega bo'lgan, odamzodga xos eng yuksak ma'naviy va jismoniy mukammallikni o'zida mujassam etgan, uni hamisha ezgulikka undaydigan oliyjanob g'oya. "Komil inson" g'oyasi nafaqat muayyan shaxslarni, balki butun xalqlarni yuksak taraqqiyot sari yetaklagan, ularni ma'naviyat va ma'rifat sohasida tengsiz yutuqlarga ilhomlantirgan g'oyadir. Komillikni orzu qilmagan, barkamol avlodlarni voyaga yetkazish haqida qayg'urmagan xalqning, millatning kelajagi yo'q. Ular tanazzulga mahkum. Milliy g'oyamizning asosiy maqsadlaridan biri – har tomonlama komil insonni tarbiyalash.

Komil inson – **qullik, mutelik, boqimandalikdan batamom xalos bo'lgan inson.** Chunki inson birovga quldek ergashsa, demak, ijtimoiy jihatdan u hech narsaga erishmagan bo'ladi. Komil inson o'z maslagi, Vatani, xalqi manfaatlariga yot zararli mafkuralarni tarqatayotgan kimsalar ortidan ko'r-ko'rona ergashib ketavermaydi, ogoh va faol bo'ladi.

Tarbiya – rivojlantirish, parvarish qilish, o'stirish, o'rgatish, ilm berish kabi ma'nolarni anglatadi. Prezident Islom Karimovning "Vatan ravnaqi uchun har birimiz mas'ulmiz" asarida ta'kidlanganidek, "jondan aziz bolalarimizni o'zgalarning noma'qul tarbiyasi va mudhish ta'siriga tashlab qo'yish – kelajagimizga nisbatan kechirib bo'lmas xiyonatdir".

Mustaqil fikr – yaratuvchanlik va bunyodkorlikning ma'naviy yo'lidir.

Kasbkorlik – jamiyat ma'naviy xavfsizligini mustahkamlaydi. Hunarsiz, ilmsiz odam buzg'unchilikka, jinoyatga moyil bo'ladi. Jamiyat kasbkor insonlar jamiyati bo'lsagina u taraqqiy topadi va rivojlanadi. Aksinchasi o'rinli emas. Agar insonda diplom bo'lsayu, mutaxassislik malakasi bo'lmasa – bu ma'naviy yemirilishdir. O'zbekistonda ilm, kasb-hunarni egallash uchun barcha sharoitlar yaratilgan. Kadrlar tayyorlash milliy dasturidan ko'zlangan asosiy maqsad ham jamiyatni kasbkorlar jamiyatiga aylantirishdan iboratdir.

4-topshiriq. Davra suhbati metodi asosida "Kelajak bilimli yoshlar qo'lida" mavzusida bahs-munozara tashkil eting.

5-topshiriq. Gaplarni ko'chiring va tarjima qiling.

1. Yoshmisan sen keksani hurmat ayla, O'zing ham qariysan, hozirdan o'yla. *(F. Attor).* 2. Yoshlik – bu orzu. Bu ishonch. Bu jasoratga intilish. Bu lirika va romantika. Bu kelajakka tuzilgan ulkan rejadir. Bu istiqbolning boshlanishi. *(N.Hikmat).* 3. Yoshlik shu narsa bilan baxtiyorki, uning kelajagi bor. *(N.V.Gogol).* 4. O, yoshlik! Yoshlik! Ehtimol, butun latofating siri hamma narsani uddalayman, deb o'ylash imkoniyatiga ega bo'lgan'ligingdadir. *(I.S.Turgenev).* 5. Beozor yoshlik yillaridan kamolotning vazmin yo'llariga otlanar ekansiz – hamma narsani, insonga xos barcha harakatlarni o'zingiz bilan birga ola keting, yo'lda qoldirmang: keyin uni o'rnidan siljita olmaysiz. *(N.V.Gogol).* 6. Yoshligingni asra. Dunyoda undan yaxshi palla yo'q. Undan qimmatliroq narsa

yo‘q. *(M.Gorkiy).* 7. Befoyda o‘tgan yoshlik – musibatdir. (A.Qo‘nonboyev). 8. Hayot har bir kishiga ulkan va bebaho tuhfa in’om etadi, bu kuch-quvvatga to‘la yoshlik, bilim va kurashga chanqoqlik, ishonch va orzu-umidga to‘la o‘spirinlikdir. 9. Keksaga ko‘mak ber suyangan tog‘ing, Buni tushunarsan qarigan chog‘ing. *(N.Hisrav).*

6-topshiriq. Ilm-fan, kasb-hunarga doir maqollarni tarjima qiling va yodda tuting.

Bilim – baxt keltirar.
Bir yigitga yetmish ikki hunar oz.
Boylikning kaliti ilm.
Ilm – aql chirog‘i.
Otalar so‘zi – aqlning ko‘zi.
Ko‘p o‘qigan olim bo‘lsa,
Ko‘pni ko‘rgan dono bo‘lur.
Tikansiz gul bo‘lmas,
Mashaqqatsiz – hunar.
Yuz hunarni chala bilguncha
Bir hunarni to‘la bil.
Hunar bo‘lsa qo‘lingda,
Non topilar yo‘lingda.
Dono o‘ylab aytar,
Nodon – o‘ynab.
Aql bilan odob – egizak.
Bilagi zo‘r birni yiqar,
Bilimi zo‘r – mingni.
Ilmsiz bir yashar,
Ilmli ming yashar.

7-topshiriq. Bo‘sh vaqtingizni o‘tkazish rejasini tuzing va uni xat orqali ota-onangiz yoki do‘stingizga bildiring.

8-topshiriq. Do‘stlaringiz tashabbusi yoki ular davrasida sodir bo‘lgan biron qiziqarli voqea haqida hikoya yozing.

9-topshiriq. "Yoshlar tashabbusi" mavzusida taqdimot tayyorlang.

10-topshiriq. Matnni o'qing. Turli xalqlarning salomlashish odobi va uslubi haqida ma'lumot to'plang. To'plangan ma'lumotlaringiz asosida matn tuzing.

Odobning boshi salomdan boshlanadi. Siz erta turib, bobo-yu buvingizga albatta salom berasiz. Ota-onangizni salom bilan qarshilaysiz. Amma-yu xolangiz, tog'a-yu amakingizni ham. Kichik uka-singillaringiz o'z navbatida sizga salom beradilar. Bog'chada, maktabda, ko'cha-kuyda, jamoat harakatida kattalarga u tanish-begona demay, salom berasiz. To'g'ri qilasiz, "salom - Xudoning qarzi", deydi keksalar. Salom insoniylikning ham boshi. Hatto, siz yaxshi bilgan ertakda ham yalmog'iz kampirday fe'li buzuq salom bergan qizchaga, "gar saloming bo'lmaganda ikki yamlab, bir yutardim", deydi. "Salom" kalomi uchun uni kechiradi.

Salomlashish - qadimiy odat. Dunyodagi barcha madaniy xalqlar o'zaro insoniy munosabat, muomala va muloqotni salomdan boshlashadi.

Biz, o'zbeklar, barcha islom dunyosi xalqlari singari bir-birimizni ko'rganimizda "assalomu alaykum" deya qo'l olishib ko'rishamiz. "Assalomu alaykum" iborasi arabcha "sizga tinchlik tilayman" degan ma'noni bildiradi. "Vaalaykum assalom" esa "sizga ham tinchlik tilayman" javob salomi sanaladi.

11-topshiriq. Savollarga javob bering.

1. O'zbekiston aholisining necha foizdan ortig'ini (30 yoshdan oshmagan) yoshlar tashkil qiladi?
2. Davlatimiz tomonidan yoshlarga qanday e'tibor berilayapti?
3. O'zbekistonning yoshlar siyosati qanday yo'nalishlardan iborat bo'lishi lozim?
4. Jismoniy tarbiya va sport to'g'risidagi qonun qachon qabul qilingan?

12-topshiriq. "Iqtidorli yoshlar" mavzusida bog'lanishli matn tuzing.

13-topshiriq. "Mening tengdoshlarim" mavzusida dialog tuzing va uni inssenirovka qiling.

14-topshiriq. Matnni o'qing. Matndagi iqtisodiy terminlarni ajratib yozing. Matn mazmunini rus tilida so'zlab bering.

Tadbirkorlik

Tadbirkorlik – keng ma'noda shaxsiy va ijtimoiy manfaatni qondirishga asoslangan aqliy va jismoniy faoliyatni bildiradi. Tor ma'noda tadbirkorlik faoliyati iqtisodiy hayotning barcha sohalarini - uy xo'jaligini boshqarishdan tortib ishlab chiqarishgacha, tovarlar sotish va xizmat ko'rsatish turlarigacha qamrab oladi. Yangi mahsulot ishlab chiqarish, texnologiyani joriy qilish, bozorlarga kirib borish, iste'molchilarni jalb qilish, ishlab chiqarishga resurslarni moliyalashtirishning usullarini jalb qilish, kooperatsiya va xalqaro aloqalarni shakllantirish shular jumlasidandir. Tovar xo'jaligiga xos bo'lgan beqarorlik, xavf-xatarlilik tadbirkorlik faoliyatining muhim xususiyatidir.

Tadbirkorlikning tashkiliy shakllariga yangi korxonalarni tashkil etish, bir-biri bilan bog'lanmagan korxonalar faoliyatini muvofiqlashtirish va birlashtirish hamda korxona ichidagi tadbirkorlik ham kiradi. Tadbirkorlikning o'zi faqat individual darajada emas, balki yirik tashkilotlarda ham amal qiladi. Firma ichidagi tadbirkorlik intra-tadbirkorlik deb ataladi. Tadbirkorlik "qonuniy" va "g'ayriqonuniy" bo'ladi. Faoliyat turiga bog'liq holda tadbirkorlik subyektlari bo'lib, ishlab chiqarishda korxonalar, tijoratda – savdo muassasalari va birjalar, moliyaviy tadbirkorlikda - tijorat banklari, fond birjalari, investitsiya va boshqa fondlar hisoblanadi.

Tadbirkorlikda tashkiliy-huquqiy shakllarining quyidagi turlari mavjud: xususiy tadbirkorlik, yuridik shaxs bo'lmagan tadbirkorlar faoliyati; kichik biznes (kichik korxonalar); xo'jalik va ijtimoiy birlashmalar tadbirkorligi; fermer (dehqon) xo'jaligi asosidagi tadbirkorlik; ijara va jamoa xo'jaliklaridagi tadbirkorlik; chet ellik sheriklar bilan qo'shma tadbirkorlik.

15-topshiriq. Quyidagi tayanch so‘z va iboralarning ma’nosini izohlang. Ushbu so‘z va iboralar ishtirokida bog‘lanishli matn tuzing.

Istiqomat, talab va ehtiyojlar, jipslashtirish, ijtimoiy-ixtiyoriy, milliy madaniy markazlar, munosabat, his-tuyg‘ular, beminnat, sadoqat, hamkorlik, totuvlik, to‘garak, festival, siyosiy arboblar, faoliyat, namoyon.

16-topshiriq. Matnni o‘zbek tiliga tarjima qiling. Matnga munosabat bildirib so‘zlab bering.

Карьера в бизнесе

Если спросить выпускника ВУЗа, кем он видит себя через 10-15 лет, то, наверное, большинство ответят, что на руководящих должностях. И вот мечта сбылась - устроились по специальности, оклад неплохой, компания стабильная, но проходят годы, а повышений никаких нет, и карьера не двигается с места. Тогда и возникают мысли, что нужно что-то менять, может пересмотреть поведение, заняться образованием или, вообще, поменять место работы.

Возможности для дальнейшего роста нужно продумывать еще до трудоустройства, правильно расставляя приоритеты. Только часто жизнь диктует свои обстоятельства, меняются планы, ценности.

Считается, что успешная карьера зависит от везения, связей, бывает и так, но это не закономерность, а вот место работы играет роль. В маленьких и крупных компаниях условия для карьеры совершенно разные. В небольшой фирме легче выделиться, но если коллектив давно сложился, то налаживать отношения трудно, тут не помогут ни престижный диплом, ни глубокие знания, только личностные качества. В крупной компании шире простор, меньше проблем с приспособлением к коллективу, если не складываются отношения с одними коллегами, можно поддерживать с другими. Но здесь

легко потеряться, когда на руководящую должность претендует большое количество людей. Со временем можно превратиться в обезличенный офисный планктон, и все старания, трудолюбие, инициативность останутся незамеченными.

Конечно, пунктуальность, вежливость, деликатность, умение общаться - это те незаменимые качества, которые нужны каждому человеку для успешной работы. Угрюмый, закомплексованный, необщительный человек, вряд ли, может рассчитывать на высокую должность, даже если он незаменимый специалист и выполняет работу лучше всех. Слишком рьяная исполнительность может иметь обратный эффект - такой сотрудник просто превращается в мальчика на побегушках.

Строя карьеру, нужно помнить пословицу "Под лежачий камень вода не течет". Когда становится тесно, и есть уверенность, что можно двигаться дальше, то не нужно бояться просить о повышении зарплаты, должности, перевода на другое место работы. Застой не приведет ни к чему хорошему. Но это можно делать только в том случае, когда амбиции основываются на опыте, знаниях, квалификации.

Успешная карьера возможна только в том случае, если работа нравится. Если она напрягает, отнимает много физических и душевных сил, то лучше поискать другое место.

9-MAVZU. ZAMONAVIY DUNYODA TA'LIM

Kitob – barcha bunyodkorlik, yaratuvchanlik va aql-idrokning, ilmu donishning asosidir, hayotni o'rganuvchi murabbiydir.

Alisher Navoiy

Zamonaviy dunyoda ta'lim

Istiqlol yillarida mamlakatimizda ta'lim tizimi tubdan isloh etilib, ertangi kunimizning munosib davomchilari bo'lgan barkamol avlodni voyaga yetkazishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Prezidentimiz S.M.Mirziyoyevning 2017-yil 7-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi farmoniga binoan ta'lim va ilm-fan sohasini yanada rivojlantirish borasida kompleks chora-tadbirlar ishlab chiqildi. Bunda xalq ta'limi tizimida keng islohotlarni amalga oshirish orqali ta'lim-tarbiya sifatini oshirish, yangi maktab binolari barpo etish, rekonstruksiya qilish, kapital ta'mirlash, ularni zamonaviy o'quv-laboratoriya uskunalari, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va o'quv-metodik qo'llanmalar bilan to'liq ta'minlash kabi qator masalalar amalga oshirilishi ko'zda tutilgan. Umumiy o'rta ta'lim sifatini tubdan oshirishda qator fanlar, jumladan, chet tillar, matematika, fizika, informatika, kimyo, biologiya fanlarini chuqurlashtirilgan tarzda o'qitishga alohida e'tibor qaratiladi.

Darhaqiqat, mamlakatimizda zamon talabiga mos, yuksak intellektual salohiyatli, yangicha dunyoqarash va mustaqil fikrli mutaxassislar tayyorlash uchun ko'pgina imkoniyatlar yaratilmoqda. Bugungi tez o'zgaruvchan iqtisodiy, ijtimoiy va ma'naviy hayot talaba yoshlar dunyoqarashini shakllantirishda yangi pedagogik interfaol metodlardan keng foydalanishni taqozo qiladi. An'anaviy mashg'ulotlar olib borish asta-sekin o'z o'rnini intensiv va interfaol metodlarga, noan'anaviy dars o'tish usullariga bo'shatib bermoqda. Bugungi kunda o'qitishda innovatsion texnologiyalar va axborot

texnologiyalarining qo'llanilishi ta'lim oluvchilarni o'quv jarayoniga faol jalb etish imkonini bermoqda.

Hozirda ta'lim muassasalari zamonaviy kompyuter, axborot kommunikatsiya texnologiyalari asosida jihozlanmoqda.

Shuningdek, ta'lim tizimida sezilarli o'zgarishlar ro'y bermoqda. Ta'lim tizimida masofadan o'qitish uslubi qo'llanilmoqda. Masofadan o'qitish uslubi bu sirtqi o'qitishning yangi shaklidir. Masofadan o'qitish bu insonning mustaqil o'qishidir. Mustaqil o'qish insonning mustaqil fikrlash, holatni baholash, xulosa va bashorat qilish qobiliyatlarini rivojlantiradi.

1-topshiriq:

a) matnni o'qing;

b) matndagi termin va iboralarning ma'nosini izohlang;

d) matnni reja asosida so'zlab bering.

2-topshiriq. Turli mamlakatlarning ta'lim tizimlari haqida ma'lumot tayyorlang.

Grammatika

Til va terminologiya.

Hozirgi ijtimoiy-iqtisodiy hamda ilmiy-texnik tub o'zgarishlar davrida yangi-yangi fanlar va tushunchalar yuzaga kelmoqda. Jumladan, o'zbek tilida ham yangi terminlar paydo bo'lmoqda, ilgaridan ishlatib kelingan qator leksemalar yangi ma'nolar kasb etmoqda. Shu boisdan leksikologiya, xususan, terminologiya oldida qator muhim masalalarni yechish vazifasi turibdi.

"Termin" tushunchasiga yuklangan mazmun quyidagicha belgilarga asoslanadi:

1) termin – umumadabiy tilning maxsus vazifa bajaruvchi bir turi bo'lmish ishlab chiqarish, fan va texnika tiliga mansub lisoniy birlik, bir so'z yoki birikmadir;

2) termin – konkret narsa-predmet, ashyo, mavhum tushunchalarning maxsuslashtirilgan nomidir;

3) termin uchun muayyan ta'rif zaruriydirki, uning yordamida tegishli tushuncha mazmunini aniqroq ifodalash, tushunchaning birini ikkinchisidan chegaralab ajratish imkonini beruvchi, ayni mahalda ma'lum tushunchani muayyan tasnifiy qatorga joylashtirishga yo'l qo'yuvchi, farqlovchi belgilarni ravshanroq ko'rsatish mumkin.

Demak, terminologiya muayyan fanning tushunchalar tizimi bilan o'zaro munosabatda bo'lgan terminlar jami sifatida ta'riflanadi. Har qanday tushunchalar tizimiga muayyan terminlar tizimi to'g'ri keladi. Terminologik tizimlar fan taraqqiyoti bilan birgalikda rivojlanib boradi. Terminlar umumiste'moldagi so'zlardan farqli ravishda joriy qilinib ularning qo'llanishi ma'lum darajada nazorat ostida bo'ladi. "Terminlar paydo bo'lib qolmaydi", aksincha, ularning zaruriyati anglangan holda "o'ylab topiladi", "ijod qilinadi". Masalan, bo'lajak iqtisodchilarning yozma yoki og'zaki nutqida *kartel, kliring, tovar oboroti, mayda mulkchilik, mablag' ajratish, renta* kabi tor doiradagina qo'llaniladigan terminlar ishlatilishi tabiiy bir holdir. O'z-o'zidan ayonki, bu xildagi terminlar iqtisodiyotdan uzoqroq biror kasb egasining nutqida ishlatilmaydi. Shu bilan birga, iqtisodiyot sohasining qator terminlari ham borki, ular muayyan til egalarining deyarli barchasi nutqida bab-baravar ishlatilaveradi: *bozor, mol, savdo, savdo-sotiq, pul, xaridor, bozorchi, olib-sotar, chayqovchi* kabilar shular jumlasidandir.

3-topshiriq. Matnni o'qing. Matndagi ta'lim tizimiga aloqador terminlarni ajratib yozing.

"Oliy ta'lim" atamasi zaminida iqtisod, fan, texnika va madaniyat sohasida faoliyat olib boruvchi, ish mobaynida ilm-fan, madaniyat, texnika yangiliklarini qo'llagan va o'z ustida ishlagan holda nazariy va amaliy muammolarni bartaraf etuvchi yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlash tushuniladi.

Oliy ta'limning asosiy maqsadi zamon talablariga javob bera oladigan malakali, raqobatbardosh, yuksak bilimli, oliy ta'lim mutaxassisi talablariga o'zi tanlagan yo'nalishi yuzasidan talabga

javob bera oladigan respublikaning ilm-fan, madaniyat, iqtisod, ijtimoiy sohalarini rivojlantirishda o‘z hissasini qo‘shadigan, mustaqil fikrlaydigan, yuksak ma’naviyatga ega bo‘lgan yuqori salohiyatli mutaxassislarni tayyorlashdir.

Oliy ta’lim tizimi quyidagicha tuzilgan:

- xususiy yoki davlat qaramog‘ida ekanligidan qat’iy nazar ta’limiy hamda kasbga tayyorlash dasturlarini davlat ta’lim standarti asosida tatbiq etuvchi oliy ta’lim muassasalari;
- oliy ta’limni rivojlanishiga zarur bo‘lgan ilmiy-tadqiqot ishlarini olib boruvchi ilmiy-tadqiqot institutlari;
- davlat tomonidan ta’limni boshqaruvchi idoralar, shuningdek, ularga qarashli bo‘lgan korxona, tashkilot va muassasalar.

Oliy ta’lim olish uchun nodavlat muassasalarini tuzishga qonunchilik ruxsat beradi. Ushbu muassasaga davlat akkreditatsiyani attestatsiyadan tegishli tartibda o‘tgandan so‘ng bersa u o‘qitish huquqiga ega.

Oliy ta’lim muassasalarining Attestatsiyasi u davlatga tegishli yoki xususiyligidan qat’iy nazar, kadrlar tayyorlash sifatini nazorat qilish Boshqarmasi tomonidan O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tasdiqlagan, Davlat test markazi tomonidan qabul qilingan pedagogik kadrlar va ta’lim muassasalarining attestatsiyadan o‘tkazish Nizomi asosida oliy ta’lim muassasalarining professor-o‘qituvchilar jamoasi attestatsiyadan o‘tkaziladi. Attestatsiya natijalariga ko‘ra istalgan oliy o‘quv muassasasi davlat akkreditatsiyasidan mahrum etilishi mumkin.

4-topshiriq. Matnni o‘qing. Matnga asoslanib zamonaviy dunyodagi biznikidan farqli ta’lim muassasalari haqida dialogga kirishing.

Oliy ta’lim muassasalari

Oliy ta’lim muassasalari yuridik maqomga ega. Respublikamizda oliy ta’lim muassasalarining quyidagi ko‘rinishlari bor:

· institut - barcha oliy ta'lim muassasalari kabi oliy ta'lim dasturini bajaradi, bilim berishda bir yo'nalishga qaratilgan bilim beriladi.

· universitet - oliy ta'lim dasturini bajarishda talabalarga egallayotgan sohasi bo'yicha yoki keyinchalik o'qishlarini davom ettirishlari uchun keng qamrovli bilim berishga e'tibor qaratiladi;

· akademiya - oliy ta'lim dasturini bajarishda oliy ta'lim berish bilan bir qatorda keyinchalik o'qishlarini davom ettirishlari uchun aniq bir yo'nalishga tayyorlaydi.

5-topshiriq. **"Maqollar zanjiri"** metodi. Maqollardagi nuqtalar o'rniga tushirib qoldirilgan so'zlarni qo'yib chiqing.

№	***Maqollar***	***Javob***
1	Dilni dilga ...	
2	Intizomli lashkar	
3	Sarishtali uy -...	
4	... kurashga	
5	... topsa, bo'lib yer,... topsa bosib	
6	Rejali ish -	
7	Shoshganda ...	
8	... valtirogning ...	
9	Qoqilsang	
10	... bilan ... egizak.	

6-topshiriq. "Dunyoning mashhur universitetlari" mavzusi bo'yicha loyiha yarating.

7-topshiriq. Chet ellik talabalar hayoti aks ettirilgan badiiy asar yoki film haqidagi taassurotlaringizni yozing.

8-topshiriq. Turli ta'lim muassasalari haqida polilog tuzing va uni inssenirovka qiling.

9-topshiriq. Matnga munosabat bildirib o'zbek tilida gapirib bering.

Современный специалист должен быть образованным, деловитым и интеллигентным

Какие же основные черты характеризуют современного специалиста?

В первую очередь, он должен иметь фундаментальное профессиональное образование. Но так как в наше время знания быстро устаревают, он должен уметь самостоятельно пополнять их, постоянно быть на уровне современных научных достижений, то есть непрерывно повышать свой профессиональный уровень.

Кроме того, современный специалист должен быть деловитым. Деловитый – значит, хорошо знающий свое дело, свою профессию, серьезный, предприимчивый, то есть практичный, умелый в своей работе человек.

Он должен правильно строить свои отношения с людьми в рабочем коллективе, направлять его работу на достижение поставленных задач и делать это не только деловито и требовательно, но и интеллигентно, тактично, доброжелательно, с пониманием интересов всех членов коллектива. Ведь от этого зависит их настроение, желание трудиться, успех в работе.

Сдержанность, уравновешенность в отношениях, интеллигентное и в то же время требовательное отношение друг к другу делают коллектив дружным, способным выполнять любые сложные задачи.

Очень хорошо, если это осознают все члены коллектива, если каждый стремится быть хорошим специалистом, интеллигентным и деловитым человеком, который должен понимать, что доброжелательное, уважительное отношение к людям – это не только приятное общение с ними, но и умение раскрыть их способности, поощрять творческий подход к выполняемой работе.

10-topshiriq. Matnni o‘qing. Matn qaysi nutq uslubida yozilganligini aniqlang. Matndagi terminlarni ajratib yozing, qaysi sohaga tegishli ekanligini ayting.

Oliy ta'lim ikki bosqichdan iborat: bakalavriat va magistratura.

Bakalavriat - fundamental bilimlar beriladigan asosiy oliy ta'lim bo'lib, to'rt yil davom etuvchi oliy ta'limning yo'nalishlaridan biri.

Bitiruvchilarga davlat attestatsiya natijalariga ko'ra, bakalavriat ta'lim dasturining oxirida tayyorlov yo'nalishiga ko'ra "bakalavr" akademik unvoni, munosib ko'krak nishoni va davlat namunasidagi diplom va uning ilovasi beriladi.

Ta'lim dasturining tarkibiy qismiga, bakalavr tayyorlashning kerakli darajasiga, o'quv vazifalarning maksimal hajmiga, kadrlar tayyorlash sifat nazoratining protsedura va mexanizmlariga umumiy talablar, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 16-avgust 2001-yilda tasdiqlangan № 343-chi "Oliy ta'limning davlat ta'lim standartlari. Asosiy nizomlar" qarori bilan belgilanadi. (№ 15-16, O'zbekiston Respublikasi qonunlar majmuasi, 104-bet).

Bakalavrning professional faoliyat sohasi va turi xarakteristikasi, kvalifikatsion talablar va o'quv fanlari bo'yicha talablar, ta'lim dasturining struktura va tarkibi, uni amalga oshirish mexanizmi va sifatini nazorat qilish aniq tayyorlov yo'nalishi bo'yicha davlat ta'lim standartlari orqali belgilanadi.

Bakalavriatning mos yo'nalishlari uchun, davlat ta'lim standartlari asosida, oliy ta'limni boshqarish bo'yicha davlatning vakolatli organi tomonidan tasdiqlangan o'quv reja va dasturlar, o'quv fanlari ishlab chiqiladi.

Bakalavriatda bir xil profilli (umumiy kasb hunar tayyorgarligiga o'xshash) o'rta maxsus, kasb hunar ta'limiga ega bo'lgan shaxslarga, oliy ta'limning shu yo'nalishidagi o'quv rejalariga bog'liq (ketma-ketlikni ta'minlovchi) ta'lim dasturini to'liq egallashning tezkor imkoniyatlari beriladi.

O'quv rejasiga bog'liq yo'nalish ro'yxati va kadrlar tayyorlash sharoitlari O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.

Bakalavr:

· yo'nalish bo'yicha lavozimga tayyorlangan oliy ma'lumotga ega bo'lgan shaxslar bilan almashtirilishi kerak bo'lgan ishga;

· bakalavriatning mos keluvchi yo'nalishlar doirasida tanlagan mutaxassislik bo'yicha magistraturada oliy ta'limini davom ettirishga;

· qo'shimcha professional ta'limni kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimida olishga tayyor.

Bakalavrlarni yangi yo'nalishlari bo'yicha tayyorlash huquqi oliy ta'lim muassasalarining oliy ta'limni boshqarish bo'yicha davlat vakolatli organi rasmiy iltimosiga binoan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga belgilangan tartibda taqdim etiladi.

Magistratura - bakalavriat asosidagi ikki yildan kam bo'lmagan aniq mutaxassislik bo'yicha oliy ta'limning davomi hisoblanadi. Bitiruvchilarga davlat attestatsiya natijalariga ko'ra, magistratura ta'lim dasturining oxirida aniq mutaxassislik bo'yicha "magistr" akademik unvoni, munosib ko'krak nishoni va davlat namunasidagi diplom va uning ilovasi beriladi.

Ta'lim dasturining tarkibiy qismiga, magistr tayyorlashning kerakli darajasiga, o'quv vazifalarning maksimal hajmiga, kadrlar tayyorlash sifat nazoratining protsedura va mexanizmlariga umumiy talablar, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2001-yil 16-avgustda tasdiqlangan № 343 "Oliy ta'limning davlat ta'lim standartlari. Asosiy nizomlar" qarori bilan belgilanadi. (№ 15-16, O'zbekiston Respublikasi qonunlar majmuasi, 2001-yil, 104-bet).

Magistrning professional faoliyat sohasi va turi xarakteristikasi, kvalifikatsion talablar va o'quv fanlari bo'yicha talablar, ta'lim dasturining struktura va tarkibi, uni amalga oshirish mexanizmi va sifatini nazorat qilish magistraturaning aniq mutaxassisligi bo'yicha davlat ta'lim standartlari orqali belgilanadi.

Magistraturaning mos mutaxassisligi uchun, davlat ta'lim standartlari asosida, oliy ta'limni boshqarish bo'yicha davlatning vakolatli organi tomonidan tasdiqlangan o'quv reja va dasturlar, o'quv fanlari ishlab chiqiladi.

Magistr:

· aniq mutaxassislik bo'yicha mustaqil ilmiy tadqiqot, ilmiy pedagogik va boshqaruv, professional foaliyatini olib borishga;

· magistraturaning mos keluvchi mutaxassisligi doirasida oliy ta'limdan keyingi doktoranturada davom ettirishga;

· qo'shimcha professional ta'limni kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimida olishga tayyor.

Oliy ta'lim muassasasida magistratura yo'nalishini ochishning asosiy sharti - bu o'quv tarbiyaviy jarayon bilan bog'liq va yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlanishini ta'minlovchi mos kafedralarning ilmiy pedagogik salohiyati mavjudligi va ilmiy tadqiqot ishlarini yuqori darajada olib borish imkoniyatining bo'lishi.

Magistrlarni yangi mutaxassisliklari bo'yicha tayyorlash huquqi oliy ta'lim muassasalarining oliy ta'limni boshqarish bo'yicha davlat vakolatli organi rasmiy iltimosiga binoan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga belgilangan tartibda taqdim etiladi.

Oliy ta'lim muassasasi strukturasida magistraturaning maxsus bo'limi (fakultet, markaz) ochiladi va unga quyidagi vazifalar yuklatiladi:

· talabalarning o'quv-tarbiyaviy jarayonini tashkillashtirish va nazorat qilish, o'quv-uslubiy hujjatlar va o'quv-uslubiy ta'minotni ishlab chiqish;


· magistrlar yetishtirib beruvchi kafedralar faoliyatini koordinatsiyalash hamda magistrlar tayyorlash jarayonining monitoringi.

10-MAVZU. KITOB MUTOLAASI

Kitobxonlik madaniyatini yuksaltirish – buyuk maqsadlarimizga erishishning muhim kafolatidir.

Shavkat Mirziyoyev

Kitob mutolaasi



Insonning bilimli, tarbiyali, kasb-hunarli va albatta baxtli va davlatli bo'lishining muhim omili – bu kitobga do'st bo'lish, hamisha kitob o'qish va kitob mutolaasini umr bo'yi kanda qilmaslikdir. Ayniqsa, yoshlarning baxtu kamoli, osoyishta va farovon hayotida kitobning alohida o'rni bor. Chunki yaxshi kitob insonda Vatanga muhabbat, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat tuyg'ularini yuksaltirib, yaxshilik hamda ezgulikka undaydi. Buyuk shoir va mutafakkir Alisher Navoiy hazratlari yozganidek: "Kitob – beminnat ustoz, bilim va ma'naviy yuksalishga erishishning eng asosiy manbai".

Xalqimiz tilida kitob o'qish orqali bilim va munosib ta'lim-tarbiya olish, ilm-fan bilan shug'ullanish, kasb-hunar o'rganishning ahamiyatiga doir maqollar juda ko'p. Jumladan, "Kitobsiz aql – qanotsiz qush", "Baxt belgisi – bilim", "Bilim – aql chirog'i", "Go'zallik – ilmu ma'rifatda", "Ilm baxt keltirar, bilim taxt keltirar", "Hunar – oqar buloq, ilm – yonar chiroq", "Oltin olma, bilim ol, bilim olsang, bilib ol". Bunday purhikmat naqllarni yana uzoq davom ettirish mumkin.

Mustaqillik yillarida matbuot, noshirlik va axborot sohasining mustahkam huquqiy asosi yaratildi. Xususan, bu borada 10dan ortiq qonun va 30 dan ortiq qonunosti hujjati qabul qilindi. O'zbekiston

Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2017-yil 12-yanvarda imzolangan "Kitob mahsulotlarini chop etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ'ibot qilish bo'yicha komissiya tuzish to'g'risida"gi farmoyishi ana shu ezgu ishlarni yangi, yanada yuksak bosqichga ko'tarishga qaratilganligi bilan g'oyatda ahamiyatlidir.

Farmoyishda qayd etilganidek, bugungi kunda yurtimizda zamonaviy texnologiyalar bilan jihozlangan Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi ishlab turibdi. Istiqlol davri arxitekturasining noyob inshooti – poytaxtimizdagi muhtasham "Ma'rifat markazi"da joylashgan Milliy kutubxona fondida qariyb 8 millionta kitob va boshqa manbalar, jumladan, 450 mingtadan ortiq kitobning elektron versiyalari, elektron darslik va qo'llanmalar mavjud. Elektron kutubxonaning ma'lumotlar bazasi o'zbek, rus va ingliz tillarida yaratilgan. Shuningdek, 14 ta viloyat axborot-kutubxona markazi, tuman markazlari va shaharlardagi ta'lim muassasalarida 200ga yaqin axborot-resurs markazi tomonidan aholiga axborot-kutubxona xizmatlari ko'rsatish yo'lga qo'yilgan.

Yurtimizda kitoblar nashri bilan bir qatorda, ularning savdosi va targ'ibotiga qaratilgan ta'sirchan amaliy qadamlar ham qo'yilmoqda. Xususan, hozirgi paytda "Kitob olami", "Sharq ziyokori" va "O'zdavkitobsavdota'minoti" majmualari tomonidan kitob savdosi xizmati ko'rsatilmoqda. Xususan, Markaziy Osiyoda yagona bo'lgan "Kitob olami" majmuasiga qarashli zamonaviy kitob do'konlari nafaqat Toshkent shahrida, balki Qoraqalpog'iston Respublikasi va barcha viloyatlar markazlarida ham ishlab turibdi.

Mamlakatimizda "Adabiyotga e'tibor – ma'naviyatga, kelajakka e'tibor" shiori ostida har yili respublika "Kitob bayrami" tadbirlarini o'tkazish yaxshi an'anaga aylangan.

Globallashuv davrida axborot-kommunikatsiya texnologiyalari hayotimizga shunchalik singib ketdiki, nafaqat kundalik faoliyatimiz, balki ijtimoiy-iqtisodiy sohalar rivojini ham ularsiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Axborot texnologiyalarining bu qadar jadal taraqqiy etishi kitobxonlikka ham o'z ta'sirini o'tkazmoqda. Bugun

jahondagi ko'pgina bosma nashrlarning adadi kamayib, ularning onlayn versiyasi ko'proq o'qilmoqda. Dunyoning eng boy kutubxonalarida saqlanayotgan bosma manbalarning aksariyati elektronlashtirib bo'lindi. Bu jarayonlar mamlakatimizdagi kutubxonlarda ham izchil kechmoqda. Internet va boshqa vositalar jadal rivojlanayotganiga qaramay, insonning ong va tafakkurini charxlash, ma'naviy olamini boyitish, ezgulikni targ'ib etishda bosma kitobning o'rni bundan keyin ham saqlanib qolaveradi. Binobarin, kitob asrlar davomida axborot saqlovchi eng samarali vosita vazifasini bajargan. Qolaversa, ming yil oldin Samarqand qog'ozida bitilgan qo'lyozmalar hozir ham insoniyatga ma'rifat nurini sochmoqda. Zero, kitob — qalb chirog'i, tafakkur qanoti. Ayniqsa, bosma kitobdan taralayotgan va elektron nashrdan topib bo'lmaydigan o'ziga xos yoqimli hidni tuyib, varaqlash asnosida mo'jizaviy sahifalarning sirli shitirlashidan ko'ngil cheksiz zavqqa to'lgan holda, kitob mutolaa qilish, uning mazmuni haqida tengdoshlar bilan fikrlashishning huzur-halovati tamoman o'zgachadir. Sohibqiron Amir Temur ta'biri bilan aytganda, "Kitob (bitig) barcha bunyodkorlik, yaratuvchilik va aql-idrokning, ilmu donishning asosidir, hayotni yaratuvchi murabbiydir". Shu ma'noda, shaklidan qat'iy nazar, barcha kitoblar milliy o'zligimiz hamda umuminsoniy qadriyatlarni targ'ib etishga xizmat qilishi ayni muddao.

1-topshiriq:
a) matnni o'qing;
b) matnga ijodiy yondashib so'zlab bering.

2-topshiriq. Kitobni tavsiya qilish usullari haqida o'z fikringizni bildiring.

GRAMMATIKA
Erkin va turg'un birikmalar.

Nutqda fikr ifodalash uchun barqaror birikmaga ehtiyoj mavjud. Masalan, kuchli hayron bo'lib qolganlikni ta'sirchan ifodalash

uchun *hayron bo'moq* fe'li yetarli emas. Shunda barqaror birikma qo'llanadi. *Og'zi ochilib qoldi.*

Og'zi ochilib qoldi – ibora. U ikki mustaqil so'zdan iborat bo'lib, nutqqacha tayyor holda kelgan. Nutqdan keyin ham ongimizda shu holicha turadi. Uning atash ma'nosi *hayron bo'lmoq* fe'lining atash ma'nosiga teng bo'lsa-da, qo'shimcha, ya'ni hissiy va uslubiy ma'nosi bilan farqlanadi.

O'zbek tilida barqaror birikma sifatida maqol, matal, ibora e'tirof etiladi. Tilsunoslikning barqaror birikmani o'rganuvchi bo'limi *paremiologiya* (lotincha parema – "barqaror", logos – ta'limot), uning lug'atini tuzish bilan mashg'ul bo'luvchi soha paremiografiya (lotincha parema – "barqaror", grapho – yozmoq) deyiladi.

Ikki yoki undan ortiq mustaqil so'zning bir grammatik butunlik, ma'naviy yaxlitlik tashkil etib, murakkab tushuncha yoki tugal fikrni ifodalaydigan so'z bog'lanishi erkin bog'lanish deyiladi. So'z birikmasi va gap erkin birikmaga kiradi. Chunki so'z birikmasi va gap nutq jarayonida hosil qilinadi.

Ikki va undan ortiq so'zning qotib qolib, nutqda tayyor holda ishlatiladigan bog'lanishni barqaror, turg'un bogla'nishni tashkil qiladi.

Barqaror birikma qo'shma so'z va so'z birikmasidan quyidagi xususiyati bilan farq qiladi:

1. Barqaror birikmada birdan ortiq so'z birikib ko'chma ma'no ifodalaydi.

2. Barqaror birikmani tashkil etgan barcha so'z shu gap tarkibida butunligicha bir bo'lak yoki bir gap vazifasida keladi.

3. Barqaror birikmaning tarkibiy qismi qat'iy bir qolipga kirgan bo'ladi.

Demak, alohida rasmiylashgan, tarkibining barqarorlgi bilan ajralib turadigan, yaxlitligicha qo'llanish xususiyatiga ega, tayyor holda mavjud, obrazli, jozibali, ma'no jihatdan shakllangan so'z bog'lanmasi barqaror birikma deyiladi.


Barqaror birikmani "buzish" – unga so'z kiritish, almshtirish, olib tashlash mumkin emas.

3-topshiriq. Berilgan gaplarni erkin va barqaror birikmalarga ajrating va farqini ayting.

1.Toshkentdagi istiqlol davrida qurilgan inshootlarni ko'rib og'zim ochilib qoldi. 2. Yer haydasang kuz hayda, kuz haydamasang yuz hayda, deydi xalqimiz. 3. Kechagi majlisda menga ham til tekizibdi. 4. Bahorning mayin shabadasi daraxt shoxlarini tebratdi. 5. Oltin o'tda bilinadi, odam mehnatda bilinadi. 6. Arslon izidan qaytmas, yigit so'zidan. 7. Tuyaning dumi yerga yetganda qarzini to'laydi. 8. Bir tariqdan bo'tqa bo'lmas. 9. Ular bir yoqadan bosh chiqarib mehnat qiladilar.

4-topshiriq. Erkin va turg'un birikmalar haqidagi nazariy bilimlarni o'zlashtirib turg'un birikmalarga misol topib daftaringizga yozing.

5-topshiriq. Venn diagrammasi asosida erkin va turg'un birikmalarni taqqoslang va tahlil qiling.



6-topshiriq. O‘qigan kitobingiz to‘g‘risida dialog tuzing va uni inssenirovka qiling.

7-topshiriq. O‘qigan kitoblaringiz ro‘yxatini tuzing va ularga qisqacha tavsif bering.

8-topshiriq. Quyidagi maqollarni tarjima qiling va yod oling.

Yaxshi bilan yursang,
Yetarsan murodga.
Yomon bilan yursang,
Qolarsan uyatga.
Hasad qilma, havas qil.
Til - dil kaliti.
Tig‘ jarohati bitar,
Til jarohati bitmas.
Aybsiz do‘st izlagan do‘stsiz qolar.
Do‘st yig‘latar, dushman kuldirar.
Yaxshi odam yurt tuzar,
Yomon odam yurt buzar.
Do‘stini yomonlagandan qoch.
Do‘st ming bo‘lsa ham oz,
Dushman bir bo‘lsa ham ko‘p.

9-topshiriq. Matnni o‘qing. Qaysi uslubga xosligini ayting. Matnga sarlavha qo‘ying.

Bugun O‘zbekiston paxta tolasi ishlab chiqaradigan va uni jahon bozoriga yetkazib beradigan yirik mamlakatlardan biriga aylandi. Xalqaro Maslahat qo‘mitasidan olingan ma’lumotlarga ko‘ra, jahonda paxta yetishtiruvchi 66 ta davlat bo‘lib, bular orasida O‘zbekiston paxta tolasi ishlab chiqarish bo‘yicha Xitoy, AQSH, Hindiston va Pokistondan keyin beshinchi, uni eksport qilish bo‘yicha esa - AQSHdan keyin ikkinchi o‘rinda turadi. Hozirgi paytda paxta xomashyosini emas, balki, undan ishlab chiqarilgan tayyor va nimtayyor tovarlarni eksport qilishga katta ahamiyat

berilmoqda. Bunday o‘zgarish katta naf keltiradi, raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarishga undaydi va yangi ish joylarini yaratish imkonini beradi.

O‘zbekiston iqtisodiyotining yuksalishi uning jahon bozoriga, xomashyo bilan bir qatorda, raqobatbardosh tayyor mahsulotlarni ko‘proq eksport qilish bilan mustahkam bog‘liqdir.

10-topshiriq. Matnni o‘zbek tiliga yozma tarjima qiling.

Как мы понимаем «интеллигентность»

Интеллигентность – это очень широкое понятие. Оно подразумевает не только хорошее образование, широкую эрудицию, знание основ культуры и этики поведения, но и важность того, как человек использует все это «богатство» - на пользу или во вред окружающим его людям.

Известно много примеров из жизни и из произведений искусства и литературы, когда «простой человек из народа», никогда не читавший произведений великих гуманистов, в критических обстоятельствах (например, во время войны), не задумываясь, идет на смерть ради спасения других людей. Но известны и другие примеры, когда человек образованный, обладающий глубочайшими знаниями в области какой-либо науки, использует их в своих корыстных целях, не задумываясь, что это наносит вред другим людям и даже может привести к их гибели. Так кого же из них можно назвать интеллигентным человеком? Что же главное в этом понятии? Порассуждав, мы неизбежно приходим к мысли, что в основе интеллигентности лежит человеколюбие, а все остальное прилагается к этому.

На протяжении веков подтвердилась мысль, что интеллигентность и гуманизм неразрывны. Об этом свидетельствуют величайшие произведения литературы, живописи, музыки, скульптуры, науки.

11-topshiriq. Matnni o‘zbek tiliga yozma tarjima qiling. Tavsiya etilgan maslahatlar asosida nutq tayyorlang.

СОВЕТЫ ДЛЯ ИДЕАЛЬНОЙ РЕЧИ

Итак, выступайте только тогда, когда есть что сказать.

Не начинайте речь сразу, спустя 15—20 секунд посмотрите на аудиторию, улыбнитесь и скажите: «Здравствуйте».

Читая речь по бумажке, читайте так, будто говорите с собеседником.

Не останавливайте взгляд на отдельных лицах. Долгий пристальный взгляд вызывает неприятное чувство.

Говорите выразительно.

Используйте весь словарный состав, исключив канцеляризмы, вульгаризмы.

Возбуждайте внимание слушателей.

Держите паузу.

Соединяйте слово с жестом. Жесты должны быть строго дозированы, точны, мимика доброжелательна.

Меняйте темп речи и тон голоса. Это выделяет отдельные слова, повышает уровень восприимчивости.

Избегайте менторского тона.

Имейте в запасе шутки, анекдоты.

Старайтесь, чтобы начало выступления было необычным, а ее конец — запоминающимся. При необходимости резюмируйте.

Создавайте индивидуальный стиль. Делайте свою речь непохожей на другие выступления.

12-topshiriq. Maqollarning rus tilidagi muqobilini toping.


1. Yaxshi bola nom keltirar, yomon bola g‘am keltirar. 2. Yaxshi qand yedirar, yomon pand yedirar. 3. Kelining yaxshi bo‘lsa,

o‘g‘lingdan ko‘r, o‘g‘ling yomon bo‘lsa, keliningdan ko‘r. 4. Aqlli odam qish g‘amini yozda yeydi. 5. Yaxshini maqtasang yarashur, yomonni maqtagan adashur. 6. Qo‘ng‘iz bolasini oppog‘im der, kirpi bolasini yumshog‘im der. 7. Kengashganga – keng dunyo, talashganga – tor dunyo. 8. Yog‘och kessang, uzun kes, kessa bo‘lar, temir kessang, qisqa kes, cho‘zsa bo‘lar. 9. Qorinni to‘yg‘azish oson, ko‘zni to‘yg‘azish qiyin.

11-MAVZU. ALISHER NAVOIY NOMIDAGI O‘ZBEKISTON MILLIY KUTUBXONASI

Boshi bilan sho‘ng‘ib kirmasa har dam,
Suv ostidan durni toparmi odam?
Abdurahmon Jomiy

ALISHER NAVOIY NOMIDAGI O‘ZBEKISTON MILLIY KUTUBXONASI



Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi axborot va madaniy-ma’rifiy muassasa bo‘lib, kutubxonachilik, bibliografik, ilmiy tadqiqot, ilmiy-metodik va axborot faoliyatini olib boradi. Kutubxona fondi mazmunan universal milliy va xorijiy matbuotning noyob to‘plamidir. Kutubxona faoliyatining bosh maqsadi butun insoniyat bilimini aks ettirgan, avvalo, O‘zbekistonga va uning milliy manfaatlariga taalluqli hujjatlarning universal fondini yig‘ish, saqlash hamda jamiyat foydalanishi uchun taqdim etishdir.

Noyob va nodir nashrlar fondi kutubxona kitob kolleksiyasining faxridir. U 250 mingdan ortiq nashrdan iborat. Ularning 15 mingdan ortig‘i nodir kitoblar hamda qo‘lyozmalardir. Kutubxonaning o‘ta noyob to‘plamida O‘rta Osiyoning 1917-yilgacha bo‘lgan tarixi, etnografiyasi, madaniyati va geografiyasiga oid o‘ziga xos ensiklopediya bo‘lgan 594 tomlik noyob “Turkiston to‘plami” hamda A.P.Kun tuzgan 4 qismdan iborat 10 tomlik 1200 noyob fotosuratlarni o‘z ichiga olgan Turkiston o‘lkasi aholisining turmush tarzi, urf-odatlari to‘g‘risidagi “Turkiston albomi” alohida o‘rin egallaydi.



Respublika tarixi bo‘yicha XIX asrning oxiri XX asrning birinchi choragidagi o‘lkashunoslik mavzusidagi adabiyotlar, birinchi Turkiston vaqtli nashrlari, qo‘lyozma kitoblar kolleksiyasi, muqaddas kitob – Qur’-onning turli nashrlari tadqiqotchilarda katta qiziqish uyg‘otadi. Buyuk ajdodlarimiz Al-Buxoriy, At-Termiziy, Ahmad Yassaviy, Bahouddin Naqshbandiy, Al-Xorazmiy, Al-Beruniy, Ibn Sino, Alisher Navoiy, Amir Temur, Mirzo Ulug‘bek, Bobur asarlari kutubxona fondida ko‘z qorachig‘idek saqlanmoqda. Cho‘lpon, Fitrat, U.Nosir, Hamza, G‘.G‘ulom, A.Qahhor va boshqa ijodkorlarning hayotligida chop etilgan asarlarning ilk nashrlari ham shular jumlasidandir.

Kutubxonada qadimiy rus kitoblaridan XVI asr matbaa san’ati yodgorligi, Ivan Fedorov tomonidan 1581-yilda Ostrog shahrida bosilgan «Острожская библия» kitobi, 1647-yilda Moskvada cherkov-slavyan shrifti bilan bosilgan dunyoviy mazmundagi «Учение и хитрость строения пехотных людей» birinchi rus kitobi, Petr davri kitoblari–Leontiy Magnitskiyning «Арифметика»si (1703), Buyuk Petr davri «Хмочновская рукопись» va boshqalar mavjud. Rus adiblaridan A.S.Pushkin, L.N.Tolstoy, A.P.Chexov, A.N.Tolstoylarning asarlari ham kutubxonaning bebaho boyligidir.

G‘arbiy Yevropa kitoblarining nodir kollektsiyasida 1489-yilda Nyurnbergda bosilgan «Девятая Немецкая библия» inkunabuli, B.Erbeloning 1697-yilda Parijda nashr qilingan «Восточная библиотека»si mavjud. Xorijiy tillardagi adabiyotlar fondi 75dan ziyod tillardagi ijtimoiy-siyosiy, gumanitar, tabiiy-ilmiy va texnika masalalariga oid nashrlar bo‘lib, bugungi kunda ularning soni 350 mingdan ortiq nusxani tashkil etadi.

Kutubxonaning San’at bo‘limi o‘ziga xos notali-musiqaviy asarlar to‘plamini, o‘zbek klassik va jahon musiqasi gramplastinka

yozuvlarini, 150 mingdan ortiq tasviriy va amaliy san'at nashrlarini o'zida jamlagan.

Texnikaga doir adabiyotlar (2 milliondan ortiq nusxada) ham mazmuniga ko'ra o'ziga xos bo'lib, me'moriy-texnik hujjatlar, sanoat kataloglari (qog'ozda) to'plami 33700 nusxadan ortiqdir.

Avtomatlashtirish yangi axborot texnologiyalari bo'limi yagona avtomatlashgan kutubxona tizimini qo'llaydi va rivojlantiradi, elektron katalog hamda elektron ma'lumotlar bazasini yaratishda metodik yordam beradi. 1988-yildan kutubxonachilik jarayonini avtomatlashtirishga, 1999-yildan Rossiya Davlat Ilmiy texnika kutubxonasining IRBIS avtomatlashtirilgan axborot dasturidan foydalangan holda vatanimiz va chet el yangi nashrlarining elektron katalogini yaratishga kirishildi. Kutubxonaning elektron katalogi bugungi kunda 25 mingdan ortiq yangi adabiyotlarning bibliografik yozuvlari va davriy nashrlarning analitik yozuvlarini saqlaydi. Kutubxona o'z ma'lumotlar bazasini yaratmoqda va "Curret Content", "MicroMedex", "Medine", EBSCO va ma'lumot bazalari bilan ishlash imkoniyatidan unumli foydalanmoqda.

Kutubxona o'z nashriyot va bosmaxonasiga ega bo'lib, noshirlik hamda matbaa faoliyati bilan shug'ullanadi. Kutubxona 1923-yildan boshlab bosma asarlardan majburiy nusxa ola boshlagan. 1948-yilda kutubxonaga Alisher Navoiy nomi berilgan. Kutubxona 1956-yildan buyon xalqaro kitob almashuvini amalga oshirib kelmoqda, uning sheriklari jahonning 24 mamlakati-dan 30 dan ortiq tashkilotlardir. Kutubxona yirik xalqaro kutub-xonachilik tashkilotlari: IFLA, YevroOsiyo kutubxonalar Assotsiatsiyasi, elektron kutubxonalar va yangi axborot texnologiyalarini ishlab chiqaruvchilar hamda foydalanuvchilar xalqaro Assotsiatsiyasining a'zosi.



Kutubxona ko'plab xalqaro tashkilotlar va jamg'armalar bilan, shuningdek, O'zbekistonda akkreditatsiya qilingan chet mamlakatlarning elchixonalari bilan mustahkam ijodiy aloqalar o'rnatgan bo'lib, madaniyati, diniy qarashlari va tarixiy ildizlari turlicha bo'lgan xalqlarning yaqinlashishiga o'zining hissasini qo'shmoqda. Hozirgi kunda kutubxona fondi jahonning 75 tillarida deyarli 10 mln nusxaga etgan.

Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi respublikamizdagi barcha kutubxonalarga kutubxonashunoslik, bibliografiyashunoslik va kitobshunoslik sohalari bo'yicha metodik rahbarlik qiladi.

1-topshiriq:

a) matnni o'qing;
b) matndagi termin va iboralarning ma'nosini izohlang;
d) matnga munosabat bildirib rus tilida so'zlang.

2-topshiriq.

O'z oliy ta'lim muassasangiz kutubxonasi haqida matn tuzing.

GRAMMATIKA

Frazeologik birliklarning turlari va uslubiy xususiyatlari

Til fanining iboralarni o'rganadigan bo'limi *frazeologiya* deyiladi. Ikki va undan ortiq mustaqil so'zlar yoki gaplar bir ko'chma ma'noni ifodalaydi. Shunday ibora va gaplar barqaror bo'ladi. Ular obrazliligi, jozibadorligi bilan ajralib turadi. Masalan: *yuragi qon bo'ldi, ko'ngliga qil sig'maydi.*

Frazeologik ibora va gaplar so'zlarning ko'p ma'noli (polisemiya) bo'lishiga asoslanadi, shuningdek, ikki va undan ortiq mazmunni ifodalaydi: *o'zini qayerga qo'yishni bilmadi – sevinchdan hayajonlanmoq, zerikib yoki bekorchilikdan toqatsizlanmoq* va boshqalar. *Mazasi qochdi - sog'ligi yomonlashdi, ishi inqirozga uchradi.* Frazeologiyaning tarkibida idiomalar ham bo'lib, ular ma'lum tilgagina xos bo'ladi va boshqa tillarga so'zma-so'z tarjima

qilib bo'lmaydi: *Ammamning buzog'i. Yuragi shuv etib ketdi. Gapning po'st kallasi. Oyoqni qo'lga olib chopmoq* va h.k. Idiomalarda shakllangan mantiqqa to'g'ri kelmaydigan fikr, voqea, hodisa ifodalanadi.

Nutqiy ta'sirchanlik frazeologizmlarni qo'llash bilan ham vujudga keladi. Oddiy so'zga nisbatan frazeologizmlar (iboralar)da ta'sirchanlik kuchli bo'ladi. Masalan, Boya qishloqdan dadasi keldi. Dadasi nimadandir asabi buzilib, *qovog'idan qor yog'ib* keldi-yu, o'g'li bilan ko'rishib bo'lmasdanoq Vohid Mirobidov qo'ng'iroq qildi (O. Yoqubov). Bu gapdagi *xafa* ma'nosini ifodalovchi *qovog'idan qor yog'ib* frazeologizmi fikrning ta'sirchanligini oshirgan.

Frazeologizmlar zaminida uzoq o'tmishda bo'lib o'tgan voqea-hodisalar, turmush haqiqati inson ongida mujassamlashgan, sayqallashgan obrazlarning tasavvurlari siqiq, sintaktik qoliplashgan bo'lib, avloddan-avlodga meros bo'lib kelgan. Masalan: *bir yoqadan bosh chiqardi, shaytonga dars beradi, chuchvarani xom sanama, temirni qizig'ida bos, suvga olib borib sug'ormay keladi, otdan tushsa ham egardan tushmaydi, to'ydan oldin nog'ora chalma, tepa sochi tikka bo'ldi, ko'zi to'rt bo'ldi* va h.k.

3-topshiriq. Berilgan iboralarning ma'nolarini izohlang va gaplar tuzing.

Otni qamchilamoq, otning qashqasiday, oshig'i olchi, og'ir tabiatli, popugi pasaymoq, pushaymon yemoq, rangida qon qolmadi, yuzi yorug' bo'ldi, to'ydan oldin nog'ora chalmoq, tuyaning dumi yerga tekkanda, tuyaning ustida ham it qopadi, to'nini teskari kiyib olmoq, to'rt tarafi qibla.

4-topshiriq. Yozuvchilarning asarlaridan 20 ta iborani topib daftaringizga yozing va izohlang.

5-topshiriq. Quyida berilgan omonim, sinonim, antonim iboralarni ajratib ustun shaklida yozing.

Toqati toq bo'lmoq, yaxshi ko'rmoq, terisiga sig'madi, ko'kka ko'tarmoq, savol bermoq, yuragi keng, ko'ngli joyiga tushdi,

ko'ngliga tugmoq, avzoyi buzildi, ko'ngli oq, qo'li uzun, gapida turmoq, gap tegdi, qo'ldan chiqarmoq, ichagi uzildi.

6-topshiriq. Elektron kutubxona bilan ishlash bo'yicha tavsiyalar yozing.

7-topshiriq. Badiiy asarlarga bag'ishlangan internet saytlarining ro'yxatini tuzing.

8-topshiriq. Quyida berilgan so'zlarga sinkveyn tuzing.

"SINKVEYN" texnologiyasi

"SINKVEYN" – bu besh satrdan iborat bo'lib, unda berilgan tushuncha birinchi satrdan to to'rtinchi satrgacha kengayib boradi. Birinchi qatorda mavzu (kalit so'z) beriladi, ikkinchi qatorda unga bir yoki ikkita aniqlovchi tanlanadi. Uchinchi qatorda uni harakat-holat (fe'l) bilan to'ldiriladi. To'rtinchi qatorda so'z har xil usul bilan yoyiq gapga aylantiriladi. Beshinchi qatorda kalit so'zning ma'nodoshi (sinonimi) keltiriladi.

So'z	1-daraja	2-daraja	3-daraja	4-daraja	5-daraja
ibora					
kutubxona					
maqol					
so'z					

9-topshiriq. "Alisher Navoiy – o'zbek adabiy tilining asoschisi" mavzusida ijodiy insho yozing.

10-topshiriq. Matnni o'zbek tiliga tarjima qiling.

Алишер с детства был умным, сообразительным, шустрым

мальчиком. С 9 лет он писал стихи и с этими стихами восхищались взрослые люди.

В один прекрасный день он вышел в сад. Сидя посреди сада он читал стихи. Его голос был таким нежным, и в тоже время звонким, приятным, что поющий скворец затих. Он спустился к Алишеру и сел на его плечо. Он сказал Алишеру:

- Эй поэт, твой голос оказался приятней моего голоса. Как тебя зовут?

- Меня зовут Алишер, - ответил мальчик.

- Ах, да, ты юный поэт Алишер. Ты должен выбрать себе псевдоним. Твой голос похож и даже лучше пения скворца, поэтому твой псевдоним должен быть от слова «наво», то есть «Наваи».

С тех пор, как гласит народная легенда, Алишер Наваи подписовался под своими произведениями псевдонимом «Наваи».

11-topshiriq. Quyidagi maqollarni o'zbek tiliga tarjima qiling.

1. Верблюда мучает груз, человека - совесть. 2. Горькая правда лучше сладкой лжи. 3. Жизнь молодца - с народом, жизнь народа - с Родиной. 4. Правда может согнуться, но не сломается. 5.Скромному кланяйся до земли, перед гордецом поднимай голову до неба. 6. Герой родится для себя, но умирает за людей. 7. Даже когда шутишь, говори обдуманно. 8. Десять раз подумай, один раз скажи. 9. Тело украшай одеждой, голову - знаниями. 10. Не бойся врага умного, бойся друга глупого. 11. С молоком впитанное - с душою выйдет. 12. Хорошему коню достаточно одного удара плетью, умному человеку - одного слова.

12-MAVZU. ADABIYOT – MA'NAVIYATNI YUKSALTIRUVCHI MANBA

Adabiyot yashasa, millat yashar.
Cho'lpon

Adabiyot — milliy ma'naviyat ko'zgusi

Asrlar mobaynida badiiy ijod, badiiy adabiyot – milliy ma'naviyatimiz ko'zgusi bo'lib kelgan. Buni o'zbek she'riyatining gultoji deya e'tirof etilgan Mir Alisher Navoiy davridan to bugungacha o'tkir qalam sohiblari yaratishgan badiiy ijod mahsullariga payvand milliy qadriyatlarimiz, ma'naviyatimiz rivoji misolida kuzatishimiz mumkin.

Chinakam yozuvchi odamlarning dardu g'ami bilan yashashi, xalq ichiga kirib borishi, o'zi uchun ilhomni, yangi mavzularni shu hayotdan, unda bo'layotgan o'zgarishlardan olishi kerakligi kunday ravshan. Biroq, bugungi shiddat bilan o'zgarayotgan zamonning o'zi o'rtaga ulkan va dolzarb muammolarni qo'yayotganini ham aslo unutish mumkin emas. Bunday muammolarni ta'lim va tarbiya, ma'naviyat, madaniy hayotni rivojlantirish orqaligina hal etish mumkinligini chuqur anglaymiz. XXI asrning qanchalik shiddatli ekanini ko'rib turibmiz. Bugun har qanday axborot, yangilik zumda kurrai zaminga nur kabi taralmoqda. Adabiyot bo'stonida yaratilgan badiiy asarlar ham internet nashrlari orqali juda tezlik bilan o'quvchilarga yetib bormoqda. Shu asnoda intellektual salohiyat, tafakkur va ma'naviyat asri o'zining shaklu shamoyilini topmoqda. Shunga monand adabiyot ixlosmandlarining ongu tafakkuri ham o'zgacha shakllanmoqda. Biz ilgari ko'rmagan, duch kelmagan ayrim muammolar ham shu asnoda paydo bo'layotir. Bu — milliy mentalitetimizga to'g'ri kelmaydigan yot g'oyalar bilan bog'liq muammolar hisoblanadi.

Aytish o'rinliki, mafkuraviy tahdidlar ayrim badiiy adabiyotlar orqali ham kirib kelayotganidan aslo ko'z yumib bo'lmaydi. Ana

shunday murakkab va tahlikali zamonda yozuvchilar ertangi kunimizni o'ylab, odamlarni ezgulikka, insof-diyonat, mehr-oqibatli bo'lishga da'vat etadigan asarlar yaratishi g'oyat muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Bugunning yoshlari o'zlarini qiziqtirgan axborot va ma'lumotlarni asosan internet orqali olayapti. Shunday ekan, ana shu ta'sirchan zamonaviy axborot vositalari yordamida ham adabiyotimizni keng targ'ib etish maqsadga muvofiqdir. Shu o'rinda aytish mumkinki, bugungi kunda milliy internet tarmoqlarimizda qator veb-saytlar bu borada salmoqli vazifalarni amalga oshirmoqda. Demak, bundan buyon o'zbek tilidagi internet adabiyotini shakllantirish, shoir va yozuvchilarimizning o'z veb-saytlariga ega bo'lishiga erishish nafaqat adabiy jarayonga, kerak bo'lsa, butun ma'naviy-ma'rifiy hayotimizga kuchli ta'sir o'tkazishi shubhasizdir. Yoshlarning ongida ma'naviy bo'shliq hosil bo'lmasligini ta'minlash ham bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biridir. Dunyoning turli mintaqalarida ziddiyatlar va beqarorlik kuchaygan, ixtiloflar davom etayotgan bir sharoitda biz yoshlarimizni — o'z farzandlarimizni turli zararli ta'sirlardan himoya qilishimiz zarurligini yoddan chiqarmasligimiz kerakligini ta'kidlaydi. Ijod ahli esa o'z iste'dodlari bilan odamlarning ongi va dunyoqarashi, madaniy saviyasini yuksaltirishga qodirdir. Yozuvchilar doimo hayot bilan hamnafas bo'lishi, o'z xalqining dardi bilan yashashi, haqiqat va adolatga sadoqat bilan xizmat qilishi zarur. Zero, adabiyot — ma'naviyat poydevori hisoblanadi. Shunday ekan, chinakam ijod va iste'dod mahsuli bo'lgan asarlarni keng kitobxonlar ommasiga yetkazish davr talabidir. Bu ezgu yo'lda ijodkorlar, nashriyotlar, bosma nashrlar tahririyatlari qo'lni qo'lga berib, barcha mavjud vositalardan unumli foydalanishlari maqsadga muvofiq.

1-topshiriq:

a) matnni o'qing;

b) matndagi termin va iboralarning ma'nosini izohlang;

d) matndagi asosiy fikrni ajratib so'zlab bering.

2-topshiriq.

Badiiy asar qahramoni o'quvchini qanday tarbiyalashi haqida fikr bildiring va unga misollar keltirib do'stingiz bilan dialogga kirishing.

GRAMMATIKA

Nutq uslublari. Badiiy uslub va uning xususiyatlari

Badiiy uslub. Bu uslub barchaga barobarligi, o'quvchiga va tinglovchiga emotsional ta'sir etishi bilan boshqa uslublardan farq qilib turadi. Bu uslubda muallif tilning barcha leksik, grammatik vositalaridan foydalanishi, turli ifodaviy vositalarni qo'llashi mumkin. Boshqa uslublarning materiallaridan badiiy uslubda bemalol foydalanish mumkin. Shunga ko'ra, badiiy uslub keng imkoniyatga ega uslub turi hisoblanadi. Badiiy uslub badiiy adabiyot, ya'ni badiiy asarlarga xos bo'lib, unda badiiylik, ifodaviylik, ta'sirchanlik kuchlidir.

Badiiy uslubning o'ziga xos xususiyati shundaki, adabiy tilning barcha imkoniyatlarini o'z ichiga olish bilan birga, unda o'zbek shevalariga, kasb-hunarga doir leksik birliklar, bugungi kunda iste'moldan chiqib ketgan tarixiy so'zlar ham personajlar nutqi orqali ishlatilaveradi. Badiiy uslub o'quvchida estetik zavq uyg'otadi. Demak, badiiy uslub orqali ro'yobga chiqqan nutq ma'lum voqea-hodisa haqida axborot berish (kommunikativ vazifani bajarish)dan tashqari, o'quvchiga ta'sir qilish (ekspressiv) vazifasini ham bajaradi. *Obrazlilik va estetik ta'sir* etish badiiy uslubning muhim belgisidir. Badiiy uslub timsol, ijod va shaxs munosabatida yuzaga keladi. Badiiy uslubda umumxalq tili va adabiy tilning barcha qatlamiga mansub so'z va iboralar keng va faol ishlatiladi hamda estetik ta'sir etish vazifasini bajaradi.

Badiiy adabiyot tili yoki badiiy uslub adabiy tilda alohida o'rin tutadi. Badiiy uslubda xalq tilidagi hamma vositalardan erkin foydalaniladi. Badiiy uslubning asosiy belgilari:

1. Turli tasviriy vositalar, chunonchi, sifatlash, qiyoslash, mubolag'a, kinoya, o'xshatish va hokazolar qo'llanadi:

Bulutning orasidan
Quyosh kulib qaraydi,
Majnuntolning yuvilgan
Sochlarini taraydi (E. Vohidov).


Shoir bu misralarda badiiy tasvirning jonlantirish usulidan foydalanib, insonga xos *kulish (kulib qaraydi), tarash (sochlarini taraydi)* harakatlarini quyoshga nisbatan ishlatadi.

2. Til vositalaridan erkin foydalaniladi. Badiiy asarlarda adabiy tilga xos til birliklari, shuningdek, adabiy tildan tashqarida bo'lgan sheva, oddiy nutq, jargon kabilarga xos so'zlar bo'lishi ham mumkin. Bu uslubda muallifning o'z bayoni adabiy til me'yorlarida bo'ladi. Ammo asarda ishtirok etuvchilarning nutqida ularning xususiyatlarini ifodalash uchun adabiy tilda bo'lmagan til birliklaridan ham foydalaniladi. Masalan, yozuvchi Abdulla Qahhor "Bemor" hikoyasida farg'onalik yosh go'dak nutqini shunday ifodalagan: *Xudoyo ayamdi daydiga davo beygin.*

3. Badiiy asarda tasvirlanayotgan davrning ruhni aks ettirish uchun eskirgan va yangi paydo bo'lgan so'z va iboralardan ham foydalaniladi.

4. Sonlar raqam bilan emas, so'z bilan yoziladi.

Xullas, badiiy asarlar badiiy uslubda yoziladi. Unda so'zlashuv uslubiga, kitobiy uslublarga, shuningdek, xalq tiliga xos til birliklari ham bo'ladi. Bir fikrning o'zini adabiy tilda turli uslublarda ifodalash mumkin, chunonchi: quyidagi gaplarni qiyoslab o'qing.



3-topshiriq. Gaplarni ko'chiring. Qanday uslubga xosligini ayting.

Kuz! Libosing shohona. Tillarang chehrang, sokin nafasing, xotirjam odiming taftini juda sog'ingan edik. Shuncha zeb-ziynat va latofating manbai ne? Balki yorqin jamoling har kimni o'ziga maftun aylashidadir gap. Yoki sen jamiki go'zalliklar in'ikosi – bekatidirsan. Bir boqishing bog'dagi olmalar yuziga alvon tus beradi. Shuncha qudratni qaydan olasan. Atrofga boqaman. Borliq sen tortiq qilgan sovg'alardan bezak taqish bilan ovora. Saxovating mevasidan hamma, ayniqsa, bobodehqonlar juda shod. Tomosha qilib turib, tin olaman, zavqlanaman. Ochig'i, kuzni nega mahzun fasl deya ta'riflashlarini tushunolmayman... Mana, ko'p kuttirmay, kuz ko'zlarida quvonch yomg'iri paydo bo'ldi: ko'chada turfa ranglardagi yomg'irpo'shlar. Yomg'irni intiq kutganlarning labida tabassum. Ha, oldinda sizu bizni za'faron faslning bundan ham betakror tuhfalari kutayapti.

4-topshiriq.

Mashhur adabiy qahramonlar haqida taqdimot tayyorlang.

5-topshiriq. O'qing. Quyidagi hikmatli ibora va fikrlarning ma'nosini izohlang.

"Til muncha sharaf bila nutqning olami (quroli)dur va ham nutqdurki, agar nopisand zohir bo'lsa, tilning ofatidur" ***(Alisher Navoiy).***

"Aytur so'zni ayt, aytmas so'zdan qayt" ***(Alisher Navoiy).***

"So'zchi holin boqma, boq so'z holina,
Ko'rma kim der oni, ko'rgil kim ne der" ***(Alisher Navoiy).***

"So'zdurki, nishon berur o'likka jondin,
So'zdurki, berur jonga xabar jonondin,
Insonni so'z ayladi judo hayvondin,
Bilkim, guhari sharifroq yo'q ondin ***(Alisher Navoiy).***

"Tarixda nom qoldirish uchun yo yaxshi sarkarda, yo yaxshi notiq bo'lish kerak" ***(Sitseron).***

"Qalam- eng yaxshi muallim" ***(Sitseron).***

"Inson shoir bo'lib tug'ilishi mumkin, lekin notiq bo'lib yetishadi" ***(Sitseron).***
"So'zni ishonch bilan gapir,
eshituvchilarga ta'sir esa o'z-o'zidan kelib chiqadi" ***(Gyote).***
"Mavzuni chuqur o'rgan, so'zning o'zi keladi" ***(Katon).***
"Inson notiqligi, saodat tildan,
Nazokat tildandir, nafosat tildan,
Hayot saboqlari ko'rsatar shuni,
Do'zax tildan erur va jannat tildan" ***(Abu Ali ibn Sino).***

6-topshiriq.
Adabiyot haqidagi hikmatli so'zlarga namunalar yozing va ularni yod oling.

7-topshiriq. Matnni o'qing. Matnning asosiy mazmunini qisqartirib so'zlab bering.

CHO'LPON (1897 – 1938)

Abdulhamid Sulaymon o'g'li Cho'lpon avval eski maktabda, so'ngra Andijon va Toshkent madrasalarida tahsil ko'rdi. Zamonning talabini ilg'agan uning otasi – Sulaymonqul o'g'lini rus-tuzem maktabida ham o'qitdi. Bo'lajak shoir muntazam shug'ullangani va tabiiy iste'dodi tufayli turk, fors, arab, rus tillarini puxta o'rgandi va bu tillardagi adabiyotlarni doimo mutolaa qilib bordi. Shu bois, unda adabiyotga havas erta uyg'ondi va yoshligidan she'rlar ijod qila boshladi. Cho'lponning dastlabki asarlaridayoq rus bosqinchilari zulmi ostida ezilayotgan Turkiston xalqiga bo'lgan cheksiz muhabbat yorqin ko'zga tashlanadi. U xalqini ozod va baxtli ko'rishni juda-juda istardi. Buning uchun odamlarni ma'rifatdan, ilmu fandan bahramand qilish kerak, deb hisoblardi.

Cho'lpon 1917-yilning fevralida Rossiyada sodir bo'lgan inqilobga katta umid bilan qaradi. Lekin bu inqilob Turkiston o'lkasiga chin ozodlik bermadi. O'sha yilning oktyabrida ro'y bergan to'ntarish esa shoirning so'nggi umidlarini ham yo'qqa chiqardi. U o'z

she'rlarida xalqning zabun holini aks ettirib, xalqni bunday holatdan qutqarish yo'llarini izlaydi. Jumladan, u o'zining "Ko'ngil" she'rida inson tirik ekan, zulmga bo'yin egmasligi, shu zulmning moddiy timsoli – kishanni kiymasligi lozim, deb biladi:

Tiriksen, o'lmagansen,
Sen-da odam, sen-da insonsen.
Kishan kiyma,
Bo'yin egma,
Ki sen ham hur tug'ulg'onsen!

Cho'lpon mislsiz she'riy kashfiyotlardan tashqari, "Kecha va kunduz" nomli birinchi o'zbek roman-dilogiyasining muallifidir. Afsuski, romanning ikkinchi kitobi Cho'lpon qamalgan paytda yo'q qilingan va hozirgacha topilgan emas. Birinchi kitob – "Kecha" mustaqillik sharofati ila qayta nashr qilindi.

Cho'lponning 1926-yilda yaratgan "Yorqinoy" dramasi badiiy jozibasi va mavzu nuqtai nazaridan hozirgacha o'z ta'sir kuchini yo'qotmay kelmoqda. Abdulhamid Cho'lpon o'zbek o'quvchilarini jahon adabiyotining durdonalari bilan tanishtirish borasida ham salmoqli ishlarni amalga oshirdi. Shekspirning "Hamlet", Pushkinning "Boris Godunov" va "Dubrovskiy", Gogolning "Tergovchi", Gorkiyning "Ona" kabi asarlarini o'zbek tiliga tarjima qilib, zamonaviy o'zbek tarjima maktabiga asos soldi.

Cho'lpon haqiqat va hurlikni e'tiqodiga aylantirgan ijodkor edi. Shu sababli ham milliy zulmni milliy tenglik deb e'lon qilgan hukmron millatlarga uning ijodi yoqmas edi. Ular shoirdan xalq baxtiyor, erkin va ozod yashamoqda deb kuylashni talab etishdi. Haqiqat kuychisi va erk farzandi – Cho'lpon bunday qila olmadi. Shu sababdan shoir 1937-yilning 13-iyulida qamoqqa olindi, uzoq qiynoqlar va tahqirlardan so'ng, 1938-yilning 4-oktyabrida Toshkent yaqinida otib tashlandi.

8-topshiriq. Oxirgi o'qigan badiiy asaringiz haqida gapirib bering.

9-topshiriq. Ma'naviyat, adabiyot, til haqidagi mavzularidan birini tanlang, hamda badiiy uslubdagi so'zlar ishtirokida "So'z ustasi" o'yinini tashkil qiling.

So'z ustasi" texnikasi bilan tanishing

"So'z ustasi" o'yini

Unda talaba yoki guruhlar bir-birlari bilan kim 5 daqiqa ichida nechta so'z topa olishi bo'yicha musobaqalashadilar. Ajratilgan vaqtda eng ko'p so'z topa olgan guruh yoki talaba g'olib hisoblanadi. Lekin birorta so'z qaytarib yozilmasligi kerak. O'yin oxirida eng ko'p so'z topa olgan "So'z ustasi" nomini oladi.

10-topshiriq. She'rni ifodali o'qing va yod oling.

Abdulla Oripov

Ayol

Yigitlar maktubin bitganda qondan
Kelinlar firoqdan chekkanda yohu,
Uning ham panohi qaytmadi jangdan
O'n to'qqiz yoshida beva qoldi u.
Sevgidan yetimu umrdan yarim,
Qurigan ko'ksida yolg'iz belanchak.
Abadiy firoqni, hayhot, do'stlarim,
Abadiy visol deb bildi kelinchak.

Qaqragan lablarda olovli nafas,
Kechalar kechmishin ayladi ko'mir.
Parishon sochlari yor ko'ksi emas,
Muzdayin bolishda qoldi bir umr.

Yillar ham o'tdilar, hamon u yolg'iz,
Mung'ayib termular botguvchi kunga.
Ey nomard tabiat, bormi senda his,
Qaytadan baxt bersang b'olmasmi unga?!

Nahot ishq qismati buncha berahm,
Bunchalar buyuksan vafo shevasi.
Sengadir hurmatim, senga sharafim,
Qahramon jangchining sodiq bevasi.

Siz-chi ey, sadoqat satridan nolib,
Nadomat komida qolganlar, ayting.
O'zini ming bitta bozordan olib,
Ming bitta bozorga solganlar, ayting.

Shu cho'lpon ko'zlarning buyuk hurmati,
Shu aqiq lablarning rost so'zi deya,
So'ylang-chi, vafoning nadir qimmati,
Siz ham kutganmisiz biror soniya?!

Ba'zida tirnoqlar bezagi uchun
Sahardan shomgacha qilursiz toqat.
Biroq yoringizni kutgali nechun
Topilmas tirnoqcha sabru qanoat.
Nazokat paytimas, yaqinroq keling,
Buyuk zot qoshida aylangiz salom.
Shu sodiq bevaga sajdalar qiling,
Shu sodiq bevaga aylang ehtirom.

Hatto zeb-ziynatni yulqib ziyoda,
Haykal ham qo'yingiz bamisli xayol.
Shundaylar bo'lmasa agar dunyoda,
Bu qadar muhtaram bo'lmasdi ayol.

Abdulla Oripov

Shunday yashar odatda odam

Yo'q, kerakmas, qo'ying, kerakmas,
Menga orom istamang, do'stlar,
Xilvat soz deb qistamang, do'stlar,
Qo'ying, bunday orom kerakmas.

Nogohonda xayolga botsam,
Yo uxlasam, uyg‘oting darrov,
Nomim tutib, so‘z qoting darrov.
Behudaga bir yoqqa borsam,
Qo‘llarimdan ushlab o‘shal dam,
Kurashlarning safiga qo‘shing,
Qur, yarat deng, hayqir deng, jo‘sh deng,
Shunday yashar odatda odam.

11-topshiriq. She’rlarni o‘qing. She’rdagi badiiy uslubga xos so‘z birikmalarini izohlang.

Erkin Vohidov

Tong lavhasi

Ufqlarga qo‘yib guldasta,
Tog‘ ortidan ko‘tardi-da bosh,
Pastga boqdi cho‘qqidan asta
Oltin qalam tutgan bir naqqosh.
Har nuqtaga sayqal berib u,
Vodiy uzra chizdi zar lavha.
So‘ng quyosh deb imzo chekdi-yu,
Tongotar deb qo‘ydi sarlavha.

Bahor

Barqut kiyib bezandi bog‘lar,
Sahrolar ko‘ksiga taqdi qizg‘aldoq.
Quyosh etagiga oq bulut bog‘lab,
O‘rik shoxlarida qovurdi bodroq.
Yellar olib qochdi qishning xobini,
Barglar chapak chalib uyg‘ondi shodon.
Butoqlarga qon‘ib, gul kitobini
Varaqlashga tushdi bulbul - g‘azalxon...

Bugun koinotda ezgu bir tashvish,
G‘uncha gul bo‘lay deb ko‘zin ochadi.

Musicha oldidan bir dona cho'pni
Chumchuq uyasiga olib qochadi.

Haydalgan daladan bir xas ortmoqlab -
Chumoli yugurar - u ham tirik jon.
Shoshilib chopadi tabib irmoqlar
Yerning tomiriga quymoq uchun qon...

Ona tuproq esa kuz tashvishida,
Yuksak xirmonlarga siynasi yuklik.
Uning sokingina tin olishida
Bordir onalarga xos bir buyuklik.

12-topshiriq. Quyidagi hikoyani o'qing. O'z fikringizni bayon qiling. Ibrat oling.

Qiyomatli qarz

O'tgan zamonlarda Hasan degan bir kishi bo'lgan ekan. Har kuni daladan tergan o'tinini sotib, uning puliga to'qqiz dona non sotib olar ekan. Bir kuni novvoyning shogirdlari: "Shu kishi kuniga to'qqiz dona non sotib oladi, bitta yoki ikkita ortiq ham, kam ham emas, sababini bilib bersangiz?" - deyishibdi. Novvoy rozi bo'lib Hasandan nima uchun har kuni to'qqiz dona non olishining sababini so'rabdi. Hasan javob bermabdi. U ertasiga kelganda novvoy: "Hamma nonlarni talab ketishdi. Senga zo'rg'a beshta non olib qoldim", - debdi. Hasan: "Bular menga yetmaydi", - deb nonni olmabdi.

Hasan indiniga kelganda novvoy unga o'n bitta non beribdi. Shunda Hasan: "Bular ortiq, isrof bo'ladi", - deb nondan ikkitasini qaytaribdi. Hasan yanagi gal kelganda esa novvoy: "Nonlarni sotib tugatdim, senga olib qolmadim", - debdi. Keyin: "Agar sen har safar nima uchun to'qqizta non olishing sababini aytib bersang, shogirdlarimdan bittadan olib, o'zimga olib qo'yganimdan uchtasini qo'shib senga roppa-rosa to'qqizta non beraman", - debdi. Hasan shunda novvoyga qarab: "Olgan nonlarimning ikkitasini qarzimga

beraman, beshtasini esa qarzga beraman. Qolganini o'zimiz, ya'ni er-xotin yeymiz", - debdi. Novvoy bilan shogirdlari bu gapning ma'nosini chaqolmay, rosa bosh qotirishibdi. Shunda Hasan: "Ikkisini qarzimga berishimning boisi shuki, ota-onam menga bolaligimdan non-tuz berib katta qilishgan. Ulardan qarzdorman. Har kuni ularga ikkitadan non berib, qarzimni uzaman. O'zimning esa beshta bolam bor, ularga beshta non ulashaman, vaqti kelib keksayganimda ular ham ishlab, mana shu qarzlarini uzadilar. Qolgan gaplar endi o'zlaringga ayon", - debdi.

Hasanning dono so'ziga qoyil qolgan novvoy har kuni to'qqiz dona sara nonni unga beradigan bo'libdi.

13-topshiriq. Matnni o'qing. Matnni ma'noli qismlarga ajratib reja tuzing. Tuzgan rejangiz asosida o'zbek tilida gapirib bering.

Предпринимательство как определенный вид деятельности возникло несколько веков назад. Первое определение предпринимательства дал англичанин Р. Кантильон в начале XVIII века, подметивший, что "появился новый слой людей, которые на свой страх и риск устремляются к рыночному обмену с целью привлечения прибыли".

Сегодня мы часто слышим такие слова, как «бизнес» и «бизнесмен». Что они означают? Бизнес - это деятельность, занятие, приносящее прибыль, выгоду. Бизнесмен - делец, предприниматель; человек, который может создать свое предприятие, выпускающее свою продукцию, нужную людям.

Деловой человек мало разговаривает о делах, он их делает, старается никуда и никогда не опаздывать, ценит свое и чужое время, всегда сдерживает данное им слово, и на него можно положиться. Настоящий деловой человек, бизнесмен, заботится не только о выгоде и прибыли. Он считает своим долгом, делом чести и совести помогать слабым и немощным, выделяя для их содержания, лечения значительные денежные средства. Их называют спонсорами. Нередко мы слышим такое слово-«предприниматель».

Предприниматель - человек, который владеет каким-нибудь предприятием. Но недостаточно владеть, надо уметь организовать в нем деятельность или бизнес, который приносит доход. Быть хорошим предпринимателем - это значит всегда учиться овладевать знаниями, умениями не только своей профессии, но и многими другими. Например, финансовыми, юридическими, психологическими и другими.

Предпринимательство - это создание фирмы или предприятия ради производства товаров или оказания услуг с целью выгоды или прибыли.

Предпринимательская деятельность требует от человека особенных качеств. Между понятиями «бизнес» и «предпринимательской деятельность» можно поставить знак равенства, имея в виду, что первый термин – иностранного происхождения, а второй – русского. Вместе с тем, термин «предпринимательской деятельность» использует, когда хотят подчеркнуть новаторскую сторону бизнес деятельности. Например, совместное предпринимательство, рисковое (венчурное) предпринимательство.


-Предприниматель должен быть образованным и профессионально подготовленным человеком: отлично знать законы рынка, особенности работы с людьми и уметь работать с деньгами;

-Предприниматель должен быть независимым человеком и иметь возможность принимать решения такие, какие он считает нужными;

Хороший предприниматель, как правило, человек способный на разумный и продуманный риск. Он просчитывает на несколько ходов вперед и знает возможный ход соперников - своих конкурентов.

13-MAVZU. OMMAVIY AXBOROT VOSITALARI


O'quv qayda bo'lsa, ulug'lik bo'lar,
Bilim qayda bo'lsa, buyuklik bo'lar.
Yusuf Xos Xojib



Mamlakatimizda istiqlolning ilk yillaridan demokratik huquqiy davlat qurish va kuchli fuqarolik jamiyatini barpo etish yo'lida keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, axborot va so'z erkinligini ta'minlash, ushbu sohani liberallashtirish O'zbekistonda demokratik, huquqiy davlat va kuchli fuqarolik jamiyatini barpo etishning muhim ustuvor yo'nalishi sifatida belgilandi. 1991-yili O'zbekistonda 395 ta OAV faoliyat yuritgan bo'lsa, bugun ularning soni 1437 taga yetdi. Ayni vaqtda, mavjud nodavlat bosma OAV jami bosma OAVning 62,7 foizini tashkil etmoqda. 1990-yilda 9 nashriyot bor edi, bugun ularning umumiy soni 112 ta. Yaratilayotgan imkoniyatlar tufayli matbaa korxonalarining soni ham yil sayin ortib bormoqda: 1990-2019-yillardagi bosmaxonalar soni 149 tadan 1719 taga yetdi.


Bugungi kunda ommaviy axborot vositalari uchun turli imtiyozlar belgilashga qaratilgan qonunchilik tobora takomillashtirilmoqda. Xususan, 2011-yil 30-dekabrda qabul qilingan "Ommaviy axborot vositalarini yanada rivojlantirish uchun qo'shimcha soliq imtiyozlari va afzalliklari berish to'g'risida"gi qaror buning yorqin isbotidir. Mazkur qaror axborot sohasida fuqarolarning huquq va erkinliklarini ta'minlash bo'yicha OAV imkoniyatini kengaytirib, iqtisodiy asoslarini mustahkamlamoqda. Zero, iqtisodiy erkin, baquvvat va

mustaqil ommaviy axborot vositalari jamoatchilikka tahliliy, tezkor va xolis ma'lumot yetkazib berish imkoniga ega.



YUNISEF bilan hamkorlikda ona va bola salomatligini muhofaza qilish borasida amalga oshirilayotgan ijtimoiy ahamiyatga molik dasturlar ommaviy axborot vositalarida har tomonlama va sifatli yoritib borilmoqda. "Sog'lom bola yili" va bola huquqlari to'g'risidagi konvensiyaning 25 yilligi munosabati bilan bola huquqlari muhofazasiga bog'liq masalalarni yoritishda ommaviy axborot vositalari salohiyatini kuchaytirish loyihasi amalga oshirildi. Mazkur loyiha doirasida o'tgan yilda 1400 dan ortiq hududiy jurnalistlar ishtirokida 70 seminar-trening va davra suhbatlari tashkil etildi. Umuman, xorijiy ekspertlar ishtirokida 30 dan ziyod seminar-treninglar, davra suhbatlari va anjumanlar tashkil etilib, ularda besh yuzdan ortiq axborot xizmatlari va ommaviy axborot vositalari vakillari ishtirok etdi.

2015-yilda "O'zbekistonda Internet jurnalistikasini rivojlantirishning dolzarb masalalari" mavzusida respublika konferensiyasi o'tkazilgani ayni muddao bo'ldi. Buning natijasida fond yuqori malakali jurnalist, tahlilchi va sharhlovchilar tayyorlash, nufuzli xalqaro media kompaniyalar, xorijiy hamkasblar bilan samarali ijodiy aloqalar o'rnatish, yosh mutaxassislarning kasb mahorati va tajribasini oshirish borasida izchil ishlarni amalga oshirdi.



Ko'z o'ngimizda yangi axborot jamiyati shakllanmoqda. Axborot strategik va iqtisodiy resursga aylanmoqda. Axborot jamiyatining taraqqiyoti davlatlarning barqaror iqtisodiy rivojini

ta'minlash, fuqarolarning turmush darajasini oshirish, mamlakatlar va mintaqaviy birlashmalar taraqqiyotining muhim va ustuvor sharti sifatida belgilanmoqda. Bugun media-makonda axborot jurnalistik faoliyatning yangi turi – onlayn jurnalistikaning rivojlanib borayotganini inkor etib bo'lmaydi. Uning kelajakdagi istiqboli mamlakatdagi demokratik islohotlar, bozor munosabatlari va ta'lim sohasidagi islohotlarga bevosita bog'liq. Internet jurnalistikasi bugun o'zining ilk taraqqiyot bosqichlarini boshidan o'tkazmoqda. Bu jurnalistlarga taklif etilayotgan cheksiz imkoniyatlar beruvchi texnologiyalar orqali namoyon bo'layotir.

Bugun hayotning o'zi OAV oldiga fikrlar xilma-xilligi, mamlakatimiz va xorijda ro'y berayotgan voqea-hodisalarni hisobga olgan holda, xalqimiz tomonidan amalga oshirilayotgan islohotlarning ochiq va oshkoraligini yanada to'liq ta'minlash, O'zbekistonda hayotga tatbiq etilayotgan tashqi hamda ichki siyosatni yanada faol yoritish vazifasini qo'ymoqda. Buning uchun mamlakatimizda barcha shart-sharoit yaratilgan. Bunday keng imkoniyatlarga ega bo'lgan va fuqarolik jamiyatining muhim institutlaridan biri hisoblangan O'zbekiston ommaviy axborot vositalari bugungi kunda jamoatchilik fikrini ifoda etadigan, hayotimizning barcha jabhalarini yanada demokratlashtirish yo'lida harakatga keltiruvchi kuch bo'lishi, mamlakatimizning har bir fuqarosi Vatanimiz taqdiri uchun o'z mas'ulligini his etgan holda el-yurtimizning yanada ravnaq topishiga hissasini qo'shishga intilishiga ko'maklashishi lozim.

1-topshiriq:

a) matnni o'qing;

b) matndagi ommaviy axborot vositalariga aloqador termin va iboralarning ma'nosini izohlang;

d) matnga munosabat bildirib so'zlang.

2-topshiriq. Ommaviy axborot vositalarining faoliyati haqida fikr bildirib do'stingiz bilan dialogga kirishing.

3-topshiriq. Teleko'rsatuvlar va radioeshittirishlar, gazeta va jurnallardagi materiallar, reklama matnlarini tahlil qiling.

GRAMMATIKA

Publitsistik uslub va uning xususiyatlari

Publitsistika (lotincha-"xalq, omma") davrning eng muhim, dolzarb masalalarini o'quvchilarga, tinglovchilarga, tomoshabinlarga gazeta-jurnal, radio, televideniye orqali yetkazish, ommani jonlantirish, kishilarning ongiga atrofda sodir bo'layotgan voqealarni singdirish, ularning ijtimoiy qarashlarini shakllantirish uchun xizmat qiladi. Ommaviy axborot vositalarida (gazeta-jurnal, radio, televideniye), Oliy majlis yig'inlarida, turli xil anjumanlarda qo'llaniladigan nutq uslubi *publitsistik uslub* sanaladi. Publitsistik uslub ikki xil shaklda namoyon bo'ladi: 1) yozma shakl; 2) og'zaki shakl.

Ijtimoiy-siyosiy masalalarga bag'ishlangan bosh *maqolalar, feleton va pamfletlar, murojaatnomalar, chaqiriqlar, deklaratsiyalar* publitsistik uslubning yozma shakliga mansubdir. Radio va televideniyeda chiqayotgan siyosiy sharhlovchilar, notiqlarning nutqlari esa publitsistik uslubning og'zaki shaklidir.

Publitsistik uslubning o'ziga xos xususiyati shundaki, u muayyan ijtimoiy masalalarga faol munosabatda bo'lish, hozirjavoblik, ta'sirchanlik belgilariga ega. Bunday nutq uslubida ijtimoiy-siyosiy tushunchalarni ifodalovchi so'zlar ko'proq qo'llaniladi. Masalan, *isyon, irqchilik, qo'poruvchilar, siyosiy tanglik, bitim* va boshqalar.

Publitsistik uslub - matbuot, radio, teleko'rsatuvga xos bo'lgan tildir. Bu uslub rasmiy va dolzarb xabarlar, axborotlar, e'lonlar, reportaj, bosh maqolalardan iborat bo'ladi. Ularda fikr kichik hajmdagi ommabop jumlalar orqali ifodalanadi. Zarur o'rinda asoslar keltiriladi. Shuning uchun ham rasmiy xabarlarda *"muxbirimizning xabar berishicha, elchixona xodimining so'ziga ko'ra, muxbirimiz voqea ro'y bergan joydan xabar beradi ..."* va hokazo iboralar qo'llaniladi. Har bir xabarga ta'sirli, xabarning asosiy mohiyatini ifodalovchi sarlavhalar qo'yiladiki, bu hol

o'quvchining diqqatini jalb qiladi. *("Qonun barchaga barobarmi?", "Kafolat va'da emas", "Chetlatilgan mutaxassis", "Tuya ko'rdingmi – yo'q", "Chumchuq so'ysa ham qassob so'ysin").* Ayrim hollarda vaqtli matbuotda felyeton, kichik hikoyalar, romandan parchalar ham beriladi. Bu holda ommabop uslub badiiy uslub bilan qo'shilib ketadi. Ommabop uslub kundalik ijtimoiy hayot ko'zgusidir. Ommabop uslubni shakllantiruvchi vositalar ijtimoiy-siyosiy atama va birikmalar bo'ladi: *fuqarolik burchi, iqtisodiy tejamkorlik, siyosiy vaziyat, siyosiy va ijtimoiy kuchlar, iqtisodiy vaziyat, hukumat tangligi* va boshqalar. Publitsistik uslub ommaviy axborot vositalari uslubidir. Bu uslubning muhim xususiyati **axborot berish va ta'sir qilish,** soddalik, tushunarlilik, ta'sirchanlik, adabiy til me'yorlariga qat'iy amal qilishdir.

Publitsistik uslubda ijtimoiy-siyosiy terminlar, gazeta va jurnallarga xos maxsus ifodalar, birikmalar, qat'iy qoliplashgan qurilmalarning tez-tez qo'llanilishi bu uslubning o'ziga xos xususiyatlaridandir: *mustaqillik, ichki tahdid, tashqi tahdid, sovuq urush, ochiq ovoz, yopiq ovoz, buyuk xizmatlari uchun, rasmiy vizit bilan, milliy istiqlol mafkurasi, xalq e'tiqodi, buyuk kelajakka ishonch, shaxs bilan davlat munosabatlari, jamiyatimizning faol ishtirokchisi, mafkuraviy bo'shliq, xavfsizlikka tahdid* va h.k.

4-topshiriq. Onlayn jurnalistikasi va axborot jurnalistikasining afzalligi va kamchiligini Rezyume texnologiyasi asosida tahlil qiling.

"REZYUME TEXNOLOGIYASI" asosidagi mavzu tahlili

Onlayn jurnalistikasi		**Axborot jurnalistikasi**	
afzalligi	**Kamchiligi**	**afzalligi**	**kamchiligi**

5-topshiriq. "XXI asrda axborotning o'rni" mavzusida publitsistik uslubda maqola yozing.

6-topshiriq. "O'zbekiston Respublikasining hukumat portali" mavzusi bo'yicha rasmiy axborot tayyorlang.

7-topshiriq. Ommaviy axborot vositalarining faoliyati yuzasidan "Davra suhbati" metodi asosida bahs-munozara tashkil eting.

8-topshiriq. Qo'shma gaplarni davom ettiring.

Shahrimiz kundan-kunga shunday o'zgardiki ... U shunday yaxshi ishlaydiki ... Eshik yanayam katta ochildi, ... Aziza xonaga yugurib kirdi-yu, ... Institutga kirmaguncha, ... Kosmik raketalarning muvaffaqiyatli uchirilishi shuni ko'rsatdiki, ...

9-topshiriq. Quyidagi so'z va iboralarning ma'nosini izohlang, publitsistik uslubda bog'lanishli matn tuzing.

Xulq-atvor qoidalari, ko'nikmalar, bayram, betob, muhtoj, ajdod, avlod, turmush tarzi, qudachilik, o'tmishda, eskilik sarqiti, befarq kishi, totuvlik munosabatlari, shart.

10-topshiriq. Gaplarni ko'chiring. Uning nima uchun publitsistik uslubga kiritilganini izohlang.

1. Birlashgan Millatlar Tashkilotining ta'lim, fan, va madaniyat masalalari bo'yicha tashkiloti – YUNESKO dunyoda tinchlik va barqarorlikni mustahkamlashda muhim o'rin tutmoqda. Mazkur tashkilotning asosiy vazifasi xalqlarning ma'naviy dunyosini yuksaltirish, ular o'rtasida o'zaro madaniy va ma'rifiy aloqalarni mustahkamlash orqali jahonda totuvlik va bag'rikenglik g'oyalarini qaror toptirishdan iborat. 2. Mamlakatimizning Hamdo'stlik davlatlari bilan savdo-iqtisodiy hamkorligi izchil rivojlanib bormoqda. 3. Makroiqtisodiy barqarorlik va iqtisodiyotning barqarorligi va

iqtisodiyotning mutanosibligi ta'minlanmoqda. 4. Tabiatga ongli munosabatda bo'lish har bir fuqaroning burchi. Uni asrab-avaylash, ne'matlaridan oqilona foydalanish barchamizning zimmamizga mas'uliyat yuklaydi. 5. O'zbekiston Respublikasi Madaniyat va sport ishlari vazirligi tasarrufidagi 5 ta oliy ta'lim muassasasi, 21 ta madaniyat va san'at kolleji, 14 ta Olimpiya zaxiralari kolleji O'zbekiston davlat konservatoriyasi qoshidagi Iqtidorli bolalar akademik litseyida ta'lim sifati va mazmuni yanada takomillashtirilmoqda.

11-topshiriq. Matnni o'qing. Matn qaysi nutq uslubida yozilganligini aniqlang.

Navro'z

Navro'z (forschada "navro'z" yangi kun ma'nosini anglatadi) - Turkiston, O'rta va Yaqin Sharqda yashovchi o'zbek, ozarbayjon, tojik, hind, fors va boshqa xalqlarning qadimiy va an'anaviy yangi yil bayrami. Quyosh hisobida yilning birinchi kuni bo'lib, bahorgi tun va kunning tengligiga, ya'ni 21-22 martga to'g'ri keladi. Tarixiy manbalarga qaraganda, Navro'zni bayram qilib o'tkazish Ahmoniylar davri (miloddan avvalgi VI-V asrlar)dan boshlangan. Keyinchalik, Navro'zda islom dinining ayrim marosimlarini ham o'tkazish odat tusiga kiritilgan. Qadimda Navro'z bayrami 6 kun davom etgan, dalalarga ko'chatlar ekilgan, ko'chalar tozalanib, hasharlar uyushtirilgan, xullas, hammayoq pokiza etilgan. Navro'zga atab yoshlar yangi kiyimlar kiyganlar. Bayram kunlari har xil shirinliklar, sumalak, turli ko'katlardan somsa, chuchvara kabi taomlar pishirilgan.

Navro'z kunlarida turli ommaviy o'yinlar, poyga musobaqalari, bog'larda sayllar, maydonlar, konsert zallari va teatrlarda san'atkorlar, shoirlar, yozuvchilarning chiqishlari bo'ladi, ota-onalardan, qarindosh-urug'lardan xabar olinadi, yoru birodarlarnikiga mehmonga boriladi. Navro'z kunlari gina-qudratlar unutilib, kishilar yaxshilikka intiladilar, yetim-yesirlarga va nogironlarga yordam berib, marhumlar qabrlarini ziyorat qilib, tartibga soladilar.

O‘zbekistonda 1989-yildan Navro‘zni keng nishonlashga e’tibor berildi. 1990-yildan boshlab, O‘zbekiston hukumatining qaroriga binoan, 21-mart - Navro‘z milliy xalq bayrami sifatida belgilanib, dam olish kuni deb e’lon qilindi.

12-topshiriq. Gaplarni uslubiy shakliga ko‘ra guruhlarga ajratib ko‘chiring. Nuqtalar o‘rniga nutq uslubiga xos so‘z yoki fe’l shaklini qo‘ying.

1. Men bu gapni faqat tarjima vajidan aytayotgan... yo‘q. Yozuvchi o‘z ona tilisi ustiga o‘z zamonasining boy, madaniy tilini bilmasdan qanot bog‘lamaydi. Buning misolini adabiyotimiz tarixida, hozirgi adabiyotimizda ... ko‘rishi... mumkin. (A.Q). 2. Bulardan birinchi..., nutq madaniyati sohasining vazifasi til va nutqdagi nuqson va kamchiliklarni aniq..., to‘p..., uni o‘rgan..., va bartaraf etishdan iborat..., deyilgan nuqtai nazar. 3. O‘sha masalani o‘rniga tushsa, dashnom... qalqon bo‘lishi, lovilla..., asablarga suv purkab, seni ortiqcha dilsiyohliklar... asrashi ham mumkin! (O‘.Usmonov). 4. Men, To‘rayeva Madina “Eng yaxshi kitobxon” ko‘rik tanlovini o‘tkazish... institutimiz kutubxonasidan o‘nta badiiy kitob oldim. 5. Axir, talaba jamiyatning oldi qatlami sanaladi... . shuni tushunish kerakda, “o‘qib uqmasa bekor”... .

13-topshiriq. Matnni o‘zbek tiliga tarjima qiling.

Налоги

Налоги – обязательные взносы (платежи) в бюджет (местный или центральный) или во внебюджетные фонды, осуществляемые налогоплательщиками. Иначе говоря, это метод распределения доходов между хозяйствующим субъектом рынка и государством, это обязательные платежи в бюджет, взимаемые с юридических и физических лиц.

К структурным элементам налогообложения относится, в частности, его субъект – юридическое или физическое лицо, имеющее самостоятельный источник дохода и обязанное по закону уплачивать налог т.е. налогоплательщики.

К объектам налогообложения относятся доход в виде прибыли, дивидендов, затраты и капитал в виде имущества (например, недвижимости), земли, стоимости товара. А источником налоговых платежей должен быть только чистый доход (прибыль).

Назначение налогов – формировать финансовые ресурсы государства, повышать пли снижать материальный интерес людей в развитии той или иной формы деятельности.

14-topshiriq. Matnni o'zbek tilida qisqartirib yozing.

Навоинская свободная индустриально-экономическая зона

Навоинская свободная индустриально-экономическая зона (СИЭЗ), являющаяся первой в Узбекистане свободной экономической зоной, была создана в декабре 2008 года.

Навоинский вилаят Узбекистана занимает стратегическое положение в центральной части страны. В радиусе 2000 км от СИЭЗ "Навои" находятся столицы 11 государств, более 40 крупных городов Центральной Азии, Ближнего Востока, Индии и Китая.

Хозяйствующие субъекты, зарегистрированные в СИЭЗ, освобождены от уплаты таможенных платежей и от уплаты налогов.

В СИЭЗ создан международный интермодальный логистический центр, который используется в качестве трансконтинентального транспортного узла.

В настоящее время из аэропорта г. Навои выполняются авиарейсы в Милан, Бангкок, Дели, Бомбей и Брюссель, Москву, Алматы, Дубай и в другие города.

Международный железнодорожный коридор позволяет обеспечит прямой выход на страны Европы, Ближнего Востока и Персидского залива, а автомобильная магистраль международного значения "Е-40" соединяет Пекин с Парижем.

Навоинский вилаят является одним из флагманов промышленного развития Узбекистана. Регион располагает богатейшими природными ресурсами, в числе которых — драгоценные и редкоземельные металлы, натуральные пигменты, каолин, фосфориты и т. д.

СИЭЗ "Навои" имеет огромное значение как катализатор экономического роста. Сырьевой потенциал позволяет выпускать в СИЭЗ «Навои» широкую номенклатуру готовой продукции, прежде всего текстильных, швейных и кожевенно-обувных изделий, продовольственных товаров, а также электротехнической, телекоммуникационной и машиностроительной продукции.


В результате Узбекистан укрепит свой экономический и индустриальный потенциал, пополнит бюджет, получит доступ к новым технологиям, возможность создать большое количество новых рабочих мест.

14-MAVZU. INTERNET HAYOTIMIZDA


Bilim manbai behad: insoniyat bu yo'lda qanchalik yutuqlarga erishmasin, barcha odamlarning izlanishi, kashfi va bilimi uchun o'rin topiladi.

Fabr Jan Anri

INTERNETNING VUJUDGA KELISH TARIXINI BILASIZMI?



Internet, yuborilayotgan xabarlar yo'nalishini dinamik ravishda o'zgartirish yo'li bilan harbiy harakatlar davrida kompyuter tarmoqlariga omon qolish imkonini beruvchi usullarni sinab ko'rish maqsadida AQSh Mudofaa vazirligi tomonidan **1969-yili** amalga oshirilgan maxfiy tadqiqot natijasida yuzaga keldi. Eng birinchi bunday tarmoq Kaliforniyadagi uchta tarmoqni Yuta shtatidagi bitta tarmoq bilan Internet-protokol (**Internet Protocol** yoki qisqacha **IP**) deb nom berilgan qoidalar to'plami bo'yicha birlashtirgan **ARPAnet** tarmog'idir.



1972-yili AQSh Mudofaa vazirligiga aloqador universitetlar va tadqiqot tashkilotlariga ushbu tarmoqqa kirish huquqi berilganidan so'ng, u o'z ichiga 50 dan ortiq universitet va tadqiqot tashkilotlarini qamrab olgan butun boshli tarmoqqa aylanib ketdi.

1973-yili ushbu tarmoq Angliya va Norvegiyadagi tarmoqlarni o'z ichiga mujassam etib, **xalqaro miqyosga chiqdi. Yana 10 yil o'tgach** esa, Internet-protokol mahalliy tarmoqlarni ham, global tarmoqlarni ham qo'llab-quvvatlovchi kommunikatsion protokollar to'plami (**TCP/IP** – uzatishni boshqarish protokoli (tarmoqlararo protokol)) evaziga kengaytirildi. Shundan so'ng, oradan ko'p vaqt o'tmay superkompyuter markazlarning beshtasini o'zaro bog'lash maqsadida AQShning milliy ilmiy fondi **National Science Foundation** (**NSF**) tomonidan **NSFnet** yaratildi. TCP/IP protokoli joriy etilishi bilan bir vaqtda yangi yaratilgan ushbu tarmoq Internetning "o'zagi" (**backbone**) sifatida ARPAnet o'rnini egalladi. Internetning ommalashib ketib, ravnaq topishiga, shu jumladan, biznes yuritish muhitiga aylanib qolishiga **World Wide Webning** (**WWW**, Butun jahon o'rgimchak inining) paydo bo'lishi qudratli turtki bo'ldi. Zero, ushbu **gipermatnlar tizimi** Internet tarmog'i bo'ylab sayohat tezligini oshirib, uni intuitiv (ichki his bilan) tushunarli holatga keltirib qo'ydi. Hujjatlarni gipermatn orqali bir-biri bilan bog'lash g'oyasi ilk bor **1960-yili** Ted Nelson (Ted Nelson) tomonidan ilgari surildi. Biroq, o'sha davr kompyuter texnologiyalarining holati ushbu g'oyani hayotga tatbiq etish imkonini bermagan edi.

Bugungi kunda siz bilan biz WWW ostida idrok etadigan tushunchalar asosini **1980-yili** Tim Berners-Li (Tim Berners-Lee) tomonidan Yevropadagi elementar zarralar fizikasi laboratoriyasida (**European Laboratary for Particle Pkysics**, Yevropa yadroviy tadqiqotlar markazida) gipermatnlar tizimini yaratish bo'yicha olib borilgan ishlar jarayonida yaratildi. Natijada **1990-yili** ilm aholi e'tiboriga **giperishoralar** (**kyperlinks**) bilan o'zaro bog'langan matnli onlayn fayllarni ko'rib chiqish imkonini beruvchi eng birinchi **matnli brauzer** (**browser**) havola etildi.

1991-yili ushbu brauzerdan foydalanish huquqi keng ommaga ham berildi, biroq uning ilmiy doiralardan tashqariga chiqish sur'ati past kechdi. Internet rivojining yangi bosqichi **1993-yilda**, AQShning **NCSA, National Center for Supercomputing**

Applications – superkompyuterlarga oid ilovalar milliy markazida 1992-yili amaliyotdan o'tayotgan talaba Mark Andresen (Marc Andreessen) tomonidan ishlab chiqilgan **Mosaic grafik brauzerining birinchi Unix-naqli** paydo bo'lishidan boshlandi.

1994-yili Windows va **Macintosh operatsion tizimlar** uchun mo'ljallangan **Mosaic brauzeri**, ko'p o'tmay **Netscape Navigator** va **Microsoft Internet Explorer brauzerlari**ning haqli paydo bo'lishi – WWW shuhratining, demakki, Internetning dovrug'i go'yo portlash ta'siridek oshib, dastlab AQShda, so'ngra butun dunyoda ommalashib ketishiga sabab bo'ldi.

1995-yili NSF Internet uchun **mas'uliyatni xususiy sektor zimmasiga yukladi** va ayni shu fursatdan e'tiboran Internet bugungi kunda siz bilan biz tanish bo'lgan **Internet tarmog'i** sifatida mavjud bo'lib kelmoqda.

1-topshiriq:

a) matnni o'qing;

b) matndagi termin va iboralarning ma'nosini izohlang;

d) mavzu bo'yicha bahs-munozarada ishtirok eting.

2-topshiriq.

Internet madaniyati haqida esse yozing.

Eslab qoling!

Jahon axborot maydoni. Jahon axborot maydoni tobora kengayib borayotgan shunday bir sharoitda bolalarimizning ongini faqat o'rab-chirmab, uni o'qima, buni ko'rma, deb bir tomonlama tarbiya berish, ularning atrofini temir devor bilan o'rab olish, hech shubhasiz, zamon talabiga to'g'ri kelmaydi. Nega deganda, biz yurtimizda ochiq va erkin demokratik jamiyat qurish vazifasini o'z oldimizga qat'iy maqsad qilib qo'yganmiz va bu yo'ldan hech qachon qaytmaymiz.

3-topshiriq.

Ta'lim jarayonida eng ko'p foydalaniladigan internet saytlari ro'yxatini tuzing va ularni do'stingizga tavsiya qiling.

4-topshiriq. FSMU texnologiyasi asosida quyidagi savolga javob bering.

Internetning ijobiy va salbiy jihatlariga qanday omillar ta'sir qiladi?

F FIKRINGIZNI BAYON ETING
S FIKRINGIZNING BAYONIGA BIROR **SABAB** KO'RSATING
M KO'RSATILGAN SABABNI TUSHUNTIRUVCHI **MISOL** KELTIRING
U FIKRINGIZNI **UMUMLASHTIRING**

5-topshiriq.

Internetdan foydalanish to'g'risida polilog tuzing va uni inssenirovka qiling.

GRAMMATIKA

Og'zaki-yozma uslub va uning xususiyatlari

Uslub odatda ikki xil nutqda – og'zaki (so'zlashuv) va yozma, kitobiy nutqda namoyon bo'ladi.

Og'zaki nutq ikki va undan ortiq shaxslar orasida bo'lsa dialog, agar yolg'iz shaxsning nutqi bo'lsa, monolog, ko'p shaxslar o'rtasidagi muloqot bo'lsa polilog deyiladi. Og'zaki nutqda jumlalar tuzilishi erkin bo'ladi, ammo bundan nutq qoidasi (norma) chiqib ketadi deb bo'lmaydi, chunki shu yo'l bilan so'zlovchi xabar beradi va xabarga o'z shaxsiy munosabatini bildiradi. Og'zaki nutq ikkiga – adabiy so'zlashuv va oddiy so'zlashuv turlariga bo'linadi. Oddiy so'zlashuv tilida adabiy til me'yorlariga to'g'ri kelmagan fonetik hodisalar (na'lat- la'nat, dayro-daryo, tashamoq – tashlamoq, ko'ynak – ko'ylak, opketti – olib ketdi) to'liqsiz va ilova gaplar ko'proq qo'llanadi.

Og'zaki (so'zlashuv) nutqda, ayniqsa, so'zlarning ko'chma ma'noda qo'llanishi (polisemiya)dan ko'proq foydalaniladi. Natijada, o'ziga xos og'zaki (so'zlashuv) nutq turlari – askiya, hazil-mutoyiba, piching, qochirim kabi turlar shakllanadi.

Yozma uslub mazmunan ijtimoiy-siyosiy, ilmiy-adabiy, ma'-muriy maqsadlarni ko'zlagani va ko'pchilikka qaratilgani uchun unga talab ham katta bo'ladi.

Yozma uslubda yozilgan monografiya, maqola, kitob, ma'ruza matni yuqori saviyada bo'lishi, hozirgi zamon adabiy me'yorlarga rioya qilishi shart. Darslik, qo'llanma, monografiya, badiiy asar, maqola, tezis, konspekt, rasmiy hujjatlarning har biri o'ziga xos uslub xususiyatlariga ega. Masalan, badiiy uslubni tashkil etuvchi janr turlari – roman, hikoya, esse, doston, ertak, she'riy asar turlarining umumiy xususiyatlari bo'lsa ham har birining o'ziga xos uslubiy belgilari bo'ladi.

6-topshiriq. **O'qing. Gaplarni ko'chiring va qaysi uslubga xosligini ayting.**

1. Qorda ko'milgan izni dadam ko'ribdi shekilli, kechqurun oyimdan so'radi:

-Kimga ko'mir berding? Oyim aybdor qiyofada yerga qarab turdi-da, rostini aytdi.

-Habiba oyi shamollab qopti. Ko'miri yo'q ekan, oborib berdim. Dadam oyimni urishmadi. (O' Hoshimov).

2. Ona tili hayotning qon tomiridir. Ona tiliga beparvo bo'lgan xalq halokatga mahkum. Diniga, ma'rifatiga, xulq-atvoriga, kiyim-kechagiga va hayot tarziga ko'ra o'zaro ko'p mushtaraklikka ega bo'lgan Ovro'pa xalqlari, shunga qaramay, har qaysisi ona tilini saqlab qola bilgan. Ular ona tillari uchun jonlarini ham, mollarini ham ayamaydilar, chunki biladilarki, tili yo'q bo'lsa, millat ham yo'q bo'lib ketadi (I.G'asprali).

3. Bahor Unsiyaga odatdagidan erta kelgan: allaqachon dov-daraxtlar yaproq yozgan, atirgullar, ra'no-nargizlar barq urib ochilgan, jambilu rayhonlar bo'liqlashgan, sokin xiyobonlarda tovuslaru

rayhonlar anjuman qilar edilar... Chorbog‘ o‘rtasida tushgan, devorlaridan tortib gumbazlariga qadar turfarang koshinlar zarblangan ko‘shk ayvonida, qalin-yupqa jildlar terilgan miz yonida tizzalagan Amir Alisher halidan beri o‘yga cho‘mgancha mo‘jiza sanalmish ushbu manzaradan nigoh uzmas edi (A.Dilmurod).

7-topshiriq. Matnni o‘qing. Rus tilida kengaytirib gapirib bering.

Internetga kirish turlari orasida **online** va **offline** kirish turlari ajralib turadi. Birinchi kirish turi tarmoqdan real vaqt rejimida foydalanish imkonini beradi. Ikkinchi turida esa tarmoqqa doir ishlar oldindan tayyorlanib, unga ulangach, tayyor ko‘rinishdagi ma’lumotlar uzatiladi yoki qabul qilib olinadi. Tarmoqqa kirishning bunday turi aloqa kanallarining sifati va ish tezligiga nisbatan yuqori talablar qo‘ymaydi, biroq faqat **e-mail** – elektron pochtadangina foydalanish imkonini beradi.

Internet vositasida o‘zaro ulangan aksariyat kompyuter tarmoqlarida saqlanayotgan axborot nihoyatda ulkan elektron kutubxonani vujudga keltiradi. Kompyuter tarmoqlari orasida taqsimlangan ma’lumotlarning g‘oyat katta miqdori muddaoli axborotni qidirib topish yoki hosil qilishni qiyinlashtiradi. Internetda olib boriladigan qidiruv amallarini yengillashtirish uchun tobora takomillashtirilgan vositalar ravnaq topib bormoqda.

8-topshiriq. Gaplarni o‘qing. Rus tiliga tarjima qiling. So‘zlarning bog‘lanishiga e’tibor bering.

1. Salima ukasini bolalar bog‘chasiga olib ketdi. 2. Men kitobni bir kechada o‘qib chiqdim. 3. O‘zbekistonda chiroyli joylar ko‘p. 4. Shahrimizga har kuni minglab sayyohlar kelishadi. 5. Tongda boshlangan qor kechga borib ham tinmadi.

9-topshiriq. Quyida berilgan so‘zlarni tartib bilan joylashtiring.

1. Buvimlarnikiga, kuzda, boraman, dadam bilan, har yili, qishloqqa, men.

2. Tushadi, mushuk, tomdan, oyog'i bilan, tashlasang ham.

3. Osmonda, chaqnay boshladi, yulduzlar, birin-ketin, qoramtir.

4. Kuni, shanbalik, yordam berdi, Anvar, kutubxonachisiga, fakultet.

5. Mablag', uchun, xomashyo, olinmadi sotib, yoqilg'i.

6. Tushgan, maysalar, shudring, bo'ldi, uchun, ho'l.

10-topshiriq. Gazeta va jurnaldan ta'lim yoki madaniyat mavzusidagi maqolani o'qing, til xususiyatiga ko'ra boshqa nutq uslubidan farqlanishini izohlang va daftaringizga yozing.

11-topshiriq. Nuqtalar o'rniga tegishli qo'shimchalarni qo'yib, gaplarni ko'chiring.

1. Men bu badiiy kitoblar... do'stim... oldim. 2. Dugonam... hovlisi oldi... vositachilik, xo'jalik mollari va oziq-ovqat do'koni bor. 3. Biz dushanba kuni avtobus... Toshkent... jo'naymiz. 4. U o'rtog'i bilan kutubxona... chiqdi. 5. Siz hovlingiz... qanday mevali va manzarali daraxtlar ekkansiz? 6. Biz dars... so'ng stadion... futbol ko'rgani boramiz. 7. Siz bu matn... lug'at yordami... tarjima qildingizmi? 8. Siz qanday asarlar... yoqtirasiz? 9. Nafisa bo'sh vaqti... ota-onasi... yordam beradi. 10. Shahrimiz... dunyo... barcha mamlakatlari... ko'plab sayyohlar kelishadi. 11. Tomoshabinlar taniqli san'atkor... olqishladilar.

12-topshiriq. Quyidagi so'z birikmalari ishtirokida gaplar tuzing. So'ngra ularni rasmiy yoki shaxsiy munosabatni ifodalashiga ko'ra guruhlang.

O'qishga kirmoq, vazifasidan ozod etilmoq, salom yetkazmoq, belgilangan jadvalga muvofiq, ko'nglini ko'tarmoq, ko'rishganimizda aytib bermoq, zimmasiga yuklamoq, "Kamolot" yoshlar ijtimoiy harakatiga qo'shilmoq, vaqt topolmaslik, o'qituvchi bo'lib ishlamoq, harorat pasayishi oqibatida, xushxabar eshitgandan keyin.

13-topshiriq. Matnni o'qing, reja tuzing. Reja asosida o'zbek tilida gapirib bering.

ЭВОЛЮЦИЯ МОБИЛЬНОГО ИНТЕРНЕТА

Эволюция мобильных сетей-особенный процесс, включающий в себя изменение возможностей мобильных сетей, а главное скорости передачи данных.

Первой мобильной системой, получившей большое развитие в мире, является созданная в 80-х годах XX века GSM система, так называемая 2G (2-ое поколение). С 1991 года этот формат мобильных систем начал свое распространение по всему миру, но скорость передачи данных была очень ограниченна. Тогда для увеличения скорости передачи данных создали так называемую надстройку к 2G-стандарт GPRS, позволяющий обмениваться данными на скорости до 171 кбит/с. Но и этого оказалось мало для хорошего соединения по всему миру. Именно в этот момент появился второй стандарт связи второго поколения EDGE. Он, в отличие от предыдущего стандарта, уже позволял достигать скорости до 474 кбит/с.

Следующим большим шагом в развитии мобильных сетей связи стало создание стандарта мобильных сетей третьего поколения- 3G, разработанного в 90-х годах в США. Стандарт третьего поколения работает в диапазоне 2 Мгц и позволяет обеспечивать скорость передачи данных до 3,6 Мбит/с.

Многие года весь мир пользовался именно стандартом третьего поколения-3G, но для больших потребностей современного человека и его стало не хватать.

Создание сетей 4G стало настоящим прорывом в мире мобильных технологий. Наиболее известная технология 4G - технология LTE (Long -Term Evolution) - долговременное развитие. Стандарт LTE подразумевает обеспечение пользователей с высокой мобильностью скоростями от 100 Мбит/с и скоростью от 1 Гбит/с для абонентов с низкой мобильностью или стационарных пользователей сети.

В Узбекистане этот стандарт был внедрен начиная с 2016 года.

В сентябре 2015 года информационно-аналитическое агентство Content Review проанализировало разброс цен на мобильный интернет в различных регионах мира. Агентство оценивало стоимость одного гигабайта трафика мобильного интернета, взяв за основу пакетные тарифы, приближенные по объему к 3 ГБ — среднему показателю потребления мобильного интернета в мире. В каждой стране выделялся один оператор, доходы которого являлись наибольшими в сфере мобильного интернета.

Итак, высокоскоростной мобильный интернет можно смело назвать одним из главных достижений современности. Именно сейчас, в XXI веке, человек может осуществлять все свои жизненные планы и цели, общаться, добиваясь тех или иных результатов, проводить время за интересной статьей, узнавая что-то новое, просматривать великолепные шедевры кинематографа с компанией друзей. Нам предоставляется отличная возможность-быть на связи и делать все вышеперечисленное, находясь в любом месте, имея при себе только смартфон и доступ в интернет.

14-topshiriq. Matnni o‘qing, unga nom bering. Matnga o‘z munosabatingizni bildirib so‘zlab bering.

Hozirgi paytda internetsiz hayotni tasavvur qilib bo‘lmaydi. Menimcha, hozirda kelajak avlodning ko‘pchiligi uchun internetning haddan tashqari ortiqcha salbiy tomonlari ham mavjud. Aslida chetdan olib qaraganda Internetning salbiy tomonlari yo‘qdek, lekin tanganing ikkinchi tomoni bo‘lganidek Internetning ham o‘ziga yarasha zararlari ham mavjud. Masalan, hozirda ko‘pchilik tengdoshlarimning va boshqalarning ijtimoiy tarmoqqa ulanib, o‘zlarining qimmatli vaqtlarini zoye ketkazayotganliklariga guvoh bo‘lyapmam. Hozirgi kunga kelib Internet ijtimoiy tarmoqlarining eng rivojlanganlari “Odnoklassniki.ru”, “MailAgent”, “Facebook”, “Twitter”, “Moy Mir”, “You Tube”lardir. Bular dunyo miqyosida soniya sayin ommalashib bormoqda. Masalan, “Facebook” tarmog‘i

2004-yil Mark Sukerberg tomonidan yaratilgan bo'lib, ushbu ijtimoiy tarmoqning auditoriyasi 918 million kishini qamrab oladi. Shundan 200 mingga yaqin foydalanuvchi bizning vatandoshlarimiz hisoblanishadi. So'nggi ma'lumotlarga qaraganda tarmoqqa har kuni 300 millionta surat joylashtiriladi. Ijtimoiy tarmoqlaming sehrli kuchi yurtimiz yoshlarining o'ziga qiziqtirib qo'yganiga hali ko'p vaqt bo'lmagan bo'lsa-da, ularning sevimli xobbisiga aylanib ulgurdi. Bu esa o'z navbatida o'qishga bo'lgan qiziqishni va yaqin insonlariga bo'lgan e'tiborni asta-sekinlik bilan so'ndirmoqda. O'z navbatida aytib o'tish lozimki, ijtimoiy tarmoqlarning foydali jihatlari ham yo'q emas. Misol uchun, uzoq yillardan buyon ko'rishmagan yoki manzilini yo'qotib qo'ygan biron-bir tanishimiznimi yo yaqinimiznimi, agar u tarmoq foydalanuvchisi bo'lsa qidiruv tizimi orqali topishimiz, u bilan miriqib suhbatlashishimiz mumkin. Biroq, ba'zi bir yovuz niyatli kimsalarning "xizmati" va "himmat"lari tufayli ko'plab ijtimoiy tarmoq sahifalarini zo'ravonlik, millatchilik, behayo, qo'poruvchilik aks etgan suratlar, video materiallar, matn va sharhlar tobora ko'paytirilib borilmoqda. Bu esa birinchi navbatda yoshlarimiz tarbiyasiga, ma'naviy boyligiga, ularning dunyoqarashi va ongiga juda katta salbiy ta'sir ko'rsatishi tabiiy. Albatta, ijtimoiy tamoq yaratuvchilari asos solgan tarmoqlari yomonlikka xizmat qilsin deb emas, balki insonlarning vaqtini mazmunliroq o'tkazish, ijtimoiy munosabatlarni yanada rivojlantirish va asosiysi ko'p foyda olishni ko'zlaganlar. Ammo, afsuski ba'zi bir kuchlar undan o'zlarining qabih niyatlarida foydalanmoqda va ma'lum ma'noda niyatlariga erishishmoqda ham.

15-MAVZU. O‘ZBEKISTON VA JAHON

Kishida maqsad bo‘lsa, unga erishish yo‘lida kurashish, mashaqqat chekish, ta’na- dashnomlar eshitib kuyub-yonib yurish ham baxt.

Erkin Vohidov

Birlashgan Millatlar Tashkiloti

Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT) - Yer yuzida tinchlikni va xavfsizlikni ta’minlash, davlatlarning va millatlarning o‘zaro hamkorligini rivojlantirish maqsadida 1945-yilda ikkinchi jahon urushida fashizm ustidan g‘alaba qozongan mustaqil davlatlarning ixtiyoriy birlashishi asosida tuzilgan xalqaro tashkilot. Shunday xalqaro tashkilot tuzish zarurati Birinchi jahon urushidan keyinroq ma’lum bo‘la boshladi.

1943-yilda Tashqi ishlar vazirligining qo‘shma kengashida bu fikr aniq ifodalandi. BMTning Nizomi 1944-yilda to‘rt davlat (Buyuk Britaniya, AQSH, Xitoy va sobiq Sovet Ittifoqi) vakillarining Dumbarton-Oksdagi konferensiyasida ishlab chiqildi va 1945-yil iyunida San-Fransiskodagi Ta’sis konferensiyasida imzolanib, 1945-yil 24-oktyabrdan kuchga kirdi.

1945-yilning 24-oktyabri shu boisdan BMT kuni sifatida nishonlanadi.

Tabiiyki, BMTga turli davlatlar turlicha yondashadilar. Shu sababli o‘z faoliyati davrida BMT siyosiy kuchlarning kurash sahnasi bo‘lib keldi. Jumladan, sobiq Sovet Ittifoqi BMT minbaridan sinfiy va mafkuraviy kurash vositasi sifatida foydalanishga intildi. Ammo oxir-oqibatda BMT xalqlar va mamlakatlar o‘rtasida tinchlik, hamkorlik munosabatlarini kengaytirish va mustahkamlash vositasi sifatida tanilmoqda. Buni sobiq Yugoslaviya, Iroq, Falastin-Isroil va Afg‘oniston misollarida, mustamlakachilikni barbod etish-

da, davlatlarning mustaqilligini himoya qilishda va boshqa shu kabi vaziyatlarda ko'rish mumkin.

BMT o'z tarkibiga ko'ra 6 asosiy organ, shuningdek, bu asosiy organlarga ko'maklashish uchun tuzilgan ma'lum miqdordagi qo'mita va komissiyalardan iborat.

Bosh Assambleya - BMTning eng nufuzli organidir. Uning har yili sentyabr oyida chaqiriladigan sessiyalarida BMTga a'zo barcha davlatlarning delegatsiyalari qatnashadilar.

Xavfsizlik kengashi 15 davlat vakillaridan tashkil topadi. Ularning 5 tasi doimiy a'zo (AQSH, Rossiya, Xitoy, Fransiya va Buyuk Britaniya), qolganlari har ikki yilda almashinib turadilar. Xavfsizlik kengashi davlatlar o'rtasidagi tortishuvlar, tajovuz va agressiyaning oldini olish, yangi a'zolar qabul qilish va boshqa masalalarni o'rganadi, qarorlar qabul qiladi yoki tavsiyalar beradi.

Iqtisodiy va ijtimoiy kengash xalqaro va ijtimoiy hamkorlik sohalariga oid masalalar bilan shug'ullanadi. *Vasiylik kengashi* tobe hududlar masalalarini nazorat etib boradi. *Xalqaro sud* esa xalqaro siyosiy, iqtisodiy, huquqiy, hududiy masalalarni hal etishda yuzaga kelgan barcha muammolar bo'yicha, vaziyat talab qilganda, o'z fikrini aytadi yoki hukmini chiqaradi. BMT *Kotibiyati* tashkilotning kundalik ishini ta'min etadi.

Mustaqil O'zbekiston Respublikasi BMTga 1992-yil 2-martda qabul qilindi. O'zbekiston BMT minbaridan Markaziy Osiyo hamda Afg'onistonda tinchlik va barqarorlikni mustahkamlash, Markaziy Osiyoni yadro qurolidan ozod zonaga aylantirish, narkobiznesga va ekstremizmning har qanday turiga qarshi kurashda barcha davlatlar xatti-harakatlarini muvofiqlashtirish, Markaziy Osiyoda ekologik vaziyatni sog'lomlashtirish maqsadlarida, ya'ni umummanfaat yo'lida foydalanmoqda, bu faoliyatlarning samaradorligini oshirish, miqyoslarini kengaytirish davr talabi ekanligini asoslab, bu masalalarni o'rtaga tashlamoqda.

1-topshiriq:

a) matnni o'qing;

b) matndagi termin va iboralarning ma'nosini izohlang;
d) matn mazmunini qisqartirib so'zlab bering.

GRAMMATIKA

Rasmiy-diplomatik uslub va uning xususiyatlari

Huquqiy qonunchilik va ish yuritish munosabatlari doirasida qo'llaniluvchi nutq uslubi rasmiy uslub hisoblanadi.

1. Sof qonunchilik uslubi (qonun, farmon, fuqarolik va jinoiy aktlar, nizomlar uslubi).

2. Idoraviy - devonxona uslubi (buyruq, ariza, talabnoma, bildirgi, tavsifnoma, tarjimai hol, ishonchnoma, dalolatnoma); diplomatik uslub (nota, bayonotnoma, bitim, konvensiya va boshqalar).

Rasmiy uslub deyarli yozma shaklda ro'yobga chiqadi. U har qanday tasviriy vositalardan, obrazlilikdan holi bo'ladi. Bunday uslubda tilning ikki vazifasi - axborot uzatish va da'vat etish, buyurish vazifasi amalga oshadi. Masalan, ma'lumotnomada axborot berilsa, buyruqda da'vat etish, axborot o'z aksini topgan bo'ladi.

Rasmiy uslubga mansub har qaysi turning o'ziga xos leksik, grammatik xususiyatlari mavjud. Masalan, qaror, farmonlarning o'ziga xos tomoni shundaki, bunday matnlardagi gaplarning kesimi III shaxs majhul nisbatidagi fe'llar orqali ifodalanadi (ogohlantirilsin, topshirilsin kabi). Ma'lumotnomada esa birinchi gapning kesimi gap boshida keladi.

Rasmiy ish qog'ozlarining sintaktik tuzilishi qat'iy qoliplarga bo'ysunadi. Masalan, "Ushbu ma'lumotnomani ko'rsatuvchi G'.Mo'minov haqiqatan ham O'zbekiston Milliy universitetining matematika fakultetida dekan o'rinbosari lavozimida ishlaydi..."

2-topshiriq. Sof qonunchilik uslubi va idoraviy-devonxona uslubida yozilgan hujjatlarga namunalar yozing. Ularning o'zaro farqini ko'rsating.

YUNESKO

YUNESKO - Birlashgan Millatlar Tashkilotining ta'lim, fan va madaniyat masalalari bo'yicha tashkiloti. U BMTning ixtisoslashgan muassasalaridan biridir. YUNESKOning tarixi Ikkinchi jahon

urushidan so‘ng, 44 davlat vakillari Londonda konferensiyaga yig‘ilib, ushbu tashkilotning ta’sis etish Nizomini qabul qilishlaridan boshlanadi. Uning amaliy faoliyati esa 1946-yil 20-noyabrdan boshlangan. Qarorgohi - Parijda. Tuzilish davrida 28 davlat a’zo bo‘lgan bo‘lsa, hozirgi kunda unga 186ta davlat a’zo. YUNESKO yarim asrdan oshiq davr ichida eng katta nufuzli xalqaro tashkilotlardan biriga aylandi. O‘zbekiston Respublikasi 1993-yil 29-oktyabrda YUNESKOga a’zo bo‘ldi.

YUNESKOning asosiy maqsadi - tinchlik va xavfsizlikni mustahkamlash, ta’lim, fan va madaniyatni yuksaltirishga xizmat qilishdir. YUNESKO Ustavi bo‘yicha: “BMT Ustavida e’lon qilingan irqi, jinsi, tili va dinidan qat’iy nazar, barcha xalqlar uchun adolatga, qonuniylikka, inson huquqlari va asosiy erkinliklariga umumiy hurmatini ta’minlash maqsadida ta’lim, fan va madaniyatini rivojlantirish orqali xalqlar hamkorligiga ko‘maklashish tashkilotning ustivor vazifasidir”. Bu g‘oyalar mustaqil O‘zbekiston siyosatiga to‘la mos keladi.

YUNESKO umuminsoniy qadriyatlarni o‘rganish va targ‘ib etish tashkilotidir.

YUNESKO doirasida Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sinolarning 1000 yillik, Mirzo Ulug‘bekning 600 yillik, Amir Temurning 660 yillik tantanalari, Toshkent shahrining 2000 yilligi butun jahon miqyosida keng nishonladi. 1997-yili YUNESKOning jahon madaniy boyliklari ro‘yxatiga kiritilgan Xiva va Buxoro shaharlarining 2500 yilligi nishonlandi, Shaxrisabz va Marg‘ilon shaharlari bo‘yicha tadbir tayyorlanmoqda. Mustaqil O‘zbekistonning YUNESKO bilan hamkorligi yil sayin o‘sib bormoqda.

3-topshiriq:

a) matnni o‘qing;

b) rus tiliga yozma tarjima qiling;

d) matnni gapirib bering.

4-topshiriq. O‘zbekiston a’zolik qilayotgan xalqaro tashkilotlar haqida ma’lumot tayyorlang.

5-topshiriq. Matn asosida savollar tuzing.

O'zbekistonda eksport va import

O'zbekistonning eksport va import siyosati - mamlakat mustaqilligini mustahkamlashga qaratilgan chora-tadbirlar majmualaridan biri. Bu siyosat muayyan vaziyat va sharoitga qarab, o'zgarib boradi. Mustaqil O'zbekistonning eksport va import siyosatini bir necha bosqichlarga bo'lish mumkin.

Birinchi bosqichda (1991-1994 yillar) iqtisodiyot oldida turgan eng dolzarb masala bozorni tovarlar bilan to'ldirish va inflyasiya darajasini pasaytirishdan iborat bo'ldi.

Ikkinchi bosqichda (1994-1996 yillar) importni erkinlashtirish siyosati yanada rivojlandi. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish, xususiy mulkni himoya qilish va tadbirkorlikni rivojlantirish chora-tadbirlari" to'g'risidagi qaroriga muvofiq import bojlari bekor qilindi.

Uchinchi bosqich 1996-1997-yillarni o'z ichiga oladi. Bu davrga kelib, inflyasiya darajasi keskin pasaydi, milliy valyuta kursi nisbatan barqarorlashdi, ishlab chiqarish hajmi o'sa boshladi. Iqtisodiyotdagi bu ijobiy o'zgarishlar mustaqil makroiqtisodiy siyosatni o'tkazish imkoniyatlarini kengaytirdi, tashqi savdoni tartibga solishning bilvosita usullaridan keng foydalanishga imkon yaratdi.

To'rtinchi bosqich (1998-yildan boshlanib, hozir ham davom etmoqda) eksportni rag'batlantirish siyosati doirasida eksport bojlarining keskin pasaytirilishi va keyinchalik umuman bekor qilinishi bilan tavsiflanadi. Hozirgi kunda erkin almashtiriluvchi xorijiy valyutalarga mahsulot chiqarilishi eksport bojlaridan ozod qilinibgina qolmay, unga soliq imtiyozlari ham beriladi.

Shu bilan birga, O'zbekistonda importni tartibga solishning muhim vositalaridan biri sifatida valyuta siyosati qo'llanilmoqda. Bu chora import tarkibi va hajmini nazorat qilish imkoniyatini bermoqda.

Valyuta bozorini erkinlashtirish orqali yagona valyuta kursini vujudga keltirish va milliy valyutaning nisbiy barqarorligini

ta'minlash hozirgi kunda iqtisodiy siyosat oldida turgan muhim vazifalardan biridir.

6-topshiriq. "Tinchlik" so'ziga sinkveyn tuzing va umumlashtiruvchi xulosa chiqaring.

"Sinkveyn" (5 qator) texnikasi

Maqsad - kategoriyasiga tavfsif berish

1-qator – tushuncha - ot
2-qator –2 so'zdan iborat sifat
3-qator –3 so'zdan iborat fe'l
4-qator –4 so'zdan iborat munosabat
5-qator –1 so'zdan iborat sinonim

7-topshiriq. BMT faoliyati haqida taqdimot tayyorlang.

8-topshiriq. Jahondagi xalqaro tashkilotlar haqida taqdimot tayyorlang.

9-topshiriq. "O'zbekistonning tashqi iqtisodiy aloqalari" mavzusida insho yozing.

10-topshiriq. Quyidagi tayanch so'zlar ishtirokida ***domino*** shakllantiring.

Konferensiya [*lot.* coferentia - bir joyga to'planish; yig'ilish] - biror masalani muhokama qilish, hal etish uchun hukumat, partiya, ijtimoiy, ilmiy tashkilotlar vakillarining muayyan masalaning muhokamasi va yechimiga bag'ishlangan majlisi, yig'ilishi. *Dumbarton-Oksdagi konferensiya.*

Komissiya [*lot.* commissio - topshirish; topshiriq] - biror aniq vazifani bajarish yoki alohida maxsus chora-tadbirlar o'tkazish uchun tashkil etilgan organ; shunday ishlarga vakolati bo'lgan shaxslar guruhi. *San-Fransiskodagi Ta'sis konferensiyasida imzolangan.*

Fashizm [*ital.* fascismo<fascio - bog‘, bog‘lam, dasta; birlashma, birlashuv <*lot.* fascis] - jangari irqchilik, shovinizm mafkurasi; unga tayanib ish ko‘ruvchi siyosiy oqimlar, shuningdek, bir hukmron partiyaning oshkor terroristik diktaturasi, u tomonidan yaratilgan va ilg‘or ijtimoiy harakatlarni, demokratiyani yo‘q qilishga va urushlar keltirib chiqarishga qaratilgan qatag‘on rejimi. *Fashizm ustidan g‘alaba qozondik.*

Tavsiya [ko‘rsatma, maslahat berish, tanishtirish] - biror ish, lavozim, o‘qishga loyiq ko‘rib taqdim etish, shunday mazmunli taqdimnoma. *Tavsiyalar berdi.*

Maqsad [niyat, yuqori tilak; intilish] - erishish, amalga oshirish uchun ko‘zda tutilgan murod, muddao. *Sog‘lomlashtirish maqsadida.*

Mafkuraviy - mafkuraga oid; mafkura jihatidan. *Mafkuraviy kurash.*

Mustamlakachilik - kuchli davlatlar tomonidan zo‘rlik bilan egallangan mamlakat yoki hududni siyosiy va iqtisodiy mustaqillikdan mahrum etib, o‘ziga bo‘ysundirish, qaram qilish, talash siyosati. *Mustamlakachilik siyosati.*

Nufuz - obro‘-e’tibor; ta’sir. *Nufuzli tashkilot.*

Zarurat [keraklik, ehtiyoj] - biror ish yoki narsaga bo‘lgan ehtiyoj; muhtojlik. *Zarurat tug‘ildi.*

Vosita [chora, tadbir, usul] - biror maqsadga erishish yoki biror ishni amalga oshirish uchun dastak bo‘lib xizmat qiladigan narsa, qurol. *Axborot vositalari.*

Vaziyat [holat] - biror narsaning egallab turgan holati. *Vaziyat talab qilganda, o‘z fikrini aytadi yoki hukmini chiqaradi.*

Sinfiy [sinfga oid, toifaga aloqador] - biror sinfga xos bo‘lgan, biror sinfga mansub, ijtimoiy qatlamga oid. *Sinfiy jamiyat.*

Samaradorlik - samarali, foydali bo‘lishlik; foydalilik. *Iqtisodiy samaradorlik.*

Qo‘mita - maxsus tadbirlarni o‘tkazish yoki biron-bir sohaga rahbarlikni amalga oshirish uchun tuziladigan davlat organi. *O‘zbekiston Respublikasi Xotin-qizlar qo‘mitasi.*

Tashkilot - aniq tarkib va vazifasiga, ish dasturiga ega bo'lgan ijtimoiy, xo'jalik birlashmasi yoki davlat muassasasi. *Birlashgan Millatlar Tashkiloti.*

Hamkorlik - ish-faoliyatda birga, hamkor bo'lish, ayni bir ishda birgalashish, uni teng bajarish. 2. Biror sohada o'zaro bog'lanib, birgalikda, hamkor bo'lib ish olib borish. *Iqtisodiy hamkorlik.*

Irq [qon tomirlari; ildiz; zot, nasl] - kishilarning ko'z, soch va teri rangi, yuz-bosh tuzilishi, nasliy belgilari bir xil bo'lgan, tarixan shakllangan guruhlari. *Turli irqlarga mansub kishilar.*

Ta'sis [tuzish, tashkil etish] - joriy qilmoq, belgilamoq, vujudga keltirmoq. *Ushbu tashkilotning ta'sis etish Nizomini qabul qildilar.*

Tinchlik - g'ala-g'ovur, shovqin-suron kabilardan holi, tinch holat. Kishini bezovta qilmaydigan, osoyishta holat. *Asosiy maqsadimiz - tinchlik va xavfsizlikni mustahkamlash.*

Davr [aylanish, almashinish, navbat] - jamiyat taraqqiyotida yoki tabiatda muhim voqea, hodisa yuz bergan yoki o'ziga xos xususiyati bilan ajralib turadigan ma'lum vaqt oralig'i. *Tuzilish davri.*

Mustahkam [mahkam, kuchaytirilgan, kuchli] -o'z xususiyati, mohiyati jihatdan o'zgarishga, buzilishga, aynishga chidamli, barqaror, aynimas.

Nufuzli - obro'-e'tiborli; ta'sirli. *Nufuzli tashkilot.*

Jins [tur; xil, nav] - jonli organizmlarning biologik va jismoniy xususiyatlariga ko'ra ikki turidan biri. *Jinsidan qat'iy nazar.*

11-topshiriq. Xalqaro tashkilotlarning qisqartma nomlari ro'yxatini tuzing.

12-topshiriq. Savollarga javob bering.

1. Qanday xalqaro tashkilotlarni bilasiz?
2. O'zbekiston qaysi xalqaro tashkilotlarga a'zo?
3. Siz O'zbekistonni qanday xalqaro tashkilotlarga a'zo bo'lishini xohlar edingiz?
4. BMT qanday tashkilot va u qachon tashkil etilgan?

5. BMTning Nizomi qaysi davlat vakillari tomonidan ishlab chiqildi?

6. BMT nechta asosiy organdan iborat? Uning vazifalari nimalardan iborat?

7. O'zbekiston BMTga nechanchi yilda qabul qilindi?

8. YUNESKO qanday tashkilot?

9. O'zbekiston YUNESKOga qachon a'zo bo'ldi?

10. YUNESKO keyingi yillarda qanday tadbirlarni amalga oshirdi?

11. YUNESKOning asosiy maqsad va vazifalari nimalardan iborat?

13-topshiriq. Matnni o'zbek tiliga tarjima qiling.

Узбекистан: вчера, сегодня, завтра

Узбекистан – загадочная древняя земля Средней Азии, с которой связано множество легенд. Золотое солнце, синее небо, зелёные поля и сады, бескрайние пустыни, мавзолеи восточных правителей, стройные минареты, современные высотные здания, широкие дороги, экзотические фрукты, гостеприимный и трудолюбивый народ – всё это Узбекистан.

31 августа 1991 года была провозглашена независимость Республики Узбекистан. Уже за первые годы независимости Республика добилась многого. Народ Узбекистана стал хозяином своих богатств, самостоятельно производит добычу, переработку и хранение золота, других редких и драгоценных металлов. Земля, природные ресурсы, научно- технический и интеллектуальный потенциал – вот богатство Узбекистана.

2 марта 1992 года Узбекистан как полноправный субъект международного права был принят в Организацию Объединенных Наций (ООН). Узбекистан присоединился ко многим международным договорам. Сегодня в Ташкенте работает представительство ООН, открытое 24 октября 1993 года. Республику Узбекистан признали более 190 государств. Официальные дипломатические отношения установлены со многими странами мира.

16-MAVZU. XXI ASRDA INNOVATSIYALAR

Ilm – narsalarni inson aqli yordami bilan o'rganishlikdir.

Abu Ali ibn Sino

XXI ASRDA INNOVATSIYALAR

Hozirgi vaqtda "Innovatsiya tushunchasi" juda keng qo'llanilmoqda. Innovatsiya so'zi inglizcha so'z bo'lib, "innovatsion" yangilik kiritish degan ma'noni bildiradi, ya'ni tizim ichki tuzilishini o'zgartirish, deb ta'riflanadi. Innovatsiya amaliyot va nazariyaning muhim qismi bo'lib, ijtimoiy- madaniy obyekt sifatlarini yaxshilashga yo'naltirilgan ijtimoiy subyektlarning harakat tizimidir. Innovatsiyalar dolzarb, muhim ahamiyatga ega bo'lib, bir tizimda shakllangan yangicha yondashuvlardir. Ular tashabbuslar va yangiliklar asosida tug'iladi.

Innovatsiya — ma'lum bir faoliyat maydonidagi yoki ishlab chiqarishdagi texnologiya, shakl va metodlar, muammoni yechish uchun yangicha yondashuv yoki yangi texnologik jarayonni qo'llash, oldingidan ancha muvaffaqiyatga erishishiga olib kelishi ma'lum bo'lgan oxirgi natijadir. Agar faoliyat qisqa muddatli bo'lsa va yaxlit tizim xususiyatiga ega bo'lmasa, o'z oldiga muayyan tizimdagi faqat ba'zi elementlarini o'zgartirishni vazifa qilib qo'ygan bo'lsa, u holda biz novatsiya bilan muloqot qilayotgan bo'lamiz. Agar faoliyat ma'lum konseptual yondashuv asosida amalga oshirilayotgan bo'lsa va uning natijasi o'sha tizim rivojlanishiga yoki uning prinsipial o'zgarishiga olib kelsagina innovatsiya deya olamiz. Novatsiya amaldagi nazariya doirasida amalga oshiriladi, ko'lam va vaqt bo'yicha chegaralanadi, metodlar yangilanadi va natijasi avvalgi tizimni takomillashtiradi. Innovatsiya esa tizimli, yaxshi va davomli bo'ladi, ma'lum amaliyotda yangi faoliyat tizimini loyihalaydi, amaliyot subyektlari pozitsiyalarini to'la yangilaydi. Bunda faoliyatning yangi yo'nalishlari ochiladi,

yangi texnologiyalar yaratiladi, faoliyatning yangi sifat natijalariga erishiladi, natijada amaliyotning o'zi ham yangilanadi.

Innovatsion faoliyat — yangi ijtimoiy talablar bilan an'anaviy me'yorlarning mos kelmasligi yoxud amaliyotning yangi shakllanayotgan me'yorining yuzaga kelgan me'yor bilan to'qnashuvi natijasida vujudga kelgan qator muammolarni yechishga qaratiladi. Innovatsiyalar doimiy ravishda faoliyatga yangiliklar olib kirish orqali tizim rivojiga hissa qo'shadi, faoliyatga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. O'zbekiston ilm-fani bugungi kunda o'zgarib borayotgan bozor talablariga javob beradigan, yuqori texnologiyali mahsulotlar ishlab chiqarishga yo'naltirilgan innovatsion iqtisodiyotning texnologik bazasini yaratish borasida ulkan imkoniyatlarni namoyon etmoqda.

1-topshiriq:

a) matnni o'qing;

b) matndagi termin va iboralarning ma'nosini izohlang;

2-topshiriq.

Turli sohalarga oid innovatsiyalar haqida dialogga kirishing.

3-topshiriq.

"Zamondoshlarimizning kashfiyotlari" mavzusida taqdimot tayyorlang.

GRAMMATIKA

Ilmiy uslub va uning xususiyatlari

Fan va texnikaning turli tarmoqlariga doir ilmiy asarlar, darsliklar ilmiy uslubda yoziladi. Ilmiy matn ilmiy va ilmiy-ommabop matnlarga ajratiladi. Ilmiy matnda gap bo'laklari tartibi adabiy til qoidasiga qat'iy amal qilgan holda qo'llanadi. Ilmiy matnda har bir fan sohasiga oid atamalarning qo'llanilishi xarakterli xususiyat hisoblanadi. Masalan, iqtisodiyotda *kredit, moliya, pul, sug'urta, narx, tannarx, hisob, taftish, aylanma* kabi terminlar

ishlatiladi. Ilmiy-ommabop matnlarda atamalar tizmasidan, ilmiy bayonchilikdan qochiladi.

Ilmiy uslubning janrlari – monografiya, maqola, annotatsiya, dissertatsiya, darslik, ma'ruza, ma'lumotnoma.

Ilmiy uslub va uning xususiyatlari. Ilmiy uslubga mantiqiylik, aniqlik, ilmiy atamalarning keng qo'llanishi xos bo'lib, barcha ilmiy asarlar, jumladan, maktab darsliklari ham shu uslubda yoziladi. Fan va texnika tili ilmiy uslub deyiladi. Daliliy munosabatlar asosida chiqarilgan ilmiy xulosalarga asoslanuvchi, har bir fan sohasining o'ziga xos atamalariga tayanuvchi, fikrni aniq va mantiqiy izchil bayon qiluvchi uslub ilmiy uslubdir. Ilmiy uslubning asosi atama, ta'riflar, qoidalar, qonunlardir. Atamalar faqat bir ma'noda qo'llanilib, o'zi ifodalayotgan tushunchaning tub mohiyatini ko'rsatadi, masalan *o'zak, negiz, yasovchi qo'shimcha, turlovchi va tuslovchi qo'shimchalar, shakl yasovchilar* kabi atamalar so'z tarkibiga oid lingvistik tushunchalarni ifodalaydi. Masalan: *Har qanday grammatik ta'rif yoki qoidada uchta tushuncha birlashgan bo'ladi: tushunchaning mohiyati, xususiy va umumiy tomoni.* (Ona tili darsligidan).

Ilmiy uslubda fikrning aniq bir shaxs tomondan bayon qilinayotgani sezilmaydi. Unda ko'proq fe'lning majhul nisbatidan foydalaniladi: *dalillar keltirilgan, tajriba o'tkaziladi, foydalaniladi.*

4-topshiriq. Matnni o'qing. Matn qaysi nutq uslubida yozilganligini aniqlang.

Marketing

Marketing - bozorning qoidalarini bilish, moslashish va unga ta'sir etish, tovar ishlab chiqaruvchilar va xaridorlarning o'zaro bog'liqligini ta'min etishga qaratilgan xo'jalik munosabatlari majmui. Marketing vujudga kelishining asosiy sabablaridan biri, bu - ishlab chiqarish ko'lami va hajmining ortib borishi, yangi tarmoqlarning vujudga kelishi, tovar turlarining ko'payishi va tadbirkorlar o'rtasida mahsulotni sotish muammosining vujudga kelishidir.

Bozor talabi o'zgaruvchan xususiyatga ega bo'lganligi bois, unga demografik, umumiqtisodiy, ijtimoiy, madaniy, psixologik va boshqa omillar ta'sirini hisobga olgan holda, bozorda aholining soni, jinsi, yoshi, daromadi, mahsulot sifati va narxigacha tahlil qilinadi.

Bozorni o'rganish, bilish va ishlab chiqarishni boshqarish bugungi kunga kelib, har bir tadbirkorning eng asosiy vazifalaridan biri bo'lib qolmoqda. Mamlakatimiz bozor iqtisodiyotiga o'tishi munosabati bilan tadbirkorlikka keng yo'l ochib berilganligi, yurtimizda faoliyat ko'rsatayotgan ko'plab firma va korxonalar uchun ishlab chiqarishni boshqarish, mahsulotni sotish yo'llarini, maqsad va vazifalarni marketing asosida tashkil etishi uchun sharoitlar yaratildi.

Marketing san'atini to'la va chuqur egallash mustaqil O'zbekiston tadbirkorlarining eng muhim vazifalaridan biridir.

5-topshiriq. O'qing. Gaplarni qaysi uslubga xosligini ayting.

1. Marhamat tumanida O'zbekiston xalq shoiri Muhammad Yusuf xotirasiga bag'ishlangan adabiy tadbir bo'lib o'tdi. 2. Daryodek shovullagan umrimizda nimalardir qilishga ulgurish, el-ulus orasida yaxshi nom qozonish har bir inson uchun baxt va sharafdir. 3. Jizzaxdagi istirohat bog'lari, so'lim xiyobonlar kundan-kunga ko'rkamlashib, chiroy ochib bormoqda. *(Gazetadan).* 4. Ayirboshlash – odamlar o'rtasida faoliyatning almashuvi, mehnat mahsulotlarini ayriboshlanishi; uning asosida esa ijtimoiy mehnat taqsimoti yotadi. 5. Iste'mol ikki turga bo'linadi: individual iste'mol (insonning xilma-xil, moddiy va ma'naviy boyliklar – oziq-ovqat mahsulotlari, kiyim, poyabzal, o'qish va h.k. foydalanishi) hamda ijtimoiy birlikdagi iste'mol, maorif, madaniyat, sog'liqni saqlash, mudofaa, ijtimoiy tartibni saqlash xizmatlaridan hamjihatlik bilan foydalanish. 6. Mulkchilik munosabatlari davlat tomonidan kafolatlanadi va qonun yo'li bilan himoya qilinadi. 7. Pul – bozor iqtisodiyoti sharoitida tovarlar almashinuvida umumiy ekvivalent rolini o'ynaydi. *(Darslikdan).* 8. Yomg'ir shunday kuch bilan quya boshladiki, bekat ayvonida turishning iloji qolmadi. *(Sh.Xolmirzayev).*

6-topshiriq. Quyida berilgan ilmiy uslubdagi matn parchasining o'ziga xos xususiyatlarini tushuntiring. Uni ilmiy-ommabop uslubga aylantiring.


Konvertatsiyalanagan obligatsiyalar emissiyasi emitent aksiyalarining qo'shimcha emissiyani joylashtirish usuli hisoblanadi. Buning sharti shuki, konvertatsiyalash huquqi bevosita aksiya chiqarishga nisbatan yuqori narxda sotilishi lozim. Qarz majburiyatlari emissiyasining texnologiyasi bu uzoq davom etadigan va murakkab jarayon ekanligini ko'rsatadi. Shu tariqa obligatsiyalar emissiyasi resurs jalb etishning eng qimmat turi bo'lganligi bois, qimmatli qog'ozlarni chiqarishdan tushgan mablag' yo'naltirilagan uzoq muddatli loyihalar asosida qurilishi lozim.

Bu esa, o'z navbatida, respublikada qimmatli qog'ozlar bozorining rivojlanishiga, tijorat banklarining bu bozordagi o'rni kuchayishiga, shuningdek, mamlakat fond bozorining xalqaro sarmoya bozorlariga uyg'unlashuviga xizmat qiladi.

7-topshiriq. Iqtisodiyot tarmoqlari (bank tizimi, moliya tizimi, buhgalteriya va audit, soliq va sug'urta sohasi,...)ga innovatsiyalar kirib kelishining ijobiy va salbiy tomonlarini "T-sxema" metodi asosida tahlil qiling.

"T-sxema" metodi namunasi:

Iqtisodiyot tarmoqlariga innovatsiyalarning kirib kelishi



8-topshiriq.

O‘z kasbingiz sohasidagi innovatsiyalar haqida ma’lumot to‘plang va albom tayyorlang.

9-topshiriq.

O‘z sohangizda qo‘llanadigan baynalmilal so‘zlar lug‘atini tuzing.

10-topshiriq. Matnni rus tilida so‘zlab bering.

Jahon ilmiy kashfiyotlari.

Smartfon

Eng zamonaviy va foydali asboblardan biri zamonaviy smartfondir. Ikki yoki o‘ttiz yil ilgari Internetga kirishni, 5 dyumli ekranga suratga tushishni, fotosuratlarni olishni, audio yozuvlarni tinglashni va boshqa ko‘p narsalarni o‘rganishga imkon beruvchi mobil telefonga ega bo‘lish fikri uzviy xayolga o‘xshab qoladi, ammo hamma narsa 21-asrning paydo bo‘lishi bilan o‘zgarib ketgan.

Bu kabi qurilma birinchi bo‘lib iPhone’ning nomi bo‘lgan “Apple”ni boshqargan va 3.5 dyuymli ekranga ega bo‘lgan Stiv Jobs tomonidan ishlab chiqarilgan. 2007-yilda bunday qurilmani ishlab chiqarish mobil sanoatning burilish nuqtasidir va texnologiya bilan qiziqqan barcha odamlarni ikki qismga ajratdi: muxlislar va muxoliflar. Zamonaviy texnologiyalar butun dunyodagi foydalanuvchilarning qalbini zabt etib kelmoqda, chunki ular foydalanuvchilarga ko‘plab funksiyalar va imkoniyatlarga ega bo‘lish imkonini beradi.

11-topshiriq. Matnni o‘zbek tilida so‘zlab bering.

УЗБЕКИСТАНЕЦ ВОШЕЛ В ТОП-100 МОЛОДЫХ ЭКОНОМИСТОВ МИРА

Преподаватель экономики Международного Вестминстерского университета в Ташкенте (МВУТ) Рауф Салаходжаев

вошел в список 100 лучших молодых экономистов мира, составляемый организацией RePeC (Research Papers in Economics — «Исследовательские статьи по экономике»), в университете.

Представитель Узбекистана впервые включен в этот рейтинг и находится в нем на 32-м месте. Он стал единственном представителем СНГ в первой пятидесятке списка. В Top-50, помимо Рауфа Салаходжаева, вошли лишь два представителя Азии — экономисты из Индии и Японии.

Рауф Салаходжаев, будучи стипендиатом американской Программы Фулбрайта, в 2012 году получил степень магистра экономики Государственного университета Нью-Йорка. С 2013 года преподает макроэкономику в МВУТ и является старшим научным сотрудником Института прогнозирования и макроэкономических исследований при Кабинете Министров Узбекистана.

Научные работы Рауф Салаходжаев посвящены исследованиям роли интеллектуального капитала и рыночных институтов в экономическом развитии государств и наций. Он является одним из немногих ученых, которые изучают новое направление в макроэкономике, так называемые «глубокие факторы экономического роста». Результаты его научных исследований были опубликованы в научных журналах Intelligence, Kyklos, Environmental Research и других и были отмечены журналами Forbes и National Policy.

За последние два года Рауф Салаходжаев опубликовал 15 статей в журналах, которые обладают индексом цитирования Web of Science. Он также является членом Международного сообщества по изучению интеллекта (США).

RePeC координируется исследовательским отделом Федерального резервного банка Сейнт Луиса (США) и отслеживает деятельность около 50 тысяч экономистов со всего мира. Рейтинги лучших экономистов по различным категориям сос-

тавляются на основе цитируемости статей и авторитетности журналов.

12-topshiriq. Matnni o'qing. Qaysi nutq uslubida yozilganligini aniqlang. Matndagi uslubiy va imlo xatoliklarini tuzating.

O'zbekiston olimlarining 7 ixtirosi

Jarrohlar minnatdor bo'lishadi

O'zbekiston Fanlar Akademiyasining Polimerlar kimyosi va fizikasi instituti olimlari tomonidan olingan foydali vosita. "Aspik" deb nomlanuvchi gidrogel shaklida preparat ichki organlarda operatsiyadan keyin yopishqoqlikning shakllanishini ishonchli tarzda oldini olish va uni takrorlash zaruratini bartaraf etish uchun mo'ljallangan. Mahalliy xomashyodan tayyorlanadi va dastur keyinchalik so'riladi. Innovatsiya uchun patent olingan.

Ishonchli va aniq

Neft mahsulotlarini uzoqdan o'lchash jarayonini avtomatlashtiradigan tizim "Zara Shatl" PEda yaratilgan qurilmaga imkon beradi. Bu temiryo'l sisternalarida, tanklar fermalarida va benzin stansiyalarida o'lchovlar uchun ishlatilishi mumkin. Shuningdek, u kompyuter portalidan qabul qilingan ma'lumotlarning masofadan uzatilishini har qanday masofadan ta'minlaydi. O'lchovlarning aniqligi kafolatlanadi. Yangi patentlangan.

Termitni to'xtating

Toshkent davlat agrar universiteti olimlari eng xavfli daraxtlarni qirg'in qiluvchi termitlar, shaharlarga hujum qilish uchun o'ziga xos chora-tadbirlar taklif qildilar. 200 mln yil avval sayyorada paydo bo'lgan va tabiatdagi mahalliy hamkasabalarning uzoq qarindoshi bo'lgan noyob hashorotlar, odatdagidek, yog'ochdan, quritilgan o'simliklarning qoldiqlarini va sellyuloza o'z ichiga olgan turli materiallardan foydalanadi. Ammo bir paytlar aholi punktlarida odamlar uylarini yo'q qilishmoqda. Termitlarning xulq-

atvori osongina tushuntiriladi: ularning mavjudligi uchun faqat ikki modda kerak - sellyuloza va loy. Ular birinchi oziq-ovqat sifatida foydalanadilar, ikkinchisi esa uy qurish talab etiladi. Qattiq jag'lari bilan qurollangan bu hashorotlar qolganlari bir vaqtning o'zida yo'q. Qattiq yog'och uy-joy binolari, elektr uzatish liniyalari tirgovichlari va temiryo'l shpallari tezda changga aylanmoqda.

Respublikamiz hududida ikkita termit - Trans-Kaspiy va Turkiston mavjud. Iqlim o'zgarishi va Orol dengizi qurishi bilan bog'liq ravishda, bu hasharotlar cho'l hududlaridan insoniyat tomonidan ishlab chiqilgan hududlarga intensiv hujum uyushtirishga kirishdi. Qadimiy Xivaning YUNESKOning Butunjahon merosi ro'yxatiga kiritilgan me'moriy yodgorliklari tahdid ostiga olindi. Xavfli zararkunandalar hatto metropoliten hududida ham topilgan. Olimlar tomonidan tavsiya etilgan anti-termal vositalar qanchalik muhimroq. U yuqori darajada samarali va ekologik jihatdan sog'-lomdir - uni ishlab chiqarish uchun mahalliy o'simliklardan foy-dalaniladi. Mualliflar patentga talabnoma topshirdi.

Iste'mol kamayadi

Tuxumni ishlab chiqarishni 20 foizdan ko'prog'ini tashkil etadigan tuxum ishlab chiqarishni tezlashtiradigan preparat Kimyo instituti olimlari tomonidan yaratilgan. O'zbekiston Fanlar aka-demiyasining S.Yunusov nomidagi o'simlik moddalari. Ushbu vosita pulletlarning puberligini tezlashtiradi va bu ularning tuxum ishlab chiqarishni boshlashini ta'minlaydi. Shu bilan birga, o'nlab tuxum uchun ozuqa iste'moli o'rtacha 20 foizga kamayadi va o'rtacha tuxum ishlab chiqarish ko'payadi. Preparat Markaziy Osiyo florasining o'simlik materiallari asosida olingan. Hayvonlardan olingan mahsulotlardan yaratilgan analoglardan farqli o'laroq, bu ularga xos bo'lgan yon ta'sirlarni ko'rsatmaydi. Patentli.

Tabiiy xossalarini saqlang

Yo'lning o'simlik moddasidan samarali tozalanishi, poytaxtda ishlab chiqarilgan. Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat instituti

xodimlari tomonidan yaratilgan. Uchuvchi namunadagi Testlar ko'rsatdi: mavjud asbob-uskunalar samarali, 2-2,5 marta uning tozalash darajasi yuqori, yangi yarmi bilan solishtirganda. Bularning barchasi junning tabiiy xossalarini maksimal himoya qilish va kam energiya iste'moli bilan ta'minlangan. Innovatsiya uchun patent olingan.

Iqtisodiy texnologiya

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti olimlari resurslarni tejaydigan innovatsiyalarni yaratdilar. Ularning taklif etilayotgan innovatsiyalari rangli va qora metallarning 15 foizigacha tejab qolishini ta'minlaydi. Maxsus plyuslar orqali apparat eritmalar ustidan himoya qopqog'ini yaratadi va shu tariqa havoda kislorod bilan metall aloqani oldini oladi. Patentli rivojlanish.

Tezda tekshiriladi

Jizzax viloyati innovatsiya va texnologiya transferi markazida zamonaviy gaz analizatori yaratildi va patentlandi. U 9-13 soniyada atmosferada sanoat korxonalarining gaz-havo aralashmalari bilan turli vodorodli florid konsentratsiyasini aniqlashga qodir. Ichki analizator o'xshash xorijiylardan beshdan olti barobar arzonroq va kimyoviy-analitik va ekologik laboratoriyalarda foydalanish uchun mo'ljallangan.

17-MAVZU. DAVRIMIZNING GLOBAL MUAMMOLARI

... Bu yorug' dunyoda hayot bor ekan, oila bor. Oila bor ekan, farzand deb atalmish bebaho ne'mat bor. Farzand bor ekan, odamzod hamisha ezgu orzu va intilishlar bilan yashaydi.

Islom Karimov

Davrimizning global muammolari

XX asrning ikkinchi yarmida insoniyat oldida juda ko'p va murakkab muammolar vujudga keldiki, ularning asosiy qismi ta'sir doirasining miqyosi va ahamiyatiga ko'ra global muammolar nomini oldi. Butun dunyoni qamrab olgan, insoniyatning bugungi kuni va kelajagiga xavf soluvchi, yechimini topishda barcha davlatlar va xalqlarning hamjihatlik bilan birgalikda harakatini talab qiluvchi muammolar global muammolar deb ataladi.

Global muammolar - umumbashariy hayot va taraqqiyot bilan bog'liq hozirgi zamon muammolaridir. Ular jumlasiga jahon termoyadro urushining oldini olish, xalqaro terrorchilikka qarshi kurash va barcha xalqlar uchun tinchlikni ta'minlash; rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlar o'rtasida ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot darajasidagi tafovutni bartaraf etish, ochlik, qashshoqlik va savodsizlikni tugatish, rivojlanayotgan mamlakatlarda aholining tez sur'atlar bilan ko'payayotganligini tartibga solish, atrof-muhit halokatli tarzda ifloslanib borayotganligining oldini olish; insoniyatni kerakli resurslar — oziq-ovqat, sanoat xomashyosi, energiya manbalari bilan ta'minlash, fan va texnika taraqqiyoti salbiy oqibatlarga olib kelishiga yo'l qo'ymaslik kabilar kiradi.

Global muammolarlarni 4 guruhga ajratish mumkin:

1) xalqaro siyosiy munosabatlarda vujudga kelgan global muammolarlar — jahonda rivojlangan, rivojlanib kelayotgan va qoloq mamlakatlarning mavjudligi. Hozirgi kunda jahon siyosiy tartibotini belgilashda dunyodagi 7 rivojlangan mamlakatning mav-

qei katta. Bu mamlakatlar bilan qoloq mamlakatlar orasidagi tafovut g'oyat kuchaydi. Taraqqiy qilgan mamlakatlarda demokratik qadriyatlar rivojlangan bo'lsa, qoloq mamlakatlarda avtoritarizm, demokratiyaga zid bo'lgan ijtimoiy munosabatlar avj oldi, xalqaro xavfsizlikka qarshi tahdidlar paydo bo'ldi. Buni terrorchilik, ekstremizm ko'rinishlari vujudga kelganligi tasdiqlaydi;

2) xalqaro iqtisodiy munosabatlarda paydo bo'lgan global muammolar — jahon xo'jalik tizimi vujudga kelib, unda asosan iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlar ustunligi qaror topdi. Iqtisodiyoti haddan tashqari rivojlangan mamlakatlar, transnatsional korporatsiyalar jahon iqtisodiyotini boshqarayotgan bir paytda, ikkinchi tomonda ularga qaram, iqtisodiyoti juda ham past darajadagi mamlakatlar mavjuddir. Jahonda iqtisodiy va ilmiy-texnikaviy taraqqiyot yutuqlariga qaramasdan boy va kambag'al mamlakatlar o'rtasidagi farq o'sib bormoqda. XX asr oxirida rivojlangan mamlakatlar jahon yalpi milliy mahsulotining 86 %ini ishlab chiqargan bo'lsa, kambag'al davlatlar atigi 1 %ni ishlab chiqardi. Ayrim mamlakatlar rivojlangan davlatlardan juda katta miqdorda qarzga botdi. Natijada ular siyosiy jihatdan mustaqil bo'lsa-da, iqtisodiy jihatdan rivojlangan mamlakatlarga qaramdir. Jahon iqtisodiy munosabatlaridagi globallashuvning salbiy oqibatlari ham mavjud. Masalan, milliy bozorni siqib qo'yadi, ishsizlikni, fermerlarning sinishini kuchaytiradi. Bu globallashuvga qarshi harakatni keltirib chiqardi — Yevropaning bir necha shaharlarida norozilik namoyishlari bo'lib o'tdi. Global iqtisodiy jarayonlar jahon miqyosida harakat qiluvchi moliyaviy iqtisodiy jinoyat guruhlarini vujudga keltirdi;

3) ijtimoiy sohada vujudga kelgan global muammolarlar — jahon aholisi muttasil ko'payib borishi natijasida Osiyo va Afrika mamlakatlarida oziq-ovqat, ichimlik suv tanqisligi kuchayib, bu hol boshqa mamlakatlarda ham kuzatilayotgani, jahon aholisining muayyan qismi ocharchilikni boshdan kechirayotgani, savodsiz ekanligi, axborot-texnologiya va umuman fan-texnika inqilobi samaralaridan bahramand emasligi, butun insoniyatga xavf tug'-

diruvchi kasalliklar (masalan, OITS) tez tarqalayotganligi shunday muammolar sirasiga kiradi;

4) inson va tabiat o'rtasidagi munosabatlarning buzilishi natijasida vujudga kelgan global muammolar — ular qatoriga dengiz va suv havzalarining bulg'anishi, o'rmon maydonlarining tobora qisqarishi, atmosfera ozon qatlamining yo'qolib borishi kabilar kiradi. Xatarli kimyoviy moddalarning haddan tashqari ko'p ishlatilishi natijasida ekin ekiladigan yerlarning katta qismi yaroqsiz holatga kelish xavfi kuchaydi. Sobiq SSSRda q.x. sohasida texnokratik siyosat yuritilishi oqibatida Orol dengizi suvi kamayib, g'oyat mushkul ekologik muammolarni keltirib chiqardi. O'zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti I. Karimov o'z asarlarida, turli xalqaro anjumanlarda so'zlagan nutqlarida Markaziy Osiyoda global muammolarning kelib chiqish sabablari va ularni bartaraf etish yo'llarini ko'rsatib berdi, bu muammolarni hal qilish xalqaro xavfsizlik va barqarorlikni ta'minlashning muhim sharti ekanligiga jahon jamoatchiligi e'tiborini qaratdi.

1-topshiriq:

a) matnni o'qing;
b) matndagi termin va iboralarning ma'nosini izohlang;
d) matnni o'zgartirib so'zlab bering.

GRAMMATIKA
Maqola va uning turlari

Maqola – publitsistik uslubga xos janr. Maqolada kundalik ijtimoiy hayotda ro'y berayotgan voqea-hodisalar tahlil qilinadi; nazariy, ommaviy jihatdan umumlashtiriladi; davlat siyosati, iqtisodiyot, texnika, fan va madaniyatda erishilgan yutuqlar ilg'or ish tajribalari aks ettiriladi. Turli nuqsonlar tanqid qilinadi. Matbuotda bosh maqola, nazariy va targ'ibot maqola, muammoli maqola keng qo'llaniladi.

Bosh maqola (yoki tahririyat tomonidan yoziladigan maqola) tahririyatning eng mas'uliyatli maqolasi hisoblanadi.

Ushbu maqolada ichki va xalqaro hayotga doir muhim masalalarni o'quvchilarga yetkazish – asosiy vazifa hisoblanadi. Bunday maqola ma'lum bir masala yuzasidan yo'l-yo'riq ko'rsatishi kamchiliklarni ochib tashlashi, har bir ishning asosiy haqiqiy yo'lini belgilab berishi lozim.


Prezident farmonlari, Oliy Majlis qonunlari, Vazirlar Mahkamasi tomonidan qabul qilinadigan davlat va hukumat hujjatlari, qarorlari, qonunlari davrning dolzarb masalalari bosh maqolada yoritiladi.

Nazariy maqola va targ'ibot maqolaning asosiy vazifasi mustaqillik, milliy g'oya, istiqlol mafkurasining asoslari va tamoyillarini; ilmiy maqolaning vazifasi fan, madaniyat, texnika yutuqlarini tushuntirish, ommalashtirish, o'quvchining g'oyaviy, ilmiy saviyasini oshirishdan iborat. Muammoli maqolada esa munozara va bahs asosiy o'rinda bo'ladi hamda muallif o'z qarashlarini o'rtaga tashlaydi. Maqola so'zi keng ma'noda gazeta, jurnal, radio, televideniye, shuningdek, to'plamlardagi ilmiy asarlarga nisbatan ham qo'llaniladi.

2-topshiriq. Global muammolardan biriga bag'ishlangan publitsistik maqola yozing.

3-topshiriq. "Ekologik xavf" mavzusida bahs-munozarada ishtirok eting.

"DAVRA SUHBATI" METODI



Mavzuni moderator boshlaydi, qolganlar aylana bo'ylab o'z fikrlarini ketma-ket davom ettiradilar. Barcha fikr-mulohazalar tinglab b o'lingach, mavzu muhokama qilinadi. Bu esa ishtirokchilarning mustaqil fikrlashiga va nutq madaniyatining rivojlanishiga yordam beradi. Metodning o'g'zaki va yozma shakllari mavjud. Mavzu yuzasidan ushbu metodni qo'llang.

4-topshiriq. "Terrorizm va uning insoniyatga tahdidi" mavzusi bo'yicha elektron taqdimot tayyorlang.

5-topshiriq. Matnni o'qing. Matnga savollar tuzing. Savollarga javob berish orqali matn mazmunini so'zlab bering.

Global muammolarning soni taxminan o'ntadan qirq-ellik-tagacha boradi. Lekin shularning ichida asosiy, eng muhim integral muammolarning soni o'ntadan oshmaydi. Ular quyidagilardan iborat:

1. Rivojlanayotgan mamlakatlarni qoloqlikdan chiqarish muammosi.
2. Tinchlik va qurolsizlanish, yangi jahon urushining oldini olish muammosi.
3. Ekologik muammo.
4. Demografik muammo.
5. Energetik muammo.
6. Xomashyo muammosi.
7. Oziq-ovqat muammosi.
8. Dunyo okeanidan foydalanish muammosi.
9. Koinotdan tinch maqsadlarda foydalanish muammosi.

Rivojlanayotgan mamlakatlarni qoloqlikdan chiqarish global muammolarning eng muhimidir. Mazkur muammoning dolzarbligi dunyo siyosiy xaritasida qoloq mamlakatlar soni va salmog'ining kattaligi hamda mavqeining sezilarli holda oshganligi bilan bog'langan.

Hozirgi vaqtda jahonda mavjud barcha mamlakatlarning 30 foizga yaqini qoloq hisoblanadi. Shularning 3/4 qismi Afrikada, 1tasi Janubiy Amerikada va qolgani Osiyoda joylashgan. Iqtisodiy qoloqlik mazkur mamlakatlarda siyosiy beqarorlik hamda ijtimoiy tengsizlik, irqiy va diniy ziddiyatlarni keltirib chiqarmoqda.

Urush va tinchlik muammosi XX asr ikkinchi yarmining deyarli 40 yili mobaynida haqli ravishda insoniyatning eng muhim muammosi bo'lib kelgan. 80-yillarning ikkinchi yarmi va 90-yillarda

dunyo siyosiy xaritasida bo'lib o'tgan chuqur va miqyosli o'zgarishlar G'arb bilan Sharq o'rtasida vujudga kelishi mumkin bo'lgan global yadro urushi xavfini amalda yo'q bo'lishiga sabab bo'ldi. Bunday holat ushbu xavfni tarqatuvchi mamlakatlar Rossiya va AQSh hamda NATO davlatlarida harbiy-siyosiy sohada aniq amaliy tadbirlarni hayotga tatbiq etish bilan bog'langandir.

Demografik muammo ham global muammolarning eng muhimi hisoblanadi. Ushbu muammolar rivojlanayotgan mamlakatlarda yuqori darajada tug'ilish va tabiiy ko'payish bilan, rivojlangan mamlakatlarda esa juda past darajadagi tug'ilish va tabiiy ko'payish bilan bog'langan. Buning oqibatida birinchi guruh mamlakatlarida aholi va mehnat resurslari soni tez o'smoqda, ikkkinchi guruh mamlakatlarda esa aholi va mehnat resurslari soni past sur'atlarda o'smoqdaki, ular murakkab ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni keltirib chiqarmoqda.

6-topshiriq. Quyidagi ma'rifiy matnni o'qing. Mavzu bilan bog'lab fikringizni bildiring.

Oltin olma, duo ol!

Volidai muhtarama onajonim rahmatlik doimo bitta gapni takrorlar edilar: "Bolajonim, odamlarga faqat foydang tegsin, hech kimga zararing tegmasin. Insonlarga qo'lingdan kelgancha yaxshilik qil, yomonlik qilmagin. Duo olishga harakat qil. Duo tufayli umring uzun, rizqing mo'l, baxtli va omadli bo'lasan, qarg'ish eshitadigan odam ikki dunyoda o'nglanmaydi".

Hayotimda duo bilan murodiga yetganlar va qarg'ish bilan baloga giriftor bo'lganlarga ko'p guvoh bo'lganman.

...Bolaligimizda Salim degan o'ta sho'x, yerga ursa osmonga sakraydigan, quloqsiz bir bezori bola bor edi. Tekkanga tegib, tegmaganga kesak otardi. Kunlarning birida beva qo'shnimiz Hadicha xolaning bog'lariga kirib, yangi o'tqazilgan, yosh nihollarni egib, sindirib payhonlab yurganida, xola ko'rib qolib, "Ha, bola bo'lmay baloga giriftor bo'l-e, yosh nihollarni sindirgan

qo'ling sinmasa asti rozi emasman", deb cho'kkalab ikki mushtlarini tizzalariga urib qarg'aganlari esimdan chiqmaydi. Nima bo'ldi-yu, oradan ko'p o'tmay Salim daraxtga ilinib qolgan varragini olaman deb, yiqilib tushdi. Ancha vaqt qo'lini bo'yniga osib yurdi.

... Tengqurimiz Zokirjon biz bilan birga ikki anhor o'rtasida qo'y va echkilarini boqardi. Uzoqlashib ketgan mollarni galma-galdan qaytarib kelardik. Hamma qo'lidagi xivich bilan borib qaytarib kelsa, u qo'y-echkilarni oyog'i bilan tepib haydab kelardi.

O'tkinchilar: "Hoy bola, mollarni tepib bo'lmaydi" deyishsa, ham parvo qilmasdi. O'rtoqlarini ham orqasidan kelib, hazillashib tepib qochib qolardi. Oxiri Zokirjon o'rtog'imiz mototsikldan yiqilib, oyog'i cho'loq bo'lib qoldi.

... O'zi bizdan yoshroq bo'lsa ham, aqlli, idrokli, ziyrak Abduvahob ba'zi so'zlari bilan hammamizni og'ziga qaratib qo'yardi. Kattalar bilmagan hikmatli so'zlarni gapirib bizni qoyil qoldirardi. Mahallamizdagilar uni shirinsuxanligi uchun hurmat qilishardi. Serharakat, chaqqon va zukko bola edi. Uning ko'p vaqti Hadicha xolanikida, uy yumushlariga qarashish bilan o'tardi. Chunki xolaning o'g'illari urushga ketib qaytib kelishmagan, qizlari turmushga chiqib ketgan edi. Mevalarni terib, yerlarini chopib, suv olib kelib, o'tinlarini yorib, hatto hovlilarini ham supurardi. Ba'zilar uni "Hadicha xolaning malayi" deb masxara qilishardi.

Abduvahob yaxshi o'qigani, mehnatsevarligi, eng asosiysi duoni ko'p olgani tufayli tez kunda yuqori pog'onalarga ko'tarila boshladi. Transport institutini muvaffaqiyatli bitirib, sut kombinatiga bosh muhandis, keyin atir-upa ishlab chiqaradigan fabrikaga direktor bo'ldi. Shu davrda ham muhtojlarga yordamini ayamadi, ularning qayg'ulari-yu xursandchiligiga sherik bo'ldi.

Hozir nafaqalik gashtini surib, mahallaning obodonlashtirish ishlarida bosh-qosh.

Ha azizlar, duoda gap ko'p ekan!

7-topshiriq. Quyidagi gaplarda so'z tartibining buzilishi bilan bog'liq uslubiy xatolarni aniqlang, ularni o'z o'rniga qo'yib, tahrir qilib ko'chiring.

1. Astoydil fermer xo'jaligi a'zolari mehnat qilmoqdalar. 2. Biz xalq shevalarini tasvirlaymiz va o'rganamiz. 3. Texnika – chinakam dehqonning do'sti. 4. U suv ichdi va qaynatdi. 5. Muharrir bo'lib ishlayman jurnalda. 6. Nigora Ahmedovaning yaqinda quvonchli hodisa hayotida yuz berdi.

8-topshiriq. Matnni rus tiliga tarjima qiling.

Soliq nima?

Soliqlar davlatning korxona va tashkilotlarning har bir fuqaro topgan daromadidan foiz miqdorida undiriladigan pul mablag'idir. Soliqlar davlat byudjetini hosil qiladi. Davlat sarmoyasi iqtisodiyotni bir tekis yurgizish imkonini beradi. Minglab tadbirkorlar korxonalar, tashkilotlar, firmalar o'z foydalaridan davlatga soliq to'laydilar. O'z navbatida, davlat xizmatchilariga to'lanadigan maosh va boshqa zaruriy xizmatlar uchun to'lovlar amalga oshiriladi.

Davlat byudjeti hukumatning har yilgi daromad va xarajatlari hisobidir. Davlat byudjetining asosiy vazifasi moliyaviy zaxiralar yordamida iqtisodni samarali rivojlantirish va umumdavlat miqyosidagi vazifalarni hal qilish uchun sharoit yaratishdir.

Byudjetning o'zi ikki qismdan iborat bo'ladi: yalpi daromad va xarajatlar. Olingan soliqlar davlat byudjetining daromadi bo'lib, u obodonlashtirish, madaniy ishlar, sog'liqni saqlash, maktab-maorif, ijtimoiy ta'minot sohasidagi chora-tadbirlar uchun ishlatiladi.

9-topshiriq. Matnni o'zbek tiliga tarjima qiling.

Банк

Банк – финансовая структура, которая собирает, хранит, накапливает денежные средства, контролирует денежное обращение, производя взаиморасчеты с клиентами, предоставляя кредиты. выпуская ценные бумаги и деньги. Иначе говоря, это финансовая фирма, где "сырьем" служат депозиты (вклады), а "конечным продуктом" являются выданные ссуды (кредиты).

Выручка, полученная от предоставления заемных средств, т.е.

банковский процент, идет прежде всего на оплату издержек, связанных с процессом превращения депозитов в кредиты (зарплата работникам, затраты на основные фонды и др).

Оставшаяся после этих изъятий сумма является прибылью банка, с нее начисляются дивиденды на акции банка, какая-то часть идет на расширение его деятельности.

В настоящее время во многих странах, в том числе и в Узбекистане, действует двухуровневая система банков.

Первый уровень образует центральный банк (он может называться государственным, национальным), обладающий монопольным правом эмиссии денег и являющийся главным проводником денежно-кредитной политики государства. Центробанк также контролирует деятельность всех учреждений второго уровня банковской системы страны.

Коммерческие банки, составляющие второй уровень банковской системы страны, занимаются широким кругом операций.

10-topshiriq. Matnni o'zbek tiliga tarjima qiling. Ajratib ko'rsatilgan so'z va so'z birikmalarining ma'nosini eslab qoling.

КРАСНАЯ КНИГА

Кто сегодня не знает о существовании Красной книги? Почему эту Книгу назвали красной? Красный цвет – сигнал запрета, понятный людям всего мира. Значит, Красная книга предупреждает о том, каким животным и растениям грозит опасность исчезновения.

Красная книга имеет вид толстого перекидного календаря, то есть это такая книга, любой листок которой может быть заменен другим при получении новых данных. Листы в этой книге разного цвета: **красные, желтые, белые, зеленые.** ***На красных листах*** записаны сведения о видах, находящихся под угрозой исчезновения; ***на желтых*** – о тех, которые скоро могут исчезнуть; ***на белых*** – о редких видах, состояние которых вызывает опасение; ***на зеленых*** – сведения о тех

видах, которые в нужной мере восстановлены человеком, которым не грозит исчезновение.

Но вероятно, немногие знают историю создания Красной книги. Международную Красную книгу предложил создать английский ученый Питер Скотт, много сделавший для охраны природы земли.

В 1948 году в небольшом городке Фонтенбло (недалеко от Парижа) на международной конференции был основан Международный Союз охраны природы (МСОП),который учредил международную Красную книгу.

Красная книга включает в себя редкие виды флоры и фауны всей планеты. Необходимым ее дополнением стали национальные Красные книги. Они созданы в ряде стран, где есть исчезающие виды флоры и фауны. Есть Красная книга и в Узбекистане, в которой записаны редкие виды растений и животных на территории нашей республики. Все Красные книги – документы временного пользования. Все данные в них постоянно пополняются. Многие виды флоры и фауны, которые были занесены в Красную книгу ранее, сегодня уже не являются исчезающими. Они восстановлены с помощью человека. Но ученые всего мира решили, что эти животные и растения навсегда останутся на страницах Красной книги. Останутся как напоминание человечеству о том, что истребить природу гораздо проще, чем потом ее восстановить.

18-MAVZU. TABIAT VA INSON

Yaxshi va yomon xulqning hammasi sharoit, tarbiya, odatlanish natijasida vujudga keladi. Yaxshi xulqqa ham odat tufayli erishiladi.

Abu Ali ibn Sino

Ekologik xavf



XX asrda texnikaning rivoji, xalq xo'jaligi va kundalik turmushni kimyolashtirish, yer yuzida aholi sonining keskin ko'payishi oqibatida tabiat bilan inson o'rtasidagi muvozanatning buzilishi, yer, suv va havoning inson hayotiga zararli darajada ifloslanishi natijasida ekologik tanglik xavfi paydo bo'ldi.

Buning birinchi sababi jamiyatga motorlarning keng ko'lamda kirib kelishi bo'lib, XIX asrning oxiri - XX asrning ilk yillaridan boshlandi; keyingi yuz yil ichida dunyo motorlar olamiga aylandi: hozirgi davrda jahon bo'yicha necha million avtomobil, paroxod, parovoz, lokomobil, samolyot, mototsikl, yaxta, kemacha, turli yoqilg'ida va yonilg'ida ishlaydigan elektrostansiyalar, isitish qurilmalari va hokazolarni sanab adog'iga yetib bo'lmaydi. Yoqilg'ida va yonilg'ida ishlaydigan har bir motor yoki motorli inshoot, aslida, insonga kerakli kislorodni iste'mol qiluvchi raqibdir. Motorlar tutab, bir tomondan, insonga yengillik va qulaylik tug'dirsa-da, ikkinchi tomondan, atrof-muhitni ifloslantiradi, inson yashayotgan muhitni izdan chiqarib, uni turli kasalliklarga duchor qiladi.

Ekologik tanglik xavfi yuzaga kelishining ikkinchi manbai - kimyolashtirish, qishloq xo'jaligida, chorvachilikda, sanoatda, tran-

sportda yaxshi ko‘rsatkichlarga erishish maqsadida kimyoviy moddalardan keng foydalanishdir. Bu jarayon O‘zbekistonda ham namoyon bo‘ldi, sariq kasali bo‘yicha respublikamizning jahonda “yetakchi” o‘ringa chiqishiga olib keldi, turli kasalliklarning keng tarqalishiga sababchi bo‘ldi. Ekologik tanglik xavfi o‘sishining uchinchi sababi - aholining talablari va unga ko‘rsatiladigan maishiy xizmatning takomillashishi natijasida paydo bo‘ladigan iflos chiqindilarning ko‘payishidir (turli ishlatilgan qog‘oz, karton, quticha, butilka, flakon, oziq-ovqat qoldiqlari va hokazolar).



Jamiyat hayoti izchil ilmiy negizda tashkil qilinib, u fan tavsiyalari va tibbiyot qonunlari asosida olib borilsa, ekologik tanglik xavfini kamaytirish va asta-sekin zaruriy muvozanatga erishish mumkin.

O‘zbekistonda ekologik tanglik xavfi, ayniqsa, katta e’tiborni talab qiladi. O‘zbekiston - qadimiy boy sivilizatsiyaning markazlaridan biri. Uning aholisi zich joylashgan va yil sayin o‘sib bormoqda. Keyingi yuz yil ichida (1897-1997) O‘zbekistonda aholi soni o‘n barobar o‘sdi. Ammo suvni iste’mol qilish, aholiga xizmat ko‘rsatish madaniyati takomillashishi bilan, sug‘oriladigan yerlar sathi kengayishi sababli, o‘n besh barobar o‘sdi. Suv beradigan manba esa o‘sha ikkita - Amudaryo va Sirdaryo. Ko‘z o‘ngimizda yuzaga kelayotgan bu nomutanosiblik ekologik ahvolni yanada jiddiylashtirishi mumkin.

1-topshiriq:

a) matnni o‘qing;

b) matndagi asosiy fikrni ajratib, ijodiy so‘zlab bering;

d) quyidagi termin va iboralarning ma’nosini yod oling.

Ekologiya [*yun.* oikos – vatan, uy + logos – fan, ta'limot] – birgalikda yashaydigan tirik organizmlarning o'zaro va tevarak-atrofdagi muhit bilan bo'lgan munosabatini, shuningdek, odam va biosfera o'rtasidagi o'zaro munosabat masalalarini o'rganuvchi fan.

Atrof [tomonlar, chekka joylar] – Tevarakdagi yaqin joy, yaqin oradagi yerlar. *Motorlar tutab, bir tomondan, insonga yengillik va qulaylik tug'dirsa-da, ikkinchi tomondan, atrof-muhitni ifloslantiradi.*

Biologik – tirik organizmlarning hayoti va o'sishiga, ya'ni biologiyaga oid. *Biologik jarayonlar. Biologik tadqiqotlar.*

Biologiya [bio.. + *yun.* logos - so'z, ta'limot] – tirik organizmlarning hayoti va rivojlanish qonuniyatlari haqidagi ta'limot, fan. *O'simliklar biologiyasi. Biologiya darsi.*

Havo [atmosfera, havo; iqlim; shamol; ob-havo] – yer atmosferasini hosil qiluvchi, inson, hayvon, o'simliklar hayoti uchun zarur bo'lgan, asosan azot va kisloroddan iborat gazlar aralashmasi. *Toza havodan nafas olmoq.*

Kimyo [oddiy metallarni asl metallar (oltin, kumush)ga aylantirish tushunchasi] – moddalar, ularning tarkibi, tuzilishi, xossalarini, shuningdek, bir moddaning boshqa moddaga aylanishini o'rganuvchi fan. *Analitik kimyo. Noorganik kimyo. Organik kimyo. Kimyo o'qituvchisi.*

Texnika [*yun.*technike – mohir, usta<techne – san'at, mahorat] – jamiyatning inson faoliyatidagi ishlab chiqarish jarayonlarini amalga oshiruvchi va noishlab chiqarish ehtiyojlari uchun xizmat qiluvchi vositalar yig'indisi. *Ilg'or texnika. Aviatsiya texnikasi. Paxta terish texnikasi. Texnika fanlari.*

Tibbiyot [tabobat, davolash] – kishilar sog'lig'ini saqlash va mustahkamlash, umrni uzaytirish, kasalliklarning oldini olish, davolash haqidagi bilimlar va shu sohadagi amaliy tadbirlar majmui. *Abu Ali ibn Sino bundan ming yil ilgari o'simliklardan dori-darmonlar tayyorlab, tibbiyotda qo'llagan.*

Maishiy [*a.* – hayotiy, hayot, turmushga oid] – maishatga, tirikchilikka oid. *Maishiy xizmat. Maishiy sharoit.*

2-topshiriq. Dunyoda va O'zbekistonda mavjud ekologik muammolar haqida esse yozing.

3-topshiriq. "Orol fojiasi" mavzusida taqdimot tayyorlang.

Eslab qoling!

Yer ostida juda ko'p suv zaxiralari bor. Jumladan, 800 metr yer qatlamida to'rt million kub kilometr suv bo'ladi. Bu - butun dunyodagi daryolarning suvidan uch ming marta yoki ko'l va dengizlarning suvidan 20 marta ko'p demakdir.

4-topshiriq. O'zbekiston ekologik harakatining faoliyati to'g'risida ma'lumot to'plang va guruhdoshingiz bilan dialogga kirishing.

GRAMMATIKA

Intervyu olish va berish qoidalari

Ommaviy axborot vositalarida keng qo'llaniladigan axboriy janrlardan biri intervyu (qisqa suhbat)dir. Bu so'z inglizcha bo'lib, ***"so'rab olish, surishtirish"*** degan ma'noni bildiradi. Bu janr ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy-ishlab chiqarish, madaniy-ma'rifiy hayotining barcha sohalarida qo'llaniladi. Shu bilan birgalikda u ommaviy vositalari – gazetalar, jurnallar, radio, televideniye, axborot agentliklari, internetdan doimiy joy olib keladi.

Avallo, intervyu rasmiy va norasmiy xillarga bo'linadi. Rasmiy intervyular asosan hukumat rahbarlarining faoliyati bilan bog'liq bo'lgan biror muhim voqea – rasmiy uchrashuv, safar, yirik anjuman va zarur sanalarga va boshqa davlat ahamiyatiga ega bo'lgan tadbirlarga bag'ishlanib o'tkazilgan matbuot yig'inlarida beriladi. Norasmiy intervyu esa jurnalistlar tomonidan u yoki bu voqea, hodisa haqida yoziladi.

O'z tuzilishi jihatidan intervyu ikki xil: **intervyu-dialog, intervyu-monolog** shaklida ham bo'lishi mumkin.

Intervyu-dialogda muxbir va suhbatdosh o'zaro savol-javob qilishadi. Bu savol-javob tayyorlanish jrayonida to'g'ridan-to'g'ri

og'zaki ko'rinishda yoki yozma savol-javob tarzida olib boriladi. Respublikamizning mashhur kishilari, fan arboblari, yozuvchilar, san'atkorlar, ishlab chiqarish ilg'orlari, tadbirkorlardan olingan intervyular matbuotimizda, radio, televideniyeda turli ruknlar ostida tez-tez berib boriladi.

Intervyu-monologda muxbir bergan birgina savolga suhbatdosh tomonidan berilgan javob o'z aksini topadi. Bunday intervyu odatda hayotdagi birorta muhim ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy-ma'naviy masala yoki muammoni yoritish uchun qo'llaniladi. Bunda suhbatdoshning javobi uning tilidan yoki jurnalist tomonidan sharhlanib berilishi mumkin. Bunday intervyu odatda hajm jihatdan dialog-intervyudan kichikroq bo'ladi.

5-topshiriq. Intervyu haqidagi nazariy bilimlarni o'zlashtirib intervyu-dialog, intervyu-monolog tayyorlang.

6-topshiriq. Intervyuning rasmiy va norasmiy xillariga qisqa suhbat uyushtiring.

7-topshiriq. Respublikamizda ijtimoy hayotning muhim masalalari bo'yicha o'tkazilgan matbuot anjumani haqida material to'plang va axborot tayyorlang.

8-topshiriq. Tasavvur qiling. Siz "To'g'ridan to'g'ri muloqot" rukni ostida intervyu tayyorlashingiz kerak. Qaysi mashhur insonlardan intervyu olgan bo'lardingiz? Suhbatni yozma shaklda bayon eting.

9-topshiriq. O'qing. Maqollarni daftaringizga ko'chirib yozing va eslab qoling.

1. Suv – oltindan aziz. 2. Suv – zar, suvchi – zargar. 3. Suv keldi – nur keldi. 4. Suvning qatrasi – oftobning zarrasi. 5. Elning hayoti yer bilan, yer hayoti suv bilan. 6. Ariqdan suv uzilmasa, savatdan non arimas. 7. Suv yil oqar, olamga gul taqar. 8. Suv

taralar tuproqqa, oro berar yaproqqa. 9. Tomchi suvda tol ko'karar. 10. Suvsiz yerda tol bo'lmas, qovoqarida bol bo'lmas. 11. Suvsiz yer – mozor, suvli yer – gulzor. 12. Suvsiz yer – jonsiz jasad. 13. Suvsiz yerga qush qo'nmas, o'tsiz yerga yurt qo'nmas. 14. Suvni qum tagidan qidir. 15. Qum bor joyda suv bor, suv bor joyda jon bor.

10-topshiriq. O'zbekistonning hayvonot va nabodot dunyosi haqida referat tayyorlang.

11-topshiriq. Gaplar tartibi ataylab o'zgartirilgan quyidagi matnni o'qing. Gaplarning haqiqiy tartibidagi o'rni berilgan, ularni o'z o'rniga qo'yib kochiring.

Alla ana shu qo'shiq hisoblanadi. Bola tug'ilgani zahoti dunyodagi eng mehr bilan aytiladigan qo'shiqni eshitadi. Sevimli shoirimiz Cho'lpon alla haqida shunday degan edi: "Bola tez uxlab qolar. Bir bola uxlamasa, alla aytadilar. Chunki ul andin bir lazzat his qilur". Keksalarimiz allaning sadolari bola ruhiga iymon, vataniga muhabbat, xalqiga hurmat, o'zi tug'ilgan oilaga izzat bo'lib quyilishini ko'p aytganlar. Bu ifoda allaning eng muhim fazilati-bola ruhida ta'siri aks etgan. Ayni chog'da bu so'zning "Alloh"dan olinganligi ham ta'kidlanadi. Alla atamasi olimlarning ta'kidlash-laricha, ovutib uxlatish ma'nosini berar ekan. Alla deyarli hamma xalq og'zaki ijodida bor .

12-topshiriq. Quyidagi qiziqarli ma'lumotlarni tarjima qiling.

Keyingi ellik yil ichida suvdan betartib foydalanish oqibatida Nil, Efrat, Tigr, Kolorado, Sirdaryo, Amudaryo, Chu va Il daryo-larining suv sathi keskin pasaydi.

Yer yuzining o'n foiz aholisi notoza suv iste'mol qilishi oqibatida aziyat chekyapti.

Bir tonna po'lat ishlab chiqarish uchun 120 kub metr, shuncha kimyo tola ishlab chiqarish uchun 2000 kub metr suv sarflanadi.

Qishloq xo'jaligida 1 kg don uchun 750 litr, 1 kg kartoshkaga 1500 litr, 1 kg guruch uchun 160-200 kub metr, 1 kg paxta tolasi uchun 75 kub metr suv ishlatiladi.

Yurtimizda har bir kishi uchun kuniga 160-200 litr suv sarflanadi.

13-topshiriq. Muloqotni tarjima qiling.

— Как ты думаешь, Рустам, почему исчезают на земле некоторые виды животных и растений?

— Главная причина, по-моему, в хищническом истреблении их человеком.

— А какие-нибудь меры для их сохранения принимаются?

— Конечно. Международный союз охраны природы и природных ресурсов учредил "Красную книгу". Она содержит краткие сведения о распространении, численности, биологии и мерах охраны редких видов животных и растений всего мира.

— А в нашей стране есть такая книга?

— Да. У нас тоже выпущена "Красная книга". В эту книгу включены 22 вида млекопитающих, 31 вид птиц, 5 видов пресмыкающихся и 5 видов рыб, обитающих в нашей стране. Эти животные подлежат полной охране. Многие растения, также занесённые в "Красную книгу", не подлежат сбору.

14-topshiriq. Quyidagi so'z birikmalari ishtirokida gap tuzing.

Hayvonot olami, o'simliklar dunyosi, go'sht va mo'yna, ondatra, qunduz, suvsar, nutra, tulki, qo'riqxona, sutemizuvchilar, o'rmon, chakalakzor, ayiq, bo'ri, olmaxon, burgut, kalxat, qarchig'ay, qumoy, tasqara, boltayutar, miqqiy, lochin, qarg'a, quzg'un, kaklik, qirg'ovul, parranda, tekislik.

15-topshiriq. Matnni o'zbek tiliga tarjima qiling va sarlavha toping.

Глобальные изменения климата и антропогенная (человеческая, хозяйственная, точнее – безхозяйственная) деятель-

ность совместно породили ряд экологических катастроф планетарного масштаба. Среди них – гибель Аральского моря, обезвоживание и опустынивание земель в его бассейне.

Исходя из существующих условий, с первых дней независимости непосредственно под руководством Первого Президента И. А. Каримова правительство страны обратило основное внимание на создание благоприятных условий для обеспечения охраны труда и здоровья. Основная цель экологической политики Республики Узбекистан в этом направлении — охрана природы и рациональное использование природных ресурсов, поддержка социально-экологических отношений между природой и обществом для обеспечения безопасной для жизни и здоровья человека экологической среды.

За сорок лет площадь акватории Аральского моря сократилась более чем в 7 раз, объем воды уменьшился в 13 раз. Засоление воды достигло в западной части моря 110–112 г/л, а в восточной 280 г/л. Море удалилось от берега на 120–200 км. На дне высохшего моря образовалась засоленная долина, общая территория которой составляет 45 тыс. кв. км. Вследствие кризиса водная поверхность озер сократилась со 100 тыс. га на 50 %, камышовые заросли со 120 тысяч гектаров до 15–20 тыс. га, тугаи с 300 тыс. га до 125 га. В результате высыхания Аральского моря и резкого повышения уровня его засоленности из 32 видов рыб, существовавших в море в 60-е годы, в настоящее время осталось только 6 видов.

Узбекистан, совместно с государствами Центральной Азии и при поддержке международного сообщества, предпринимает экстренные меры по приуменьшению негативных последствий этой экологической катастрофы.

16-topshiriq. Matnni o‘zbek tiliga tarjima qiling.

Легенда о природе и человеке

Человек устал от вечной борьбы с природой: от холода, голода, опасностей. И тогда пришел человек к Олимпу и

взмолился: «Неужели мне всю жизнь так мучатся? Неужели я никогда не смогу спокойно есть, мягко спать и жить в тепле? Неужели мне вечно воевать с этой проклятой природой?»

Боги услышали Человека и сказали ему: «Хорошо. У тебя будет все что ты просишь: еда, дворец, питье, одежда. Ты сможешь заниматься любимым делом: петь песни, рисовать картины, лепить скульптуры. Но за это ты должен отказаться от земли, на которой ты родился, и природы, которую ты только что проклял». Подумал Человек, согласился и получил всё обещанное.

Теперь Человек целыми днями пел песни, рисовал картины, лепил скульптуры и отдыхал. Но время шло, и Человек стал петь почему-то грустные песни. И стал он замечать, что глаза видят предметы, но сердце не видит красоты; уши слышат звуки, но сердце не слышит музыки; язык говорит слова, но сердце не слышит слов. И Человек понял, что он постепенно убивает свою душу. Как дерево без почвы, так и душа человека без родной земли, засыхает.

И тогда Человек ударился об стену, окружавшую его дворец, превратился в ветер и полетел к полям, лесам, рекам без которых душа становится глухой, слепой, немой.

19-MAVZU. INSON VA SALOMATLIK

Badantarbiya bilan mashg'ul bo'linsa, hech qanday dori-darmonga zarurat qolmaydi, buning uchun muayyan bir tartibga rioya qilmoq ham shart.
Abu Ali ibn Sino

O'zbekiston sporti



O'zbekistonda sport - davlat siyosati va bunyodkorlik faoliyatining muhim sohalaridan biri. O'zbekiston - alpomishlar eli. Xalqimiz minglab polvonlarni, el-yurtni hayratda qoldirgan o'g'lonlarni tarbiyalagan. Ularning dong'i atrof mamlakatlarga ham keng tarqalgan. Xorazmlik afsonaviy Pahlavon Mahmud, Ahmad polvon, Mahkam polvon kabi mashhur polvonlarning nomini xalqimiz chuqur hurmat bilan tilga oladi.

Mustaqillik tufayli O'zbekiston sportida yangi sahifa ochildi. Bu masalaga O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti Islom Karimov shaxsan diqqat-e'tibor qaratdi. Mustaqil O'zbekiston sportchilari bu g'amxo'rlik va otalarcha mehribonlikni oqlamoqdalar. Mustaqillik yillarida sport sohasida quyidagi tub o'zgarishlar amalga oshirildi:

a) 1991-yilgacha O'zbekistonda xalqaro andozalarga javob beradigan bironta sport inshooti yo'q edi. Endilikda bular mavjud va ularning yangilari yaratilmoqda;

b) avvallari yurtimizda xalqaro sport musobaqalari o'tkazilmagan bo'lsa, endilikqda har yili o'nlab xalqaro va mintaqaviy musobaqalar uyushtirilmoqda;

d) sport umumdavlat, umumxalq ahamiyatiga ega soha darajasiga ko'tarildi;

e) sport yosh avlodni sog‘lom qilib tarbiyalash vositasi ekanligi asosiy vazifa sifatida belgilandi;



f) sportning milliy turlarini tiklashga katta e’tibor berila boshladi va milliy o‘zbek kurashi xalqaro sport turlari qatoridan joy oldi;

g) O‘zbekiston sportchilari xalqaro musobaqalarda mustaqil jamoa sifatida chiqa boshladilar va O‘zbekiston nomini jahonga olib chiqdilar. 1991-yilgacha O‘zbekistonda faqat bitta grossmeyster (G.A’zamov) bor edi. Hozirgi kunda 10tadan ziyod grossmeyster o‘sib yetishdi, shu jumladan, Rustam Qosimjonov dunyodagi yuzdan oshiq eng atoqli grossmeysterlar orasida jahon chempioni darajasiga ko‘tarildi. 1992-yilda O‘zbekiston sportchilari turli xalqaro musobaqalarda hammasi bo‘lib 79 ta medal olgan bo‘lsalar, 2005-yilda ular 530 ta medal sohibi bo‘ldilar;

h) O‘zbekiston tarixida birinchi bor 1998-yilda O‘zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti I.A.Karimov tashabbusi bilan faqat buyuk sportchilarga beriladigan “O‘zbekiston iftixori” faxriy unvoni ta’sis etildi va yigirmaga yaqin sportchimiz bu faxriy unvonga sazovor bo‘ldilar;

i) o‘zbeklarning o‘ziga xos jismoniy xususiyatlari va ko‘r-satkichlari inobatga olinib, sportning, sportchining vazniga qarab toifalarga ajratadigan va og‘irlik toifalariga qarab olib boriladigan turlariga (kurash, sambo, taekvando, karate, boks, og‘ir atletika va boshqalar) birinchi navbatda e’tibor berildi.

1-topshiriq:

a) matnni o‘qing;

b) matnga munosabat bildirib so‘zlang. Oxirgi yillarda sport-chilarimiz erishgan yutuqlarni aytib bering;

d) quyidagi termin va iboralarning ma’nosini eslab qoling.

Chempion [ingl. champion < fr. champion - jangchi; kurashchi] - sportning biror turi bo'yicha shahar, viloyat, mamlakat yoki jahon birinchiligi uchun o'tkazilgan musobaqa g'olibi bo'lgan sportchi yoki sport jamoasi. *Bugun hammaning og'zida bir gap: Rustam Qosimjonov - shaxmat bo'yicha jahon chempioni!*

Boks [ingl. box - musht urish, zarb] - ikki raqibning maxsus qo'lqop kiyib, ma'lum qoidalar asosida yakkama-yakka musht-lashish musobaqasi. *Harbiyda boks sportiga qiziqib, razryad ham olibdi.*

Inshoot [qurilishlar, binolar] - turli maqsadlar uchun qurilgan binolar va ularning uskuna-jihozlari. *Gidrotexnik inshootlar.*

Taekvando [koreyscha: taz-oyoq, kvon - qo'l, do-yo'l: oyoq va qo'llarning harakat yo'li, usuli] - erkak va ayollarning o'z vazn toifalarida (yakka va jamoaviy), belgili qoidalar asosida, oyoq va qo'llar bilan zarbalar berishdan iborat sport kurashi turi. *Xalqaro taekvando federatsiyasi.*

Tashabbus [tirishqoqlik; barqarorlik, qat'iylik; g'ayrat, tashabbus] - biror ishga boshlovchi, da'vat etuvchi sa'y-harakat, g'ayrat. *Ilg'orlar tashabbusi bilan boshlangan musobaqa. Tashabbus ko'rsatib ishlamoq.*

Karate [yap. "hech narsasiz, yalang qo'l bilan"] - qurolsiz o'zini o'zi himoya qilishning yaponcha tizimi: raqib tanasining og'riydigan, eng nozik joylariga qo'l yoki oyoq bilan zarbalar berishga asoslangan sport turi. *Xalqaro karate federatsiyasi.*

Kurash - yiqitish, g'olib chiqish uchun ikki kishi o'rtasidagi, ma'lum qoidaga asoslangan olishuv, o'zaro bellashuv. *Milliy o'zbek kurashi xalqaro sport turlari qatoridan joy oldi;*

Sport [ingl. sport < disport - o'yin, o'yin-kulgi] - sog'liqni mustahkamlashga va jismoniy jihatdan har tomonlama o'sishga qaratilgan badantarbiya mashqlari, shular bo'yicha musobaqalar, kurash, turizm va sh. k. majmui; jismoniy madaniyatning tarkibiy qismi. *Sport umumdavlat ahamiyatiga ega soha darajasiga ko'tarildi.*

Sambo [samozahita bez orujiya - "qurolsiz o'zini himoya qilish" birikmasining qisqartmasi]-kurashning xilma-xil, samarali milliy usullarni qamrab olgan bir turi. *Sambo bilan shug'ullanmoq.*

Sog'lom - dard-kasaldan holi; sog'. Sog'lom odam. *Sport yosh avlodni sog'lom qilib tarbiyalash vositasi ekanligi asosiy vazifa sifatida belgilandi.*

Umumdavlat - davlat miqyosidagi, davlat uchun umumiy. *Sport umumdavlat ahamiyatiga ega soha darajasiga ko'tarildi.*

G'amxo'rlik - kimsa haqida qayg'urish, uning g'amini yeyish; g'amxo'r shaxsga xos ish, xatti-harakat. *Mustaqil O'zbekiston sportchilari bu g'amxo'rlik va otalarcha mehribonlikni oqlamoqdalar.*

Grossmeyster [nem. Grozmeister - katta usta] - shaxmat va shashka ustalariga beriladigan eng oliy unvon va shu unvonga ega bo'lgan shaxmatchi yoki shashkachi. *Rustam Qosimjonov dunyodagi yuzdan oshiq eng atoqli grossmeysterlar orasida jahon chempioni darajasiga ko'tarildi.*

Polvon [baquvvat, botir, qahramon, bahodir] - 1. Jismoniy jihatdan kuchli, baquvvat kishi; bahodir, pahlavon. 2. Kurash tushadigan sportchi. *Ahmad polvon, Mahkam polvon kabi mashhur polvonlarning nomini xalqimiz chuqur hurmat bilan tilga oladi.*

Pahlavon [qahramon, botir,] - barvasta va zabardast; jismoniy baquvvat, bahodir. *Pahlavon o'g'lon.*

2-topshiriq. "Salomatligimiz o'z qo'limizda" mavzusida esse yozing.

3-topshiriq. Salomatlik haqidagi o'zbek xalq maqollaridan namunalar yozing.

4-topshiriq. Mehnat xavfsizligi qoidalarini tuzing.

GRAMMATIKA

Reportaj tayyorlash

Axboriy publitsistikaning asosiy janrlaridan biri reportajdir. Reportaj so'zi lotincha ***"reportare"*** yetkazib berish degan ma'noni bildiradi. Reportaj-voqea, hodisalarni bevosita jonli aks ettiruvchi, tezkor yoritib beruvchi axboriy materialdir. Uning oddiy xabardan farqi shuki, xabarda hayotdan olingan fakt, voqea, hodisalar, umumiy, ya'ni, qayd etish tarzida bayon etilsa, reportajda fakt, voqea va hodisalar haqida bevosita, o'sha voqea, hodisa bo'lib o'tayotgan paytda, shu voqea va hodisalar yuz berayotgan joydan to'g'ridan to'g'ri xabar beriladi. Jonli tasvirlanadi hamda bu jarayonda jurnalist bevosita ishtirok etadi.

Reportaj axborotning o'ziga xos ko'rininshi bo'lganligi boisidan unda ma'lumot berish, xabardor qilish kabi xususiyatlar ham mavjud.

Reportaj aks ettirayotgan obyekti nuqtai nazaridan ***voqea(band) reportaji, muayyan mavzuga bag'ishlangan reportaj, muammoli reportaj, reportaj sharh*** kabilarga bo'linadi.

Voqea(band) reportaj hayotda yuz bergan biror muhim ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy yoki madaniy-ma'naviy voqea va hodisa haqida hikoya qiladi. Bunga parlament majlisi, hukumat rahbarlarining rasmiy safarlari va uchrashuvlari, yirik anjumanlar haqidagi reportajlar misol bo'la oladi.

Muayyan mavzuga bag‘ishlangan reportajlar esa hayotdagi muyyan sohalarga, masalalarga bag‘ishlangan bo‘ladi. Masalan, reporter jamiyat hayotidagi biror bir mavzu, masalan, biror shifoxonaning faoliyati, ilmiy muassasalarda olib borilayotgan ilmiy tadqiqot ishlari va boshqa mavzularni o‘rganib, o‘sha joylardan reportaj olib borishlari mumkin.


Muammoli reportaj esa hayotning ma’lum bir ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy yoki madaniy-ma’naviy muammolarni yoritishga bag‘ishlangan bo‘ladi. Masalan, jurnalist hayotda uchraydigan giyohvandlik, ichkilikbozlik yoki biror boshqa noxush hollar haqida maxsus reportajlar tayyorlashi mumkin. Bunda u shu sohadagi faktlarni chuqur o‘rganib, tahlil qilib, bu muammolar haqida jamoatchilik fikrini uyg‘otishi mumkin.

Reportaj-sharh biror voqeani boshdan oyoq tasvirlash, ko‘rsatishga bag‘ishlanadi va o‘sha voqeani sharhlab beradi. Bunga sport eshittirishlari, futbol sharhini misol keltirish mumkin.

5-topshiriq. “Xalq so‘zi” gazetasining 2019-yil sonida bosilgan reportajni o‘qib o‘rganing. Reportajning janr xususiyatlariga e’tibor bering va tahlil qiling.

6-topshiriq. Reportaj haqidagi nazariy bilimlarni o‘zlashtirib, muammoli reportaj tayyorlang.

7-topshiriq. Reportaj turlarini Venn diagrammasidan foydalanib taqqoslang va tahlil qiling.



8-topshiriq. Reportajning janr xususiyatlaridan foydalanib sport musobaqalari, futbol, tennis, boks va boshqa sport o'yinlari haqida reportaj tayyorlang.

9-topshiriq. Tabobatga doir quyidagi hadislarni o'qing va mag'zini chaqing.

Surma ko'zni ravshan qilib, kipriklarni o'stiradi.

Bir joyda vabo kasali bor deb eshitsalaring, o'sha joyga kirmanglar. Agar sizlar yashayotgan joyga vabo kelsa, o'sha yerdan qochib chiqib ketmanglar.

Ko'pi mast qiladigan ichimliklarning ozidan ham sizlarni qaytaraman.

Safar qilinglar, sog'lom va rizqu nasibali bo'lasizlar.

Ey Tangrining bandalari! Bemorlaringizni davolatinglar, zero, Tangri har dardning davosini ham yaratgan, faqat keksalikning davosi yo'qdir.

Betobligingda seni ko'rgani kelmagan odamni sen borib ko'raver.

Senga xayru ehson qilmagan odamga sen ehson qilaver. Insonga bir vodiy to'la molu dunyo berilsa, u ikkinchi vodiyning ham berilishini xohlaydi. Ikkinchisidan keyin uchinchisini va hokazo, uning nafsi to'ymaydi. Insonning ko'zini faqat tuproq (qabr tuprog'i) to'ydiradi. Kimki tavba qilsa, Tangri uni kechiradi.


Odam tanasida qorindan yomonroq idish yo'qdir. Inson bir necha osham ovqat bilan kifoyalanadi. Agar zarur bo'lsa, qorinning uchdan birini ovqatga, yana uchdan birini suvga, qolgan uchdan birini nafas olishga ajratsin.

Bemorni ko'rgani borganda uning peshanasiga qo'lni qo'yib hol-ahvol so'rash barkamol ziyorat hisoblanadi. Qo'l berib ko'rishib salomlashish mukammal bo'ladi.

10-topshiriq. Gaplarni ko'chiring. Donolarning salomatlik haqidagi fikrlarini yod oling.

1. Jismoniy mashqlar bilan doimo mo'tadil shug'ullanib borgan kishi hech qanday davoga muhtoj bo'lmaydi. *(Ibn Sino*). 2. Odamning salomatligi tashqi sharoit bilan chambarchas bog'langan. *(Ibn Sino).* 3. Agar havoda chang va tuman bo'lmasa edi, kishi ming yil yashagan bo'lardi. *(Ibn Sino).* 4. Olti narsa kishi yuzini o'zgartiradi: kutilmagan shodlik, birdan kelgan g'am, g'azab, uyqu, mastlik va qarilik. *(Kaykovus).* 5. Ko'p demak birla bo'lmag'il nodon, ko'p yemak birla bo'lmag'il hayvon. *(A.Navoiy).* 7. Badan rohati sog'liqda, aql rohati bilimda. (Fales). 8. Kasal bo'lmagan uncha sog'liqning qadriga yetmaydilar. *(Fuller).* 9. Har bir istakning tub maqsadi - sog'liqdir. *(At-Tabariy).* 10. Isitma - shifo beruvchi jarayondir. *(Kullen).* 11. Men hayotda ikkita baxtsizlikni bilaman: u ham bo'lsa vijdonsizlik va bemorlikdir. *(L.N.Tolstoy).* 12. Bizning xatomiz shundaki, o'z salomatligimiz haqida faqat uni yo'qotganimizda, ya'ni mexanizm sinib, uni tuzatish kerak bo'lgandagina qayg'uramiz. *(K. Bikov).* 13. Umringni uzaytirishni istasang, taomni kamaytir. *(V. Franklin).*

11-topshiriq. "Nima uchun? " sxemasini to'ldiring.



12-topshiriq. Jahon meditsinasi yutuqlari haqida taqdimot tayyorlang.

13-topshiriq. Matnni o'qing. O'zingizni fe'l-atvoringiz haqida so'zlab bering.

Kishi fe'li va qon

Olimlar fikricha, qon guruhi kishining fe'l-atvori va o'ziga xos xususiyatlarini belgilaydi. Bu fikrni yapon olimi Poshitakening millionlab kishilar hayotini o'rganish xulosalari tasdiqlaydi.

Nomi o'rganilib, xulosa qilgan qon guruhlari bo'yicha kishilarning fe'l-atvorlari quyidagicha:

Birinchi guruh: siz peshqadamlikka o'chsiz. Oldingizga qo'ygan maqsadga erishmaguncha tinchimaysiz. Olg'a harakat qilishda to'g'ri yo'nalish belgilay olasiz. O'z kuchingizga ishonasiz, lekin ehtiroslardan ham holi emassiz. Kamchiliklaringiz ham bor. Siz o'ta rashkchi va shoshqaloqsiz. Bundan tashqari, siz juda izzattalabsiz.

Ikkinchi guruh: siz muvozanat, osoyishtalik va tartib-intizomni yaxshi ko'rasiz. Odamlar bilan yaxshi ishlay olasiz. Bundan tashqari, siz ta'sirchan, madaniyatli va ochiqko'ngilsiz. Sizning kamchiliklaringiz o'jarligingiz va asablaringizni boshqara bilmasligingizda.

Uchinchi guruh: siz shakllangan shaxsiyatparastsiz, o'z xohishi bo'yicha ish qiluvchisiz. Hamma narsaga tez moslasha olasiz, xayolparastlikdan uzoqsiz. Lekin sizning o'zboshimchalik bilan ish qilishingiz ba'zi vaqtda xalaqit qilishi mumkin.

To'rtinchi guruh: siz tinch va xotirjamsiz, kishilar sizni sevadilar va siz bilan o'zlarini erkin his qiladilar. Ularning vaqtini choq qilishni bilasiz. Lekin ayrim vaqtlarda qiziqqonsiz. Ba'zan esa uzoq vaqt ikkilanib, bir qarorga kelishga qiynalasiz.

Bilasizmi...

Odam tanasida 80 grammga yaqin temir, 150 gramm natriy, 1000 gramm kalsiy, 60 gramm magniy, 65 foiz, ya'ni umumiy og'irlikning 45 kg. miqdorida kislorod, 10 foiz – 7 kg. miqdorda vodorod, 0,02 foiz ftor bo'ladi.

Inson o'rtacha 70 yil umr ko'rsa, shundan 23 yilini uxlash, 13 yilini kishilar bilan so'zlashish va 6 yilini ovqatlanish uchun sarf qilar ekan.

Bir kishi o'rtacha iqlim sharoitida yil davomida bir tonnaga yaqin suv iste'mol qiladi.

14-topshiriq. "Sport – tinchlik elchisi" mavzusida insho yozing.

15-topshiriq. Ibn Sinoning "Tib qonunlari" asari asosida taqdimot tayyorlang.

16-topshiriq. Matnni o'qing. Tarjima qiling. Matnning asosiy mazmunini o'zbek tilida gapirib bering.

Притча

«Знаменитый греческий философ Диоген 2500 лет назад расхаживал по улицам Афин с фонарем. На вопросы прохожих, что же он ищет днем с огнем, Диоген отвечал: «Ищу человека!» Странно, но ведь улицы древнего города были полны народа: старики и дети, мужчины и женщины, торговцы, богатые и бедные… И каждый из них был человек….».

Как вы думаете, что же имел в виду Диоген под словами «Ищу человека»? (ответы студентов)

Вывод: Диоген искал не просто человека. Он искал особенного человека, не такого как все. А в окружающих его людях философ видел обычных людей, индивидов, представителей рода человеческого «homo sapiens». Я умышленно не повторяю вашу версию о личности. А знаете почему? Тогда, две с половиной тысячи лет назад Диоген не мог так ответить, так как слово «личность» от латинского «persona» первоначально обозначало маску - «личину», в которой выступал актер античного театра. И лишь позднее существенно изменило свое значение. А какие у вас есть ассоциации со словом личность?

17-topshiriq. Matnni o'qing. Tarjima qiling. Matnga nom bering.

Каждый человек представляет собой неповторимую индивидуальность, поэтому характер деятельности человека может быть различным. Отсюда и появляется понятие свободы личности в коллективе. Личность будет подлинно свободной, если открыты перспективы для её развития и существуют возможности для её полноценной деятельности. В коллективе, который создан на основе общности интересов и идей его членов, свобода личности не только возможна, но и необходима.

Все члены коллектива имеют определенные обязанности.

Сплоченный коллектив может влиять на поведение человека, на раскрытие индивидуальных способностей. Если во взаимоотношениях между членами коллектива присутствует доброжелательность, взаимопомощь, то в таком коллективе легко учиться и работать, быстрее решать все проблемы, строить деловые контакты.

Для того чтобы коллектив был дружным и сплоченным, требуется много времени и усилий, но единство поставленных целей, общая работа приводят к желаемым результатам. "На общем хирмане и ветер общий: в одну сторону дует, в одну сторону веет", - гласит народная мудрость.

Коллектив - это не случайное сборище, а группа людей, объединенных общей целью, общими задачами.

В каждом коллективе всегда есть человек, к мнению которого прислушиваются особенно внимательно. Он является авторитетом для всех членов коллектива и от него зависит обстановка в нем.

Авторитет человека складывается из доброжелательности, честности и принципиальности, глубоких знаний, разносторонних интересов, умения организовать и повести за собой людей. С мнением такого человека считаются и его мнением дорожат.

20-MAVZU. HUQUQIY MADANIYAT

Konstitutsiya hamda qonun talablariga
og'ishmay amal qilish ma'naviy saviyamiz,
madaniyatimizning asosiy mezoniga aylanishi shart.
Shavkat Mirziyoyev

MADANIYAT

MADANIYAT (arabcha "madiniyat"- Madina shaprida VII asrdan boshlab targ'ib etila boshlagan yangi dunyoqarash tarafdorlari va ularning izdoshlarining qarashlari, nuqtai nazarlari va amaliy xatti-harakatlari majmui; Madina shahrida tarbiya ko'rishlik).

Madaniyat moddiy va ma'naviy ishlab chiqarish, ijtimoiy va o'zaro munosabatlar, siyosat, oila, axloq, xulq, huquq, ta'lim, tarbiya, ijod, ilm-fan, xizmat ko'rsatish, turmush tarzi kabilar bilan bog'liq keng qamrovli voqeadir. Shuning uchun u jamiyat bilan birga rivojlanadi, jamiyatning taraqqiyot darajasini aks ettiradi.

Jamiyatdan tashqarida madaniyat yo'q. Ijtimoiy munosabatlardagi har qanday o'zgarish madaniyatga ta'sir etadi va u bu munosabatlarning qanday natijalarga olib kelishidan xabar beradi. Shu boisdan madaniyat nafaqat o'tmishga yoki bugunga, shu bilan birga, kelajakka munosabatdir.

Madaniyat barkamol insonni shakllantirish vositasi hamdir. Bu vazifani bajarishga keng tarmoqli madaniyat o'choqlari: madaniyat uylari va saroylari, kutubxonalar, muzeylar, teatrlar, ma'naviyat va ma'rifat markazlari, madaniyat va istirohat bog'lari, bolalar va o'smirlar ijodi markazlari, ommaviy axborot vositalari, nashriyotlar safarbar etilgan. Keyingi yillarda ular safida milliy-madaniy markazlar, xalq amaliy san'ati bilan shug'ullanuvchi kichik korxonalar, xalqaro madaniy-ma'rifiy markazlar, firmalar va xususiy ustaxonalar ochilishi xalq ommmasining ijtimoiy-madaniy hayotda faol ishtirokini ta'minlaydi.

Madaniyat masalalari mustaqil O'zbekistonda eng muhim va dolzarb sohalardan biridir. Rivojlangan davlat bo'lish uchun jamiyatimizda eng yetishmaydigan omil madaniyatdir. Bu - ishlab chiqarish madaniyati, turmush madaniyati, xizmat ko'rsatish madaniyati, muomala madaniyati, ekologiya madaniyati, bola tarbiyasi madaniyati.

Yuksak madaniyatsiz rivojlangan davlat bo'lishi mumkin emas.

HUQUQIY MADANIYAT

HUQUQIY MADANIYAT - umumiy madaniyatning muhim qismi bo'lib, quyidagi asosiy tarkibiy qismlarni o'z ichiga oladi:

1. Davlat tomonidan xalq va jamoat birlashmalari nuqtai nazarlarini ham ifodalovchi huquqiy siyosatning ishlab chiqilishi va amalga oshirilishi. Bu siyosat davrning ruhini huquqda ifodalashi lozim. Masalan, mustaqillik va bozor munosabatlari bilan bog'liq masalalar va vazifalar huquqiy siyosatdagi bosh yo'nalishlardandir.

2. Yuksak darajada rivojlangan yuridik fanlarning bir qismi bo'lib, u davlat va huquqiy madaniyatning muhim qismidir.

3. Keng va faol huquqiy ong huquqiy madaniyatning bir qismi bo'lib, u davlat va huquqiy ruhiyat va huquqiy mafkura jiddiy o'rin tutadi.

4. Huquqiy madaniyat - bu insonlarning davlat va huquq haqidagi muhim bilimlarni egallab olganlik darajasidir.

5. Ilgari erishilgan va to'plangan barcha huquqiy tajriba, huquqiy yodgorliklar va ularning ommaga tarqatilishi huquqiy manbalar huquqiy madaniyatning asosini tashkil etadi.

6. Amaldagi me'yoriy huquqiy hujjatlar: Konstitusiya, qonunlar, kodekslar, farmonlar, qarorlar va boshqa huquqiy manbalar huquqiy madaniyatning asosini tashkil etadi.

7. Huquq ijodkorligi madaniyati, huquq me'yorlarini yaratish masalasi, yuridik texnika darajasi, masalan, deputatlar va apparat xizmatchilarining huquqqa yondashuvi qanchalik yuqori va xolisona bo'lsa, huquqiy madaniyat ham shunchalik yuksak bo'ladi.

8. Huquqni amalga oshirish ishlarining tashkil etilishi qanchalik yuqori bo'lsa, u huquqiy madaniyatga ham o'z ijodiy ta'sirini ko'rsatadi va aksincha.

9.Huquqiy madaniyatning yana bir qismi - huquqni amalga oshiruvchi davlat idoralari va mansabdor shaxslarning huquq me'yorlari talablari darajasida hamda doirasida o'z huquqi, burchlarini bajarishi, ularni anglab olishidir.

10. Mamlakatning davlat va jamiyat hayotidagi qonunchilik darajasi, hammaning qonun va sud oldida tengligi huquqiy madaniyatning ajralmas qismidir.

Huquqiy madaniyatni muntazam boyitib borish uchun quyidagilar o'ta muhim ahamiyat kasb etadi:

- yuksak malakali sud-adliya kadrlarni tayyorlab borish; barcha oliy va o'rta maxsus o'quv yurtlarida, maktab, litsey va kollejlarda huquq haqidagi bilimlarni o'rgatish-o'rnatish, mazkur fanlardan imtihonlar joriy etish, radio, televidenie, vaqtli matbuotda huquqiy bilimlarni keng targ'ib va tashviq qilish:

- aholining mustaqil ravishda huquqiy bilimlarni o'rganishi uchun qonun hujjatlarini muntazam chop etib borish; sud, prokuratura, militsiya organlarining ish tajribasi ommalashtirib borish; adliya va huquqshunoslik fanlarini rivojlantirish, oshkoralikni ta'minlash; boshqa davlatlarning huquqiy tajribasini o'rganish va ulardan foydalanish; badiiy adabiyotda, san'atda huquqiy bilimlarni tarqatish; huquqiy xulqni rag'batlantirish. Xullas, huquqiy madaniyat inson madaniyatining muhim qismi, ular bilan o'zaro bog'liqdir. Huquqiy madaniyat tarixan asta-sekin shakllangan ijtimoiy voqea bo'lib, hozirgi davrda rivojlangan huquqiy davlatlarning va ular fuqarolarining zaruriy xislati va taraqqiyot omiliga aylandi. Rivojlangan mamlakatlar bu borada sezilarli yutuqlarga erishdilar va ularning har bir fuqarosi har bir masalada qonunlarga suyanib ish olib boradi, o'z haq va huquqlari davlat yoki ayrim shaxslar tomonidan buzilgan taqdirda, ularning darajasi va mavqeidan qat'iy nazar, sud orqali adolatli yechimga erishadi.

1-topshiriq:

a) matnni o'qing;

b) matndagi termin va iboralarning ma'nosini izohlang;

d) matndagi asosiy fikrni so'zlab bering.

GRAMMATIKA

Rasmiy-idoraviy uslub va uning xususiyatlari

Rasmiy-idoraviy nutq uslubi jamiyatdagi ijtimoiy-huquqiy munosabatlar, davlat va davlatlararo rasmiy, siyosiy-iqtisodiy, madaniy aloqalar uchun xizmat qiluvchi uslubdir. Bu uslub hujjatchilik xarakteri bilan ajralib turadi. Shunga ko'ra, yozma nutqning xizmatga doir bu turi davlat qonunlari, farmonlar, bayonotlar, shartnomalar, idora hujjatlari, e'lonlar va boshqa rasmiy yozishmalar uslubi hisoblanadi. Rasmiy uslub tilining asosiy xususiyati aniqlik va ixchamlikdir, unda muayyan nutqiy qoliplar, kasb-hunar so'zlari, atamalar, tayyor sintaktik qurilmalar keng qo'llanib, nutqning aniq va ravshan ifodalanishini ta'minlaydi. Tayyor nutq qurilmalari (shu asosda: *shunga ko'ra; ma'lum qilamizki; ...ni e'tiborga olib; ...ga ko'ra; ...biz, quyida imzo chekuvchilar, ...ga asosan (muvofiq); ...uchun, ...dan kelib chiqib; ...sharti bilan; ...berilsin, ...taqdirlansin* kabi) hujjat matnining darak hikoya xarakterida bo'lishini, so'zlarning bir ma'noda ishlatilishini, badiiy-tasviriy vositalarning bo'lmasligini, fe'lning majhullik va buyruq-istak shakllarining, qo'shma gap turlarining keng qo'llanishini talab qiladi. Til materiali hujjatning turi va xarakteriga qarab tanlanadi. *Yozma nutqning rasmiy uslubida, asosan, quyidagi munosabatlar doirasidagi hujjatlar tuziladi:*

1. *Huquqiy munosabatlarga oid:* qonun fuqarolik va jinoyat aktlari, nizom, shartnoma va boshqalar.

2. *Idoraviy-ma'muriy shaklga oid:* dalolatnoma, buyruq va farmoyishlar, turli ish qog'ozlari (ariza, tavsiyanoma, tilxat, ma'lumotnoma kabi).

3. *Diplomatik munosabatlarga doir:* bayonot, nota, bitim, memorandum va boshqalar.

Sharqona demokratiya

Demokratiya - ma'naviy mezonlar asosida boshqariladigan, kuchli huquqiy davlat, kuchli fuqarolik jamiyati demakdir.

Sharqona demokratiya - demokratiya tushunchasining ajralmas tarkibiy qismi bo'lib, Sharq mamlakatlari, asosan, aholisining ko'pchilik qismi musulmon ma'naviyatidan bahra olgan hududlarga xos bo'lgan demokratik qoidalar majmuining o'ziga xos shakl va mazmunda namoyon bo'lishidir. Sharqona demokratiya milliy bosiqlik, andisha, yoshi ulug'larga hurmat, o'zaro maslahat, har qanday keskin masalada ham tomonlarning kelishuvlariga asoslanadigan faoliyatdir. Ana shu xususiyatlari bilan ushbu ijtimoiy tushuncha G'arb demokratiyasidan farq qiladi. Bundan tashqari, sharqona demokratiya, siyosiy tartibsizliklar, boshboshdoqlik va mitingbozlikni milliy manfaatlarga zid deb qaraydi hamda jamiyat va davlatning ichki masalalari - har qanday fundamentalistik va qurolli kuchlarga asoslangan harakatlarni qoralagan holda o'z faoliyatini o'ziga xos madaniyat tamoyillari asosida yo'lga qo'yadi.

Mustaqil O'zbekistonda Sharq demokratiyasini tiklash, asoslash va hayotga tatbiq etish bo'yicha katta ishlar bajarilmoqda. Chunonchi, ajdodlarimiz tarixiy tajribasi inobatga olingan holda bugungi kunda mukammal shakl kasb etgan sharqona demokratiya qoidalariga asoslangan kuchli ijtimoiy siyosat tufayli respublikamiz umumjahon miqyosida o'z o'rni va mavqeiga ega bo'lib, yildan-yilga iqtisodiy yuksalish sari dadil odimlar bilan qadam tashlamoqda. Bu, albatta, jumladan, sharqona demokratiya qoidalariga asoslangan siyosat natijasidir.

Demokratiyaga o'tmish saboqlari va hayot tajribasi asosida izchil-ilmiy qarash shundan iboratki, umuminsoniy nuqtai nazardan haqiqatan ham demokratiya bitta: ammo bu birlik shuning uchun ham hayotiyki, u milliy sharoitlar, mintaqaviy xususiyatlar va qit'aviy farq-tafovutlarni inobatga oladi, ya'ni kishilarning, jamiyatning amaliyoti bilan chambarchas bog'langan. Barcha mamlakatlar, hamma xalqlar demokratiyaga intiladilar, demokratik tartib-qoidalarni o'zlarining muayyan sharoitlarida qo'llash va

turmushga tatbiq etishning eng ma'qul yo'llarini va usullarini topishga harakat qiladilar. Ana shu jahon bo'ylab borayotgan ommaviy harakat o'zining muayyan shakl va mazmuniga ega ko'rinishlarini beradi. Shu ko'rinishlardan biri sharqona demokratiyadir.

Sharqona demokratiyaning mustaqil O'zbekistonda qo'llanila boshlashi xalqimiz tomonidan katta ko'tarinkilik bilan qabul qilindi.

2-topshiriq:

a)matnni o'qing;

b) reja tuzing;

d) tuzgan rejangiz asosida matnning mazmunini so'zlab bering.

3-topshiriq. Matn qaysi nutq uslubida tuzilganligini aniqlang.

Fuqarolarning asosiy huquq va burchlari

Fuqarolarning asosiy huquqlari - jahondagi rivojlangan, ma'rifatparvar, demokratik davlatlarda xalqlarning huquqiy va haqiqiy tengligini, har bir fuqaroning erkinligini ta'min etish bo'yicha tajribasini o'rganish natijasida O'zbekistonda fuqarolarning huquqlari va burchlari aniqlandi. Mustaqil O'zbekistonning demokratik mohiyati, avvalo, uning xalq manfaatlarini himoya qilishida namoyon bo'lmoqda. Inson huquqlarini va erkinliklarini rivojlantirish va takomillashtirish mamlakat ijtimoiy-siyosiy hayotining asosiy tamoyilidir. Shu ma'noda, Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov: "O'zbekiston - kelajagi buyuk davlatdir. Bu insonparvarlik qoidalariga asoslangan, millati, dini, ijtimoiy ahvoli, siyosiy e'tiqodlaridan qat'iy nazar fuqarolarning huquqlari va erkinliklarini ta'minlab beradigan davlatdir", deb aytib o'tganlar. O'zbekiston fuqarolarining o'z mustaqil davlatiga mansubligi, unga nisbatan O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida va qonunlarida belgilangan huquq, erkinlik va burchlarning joriy etilishi, ularning qonuniy huquq va manfaatlarini davlat tomonidan qo'riqlanishida o'z ifodasini topadi va ular uch guruhga bo'linadi:

I. Ijtimoiy-iqtisodiy huquqlar: mehnat qilish, dam olish, bilim olish, moddiy ta'minot kabi huquqlardan iborat.

II. Siyosiy huquq va demokratik erkinliklar: fuqarolarning jamoat birlashmalariga, siyosiy partiyalarga uyushish huquqi, saylash va saylanish huquqi, so'z va matbuot erkinligi, majlis va mitinglar, namoyishga chiqish huquqlaridan iborat.

III.Uy-joy daxlsizligi, shaxsiy huquqlar.


Bu huquq va erkinliklar O'zbekiston davlatida fuqarolar erkin rivojlanishining asosiy omilidir.

Eslab qoling!

Huquqiy madaniyat— bu qonunni tushunish, bilish, hayotga tatbiq etish, ijrosini ta'minlash, har bir shaxsning, fuqaroning ijtimoiy hayotda faol ishtiroki va bunday faollikni boshqalardan ham talab qilish jarayoni.

4-topshiriq. "Qanday?" sxemasini to'ldiring.


Davlatimiz qurayotgan huquqiy, demokratik jamiyatni mustahkamlash uchun "Qanday?" chora-tadbirlarni amalga oshirishimiz kerak?



5-topshiriq. O‘z huquq va erkinliklaringizni bilasizmi? Shu haqda o‘rtog‘ingiz bilan suhbatga kirishing.

6-topshiriq. “Baxtimiz qomusi” mavzusida insho yozing.

7-topshiriq. Venn diagrammasi asosida G‘arb va Sharq demokratiyasining o‘xshash va farqli jihatlarini taqqoslang va tahlil qiling. Fikrlaringizni daftaringizga yozing.



8-topshiriq. Matnni o‘qing, yozma tarjima qiling.

Burch va sadoqat quyida ayniqsa namoyon bo‘ladi:

- Ona Vatanni himoya qilish - fuqarolik burchi;
- fidoyilik ko‘rsatib mehnat qilish - vatanparvarlik burchi;
- yurt chiroyiga chiroy qo‘shish, uning boyligi yo‘lida fidoyilik ko‘rsatib mehnat qilish - vatanparvarlik burchi;
- ota-onaga sadoqat va ularga xizmat qilish - farzandlik burchi.

Sadoqat bilan burchni tarixda yashab o‘tgan ulug‘ kishilar bag‘oyat qadrlaganlar, kishidagi eng oliyjanob fazilat deb bilganlar. Masalan:

“O‘z burchingni ado et, o‘sha zahoti o‘zingni anglaysan”. *(I.Gyote).*

Burchingni unutma, u yagona dil navosidir. Burchsiz hayot ham, ehtiros ham yo‘q. *(A. Blok).*

9-topshiriq. Umumxalq leksikasiga kirgan huquqiy terminlar lug‘atini tuzing.

10-topshiriq. Savollarga javob bering.

1. O‘zbekiston konstitutsiyasi qachon qabul qilingan?
2. Konstitutsiyamizdagi qaysi modda boshqa hech bir mamlakat konstitutsiyasida berilmagan?
3. Demokratiya nima?
4. O‘z huquq va erkinliklaringizni bilasizmi?
5. El-yurt oldidagi burchingiz nimalardan iborat?
6. Ota-ona oldidagi burchingizchi?
7. Huquqiy madaniyat nima?
8. Dushmandan xavfliroq kim?

11-topshiriq. Matnni o‘qing. Matn mazmunini o‘zbek tilida qisqartirib yozing.

Национальная экономика

Место и роль каждой страны в мировом хозяйстве определяется размером экономического потенциала и уровнем развития ее экономики. Экономический потенциал страны – это ее экономическая мощь, выражающаяся в объеме и качестве производимых товаров и услуг, и в накопленных материальных и иных ценностях. Характеризует экономический потенциал страны целый ряд показателей, ведущими из которых являются валовый национальный продукт и национальное богатство.

Валовый национальный продукт экономики страны – это размер всех произведенных в ней товаров и услуг в денежном выражении. Национальный доход – это вновь созданная за год стоимость, характеризующая, что прибавило производство данного года к благосостоянию страны. Национальный доход подразделяется на два фонда: потребления и накопления. Фонд потребления – часть национального дохода, обеспечивающая удовлетворение материальных и культурных потребностей общества в целом (образование, оборону и т.п.). Фонд накопления – часть национального дохода страны, обеспечивающая развитие производства.

Национальное богатство страны – совокупность созданных трудом общества и накопленных на ее территории материальных ценностей. В национальном богатстве воплощаются накопленные всеми предшествующими поколениями материальные блага и результаты текущего производства. Чем выше уровень экономического развития страны, тем активнее и многообразнее формы ее внешнеэкономических связей. Следовательно, участие страны в международных экономических отношениях отчасти также может характеризовать уровень ее экономического развития.

12-topshiriq. Matnni o'qing. Matn mazmunini o'zbek tilida gapirib bering.

Стратегия развития Республики Узбекистан

Президент Республики Узбекистан Шавкат Мирзиёев своим указом утвердил Стратегию действий по пяти приоритетным направлениям развития Республики Узбекистан в 2017-2021 годах. Стратегия рассчитана на пять лет и включает пять основных направлений: 1) совершенствование системы государственного и общественного строительства, 2) верховенство закона, реформирование судебно-правовой системы, 3) развитие и либерализация экономики, 4) развитие социальной сферы, 5) безопасность, религиозная толерантность и межнациональное согласие, внешняя политика.

Главным направлением экономических преобразований являются, в частности:

- обеспечение устойчиво высоких темпов роста валового внутреннего продукта;
- обеспечение сбалансированности Государственного бюджета на всех уровнях с сохранением социальной направленности расходов;
- дальнейшее совершенствование денежно-кредитной политики, а также поэтапное внедрение современных рыночных

механизмов валютного регулирования, обеспечение стабильности национальной валюты;

- углубление реформирования и обеспечение устойчивости банковской системы;
- дальнейшее развитие международного экономического сотрудничества;
- проведение активной инвестиционной политики;
- освоение выпуска принципиально новых видов продукции и технологий;
- создание новых и повышение эффективности действующих свободных экономических зон, технопарков, малых промышленных зон;
- обеспечение надежной защиты прав и гарантий частной собственности;
- создание благоприятной деловой среды для широкого развития малого бизнеса и частного предпринимательства, строгое пресечение незаконного вмешательства государственных, правоохранительных и контролирующих органов в деятельность предпринимательских структур;
- совершенствование инвестиционного климата;
- сокращение роли государства в регулировании социально-экономического развития страны.

21-MAVZU. O‘ZBEKISTONDA OLIY TA’LIM

Bizning muqaddas vazifamiz - Vatan shonu shuhrati, qudrati va salohiyatining yuksalishi uchun o‘zimizning fidoyi mehnatimiz bilan munosib hissa qo‘shishdir.

Islom Karimov

O‘zbekistonda Oliy ta’lim



O‘zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti I.A.Karimov ta’lim jarayonini isloh etish va mehnat bozorida talab qilinadigan yuqori malakali kadrlar tayyorlashda oliy o‘quv yurtlarining o‘rni muhimligini ta’kidlagan edi. “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonun va Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi ijodkor, ijtimoiy faol, ma’naviy jihatdan boy shaxsni shakllantirish hamda yuqori malakali, raqobatbardosh malakali kadrlarni tayyorlashdan iborat strategik maqsadga erishish uchun nazariy asos bo‘ldi va zamin yaratdi.

Kadrlar tayyorlash tizimida ta’limni tubdan isloh qilish hamda zamonaviy innovatsion texnologiyalarni samarali qo‘llash yo‘lida oliy ta’lim muassasalarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, zamonaviy texnika, o‘quv-laboratoriya jihozlari bilan ta’minlash, davlat ta’lim standartlarini takomillashtirish, yangi o‘quv adabiyotlarini yaratish, eng asosiysi, kadrlarning kasb malakasi va mahoratini oshirishga qaratilgan innovatsion texnologiyalar asosida samarali ta’lim tizimini shakllantirish va rivojlantirish yo‘llarini ishlab chiqish zaruriyati ortmoqda. Milliy ta’lim tizimini isloh etishda innovatsion jarayonlarni qo‘llashni faollashtirish va samaradorlikni oshirish masalasini hal etmay turib muvaffaqiyatga erishib bo‘lmaydi.

O‘zbekiston Respublikasi birinchi Prezidentining Oliy ta’lim tizimiga oid qator farmon va qarorlari, Vazirlar Mahkamasining 60 dan ortiq qaror va farmoyishlari, shuningdek, Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi vakolatiga kiruvchi masalalar yuzasidan me’yoriy-uslubiy hujjatlar qabul qilindi. Oliy ta’lim sohasida orttirilgan tajribalar asosida O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligidagi me’yoriy-huquqiy hujjatlari doimiy ravishda takomillashtirilmoqda.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, bugungi kunda oliy ta’lim tizimida malakali va raqobatbardosh kadrlarni tayyorlash dolzarb ijtimoiy-iqtisodiy masala bo‘lib, oliy ta’lim tizimida mutaxassislarni tayyorlash jarayoniga o‘quv-tarbiya faoliyatini tashkil etishning yangicha yondashuvlarini joriy etish, “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonunga muvofiq ta’limni boshqaruv organlarining vakolat sohalari aniqlanmoqda. Ta’limning me’yoriy-huquqiy asoslari rivojlanmoqda. Ta’lim muassasalarining ta’lim jarayonini tashkillashtirish va moliyaviy-xo‘jalik faoliyatini yuritishdagi huquq va erkinligini kengaytirish ta’minlanmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2017-yil 20-apreldagi PQ-2909-son qarorini ijro etish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2017/2018 o‘quv yilida O‘zbekiston Respublikasining oliy ta’lim muassasalariga o‘qishga qabul qilish to‘g‘risida”gi qarori qabul qilindi.

Shuningdek, ushbu hujjatda maxsus sirtqi bo‘lim negizida ishlab chiqarishdan ajralmagan holda bilim olishni ta’minlash ham belgilab qo‘yildi. Bundan tashqari, ushbu qaror bilan 2017/2018 o‘quv yilidan boshlab Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahri hokimliklari buyurtmalariga binoan, yuqori malakali tibbiyot kadrlariga ehtiyoj katta bo‘lgan hududlar uchun O‘zbekiston Respublikasining tibbiyot oliy ta’lim muassasalariga davlat grantlari asosida bakalavriat yo‘nalishi bo‘yicha mutaxassislarni tayyorlashning maqsadli qabul kvotalari tasdiqlandi.

Ushbu qarorda belgilab berilgan maqsad va vazifalar yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlashga xizmat qiladi. Shuningdek,

2017-2021-yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasining strategik rivojlanishining beshta ustuvor yo'nalishi doirasida olib borilayotgan islohotlarni izchil amalga oshirishga zamin yaratadi.

1-topshiriq:

a) matnni o'qing;

b) matndagi termin va iboralarning ma'nosini izohlang;

d) matnni kengaytirib so'zlab bering.

2-topshiriq.

O'zbekistondagi oily ta'lim muassasalarining nomlarini qisqartma otlar shaklida ifodalang.

GRAMMATIKA

Uslubiy xoslangan va uslubiy betaraf so'zlar

Uslubiy xoslangan va uslubiy betaraf so'zlar. Tilimizda barcha uslublarda teng qo'llanadigan so'zlar bo'lishi bilan birga, faqat ayrim nutq uslublari uchun xoslangan so'zlar ham mavjud. Shuning uchun so'zlar ana shu belgiga ko'ra ikki guruhga bo'linadi:

1. Uslubiy betaraf so'zlar (*so'zlamoq, gapirmoq, uy, daftar, ovqat* va boshqalar).

2. Uslubiy xoslangan so'zlar (*mazkur, binobarin, dudoq, erin, qaroq, nigoh, tashlamoq, bayonnoma, nota* va boshqalar).

Adabiy tilning ijtimoiy hayotdagi ma'lum soha doirasiga, ma'lum nutqiy vaziyatga xoslangan ko'rinishi nutq uslubi hisoblanadi. So'zlar ma'lum nutq uslubiga xoslanish-xoslanmaslik belgisiga ko'ra *uslubiy xoslangan va uslubiy betaraf so'zlarga* bo'linadi. Ayrim nutq uslubidagina qo'llaniladigan so'zlar uslubiy xoslangan so'zlar, bunday xususiyatga ega bo'lmagan so'zlar esa uslubiy betaraf so'zlardir.

Olim na'matakka ilmiy izoh bersa, shoir esa unga badiiy tus beradi, metafora, o'xshatish, jonlantirish, leksik vositalar bilan shoirona kuylaydi. *Uslub* - so'zlovchi va yozuvchining ifodalanayotgan fikrga, voqea, hodisaga shaxsiy munosabatidir. Shu yo'l

bilan ayni bir jumlada qo'shimcha uslubiy (modal) mazmun ham ifodalanadi. Masalan: *Ol, jiyan, yo'l yurib kelgansan.* Bu jumlada so'zlovchi suhbatdoshga qarindoshligini bildirishi bilan birga, unga o'z mehribonligini ham ko'rsatmoqchi.

3-topshiriq. Keysning yechimini toping.

Keys

Talaba o'qituvchiga shunday dedi: "Mashg'ulotlarda aytayotgan fikrlaringiz va himoya qilayotgan g'oyalaringiz menga yoqmaydi. Menga an'anaviy ta'lim usullari ko'proq ma'qul. Men interfaol metodlarda dars o'tishingiz biror natijaga olib kelishi mumkin, deb hisoblamayman. Talabalar baribir o'qimaydi".

Bu vaziyatda siz talabaga qanday javob qaytargan bo'lar edingiz?

Javob variantlari:

a) "Bu juda yomon";

b) "Siz balki ularning mohiyatini tushunmasangiz kerak?";

d) "Men keyingi mashg'ulotlar davomida sizning fikringiz o'zgaradi, deb ishonaman";

e) "O'qimaydigan emas, o'qishni xohlamaydigan talabalar bo'ladi".

4-topshiriq. Matnni rus tiliga tarjima qiling.

Respublikamizda uzluksiz ta'limning joriy etilishi ta'lim sohasining boshqaruvi organlari zimmasiga bir qator vazifalarni hal etish va ularni doimo takomillashtirib, rivojlantirib borishni taqozo etmoqda. Bu o'rinda ta'lim jarayonini sifatli me'yoriy-huquqiy hujjatlar bilan o'z vaqtida ta'minlash muhim ahamiyat kasb etadi. O'tgan davr ichida quyidagi sohalarda qonunchilikka oid va me'yoriy hujjatlar qayta qabul qilindi:

– Ta'lim-tarbiya tizimini boshqarish;

– Ta'lim jarayonini mazmunan isloh qilish;

– Moliyalashtirish va moddiy-texnik ta'minot;

– Pedagog va ilmiy-pedagogik kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish;

– Ta'lim xizmatlari bozorini rivojlantirish;

– Ta'lim va kadrlar tayyorlash sohasida xalqaro aloqalar;

– Chet tillarinio'rganish;

– Elektron kutubxonalar yaratish va yagona tarmoqqa birlashtirish;

– Ta'lim sohasida ijtimoiy va moliyaviy davlat yordamini ta'minlash va boshqalar.

5-topshiriq.

Oliy ta'lim terminlari lug'atini tuzing.

6-topshiriq. O'zbekistondagi oliy ta'lim muassasalari haqida ma'lumot to'plang, hamda klastr metodi asosida ma'lumotingizni yoritib bering.

7-topshiriq. Matnni o'qing. Matndagi ma'lumotlarni o'rganing. Olgan ma'lumotlaringiz asosida oliy ta'lim muammolariga bag'ishlangan ilmiy maqola yozing.

Bugungi kunda respublikamizda oliy ta'lim tizimini rivojlantirishning quyidagi ustuvor yo'nalishlari bo'yicha vazifalar yechimi belgilangan:

– oliy ta'lim tizimini isloh qilishning zamonaviy bosqichida innovatsion jarayonlarni qo'llash va amalga oshirishning iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish;

– respublikada oliy ta'lim muassasalarini samarali boshqarishning jahon standartlariga asosan ta'limda sifat menejmenti usullarini samarali qo'llash;

– globallashuv va milliy iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida innovatsion texnologiyalarni qo'llash asosida ta'lim tizimi sifatini oshirish va raqobatbardosh kadrlarni tayyorlashda oliy ta'lim muassasalarining samarali innovatsion strategiyalar yo'nalishlarini ishlab chiqish;

– respublika oliy ta'lim muassasalarida innovatsion jarayonlarni rivojlantirishda samarali xorijiy tajribalarni o'rganishning ijobiy natijalarini respublikada qo'llash bo'yicha ilmiy asoslangan tavsiyalar ishlab chiqish;

– oliy ta'lim tizimida me'yoriy-huquqiy hujjatlarni takomillashtirishda erishilgan tajribalarni yanada ommalashtirish asosida ta'lim sifatini oshirish bo'yicha tavsiyalar va ishlanmalar ishlab chiqish;

– milliy ta'lim tizimini modernizatsiyalashtirish sharoitida respublikada oliy ta'lim muassasalarida zamonaviy ta'lim xizmatlari turlarini kengaytirish;

– oliy ta'lim muassasalarida innovatsion jarayonlarni rivojlantirish asosida fan va ishlab chiqarish o'rtasida integratsiyani yanada kuchaytirish;

– respublika oliy ta'lim muassasalari faoliyatiga innovatsion mexanizmlarni tatbiq etish asosida ta'lim sifatini oshirish bo'yicha istiqbolli yo'nalishlarni aniqlash va amalga oshirish kabilar.

8-topshiriq. Matnni o'zbek tiliga tarjima qiling.

Аудиторская служба

Аудиторская служба необходима для контроля за соблюдением законодательства, регулирующего финансово-хозяйственную деятельность данных предприятий. Эта служба проводит проверки (ревизии) состояния платежеспособности и финансовой устойчивости, рентабельности, оценивает эффективность коммерческой деятельности предприятий.

Учитывая важность аудиторской службы, в ближайшее время нужно подготовить аудиторские кадры, создать аудиторские организации в нашей республике.

Аудит бывает нескольких видов:

1) Аудит финансовых отчетов - проверка их для независимой экспертизы доходов и расходов предприятия, фирмы.

2) Аудит хозяйственной деятельности предприятия, оценка производственных затрат и полученных результатов, выявление возможности улучшения этой деятельности..

3) Аудит на соответствие требованиям заключается в анализе финансовой и хозяйственной деятельности субъекта, в определении его соответствия предписанным правилам или условиям.

9-topshiriq. Matnni o‘qing. Matndagi sonlarning o‘qilishi va talaffuziga ahamiyat bering.

Oliy ta’lim haqida

2017-yilning 1-noyabr holatiga O‘zbekiston Respublikasida oliy harbiy bilim yurtlaridan tashqari 72 ta oliy ta’lim muassasasi va 19 ta filiallar mavjud bo‘lib, ularning tarkibida 4 ta akademiya, 7 ta xorijiy oliy ta’lim muassasalarining filiallari, 27 ta universitetlar va 4 ta oliy diniy ta’lim muassasa hamda filiallari faoliyat yuritmoqda. Bu haqda Davlat statistika qo‘mitasi xabar berdi.

Oliy ta’lim muassasalari tomonidan taqdim etilgan dastlabki ma’lumotlarga asosan, 2017/2018-o‘quv yili boshiga bakalavriat bosqichiga jami 80822 nafar, shu jumladan 18439 nafari davlat grantlari asosida, 62383 nafar yoshlar esa shartnoma asosida talabalikka qabul qilingan.

2017/2018-o‘quv yili boshida qabul qilingan talabalarning 71838 nafari kunduzgi, 8984 nafari 20 ta oliy ta’lim muassasasi va 1 ta filialda tashkil etilgan sirtqi kurslarda ta’lim olayotgan bo‘lib, sirtqi kurslarga qabul qilinganlarning 77,8 foizini qizlar tashkil etadi. Ma’lumot uchun, 2016/2017 o‘quv yilida jami 110 nafar talaba sirtqi kurslarga qabul qilingan.

10-topshiriq. Matnni o‘qing. Matndagi ma’lumotlarni o‘rganing. Matnni rus tilida so‘zlab bering.

Oliy ta’lim boshqaruv organi O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi hisoblanadi.

Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligiga, tarkibida oliy ta'lim muassasalari mavjud bo'lgan vazirliklar va boshqarmalar bilan birgalikda quyidagi vazifalar yuklatiladi:

· bakalavr yo'nalishlari va magistratura mutaxassisliklari uchun davlat ta'lim standartlarini, o'quv reja va o'quv fanlarida dasturlarni ishlab chiqish, tasdiqlash va bosqichma-boqich kiritib borish, hamda respublika oliy ta'lim muassasalarini ular bilan ta'minlash;

· oliy ta'lim yo'nalish va mutaxassislik klassifikatoriga zarur bo'lganda O'zbekiston Respublikasi vazirlar Mahkamasi bilan kelishilgan holda o'zgartirishlar va qo'shimchalar kiritish;

· oliy ta'lim muassasasi faoliyatining normativ-huquqiy ta'minotini ishlab chiqish va o'quv-tarbiyaviy jarayonni tashkil qilish;

· O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim muassasalari o'quv-uslubiy boshqaruvini amalga oshirish;

· oliy va o'rta maxsus kasb hunar ta'limi kadrlarini tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish masalalarini muvofiqlashtirish;

· Ta'lim, fan va ishlab chiqarishning normativ-uslubiy integratsiyasini ta'minlash.

Oliy ta'lim sifatini boshqarishning ijtimoiy shakllarini rivojlantirish maqsadida oliy ta'lim muassasalarining rektorlar kengashi tashkil qilingan bo'lib, uning faoliyati belgilangan nizom bilan tartibga solinadi.

Oliy ta'lim muassasalarining boshqaruvi O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi va mazkur nizom asosida amalga oshiriladi.

Oliy ta'lim muassasasining bevosita boshqaruvi rektor tomonidan amalga oshiriladi. Davlat oliy ta'lim muassasasi rektori O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan, nodavlat oliy ta'lim muassasalari rektorlari ta'sischilar tomonidan tayinlanadi.

Oliy ta'lim muassasasining ish natijalari uchun to'liq javobgarlik rektor zimmasida turadi. O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga va oliy ta'lim muassasa Nizomiga ko'ra, rektor oliy ta'lim muassasasi nomidan barcha organ va tashkilotlarda faoliyat yuritadi,

mol-mulkka belgilangan tartibda egalik qiladi, shartnomalar tuzadi, ishonchnomalarni taqdim etadi, bankda oliy ta'lim muassasasining hisobraqamini ochadi va kreditlar boshqaruvchisi hisoblanadi.

Oliy ta'limning davlat ta'lim standartlarini amalga oshirilishining alohida javobgarligi rektor zimmasiga yuklatilgan.

Eslab qoling!


Eksternat - oily ta'lim dasturiga muvofiq oliy ta'lim muassasasining o'qitiluvchi tartibini keyingi (joriy va yakuniy) attestatsiyagacha tanlangan yo'nalish (mutaxassislik) bo'yicha mustaqil o'rganish.

Masofaviy ta'lim – asosiy faoliyatda nuzilmagan holda ta'lim muassasasidan uzoqda o'quv dasturidagi mavjud bilimlarni o'zlashtirish. U zamonaviy axborot texnologiyalari va telekommunikatsiyaning texnik vositalaridan foydalanish orqali amalga oshiriladi.

22-MAVZU. ILM MASKANIMIZ HAYOTIDAN

Kuch - bilim va tafakkurda.
Islom Karimov

Toshkent moliya instituti



1991-yilda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoniga ko‘ra Toshkent xalq xo‘jaligi institutining moliya-kredit va hisob-iqtisod fakultetlari negizida Toshkent moliya instituti tashkil etildi. Institut hozirgi davrda O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni, “Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi”ning ijrosini amalga oshira borib, bozor iqtisodiyoti sharoitiga mos moliya, bank, soliq, sug‘urta, qimmatli qog‘ozlar va fond birjasi, investitsion loyihalarni moliyalashtirish, buxgalteriya hisobi, audit, menejment kabi qator ta’lim yo‘nalishlari bo‘yicha bakalavr va magistrlar tayyorlab kelmoqda.

Institutda kadrlar tayyorlashning ko‘p bosqichli uzluksiz tizimini ta’minlovchi modeli ishlab chiqilib, u o‘z ichiga moliya, soliq litseylari, bank kolleji, bakalavriatura, magistratura, malaka oshirish instituti, doktorantura bosqichlarini qamrab olgan. Mutaxassis kadrlar tayyorlash modelini hayotga tatbiq qilish, ularni bugungi kun zamon talablari va jahon andozalariga mos bo‘lishi uchun institutning 6 ta fakulteti, hamda 18 ta kafedrada 400 dan ortiq professor-o‘qituvchilar faoliyat ko‘rsatmoqda. Shuningdek, institut qoshida mutaxassislar va iqtisodchi pedagoglarning, eng avvalo, kollej o‘qituvchilarining malakasini oshirish va qayta tayyorlash tizimi yangidan tashkil qilingan. Institut kafedra va

bo'limlarida 40 ga yaqin fan doktorlari va professorlar, 150 ga yaqin fan nomzodlari va dotsentlar mehnat qilmoqda.

Hozirgi kunda institut chet el turdosh universitetlari, elchixonalari bilan ilmiy-amaliy, o'quv-uslubiy hamkorlik o'rnatgan. Jumladan, AQSHning Texas qishloq xo'jaligi va mashinasozlik universiteti, Yaponiya davlatining Ritsumeykan Trast, Osiyo Tinchokeani universiteti, Angliya davlatining Sterling universiteti, Rossiyaning Moskva moliya akademiyasi, Moskva davlat universiteti, S.V.Plexanov nomli Rossiya iqtisodiyot akademiyasi, Sankt-Peterburg iqtisodiyot va moliya universiteti, Lomonosov nomli davlat universiteti, Belgiya davlatining Atervepen universiteti, Germaniyaning Manxeym texnologiya instituti, Gamburg informatsion texnologiya universiteti, Passav universiteti, Hindistonning Hindiston moliya instituti, Qirg'iziston Respublikasining Bishkek bank-moliya akademiyasi bilan o'zaro foydali shartnomalar asosida ilmiy-amaliy ishlar olib borilmoqda. Institut professor-o'qituvchilarining mazkur ta'lim muassasalari bilan stajirovka va malaka oshirishlari yo'lga qo'yilgan.

Institut o'quv jarayoniga bozor iqtisodiyotiga oid yangi fanlar kiritilgan va ular yangi pedagogik texnologiyalar asosida o'qitilmoqda. Xorijiy tillarni chuqurroq o'rgatishga, komputer texnikasidan foydalanishga katta e'tibor berilmoqda.

Institutda talabalarning madaniy dam olishi, sport bilan shug'ullanishi va yashashlari uchun qulay shart-sharoitlar yaratilgan. Jumladan, institutda "Ma'naviyat va ma'rifat" xonalari, "Moliyachi" sport-sog'lomlashtirish majmuasi hamda 3 ta zamon talablari darajasida ta'mirlangan va jihozlangan talabalar turar joylari ishlab turibdi.

Ilm-fan - taraqqiyot manbai, jamiyat rivojini olg'a siljituvchi kuchdir. Uning vazifasi, yurtboshimiz aytganlaridek, kelajagimizning shakl-shamoyilini yaratish, ertangi kunimizning yo'nalishlarini, qonuniyatlarini, uning qanday bo'lishini ko'rsatib berishdan iborat. Bugungi kunda institut olimlari "Bozor munosabatlarini tartibga solishning moliya-kredit mexanizmi" muammosi ustida

ilmiy izlanish ishlarini olib borish bilan birga, O'zbekiston Respublikasi fan va texnika Davlat qo'mitasi fundamental tadqiqotlari sohasidagi muammolarni hal qilishda faol ishtirok etib kelmoqda.

1-topshiriq:

a) matnni o'qing, matndagi nom va iboralarning ma'nosini izohlang;

b) matnni o'zgartirib so'zlab bering.

2-topshiriq. Oliygohingiz haqida taqdimot tayyorlang.

3-topshiriq. Quyidagi tayanch so'z va iboralarni qo'llab institutingiz tarixi haqida bog'lanishli matn tuzing.

Toshkent xalq xo'jaligi instituti, moliya-kredit, hisob-iqtisod fakulteti, O'zbekiston Respublikasi, "Ta'lim to'g'risida"gi qonun, "Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi"i, bozor iqtisodiyoti, doktorantura bosqichi, moliya, bank, malaka oshirish instituti, soliq, bakalavriatura, magistratura.

GRAMMATIKA

So'zlashuv uslubi va uning xususiyatlari. Shevaga xos so'zlar

So'zlashuv uslubi. Oilada, ko'cha-ko'yda kishilarning fikr almashish jarayonida qo'llanadigan nutq uslubi so'zlashuv uslubi sanaladi. So'zlashuv uslubi adabiy va oddiy so'zlashuv uslublarini o'z ichiga oladi.

Adabiy til me'yorlariga qat'iy amal qilingan so'zlashuv uslubi ***adabiy so'zlalashuv uslubi,*** bunday xusuiyatga ega bo'lmagan so'zlashuv uslubi esa ***oddiy so'zlashuv uslubidir.***

So'zlalashuv uslubining o'ziga xos xususiyati uning erkinligidir. So'zlar tartibi erkin, asosiy maqsadni ifodalovchi gap bo'lagi ajratib ko'rsatiladi, fikr so'zga mantiqiy urg'u berish bilan ifodalanadi. Jumlalar qisqa va ta'sirli bo'ladi.

So‘zlashuv uslubining har ikki turi ko‘pincha dialog shaklida ro‘yobga chiqadi. Ikki shaxsning o‘zaro so‘zlashuvi dialogik nutq sanaladi. So‘zlashuv uslubida so‘zlar ko‘pincha kinoya, piching, qochirmalarga boy bo‘ladi.

Og‘zaki so‘zlashuv uslubi grammatik qurilishi sodda, qisqa, mazmunan ta’sirchan bo‘ladi. Bunda xalq maqollari va masallar, rivoyat va ertaklar, latifa va qo‘shiqlar, so‘z o‘yinlari-pichinglar, hazil – mutoyi- balar, askiya va qochirmalar muhim manba sanaladi.

Shevaga xos so‘zlar

Ma’lum hududda yashovchi kishilar nutqiga xos bo‘lgan, adabiy til leksikasiga kirmaydigan so‘zlar shevaga xos so‘zlarni tashkil etadi. Quyidagi jadvalda keltirilgan adabiy til va shevaga xos so‘zlarga e’tibor bering.

№	Toshkent shevasida	Farg‘ona shevasida	Buxoro shevasida	Samarqand shevasida	Xorazm shevasida	Adabiy tilda
1	do‘ppi	do‘ppi	kalpo‘sh kallapo‘sh	qalpoq	tahya	do‘ppi
2	garmdori	qalampir	qalampir qalamfur	qalampir	murch aji	qalampir
3	chumoli	chumalik	mo‘rcha	mo‘rcha	qorinja	chumoli
4	narvon	shoti	narvon narbon	narvon	zangi	narvon
5	mushuk	mishiq	pishak	pishak	pishiq	mushuk


Yozuvchilar badiiy asarlarda qahramonlarning qayerlik ekanini, tilidagi xususiyatlarni ko‘rsatish uchun ularning nutqida ba’zan shevaga xos qo‘shimcha va so‘zlarni ishlatadilar. Masalan:

-Osilgan kim?

-Qiyotlik bir ***go‘ch*** *yigit.* ***Nishatamiz****, o‘glim, taqdir, - dedi xo‘rsinib ona. (J.Sh.)* Xorazm shevasiga xos *g‘o‘ch* so‘zi “mard, botir” degan ma’noni, *nishatamiz* so‘zi nima qilamiz? qo‘limizdan nima keladi? ma’nolarini bildiradi.

4-topshiriq. Institutda o'tkaziladigan ma'naviy-ma'rifiy tadbirlardan reportaj tayyorlang.

5-topshiriq. Toshkent moliya instituti haqida klaster tuzing va shu asosda matnni gapirib bering.



6-topshiriq. Matnni o'zbek tiliga tarjima qiling.

Кредит

Кредит — предоставление в долг денег (ссуда) или товаров, услуг. Если же посмотреть с другой стороны, то кредит- способность получить деньги, товары, услуги посредством выдачи обещания об уплате за них в будущем.

Все кредитные операции содержат, во-первых, элемент будущей. отсроченной оплаты (деньги, товары, услуги как бы обмениваются на обещание заплатить за них в будущем), во-вторых, элемент уверенности, доверия (путем оценки рисков кредитования кредитор уверен в платежеспособности кредитуемого клиента.

Значение кредита в том, что он, будучи должным образом использованным, дает ответственным людям некое дополнение их капиталу, воплощенное в виде денег, товаров, услуг, то есть всего того, что предприниматели могут употребить в дальнейшем для создания новых благ. Словом, кредит повышает инвестиционную и деловую активность бизнесмена.

В настоящее время почти все финансовые операции между фирмами проводятся на кредитной основе, что воспринимается как обычная кредитная практика. Риск же несвоевременной выплаты долга или отказа от погашения задолженности из-за неплатежеспособности крайне велик.

Критерий разумного кредитования - выбор надежных партнеров и соблюдение принципов обеспеченности кредита, реализующихся в виде залога, поручительства и т.п.

7-topshiriq. Avval adabiy tildagi so‘zlarni, keyin shu so‘zlarning Hazorasp shevasida qanday ekanligini qiyos qilib o‘qing. So‘ngra siz ham o‘z shevangizdagi so‘zlardan shu tarzda yozing.

Adabiy tilda:	**Xorazmning Hazorasp shevasida:**
buvi	*momo*
buzoq	*o‘jak*
yong‘oq	*g‘o‘z*
yostiq	*taka*
chumchuq	*secha*
tog‘a	*doyi*
tuxum	*mayak, yumurta*
chaqaloq	*bavaq, qo‘undoq bola*
echki	*gechchi*

8-topshiriq. Savollarga yozma javob bering.

1. Toshkent moliya instituti qachon tashkil etilgan?
2. Institutda nechta fakultet bor?
3. Qanday akademiyalarni bilasiz?
4. O‘rta Osiyo tarixidagi birinchi akademiyaning nomi?
5. Akademiyaning ish faoliyati nimalardan iborat?
6. O‘zbek tilida nechta asosiy sheva bor?
7. O‘z shevangizda 10ta so‘z ayting, adabiy tilga o‘giring.

8. Jahondagi obro'li oliy o'quv yurtlardan qaysilarini bilasiz?

9. Hozirgi kunda institut qaysi chet el turdosh universitetlari bilan hamkorlik o'rnatgan?

9-topshiriq. Quyidagi tayanch so'zlar ishtirokida ***domino*** shakllantiring.

Ilm - [bilim; fan] - o'qish-o'rganish va tadqiqot, tahlil etish bilan erishiladigan bilim; ko'nikma, ma'lumot. Ish-faoliyatning ma'lum bir sohasiga oid bilim, ta'limot, malaka. *Ilm o'rganish.* 2. Ish-faoliyatning ilm bilan bog'liq sohasi; tabiat va jamiyat haqidagi bilimlar tizimi. *Iqtisodiyot ilmi.*

Ilmiy - ilmga oid, ilmga qaratilgan. *Ilmiy asar.*

Faoliyat - [harakatchanlik; samaradorlik] - biror sohada olib boriladigan ish, mashg'ulot, harakat. *Ilmiy faoliyat.*

Filial - [*lot.* filialis - o'g'ilga oid, o'g'ilniki] - biror yirik korxona, muassasa yoki jamoat tashkilotining mustaqil bo'limi, shu'ba. *Xorazm Ma'mun akademiyasini O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining Xorazm-Amudaryo mintaqasi filiali sifatida qaytadan tikladi.*

Tadqiqotchi - tadqiqot ishlari bilan shug'ullanuvchi shaxs. *Ilmiy tadqiqotchilar.*

Tashkilot - aniq tarkib va vazifasiga, ish dasturiga ega bo'lgan ijtimoiy, xo'jalik birlashmasi yoki davlat muassasasi. *BMTning YUNESKO tashkiloti.*

Ensiklopedist - [*fr.* encyclopediste < *yun.* enkyklios paideytes - keng fanlar doirasi bo'yicha murabbiy] - XVIII-asrda yashagan, ilm-fanning ko'p sohalarini egallagan ilg'or fransuz olimlari, faylasuflari, yozuvchilari va publitsistlari guruhiga mansub kishi (bu guruh 1751-1780-yillarda "Ensiklopediya" tuzgan va nashr etgan). *Ensiklopedist olim.*

Davr - [aylanish, navbat] - jamiyat taraqqiyotida yoki tabiatda muhim voqea, hodisa yuz bergan yoki o'ziga xos xususiyati bilan ajralib turadigan ma'lum vaqt oralig'i. *Bozor iqtisodiyotiga o'tish davri.*

Olim - [ilmli, ma'lumotli] - fanning biror sohasi bo'yicha maxsus bilimga ega bo'lgan kishi. *Iqtisodchi olim.* 2. Umuman, bilimli kishi. *Olim bo'lsang, olam seniki.*

Mutafakkir - [fikrlovchi, o'ylovchi] - chuqur falsafiy fikrlash iste'dodiga ega bo'lgan kishi, tafakkur egasi. *Mutafakkir olim.*

Homiy - [himoya qiluvchi] - biron tadbir yoki faoliyatni amalga oshirishda moliyaviy yordam ko'rsatuvchi, moliyaviy jihatdan qo'llab-quvvatlovchi jismoniy yoki yuridik shaxs. *Ma'muniy xorazmshohlar homiyligida.*

Akademiya - [*yun.* academia - afsonaviy qahramon Akadem nomi hamda Platon o'z ta'limotidan dars bergan, Afina yaqinidagi kichik o'rmon nomidan] - ilm, fan yoki san'atni rivojlantirish uchun tuzilgan, yuqori malakali olimlariga ega bo'lgan oliy ilmiy muassasa. *O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi.* 2. Ba'zi bir oliy o'quv yurtlarining nomi. *Soliq akademiyasi.*

Qaror - [to'xtam, hukm, xulosa; tub, asos] - biror ish, masala yuzasidan qabul qilingan xulosa; amalga oshirish lozim topilgan qat'iy fikr; ahd, to'xtam. *Qarorim qat'iy.* 2. Rasmiy organ, tashkilot, majlis, mansabdor shaxs va shu kabilarning biror ish, masala yuzasidan bamaslahat qabul qilgan to'xtami, hukmi. *Kafedra majlis qarori.*

Institut - [*lot.* institutum - o'rnatish, tuzish, ta'sis etish] - ba'zi oliy o'quv yurti va ilmiy-tekshirish muassasalarining nomi. *Moliya instituti.*

Iqtisodiyot - [xo'jalik masalalari; xo'jalik] - ijtimoiy tuzumning bazasi. Xalq xo'jaligi, ishlab chiqarish kuchlarining holatiga muvofiq keluvchi ishlab chiqarish munosabatlari. 2. Xo'jalik tarmoqlarining moddiy va moliyaviy tomonlarini o'rganadigan fan. *Respublikaning iqtisodiyoti.*

Universitet - [*nem.* universität<*lot.* universitas, universitatus - jami, barchasi; majmua] - tarkibida bir qancha yo'nalishdagi fakultetlari bo'lgan, ayni yo'nalishlarda yuksak malakali mutaxassislar tayyorlaydigan ko'p tarmoqli oliy o'quv ilmiy muassasa. *Toshkent davlat idtisodiyot universiteti.*

Kafedra - [*yun.* kathedra - o'rindiq, kursi] - ma'ruza o'qish, va'z aytish, axborot berish uchun mo'ljallangan baland qurilma; minbar. 2. Oliy o'quv yurtlarida bir yoki bir necha o'zaro yaqin fanlar bo'yicha ish olib boruvchi professorlar, o'qituvchilar va ilmiy xodimlarning tashkiliy birlashmasi va shu birlashma joylashgan xona. *Bank ishi kafedrasi.*

Fakultet - [*nem.* fakultät<*lot.* facul-tatis - qobiliyat, imkoniyat] - oliy o'quv yurtining ma'lum ixtisoslik bo'yicha tegishli fanlar o'qitiladigan bo'limi. *Moliya fakulteti.*

Fan - [ilm, bilim; tarmoq] - tabiat va jamiyatning taraqqiyot qonuniyatlarini ochib beruvchi hamda o'zi erishgan natijalar bilan atrof- muhitga ta'sir ko'rsatuvchi bilimlar tizimi. *Fan yutuqlari.* 2. Shunday bilimlar tizimining alohida tarmog'i, yo'nalishlari, sohalari. *Iqtisodiy fanlar.*

Ta'lim - [ilm berish; ma'lumot] - bilim berish, malaka va ko'nikmalar hosil qilish jarayoni. 2. Ilm-fan yoki kasb-hunar sohalari bo'yicha egallanadigan, olinadigan ma'lumot va ko'nikmalar majmui; bilim. *Oliy ta'lim.*

Talaba - [talab qiluvchi] - oliy yoki o'rta maxsus o'quv yurti o'quvchisi. *Bank kolleji talabasi.*

Professor - [*lot.* professor - muallim, o'qituvchi; murabbiy] - oliy o'quv yurtlaridagi eng malakali o'qituvchilarning, shuningdek, ilmiy-tadqiqot institutlaridagi ilmiy xodimlarning ilmiy unvoni va lavozimi; shunday unvon va lavozimli shaxs. *Kafedra professori.*

O'quv - o'qish va o'qitish bilan bog'liq bo'lgan, o'qish va o'qitishga taalluqli. O'*quv soati.*

Xorijiy - [tashqi, ajnabiy] - mamlakatimizdan tashqaridagi, chet eldagi. *Xorijiy davlat. Xorijiy matbuot.*

Yo'nalish - hayot, faoliyatdagi muayyan yo'l. Ilm-fan va boshqa sohalarga xos oqim, ularning sohasi, tarmog'i. *Ilm fanning biror yo'nalishi.*

Muassasa - [idora, korxona, tashkilot] - xo'jalik, savdo-sotiq ishlarining biror sohasini boshqaruvchi yoki ilmiy, ta'lim-tarbiya

ishlarini olib boruvchi, belgili shtat va ma'muriyatiga ega bo'lgan tashkilot. *Davlat muassasalari.*

10-topshiriq. Matnni tarjima qiling. O'z institutingiz (universitetingiz) kutubxonasi haqida gapirib bering.

Библиотека нашего института

При нашем институте есть большая учебная библиотека. Она находится в главном учебном корпусе на первом этаже и занимает несколько больших комнат. В самом большом помещении находится книгохранилище. Книги аккуратно разложены на стеллажах и полках.

В зале выдачи книг находится алфавитный каталог, по которому студенты могут быстро найти нужную книгу.

Дежурный библиотекарь выдает студентам учебники, журналы, художественную литературу.

В нашей библиотеке несколько десятков тысяч книг. В основном это учебники. Но кроме учебников есть художественная, научная, справочная литература.

Рядом находится читальный зал, в котором много различных книг, газет, журналов. Здесь студенты готовятся к занятиям, работают с литературой по специальности, читают газеты, журналы.


В читальном зале проводится обсуждение новых книг, знакомство с авторами. Преподаватели проводят здесь беседы со студентами об их будущей профессии. Студенты охотно приходят на такие вечера, чтобы побеседовать о прочитанных книгах, поговорить о жизни, о будущей работе.

Библиотека занимает важное место в работе нашего института.

23-MAVZU. BO‘LAJAK KASBIM

Ko‘rdimki, eng yaxshi do‘st ilm ekan.
Najmiddin Kubro

BANK TIZIMI



Banklar jamiyatda mavjud bo‘sh pul mablag‘larini to‘plash, joylashtirish va ularning harakatini tartibga solishga xizmat qiluvchi kredit muassasasi hisoblanadi.

Bank tizimi bir yoki ikki bo‘g‘inli bo‘lishi mumkin. Bir bo‘g‘inli tizimda Markaziy va tijorat banklari bir mavqeda bo‘lib, teng huquqli agentlar tarzida ish yuritadi yoki hamma banklar davlat banki bo‘ladi.

Rivojlangan mamlakatlar uchun ikki bo‘g‘inli bank tizimi xos. Bunda birinchi bo‘g‘in mamlakatda pul muomalasini tashkil etuvchi va nazorat qiluvchi Mapkaziy bank bo‘lsa, ikkinchi bo‘g‘inni mustaqil va markaziy bankka bo‘ysinuvchi tijorat va maxsus banklar tashkil qiladi.

Ikki pog‘onali bank tizimi tijorat va maxsus banklarga bo‘linadi.

Markaziy bank - davlat banki hisoblanib, mamlakatda pul kredit tizimini markazlashgan tartibda boshqaradi va davlatning yagona kredit siyosatini amalga oshiradi.

Davlat banki - u amalga oshirayotgan siyosat tartibi yuqori davlat organlari tomonidan o‘rnatiladi.

Markaziy bank - pul muomalasini tartibga soladi, tijorat banklari va jamg‘arma muassasalaridan mablag‘lar qabul qilib, ularga kreditlar beradi.

1-topshiriq:
a) matnni o‘qing;

b) matnga munosabat bildirib so‘zlab bering;

d) O‘zbekiston bank tizimi haqida taqdimot tayyorlang.

2-topshiriq. Quyidagi tayanch so‘z va iboralarning ma’nosini izohlang.

Bo‘sh pul mablag‘lari, kredit muassasasi, Markaziy bank, tijorat banklari, pul muomalasi, tijorat banki, maxsus banklar, kredit siyosati, jamg‘arma.

3-topshiriq. Kasb tanlovi to‘g‘risida esse yozing.

KREDIT NIMA?

Kredit deganda o‘z egalari qo‘lida vaqtincha bo‘sh turgan pul mablag‘larini boshqalar tomonidan ma’lum muddatga haq to‘lash sharti bilan qarzga olish va qaytarib berish yuzasidan kelib chiqqan munosabatlar tushuniladi.

Kredit munosabati ikki subyekt o‘rtasida yuzaga keladi: biri pul egasi, ya’ni qarz beruvchi; ikkinchisi pulga muhtoj, ya’ni qarz oluvchi. Kredit tovar va pul ko‘rinishidagi mablag‘larni:

- Qaytarib berishlik
- Muddatlilik
- Foiz to‘lash shartlari asosida berish natijasida yuzaga keladi.

Kredit qanday vazifalarni bajaradi va uning jamiyatdagi roli qanday?

Kredit to‘rt xil vazifani ado etadi.

Birinchidan, pulga tenglashtirilgan to‘lov vositalarini (masalan, veksel, chek, sertifikat va h.k.) yuzaga chiqarib, ularni xo‘jalik oborotiga jalb qiladi.

Ikkinchidan, u bo‘sh pul mablag‘larini harakatdagi, ishdagi kapitalga aylantirib, pulni pul topadi, degan qoidani amalga oshiradi.

Uchinchidan, qarz berish orqali pul mablag‘larini turli tarmoqlar o‘rtasida qayta taqsimlash bilan ishlab chiqarish resurslarining ko‘chib turishini ta’minlaydi.

To‘tinchidan, qarz berish, qarzni undirish vositalari orqali iqtisodiy o‘sishni rag‘batlantiradi.

Kredit va undan foydalanish natijasida turli natijalarga erishiladi. Bu natijalar ijobiy yoki salbiy bo‘lishi mumkin. Ijobiy natijalar deganda kreditdan samarali foydalanish natijasida qo‘lga kiritilgan tushuniladi. Masalan, Andijonning Asaka shahrida asosan bank krediti hisobidan qurilayotgan yangi avtomobil zavodi respublikaning yengil avtomobillarga bo‘lgan ehtiyojini ma’lum darajada qondirsa va jahon bozorida munosib o‘rin egallasa, bu kreditning ijobiy ro‘li hisoblanadi.

Kreditning salbiy ro‘li asosan quyidagi 2 holatda namoyon bo‘ladi:

- Kredit xalq xo‘jaligiga turli yo‘llar bilan asossiz ravishda ko‘p berilsa va oqibatda pul massasi ko‘payib, milliy pul qadrsizlansa;
- Agar olingan xalqaro kreditlardan samarali foydalanilmasa va mamlakat o‘zining boshqa daromad manbalari, masalan, oltinini sotish hisobidan qaytarsa.

Kreditning qanday shakllari mavjud?

Kredit aloqalari pul egasi bilan qarz oluvchi o‘rtasida bevosita va bilvosita bo‘lishi mumkin. Birinchi holda ular to‘g‘ridan to‘g‘ri muomalaga kirishadi. Ikkinchi holda ular aloqasi vositachilar orqali yuz beradi. Shunga qarab kreditning quyidagi asosiy shakllari kelib chiqadi:

1. Tijorat krediti;
2. Bank krediti;
3. Iste’molchi krediti;
4. Davlat krediti;
5. Xalqaro kredit.

4-topshiriq:

a) matnni o‘qing;

b) tarjima qiling;

d) matnni qisqartiring;

e) kredit turlarini klaster usuli yordamida yoritib bering.

MOLIYA TIZIMI

Moliya tizimi real iqtisodiyotni rivojlantirish, ijtimoiy muammolarni hal qilishga qaratilgan chora-tadbirlar, dastaklar hamda moliya institutlarining barcha bo'g'inlari faoliyatining yig'indisidan iborat. Moliyani boshqarish eng avvalo davlatimizning qonunchilik organlari tomonidan amalga oshiriladi. Moliya institutlarining tizimi moliyani umumiy boshqaruv va moliyani tezkor boshqaruviga bo'linadi. Moliyaviy nazoratning anglosakson va fransuz modellari mavjud. Moliyaviy nazoratning olib borilishi muddatlari, reglamenti, nazorat obyekti va subyektlariga asosan turli shakllarga ajratiladi.

Moliya nazorati o'zining amalga oshirish usullari bo'yicha hujjatli tekshirish, o'rganib chiqish, nazorat, moliyaviy holatini tahlil etish, monitoring va taftishga ajratiladi.

5-topshiriq:

a) matnni o'qing;
b) matnni gapirib bering;
d) tarjima qiling;
e) matnni kengaytirib maqola yozing.

GRAMMATIKA

Matn va uning ko'rinishlari

Ma'lum voqelik haqida tasavvur (ma'lumot) beradigan bir yoki bir necha sintaktik birliklardan tashkil topgan nutqiy butunlik matn hisoblanadi. Matn ikki xil ko'rinishda bo'ladi: dialogik va monologik.

Dialogik matn ikki va undan ortiq suhbatdoshning turlicha mazmundagi fikr-axborot almashinuvidan iborat. Dialogik matn so'zlashuv uslubi va badiiy uslubga xosdir.

Monologik (tavsifiy) matn so'zlovchi yoki yozuvchi tomonidan bayon etilgan voqea-hodisa, narsa yoki shaxs tasviri, tavsifi yoxud

xabar, ma'lumot bayonidir. Maqola, insho ham tavsifiy matnning bir turi sanaladi. Monologik matn yaratishda uyushiq bo'laklar, ajratilgan gap bo'laklari, atov gaplar, qo'shma gap ko'rinishlaridan ham keng foydalaniladi.

6-topshiriq. Matnni o'qing. Matndan foydalanib avval dialogik, so'ngra monologik matn hosil qiling.

Biznesni qanday tanlaydilar?

AQSHda faoliyat yo'nalishi tanlashdagi xato kishiga moddiy jihatdan ham, ma'naviy jihatdan ham qimmatga tushadi. Omadsizlik, ishi yurishgan va yurishmay qolgan kishilar o'rtasidagi farqni juda yiriklashtirib yuboradi. Shu sababli amerikaliklarning avval o'z kasb nuqtai nazaridan kuchi, bilimi, jismoniy yoki intellektual mehnatga qobiliyatini anglab olib, puxta tayyorlanib, so'ng bir ishga qo'l urishini tushunish mumkin. Ular biznesni tanlashda quyidagi savollarni o'z-o'zlariga beradilar:

- Men nimani ma'qul ko'raman? Narsa va predmetlar bilan ishlashnimi yoki insonlar va g'oya, fikrlar bilan bog'liq ishlarnimi?
- Yakka tartibda ishlashni afzal ko'ramanmi yoki jamoa tartibidami?
- Jismoniy kuch talab etiladigan ishni uddalay olamanmi?
- Tashkilotchilik, rahbarlik qobiliyatiga egamanmi?
- O'z mehnatimning moddiy natijasini ko'rishni istaymanmi?

7-topshiriq. Kasb-hunar mavzusida o'zbek maqollaridan namunalar yozing.

8-topshiriq. Mutaxassislikka oid terminlar lug'atini shakllantiring.

HISOB TUSHUNCHASI, UNING TURLARI VA BOSHQARUVDA TUTGAN O'RNI

Har qanday jamiyatning rivojlanishi uni boshqarishni taqozo etadi. Boshqarish, o'z navbatida, jamiyatning turli tarmoq va

sohalarida yuz bergan va berayotgan jarayonlar, xo'jalik faoliyatini olib borayotgan subyektlarning mablag'lari, ularni tashkil etish manbalari, erishayotgan natijalari va boshqa jihatlari to'g'risidagi axborotlarning mavjudligiga bog'liq bo'ladi. Bunday axborotlarni o'zida mujassamlashtiruvchi vosita xo'jalik hisobidir.

Xo'jalik hisobi negizida, ko'rinib turibdiki, "xo'jalik" va "hisob" so'zlari yotadi.

Xo'jalik deganda, ma'lum maqsadlarga yo'naltirilgan, o'zining bazisi va ustqurmasiga ega bo'lgan subyektlar tushuniladi. Xo'jalik sifatida qaraladigan subyektlar bo'lib bir butun mamlakatning o'zi va uning turli tarkibiy bo'linmalari, masalan, tarmoqlari, sohalari, mintaqalari, hududlari, vazirliklar, birlashmalar, korxonalar hisoblanadi. Mamlakat doirasidagi xo'jalik xalq xo'jaligi, uning eng quyi bo'g'inidagi xo'jalik korxona xo'jaligi deb ataladi. Iqtisodiyotning yuqori va quyi bo'g'inlari o'rtasidagi xo'jaliklarga tarmoqlar, sohalar, birlashmalar, viloyatlar, tuman va shaharlar xo'jaliklari kiradi.

Hisob - xo'jalikda yuz bergan va berayotgan hodisa va jarayonlar, ularning natijalari to'g'risidagi axborotlarni yig'ish, qayd etish, guruhlash va uzatish tizimidir. Demak, hisobning asosiy mahsuli axborot bo'lsa, bu axborotlarni aniq, to'liq, va o'z vaqtida yig'ish, qayd etish, guruhlash va foydalanuvchilarga yetkazib berish hisob yuritishning asosiy maqsadi hisoblanadi.

Shunday qilib, ikki so'z yig'indisidan tashkil topgan "xo'jalik hisobi" xalq xo'jaligining turli bo'g'inlarida yuz bergan va berayotgan hodisa va jarayonlar, ularning natijalarini miqdor va sifat jihatdan xarakterlovchi axborotlarni yig'ish, qayd etish, guruhlash va uzatish tizimidir.

9-topshiriq.

a) matnni o'qing, reja tuzing;

b) reja asosida matn mazmunini monologik tarzda so'zlab bering;

d) matndagi chetdan o'zlashgan iqtisodiy terminlarni ajratib yozing;

e) matnni kengaytiring.

10-topshiriq. Matnni dialogik matnga aylantiring.

SOLIQ DEGANDA NIMANI TUSHUNASIZ?

Amaliyotda soliq deganda ba'zi byudjetga tushadigan pul yoki majburiy to'lov deb ta'rif beriladi. Bu to'liq bo'lmagan, ilmiy asoslanmagan ta'rifdir. Axir byudjetga pul soliqsiz ham tushishi va soliqsiz ham majburiy to'lovlar borligi ko'pchilikka ma'lumku! Biz soliqlarga quyidagi ta'rifni beramiz.

Soliqlar - bu byudjetga tushadigan pul, (iqtisodiy) va qonun bilan belgilangan majburiy munosabatlardir. Bu munosabatlar soliq to'lovchilar (huquqiy va jismoniy shaxslar) bilan davlat o'rtasidagi munosabatlarni ifoda etadi. Soliq to'g'risidagi qonunlar Oily Majlis tomonidan tasdiqlangan demoktratik munosabatlardir. Soliqlar milliy daromadni tasdiqlash va taqsimlanish jarayonida uning bir qismini davlat ixtiyoriga olish shaklidir. Soliq davlatning markazlashgan pul fondi (davlat byudjeti)ni tashkil etishning asosiy vositasi hisoblanadi.

Soliqlarning majburiyligi Oily Majlis tomonidan tasdiqlangan huquqiy va me'yoriy qonunlar bilan ta'minlanadi.

Shunday ekan, soliqlarni to'lamaslikka, soliq obyektini yashirishga, soliq summasini kamaytirib ko'rsatishga na huquqiy va na jismoniy shaxslarning haqqi yo'q.

Soliq to'lash xo'jalik subyekti va faoliyat ko'rsatuvchi fuqaro bilan davlat o'rtasidagi iqtisodiy aloqalarni bozor iqtisodiyoti davridagi asosiy shakli, daromadlarni xo'jalik subyektlari bilan davlat o'rtasida taqsimlanishining asosiy vositasi hisoblanadi.

11-topshiriq. Quyidagi tayanch so'z va iboralarning ma'nosini izohlang.

Soliq, byudjet, pul, majburiy to'lov, majburiy munosabatlar, huquqiy shaxs, jismoniy shaxs, milliy daromad, huquqiy va me'yoriy qonunlar, soliq summasi, xo'jalik subyekti.

MENEJMENT

Menejment (fransuzcha "menagement" - xo'jalik ishlari bilan shug'ullanish) - samarali ishlab chiqarish faoliyatini ta'min etish, moliyaviy hamda moddiy zaxiralardan foydalanish shakllari, usullari va vositalarining jami.

Bozor munosabatlari rivojlangan mamlakatlarda menejment ko'p tarmoqli soha bo'lib, uni o'rganish, uqish va bilish, menejment sohasidagi ilmlarni takomillashtirish juda keng taraqqiy etgan o'quv-o'rganuv yo'nalishidir.

Rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlar, tarixiy tajriba asosida, XX asrning o'rtalarigacha olib borgan siyosatlaridan voz kechishga majbur bo'ldilar: ya'ni ishchi-dehqonlarning, mehnatkash ommaning talab va ehtiyojlarini qondirish, ularning turmush darajalarini doimiy ravishda ko'tarilishini ta'min etish, mustamlakachilik siyosatidan voz kechish, boshqa davlatlarga nisbatan bosqinchilik va zo'ravonlik siyosatini qoralash, bunday choralarni amalga oshirish o'zini saqlab qolishni istagan har bir davlatning zaruriy burchi ekanligi, shunday siyosat amalga oshirilmasa, hukmron sinflar va mavjud siyosiy tuzum o'zining mustahkamligini va barqarorligini ta'min eta olmasligi o'z-o'zidan ayon bo'lib qoldi. Farovon hayotni ta'min etishning yagona to'g'ri yo'li, o'z mablag'larini saqlab qolish va yanada o'stirishning barcha e'tirozsiz qabul qiladigan imkoniyati - tenglik, demokratiya va insonparvarlik qoidalari asosida jamiyatni, davlatni bozor iqtisodiyoti munosabatlariga ko'chirish ekani ravshanlashdi.

Bozorda hamma teng: kimki tadbirkor, tashabbuskor, bilimli, o'tkir fikrli, g'ayratli bo'lsa, o'sha g'alabaga erishadi va tezroq boyiydi. Demak, hamma narsa har bir insonning o'z mutaxassisligini yaxshi bilishi, aqli, harakati, shijoatiga bog'liq. Bu esa kishilardagi ichki imkoniyatlarni uyg'otadi, harakatga keltiradi. Bozor iqtisodiyotiga tayanadigan davlatlar Ikkinchi jahon urushidan keyingi yarim asr ichida yuksak moddiy va ommaviy madaniyat cho'qqisiga chiqdilar. Ammo, ba'zi shaxslar va birlashmalarning ortiqcha boyib ketishiga yo'l qo'ymaslik maqsadida qator choralar

ko‘rildi: chunonchi, mablag‘i va olayotgan foydasi oshgan sari to‘lanadigan soliqning salmog‘i va foizi yanada tezroq oshib boradi.

Mustaqil O‘zbekistonning kelajagi menejment fani, usullari, yo‘llari va vositalarini to‘la, chuqur egallash bilan bog‘liq.

12-topshiriq:

a) matnni o‘qing, reja tuzing;

b) reja asosida matn mazmunini so‘zlab bering;

d) matnni rus tiliga tarjima qiling;

e) menejment fani, usullari, yo‘llari va vositalari haqida B\B\B jadvalini tuzing.

13-topshiriq. Quyidagi tayanch so‘z va iboralarning ma’nosini izohlang.

Ishlab chiqarish, zaxira, ko‘p tarmoqli, siyosat, mehnatkash omma, talab, ehtiyoj, mustamlakachilik siyosati, hukmron sinflar, insonparvarlik qoidalari, menejment, chuqur egallash.

14-topshiriq. Quyidagi matnni o‘zbek tiliga tarjima qiling.

Акционерное общество

Акционерное общество – это предприятие, капитал которого образовался путем взносов при покупке акций и облигаций многими лицами (акционерами).

Акции приносят их владельцам доход (дивиденд) и право голоса на собрании акционеров. Облигации приносят только доход в виде твердого процента.

Акционерное общество управляется правлением, избранным на общем собрании акционеров. Фактически управление акционерным обществом находится в руках самых крупных акционеров - владельцев большей части акций. Так как на общее собрание являются не все акционеры, то для большинства голосов достаточно иметь 5-20% всех акций.

Количество акций, дающее фактическое большинство голосов и возможность управления акционерным обществом, называется "контрольным пакетом".

Различают следующие виды акций: простые, именные, привилегированные. Акции можно продавать, дарить и оставлять в наследство.

15-topshiriq. Matnni o'zbek tiliga tarjima qiling, nomlang. Matnga reja tuzing. Reja asosida so'zlab bering.

«Все профессии нужны, все профессии важны» – эти строки справедливы и для профессии экономиста. Экономисты востребованы на всех предприятиях, как государственного, так и частного сектора, как в крупных корпорациях, так и в небольших компаниях, связанных с хозяйственно-экономической деятельностью. Иными словами – экономисты могут работать практически везде. Это вовсе не значит, что всякий выпускник экономического вуза универсален. Экономическое образование ведется по одному из нескольких десятков профилей, касающегося той или иной сферы в экономике (банковской, налоговой, финансовой и т.д.). Выбор профиля во многом определяет будущее место работы и должность.

Экономисты востребованы в компаниях, где требуется контролировать расходы, правильно рассчитывать средства, где необходим постоянный анализ экономической деятельности предприятия. Выпускники экономических вузов могут занимать должности бухгалтера, аудитора, экономиста по труду, планированию, финансовой работе или сбыту, банковского служащего, государственного служащего и многие другие.

Престижно ли быть экономистом? Компетентным, талантливым, эффективным экономистом быть очень престижно. Востребована ли профессия экономиста? Учитывая современное состояние экономики страны – несомненно, действительно грамотные и хорошие экономисты сейчас в дефиците

и, возможно, именно в них сейчас самая острая и насущная необходимость.

16-topshiriq. Matnni davom ettiring.

Men tanlagan kasb

Insoniyat yaralibdiki, o‘z qiziqish va intilishlari bilan olamni zabt etib kelmoqda. Kimdir yangi bir kashfiyot yaratib insoniyat hayotiga o‘zgartirish olib kirsa, yana kimdir bor imkoniyatlardan foydalanib insoniyat hayotini yengillashtirishga xizmat qilib kelmoqda. Asrlar, yillar o‘tishi bilan bu intilishlar bora-bora o‘zgacha bir nom bilan, ya’ni, kasblar degan termin bilan atala boshlandi.

Dunyoda turfa xildagi insonlar ko‘p bo‘lgani kabi kasblar ham turlichadir. Har kim o‘z xohish va istaklariga ko‘ra kasb tanlaydi. Imkon qadar o‘zi tanlagan kasbida faoliyat yurirtib, kamol topishni istaydi.

Shu insonlar qatorida men ham o‘z qiziqish va xohishimdan kelib chiqib buxgalterlik kasbini tanladim...

17-topshiriq. Matnda ajratib ko‘rsatilgan so‘zlarni izohlang.

Darhaqiqat, inson bu yoruq dunyoga kelar ekan ota-ona va jamiyat a`zolari, ularning turar-turmushi bilan qiziqadi. O‘z qiziqishlari ortidan kichik ***tajribalar*** o‘tkazadi ham. Bu kichik tajribalardan o‘lingan ***xulosalar*** yordamida “Men kim bo‘lsam ekan?” savoliga javob topishga harakat qilib boradi. Natijada bu ***izlanishlar*** kishiga kasb tanlash uchun yo‘l ochib beradi. Sababi, hamma ham yo‘qdan bor bo‘lmaganidek professor, shifokor, yozuvchi bo‘lib tug‘ilmaydi. Balki, jilolanib turgan oq xalatni ko‘rib, bir zum bo‘lsa-da, uni o‘zida ***tasavvur*** etadi, yoki, o‘zi qurgan bino mahobatidan lazzat olayotgan quruvchidek kelajakda mana shu zavqni tuyushni istaydi. Bularning barchasi bizning ***kasb*** tanlashimizga o‘z ta’sirini o‘tkazmasdan qolmaydi.

Shu o‘rinda kasb va ***kamolot*** kabi bir-biriga uyqash bo‘lgan ikki so‘zni mavzuga aloqadorligini ko‘rib o‘tsak.

Albatta, inson umri davomida muayyan ishi orqali ***obro'-e'tibor*** qozonishga harakat qiladi. Hayotining ajralmas bir bo'lagiga, ta'bir joiz bo'lsa, ***turar-turmush***ining tegirmon toshiga aylangan ***uzluksiz jarayon*** uning o'z kasbidir. Bu jarayon sayqal topib borishda kamolot bekatiga ham yetib boradi. Kamolot inson umri davomida erishmoqchi bo'lgan eng ***ulkan cho'qqi.***

Har birimiz erkin kasb tanlashda bizni o'rab turgan ***jamiyat***dan munosib o'rin egallashga harakat qilamiz. Bu borada kishining o'sha kasbga nisbatan ***layoqati*** alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki har birimiz o'z ***intellekt***imiz va ***imkoniyat***imiz doirasida, lozim bo'lsa, o'z sevgan kasbimizni tanlasakgina u orqali o'z o'rnimiz, o'z so'zimizga ega bo'lamiz.

24-MAVZU. HAYOT MENING TASAVVURIMDA

Azaldan ma'lumki, beparvo odam dushmandan ham xavfliroqdir. Chunki dushmanning kimligi, asl qiyofasi siz uchun oldindan ma'lum bo'ladi. Biroq loqayd va beparvo odamning qiyofasini birdaniga bilib bo'lmaydi. Shuning uchun u ichingizda yurib, sizga qarshi tish qayraydigan dushmanlar uchun imkoniyat yaratib beradi.

Mashhur faylasuflardan biri ana shu hayotiy haqiqatni chuqur tahlil etib, quyidagi haqqoniy fikrlarni bayon qilgan: "Dushmanlardan qo'rqma – nari borsa, ular seni o'ldirishi mumkin. Do'stlardan qo'rqma – nari borsa, ular senga xiyonat qilishi mumkin. Befarq odamlardan qo'rq – ular seni o'ldirmaydi ham, sotmaydi ham, faqat ularning jim va beparvo qarab turishi tufayli yer yuzida xiyonat va qotilliklar sodir bo'laveradi".

Islom Karimov

Hayot mening tasavvurimda

Hayot – go'yo rang-barang shisha solingan chiroqqa o'xshaydi. Kimgadir ayni damda og'ir, kimgadir yengil. Kimdir o'ziga do'st topa olmaydi, kimdir esa dunyoda eng baxtli odam. Lekin vaqt o'tib, bu narsalar ham o'zgaradi. Go'yo Sulaymon podshoning uzugidagi yozuvidek: "Bu ham o'tib ketadi".

Biz barchamiz hayot sinovlariga duch kelamiz. Buni o'zgartirib bo'lmaydi. Bo'lishi mumkin, qiynalamiz ham. Biroq bu qiyinchiliklar bizning ma'naviy va ruhiy rivojlanishimiz, o'sishimiz uchun kerak. Bundan ortig'i, agar bu qiyinchiliklarsiz biz o'z qo'rquvlarimiz, bo'sh taraflarimiz ustida ishlay olmaymiz.

Bizning hayot haqida tasavvurimiz bizning ichki dunyomizning aksidir. Hayot salbiy emas. Ijobiy ham emas. Hayot – bu hayot. Ijobiy, yoki salbiy belgilarni esa unga biz, o'z tasavvurimizga tayangan holda beramiz.

Shu sababdan bizning fikrlarimiz, orzularimiz, dunyoqarashimiz, niyatlarimiz qancha sof, rostgo'y, insonparvar bo'lsa, hayot ham bizga shunchalik sof, rostgo'y, insonparvar tuyuladi.

Garchi dunyoni o'zgartirmoqchi bo'lsang – o'zingdan boshla.

Hayotni biz faqat o'zimiz tuslaymiz va unga rang beramiz. Hayot juda o'zgaruvchan, va uning ertangi kunda yorqin va sof bo'lishini xohlasak, bu bizning qo'limizda.

Richard Teyler

1-topshiriq:

a) matnni o'qing;

b) matnga o'z munosabatingizni bildirib so'zlab bering.

2-topshiriq.

Hayotga o'z munosabatingizni bildiring va qiziqishlaringiz haqida gapirib bering.

3-topshiriq.

Hayotdagi o'z idealingizni tasvirlab bering.

4-topshiriq. Matnni o'qing. Matnga sarlavha toping.

Inson zoti borki, har daqiqada tug'ilgan yangi istaklarini qondirishni, amalga oshirishni istab yashaydi. Inson orzusini na aytib, na yetib tugata olasan! U shunchalar ko'p narsani istaydiki, ammo hammasi ham ushalavermaydi-da, negaki, xohishning o'zi kamlik qiladi. Sizdan "Eng katta orzuyingiz nima?" deb, hech so'rashganmi? Javob uchun albatta bir bahya bo'lsa ham to'xtab qolasiz, xayolingizga kelgan birinchi fikrni aytib yubormoqchi bo'lasiz-u, ammo ayta olmaysiz ...

Qizig'-a, orzuning ham katta-kichigi bo'lar ekanda. Orzu qilishlik siz uchun shunchalar muhimki, hatto o'zingiz ham bilmaysiz, uning hayotingizdagi o'rnini. Balki uning, ba'zilar uchun hech qanday ahamiyati yo'q, deb hisoblarsiz. Xuddi shu fikrlilarga qarata deymanki, orzu bu - hoy-u, havas emas. U insoniyatning shu bugungi kunga yetib kelishiga sababchi bo'lgan eng mustahkam

tirgakdir. Inson orzusi nimalarga xizmat qilmaydi deysiz, qabohatga ham, saodatga ham yetaklaydi sizni. Bir vaqtlar bobomdan "Hamma narsa niyatlarga bog'liq", deganlarini eshitgandim, ammo unda hech nimani tushunmagam edim. Sekin-asta inson ulg'aya boshlar ekan, bolalikdagi "katta bo'lish" orzusi o'rniga, "bolalikka qaytish" istagi mavj urar ekan. Bu hayot biz uchun eng katta muallimdir, yurtning bag'rida o'tgan har bir kunim esa olayotgan darsim ekan. Orzular esa muallim hayotning pastu balandiga chidashni va bu sabrimiz orqali olajak mukofotimiz ekan.

Mening orzuyimga kelsak, bilmadim uni nima deb atay? Ammo tilagim, istagim shuki, insoniyatga cheksiz sabr. Vatan uchun, uni qadrlovchi va bu burchni qarz deb bilguvchi farzand. Qalb orzusi esa sir tutilmog'i lozim deb o'ylayman, aks holda sirli insoniyatning sirliligidan, asar ham qolmaydi... Orzu... Nima o'zi u? Inson orzu qilmasdan yashay oladimi? Orzular faqat yaxshilikka xizmat qiladimi? Yoki yovuzlikka hammi? Orzu va istakning qanday farqlari bor? Orzu, istakdan ustun turadimi? Siz ham bu savollarga javob axtarib ko'ring, balki orzuyingizga bo'lgan ishonchingiz mustahkamlanar.

GRAMMATIKA

Dialogik matnning ma'no munosabatiga ko'ra turlari

Matn ikki xil ko'rinishda bo'ladi: dialogik va monologik. Dialogik matn ikki va undan ortiq suhbatdoshning turlicha mazmundagi fikr-axborot almashinuvidan iborat. Ikki kishi o'rtasidagi dialog nutq savol-javob, buyruq-javob, xabar-e'tiroz kabi mazmunlarda bo'lib, fikr xususidagi tasdiq yoki inkorni, ziddiyat yoki munozarani ifodalaydi. Ko'p kishilik dialoglarda suhbat mavzusi savol-javobdan iborat bo'lmay, o'rtaga tashlangan savol, taklif, da'vat biror xabar, dalillar bilan xulosalanadi.

Dialogik matn tarkibida so'roq olmoshlari, muomala odobiga oid so'z va iboralar, yuklamalar, undovlar, kirish so'zlar keng qo'llanadi. Bunday matndagi gaplar, asosan, sodda gaplardan tashkil topadi, sodda gaplarning bir tarkibli turlari, to'liqsiz gaplar, so'z-

gaplar faol ishlatiladi. Dialogik matn so'zlashuv uslubi va badiiy uslubga xosdir.


5-topshiriq.

Badiiy adabiyot namunalaridan *badiiy uslubga* xos dialogik matn toping va uni daftaringizga ko'chirib yozing.

6-topshiriq.

"Insonning hayotda o'z o'rnini topishi" mavzusi bo'yicha "Davra suhbati" tashkil eting hamda bahs-munozarada ishtirok eting.

"DAVRA SUHBATI" METODI



Mavzuni moderator boshlaydi, qolganlar aylana bo'ylab o'z fikrlarini ketma-ket davom ettiradilar. Barcha fikr-mulohazalar tinglab bo'lingach, mavzu muhokama qilinadi. Bu esa ishtirokchilarning mustaqil fikrlashiga va nutq madaniyatining rivojlanishiga yordam beradi.

7-topshiriq.

Matnni o'qing. Inson barkamollikka erishishi uchun nimalar qilishi kerakligi haqida fikr bildiring. Matn mazmunini o'z fikrlaringiz bilan boyitib rus tilida so'zlab bering.

Hayot... Qisqa so'z. Biroq bu so'z ostida qancha mazmun bor. Hech bir inson va hech bir tavsif hayot nima ekanligini to'liq tushuntirib bera olmaydi.

Ammo biz urinib ko'rishimiz mumkin. Hayotda muhim narsalar bor. Inson esa bu narsalarni ertami, kechmi, o'zidan o'tkazishi kerak.

Bu shaxsning rivojlanishi, o‘z ustida ishlashi uchun muhim qadamlardir.

Hayotda qiyin va oson, mayus va baxtli hodisalar ko‘p bo‘ladi. Hech kim “faqat yaxshi”, yoki “faqat yomon” deya olmaydi. Kimnidir hayot sinovlardan o‘tkazadi. Kimnidir esa, mehnatkashligi, dovyurakligi, yohud saxiyligi kabi yaxshi sifatlari uchun siylaydi. Hayot sinovlari ham turlicha bo‘ladi. Kimdir uchun bu sinovlar og‘ir o‘tadi va oxiri bu odamlar hayot sinovlariga bardosh bera olgani uchun mukofotlanadi.

Ba’zilarga esa, hayot sinov tarzida boylik yuboradi, va odamlar uchun bu sinov insoniylik ijobiy sifatlari uchun eng og‘ir sinovlarga aylanadi. Gohida bu odamlarni bardoshi chidamay, hasadli, qizg‘anchiq, ochko‘z odamlarga aylanadilar. Shu payt, o‘ylab ko‘rishimiz kerak: hayot mazmuni nimada?

Hayot mazmuni

Bu hayotda biz ko‘plab odamlarni uchratamiz, ko‘plab mo‘jizalar va hodisalarni ko‘zdan kechiramiz. Keling, bulardan bir nechtasini ko‘rib chiqamiz. Ya’ni, bu hayotni eng go‘zal taraflarini ko‘rib chiqamiz.

Men.

Men, bu aynan men emas. “Men” – bu insonning ongi, ichki dunyosi, o‘zini o‘zi qanday sifatda tasavvur qilishidir. Insonni ongi bu dunyoda boshqa hech qaysi jonzotga berilmagan. Yer sharida faqat inson “Men kimman?”, “Hayotda o‘rnim qanday?” kabi savollarni o‘ziga bera oladi.

Menimcha, bu singari savollarni o‘ziga o‘zi berayotgan odam o‘z ustida, hulqi, ongi ustida ishlaydigan bo‘ladi. Odam borki, u o‘z ustida ishlashi, komillikga intilishi shartdir. Har bir insonnig dunyo bilan muloqoti “men”dan boshlanadi, va huddi shunday, “men” bilan tugaydi.

Oila.

Oila bu bizning o‘tmishimiz, hozirgi davrimiz va bizning kelajagimizdir. Biz oiladan boshlanamiz va oilani davom ettirish bizning burchimizdir.

Oila muhimligi bizning xalqimizni ota-onaga ko'rsatadigan hurmatida juda yaqqol ko'rsatilgan. Kattalarga hurmat bizning madaniyatimiz belgilaridan biridir.

Bundan tashqari, hayotimiz qancha davom etmasin, bizning oilamiz bizni baxtli bo'lishimizga sabab bola oladi. Oilaga bag'ishlangan hayot mazmunsiz o'tgan bo'lmaydi.

Oilada mehr ko'rgan onaning, bolasiga bo'lgan muhabbatini ko'zidan ko'rsa bo'ladi. Farzand azobi – uning azobi, farzand baxti esa, onaning baxtidir. Ona muhabbati o'ta kuchli. Hatto eng yoqimsiz, salbiy odam ham o'z onasi uchun dunyodagi barcha boyliklaridan qimmat.

Ota. Otamiz bizni tarbiya qiladi. Bolasini, oilasini bir bo'lak ozuqasini yetkazish uchun, oilasi muhofazasi uchun, na o'z sog'lig'ini va na kuchini ayamaydi. Kerak bo'lsa, oilam deb, kun-u-tun mehnat qilishga, el-yurti uchun kurashishga tayyor. Ota bizning el-yurtimizni g'ururini va mehnatsevarligini yaqqol ifodalaydi.

Er va ayol. Oila – bu jamiyat asosidir. Ular birga yashar, hayotini bir biriga bag'ishlar ekan, ular baxtlidirlar.

Farzand. Farzand bu ko'plab oilalarni baxtli qilgan mo'jizadir. Ikki inson muhabbatidan dunyoda yangi hayot paydo bo'ladi. Farzand tug'ilishi – oilani davom etishi deganidir. Farzand ko'rmagan oila o'z baxtini mukammalligini ta'kidlay olmaydi. Ota-onalar o'z hayotini, yashash mazmunini farzandlariga bag'ishlaydi. O'zi yemaganini farzandiga yedirib, o'zi erishmagan orzularini farzandlariga tilab, o'zi intilib yeta olmagan hayotini farzandlariga yetkazadilar. Yaxshi o'sgan, yaxshi tarbiya ko'rgan, ongli farzandlar ota-onasini doimo hursand qilib, hech qachon ularning sochiga oq tushurmaslikka harakat qiladilar.

Richard Teyler

8-topshiriq. Matnni o'qing. Matn mazmunidan xulosa chiqarib dialogik matn tuzing va uni inssenirovka qiling.

Do'stlik

Do'stlik bu insonlar orasidagi juda muhim munosabat. Do'sti bor odam hech qachon o'zini yolg'iz his qilmaydi. Do'stlar bir-

biriga mehribon, g'amxo'r, vafodor, mehr-oqibatli bo'lishi kerak. Do'st doim yordam qo'lini uzatishga tayyor.

Dostlik haqida bir ertak bor va men sizga uni aytib bermoqchiman:

"Uch aka-uka yo'lda ketayotgan ekan. Kam yurishibdimi, ko'pmi, yo'lda bir o'raga duch kelishibdi.

O'ra chetiga kelib, ichiga qarashsa, ichida kimdir yig'lab o'tirgan ekan.

- Sen kimsan,- deb so'rabdi undan katta akasi.

- Men Baxtman,- debdi o'radagi, – odamlarni tilagini bajaraman – deb davom etdi u.

- Baxt bo'lsang, bizni ham tilaklarimizni bajarasanmi,- deb so'rabdi o'rtancha uka.

- Bajaraman,- debdi Baxt.

- Men boy bo'lmoqchiman,- debdi katta aka.

Baxt unga bir qop tilla tangalarni beribdi. Katta aka xursand bo'lib, qopini ko'targanicha, ketibdi.

- Men esa, bilimli bo'lmoqchiman, menga bilim ber,- deb so'rabdi o'rtancha uka.

Baxt bu tilakni ham bajaribdi va o'rta uka, bilimli bo'lib, yo'l bo'yicha ketibdi.

- Sen esa nimani tilaysan,- deb so'rabdi Baxt kenja ukadan.

- Sen-chi, nima xohlaysan,- deb so'rabdi kenja uka.

- Men bu o'radan chiqmoqchiman, - deb aytibdi baxt.

Kenja uka yaqin atrofda izlab uzun daraxt shohini topdi-da, Baxtni chiqarib olibdi.

- Endi ayt-chi, nima istaysan? - debdi Baxt. Xohlasang, seni ikkala akangdan ham boy va bilimli qilaman debdi u.

- Menga hech narsa kerak emas,- dedi kenja uka. Menga faqat do'st kerak, - debdi u.

- Unda men sening do'sting bo'laman,- debdi Baxt.

Shundan keyin kenja uka yo'lini davom ettiribdi, Baxt esa, uning do'sti bo'lib, ketidan yurarmush".

Bu voqeadan xulosa qilishimiz mumkinki, do'sti bor odamning ketidan baxt o'zi yuradi.

Bu voqeadan ko'rib turibsiz-ki, do'stlik ham baxtga olib keladi.

9-topshiriq. **Matnga o'z fikrlaringizni bildirib so'zlab bering.**

Salomatlik

Sog'liq juda muhimdir. Bu qadimgi davrlardan kelgan fikr "Valetundo – magnum bonum est." – lotin tilida "Salomatlik – eng katta boylikdir".

Sog'liqni yoshlikdan asrab-avaylash juda muhim. Inson nafaqat aqlini takomillashtirishga, balki jismoniy rivojlanishga intilishi kerak. Sababi komillik faqatgina ruhiy, xulqiy, yoki jismoniy emas, balki har taraflama bo'lishi shart.

Sog'liqni saqlash uchun turlicha chora-tadbirlar o'tkaziladi:

1. Uyqu. Uyqu doimo me'yorda bo'lishi kerak. Har bir odamning uyquga talabi bo'ladi. O'rtacha uyqu vaqti 7 – 8 soat hisoblanadi. Uyqu paytida odam organizmi tiklanish qobiliyatiga ega. Erta yotib, erta turganni ancha foydali deb hisoblashadi. Garchi siz har kuni bir vaqtda yotib, bir vaqtda tursangiz, sizning tanangiz sizdan minnatdor bo'lib, yaxshi xizmat qiladi.

2. Parhez. Parhez deganda, ovqatlanishdan bosh tortish emas, balki to'g'ri ovqatlanishni ko'proq nazarda tutamiz. Buning uchun, quyidagi qoidalarni bajarish shart. Zavod va fabrikalarda ishlab chiqarilgan ozuqa va ichimliklarni iste'mol qilmaslik. Ko'proq tabiiy holda tayyorlangan masalliqlardan ovqat tayyorlash. Meva va sabzavotlarni ko'proq iste'mol qilish. Oz miqdorda, biroq kuniga 5 – 6 mahal ovqatlanish. Yaxhi sozlangan ovqat hazm qilish tizimli odam har 4 soatda yengil ovqatlanishi kerak. Ovqatlangandan so'ng, odamda yengil ochlik tuyg'usi qolishi kerak. Agar har kuni bir vaqtda ovqatlansangiz, ozuqadan ko'proq foyda ko'rasiz.

3. Mehnat va dam. O'z vaqtida mehnat qilib, o'z vaqtida dam olish juda yaxshi odatdir.

4. Jismoniy tarbiya. Har kuni 15-30 daqiqa ichida jismoniy tarbiya bilan shug'ullasangiz, bu ham sizni hayotingizni sifatini oshirib, ko'p kasalliklardan asraydi.

5. Suv ichish. Hozirgi kunda ko'p odamlar juda ko'p choy, qahva, gazli ichimlik va limonadlar iste'mol qiladilar. Lekin bizning organizmimizga bular emas, balki oddiy ichimlik suvi kerakdir. Odam sog'liq uchun vazniga qarab har kuni 1,5 – 2 litr suv ichishi kerak.

6. Zararli odatlardan bosh tortish zarur.

10-topshiriq.

"Hayot mening tasavvurimda" mavzusida esse yozing.

11-topshiriq.

Hayotdagi maqsadlaringiz va orzularingiz haqida dialogik matn tuzing va uni inssenirovka qiling.

12-topshiriq.

Badiiy adabiyot namunalaridan *so'zlashuv* uslubiga xos dialogik matn toping va uning o'ziga xos jihatlarini izohlang.

13-topshiriq. She'rni nasriy matnga aylantirib daftaringizga ko'chiring. Matn mazmunini o'z fikr-qarashlaringiz bilan to'ldiring va xulosa yozing.

Vaqt

Shundoq yonimizdan o'tib ketdi u!
O'tib ketdi, sira qaytib kelmaydi.
Bu yo'l faqat oldga - orqaga yo'l yo'q,
Bizdan bo'sh ketgan Vaqt - u yerda daydi.
Shundoq yonimizdan o'tib ketdi u,
Ko'rmay qoldik uni yo ko'z yumdik jim.
U bir yaqin do'stdek, biz qo'l bermagach,
Bosh egib yo'liga jo'nadi sekin.
U do'stimiz edi - biz chap bergan Vaqt!
Undan yuz o'girdik, yuz o'girdik biz.
Ming afsus yesang ham, u qaytmas endi,
Ranjitgan bu do'sting kelmas yuzma-yuz. *(O.Matjon).*

14-topshiriq. She'rni yod oling.

Abdulla Oripov

Sen bahorni sog'inmadingmi?

Uyg'onguvchi bog'larni kezdim,
Topay dedim qirdan izingni.
Yonog'ingdan rang olgan dedim -
Lolazorga burdim yuzimni,
Uchratmadim ammo o'zingni,
- Sen bahorni sog'inmadingmi?

Uzoqlarda zalvorli tog'lar
Xayolimni keldilar bosib.
Kechdi qancha intizor chog'lar,
Vasling menga bo'lmadi nasib,
Sensiz men ham, bahor ham g'arib,
- Sen bahorni sog'inmadingmi?

O'ngirlarda sakraydi ohu,
Na'matakda sa'va mittijon.
Qorliklardan sipqarilgan suv,
Daralarda uradi javlon.
Nigohimdan faqat sen pinhon,
- Sen bahorni sog'inmadingmi?
Mana, bugun Navro'zi olam,
Do'stlarimga gullar tutarman.
Qaylardasan, sevgili erkam...
Qo'limda gul, seni kutarman,
Umrim bo'yi chorlab o'tarman,
- Sen bahorni sog'inmadingmi?

15-topshiriq. Matnni o'qing. O'z munosabatingizni bildirib so'zlab bering.

Insoniylik o‘tmishda qoldimi?

Insoniylik hamisha yer yuzidagi insonlar uchun bebaho fazilat hisoblangan. O‘lkamizning olis o‘tmishiga nazar tashlasak, mehnatsevarlik, insoniylik, vatanparvarlik hislari o‘sha zamon insonlari hayotining mazmuni bo‘lgan. Buyuk bobokalonlarimiz hisoblanmish Jaloliddin Manguberdi, Amir Temur va boshqalarning hayotga tashlagan nazari, insoniylik fazilatlari bugungi kun yoshlari uchun yot bo‘lib ketdimi?

Innovatsion texnologiyalar asri hisoblanmish XXI asrda shunday atalmish “Instagram”, “Facebook” va “Odnoklassniki” ijtimoiy tarmoqlari bizni nafaqat vaqtimizni, halovatimizni va tinchligimizni o‘g‘irlab qolmasdan, insonga xos xususiyatlarimizni ham cheklamoqda. Kitob o‘qish uchun kechalari sham yorug‘ida bilim olgan ajdodlarimiz va zamonamizning “yevropalashgan” yigit-qizlariga nazar tashlasak yuzimiz shuvut bo‘ladi. O‘tmishda insonlarga yaxshilik ulashish, mehr berish, musulmonlar uchun muqaddas hisoblanmish hayit bayramlarida qarindoshlarni yoqlash, va qabrlarni ziyorat qilish odamiylik hisoblangan bo‘lsa, hozirda ijtimoiy tarmoqlarga rasm joylab ko‘proq “like” yig‘ish va foydalanuvchilar “mehri”ga sazovor bo‘lish, bo‘lib qoldi, desak hech ham mubolag‘a bo‘lmaydi. Qayerda ovqatlangani, qanday kiyim kiygani, qaysi brend ostidagi atir-upalardan foydalanayotganini ommaga tinimsiz tarzda namoyish qilayotgan yoshlarimizni ko‘rib “boshqa g‘am tashvishlari yo‘qmikin?” degan savol tug‘iladi, ba’zida. Shunday yoshlarimizning aksariyat qismi o‘quv dargohlarida “qoniqarli” baholarga o‘qishi mumkin, ammo ijtimoiy tarmoq “yakunlarini” “a’lo” baho bilan tugatadilar. Bu – o‘zbeklarimiz uchun qadrli hisoblangan odob-axloq va tarbiya sustlashib ketganidan dalolat beradi. O‘zbekiston Respublikasi bo‘ylab yosh oilalarning ajralish ko‘rsatkichlarining 33%i ijtimoiy tarmoqlar va mobil aloqa vositalari sababli ekanligini alohida ko‘rsatib o‘tish zarur. Kitoblar bilan katta bo‘lgan ota-onalarimiz o‘z farzandlari tarbiyasi bilan to‘liq shug‘ullana olmayotgan bir paytda, jadal rivojlanish asrida yashayotgan yigit-qizlar o‘z farzandlari tarbiyasi

bilan shug‘ullana olmaydi, albatta. “Farzandlarimiz bizdan ko‘ra kuchli, bizdan ko‘ra, bilimli, dono va albatta baxtli bo‘lishlari shart” deb to‘xtovsiz ta’kidlangan va “Yurtimiz kelajagi yoshlar qo‘lida” deya keng imkoniyatlar yo‘lini ochgan birinchi Prezidentimiz Islom Abdug‘aniyevich Karimov gaplarini eslab, biz uchun jon kuydirayotgan insonlar borligini bilib, kerakli xulosalarni chiqaraylik, zero Biz hech qachon hech kimdan kam bo‘lmaganmiz, kam bo‘lmaymiz ham.

16-topshiriq. Matnni o‘qing, tarjima qiling. Matn nima uchun shunday nomlanganligini izohlang.

Злейший враг

Однажды Суворов вызвал одного офицера, который отличался болтливостью. Суворов закрыл дверь на замок и сказал офицеру под видом величайшего секрета, что у него есть злейший враг и опаснейший враг. Этот враг все время ему все портит.

Офицер встревожился этим сообщением Суворова и стал называть тех, кого считал своими злейшими и опаснейшими врагами.

Он хотел угадать, о ком именно говорит фельдмаршал, и называл знакомых одного за другим. Но Суворов махал руками и говорил: «Нет, не тот, вовсе не тот!».

Затем Суворов, сделав вид, что это строжайший секрет, подошел на цыпочках к окнам и дверям, внимательнейшим образом проверил, не подслушивают ли их, и шепнул офицеру: «Высунь язык».

Офицер выполнил приказ фельдмаршала. Тогда Суворов указал пальцем на его язык и сказал: «Вот он. Вот кто твой злейший и опаснейший враг».

17-topshiriq. **Matnni o‘qing, tarjima qiling. Ezopning javoblariga o‘z munosabatingizni bildirib matnni gapirib bering.**

Язык

Эзоп, знаменитый баснописец древней Греции, был рабом философа Ксанфа.

Однажды Ксанф пригласил гостей и приказал Эзопу приготовить на обед самое лучшее. Эзоп купил несколько языков и приготовил из них блюда. На вопрос Ксанфа, почему Эзоп приготовил только языки, тот ответил: «Ты велел приготовить самое лучшее, а что дороже языка? При помощи языка изучаются науки и приобретаются знания, посредством языка мы объясняемся друг с другом, решаем различные вопросы, даем советы, получаем ответы, вдохновляем друг друга. При помощи языка развивается культура народов. Думаю, что нет ничего лучше языка».

Такое рассуждение понравилось всем присутствующим.

В другой раз Ксанф приказал Эзопу купить на обед самое худшее. Эзоп опять купил языки. Гости удивились. Тогда Эзоп сказал Ксанфу: «Ты велел купить самое худшее. А что хуже языка? Посредством языка мы ссоримся, огорчаем друг друга, разговариваем, обманываем, хитрим. Язык делает людей врагами, разрушает целые государства. Он вносит в нашу жизнь горе и зло. Может ли быть что-нибудь хуже языка?». Говорят, что ответ не всем присутствовавшим понравился.

25-MAVZU. USTOZ MAKTABI

Insonga biror nima o'rgatishning eng maqbul usuli – unga shaxsan o'rnak ko'rsatishdir.
A. Eynshteyn

Ustoz maktabi



Ustoz! Shu birgina so'z zamirida olam-olam ma'no va hurmat mujassam. O'qituvchi-sofdil, kamtarin, ma'naviy boy, axloqan pok insondir. Ularning poyiga guldastalar sochsak, doimo hurmatlarini ado etib, ardoqlasak arziydi. Chunki ustozlar butun kuchlarini, aql-idroklarini, bilim va zehnlarini, qalb qo'riyu sehrlarini shogirdlariga baxshida etgan zahmatkashlardir. Ular bizlarga oq-qorani, yaxshiyu yomonni tanitib, qo'llarimizga ilk bor qalam tutqazib, "Ota", "Ona", "Vatan", "Ezgulik", "Baxt", "Saodat" kabi so'zlarni yozishga o'rgatgan buyuk zotlardir. Muallim shunday ulug' zotki, uning oldiga kelmagan odam to'laqonli bo'la olmaydi. O'tgan istiqlol yillarida yurtimizda olamshumul o'zgarishlar ro'y berdi. Ayniqsa, jamiyatimizning muhim bo'g'ini bo'lgan ta'lim tizimida olib borilgan tub islohotlar aziz-u mukarram ustozlarning mehnatiga bo'lgan ulkan e'tiborning yanada oshganida, bu borada erishilayotgan mislsiz muvaffaqiyatlarda yaqqol ko'rinmoqda. Istiqlol bergan imkoniyatlardan unumli foydalanib, bor ilm-u iqtidori va qalb mehrini yosh avlod ta'lim-tarbiyasiga baxshida etib kelayotgan ustoz-murabbiylar juda ko'p. Ustoz! Ustoz deganda biz avvalo, o'tmish va kelajakni ko'z oldimizga keltiramiz. Ustoz bir yosh qalbni olam-olam ziyoga yo'llaydigan zot. Bizning qalbimiz go'yoki gard yuqmagan oq qog'ozga o'xshaydi. Bu qog'ozning yuziga dog' tushirmay, unga faqat va faqat ezgulik, mehr-muhabbat kabi satrlarni yozish faqat

shu aziz va buyuk insonlarning qo'lidan keladi. Dunyodagi eng ulug', eng buyuk va eng mashaqqatli kasb muallimlik kasbidir. Bu kasb egalari esa dunyodagi eng ulug', eng buyuk insonlardir. Ular kelajak avlodni mashaqqat ila tarbiyalaydilar, ta'lim beradilar. Yosh avlodni ta'lim-tarbiyasi eng nozik masala. Bu kasbning mashaqqati ham, mas'uliyati ham shunda. Hayotning o'nqir-cho'nqir, egri-bugri yo'llaridan ezgulik tomon yo'llaydigan bu-muallimdir. Muallimning ta'lim-tarbiyasi, nasihat-u saboqlari ila har qanday qiyinchilikdan osongina o'tib olish mumkin. Muallim saboqlari hayotimizda qiyinchiliklarga chidash va ularni yengishga, sabr-toqatli, metin irodali, pok vijdonli va boshqa ulug' fazilatlarga ega bo'lishga yordam beradi. Aziz-u mukarram ustoz va murab-biylarimizning bizdan umidi katta. Biz bu e'tiborni, ishonchni suiste'mol qilmasligimiz, ularni doimo qadrlashimiz lozim. Ularning ishonchini oqlash - eng oliy burchimizdir. Ustoz-muallimlarga mehr-muhabbat hislari bilan yo'g'rilgan bu so'zlar har bir vatandoshimiz ko'nglidagi ezgu muddaosini ifodalaydi. Respublikamizda ta'lim yetti tilda amalga oshiriladi. Qaysi tilda: o'zbek, qoraqalpoq, tojik, rus, qozoq, qirg'iz yoki turkman tilida ta'lim berilishidan qat'iy nazar har bir o'quvchining umumiy o'rta ta'lim davlat standarti bilan shartlangan bilimni to'liq olish imkoniyati kafolatlangan.

Kim uchun dunyoda shuhrat,
Kimgadir haq zahmati aziz.
Sizga-chi el-yurtning rahmati aziz,
Mudom baland erur sizga e'zozim.
Baxtimga bor bo'ling, aziz ustozim!
Insonga duch bo'lgay turfa xil yo'llar,
Gohi tog'lar oshsa, goh kezar cho'llar.
Ba'zan ta'qib etsa, chaqmoqlar, do'llar,
Hech vaqt adashmagay aql tarozim,
Baxtimga bor bo'ling, aziz ustozim!

1-topshiriq:
a) matnni o‘qing;
b) matndagi termin va iboralarning ma’nosini izohlang;
d) matnni ijodiy so‘zlab bering.

2-topshiriq. Kasbiy faoliyatda ustoz va shogird an’analari to‘g‘risida matn tuzing.

3-topshiriq. Ustozlar haqida esse yozing.

GRAMMATIKA

Monologik matn. Monologik matnda mazmun izchilligi va ohang

Ma’lum voqelik haqida tasavvur (ma’lumot) beradigan bir yoki bir necha sintaktik birliklardan tashkil topgan nutqiy butunlik matn hisoblanadi. Matn ma’lum fikrlar yig‘indisi hisoblangan nutq, nashrdan chiqqan asardir. U o‘ziga xos asar hisoblanadi va mazmunga (ilmiy, rasmiy, badiiy va hokazo) yoki hujjat xarakteriga ega bo‘ladi.

Matn ikki xil ko‘rinishda bo‘ladi: dialogik va monologik.

Tavsifiy (monologik) matn so‘zlovchi yoki yozuvchi tomonidan bayon etilgan voqea-hodisa, narsa yoki shaxs tasviri, tavsifi yoxud xabar, ma’lumot bayonidir. Maqola, insho ham tavsifiy matnning bir turi sanaladi. Ma’lum voqea-hodisalarga, narsa va shaxslarga oid fikr-mulohaza bildirish, ularni badiiy-tasviriy vositalar yoki dalillar bilan ta’riflash, izohlash, isbotlash, asoslash tavsifiy matnga xos xususiyatlardandir. Shuning uchun bunday matnda belgi-xususiyat ifodalovchi so‘zlar, atamalar, modal so‘zlar, fe’lning funksional shakllari, ravishlar faol qo‘llaniladi. Tavsifiy matn yaratishda uyushiq bo‘laklar, ajratilgan gap bo‘laklari, atov gaplar, sodda gaplar, qo‘shma gap ko‘rinishlaridan ham keng foydalaniladi.

4-topshiriq.

Keys

O‘qituvchilar xonasida ikki o‘qituvchi suhbatlashayapti:

- Har bir o‘qituvchi notiq bo‘lishi lozim, - dedi birinchi o‘qituvchi. Ikkinchi o‘qituvchi unga e’tiroz bildirdi:

- Kechirasiz, har kim ham notiq bo‘la olmaydi. O‘qituvchi muloqot madaniyatini puxta egallagan bo‘lsa, yetarli.

Savol:

1. Siz qaysi o‘qituvchining fikrini yoqlagan bo‘lardingiz?
2. Madaniyatli o‘qituvchi deganda kimni tushunasiz?
3. Sizning fikringizcha bu suhbat qanday tugashi mumkin?

5-topshiriq.

Ustoz haqidagi rivoyatlardan namunalar yozing.

6-topshiriq.

“Abu Nasr Forobiy va uning buyuk asarlari” mavzusi bo‘yicha monologik matn tuzing.

7-topshiriq. Ustozlarga bag‘ishlangan she’rni yod oling.

Ustozlar

Mehr nuri yog‘ar doim ko‘zingizdan, ustozlar,
Yursam deyman bu tabarruk izingizdan, ustozlar.
Chin insonlik kitobiga bahtu hikmat bitibsiz,
Odob ila bilim oldim so‘zingizdan, ustozlar.

Qalbingizning yo‘q g‘ubori, mehribonsiz shunchalar,
Quyosh olmish haroratin yuzingizdan, ustozlar.
Fan bog‘ining bog‘bonisiz, charog‘bonsiz ko‘ngilga,
Ming ehtirom o‘g‘lingizdan, qizingizdan, ustozlar.

Joy oldingiz bir umrga shogird yurak to‘ridan,
Mo‘min hayot darsin o‘qir o‘zingizdan,ustozlar.

Po‘lat Mo‘min

Oddiy muallim

Qadri bilinadi endi menga goh,
Oddiy maktabimning o‘sha behasham,
Navoiy-ku bizga ustozdir, biroq,
Kimdir o‘qitgan-ku Alisherni ham!
Shunday buyuk zotga harf o‘rgatgan kim?
Oddiy muallim-da, oddiy muallim!

Ayagan hayotning sanchiqlaridan,
Yiqilsa ko‘targan to‘siqlaridan,
Otadek ezilgan, g‘ussaga botsa,
Boladek quvongan yutuqlaridan.
Uyquda shogirdin o‘ylab yotgan kim?
Oddiy muallim-da, oddiy muallim!

Yo‘qdan Beruniyni binolar qilgan,
Husaynni Ibn Sinolar qilgan,
Mashrabni mashhuri dunyolar qilgan.
Abdulloning tilin burrolar qilgan,
Ilon o‘ynatgandek so‘z o‘ynatgan kim?
Oddiy muallim-da, oddiy muallim!

Yuzga kiraman men Hudo hohlasa,
Ehtimol, yuzdan ham o‘tarman bir kun.
Qaynoq quchog‘ida hurlar chorlasa,
Hech kimdan qarzim yo‘q ketarman bir kun.
Bo‘lsa ham, bir zotda bo‘ladi qarzim,
Oddiy muallim u, oddiy muallim!

Muhammad Yusuf.

8- topshiriq. “Mening ibratli ustozim”

Sizga ta’lim bergan va berayotgan ustozlaringiz orasida o‘z nutqini ko‘rkam yuz ifodalari hamda xatti-harakatlar bilan qo‘shib namoyon etuvchilar bormi? Ularning sizga yoqqan tomonlarini so‘zlab bering.

9-topshiriq.

"Ohang va munosabat".

Munosabatni o'zgartirib biron so'z yoki jumlani (masalan, "Kiring", "Shu ishni qildingizmi?", "Keling" va h.k.) talaffuz qiling. Mashqni ishchan o'yin shaklida o'tkazgan ma'qul. Bunda so'zlovchi tanlagan so'z yoki jumlani aytadi, tinglovchi uning qaysi ma'no va ohangda aytganini topishga harakat qiladi.

10-topshiriq. Matndan foydalanib "Yaxshi degan nomga munosib inson" mavzusida monologik nutq tayyorlang.

Axloq ne'matining lazzatlaridan baramand bo'lgan kishilar aytadilarki, chaqirilmagan joyga qorin to'ydirish maqsadida bormoq – bu shunday qudratli seldirki, bu sel obro' va izzat asoslarini hamda tomirini butunlay qo'porib tashlaydi. Yoki shunday shu'ladirki, uning zavol qiluvchi yashini izzat va hurmat xirmonini yondirib yuboradi. Agar kishi ehtirom va e'tibor gavharini qidiruvchilardan bo'lsa, gavhar kabi yashirin bo'lsin, toki izlovchilar orzu g'avg'osi bilan uni qo'lga kiritsinlar. Ulug' hakimlarning aytishlaricha, sakkiz xil kishi baxtu saodatsiz bo'lib, yaxshi degan nomdan uzog'u ovora bo'ladilar:

Birinchisi – qorin to'ydirish maqsadida odamlarning uyiga taklifsiz borgan kishi;

Ikkinchisi – ziyofat va anjumanlarda to'rga o'tirishni talashib, to'rda o'tirgan odamlar orasiga xiralik bilan joylashgan kishi;

Uchinchisi – uy egasidan qudrati yetmagan narsani talab qilgan mehmon;

To'rtinchisi – ochko'z kishilarning uyiga hojat talab qilib borgan kishi;

Beshinchisi – dushmanidan madad va yaxshilik talab qilgan shaxs;

Oltinchisi – olim va mansabdor kishilarni g'iybat qiluvchi inson;

Yettinchisi – biror yerga borib, o‘sha joyda xijolatlilik paydo qilgan kishi;

Sakkizinchisi – davralarda hech kim gapiga quloq solmayotgan bo‘lsa ham gapiraveradigan kishi.

11-topshiriq. Matnni o‘zbek tiliga tarjima qiling.

Финансы

Финансы - денежная система, включающая в себя все виды денежных средств и происходящие с ними трансформации в процессе их применения. Словом, к финансам относятся наличные деньги, включая инвалюту, безналичные деньги на счетах и во вкладах, ценные бумаги, обладающие способностью быть денежным эквивалентом. Причем, относятся они к финансам независимо от их принадлежности частному лицу или государству.

Взаимодействие в денежной форме между государством, предприятиями и населением называется финансовыми отношениями. Регулирование со стороны государства финансовой системы при перераспределении денежных потоков на всех уровнях экономики называется финансовой политикой.

Финансы - кровеносная система экономики. Как престиж государства измеряется прочностью национальной валюты, так и репутация фирмы определяется финансовой устойчивостью. Показатели финансовой системы - надежный индикатор состояния экономики.

12-topshiriq. Matnni o‘qing, tarjima qiling va qaysi uslubga xosligini aniqlang. Boshqa nutq uslublariga o‘giring.

O‘zbek xalqi azaldan o‘zining bolajonligi bilan ajralib turadi. Albatta, farzandga mehr qo‘yish, ularning qornini to‘q, ustini but qilish o‘z yo‘li bilan, lekin bolalarimizni sog‘lom qilib tarbiyalash, milliy ma‘naviyatimiz asosida voyaga yetkazish doimo dolzarb

ahamiyat kasb etgan. Sog'lom bola deganda, nafaqat jismonan sog'-lom, balki ma'nan yetuk, mustaqil fikr egasi ko'z oldimizda namoyon bo'ladi. Asosiy maqsad sog'lom bolani dunyoga keltirish va tarbiyalash ekan, avvalo, onalarimizning sog'lig'iga ham jiddiy e'tibor berish lozim. Chunki, sog'lom onadan sog'lom bola dunyoga keladi. Sog'lom farzand esa yurtimiz ravnaqi uchun xizmat qiladi.

O'sib kelayotgan yosh avlod yurtimizning ertasi, tinchligimiz posbonlari, abadiyligimiz kafolatchilaridir. Shu haqiqatdan kelib chiqqan holda aytish mumkinki, farzandlarimizni har tomonlama sog'lom va barkamol etib tarbiyalash, avvalo, sog'lom oilani shakllantirishdan boshlanadi. Agar oila sog'lom bo'lsa, farzand barkamol bo'ladi, farzand barkamolligi esa jamiyat mustahkamligini ta'minlaydi.

13-topshiriq. Matnga o'z munosabatingizni bildirib, o'zbek tilida so'zlab bering.

УСПЕХ И КАРЬЕРА

То, как достичь успеха в карьере, в первую очередь зависит от вашего понимания этого успеха. Сами посудите, для кого-то достижением будет пост главы транснациональной корпорации, а для кого-то карьерной вершиной будет должность нейрохирурга. Однако есть несколько общих рекомендаций, которые могу быть полезны практически всем людям.

Будьте увлечены своей работой, а для этого совершенно необходима любовь к делу, которым вы занимаетесь — это главный секрет того, как достичь успеха в карьере.

Привносите что-то свое в любимую работу: вырабатывайте индивидуальный стиль достижения целей, создайте свой собственный бренд, свою фишку.

Осознавайте важность того, что вы делаете для общества. Например, если вы маркетолог, то ваша задача состоит в том, чтобы как можно больше людей узнало об уникальном продукте вашей компании и улучшило свою жизнь с его помощью.

Будьте активной и инициативной. Не ждите каких-то полученных свыше заданий и поручений; читайте соответствующую литературу, интересуйтесь новыми разработками в вашей сфере и предлагайте руководству варианты улучшения работы компании.

Не тратьте время на ненужные вещи, например, сидение в социальных сетях. Лучше используйте его для настоящего отдыха или для достижения ваших целей.

Станьте первоклассным специалистом в достаточно узкой, но востребованной области — тогда на вас будет спрос.

26-MAVZU. KASBIM TARIXI

Fanda eng ishonchli ko'makchi o'z aqling, tafakkuringdir.
Fabr Jan Anri

Moliya tarixidan

Moliya fani G'arbda XV–XVI asr o'rtasida paydo bo'lgan. O'rta Osiyoda moliya haqida tushuncha berilgan asarni ilk marotaba davlat arbobi va shoir Zahiriddin Bobur (1483–1530) yaratgan.

Uning iqtisodga oid "Mubayyin" asari asosan soliqqa tortishning asosiy me'yori va uning xususiyatlariga bag'ishlangan.

Moliya atamasi dastlab Bobur asarida qo'llangan. Moliyaga oid yana bir asar – "Temur tuzuklari"dir. Ushbu kitobda Movarounnahr davlatida ish yuritish, g'azna, maosh to'lash masalalari, soliq, soliqqa tortish, yer solig'i va boshqa masalalar aks ettirilgan.

Moliya haqida qiziqarli ma'lumotlarni yana Alisher Navoiy, Muqimiy, Zokirjon Furqat asarlarida uchratish mumkin.

XX asrning 20-yillarida iqtisodiyot sohasida moliya muammosi markaziy o'rin egallagan. 1921-yilda O'zbekiston Respublikasida birinchi pul islohoti amalga oshirilib, o'zining ilk byudjeti shakllandi. Birinchi kredit muassasalari tashkil etildi. Jurnallarda moliyaga oid bir qator maqolalar chop etildi. 1922-yilda Y.I.Poslavskiy va T.N.Cherdansev tahriri ostida "O'rta Osiyo iqtisodiy hudud" kitobi yaratildi. 1927-yilda esa X. Xakimxo'jayevning "O'zbekistonning 10 yil ichida moliya sohasidagi erishgan yutuqlari" nomli kitobi chop etildi. Shu davrdan boshlab UODU (SAGU)ning iqtisod fakultetida moliya fani o'quv dasturiga kiritildi, (1931-yilda esa ushbu fakultet O'rta Osiyo moliya-iqtisod instituti sifatida ajralib chiqdi).

1931-40-yillarda O'rta Osiyo moliya-iqtisod institutining moliya faniga oid ilmiy to'plamlari nashr etildi.

Urush yillarida boshqa mamlakatlardan bir qator olimlarning evakuatsiya qilinishi moliya sohasining yanada ravnaqiga olib keldi.

Ana shunday olimlarning tashabbusi bilan 1943-yilda aspirantura ochildi.

1948-50-yillarda birinchi nomzodlik va doktorlik dissertatsiyalari yuzaga keldi. Hozirgi davrda moliya ilmi yangi bosqichlarga ko'tarilmoqda.

1-topshiriq:

a) matnni o'qing;

b) matnni reja asosida so'zlab bering;

d) tanlagan kasbingiz haqida rivoyat yoki hikoya so'zlab bering.

2-topshiriq. Matnni o'qing. Matnda ajratib ko'rsatilgan so'z birikmalarini qo'llab 10 ta gap tuzing.

Auditning mohiyati, turlari, maqsadi va vazifalari

Bozor munosabatlariga asoslangan iqtisodiyotga o'tish xo'jalik yurituvchi subyetklarning moliyaviy hisobotlarni ***xolis tekshiruvdan o'tkazish***, ularning aniqligini ***ekspert qilish***, shu asosda moliyaviy hisobotga xolis hisobot berish, shuningdek, mavjud xato va kamchiliklarni bartaraf etish bo'yicha ***kasbiy maslahatlarni berish***, hisob-kitoblarni tiklash va yuritib berish, ***biznes reja*** va ***soliq deklaratsiyalari***ni tuzib berishdan iborat maxsus "audit" deb atalmish iqtisodiy fanni vujudga kelishiga asos soldi. Ushbu faoliyat turi va maxsus iqtisodiy fan bizning mamlakatimiz hayotiga mustaqillikka erishilgandan keyin kirib kelgan bo'lsa, bozor munosabatlari rivojlangan mamlakatlarda u juda uzoq yillardan beri mavjud va rivojlanib kelmoqda. ***Mustaqil auditorlik faoliyati***, manbalarga ko'ra, 150 yil oldin Yevropa mamlakatlarida paydo bo'lgan, uning vatani sifatida Buyuk Britaniya tan olinadi.

Professor X.N.Musayev auditning mohiyatini quyidagicha e'tirof etgan: "Audit - bu muayyan vakolatlar berilgan shaxslar, ya'ni auditorlar tomonidan xo'jalik yuritayotgan subyektlar faoliyatlarining respublikada qabul qilingan qonun-qoidalarga muvofiqligini tekshirish yo'li bilan baholash va xolisona xulosalar berishdir".

O'zbekiston Respublikasining "***Auditorlik faoliyati*** to'g'risidagi Qonuni"da (2-modda) auditning mohiyatiga quyidagicha ta'rif berilgan: "Auditorlik faoliyati deganda, ***auditorlik tashkilotlari***ning auditorlik tekshiruvlarini o'tkazish va boshqa shu bilan bog'liq professional xizmatlar ko'rsatish borasidagi ***tadbirkorlik faoliyati*** tushuniladi".

3-topshiriq. Matnni o'qing. Matndan foydalanib "Menejment ilmining ustalari" mavzusida esse yozing.

Menejment texnikasi tushunchasi

Menejment texnikasi - bu aqliy mehnat texnikasi, menejment tizimida axborotni qayta ishlash texnikasidir. Texnika vositalari qanchalik takomillashgan bo'lsa, menejment texnologiyasi, menejment mehnatini tashkil etish va butun menejment jarayoni shunchalik samarali bo'ladi. Hisoblarga asosan mamlakat iqtisodiyotini maqbul boshqarish uchun yil davomida 10 ta elementar arifmetik operatsiya bajarish zarur bo'lsa, boshqaruv apparati xodimlari 10 ta, ya'ni 10 ming marta kam operatsiya bajarish qobiliyatiga ega ekanlar. Bu muammoni muvaffaqiyatli hal etish uchun menejment mehnatini takomillashtirish, axborot to'plash hamda qayta ishlashni mexanizatsiyalash va avtomatlashtirish zarur. Menejment texnikasini faqat hisoblash mashinalari bilangina bog'lash noto'g'ridir. Dastlabki texnika vositalari 100 yil burun paydo bo'lgan ruchka, chizg'ichdan tortib EHM va kompyutergacha bo'lgan texnika vositalarini quyidagi ikki guruhga ajratish mumkin: orgtexnika va hisoblash mashinalari.

4-topshiriq. "Men tanlagan sohaning vujudga kelishi va rivojlanishi" mavzusida matn tuzing.

5-topshiriq.

Kasb taraqqiyoti haqidagi ma'lumotlardan xronologik jadval tuzing.

6-topshiriq.

Ish jarayonidagi muloqot vaziyatlarini aks ettiruvchi kasbiy o'yin ssenariysini tuzing va uni inssenerovka qiling.

7-topshiriq. Matnni o'qing. Matndan foydalanib "Zamonaviy sug'urta shakllari" mavzusida dialogga kirishing.

Sug'urta tarixidan

Sug'urta tushunchasi pul va kredit tushunchalaridan oldin shakllana boshlagan. Dastlabki jamoa tuzumi davrida har bir oila hayot uchun eng zarur oziq-ovqat zaxiralarini g'amlash zaruriyatini tushuna boshlaganda, zaxiralar yetarli bo'lmasa yoki biror hodisa tufayli qo'shimcha moddiy ne'matlarga ehtiyoj sezilsa, qo'shnilardan qarz olingan, buzilgan imoratlar hashar yo'li bilan tiklangan. Davlat yo'li bilan metalldan pul zarb qilingunga qadar oltin va kumush vositasi bilan zaxiralar to'plangan.

Asrlar davomida qo'ni-qo'shnilar o'rtasidagi iqtisodiy munosabatlar qishloq va mahalla miqyosida kengaygan. Sug'urta tartibi vujudga kelganda zarar ko'lami xo'jalik uchun katta bo'lganda jabrlangan oilalarni og'ir ahvoldan qutqarish uchun birgalashib mablag' to'plash orqali moddiy yordam uyushtirilgan. Shuningdek, savdo karvonlari uzoq safarda qaroqchilar tomonidan talansa, ko'rilgan zarar karvon ishtirokchilari o'rtasida barobar taqsimlangan. Lekin keyinchalik maxsus fond tuzilib, bu fond hisobidan faqat ko'rilgan zarar emas, balki savdogarning oila a'zolari ham bahramand etilgan.

Ayrim olimlar sug'urta termini dastlab Yevropada qo'llanilgan degan fikrdalar. Xalqaro savdodagi mol-mulk sug'urtasi haqida gap borganda Bobil davlatining yurtboshisi Hammurapi qonunlarida miloddan oldin savdo karvonlariga yetkazilgan zarar o'zaro taqsimlanib, yordam uyushtirilgani ko'rsatilgan. Bu qonun xalqaro savdo yo'li bilan boshqa mamlakat savdogarlari karvonlariga ham tarqalgan, hatto Buyuk ipak yo'li orqali safarda bo'lgan savdogarlar bu usuldan foydalanganlar.

Lekin shaxsiy sug'urta bo'yicha Yevropada miloddan oldin ayrim hududlarda, tumanlarda maxsus nikoh, vafot hodisalari bilan bog'langan o'zaro fondlar tashkil qilingani haqida ma'lumotlar bor.

GRAMMATIKA

Soha lug'atlari. Ularda terminlar va birikmalarning berilishi

O'zbek tilshunosligida terminlarni o'rganish, ularni tartibga solish, terminologik lug'atlar tuzish kabi qator chora-tadbirlar XX asrning 20-yillari o'rtalaridan boshlangan. Zero, ayrim leksikografik ishlarni hisoblamaganda, o'zbek tilini ilmiy asosda o'rganish, hozirgi o'zbek tilshunosligining fan sifatida yuzaga kelishi ham shu davrdan boshlangan. Albatta, terminlarni o'rganish ehtiyoji o'z-o'zidan kelib chiqqan emas, barcha bilim sohalari bo'yicha o'zbek tilida ta'lim berishni yo'lga qo'yish, bilim sohalarining sezilarli darajada rivojlana borishi, ilmiy tafakkur doirasining kengayishi, sobiq ittifoqdagi milliy tillar, jumladan, o'zbek tili lug'at tarkibining boyib borishi, binobarin, tilda terminlarning ko'payib borishi ularni (terminlarni) har tomonlama o'rganish va tartibga keltirishga turtki bo'lgan edi.

O'zbek tilshunosligida turli fan sohalariga oid terminologik tizimlarni lingvistik jihatdan har tomonlama ham ilmiy, ham amaliy o'rganish, asosan, 1950-yillardan keyin izchilroq tus ola boshladi; termin va terminologiyaning nazariy masalalariga bag'ishlangan maqolalar ayrim fan sohalari terminlarini lingvistik jihatdan tahlil etishga bag'ishlangan nomzodlik dissertatsiyalari yuzaga keldi, mukammal terminologik lug'atlar yaratishga kirishildi.

Bugungi kunda terminologiyaning amaliy va nazariy jihatlarini yanada chuqurroq o'rganish, termin qo'llashni tartibga solish davlat ahamiyatidagi masalaga aylandi. 1984-yilda O'zbekiston Fanlar akademiyasi Prezidiumi qoshidagi Respublika Muassasalararo terminologik komissiya (RMTK)ning tashkil etilishi, O'zbekiston Respublikasining "Davlat tili haqida"gi Qonuni qabul qilinishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzurida Respublika terminologiya qo'mitasining ish boshlashi, terminologiya masalalariga bag'ishlab Respublika miqyosida bir necha ilmiy-amaliy, ilmiy-nazariy konferensiyalarning o'tkazilganligi fikrimizning yaqqol dalilidir.

Tilda an'anaviy tarzda qadimdan saqlanib kelayotgan iqtisodiy atamalar bilan zamonaviy iqtisodiy terminlar o'rtasida juda katta farq bor. Qadimgi iqtisod atamalarning miqdori ancha cheklangan bo'lsa, hozirgi yangi davr, ya'ni bozor iqtisodiga o'tish davrida iqtisod terminlariga ehtiyoj ortishi munosabati bilan iqtisodiy terminlar beqiyos boyib bormoqda. O'zbek tilining iqtisodiy terminlarini to'plash, sistemalashtirish, ilmiy nuqtai nazardan tadqiq etish va shu asosda bu terminologik tizimni imkon boricha tartibga solish zarurati tug'ildi.

8-topshiriq. Matnni o'zbek tiliga tarjima qiling.

История акционерных компаний

Акционерные компании являются наиболее полной и относительно совершенной формой организации бизнеса и появились несколько веков назад.

Они выросли из акционерных торговых обществ, которые начали формироваться в Европе еще в XVI веке. Состояли эти общества не только из торговцев и ростовщиков: активное участие в них принимали и дворяне, вносившие свои деньги в общее дело.

Первыми акционерными компаниями, которые успешно и прибыльно работали, были "Москови компани" (1555) и "Левант компани" (1592). Наибольшие прибыли принесли своим акционерам основанная в 1600 году Ост-Индская компания, которая стала самым модным и крупным для того времени международным торговым бизнесом.

Сущность деятельности акционерных компаний заключается в объединении разрозненных капиталов в единое целое для решения крупных общих целей, которые не могут быть достигнуты усилиями одного или нескольких человек. Например, Ост-Индская компания была организована для осуществления колониальной торговли с Индией.

9-topshiriq. Matnni rus tiliga tarjima qiling. O'zbekiston Respublikasida faoliyat yuritayotgan banklarni sanab bering.

Bank qachon paydo bo'lgan?

"Bank" so'zi birinchi marta Italiyada paydo bo'lgan. Italyancha "Banko" so'zi "skamya" (kursi) ma'nosini anglatib, bundan hozirgi "bank" so'zi paydo bo'lgan.

Hozirgi zamon bank tizimi birinchi marta 1587-yilda Vizantiyada tashkil etilgan bo'lib, u "Banko di Rialdo" deb nomlangan. U pul qabul qilgan va pul qo'yuvchiga ma'lum (aniq) bir so'm miqdorida chek yozib bergan.

1619-yilda bankni "Banko del Djiro" egallaydi va u qabul qilgan oltin va kumushga tilxat bera boshlaydi. Bu tilxat pul sifatida foydalana boshlangan. Mazkur tilxat keyinchalik "bank puli" deb nomlana boshlangan.

Angliyada 1694-yilgacha (Angliya banki tuzilgunga qadar) zargarlar bankir sifatida xizmat qilganlar.

1825-yilgacha ushbu bank Angliyada yagona hisoblangan.

1782-yilga kongress tomonidan Amerikada birinchi marta "Shimoliy Amerika banki" nomli bank shakllangan.

Sharq mamlakatlarida ham pul berish tizimining o'ziga xos ko'rinishlari mavjud bo'lgan. Ularni sudxo'rlar oltin (tilla) va boshqa qimmatbaho buyumlarni garovga olib berganlar.

10-topshiriq. Matnni o'zbek tiliga tarjima qiling. Matnga asoslanib moliyachi kasbining xususiyatlarini sanab bering.

Финансист

Финансистами раньше называли людей, которые владели большими денежными средствами и сами были очень богаты. Сегодня смысл этого слова несколько иной: финансист – человек, который управляет крупными денежными операциями. На латыни термин «финансы» означает «окончание», «финиш» — завершение денежных расчетов населения с

государством. Французы, предпочитающие все и вся переиначивать, понятием «finance» нарекли наличность, доход.

Словарь банковских терминов дает такое определение: «финансист — специалист, ведущий крупные денежные операции на легитимной основе». Рынок, инвестиции, внедрение нового товара, реклама, конкурентоспособность — поле деятельности для современного финансиста.

Что делает финансист. Рынок, инвестиции, внедрение нового товара, реклама, конкурентоспособность — поле деятельности для современного финансиста.

Финансисты должны уметь моделировать ситуации, проводить анализ различных событий, делать аналитические выводы. Молодые специалисты, только что окончившие институт, идут работать бухгалтерами, помощниками экономистов, сотрудниками плановых отделов на предприятия, зарабатывая, таким образом, бесценный опыт, «набивая» руку. К тому же, на предприятии можно сделать карьеру – дорасти до финансового директора. Это управленческая должность, в процессе исполнения обязанностей которой, финансовому директору придется решать не только финансовые вопросы, но и выполнять административные обязанности. В его ведении предоставляется финансовый отдел, который решает многие задачи – ценообразование, маркетинг, управление активами, налоговое планирование, бухгалтерская отчетность, страхование, управление недвижимостью.

Профессия финансист требует от человека постоянного самообразования и усовершенствования его профессиональных и личных качеств. В этой деятельности есть множество нюансов, которые требуют отличного знания законодательной базы. На рынке труда финансисты – одни из самых оплачиваемых профессий. Молодой специалист должен представлять, куда вложить капитал, чтобы получить большую выгоду. Если финансист неопытен или имеет недостаточную квалификацию, он может неправильно вложить эти средства,

вследствие чего они могут пропасть. Задача финансиста — выгодно вложить средства. Одной из важнейших задач финансиста является оценка оптимального сочетания риска и дохода.

11-topshiriq. Nuqtalar o'rniga tegishli so'z yoki qo'shimchani nega tanlaganingizni tushuntiring.

1. Ta'til boshlanishi... *(bilan, tufayli)*... (sen, siz)ning kelishing... *(-izni, -ni)* orziqib kutaman. 2. Mendan hammaga ... *(ayniqsa, xususan)* sinfdoshlaringga... *(tegishli ko'pdan-ko'p)* salom... *(-ni, lar)* yetkaz... *(-ishingni so'rayman, -asan deb o'ylayman)*. 3. Ushbu ... *(xat, maktub)* senga qaysi... *(kun, sana)*da yetib bor... *(-ishi bilan, -sa)* yoz... *(-ishing kerak, -gin)*, xo'pmi. 4. Yuborgan... (mablag', pul) mablag'laringizni oldim, katta... *(rahmat, tashakkur)*! 5. Bo'sh qol... (-dimmi, -gan taqdirda) xayolimni sizdan uz... (-ishim mumkin emas, - olmay qolaman). 6. Menga ko'rsatgan... *(maxsus, katta)* yordamingiz *(orqali, tufayli)* ishlarim... *(rivojlandi, yurishib ketdi)*. 7. Siz bilan... *(tez muddatda, yaqin kunlarda)* ko'rishish... *(umididaman, zarur)*.

12-topshiriq. O'qing. Iqtisodiyotga oid maqollarning ma'nosini ayting.

1. Vaqting ketdi, naqding ketdi. 2. O'ylab-oy'lab jo'yak olsang, o'ynab-o'ynab sug'orasan. 3. O'ylamay uchgan qo'narga joy topolmas. 4. Buromad bo'lmasa, daromad bo'lmas. 5. Xolva degan bilan og'iz chuchimas. 6. Daromadga qarab, buromad. 7. Puling bo'lsa yer ol. 8. Uydagi narxni bozordagi baho buzar. 9. Ko'rpangga qarab oyoq uzat. 10. Holvaning ozi shirin. 11. Oldingdan oqqan suvning qadri yo'q. 12. Hisobni bilmagan hamyonidan ayrilar.

Bu yorug' olamda eng buyuk jasorat nima, degan savolga, hech ikkilanmasdan, eng buyuk jasorat – bu ma'naviy jasorat, deb javob bersak, o'ylaymanki, yanglishmagan bo'lamiz.

Islom Karimov

Stiv Jobs

Stiv Jobs (1955-2011) hayotlik davridayoq mashhurlikning eng yuqori cho'qqisini zabt etgan shaxslardan biri hisoblanadi. U bu martabaga nafaqat axborot texnologiyalari va biznes olamidagi muvaffaqiyati, balki g'ayritabiiy iste'dodi sharofati bilan erishgan. Uni dunyoni o'zgartira olgan inson, uzoqni ko'ra oluvchi daho, uchqur xayol sohibi, buning ustiga o'z davrining ovoziga aylangan nodir notiqlardan biri deb ataydilar. Komp'yuterni u o'ylab topgan emas, ammo u mahorat bilan g'oyani haqiqatga aylantira olgan inson edi. Stiv Jobs 1975-yili "Apple Computer" korxonasiga asos soladi. Qo'lda mahsulot ishlab chiqaruvchi torgina, derazasiz garajda ustaxona sifatida ish boshlagan kompaniya o'n yildan keyin axborot texnologiyalari sohasida jahon miqyosida tan olingan, ixtirolari dunyoni boshqaradigan yetakchi kompaniyaga aylanadi. Stiv Jobs Stenford universiteti talabalari huzurida so'zlagan g'aroyib nutqida maqsad va amal haqida hikoya qiladi. Bu nutqda notiqlik va drama san'atining barcha qoidalariga rioya qilingan. Bu nutq zamonamizning eng ilhombaxsh va kishini maqsad sari dadil odimlashga undovchi nutqlaridan biri sifatida tan olingan.

Maktab paytlaridanoq Stiv Jobs juda katta iqtidorga ega bo'lgan, lekin buni hamma ham ko'ra olmagan. Maktabdagi o'qituvchilaridan faqat birginasi unda ajoyib qobiliyatlarni ko'rgan va unga to'g'ri yondashuvni topgan. Stiv to'rtinchi sinf bo'lganida, Hill xonim yaxshi o'qish uchun unga pora sifatida shirinliklar va "o'zing-bajar" to'plamlarini bergan, bu esa Stivni bilimiga juda katta ta'sir o'tkazdi. Oradan vaqt o'tgach Stiv yakuniy imtihonlarda yuqori ballarni qo'lga kiritdi va maktab rahbarlari uni 7-sinfga o'tkazishga qaror qildilar. Yillar o'tib Stiv balog'at yoshiga yetgach

hayotda o‘z yo‘lini topishni maqsad qildi va o‘zining birinchi kichik kompaniyasini ro‘yxatdan o‘tkazadi. Uning nomini “Apple compyuter” deb nomlaydi. Bu kichik kompaniya uning omborxonasida joylashgan edi. U yaqin o‘rtog‘i Bill Wozniak bilan faoliyatini olib borishadi. Stiv o‘zining Volkswagen T1 markali mikroavtobusini sotadi, Bill esa o‘zining dasturlashtirilgan hisoblagichini sotib yuborib, Atari kompaniyasidan platalarning tayyor elektron boshqaruv konsepsiyasini sotib olishadi va ularni ommaviy ishlab chiqarishga berib yuboradilar. Stiv va Bill Amerikaning yangi texnologiyalar ko‘rgazmasida qatnashib, ular o‘zining yangi Apple 1 kompyuterlarini namoyish qiladilar. Stiv noyob qobilyatga ega edi. U odamlarni o‘ziga jalb qila olardi va ishonch bilan ularni xarid qilishga ko‘ndira olardi.

Stiv Jobsni buyuk ixtirochilar safiga qo‘shsak adashmaymiz, chunki uning kashfiyoti hayotimizni juda yaxshi tomonga o‘zgartirib yubordi. U hayoti davomida o‘ziga qo‘ygan maqsadlariga erishishda hech kim xayoliga ham keltirmagan natijalarga erishdi. Bugungi kunda uning mahsuloti dunyo bozorida juda katta talabga ega. Stiv Jobs o‘z mahsulotini har bir qismiga alohida e’tibor qarata olgan, shuning uchun ham uning mahsuloti juda sifatli va samarador bo‘lib chiqadi. Stiv Jobsning fe’l-atvori juda qo‘pol, boshqaruvchi sifatida juda qattiqqo‘l hisoblangan. Hayoti davomida katta xatolarga duch kelgan, lekin uning umidi so‘nmagan, har qanday to‘siqlarni yengib o‘tgan. Bunday insonlar hayotimizda juda kam uchraydi, ammo ularning erishgan muvaffaqiyatlari butun insoniyat hayotiga katta o‘zgarishlar, yutuqlar, yengilliklar olib kiradi.

1-topshiriq:

a) matnni o‘qing;

b) matnga munosabat bildirib so‘zlang;

d) savollarga javob bering.

1. Stiv Jobs qanday iqtidor va mehnat sohibi bo‘lgan?
2. Stiv Jobsning olamshumul kashfiyoti nimadan iborat?

3. Stiv Jobsni qanday insonlar qatoriga qo'shish mumkin?

2-topshiriq. Hayotda o'z o'rningizni topishda iqtidor va mehnatning ahamiyati haqidagi bahs-munozarani tashkil eting va unda ishtirok eting.

3-topshiriq. "Qanday qilib muvaffaqiyatga erishish mumkin?" mavzusida esse yozing.

Eslab qoling!

Iqtidor – yuksak darajadagi rivojlanish, birinchi navbatda maxsus qobiliyatlar. Bu o'z navbatidagi yuksak darajadagi mahorat va ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan faoliyat samaradorligini olish imkonini beruvchi qobiliyatlarining kombinatsiyasi.

Bolaligingizda musiqa, matematika, tilshunoslik, texnika, sport va hokazo sohalarda qobiliyatning birinchi belgilari paydo bolishi mumkin. Biroq, iste'dod keyinchalik ham paydo bo'lishi mumkin. Iqtidorni shakllantirish va rivojlantirish asosan ijtimoiy tarixiy hayot sharoitiga bog'liqdir.

Iqtidor mehnat faoliyatining barcha sohalarida namoyon bo'lishi mumkin: tashkiliy-pedagogik faoliyatda, fan, texnika, va turli ishlab chiqarish sohalarida. Iqtidorni rivojlantirishda, mehnatsevarlik va qat'iylik juda muhimdir. Iqtidorli odamlar uchun muayyan turdagi tanlangan ish ehtiros bilan amalga oshirilishi kerak.

Iste'dodni asosi bo'lgan qobiliyatlarning birlashmasi, har bir holatda faqat muayyan bir kishiga xosdir. Iste'dodning borligi inson faoliyatining natijalari asosida aniqlanishi kerak, bu prinsipial yangilik, yondashuvning o'ziga xosligi bilan ajralib turishi kerak. Insonning iqtidori ijodkorlik ehtiyojiga qaratilgan.

Mehnat – inson mavjudligining asosidir. Azaldan inson ozi haqida g'amxorlik qildi, ovqat pishirdi, kiyim tikdi, uyi va uyining atrofida chiroyli harakatlar qildilar. Bugungi kunda odamlar ham hayotini yashashga yaroqli qilish uchun ko'p mehnat qiladilar.

Bundan tashqari, odam o'zi yoqtirgan ishni tanlaganida bu ish unga juda ko'p quvonch keltiradi.

Mehnat insonni jamiyatga kerak qiladi. Har yili turli sohalarda, jumladan, ta'lim, tibbiyot, sport va boshqa ko'plab yutuqlar haqida bilib olamiz. Bu yutuqlar og'ir kundalik mehnat bilan birga o'zimizga va atrofimizdagilarga foydali narsalar qilish istagi bo'lib, katta yutuqlarga erishgan har bir inson o'z ishi uchun munosib baholanadi.

Mehnat odamlarni birlashtiradi, mas'uliyat va quvonch hissini kuchaytiradi. Mehnatkash inson har doim intizomi bilan ajralib turadi, ishlayotgan bilim uning hayotining muhim qismidir, shunung uchun odam har bir ish insonning foydasi uchun amalga oshirilganini tushunishi kerak.

GRAMMATIKA

Ixtisoslikka oid matnga termin tanlash

Ixtisoslikka oid matn tuzishda quyidagilarga e'tiborni qaratish lozim:

- matnning qaysi nutq uslubida yozilishi kerakligini oldindan bilish;
- ixtisoslikka oid so'z va shartli belgilarni to'g'ri tanlay olish va o'rinli joylashtirish;
- so'z va terminlarni imlo me'yorlariga rioya qilgan holda yozish;
- tanish bo'lmagan yoki faol qo'llanilmaydigan termin, shartli belgi yoki qisqartmalarga qavs ichida izoh berish;
- ixtisoslikka oid terminlarni boshqa tillardan o'zlashtirish va so'z yasashda milliy tilning tabiatini nazarda tutish;
- terminlarni o'rinsiz takrorlanishiga yo'l qo'ymaslik;

Umuman ixtisoslikka oid so'z va terminlarni to'g'ri tanlash hamda qo'llash nutq madaniyatining, kasbiy bilimdonlikning muhim sharti hisoblanadi.

So'z va termin tanlashda quyidagilarga e'tibor berish zarur:

- so'zning lug'aviy ma'nosini bilgan holda tanlash;

- tanlangan terminni aniq talaffuz eta olishni nazarda tutish;
- so‘zning, terminning tushunarli bo‘lishini hisobga olish;
- terminning ma’no xususiyatiga asoslanib, uni maqsadga muvofiq tarzda tanlash;
- baynalminal terminlarni adabiy tilning leksik me’yoriga muvofiq holda tanlash;
- terminni matn mazmuniga mos tarzda tanlash;
- so‘z va terminni matnning uslubiy xususiyatiga mos ravishda tanlash.

4-topshiriq. Matnni o‘qing, matnda ajratib ko‘rsatilgan so‘zlarni **Tushunchalar tahlili metodidan** foydalanib tahlil qiling.

Soliq qo‘mitasi qachon tashkil qilingan?

1991-yil 12-avgustda Vazirlar Mahkamasi 217-sonli “O‘zbekiston Respublikasining davlat soliq organlari to‘g‘risida”gi qarorini qabul qildi. Shu kundan e’tiboran “***soliq inspektori***”, “***soliq to‘lovchi***” degan tushunchalar hayotimizga kirib keldi. Respublikada tuman ***soliq inspeksiyalari***ning butun bir tarmog‘i vujudga keldi, ***viloyat soliq boshqarmalari*** tuzildi. ***Davlat soliq bosh boshqarmasi*** tashkil etildi.

Yil sayin soliq munosabatlarining kengayib borishi, ***soliq tizimi***ga yangi-yangi shaxobchalarning qo‘shilib borishi, ***soliq idoralari*** oldiga qo‘yilgan vazifalarning tobora kengayib borishi davlat soliq Bosh boshqarmasining Davlat soliq qo‘mitasiga aylantirish zaruriyatini tug‘dirdi. Natijada, 1994-yilda respublikamizda yagona ***soliq va bojxona qo‘mitasi*** tuzildi. Bugungi kunda u yerda band bo‘lgan xodimlarning soni 17 ming kishidan oshib ketdi.

O‘zbekiston Respublikasi soliq qo‘mitasi o‘z faoliyatini O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga, O‘zbekiston Oliy Majlisi tomonidan chiqarilgan qonunlar, qarorlar, Respublika Prezidenti farmonlariga, Prezident huzuridagi Vazirlar Mahkamasining qarorlari va farmoyishlariga amal qilgan holda olib

boradilar. Davlat soliq qo'mitasi respublikaning ***soliq siyosati***ni ishlab chiqishda faol qatnashib, uning ijrosini hamda ***soliq qonunchiligi***ni bajarilishini ta'minlaydi.

Tushunchalar tahlili metodi

Soliq tizimi	
Soliq to'lovchi	
Soliq inspektori	
Soliq inspeksiyalari	
Davlat soliq bosh boshqarmasi	
Viloyat soliq boshqarmalari	
Soliq va bojxona qo'mitasi	
Soliq siyosati	
Soliq qonunchiligi	

5-topshiriq. Mamlakatimizda iqtidorli yoshlar uchun yaratilayotgan sharoitlar haqida ma'lumot to'plang hamda albom tayyorlang.

6-topshiriq. Matnni o'qing. Qo'shimcha ma'lumotlar to'plab kengaytiring.

Biznes nima?

"Biznes" so'zi birinchi marta XVIII - XIX asrlarda paydo bo'lgan. Amerika lug'atlarida "biznes" tushunchasi insonning erkinligi va tirikchiligini ta'minlovchi tijorat faoliyati deb talqin qilinadi.

Biznes - bu insonning daromad olib, hayot kechiradigan vositasi.

Ibtidoiy jamoa davrida odamlar o'zining va jamoasining foydasi uchun baliqni teriga almashtirib biznes qilar edilar.

Bir tovarning ikkinchi tovarga almashtirilishidan boshlab bank, ombor, zavod, birja, dilerlar, biznesmenlar bilan bog'liq tarmoqlangan faoliyatga aylandi. Shu bilan birga, ma'lum bir shaxsga tegishli kapitalning maqsadli ishlatilishi bilan bog'liq bo'lgan turli faoliyat biznes deb ataladi.

Biznesmen o'zining faoliyatida yollanma ishchilar va xizmatchilarning mehnatidan foydalanadi. Mustahkam va kuchli biznesga ega bo'lish uchun tadbirkorlik xususiyatiga va biznes bilan bog'liq bo'lgan predmet haqida chuqur bilimga ega bo'lish kerak. Biznesmen tovarni kim uchun va nima uchun ishlab chiqarayotganini, kimga va qanday sotishni, sotishdan tushgan tushumni nimaga sarflashni aniq bilishi kerak.

Shunday qilib, biznes biror kishining iste'molchi uchun foydali bo'lgan tovarni ishlab chiqarishga yo'naltirgan bilimi va tijoriy faoliyatlar tizimidir.

Biznes tadbirkorning aniq faoliyatiga bog'liq. Biznesmenlar o'zining bilimi va qobiliyatiga tayanib, daromad keltiruvchi sohagagina investitsiya kiritadilar.

7-topshiriq. Kasb sohasida muvaffaqiyatga erishish to'g'risida dialog tuzing va uni inssenirovka qiling.

8-topshiriq. Muammo-topshiriq. Ro'yxatdagi so'zlarni taqqoslang va ro'yxatlarning barchasida mavjud bo'lgan so'zni toping.

Nonushta	**Baliq**	**Olma**	**Olam**	**Daraxt**
Quyosh	Palto	Ustun	Vaqt	Arqon
Qalam	Baxt	Arqon	Bo'sh	Ko'kat
Kitob	Zanjir	Chegara	Qalam	Maktub
Zamonaviy	Gilam	Qaror	Kitob	Saodat
Yassi	Gul	Aloqa	Uzuk	Aloqa
Maktub	Keng	Olam	Meva	Aniiq
Maqsad	Meva	Xulosa	Yong'oq	Imkon
Uzuk	Olam	Vazifa	Tuproq	Tairiba
O'yin	Radio	Qoida		Olam

9-topshiriq. Matnni o'qing. Nobel mukofoti sovrindorlari va ularning ixtirolarini yozib o'zbek tilida ***domino*** yasang.

Фонд Нобеля *присуждает шесть премий – по экономике, литературе, физике, химии, медицине и премия мира.*

Экономическая премия среди них самая молодая, она вручается всего лишь 43 года, в то время как все остальные – уже 111 лет.

Пол Кругман (2008, за анализ моделей в мировой торговле и экономической географии).

Кругман – создатель новой теории международной торговли, которая базируется на стремлении потребителей диверсифицировать продукты, которые они потребляют. Кругман показал, каким образом формируется географическое неравенство – регионы, производящие больше товаров, получают более высокий доход, а значит притягивают инвестиции и могут еще больше развивать свое производство. За последние несколько лет, помимо ученого, Пол Кругман прославился еще и как колумнист.

Он любит активно поспорить, бывает, что его публицистические статьи противоречат его же экономическим теориям. Экономист считает, что государство должно серьезно вмешиваться в экономику, особенно во время кризиса.

Эдмунд Фэлпс (2006, за анализ обменов в макроэкономической политике).

Новозеландский экономист Элбан Филипс установил, что взаимосвязь между безработицей и инфляцией обратная, и назвал это «кривой Филипса». Когда безработица низкая, фирмы больше тратят средств на персонал, что влечет за собой рост цен продукции.

Во время высокого уровня безработицы, затраты на персонал уменьшаются, соответственно и инфляция. Эдмунд Фэлпс опроверг эту теорию, доказав обратное. Когда фирмы

поднимают уровень зарплаты, рабочие начинают ожидать и дальнейшего повышения, что ведет к стабилизации безработицы на нормальном уровне. Длительной связи безработица с инфляцией не имеет. На это повлияла политика федеральной резервной системы США, которая изменяет ставки исходя из динамики этих показателей.

Рональд Коуз (1991, за открытие и объяснение значимости транзакционных издержек и прав собственности для институциональной структуры экономики). Его работа о природе фирмы, которая раскрывает современную модель предпринимательства, уже стала своеобразной «классикой» в экономике. Коуз занимался транзакционными и социальными издержками компаний. По размышлениям Коуза, права собственности – крайне важная вещь для эффективного функционирования компаний.

Джеймс Тобин (1981, за анализ финансовых рынков и их отношений к решениям в области расходов, занятости, производства и цен). Джеймс Тобин известен благодаря авторству «налога Тобина», который касается всех финансовых операций. Этот налог вполне может быть введен в Европе – в частности, в Германии и Франции, а вот Великобритания не поддерживает эту идею. Тобин думал, что это этот налог заставит всех финансистов проводить как можно меньше трансграничных операций. Но целесообразно вводить такой налог во всех странах мира одновременно, а не лишь в двух странах Европы.

Василий Леонтьев (1973, за развитие метода анализа – затраты-выпуск). Леонтьев создал форму расчета межотраслевого баланса, которая может применяться и к капиталистической, и к социалистической экономике. Леонтьев был убежден, что создать эффективный рынок — дело не одного десятилетия. В чем-то он был и мечтателем – хотел создать в России японское качество управления. Леонтьев знал, как важно на начальном этапе реформ не разрешить экономике криминализироваться и начать строить новую систему социальной защиты.

Даниэль Канеман (2002, за психологические и экономические исследования процессов принятия решений в условиях неопределенности). Канеман создал дизайн социологических исследований, который использовался в гэллаповских и всемирных исследованиях качества жизни. Он является «отцом» гэллаповского барометра удовлетворенности жизнью. Канеман открыл, что субъективные характеристики жизни – такие, как уровень счастья, личная оценка качества жизни – так же существенны, как и объективные показатели качества жизни. Для этого Канеман рассматривал счастье, исходя из его компонентов. Это было непросто, так как в различных странах счастье понимается по-разному. Одно из последних исследований, которое проводилось по методике Канемана, выяснило, как религиозность делает людей счастливее.

Роберт Манделл (1999, за анализ денежной и налоговой политики в условиях разных курсовых режимов). Манделл доказал, что одна валюта может существовать в нескольких странах (евро). Однако он не говорил, что ни у одной из стран единой валютной зоны, не может быть дефолта по долгам. Манделл ввел понятие «невозможная троица», которое сейчас используют большинство экономистов. Это означает, что никакая страна не имеет шансов одновременно разрешить свободное трансграничное движение средств, иметь фиксированный курс валют и проводить эффективную денежную политику. Амартия Сен (1998, за вклад в экономику благосостояния).

Амартия Сен – экономическая «мать Тереза». Он рассматривал проблемы, связанные с бедностью, развитием человека, исследовал методы борьбы с продовольственным кризисом. Этот индийский экономист разработал дизайн гуманитарной помощи, которую воплощают в бедных странах правительства развитых стран и Всемирный банк.

Гэри Бэккер (1992, за микроэкономический анализ разных аспектов человеческого поведения и социальных взаимодействий). Бэккера по праву можно назвать одним из самых выдающихся ученых, которые когда-либо получали Нобелевскую премию. Темы, которые он рассматривал, актуальны и остросовременны: дискриминация, семья, человеческий капитал, преступления. Не смотря на уважаемый возраст Бэккера (ему за 80), он регулярно пишет в свой, совместный с Ричардом Познером, блог. В экономических вопросах Гэри Бэккер сторонник здравого мышления.

10-topshiriq. Matndagi uslubiy va imlo xatolarni tuzating. "Alibaba" haqidagi to'liq ma'lumotni toping va so'zlab bering.

ALIBABA ASOSCHISI JEK MA HAQIDA

Jek Ma: "Mening hayotim xatolar va rad javoblaridan iborat. Meni hattoki KFC'ga ham ishga olishmagan. Tashqi ko'rinishim tufayli doimo rad javobini olar edim".

Jek Ma 1964-yil, 10-sentyabrda, Hanchjou shahrining Chjetsyan tumanida, musiqachilar oilasida dunyoga kelgan. Iqtisodiy tomonidan muammolari bo'lgani sababli sayyohlarga shaharni bepul ko'rsatish (Gid) orqali ingliz tilini o'rgangan. 9 yil mobaynida sayyohlarga shahar ko'rsatib, ingliz tilidan tashqari ko'p narsalar o'rgangan. Uning asl ismi Ma Yun bo'lib, Jek Ma deb sayyoh qiz atagan. Keyinchalik do'st bo'lib qolishgan. Harvard Universitetiga kirish uchun 10 marta hujjat topshirgan va har safar rad javobini olgan. Undan tashqari, kollej imtihonlaridan ham 2 marta yiqilgan. Bir safar 120 balldan 1 ball olgan. Sababi matematika bilan hech qachon "do'stlashmagan". Uning so'zlariga ko'ra, haligacha buxgalteriya hisob-kitoblarini yaxshi tushunmaydi. Ma qayerga ishga kirishga harakat qilmasin, doim rad javobini olgan. Tashqi ko'rinishi tufayli, hattoki KFCga ham ishga olishmagan. Ammo, turmush o'rtog'i Jan Yin u qanday bo'lsa, shundayligicha sevadi va uni hali muvaffaqiyatga erishmagan vaqtlarda tanlagan.

"Ma Yun (Jek Ma) chiroyli va ko'rkam emasdir. Ammo u, ko'rkam yigitlar qila olmaydigan ishlarga qodir"

– Jan Yin

ILK ISHI

Arzimagan pulga o'qituvchi bo'lib ishlagan. *Oxir-oqibat Hanchjou pedagogika universiteti (Hangzhou Normal University)ga o'qishga kiradi. Uning aytishicha, o'sha vaqtlarda shahardagi eng nufuzi past ta'lim dargohi bo'lgan. O'qishni tugatib hech qayerga ishga kirolmagach, o'zi tugatgan universitetda ingliz tilidan dars beradi. Oyiga bor-yo'g'i 12-15$ maosh olgan.*

ILK BIZNESI

Ma o'qituvchilikdan tashqari tarjimonlik bilan ham shug'ullangan va ma'lum vaqtdan keyin Hanchjou shahrining eng yaxshi tarjimoniga aylangan. Keyinchalik, 1992-yilda, "Haybo" tarjimonlik markazini ochgan. Moliyaviy muammolari bo'lganligi sababli, bir nechta tanishlarini ham jalb qilgan. Birinchi oydagi daromad 700 yuanni tashkil qilgan, harajat esa 2400 yuanni. Sheriklari taslim bo'lib ishni tashlab ketishgan. Tinib-tinchimas Ma, kiyim-kechak, dori-darmon va shu kabi boshqa mahsulotlarni olib-sotish orqali biznesini saqlab qolishga muvaffaq bo'lgan. Tarjimonlik markazi oradan 3 yil o'tibgina foyda keltirishni boshlagan va hozirda Hanchjou shahrining eng katta professional tarjimonlik markazi hisoblanadi.

"Hech qachon taslim bo'lmang. Faqatgina qat'iyat va tinimsiz mehnat orqali muvaffaqiyatga erishish mumkin"

– Jek Ma

ALIBABA G'OYASINING TUG'ILISHI

Chjetsyan tumanining Aloqalar Departamenti tomonidan, savdo-sotiq delegatsiyasi tarjimoni sifatida, AQShning Sietl shahriga borish taklif qilinadi. Ma AQShda birinchi bor internet bilan tanishishga muvaffaq bo'lgan. **Pivo** so'zini qidirib ko'rganda, internetda birorta ham Xitoy pivosini topa olmagan. **Xitoy** so'zini

qidirganda ham hech qanday ma'lumot topa olmagan va aynan o'shanda, mashhur Xitoy sayti yaratish g'oyasi tug'ilgan. Ma o'z tarjimonlik markazi xizmatlari haqida internetda e'lon berishga qaror qilgan va bir necha soat ichida AQSh, Germaniya va Yaponiyadan 6ta xat olgan.

28-MAVZU. YETUK MUTAXASSIS

Davlat byudjeti o'lchovsiz emas, mablag'larni qattiq tejash, belgilangan maqsad uchun va oqilona ishlatishni ta'minlash zarur. Bu – hammaga ravshan va rad etib bo'lmaydigan haqiqat.

Shavkat Mirziyoyev

Islom Abdug'aniyevich Karimov

Atoqli davlat va jamoat arbobi Islom Abdug'aniyevich Karimov 1938-yilning 30-yanvarida Samarqand shahrida tavallud topgan. O'rta Osiyo politexnika va Toshkent xalq xo'jaligi institutlarini bitirgan. Mehnat faoliyatini 1960-yilda "Tashselmash" zavodida usta yordamchisi sifatida boshlab, keyin mazkur korxonada usta, so'ng texnolog bo'lib ishlagan. 1961-yildan V.P.Chkalov nomidagi Toshkent aviatsiya ishlab chiqarish birlashmasida muhandis, yetakchi muhandis-konstruktor lavozimida mehnat faoliyatini davom ettirgan.

O'zbekiston 1991-yil 31-avgustda mustaqil davlat deb e'lon qilinganidan keyin Islom Abdug'aniyevich Karimov o'sha yilning 29-dekabrida muqobillik asosida o'tgan umumxalq saylovida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti etib saylandi.

Islom Karimov - taniqli jamiyatshunos olim. Prezidentning "O'zbekistonning o'z istiqlol va taraqqiyot yo'li", "Bizdan ozod va obod Vatan qolsin", "Istiqlol va ma'naviyat", "Buyuk kelajagimizning huquqiy kafolati", "O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari" va boshqa o'nlab asarlarida nafaqat iqtisodiyot, qolaversa, ijtimoiy-siyosiy taraqqiyotning ko'plab dolzarb masalalari tadqiq qilingan. Davlatimizning ichki va tashqi siyosati ilmiy asoslab berilgan, joriy va istiqboldagi vazifalar aniqlangan, muhimi, ularni amalga oshirish yo'llari ko'rsatilgan. Jahon nazariy tafakkurida birinchi bo'lib,

I.A.Karimov istibdod iqtisodiyotidan erkin bozor munosabatlariga o'tish yo'llarini asoslab berdi va uni izchillik bilan amaliyotga tatbiq eta oldi.

O'zbekistonda gumanitar fanlar va iqtisodiy tafakkur rivojiga katta hissa qo'shgan Islom Karimov 1994-yilda O'zbekiston Fanlar akademiyasining akademigi etib saylandi. Xuddi shu yili "O'zbekiston Qahramoni" yuksak unvoniga sazovor bo'ldi. Jahonning bir necha tillariga tarjima etilgan asarlarida erkin bozor munosabatlari hukmron jamiyatga o'tish masalalari va muammolari nazariy asoslab berilgan, pishiq falsafiy umumlashmalar ilgari surilgan. Ularning aksariyati O'zbekistonda muvaffaqiyatli amalga oshirilayotgani diqqatga sazovordir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning Vatan oldidagi, tarix oldidagi, insoniyat oldidagi xizmatlari nechog'lik buyuk ekanligi xususida faqat odil hakam - vaqt xolis xulosa chiqarmoqda. Komil ishonch bilan aytish mumkinki, u o'zining favqulodda, biz bilgan andoza va ta'riflardan ancha yuqori turuvchi iste'dodi bilan O'zbekistonning yangi tarixi yaratila boshlangan davrning eng buyuk davlat arbobi, tashkilotchisi, nazariyotchi va amaliyotchisi ekanligi shubhasizdir.

1-topshiriq:

a) matnni o'qing;

b) matndagi asosiy fikrni ajratib so'zlab bering;

d) malakali mutahassis haqidagi tasavvurlaringizni gapirib bering.

2-topshiriq. I.A.Karimov asarlarining mazmun-mohiyati nimalardan iborat? Fikrlaringiz asosida esse yozing.


3-topshiriq. Gaplarni tahrir qilib, qayta ko'chiring.

1. Sizning ma'ruzangiz shu vaqtda qiziqarli bo'ladiki, qaysiki, siz mahalliy faktlardan foydalansangiz. 2. Bolalar ota-onaning qadriga shu vaqtda yetadilarki, qachon o'zlari farzandli bo'lsalar. 3.

Suvchilar birin-ketin uylariga borib kelishganda, endi siz borib keling deyishadi Toshmurodga. Uyiga kelib birvarakayiga pishirilgan sho'rvadan ichdi, shundagina dalaning gashti, fayzini chuqur tushunib qoldi. 4. Gar bo'lsa u vayrona ham, do'st bilan obod uying. 5. Mehr ham o'sha yerda ko'z qayerda bo'lsa.

4-topshiriq. FSMU jadvalini to'ldiring.

Nimaga asoslanib Islom Karimovni taniqli jamiyatshunos olimlar qatoriga kiritamiz?



5-topshiriq. Quyidagi tayanch so'zlar ishtirokida ***domino*** shakllantiring.

Tavallud [paydo bo'lish] - tug'ilish, dunyoga kelish. *Islom Abdug'aniyevich Karimov 1938-yilning 30-yanvarida Samarqand shahrida tavallud topgan.*

Taraqqiyot [olg'a harakatlanish, rivojlanish, o'sish] - rivojlanishning oddiydan murakkabga, quyidan yuqoriga yo'nalgan shakli, uning yuksalishi. *Ijtimoiy-siyosiy taraqqiyot.*

Tafakkur [fikr yuritish, o'ylash, fikrlash] - obyektiv voqelikning tasavvur, tushuncha va muhokamadagi faol jarayoni, insonning fikrlash qobiliyati. *Nazariy tafakkur.*

Texnolog - texnologiyaning u yoki bu sohasi bo'yicha mutaxassis. *"Tashselmash" zavodida texnolog bo'lib ishlagan.*

Mehnat [sinov; mashaqqat] - biror maqsad uchun qaratilgan aqliy yoki jismoniy faoliyat; kuch, g'ayrat, harakat. *Mehnat intizomi.*

Muhandis [injener, texnik; geometriyani yaxshi biluvchi, quruvchi usta] - texnikaning biror sohasi bo'yicha oliy ma'lumotga ega bo'lgan mutaxassis. *Yetakchi muhandis-konstruktor.*

Muqobil [o'rnini almashtiruvchi] - qarshi boruvchi, qarshi turuvchi, zid. *Muqobil tomonlar.* 2. Qarama-qarshi yo'nalgan; qarama-qarshi yo'nalishda. *Muqobillik asosida o'tkazilgan umumxalq saylovi.*

Zavod [*r.* zavod - harakatga keltirish, ishga solish] - yirik sanoat yoki hunarmandchilik korxonasi. *"Tashselmash" zavodi.*

Korxona [ishxona] - ishlab chiqarish yoki savdo bo'limi hamda shunday bo'limlardan bir nechasining birlashmasi. *Korxonada usta bo'lib ishladi.*

Umumxalq [umum + xalq] - butun xalqqa taalluqli, butun xalq uchun umumiy. *Umumxalq bayrami.*

Lavozim [kerakli, zaruriy narsalar] - muassasa, idora, tashkilotda biror rasmiy xizmatni bajarish bilan bog'liq bo'lgan vazifa o'rni; amal, mansab. *Muhandis-konstruktor lavozimi.*

Saylov - ovoz berish orqali davlat organlari, mahalliy o'zini o'zi boshqarish organlari va boshqa tuzilmalarni tashkil etish vositasi. *Saylov uchastkasi.*

Prezident [*lot.* praesidentis - oldinda o'tiruvchi] - respublika boshqaruvi shaklidagi ko'pchilik mamlakatlarda ma'lum muddatga saylab qo'yiladigan davlat boshlig'i. *O'zbekiston Prezidenti.*

Bo'sag'a - biror hudud, manzilning kirish, boshlanish joyi, ostonasi. *"O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari" asari.*

Dolzarb - bajarilishi, qilinishi kechiktirib bo'lmaydigan, birinchi galda hal etilishi lozim bo'lgan; o'ta muhim. *Dolzarb vazifa.*

Falsafiy - falsafaga oid. Tabiat va jamiyat haqidagi teran dunyoqarashni o'zida ifoda etgan. *Falsafiy asar.*

Manba [boshlanish; ibtido] - biror narsa, ish-harakatning yuzaga kelishi, faoliyat uchun asos bo'lgan narsa, sabab. Ilmiy tadqiqot ishlari uchun asos bo'lgan asar, hujjat. *Muhim manbalar.*

Usul [asosiy qoidalar, qonunlar; qabul qilingan tartib] - biror narsani yuzaga chiqarish, amalga oshirish yo'li, harakat tarzi. *Kashfiyot usuli.*

Siymo [yuz, chehra, qiyofa] - shaxs, zot. *Ulug' siymo.*

Birdamlik - hamjihatlik, yakdillik, hamnafaslik. *Birdamlikda yashash.*

Bayon [tavsiflash, ifodalash] - tabiat va jamiyat haqidagi tushuncha hamda tasavvur yuzasidan inson fikri va mulohazalarining og'zaki yoki yozma ifodasi. *Bayon qilish.*

Ixtiro [yangilik yaratish, o'ylab chiqarish] - fan-texnika sohasida kashf etilgan, ijobiy samara beradigan yangilik, kashfiyot. *Abu Rayhon Beruniyning iqtisodiy ixtirosi.*

Ixtiro qilmoq - yangilik yaratmoq, kashf qilmoq.

Obro' [shon, sharaf, or-nomus, qadr-qimmat; iftixor] - kishining tutgan ishi va yaxshi xislatlari tufayli jamoatchilik qoshida topgan e'tibori, hurmati, nufuzi. *Obro 'olib keldi.*

Qimmatbaho [bahosi, narxi yuqori, qimmat] - katta pul turadigan, qimmat bahoga ega. Nafaqat moddiy balki ma'naviy jihatdan qimmatli. *Qimmatbaho asarlar.*

Tadqiqot - tekshirish, o'rganish ishi. Ilmiy tekshirish ishining natijasi. *Olib borilgan tadqiqotlar.*

GRAMMATIKA

Matn tahlili va tahriri

Tahrir so'zi arabcha bo'lib, yozma ishni, asarni tuzatishlar kiritib yaxshilash, tuzatish ma'nolarini anglatadi.

Matnni tahrir qilish uchun dastlab u bilan yaxshilab tanishib, to'lig'icha o'qib chiqish, masalaning mohiyatini tushunib olish lozim. Birinchi o'qishdanoq tuzatishlar kiritishga shoshilish xatoliklarga olib kelishi, bu tuzatishlar muallif muddaosini anglamasdan amalga oshirilgan bo'lishi mumkin. Matn haqida tasavvurga ega

bo'lingandan keyin, matn til jihatdan tahrir qilinadi. Bunda so'zlarning imlosi ham, tinish belgilari ham, uslubiy kamchiliklar ham e'tibordan chetda qoldirilmaydi. Mana shu tuzatishlar jarayonida asosiy matndagi ba'zi o'rinlar kengaytirilishi, olib tashlanishi, o'zgartirilishi mumkin.

Muharrirlik faoliyati andozaviylikni mutlaqo rad etadi. Zero, tuzatishning har qanday matnga nisbatan qo'llash mumkin bo'lgan qolipi yo'q. Muharrir tuzatish usulini o'zi tanlash huquqiga ega, lekin bu usul to'g'ri, asoslangan bo'lishi lozim, Shuningdek, uni to'g'ri qo'llay bilishi ham kerak.

Musahhih va muharrirning o'qishdagi maqsadi alohida, boshqa-boshqadir. Musahhih chop etishga tayyorlangan matnni o'qish jarayonida uning tahrirdan chiqqan, muallif bilan kelishilgan va tasdiqlangan matniga to'la mos ekanligiga erishadi. Matnni imloviy, tinish belgilari bilan bog'liq xatolardan holi qiladi. Ensiklopedik asar matnidagi qisqartmalar va havolalarni bir xildaligi va aniqligini ta'minlaydi. Izohlar matndagi ko'rsatkichlarga mosligi va ho-kazolarni to'g'riligini tekshiradi, shuningdek, zarur tuzatishlarni amalga oshiradi.

Muharrirning o'qib tuzatishidan maqsadi matnni sidirg'a o'qishdan iborat. Muharrir bu tur o'qishni amalga oshirganda uning mazmuni, tuzilishidagi, shuningdek, uslubiy xatolarni aniqlaydi.

O'qish jarayonida muharrir geografik nomlar, shaxslar ismi va familiyalari, taxalluslari bir xil berilishi, iqtiboslar, raqamlar, sanalar aniq bo'lishiga e'tibor qaratadi, uzunlik, miqdor o'lchamlarining o'rinliligi va to'g'riligini tekshiradi. Shuningdek, sarlavhalarning matn bilan uyg'unligi, mosligini; tasvirlar osti yozuvlarining rasm, chizmaga mosligini tekshirish ham uning vazifasiga kiradi.

6-topshiriq. Matbuotda nashrdan chiqqan gazeta va jurnallar matni bilan tanishing. Ularni tanqidiy nazar bilan tahrir qiling.

7-topshiriq. "Sohamiz ravnaqi" mavzusida matn tuzing.

8-topshiriq. Mutaxassisning kasbiy kompetensiyalari ro'yxatini tuzing va ularni misollar bilan izohlab bering.

9-topshiriq. Tahrir haqidagi matnni o'qib chiqing, mazmuniga mos 6 ta savol tuzing.

Ma'lumki, ma'lumotni ommabop, ixcham, qiziqarli qilib yetkazishda tahrirning o'z o'rni bor. Maqola muallifning o'zi yoki o'zgalar tomonidan tahrir etilishi mumkin. Har bir maqola mavzu doirasida, muallif maqsadidan kelib chiqqan holda tahrir etilar ekan, u qator mezonlar asosida amalga oshiriladi. Rus tilidagi "редактировать" aslida lotinchadan olingan bo'lib, "tartibga keltirish" degan ma'noni anglatadi. Har qanday tahrir muallifning asosiy maqsadiga tayanadi. Tahrir etuvchi fakt bilan bog'liq holda muallif ijodiga sayqal beradi. Taqriz asarga baho berish bo'lsa, tahrir esa unga yo'nalish berishdir. Tahrir etuvchi muallif ishiga hech qanday mayllarga berilmasdan xolislik bilan yondashishi, unga ko'maklashishi zarur. Tahrir etish yozishdan ham murakkab bo'lib, yengil tuzatishlar qilinadi, imlo va tinish belgi xatolari to'g'rilanadi, uslubiy g'alizliklar yo'qotiladi, yangi so'z va iboralar qo'shiladi yoki qisqartiriladi.

Eslab qoling!

Qahramonlik. Har kuni, har soatda fidoyi bo'lish, o'zini tomchi va tomchi, zarrama-zarra buyuk maqsadlar sari charchamay, toliqmay tinimsiz safarbar etib borish, bu fazilatni doimiy, kundalik faoliyat mezoniga aylantirish – haqiqiy qahramonlik aslida mana shu, deb aytgan bo'lar edim.

"Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch" asarining amaliy ahamiyati yana shundaki, unda mustaqil O'zbekiston fuqarolarining, jumladan, zamonaviy qahramonning ma'naviy qiyofasi yaratilgan.

Asar muallifi hozirgi zamon kishisi faoliyatining uchta asosga qurilishini ta'kidlaydi.

Bular:

-mustaqil fikrlash;

-vatanparvarlik, ma'naviy jasorat;

-kasbkorlik (professionalizm).

Darhaqiqat, mustaqil fikr bo'lmagan joyda – tobelik, ma'naviy tahdid mavjud bo'ladi. Mustaqil fikrga ega bo'lgan inson hech qachon o'zgalarga qaram bo'lmaydi.

Iroda. Iroda — bu aslida mustahkam ishonch demakdir. Irodasi baquvvat odam o'ziga ishonadi va har qanday murakkab vazifani ham o'z zimmasiga olishdan qo'rqmaydi.

Ichki qobiliyat va salohiyat. Agar biz dunyo tarixiga nazar tashlaydigan bo'lsak, boshqa xalqlar ham ozodlik va mustaqillikni qo'lga kiritish, milliy tiklanish, o'z davlatchiligini, havas qilsa arziydigan fuqarolik jamiyatini mustahkamlash jarayonida ana shunday fazilatlarga tayanib va suyanib, barcha sohalarda – bu iqtisodiyot yoki ijtimoiy hayot bo'ladimi, madaniyat, ta'lim-tarbiya va ilm-fan bo'ladimi, o'zining beqiyos ichki qobiliyati va salohiyatini ishga solish hisobidan taraqqiyotga erishganlar.

Mantiqiy fikrlash. Biz bu haqda gapirganda, avvalo, ongli yashaydigan, mantiqiy fikrlashga qodir bo'lgan, o'z qarashlarining ma'no-mazmunini har tomonlama asoslab, isbotlab bera oladigan odamlarni nazarda tutamiz.

Mas'uliyat – arabcha so'zdan olingan bo'lib, javobgarlik, hisob berishlik degan ma'nolarni anglatib, biror ish, xatti-harakat oqibati, natijasi uchun bo'lgan javobgarlik.

10-topshiriq. Quyidagi matnni o'zbek tiliga tarjima qiling.

Бухгалтерский учёт

Бухгалтерский учёт – упорядоченная система сбора, регистрации и обобщения информации в денежном выражении о состоянии имущества, обязательств организации и их изменениях (движении денежных средств).

Объектами бухгалтерского учёта являются имущество организаций, их обязательства и хозяйственные операции, осуществляемые организациями в процессе их деятельности.

Бухгалтерский учёт в соответствии с законом "О бухгалтерском учёте" может вестись главным бухгалтером, принятым на предприятие по трудовому договору, генеральным директором при отсутствии бухгалтера, бухгалтером, не являющимся главным, либо сторонней организацией.

Основной задачей бухгалтерского учёта является формирование бухгалтерской отчётности о деятельности организации и её имущественном положении. Внутренние пользователи бухгалтерской отчётности – руководители, учредители, участники и собственники имущества организации.

Внешние пользователи бухгалтерской отчётности – инвесторы, кредиторы, государство. Бухгалтерский учёт тесно связан с налоговым и управленческим учётом.

11-topshiriq. Matnni o'zbek tiliga tarjima qiling. Matnga nom bering.

Экономист собирает и анализирует данные о производственной деятельности, затем оценивает, насколько она успешна и, в конечном счете, готовит предложения руководству по усовершенствованию технологии производства и труда.

Экономисты работают по нескольким направлениям. Например, экономист по труду рассчитывает размер зарплаты для представителей каждой профессии - от бухгалтера до шахтера. Кроме того, он знает, как оценить результаты труда работников предприятия.

Экономист планового отдела определяет наиболее эффективные пути получения прибыли. Для этого он сначала рассчитывает, какие доходы можно получить в будущем и сколько средств для этого понадобится. Затем он считает прибыль и обдумывает, как ее использовать. Таким образом, он планирует хозяйственную деятельность предприятия. Потом экономист будет оценивать, насколько реализовался его план,

то есть проводить анализ выполнения намеченных планов и достигнутых предприятием результатов. Он сделает выводы и приступит к разработке планов на следующую перспективу. Задача экономиста по финансовой работе - сформировать и распределить доходы и накопления, обеспечить финансовыми ресурсами производство.

Этот специалист следит за тем, чтобы предприятие выполняло свои финансовые обязательства перед государством и банками, правильно платило налоги, вовремя рассчитывалось с поставщиками.

Существуют и другие экономические специальности: экономисты по договорной и претензионной работе, материально-техническому снабжению, сбыту и т.д.

12-topshiriq. Matnni tahrir qilib ko'chiring.

Yigirmanchi asrning uchdan uchi insoniyat jamiyati hayotida mushkul voqealar bilan ajralib turardi. Iqtisodiy, siyosiy va jamoat tuzilmalarida chuqur siljishlar muntazam ravishda tartibga solingan tartibda portlatib yuboriladi, zo'ravonlik va kutilmagan voqealarga olib keladi. Ushbu harakatlarning asosi - ilmiy va texnik taraqqiyotdir, uning sur'ati tobora jadallashib bormoqda.

Mikro va nanoelektronika sohasida elektronika, radiofizika, optoelektronika va lazer texnologiyalari, zamonaviy materialshunoslik (kimyoviy va kataliz), zamonaviy aviatsiya va kosmonavtika, axborot texnologiyalarining jadal rivojlanishi, ajablanadigan natijalar, texnologiya va fundamental kashfiyotlar qatori yuqori texnologiyali texnologiyalarga asoslangan yuqori texnologik mahsulotlarni ishlab chiqarishni yo'lga qo'ydi, buning natijasida oxirgi yillarda iqtisodiy rivojlanish yuz berdi. Shuning uchun so'nggi o'n yilliklarda ilmiy va texnologik taraqqiyot bir qator yangi xususiyatlarga ega bo'ldi. Fan, texnologiya va ishlab chiqarish o'rtasidagi o'zaro munosabatlar sohasida yangi sifat tug'iladi.

Tarix xalqning haqiqiy ta'limotiga aylanadi. Buyuk ajdodlarimizning harakatlari va fe'llari tarixiy xotirani keltirib chiqaradi, yangi fuqaroviy ongni shakllantiradi, axloqiy tarbiya va taqlid manbai bo'lib qoladi. Markaziy Osiyo tarixida siyosiy ongni va axloqiy jasoratni, diniy dunyoqarashni va ensiklopedik ta'limni birlashtirgan ko'plab mashhur shaxslar bor edi.

29-MAVZU. KASB BAYRAMI

Umrni zoye etma, mehnat qil,
Mehnatni saodatning kaliti bil.
Alisher Navoiy

Xalqaro buxgalterlar kuni

Har yili 10-noyabr Xalqaro buxgalterlar kuni sifatida nishonlanadi. Kuchli buxgalterlar guruhi har qanday savdo tashkiloti muvaffaqiyatining garovidir. Ko'p mamlakatlarda buxgalterlar bayrami joriy qilingan bo'lsa-da, bayramni xalqaro miqyosda o'tkazish zarurligi bir necha bor muhokama qilingan. Luki Pachiollining "Hammasi arifmetika, geometriya va proporsiya haqida" nomli kitobi chop etilgan kun 10-noyabr 1494-yil bayram sanasi sifatida tanlab olindi. Muallif bu kitobida o'sha davrning matematika haqidagi bilimlarini baholashga harakat qilgan. Kitobning bir bo'limida Venetsiyaning buxgalterlik ishi to'liq yoritib berilgan. Luka Pachioli buxgalteriya haqidagi 1-kitobning yaratuvchisidir. Pachioli kitobida jurnal-orderlardan foydalanish, buxgalter hisobotini ro'yxatga olishni ko'rsatib o'tgan, bundan tashqari bu sohada xizmat ko'rsatuvchilar debet bilan kredit bir-biriga mos kelmaguncha tinch uxlay olmasliklarini aytib o'tgan. Kitobda ko'plab boshqa terminlar ham berilganki, unda buxgalteriya ishini to'liq o'rganishda maxsus bilim olish imkoni mavjud edi. Luki Pachiolini "buxgalterlar otasi" deb ataydilar. Pachiolining buxgalteriya sohasidagi ko'rsatmalari to'rt yuz yillar davomida maxsus ma'ruzalarda, buxgalteriya ishlarini siljishida asos bo'lib xizmat qildi. Pachioli ishlarini naqadar muhim ekanligini yana shundan ham ko'rish mumkin. Kitob nashr qilinishidan 50 yilgina oldin Ioann Gutenberg alohida metall harflar va belgilar yordamida kitob nashr qilishni kashf qilingan edi va ma'lumki, kitob nashr qilish o'sha vaqtda juda qimmat edi.

O‘zbekistonda esa Buxgalterlar va auditorlar kuni 9-dekabrda nishonlanadi. Mamlakatimizda bu bayram yosh. 2009-yil sentyabr oyida O‘zbekiston Respublikasi Buxgalterlar va auditorlar uyushmasi anjumani bo‘lib o‘tdi. Anjuman “Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozining oqibatlarini bartaraf etishda Buxgalteriya hisobi va auditni takomillashtirish yo‘llari” mavzusida o‘tkazildi va 9-dekabr kunini “Buxgalterlar va auditorlar kuni” deb e’lon qilindi.

1-topshiriq:

a) matnni o‘qing;

b) matn mazmunini kengaytirib so‘zlab bering;

d) turli mamlakatlarda nishonlanadigan shu kasb egalarining bayramlari haqida ma’lumot to‘plang.

2-topshiriq. Kasb bayrami haqida matn tuzing.

3-topshiriq. Matnni o‘qing. Matndan foydalanib “Mulk shakllari” mavzusida dialogga kirishing.

Xususiy mulk

Xususiy mulk – bu ayrim kishilarga tegishli, fuqaro daromad olish maqsadida foydalanadigan mulk turi. Mulkdan foydalanib, daromad olish maqsadida ishlab chiqarish, fuqaroning o‘z mehnati bilan yoki boshqa birovlarni yollash yo‘li bilan amalga oshirilishi mumkin. O‘zbekiston Respublikasining “Mulkchilik to‘g‘risida”gi qonunining 7-moddasiga binoan, xususiy mulkchilik mulkni o‘zlashtirish, o‘z mol-mulkiga xususiy tarzda egalik qilish, undan foydalanish va uni tasarruf etish huquqidan iboratdir.

Xususiy mulk boshqa mulk shakllari kabi daxlsiz va davlat tomonidan himoya qilinadi. Barcha shaxslar, ularning kim va qanday lavozimda bo‘lishlaridan qat’iy nazar, mulkdorning huquqini hurmat qilishlari, unga asossiz hech qanday putur yetkazmasliklari lozim. Mulkdor o‘z mulkidan faqat qonunda ko‘rsatilgan hollarda va qonunda belgilangan tartibdagina mahrum etilishi mumkin.

Xususiy mulkchilikni keng yoyish, fuqarolarda mulkchilik tuyg'usini shakllantirish va mustahkamlash - O'zbekistonning hozirgi davrdagi dolzarb vazifalaridan biri. Xususiy mulk ishlab chiqarishni rivojlantiruvchi ichki kuch va cheksiz manbadir. Shu boisdan xususiy mulkning turli shakllarda rivoj topishiga keng yo'l ochib qo'ygan mamlakatlar qatoridan zamonamizning rivojlangan davlatlari yetishib chiqishi tabiiydir va mantiqan asoslidir. Xususiy mulkchilikni inkor etish - sho'ro tuzumi barbod bo'lishining asosiy sabablaridan biridir.

4-topshiriq. Quyidagi tayanch so'zlar ishtirokida ***domino*** shakllantiring.

Ilm - [bilim; fan] - o'qish-o'rganish va tadqiqot, tahlil etish bilan erishiladigan bilim; ko'nikma, ma'lumot. Ish-faoliyatning ma'lum bir sohasiga oid bilim, ta'limot, malaka. *Ilm o'rganish.* 2. Ish-faoliyatning ilm bilan bog'liq sohasi; tabiat va jamiyat haqidagi bilimlar tizimi. *Iqtisodiyot ilmi.*

Ilmiy - ilmga oid, ilmga qaratilgan. *Ilmiy asar.*

Faoliyat - [harakatchanlik; samaradorlik] - biror sohada olib boriladigan ish, mashg'ulot, harakat. *Ilmiy faoliyat.*

Filial - [*lot.* filialis - o'g'ilga oid, o'g'ilniki] - biror yirik korxona, muassasa yoki jamoat tashkilotining mustaqil bo'limi, shu'ba. *Xorazm Ma'mun akademiyasini O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining Xorazm-Amudaryo mintaqasi filiali sifatida qaytadan tikladi.*

Tadqiqotchi - tadqiqot ishlari bilan shug'ullanuvchi shaxs. *Ilmiy tadqiqotchilar.*

Tashkilot - aniq tarkib va vazifasiga, ish dasturiga ega bo'lgan ijtimoiy, xo'jalik birlashmasi yoki davlat muassasasi. *BMTning YUNESKO tashkiloti.*

Ensiklopedist - [*fr.* encyclopediste < *yun.* enkyklios paideytes - keng fanlar doirasi bo'yicha murabbiy] - XVIII-asrda yashagan, ilm-fanning ko'p sohalarini egallagan ilg'or fransuz olimlari, faylasuflari, yozuvchilari va publitsistlari guruhiga mansub kishi (bu

guruh 1751-1780-yillarda "Ensiklopediya" tuzgan va nashr etgan). *Ensiklopedist olim.*

Davr - [aylanish, navbat] - jamiyat taraqqiyotida yoki tabiatda muhim voqea, hodisa yuz bergan yoki o'ziga xos xususiyati bilan ajralib turadigan ma'lum vaqt oralig'i. *Bozor iqtisodiyotiga o'tish davri.*

Olim - [ilmli, ma'lumotli] - fanning biror sohasi bo'yicha maxsus bilimga ega bo'lgan kishi. *Iqtisodchi olim.* 2. Umuman, bilimli kishi. *Olim bo'lsang, olam seniki.*

Mutafakkir - [fikrlovchi, o'ylovchi] - chuqur falsafiy fikrlash iste'dodiga ega bo'lgan kishi, tafakkur egasi. *Mutafakkir olim.*

Homiy - [himoya qiluvchi] - biron tadbir yoki faoliyatni amalga oshirishda moliyaviy yordam ko'rsatuvchi, moliyaviy jihatdan qo'llab-quvvatlovchi jismoniy yoki yuridik shaxs. *Ma'muniy xorazmshohlar homiyligida.*

Akademiya - [*yun.* academia - afsonaviy qahramon Akadem nomi hamda Platon o'z ta'limotidan dars bergan, Afina yaqinidagi kichik o'rmon nomidan] - ilm, fan yoki san'atni rivojlantirish uchun tuzilgan, yuqori malakali olimlariga ega bo'lgan oliy ilmiy muassasa. *O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi.* 2. Ba'zi bir oliy o'quv yurtlarining nomi. *Soliq akademiyasi.*

Qaror - [to'xtam, hukm, xulosa; tub, asos] - biror ish, masala yuzasidan qabul qilingan xulosa; amalga oshirish lozim topilgan qat'iy fikr; ahd, to'xtam. *Qarorim qat'iy.* 2. Rasmiy organ, tashkilot, majlis, mansabdor shaxs va shu kabilarning biror ish, masala yuzasidan bamaslahat qabul qilgan to'xtami, hukmi. *Kafedra majlisi qarori.*

Institut - [*lot.* institutum - o'rnatish, tuzish, ta'sis etish] - ba'zi oliy o'quv yurti va ilmiy-tekshirish muassasalarining nomi. *Moliya instituti.*

Iqtisodiyot - [xo'jalik masalalari; xo'jalik] - ijtimoiy tuzumning bazasi. Xalq xo'jaligi, ishlab chiqarish kuchlarining holatiga muvofiq keluvchi ishlab chiqarish munosabatlari. 2.

Xo'jalik tarmoqlarining moddiy va moliyaviy tomonlarini o'rganadigan fan. *Respublikaning iqtisodiyoti.*

Universitet - [*nem.* universität<*lot.* universitas, universitatus - jami, barchasi; majmua] - tarkibida bir qancha yo'nalishdagi fakultetlari bo'lgan, ayni yo'nalishlarda yuksak malakali mutaxassislar tayyorlaydigan ko'p tarmoqli oliy o'quv ilmiy muassasa. *Toshkent davlat idtisodiyot universiteti.*

Kafedra - [*yun.* kathedra - o'rindiq, kursi] - ma'ruza o'qish, va'z aytish, axborot berish uchun mo'ljallangan baland qurilma; minbar. 2. Oliy o'quv yurtlarida bir yoki bir necha o'zaro yaqin fanlar bo'yicha ish olib boruvchi professorlar, o'qituvchilar va ilmiy xodimlarning tashkiliy birlashmasi va shu birlashma joylashgan xona. *Bank ishi kafedrasi.*

Fakultet - [*nem.* fakultät < *lot.* facul-tatis - qobiliyat, imkoniyat] - oliy o'quv yurtining ma'lum ixtisoslik bo'yicha tegishli fanlar o'qitiladigan bo'limi. *Moliya fakulteti.*

Fan - [ilm, bilim; tarmoq] - tabiat va jamiyatning taraqqiyot qonuniyatlarini ochib beruvchi hamda o'zi erishgan natijalar bilan atrof- muhitga ta'sir ko'rsatuvchi bilimlar tizimi. *Fan yutuqlari.* 2. Shunday bilimlar tizimining alohida tarmog'i, yo'nalishlari, sohalari. *Iqtisodiy fanlar.*

Ta'lim - [ilm berish; ma'lumot] - bilim berish, malaka va ko'nikmalar hosil qilish jarayoni. 2. Ilm-fan yoki kasb-hunar sohalari bo'yicha egallanadigan, olinadigan ma'lumot va ko'nikmalar majmui; bilim. *Oliy ta'lim.*

Talaba - [talab qiluvchi] - oliy yoki o'rta maxsus o'quv yurti o'quvchisi. *Bank kolleji talabasi.*

Professor - [*lot.* professor - muallim, o'qituvchi; murabbiy] - oliy o'quv yurtlaridagi eng malakali o'qituvchilarning, shuningdek, ilmiy-tadqiqot institutlaridagi ilmiy xodimlarning ilmiy unvoni va lavozimi; shunday unvon va lavozimli shaxs. *Kafedra professori.*

O'quv - o'qish va o'qitish bilan bog'liq bo'lgan, o'qish va o'qitishga taalluqli. O'*quv soati.*

Xorijiy - [tashqi, ajnabiy] - mamlakatimizdan tashqaridagi, chet eldagi. *Xorijiy davlat. Xorijiy matbuot.*

Yo'nalish - hayot, faoliyatdagi muayyan yo'l. Ilm-fan va boshqa sohalarga xos oqim, ularning sohasi, tarmog'i. *Ilm fanning biror yo'nalishi.*

Muassasa - [idora, korxona, tashkilot] - xo'jalik, savdo-sotiq ishlarining biror sohasini boshqaruvchi yoki ilmiy, ta'lim-tarbiya ishlarini olib boruvchi, belgili shtat va ma'muriyatiga ega bo'lgan tashkilot. *Davlat muassasalari.*

5-topshiriq. Ishga kirish uchun yozilgan rezyumeni o'qing. O'zbek tiliga tarjima qiling.

Саидов Анвар Бахромович

Личные данные:	возраст: 22 года семейное положение: холост
Контактная информация:	Адрес: 127063, г.Ташкент Телефон:+7(972)134-48-235 E-mail: obrazetc@yandeks.ru
Цель:	Устроиться на интересную работу с достойной оплатой и перспективой карьерного роста в сфере экономики, банковской сфере или логистики.
Образование:	2004-2009 –Ташкентский финансовый институт. *Специальность: «Финансовый менеджмент»* Средний балл зачетной книжки: 4,0. 2000-2003 - Лицей информационных технологий.
Опыт работы и профессиональные навыки:	2007; 2008 гг. *«Национальный банк»*. Стажер (практика): - исследовал анализ уровней и закономерностей развития экономических систем и отдельных процессов, нашел метод их объективной оценки, выполнил планирование и прог-

нозирование развития отраслей и предприятий с применением финансовых методов и информационных технологий;
- провел комплексный анализ финансовой деятельности банка современными средствами анализа и прогнозирования финансово-экономических ситуаций.

Дополнительные навыки и интересы: Английский язык – средний уровень (перевожу экономические тексты и свободно говорю); Опытный пользователь ПК. Работаю в программах: КОМПАС; AutoCad; ANSYS и др. Имею водительские права категории В.

Личные достижения: Победитель республиканской олимпиады Имею 1 разряд по шахматам.

Личные качества: Ответственный, легко обучаемый, имею организаторские способности. Веду здоровый образ жизни.

30.04.2019 г.

6-topshiriq. 10 yildan keyin Siz o‘zingizni qanday ko‘rasiz? Namunadan foydalanib o‘z rezyumengizni yozing.

7-topshiriq. Kasb bayramiga bag‘ishlangan reportaj yozing. Reportaj mazmunini rezyume ko‘rinishida ifodalang.

8-topshiriq. Ma’lumotlarni o‘rganing. O‘zbekistonda soliqchilar kuni qachon va qanday nishonlanishini so‘zlab bering.

Turli davlatlarda Soliqchilar kuni va soliqqa tortishning o‘ziga xos xususiyatlari mavjud. Rossiyada 21-noyabr kuni, Qozog‘istonda 9-iyul, Belarusda 14-iyul, Ozarbayjonda 11-fevral, Qirg‘izistonda 1-iyul, Ukrainada 18- mart kuni nishonlanadi.

O‘zbekiston SSR Oliy Kengashining 1991-yil 14-iyundagi qarori “O‘zbekiston SSR davlat soliq organlari to‘g‘risida”gi Nizomni tasdiqladi va soliq qonunchiligiga rioya qilish tizimini

takomillashtirish maqsadida soliq va boshqa majburiy to'lovlarni to'liq, to'g'ri va o'z vaqtida to'lash bilan 1991-yil 12-avgustda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "O'zbekiston SSR davlat soliq organlari to'g'risida"gi 217-sonli qarori qabul qilindi.

Respublika rahbariyatining doimiy qo'llab-quvvatlashi natijasida 28 yil davomida O'zbekiston soliq xizmati mamlakatning manfaatlarini himoya qilish, shoshilinch iqtisodiy va ijtimoiy muammolarni hal qilishning kuchli vositasiga aylandi. Suverenitetning muhim elementi bo'lmish mustaqillikning dastlabki yillaridan boshlab daromadlarning katta qismini byudjetga yetkazib beradi, boshqa muhim iqtisodiy va ijtimoiy muammolarni hal qiladi. Soliq organlarining qattiq ishlashi natijasida infratuzilmani ta'minlash va rivojlantirish, qonun va tartibni ta'minlash va mamlakatning mudofaa qobiliyatini mustahkamlash uchun moliyaviy resurslar ta'minlanmoqda.

9-topshiriq. Soliq inspektorining muhim xususiyatlarini o'rganing. Ma'lumotdan foydalanib tanlagan kasbingiz xususiyatlari haqida o'zbek tilida gapirib bering.

ВАЖНЫЕ КАЧЕСТВА НАЛОГОВОГО ИНСПЕКТОРА

Внимательность, кропотливость, аналитические способности, усидчивость, честность, способность отстаивать свою точку зрения, стрессоустойчивость, требовательность, умение быстро принимать решения, высокий уровень концентрации, устойчивости и избирательности внимания (способность в течение длительного времени сосредоточиваться на одном важном виде деятельности), умение обобщать материал, хорошо развитая долговременная и оперативная память, склонность к работе с документацией.

Специальные знания: основы налогового законодательства, все виды и формы бухгалтерского учета и отчетности, методика составления отчетности, принципы арбитражной деятельности.

10-topshiriq. Qiziqarli ma'lumotlarni o'zbek tiliga tarjima qiling.

- Профессия сборщика налогов зародилась в глубокой древности. Европейская же система налогообложения пришла из Древнего Рима. На Руси налоговая система начала складываться в конце IX века с момента объединения русских земель. Самым главным налоговиком был князь.
- Пословица "Москва слезам не верит" имеет непосредственно налоговую природу. Во время возвышения Московского княжества с других городов взималась большая дань. Города направляли в Москву челобитчиков с жалобами на несправедливость. Царь иногда сурово наказывал жалобщиков для устрашения других. Отсюда и пошло выражение «Москва слезам не верит».
- Лициний, римский наместник в Древней Галлии, разделил год на 14 месяцев, чтобы чаще собирать налоги.
- В Германии, в земле Северная Рейн-Вестфалия находится город Зигбург. Одна из достопримечательностей этого города – Музей истории налогов. Подобные музеи есть в Израиле (Иерусалим), Англии (Лондон), Музей истории налогов и налоговых отношений (Узбекистан, Ташкент), Музей налоговой службы (Кыргызская Республика, Бишкек), Музей при Государственной налоговой администрации г. Севастополя (Украина), Музей истории налоговой службы (Украина, г. Чернигов). Посетители музеев не только знакомятся с историей налогов, приходят к пониманию их социальной и исторической значимости, но и видят интереснейшие факты человеческой изворотливости, а порой и глупости, поскольку от курьезов с давних времен и по сей день, не свободна ни одна финансовая система мира.
- Страной, осуществляющей налогообложение по самым высоким ставкам, является Норвегия, где в январе 1974 г. лейбористская партия и социалистический альянс отменили

80% предел. Тогда в «Лигнингс Бока» были перечислены более 2000 граждан, выплачивающих более 100% своего подлежащего налогообложению дохода.

ЭКЗОТИЧЕСКИЕ НАЛОГИ

- В Древнем Египте кошка считалась священным животным, и те, кто заботился о кошках, платили в казну меньше налогов.
- Самый ужасный налог в истории взимался в течение 21 года Ранджитом Сингхом, завоевателем Пешавара (Пакистан). Он состоял из сотни отрезанных человеческих голов в год.
- В Австрии горнолыжники обязаны при каждом спуске с горы платить специальный «гипсовый налог», средства которого передаются австрийским клиникам. По самым скромным подсчетам в Австрийских Альпах ежегодно около 150 тыс. лыжников получают травмы, а на лечение тратится примерно один миллиард шиллингов в год.
- Странный налог придумали в XVIII веке в Вюртемберге — на воробьев. Когда их разводилось чересчур много, с хозяина каждого дома стали требовать уничтожить дюжину этих птиц, за что он получал 6 крейцеров. Нерадивый платил в казну 12 крейцеров, но ему проще было купить нужное количество мертвых воробьев у подпольного торговца, который доставал их на городской свалке.
- Летом 1996 г. власти портового города Тяньцзинь ввели «налог на грех», в соответствии с которым сожительство без брачного свидетельства обходится нарушителям в 1.000 юаней (120 долл.)

11-topshiriq. Berilgan matndan foydalanib ideal bankir qanday bo'lishi kerak? mavzusida matn tuzung.

IDEAL BANKIR SUR'ATI

Mashhur bankir Yevgeniy Bernshtami bir necha yil oldin bo'lgan intervyuda bankirning kimligini so'rashdi. U bankirning, birinchi navbatda, aqlli odamligini ta'kidladi.

Zamonaviy bankir yaxshi profilga ega bo'lishi, nafaqat bank mahsulotlarini, balki hayotni ham tushunishi, odamlarning psixologiyasini bilishi kerak.

U konstruktiv fikrga ega bo'lishi va konservator bo'lishi zarur.

Bankir uchun juda muhim sifat - bu jamoada samarali ishlash qobiliyatidir. U o'zining shaxsiy fikriga ega bo'lishi, muayyan hayot tarzini olib borishi, bilimlarini kengaytirishi, maqsad sari intilishi hamda o'z ustida ishlashi zarur.

Ba'zi mijozlar ko'plab bankirlarga iqtisodiy savodxonlik yuzasidan dars berishi mumkin. Agar iqtisodiy ko'nikmalarga ega mijoz bank xodimining layoqatsizligi bilan duch kelsa, u xodim haqida emas, balki, bu shaxs faoliyat ko'rsatayotgan bank borasida salbiy fikrda bo'ladi.

Xodimlar qanchalik izchil va maqsadga yo'naltirilgan bo'lsa, ular xizmat ko'rsatayotgan banklar shunchalik muvaffaqiyatli bo'ladi va davlat bank tizimi shunchalik jadal rivojlanadi.

12-topshiriq. Namunaviy matn asosida o'zingiz tanlangan mutaxassislik haqida insho yozing.

IQTISODCHI-MENEJER KASBI

Inqiroz davrida ko'plab menejerlar ba'zi xodimlarni ishdan bo'shatishga majbur. Shunga ko'ra, kamroq ishchilar bir xil ish miqdorini qilishlari kerak. Iqtisodchi-menejer kabi mutaxassislar har qanday korxona uchun kamyob topilma hisoblanadi, chunki ular nafaqat iqtisod sohasida, balki boshqaruvda ham bilimga ega. Iqtisodchi-menejer - nafaqat korxona faoliyatini tahlil qilishi, biznes-rejani tuzishi, balki yaxshi boshqaruvchi bo'lishi mumkin bo'lgan shaxs.

Ilgari hech kim xodimlarning motivatsiyasi haqida jiddiy o'ylab ko'rmas, mehnat ko'rsatkichlari tahlil qilinmas edi. Mehnat bozorida bu kasb nisbatan yaqinda paydo bo'lgan va 90-yillarda G'arbda mashhur bo'lgan. Mamlakatimizda ushbu soha mutaxassislari taxminan 10 yildan beri o'qitilmoqda ...

Kasbingizning jamiyatdagi ahamiyati: iqtisodchi-menejer bugungi kunda eng mashhur kasblardan biri. Bunday mutaxassis biznesning ko'plab sohalarida - savdo, ishlab chiqarish va boshqalarda talab qilinadi. U nafaqat buxgalter bilan ishlashi, balki marketing bilan rejalashtirish bo'limida ham shug'ullanishi mumkin. Iqtisodchi-menejerlarga bo'lgan talab ularning maxsus tayyorgarlikka ega bo'lganidan kelib chiqadi va misol uchun ishlab chiqarishda texnik bilimlarsiz ishlab bo'lmaydi.

Kasbning ommaviyligi va o'ziga xosligi: bu ish mas'uliyatli va maqsadga intiluvchan insonsonlar uchundir. Nomzoddan ma'lum bir sohada tajribaga ega bo'lish talab etiladi (nazariy va amaliy bilimlar). Aynan qanday bilimlarga? Iqtisodchi-menejer bozor iqtisodiyotining hozirgi holatini tushungan holda strategik qarorlar qabul qilishi kerak. Faoliyat tashkiliy, marketing va boshqa masalalarni rejalashtirish va hal qilishdan iborat.

Kasbning tavakkalchiliklari: Iqtisodchi-menejerlarning ishiga yaxshi haq to'lanadi. Bunday mutaxassislarni faqatgina yirik savdo-sotiq, qurilish kompaniyalari va shu kabi muassasalar xodimlar royxatiga olishi mumkin. Masalan, bir necha yil ichida bunday kompaniyada rejalashtirish va iqtisodiy bo'limida boshliq lavozimiga ko'tarilishi muammo emas, ya'ni, lavozim va martaba o'sishini o'z ichiga oladi.

30-MAVZU. SHARQ AKADEMIYALARI

Har bir insonning qadr-qiymati, o'z ishini qoyil qilib bajarishidadir.
Beruniy

Xorazm Ma'mun akademiyasi

Ma'mun akademiyasi 1004-1005-yillarda Xorazmda yaratilgan bo'lib, O'rta Osiyo tarixida birinchi akademiyadir. Akademiyaning "Ma'mun" deyilishining sababi Ma'muniy xorazmshohlar davrida (997-1017-yillar) ularning homiyligida tashkil qilingan va ilmiy ish olib borgan. Akademiya 1017-yilda o'z faoliyatini to'xtatishining sababi Xorazmshoh Ma'mun ibn Ma'munning isyonchilar tomonidan o'ldirilishi bo'ldi. Shundan so'ng akademiya homiysiz va qarovsiz qolib, akademiya olimlari ilmiy ish uchun tinch sharoit qidirib, birin-ketin tarqalib ketdilar.

1004-yildan boshlab Gurganjda "Darul Hikma va maorif" ilmiy tashkiloti faoliyat ko'rsata boshlagan. Bu ilmiy tashkilot ko'p jihatdan Platonning Afinadagi Akademiyasini va Bag'doddagi "Baytul hikma" akademiyasiga o'xshagan Xorazm Ma'mun akademiyasida o'sha davrning eng ko'zga ko'ringan ensiklopedist olimlari va mutafakkirlari xizmat qilganlar. Ular qatorida quyidagi yirik tadqiqotchilarni sanab o'tish mumkin: Abulhayr ibn Hammar, Jurjoniy, Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Muhammad ibn Muhammad as-Saxiy, Xorazmiy va boshqalar. Bular o'sha davr sharoitida haqiqiy ilmu fanlarning mashhur kimyogarlari, tabiatshunoslari, tibbiyotchilari, matematiklari, astronomlari, muhandis-muhosib olimlari, mantiqshunoslar, faylasuflar, tarixchilar, geograflar va boshqa sohalarning atoqli vakillari yig'ilgan edilar.

BMTning YUNESKO tashkiloti O'zbekiston Respublikasining taklifi bilan 2005-yilda Ma'mun akademiyasining 1000 yilligi anjumanini o'tkazish to'g'risida qaror qabul qildi. O'zbekiston ushbu tantanalar doirasida Xorazm Ma'mun akademiyasini O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining Xorazm-

Amudaryo mintaqasi filiali sifatida qaytadan tikladi. 1997-yil 11-noyabrdan boshlab, O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti I.A.Karimovning "Xorazm Ma'mun akademiyasini tiklash to'g'risida"gi Farmoniga binoan bu akademiya o'z tarkibida arxeologik, til va adabiyot, biologiya bo'limlarini tashkil qildi va o'z ajdodlarining nomi va ruhiga loyiq ish olib borishga intilmoqda.

1-topshiriq:
a) matnni o'qing;
b) matnni davom ettirgan holda so'zlab bering.

2-topshiriq. Ilmga fidoyilik tushunchasini misollar bilan ta'riflab dialogga kirishing va uni inssenirovka qiling.

3-topshiriq. Quyidagi tayanch so'z va iboralarni o'qing, ma'nosini eslab qoling. Ular ishtirokida bog'lanishli matn tuzing.

Ilm - [bilim; fan] - o'qish-o'rganish va tadqiqot, tahlil etish bilan erishiladigan bilim; ko'nikma, ma'lumot. Ish-faoliyatning ma'lum bir sohasiga oid bilim, ta'limot, malaka. *Ilm o'rganish.* 2. Ish-faoliyatning ilm bilan bog'liq sohasi; tabiat va jamiyat haqidagi bilimlar tizimi. *Iqtisodiyot ilmi.*

Ilmiy - ilmga oid, ilmga qaratilgan. *Ilmiy asar.*

Faoliyat - [harakatchanlik; samaradorlik] - biror sohada olib boriladigan ish, mashg'ulot, harakat. *Ilmiy faoliyat.*

Filial - [*lot.* filialis - o'g'ilga oid, o'g'ilniki] - biror yirik korxona, muassasa yoki jamoat tashkilotining mustaqil bo'limi, shu'ba. *Xorazm Ma'mun akademiyasini O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining Xorazm-Amudaryo mintaqasi filiali sifatida qaytadan tikladi.*

Tadqiqotchi - tadqiqot ishlari bilan shug'ullanuvchi shaxs. *Ilmiy tadqiqotchilar.*

Tashkilot - aniq tarkib va vazifasiga, ish dasturiga ega bo'lgan ijtimoiy, xo'jalik birlashmasi yoki davlat muassasasi. *BMTning YUNESKO tashkiloti.*

Ensiklopedist - [*fr.* encyclopediste < *yun.* enkyklios paideytes - keng fanlar doirasi bo'yicha murabbiy] - XVIII-asrda yashagan, ilm-fanning ko'p sohalarini egallagan ilg'or fransuz olimlari, faylasuflari, yozuvchilari va publitsistlari guruhiga mansub kishi (bu guruh 1751-1780-yillarda "Ensiklopediya" tuzgan va nashr etgan). *Ensiklopedist olim.*

Davr - [aylanish, navbat] - jamiyat taraqqiyotida yoki tabiatda muhim voqea, hodisa yuz bergan yoki o'ziga xos xususiyati bilan ajralib turadigan ma'lum vaqt oralig'i. *Bozor iqtisodiyotiga o'tish davri.*

Olim - [ilmli, ma'lumotli] - fanning biror sohasi bo'yicha maxsus bilimga ega bo'lgan kishi. *Iqtisodchi olim.* 2. Umuman, bilimli kishi. *Olim bo'lsang, olam seniki.*

Mutafakkir - [fikrlovchi, o'ylovchi] - chuqur falsafiy fikrlash iste'dodiga ega bo'lgan kishi, tafakkur egasi. *Mutafakkir olim.*

Homiy - [himoya qiluvchi] - biron tadbir yoki faoliyatni amalga oshirishda moliyaviy yordam ko'rsatuvchi, moliyaviy jihatdan qo'llab-quvvatlovchi jismoniy yoki yuridik shaxs. *Ma'-muniy xorazmshohlar homiyligida.*

Akademiya - [*yun.* academia - afsonaviy qahramon Akadem nomi hamda Platon o'z ta'limotidan dars bergan, Afina yaqinidagi kichik o'rmon nomidan] - ilm, fan yoki san'atni rivojlantirish uchun tuzilgan, yuqori malakali olimlariga ega bo'lgan oliy ilmiy muassasa. *O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi.* 2. Ba'zi bir oliy o'quv yurtlarining nomi. *Soliq akademiyasi.*

Qaror - [to'xtam, hukm, xulosa; tub, asos] - biror ish, masala yuzasidan qabul qilingan xulosa; amalga oshirish lozim topilgan qat'iy fikr; ahd, to'xtam. *Qarorim qat'iy.* 2. Rasmiy organ, tashkilot, majlis, mansabdor shaxs va shu kabilarning biror ish, masala yuzasidan bamaslahat qabul qilgan to'xtami, hukmi. *Kafedra majlisi qarori.*

4-topshiriq. Ixtisoslik sohasi, ahamiyati to'g'risida ilmiy uslubdagi ma'lumotnoma matnini tayyorlang.

GRAMMATIKA

Referat matni, uning tuzilishi va ifoda materialining xususiyatlari

Referat – badiiy yoki ilmiy manba asosida tayyorlangan, ma'lum bir mavzu yuzasidan ma'lumot beruvchi qo'llanma ma'nosida kelsa, ikkinchisi – aniq bir ilmiy ish yoki kitob haqida qisqacha tushuncha beradi. Shu bilan birga u matnning aynan ko'chirmasi emas, balki o'rganilayotgan mavzuning mohiyatini ochib beruvchi mustaqil tadqiqot ishidir. Qoidaga ko'ra, referat ko'rilayotgan mavzu yuzasidan bir qancha nuqtai nazarlarni o'zida jamlaydi hamda muallifning shaxsiy fikrini ham aks ettiradi.

Referat qismlarining tuzilishi va uning ustida ishlash bosqichlari:

Odatiy tartibga ko'ra referat ustida ishlashning boshlang'ich qismini tanlangan mavzuning izohi ochib berishi lozim. Unda mavzuning dolzarbligi, ushbu mavzu yuzasidan hozirgacha fanga ma'lum bo'lgan va o'z tasdig'ini topgan faktlar, natijalar; olimlarning uni o'rganish ustida olib borgan ishlari; adabiy manbalardan keltirilgan misollar, foydalanilgan materiallar; o'rganilayotgan mavzuning amaliy yoki ilmiy tasdig'ini topgan masalalari o'z aksini topadi.

Referat quyidagi bo'limlardan tashkil topadi:

1. Titul varag'i – ma'lum tartibga ko'ra referatning nomi (mavzusi), loyihaning ilmiy rahbari, uning muallifi ismi sharifi hamda uni qaysi bir o'quv muasasasiga taalluqli ekanligini ko'rsatishi lozim.

2. Reja – o'z o'rnida, referatning bo'limlari (qismlari)ning nomlanishi va aniq raqamlar orqali belgilanishi asosida tuziladi.

3. Kirish qismi – o'rganilayotgan mavzuning muqaddimasi bo'lib, nimaga asosan aynan shu mavzu tanlangani, uning maqsad va vazifalari, foydalanilgan adabiyotlarning tahlilini to'liq qamrab oladi.

4. Asosiy qism – bu referatning eng muhim qismi hisoblanadi va o'zida mavzuning asl mohiyatini aks ettiradi. U bo'limlardan

iborat bo'lib, har birida alohida bir muammo yoki mavzuning aniq bir tomoni ko'rib chiqiladi hamda unga muvofiq nazariy mulohazalar, muallifning shaxsiy mushohadalari va tadqiqotlari keltiriladi.

5. Xulosa – bu qism referat uchun umumlashtiruvchi so'nggi so'z vazifasini bajaradi. Unda amalga oshirilgan ilmiy ishning natijasi keltirib chiqariladi va kelgusida tavsiyalar beriladi.

6. Adabiyotlar ro'yxati – foydalanilgan adabiyot va ilmiy ishlar (kitoblar, matnlar, jurnal va monografiyalar)ni qamrab oladi.

7. Referat hajmi - 14-15 bet (A4 format)dan iborat bo'lishi kerak.

5-topshiriq. Fan rivojiga salmoqli hissa qo'shgan olimlar haqida referat tayyorlang.

6-topshiriq. **"Maqollar zanjiri" metodi**

Maqoldagi nuqtalar o'rniga tushirib qoldirilgan so'zlarni qo'yib chiqing.

№	***Maqollar***		***Javob***
1	*Odobni ...dan o'rgan.*	*(6 ta)*	*odobsiz*
2	*Noz ...ga yarashar.*	*(3 ta)*	*qiz*
3	*Ro'zg'ori kattaning ... ham katta.*	*(7 ta)*	*tashvishi*
4	*Ayrilar do'st... narsangni so'raydi.*	*(5 ta)*	*ayovli*
5	*Ishning o'zini bilguncha ...ini bil.*	*(3 ta)*	*ko'z*
6	*Libosingga oro berguncha ...ga zeb ber (9 ta)*		*farosating*
7	*Rang ko'r,... so'r.*	*(3 ta)*	*xol*
8	*... mehmon osh ustidan chiqar.*	*(6 ta)*	*rizqli*
9	*Rejasiz daraxtzor - ....*	*(9 ta)*	*changalzor*
10	*Ruhi tetikning... tetik.*	*(3 ta)*	*ishi*

7- topshiriq. Ajratilgan so'zlardagi xatolikni izohlang va ularni to'g'rilab daftaringizga ko'chiring. Qo'shimchalarni o'rnida

qo‘llamaslik nutq to‘g‘riligiga qay darajada putur yetkazishi to‘g‘risida fikr yuriting.

San’atning katta yo‘li chiqish uchun iqtidor, izlanish va mehnatning o‘zigina kifoya qilmaydi. Kishini ilgariga **yetaklov** “ichki kuch” ham bo‘lishi zarur. Ustoz san’atkor Muhammadjon Mirzayev saboqlarini **tinglashganim**, bastakor Shavkat Mirzayev sinfiga tahsil olganim, bu ikkisining chin ustozlik mehri mendagi “ichki kuch”ni yillar davomida ulg‘aytira bordi. **Ovozning** sozlash, talaffuz ustida ishlash, g‘azal matnini qayta-qayta o‘qish mazmunini tushuntirishga, so‘z tugul har bir harfning aytilish qoidasi amal qilish... ularning bu talabchanligini o‘z samarasini berdi.

8-topshiriq. Quyidagi maqollarni o‘zbek tiliga tarjima qiling.

1. Лучше поздно, чем никогда. 2. Волков бояться - в лес не ходить. 3. Сперва подумай, а потом говори. 4. Курить - здоровью вредить. 5. Рыбак рыбака видит издалека. 6. Поспешишь - людей насмешишь. 7. Кто вчера солгал, тому и завтра не поверят. 8. Берегись козла спереди, лошади сзади, а лихого человека со всех сторон. 9. Любишь кататься - люби и саночки возить. 10. Не трудиться - хлеба не добиться. 11. Век живи, век учись. 12. Кончил дело - гуляй смело. 13. Не откладывай на завтра то, что можно сделать сегодня. 14. Семь раз отмерь, один раз отрежь.

9-topshiriq. Nuqtalar o‘rniga tegishli qo‘shimchalarni qo‘yib, gaplarni ko‘chiring.

1. Men bu badiiy kitoblar... do‘stim... oldim. 2. Dugonam... hovlisi oldi... vositachilik, xo‘jalik mollari va oziq-ovqat do‘koni bor. 3. Biz dushanba kuni avtobus... Toshkent... jo‘naymiz. 4. U o‘rtog‘i bilan kutubxona... chiqdi. 5. Siz hovlingiz... qanday mevali va manzarali daraxtlar ekkansiz? 6. Biz dars... so‘ng stadion... futbol ko‘rgani boramiz. 7. Siz bu matn... lug‘at yordami... tarjima

qildingizmi? 8. Siz qanday asarlar... yoqtirasiz? 9. Nafisa bo'sh vaqti... ota-onasi... yordam beradi. 10. Shahrimiz... dunyo... barcha mamlakatlari... ko'plab sayyohlar kelishadi. 11. Tomoshabinlar taniqli san'atkor... olqishladilar.

10-topshiriq. Matnni o'zbek tiliga tarjima qiling.

Авиценна

Авиценна родился в 980 году в селении Афшана близ Бухары. Его отец был образованным человеком. Он обладал широким кругозором, проявлял интерес к наукам и исскуству.

Начальное образование Ибн Сина получил в мусульманской школе, куда отдавали детей в возрасте пяти-шести лет. Но глубоких знаний эта школа не давала и поэтому, когда мальчику исполнилось 10 лет, отец забрал его из мактаба, и дальнейшее образование Ибн Сина продолжал у отдельных учителей. Последним учителем его был Натили, считавшийся знатоком философии. Он занимался с Авиценной логикой, философией, геометрией и другими науками. Вскоре, превзойдя своего учителя, Ибн Сина принялся за изучение медицины.

Отличаясь необычайной трудоспособностью, Ибн Сина изучил труды великих врачей древности. Затем занялся врачеванием и уже в 17 лет получил известность как врач и ученый.

Авиценна - автор медицинской эмблемы-змея, обвивающая кубок. На протяжении почти десяти веков служит она во всем мире символом исцеляющих сил.

Ему едва минуло 20 лет (1000г), когда он приступил к созданию "Канона врачебного науки". Ибн Сино поставил перед собой сложную задачу: собрать важнейшие достижения арабской и таджикско-персидской медицины, развившейся под влиянием трудов греческого врача Гиппократа (один из основоположников античной медицины, 5 в до н э) и опыта

медицины индо-тибетской и дать теоретическое обобщение на основании собственного опыта. Работу над пятитомным сводом "Канона врачебной науки" он завершил в сорок лет. Эта была подлинная медицинская энциклопедия своего времени, где рассматривается строение организма человека, указываются причины, вызывающие заболевания, их признаки и пути лечения.

11-topshiriq. Matnni rus tiliga tarjima qiling.

Xayriya jamg'armalari

Katta boyliklarga ega bo'lgan odamlarga pullarini har xil turdagi xayriya jamg'armalarga o'tkazish juda foydali. Hamma rivojlangan mamlakatlarda bu pullar soliqlarga tortilmaydi.

XX asrning birinchi yarmida Amerikaning po'lat qiroli bo'lmish Endryu Kornegi, Rokfeller, Bordolarning mashhur jamg'armalari jahonga tanilgan. Jamoatchilikdagi katta dasturlar ushbu jamg'armalar orqali mablag'ga ega bo'lganlar.

Bu jamg'armalardan katta mablag'lar ilm-fan rivojiga, san'at va adabiyot taraqqiyotiga, tabiat muhofazasiga yo'naltirilgan.

12-topshiriq. Matnni o'qing. "Baytul hikma" haqidagi qo'shimcha ma'lumotlar bilan matnni boyitib gapirib bering.

IX-XII asrlarda Movarounnahr va Xurosonda sodir bo'lgan siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar mamlakat madaniy hayotiga ham kuchli ta'sir etdi. Movarounnahr arablar tomonidan istilo qilingach, zabt etilgan o'zga mamlakatlar qatorida, bu o'lkada ham faqat Islom diniga emas, balki arab tili va uning imlosi ham joriy etildi. Chunki arab tili xalifalikning ham davlat tili, ham fan tili edi. Shu boisdan arab tilining o'rni va ahamiyati oshib, uni o'zlashtirishga bo'lgan intilish kuchaydi. Arab tili va yozuvini yaxshi o'zlashtitib olgan bilimdonlar paydo bo'ldi. Bag'dod shahri Sharqning yirik ilm va madaniyat markazi edi. IX asrda bu shaharda "Baytul hikma" tashkil etilgan edi. "Baytul hikma"da katta

kutubxona, Bag'dod va Damashqda astronomik kuzatishlar olib boriladigan rasadxonalar mavjud edi. Bu ilm dargohida jalb etilgan tolibi ilmlar tadqiqotlar bilan bir qatorda qadimgi yunon va hind olimlarining ilmiy merosini o'rganish va asarlarini arab tiliga tarjima qilish bilan shug'ullanardilar. Al-Xorazmiy, Ahmad al-Farg'oniy, Ahmad al-Marvaziy, al-Abbos Javhariy va Yahyo bin Abu Mansur kabi Movarounnahr va xurosonlik olimlar ijod qilib, o'rta asr ilmu faniga katta hissa qo'shadilar.

31-MAVZU. ILM SARI YO'L

Beshikdan to qabrgacha ilm izla.

Mashhur iqtisodchi

"Fanda keng, tep-tekis yo'l yo'q, uning o'nqir-cho'nqir so'qmoqlaridan yurishga chiday olgan odamgina nurli cho'qqilarga ko'tariladi...".

Olimlikka har kim ham da'vogar bo'lavermaydi, faqat fanning o'nqir-cho'nqir so'qmoqlaridan yurishga chiday olgan odamgina olimlikka davogar bo'la oladi. Murod Sharifho'jaev bu yo'llarni sabr-bardosh, charchash nimaligini bilmasdan, huzur-halovatdan kechib matonat bilan intilib, uning nurli cho'qqilariga erishdi. Mana u kishining fan yo'lidagi pog'onalarni zabt etish bosqichlari:

Iqtidorli talaba, imtiyozli diplom - 1949-1953-yillar;
Aspirant, iqtisod fanlari nomzodi – 1953-1956-yillar;
Doktorant, iqtisod fanlari doktori – 1972-1974-yillar;
O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan fan arbobi – 1981-yil;
O'zFAning muhbir a'zosi – 1984-yil;
Akademik – 1995-yil.

Ha, iste'dod. Izlanish. Chindan ham sabr-toqat. Eng so'ngida o'zi yaratgan yangilikdan zavqlanish, uning el manfaati uchun yarashi. Ana shunday xislat va bosqichlarga dosh bera olgan kishigina olimlik martabasiga erishadi. Shu sababli barcha zamonlarda olimlarga havas bilan qarashgan. U igna bilan quduq qaziyotgan, ilm ummoniga g'avvoslar singari sho'ng'igan, ammo o'z ishlaridan sira-sira qoniqish hosil qilmayotgan kamtarin, zahmatkash, fe'l-atvoriga fidoyilik singib ketgan bir ulug' inson!

1949-yilda o'rta maktabni oltin medal bilan bitirgan Murod akani o'rganishga bo'lgan katta qiziqishi Toshkent moliya iqtisod institutiga yetaklaydi. Bu shukuhli dargohda o'tgan besh yillik umr yosh talabaning umr yo'llarini belgilab berdi. U qiyin, mashaqqatli

hisoblangan iqtisod faniga mehr qo'ydi. Institutni imtiyozli diplom bilan bitirdi!

Umr-oqar daryo. Bu daryodan kimdir suzib, kimdir oqib va yana kimlardir cho'kib o'tadi. Qalblardagi yoshlik shiddati va shijoati, yorqin kelajakka bo'lgan ishonchi, beg'ubor orzu umidlarga va tabiiyki, insongagina bo'lgan muqaddas muhabbatga to'lgan talabalik oltin yillari ham bahor subhlaridek bir zumda o'tib ketdi.

Institut ilmiy kengashining qaroriga ko'ra imtiyozli diplom sohiblaridan bir guruhi, shu jumladan Murodhon aka ham aspiranturaga tavsiya etiladi.

Murodhon aka bosib o'tilishi lozim bo'lgan zahmatli yo'lning boshida turar ekan, hayolidan Bernard Shounning quyidagi qanotli so'zlari bot-bot o'tardi: "hayot men uchun erib tugaydigan sham emas, U mening qo'limga bir lahza berilgan va men uni kelajak avlodga tutqazishdan avval mumkin qadar yorug'lik, alanga oldirishga majbur etishim kerak bo'lgan ulkan mash'aldir".

Oldinda aspirantura, tinimsiz izlanish, ilmning mashaqqatli pillapoyalaridan bosqichma-bosqich ko'tarilish, uyqusiz tunlar-u, hordiq bilmas kunlardan iborat kelajak ufqqa qadar yastanib yotar edi. Bu yo'lning har bekati lozim bo'lganda o'z-o'zini fido etishni talab qilardi. Bamisoli o'zi yonib, boshqalarni yoritayotgan shamdek. Maqsad esa aniq: "Kenaf sanoati samaradorligini oshirishning ichki ishlab chiqarish rezervlari" mavzusida fan nomzodligi dissertatsiyasini yozish va himoya qilish. Mazkur ilmiy izlanish respublikamizda iqtisodiyot yo'nalishi bo'yicha boshlangan eng birinchi dissertatsiya bo'lganligi bois juda ko'p qiyinchiliklar, noaniqliklar va mavhumliklarga duch keldi, samaradorlikning haqiqiy holati bilan me'yoriy darajalarni qiyoslash, ko'rsatkichlarni hisoblashda yangi uslubiy yondashuvlarni ishlab chiqish zarur edi. Mazkur vazifa kenaf sanoati misolida amalga oshirildi va 1959-yilda dissertatsiya muvaffaqiyatli himoya qilinadi.

O'zbekistonda iqtisodiy taraqqiyotning ustivor yo'nalishlaridan biri bo'lgan qurilish sohasidagi muammolar Murodxon akaga

tinchlik bermas edi. Doktorlik dissertatsiyasining mavzusiga ana shu notinchlik, ya'ni "qurilish materiallarini ishlab chiqarish va qo'llanishning iqtisodiy muammolari" ilmiy ish mavzusiga asos qilib olindi. Ko'pgina to'siqlar va g'ovlar yengib o'tildi va 1974-yilda doktorlik dissertatsiyasi muvaffaqiyatli himoya qilindi.

Murod aka 1989-yilda O'zbekiston Fanlar akademiyasining muxbir a'zosi, 1995-yilda Fanlar akademiyasining akademigi etib saylandi. U o'zining fundamental ilmiy ishlari bilan iqtisodiyot fanini boyitgan, o'zining ilmiy maktabini yaratgan, ayniqsa, O'zbekistonning mustaqillikka erishganidan keyingi davrda bozor munosabatlariga o'tish bo'yicha qator konsepsiyalarni ishlab chiqishda salmoqli hissa qo'shib kelayotgan taniqli olimdir. U kishi tomonidan 600 dan ortiq ilmiy asarlar, monografiyalar, maqolalar, darsliklar va o'quv qo'llanmalar chop etilgan.

Akademik M. Sharifho'jayevning bevosita rahbarligi ostida "O'zbekistonning kichik va o'rta shaharlari hamda aholi punktlarida sanoatni rivojlantirish", "2000-yilgacha bo'lgan davrda qishloqlarda ishlab chiqarish va ijtimoiy infrastrukturasini rivojlantirish dasturi", "2005-yilgacha iqtisodchi kadrlarga bo'lgan ehtiyojni aniqlash" kabi konsepsiyalar yaratildiki, ular respublikamizni ishlab chiqarish, ilmiy-texnik va mehnat imkoniyatlarini yanada rivojlanishiga yordam berdi.

1-topshiriq:
a) matnni o'qing;
b) matnga reja tuzing;
d) matnni qisqartirib so'zlab bering.

2-topshiriq. Ilmiy ishlarning fan va soha rivojiga qo'shadigan hissasi haqida davra suhbati tashkil eting.

3-topshiriq. Matnni o'qing. O'z ilmiy faoliyati bilan sizning xotirangizda iz qoldirgan olim faoliyati haqida 150 so'zdan iborat matn tuzing.

ZAMONDOSHLARINING MUROD SHARIFHO'JAYEV HAQIDAGI FIKRLARI

Normurod Narzullayev, O'zbekiston xalq shoiri

Bag'rikenglik, saxovatpeshalik, xayrixohlik, ezgulik ulashish kabi insoniy tuyg'ular hammaga ham nasib etavermaydi. Bunday olijanob fazilatlar sohibi bo'lgan insonlarga Yaratgan Egam albatta martabasini tugal, nasibasini butun qilib beradi.

Mustaqil O'zbekiston ilm-fanining atoqli va ardoqli arbobi Murod Sharifho'jayev haqida o'ylaganimda xayolimni ana shunday shirin tuyg'ular qurshab oladi. Muhtaram ustozimizni "Allomai zamon, hazrati inson" deb ta'riflasak o'rinli bo'ladi.

Mashoyihlar aytishicha, yaxshi odamning dilida ne kechsa, u, albatta, yuz-ko'zida namoyon bo'lar emish, bu haq gap. Men Murodjon akani qancha yil bilsam, bu odamoxun inson bilan ochiq chehrada yuz ko'rishganmiz, u yoki bu masalada uchrashgan bo'lsam, hamisha qimmatli maslahatlarini olib, mehr buloqlaridan bahramand bo'lganman.

Buyuk Sohibqiron bobomiz Amir Temur o'z o'gitlarida "Men o'zimni olimu fuzalolarga yaqin tutdim" deb faxrlanib gapirganlarini kim bilmaydi, deysiz. Fan kashfiyoti, ilm ixtirosi bilan barhayotdir. Bu haqiqatni Murod Sharifho'jayevning ibratli hayot yo'li va katta ilmiy faoliyati bilan atroflicha tanishgan kishi tez ilg'ab oladi. Olimlik salohiyati, ilm-fandagi xizmatlari esa maxsus tadqiqot mavzui ekanligiga hech kim monelik bildirmaydi. Ammo bu o'rinda bitta haqiqatni bir qalamkash sifatida aytib o'tishni lozim ko'rardim.

Murodjon aka mustaqilligimizning dastlabki yillarida qo'llariga qalam olib, katta jasorat ko'rsatdilar, o'zbekistonlik olimlar orasida birinchilardan bo'lib "Iftixor" nomi bilan ilmiy tarixiy, falsafiy-publitsistik asar yaratib, alohida kitob holida e'lon qildirdilar. Hajman mo'jaz, ammo mazmun-mundarijasi jihatidan tarixiy ahamiyatga molik bu risola keng jamoatchilik tomonidan samimiy kutib olinganligining guvohi bo'lganman.

Jonkuyar va mohir rahbar, oilaparvar, kamtarin, sodiq do'st, mehribon va talabchan murabbiy Murod Sharofho'jayevning bosib o'tgan mashaqqatli va sharafli umr yo'li, hayot maktabi yoshlar uchun ibrat va namuna dorilfununidir.

Biz, ijodkorlar Murodjon akaning mumtoz adabiyotimiz va san'atimizning bilimdoni, hozirgi she'riyatimiz va musiqamizning haqiqiy muhlisi ekanliklari uchun ham yuksak qadrlaymiz, hurmatlarini joyiga qo'yamiz. Domlamizning milliy estradamizning hozirgi ahvoli va istiqboli haqida matbuotdagi mardona chiqishlari san'atkorlar, ayniqsa, yosh ijrochilar qalbida aks-sado berganligidan yahshi xabardormiz. O'z millatini, aziz xalqini yurakdan sevgan, madaniyati va san'ati ravnaqini o'ylagan qalbi dunyo, oqil, fozil insongina ana shunday kayfiyat, yuksak tuyg'ular bilan yashaydi. Katta qalb egasi, iqtisodchi-moliyachi mutaxassislarning donnish-mand ustozi, hayotda o'z o'rniga, ilm-fanda o'z mavqei, salo-hiyatiga ega ulug' zot.

GRAMMATIKA

Taqriz matni, uning tuzilishi va ifoda materialining xu-susiyatlari

Taqriz - saylanma bayonning bir turi. U badiiy, ilmiy, metodik va boshqa asarlarga berilgan bahodir. Taqrizda asar tanqidiy tahlil etiladi, shu nuqtai nazardan baholanadi. Asarning yutuqlari ham, nuqsonlari ham ko'rsatiladi. Taqrizchi o'zining da'volarini turli dalillar asosida isbotlay boradi, asarga ilmiy izohlar beradi.

Taqriz yozish odobi xolislikni, haqiqatdan chetlashmaslikni talab etadi. Taqriz qilinayotgan asarning yutuq va kamchiliklari, nazariy va amaliy ahamiyati haqqoniy ko'rsatilishi lozim. Asarga baho berishda muallifning shaxsiyati, obro'si emas, balki uning (asarning) xususiyatlari, ahamiyati ko'zda tutiladi.

Taqriz yozishda quyidagi sxemaga amal qilinadi:

1. Tezis (umumiy holati) va uni ochib berish.
2. Kitob (film, teatr)ning baholanishi.

Taqrizning boshlang'ich qismida quyidagi konstruksiyalardan foydalaniladi:

Kitob (film, teatr)da hikoya qilinadi.

Kitob (film, teatr)da muammolar ko'tariladi.

Taqrizni baholash qismida quyidagi gap qurilishlaridan foydalaniladi:

Men ... hisoblayman – Я считаю...

Mening fikrimcha... – По моему...

Mening nazarimda... – На мой взгляд...

... menga yoqdi. – Мне понравился (-лась)...

... menda katta taassurot uyg'otdi. - Большое впечатление на меня оказала...

Kitob (film, teatr) ...o'rgatadi. - Книга (фильм, театр) учит...

4-topshiriq. Taqriz namunasini o'qib o'rganing, olgan ma'lumotlaringiz asosida oxirgi o'qigan kitobingizga taqriz yozing.

O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi "Iqtisodiy fanlar" kafedrasi dotsenti Sh.R.Qobilov va boshqalar tomonidan Akademiya kunduzgi ta'lim tinglovchilari uchun tayyorlangan "Iqtisodiyot nazariyasi" o'quv dasturi hamda ushbu dastur asosida tayyorlangan ishchi o'quv dasturiga

TAQRIZ

O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti Islom Karimovning "Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch" asarida "Taraqqiyotimizning har bir yo'nalishi bo'yicha maxsus adabiyotlar yaratish to'g'risida fikr yuritib, ko'pchilik darsliklar, o'quv qo'llanmalari saviyasi talab darajasida emasligini" qayd etgan edi. Yaratilgan darsliklar, qo'llanmalarning barchasi yangicha qadriyatlar va demokratik tamoyillar hamda biz barpo etishga intilayotgan erkin fuqarolik jamiyati talablariga javob beradigan munosabatlar sifatida ijtimoiy gumanitar fanlarning asosiy tadqiqot mavzulariga aylanishi lozim.

Mualliflar tomonidan tuzilgan o'quv dasturi yuqoridagi talablarni inobatga olib, taraqqiyotning umumiy asoslari, bozor iqtisodiyoti

mohiyati va uning qonun-qoidalari, mikroiqtisodiyot va makroiqtisodiyot hamda bugungi jahon xo'jaligi va unda O'zbekistonning o'rni kabi masalalarni o'rganish ehtiyojidan kelib chiqqan.

O'quv dasturi hamda u asosida tuzilgan ishchi o'quv dasturi kirish, o'n to'rtta mavzuni o'z ichiga olgan to'rt bo'limdan iborat. Mualliflar tinglovchilarning iqtisodiy taraqqiyotning mazmuni, umumiy asoslari, jamiyatda ro'y berayotgan demokratik islohotlar va modernizatsiya jarayonlari mohiyatini tushunib yetishi, iqtisodiyotning sir-asrorlarini idrok etishi hamda O'zbekiston va jahon mamlakatlari iqtisodiy taraqqiyotining o'ziga xos jihatlari, mohiyati, rivojlanish bosqichlari haqidagi bilimlarni shakllantirish maqsadini ko'zlagan.

Shuningdek, o'quv dasturi "Iqtisodiyot nazariyasi" fanini o'rganishda nazariya bilan amaliyotning uzviy bog'lanishi, O'zbekiston iqtisodiyotida yuz berayotgan hodisalar talqin etilishi va izohlanishi talablari ham inobatga olingan. Iqtisodiy bilimlarni berishda va tinglovchilarning mustaqil ravishda o'zlashtirishlarida umumiylik va milliylikning uyg'unligini ta'minlash nazariyasi real iqtisodiy hayot bilan uzviy bog'lash nazarda tutilgan.

Mualliflar har bir mavzuni o'rganishda tinglovchilarning mustaqil ishlashlarini e'tiborga olib, yangi avlod adabiyotlari ham keltirganlar. Bu tinglovchilarning adabiyotlar bilan mustaqil ishlashlarida qulaylik yaratadi. O'quv dasturi tinglovchilarni amaldagi qonunlarni o'rganishga ham undaydi.

Mualliflar fan bo'yicha o'quv dasturi va ishchi o'quv dasturini iqtisodiyot nazariyasidagi ilg'or tafakkur asosida tuzganlar. Ayniqsa bozor iqtisodiyotiga o'tish davri, mamlakatimizda demokratik 1991-yildan 2000-yilgacha bo'lgan muddatni o'z ichiga oladigan birinchi bosqich, iqtisodiyotni barqaror rivojlantirish, qonunchilik, sud-huquq tizimi va ijtimoiy-gumanitar sohalarni izchil isloh qilish, aholi turmush darajasining muntazam oshib borishini ta'minlash, 2001-yildan 2010-yilgacha bo'lgan muddatni o'z ichiga olgan ikkinchi bosqich-mamlakatimizni faol demokratik yangilash, isloh

etish va modernizatsiya qilish bosqichlari o'z aksini topgan. Ishchi o'quv dasturida esa mamlakatimizning hozirgi rivojlanish bosqichi O'zbekiston taraqqiyotining yangi rivojlanish strategiyasi, deb qarash, uning ahamiyatini ochib berish masalalari o'rin olgan.

Yuqoridagilarni inobaga olib, O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi "Iqtisodiy fanlar" kafedrasi dotsenti, polkovnik Sh.R.Qobilov va boshqalar tomonidan tayyorlangan "Iqtisodiyot nazariyasi" fanini o'rganish bo'yicha o'quv dasturini chop etishga tavsiya etaman.

Toshkent moliya instituti
"Iqtisodiyot nazariyasi" kafedrasi mudiri,
iqtisod fanlari doktori, professor T.Jo'rayev

5-topshiriq. "Soha rivojida fanning o'rni" mavzusida matn tuzing.

6-topshiriq. Ilmiy ishlarning turlari haqida qisqacha tavsiflar yozing.

7-topshiriq. Tushunchalar tahlili metodidan foydalanib matndagi ajratib ko'rsatilgan so'z birikmalariga izoh bering.

Mikroiqtisodiyot

Mikroiqtisodiyot iqtisodiyotning birlamchi, boshlang'ich bo'g'ini muammolarini o'rganish haqidagi fandir. Ma'lumki, kishilarning talab va ehtiyojlari amaliy jihatdan cheksizdir, lekin, ***tovar ishlab chiqarish*** va ***xizmatlarni tashkil etish*** uchun kerak bo'ladigan zaxiralar cheklangan.

Asosiy iqtisodiy muammo ham mana shu ***cheksiz ehtiyojlar*** bilan ***cheklangan zaxiralar*** o'rtasidagi tafovutdadir. Mikroiqtisodiy tahlil ***konkret iqtisodiy birliklar*** bilan ish ko'radi. Mikroiqtisodiyot iqtisodiy birlikni yoki iqtisodiyotning ma'lum bir bo'lagini alohida "mikroskop"da qarab, ularning oqilona ishlashini va optimal qaror qabul qilish qonuniyatlarini o'rganadi. Misol uchun, u firmada ishlovchilarning optimal soni, konkret firmaning ***mahsulot ishlab***

chiqarish hajmi, daromadi va xarajatlari, to'yinganlik darajasi, ***zaxiralarini optimal ishlatish texnologiyalari*** va boshqa shunga o'xshash masalalarni ko'rib chiqadi va o'z tavsiyalarini beradi.

Mikroiqtisodiyot nazariyasi O'zbekistonda bozor iqtisodiyotiga o'tish davrida ***kichik va o'rta biznes*** bilan shug'ullanuvchilarga, davlat tasarrufidan chiqqan korxonalarga, fermerlik xo'jaliklariga, tadbirkorlarga yo'naltiruvchi vazifani bajaradi va ***raqobat muhiti***ning yaratilishiga ko'mak beradi. Iqtisodiyotimizning bu muhim masalalari faqat mustaqillik davrida jiddiy ravishda va chuqur o'rganila boshladi, bozor iqtisodiyotiga yangi yo'llar ochib bera boshladi.

Tushunchalar tahlili metodi

Tushunchalar	**Tushunchalar tahlili**
tovar ishlab chiqarish	
xizmatlarni tashkil etish	
cheksiz ehtiyojlar	
cheklangan zaxiralar	
konkret iqtisodiy birliklar	
mahsulot ishlab chiqarish hajmi	
zaxiralarini optimal ishlatish texnologiyalari	
kichik va o'rta biznes	
raqobat muhiti	

8-topshiriq. Matnni tarjima qiling.

Финансовый рынок

Исторический финансовый рынок возник с появлением денег и организованных финансовых отношений на нём. В настоящее время он характеризуется тем, что на нем строятся и реализуются рыночные финансовые отношения. Эти отношения основываются на различные финансовые инструменты (валюты, ценные бумаги, кредиты и т.п. капиталы-инвестиционные товары). В сущности эти инструменты составляют финансовые ресурсы, обращение которых на финансовом рынке подчинено интересам субъектов рыночно-экономических отношений. Финансовый рынок может эффективно функционировать, если в стране имеются ДОСтаточные сбережения и инвестиционные товары (финансовые инструменты). С макроэкономических позиций сбережения представляют собой разницу между полученными доходами и расходами на потребительские нужды.

На фондовом рынке движение финансовых средств идет от сберегателей к пользователям и обратно.

9-topshiriq. "Mirzo Ulug'bek – olim va davlat arbobi" mavzusida referat tayyorlang.

10-topshiriq. Quyidagi hadislarni o'qing va ma'nosini tushuntiring.

· Ilm istamoq har musulmonga farz;

· Bir soat ilm o'rganmoq, bir tun uyg'onib ibodat qilmoqdan hayrliroqdir;

· Bir kun ilm o'rganmoq uch oy ro'za tutgandan hayrliroqdir.

· Olimlar xalq orasidagi Allohning omonatini xalqqa yetkazuvchi kishilardir;

·Ilm o‘rganish ibodat qilishdan afzal, taqvo esa dinning negizidir;

·“Ilmga amal qiluvchilardan bo‘lingiz, uni tilda so‘zlovchilardan bo‘lmaingiz;

·Qaysi bir odam tib ilmini bilmay tirub tabiblik qilsa, u kishi jabrlanuvchiga zomindir.

11-topshiriq. Quyidagi maqollarni o‘zbek tiliga tarjima qiling.

1. Дерево сначала пускает корни, а потом растёт вверх. 2. Одна пчела не много мёду натаскает. 3. Победа находится впереди, а трус прячется позади. 4. Кто много говорит, тот мало делает. 5. Кто учится прилежно, тот и работает хорошо. 6. Материнский гнев - что весенний снег: и много выпадает, да скоро тает. 7. Не той собаки бойся, которая громко лает, а той, которая тихонько кусает. 8. Готовь сани летом, а телегу - зимой. 9. Кто обманул вчера, тому и сегодня не поверят. 10. Тише едешь - дальше будешь. 11. Меньше будешь говорить - больше услышишь.

12-topshiriq. Matnnning asosiy mazmunini rus tiliga tarjima qiling.

IYMON – E’TIQODLI, YUKSAK MA’NAVIYATLI INSON

Murod Sharifho‘jaev oddiy dehqon oilasida tug‘ilib, oddiy dehqon farzandidan jahonning nufuzli idoralari tomonidan XX asrning eng ko‘zga ko‘ringan 500 nafar olimlari qatoriga kiritildi, 1998-yilning eng salohiyatli kishisi deb tan olindi va AQSH biografiya institutining solnomasida 1998-yil kishisi deb qayd qilindi:

Oddiy dehqon oilasining farzandi – 1932-yil
Toshkent shahar kengashining deputati – 1987-yil
O‘zbekiston Oliy Majlis deputati – 1999-yil
AQSH biografiya institutining 1998-yil kishisi – 1999-yil

Murod Sharifho'jayevich odamlar orasida bo'lib, o'zining iymoni-e'tiqodi, yuksak ma'naviyati bilan komillik sari intildi.

Qur'oni karim va Hadisi shariflarda quyidagi uch narsaning butunligidan iymon hosil bo'ladi deyilgan: e'tiqod, iqror va amal.

E'tiqod - bu o'z fikr va qarashlariga mahkam, sobit qadamlik bilan ishonish va o'zgalarni ham o'zidek hisoblab, ularning lafziga samimiyat bilan ishonishdir. E'tiqodli odam eng avvalo yolg'on gapirmaydi. Yolg'on so'zlamagan odam o'zgalarni ham rostgo'y deb biladi. Lafzida turmaydigan kimsani beburd hisoblab, undaylardan uzoq bo'lishga intiladi.

Har bir sog'lom fikrli odam, insoniyatning umrboqiyligini idrok etadi va o'zidan oilasiga, farzandlariga, insoniyatga nimanidir qoldirib ketishni istaydi. Shundan kelib chiqib, umrining maqsadi va mazmunini belgilaydi. Xuddi shu narsa uning e'tiqodini ifodalaydi. E'tiqod vijdon va insof bilan hamohangdir.

Vijdonli kishi nohaq, adolatsiz ishlardan g'azabga keladi, bularga qarshilik bildiradi, o'z faoliyatining yahshi tomonlaridan qanoatlanib, xursand bo'lsa, yomon tomonlaridan norozi bo'lib, ruhan eziladi, ya'ni vijdon azobiga tushadi. Vijdon ko'p yoki o'z bilimlilikka, boy yoki kambag'al bo'lishlikka, oddiy yoki mashhurlikka bog'liq emas.

Insof - bu adolat va vijdon amri bilan ish tutish tuyg'usi va qobiliyati, ishda, kishilarga munosabatda halollik, to'g'rilik, tenglik, sofdillik va haqiqatgo'ylikdir. O'zgani o'z o'rniga, shuningdek, o'z o'rniga o'zgani xayolan quyib ko'rish ham insofga kiradi. To'q ochni, boy kambag'alni, baxtli baxtsizni, omadli omadsizni, sog'lom bemorni o'z o'rniga qo'yib ko'rolsa va aksincha, ham, huddi shunday bo'lsa, olam guliston - insoflilar safi kengayib boradi.

Agar kishi biror ishni to'g'ri bajarsa, unda ichki QONIQISH paydo bo'ladi, vijdoni pok bo'ladi, atayin noto'g'ri bajarsa, insofdan chiqqan bo'ladi. Xullas, insof kishining oldida o'z xatti-harakati bilan ma'naviy mas'uliyatini his etishining ifodasidir.

13-topshiriq. Matnnning asosiy mazmunini o'zbek tiliga tarjima qiling. Guruhlarga bo'linib "Ilm sari yo'l" mavzusida davra suhbati tashkil qiling.

ИЗВЕСТНЫЕ ЭКОНОМИСТЫ МИРА

Адам Смит (1723-1790). Он сумел стать настоящим Адамом для экономики. Именно Смита считают первым экономистом и основателем всей этой науки. Фундаментом для нее стала его книга «Исследование о природе и причинах богатства народов». В этом труде Смит предложил концепцию экономического человека, которым движет эгоизм и стремление к обогащению. Именно работа Смита и лежит в основе капитализма. Смит выявил знаменитую невидимую «руку рынка». Ею он объяснил странное явление. Оказывается, действуя исключительно в собственных корыстных целях, каждый из нас не только приумножает свой капитал, но и делает богаче общество в целом. Далеко не всем нравится идея о том, что большинством из нас движут не высокие мотивы, а банальная жажда наживы. Такая теория нанесла удар по самолюбию человека.

Дэвид Рикардо (1772-1823). Подобно многим другим экономистам Рикардо по национальности был евреем. Он происходил из семьи сефардов, которые поселились в Англии после изгнания из Испании. Родители Дэвида были весьма богатыми, но когда он наперекор им женился на не еврейке, Рикардо был лишен наследства. Вот и пришлось ему самому зарабатывать себе на жизнь, что неплохо получалось. Молодой экономист сумел сделать неплохую карьеру в банке, а затем сумел попасть в парламент. Однако такие достижения не смогли удовлетворить его запросам. В итоге Рикардо придумал концепцию международной торговли. До него считалось, что для страны будет благом максимальный экспорт и минимальный импорт. Благодаря такому устаревшему подходу

международная торговля развивалась крайне медленно. Рикардо же смог доказать, что благом будем специализация страны на каком-то определенном товаре, от такого подхода смогут выиграть все. Экономист пришел к выводу, что благосостояния будет расти, даже если произойдет концентрация на каком-то одном производстве и импорте всего остального. Пускай даже страна может остальные товары выпускать с большей эффективностью, нежели ее торговые партнеры. Из такой теории понятно, почему банкиру не следует делать ремонт у себя в квартире, пусть даже он может сделать это лучше наемного рабочего. Дело в том, что потраченное им время этот высококлассный специалист сможет употребить с большей пользой, работая по своей специальности.

Джон Мейнард Кейнс (1883-1946) в экономике Кейнс оказался настоящим профессионалом. Он сам играл на бирже. Делал это Кейнс довольно успешно, неплохо заработав на своем увлечении. До Кейнса экономика представляла собой классическую науку, созданную Адамом Смитом. А вот Джон сумел создать новую экономику, свою. Во времена Великой депрессии оказалось, что «невидимая рука» Смита не всегда может справляться с экономическими проблемами, именно поэтому порой требуется решительное вмешательство государства. В тяжелые кризисные времена страна просто обязана увеличивать траты, тем самым будет поддерживаться уровень занятости населения. Благодаря Кейнсу был также создан послевоенный валютный режим. Сперва его привязали к золотому стандарту, а теперь уже к американскому доллару, обеспеченным лишь авторитетом страны.

Мильтон Фридман (1912-2006). Этот ученый знаменит своим изобретением монетаризма. Фридман считал, что государству не стоит вообще как-то регулировать экономику или вмешиваться в нее. По мнению ученого свободные рынки смогут отрегулировать себя сами, как и любой здоровый организм. А для того, чтобы не возникала инфляция и не

рождались экономические кризисы, по его мнению надо заниматься контролем денежной массы. Фридман полагал, что денег в экономике не должно быть не слишком много, не слишком мало. Ведь уместна аналогия с человеческим организмом, который надо кормить здоровой и полноценной пищей. Вредно будет и объедание, и чрезмерное голодание.

32-MAVZU. KASB ETIKASI

Biz yoshlarga doir davlat siyosatini hech og'ishmasdan, qat'iyat bilan davom ettiramiz. Nafaqat davom ettiramiz, balki bu siyosatni eng ustuvor vazifamiz sifatida bugun zamon talab qilayotgan yuksak darajaga ko'taramiz.

Shavkat Mirziyoyev

Kasb etikasi deganda biz nimani tushunamiz? Kasb etikasi nima uchun kerak va u qanday maqsadlarda o'rganiladi? Etika bo'yicha izohli lugatda ushbu tushuncha ma'nosi quyidagicha: "Kasb etikasi yoki kasbiy axloq - bu odamlarning kasb faoliyatidan kelib chiqadigan o'zaro munosabatlarining axloqiy xarakterini ta'minlaydigan qonuniyatlardir". Bunday qonuniyatlarning kelib chiqishi va rivojlanishi inson axloqi yo'nalishlaridan birini aks ettiradi, chunki ular shaxs qadrini va shaxslararo munosabatlarda odamiylikning yuzaga kelishiga yordam beradi. Axloqiy talablar umumiy bo'lishiga qaramay, ba'zi bir kasbiy faoliyatlarni olib borishda alohida xulq-atvor normalari vujudga kelmoqda. Masalan, tibbiyot xodimi o'z amaliyotidagi qiyinchiliklarga qaramasdan, insonning jismoniy va ma'naviy sog'lig'i uchun kurashishi va kerak bo'lsa, bunda o'zini ham ayamasligi lozim. Tibbiyot etikasi doirasiga kasallikni oshkora qilmaslik, hayot uchun muhim bo'lgan organlarni transplatatsiya qilish sharoitlarini ta'minlash, genetik nazorat tajribalarini o'tkazish kabi masalalar kiradi. Huquq vakillaridan kasb etikasida sodiqlik, hammaning qonun oldida teng ekanligi tamoyilligiga rioya qilishni talab qilinadi. Xizmat ko'rsatish sohasida esa, avvalambor, muomala madaniyati, mijozlarning ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan diqqat-e'tiborga bog'liqdir. Hammamiz mijoz sifatida kichik do'kon yoki supermarket, qimmatbaho restoran yoki kichik kafe, kinoteatr yoki sartaroshxonalarga kirib turamiz va xizmat qiluvchi shaxslarning qanday munosabatda bo'lishlarini, nozik bir tarzda sezib turamiz. Bir joyda

savdo xodimi kulib turib muomala qilsa, boshqa joyda uning qo'pollik bilan javob berishining guvohi bo'lamiz.

1-topshiriq:

a) matnni o'qing;

b) matnga savollar tuzing;

d) soha xodimlarining odob-axloq qoidalari bilan tanishing va ular haqida gapirib bering.

2-topshiriq. Odob-axloq haqidagi hikmatlarni yod oling. Mavzu bo'yicha bahs-munozarada ishtirok eting.

3-topshiriq. Matnni o'qing. Matndagi tayanch so'zlarni ajratib yozing.

G'arb tadbirkorlarining muvaffaqiyatlari quyidagi formulaga asoslangan: Vijdon haqida gapirganda, har bir xizmat ko'rsatuvchi soha xodimi quyidagi axloqiy qadriyatlarga ega bo'lishi lozim:

-nazokat,

-vazminlik;

-xushmuomalalik,

-xushfe'llik;

-iltifot;

-g'amxo'rlik;

-rostgo'ylik, to'g'rilik va h.k.

To'g'rilik - odamlar bilan odob-axloq asosiga qurilgan munosabatni, xushfe'llikni, har qanday vaziyatda o'zini tuta bilishni anglatadi. Xushmuomalalik xulq-atvorning kundalik xususiyati bo'lib, odamlarni hurmat qilishni anglatuvchi axloqiy qadriyatdir. Xushmuomalalik - bu xulq madaniyatining elementar talabi, odamlar bilan mehr-oqibat asosida qurilgan muloqotning sharti, har qanday kishiga, agar u yordamga muhtoj bo'lsa, yordam qo'lini cho'zish, nazokat doirasida ko'zga tashlanadigan xislatlardir. Xushmuomalalik mehmonxona xodimlarining madaniyatliligi haqida dalolat beradigan eng muhim xislatlardan biridir. Kamtarlik

yutuqlarini pesh qilmaslik, manmanlikdan xoli bo'lish, vazminlikni bildiradigan sifatdir. Shu bilan birga, o'ta kamtarlik ham manmanlikka kiradi. Iste'dodli odam o'z iste'dodini yashirsa ham, iste'dodi ko'rinib turadi. Kamtarlik tortinchoqlik degani emas. Tortinchoq odam o'zini yetarli darajada baholay olmaydi. Bunday odamlarni tez-tez maqtab turish, ularga dadillik beradi, o'ziga bo'lgan ishonchini oshiradi. Bu va boshqa axloqiy sifatlar odamlar bilan bo'lgan munosabatlaringizning axloqiy xarakterini shakllantirishi va ish joyingizdagi xatti-harakatlaringizni aniqlab berishi lozim, kasbiy etikaning asosiy maqsadi shundan iborat.

4-topshiriq. "Mutaxassisning odobi va axloqi" mavzusida dialog tuzing va uni inssenirovka qiling.

5-topshiriq. Matnni o'qing. Matnga sarlavha toping. Bugungi yoshlarning kiyinish madaniyati va odobi haqida rolli nutq tuzing.

Madaniyatlilikning asosiy belgilaridan biri - bu kiyinish madaniyatidir. Kishining qanday kiyinganligiga qarab, uning did-farosati, moddiy va ma'naviy darajasini, hatto kasbini aniqlab olish mumkin.

Insoniyat ongida boshqalardan istihola qilish, uyalish, andisha tushunchalari paydo bo'lgandan boshlab, ular kiyinishni odat qilishgan.

Kiyinishni ilk bor zaif jins – ayollar boshlaganlar. Shuning uchun ham xotin-qizlar tabiatida kiyinish, bezanish, taqinish tushunchalari turmushning asosiy ko'rinishlari qatorida turadi. Shu sabab xalqimizda, onangni otangga bepardoz ko'rsatma, degan naql bor. Kiyinish madaniyati jins, yosh, fasl, millat, urf-odatlar, kasb-kor, zamon va taraqqiyotning muayyan bosqichi, darajasi bilan bog'liqdir. Bolalar, qizlar, yoshlar, o'rta yoshlilar, keksa odamlarning kiyinish madaniyati mazmuni va shakl-u shamoyili jihatidan bir-biridan ajralib turadi.

Kiyinish har bir xalqning qadim zamonlardan buyon yashab kelayotgan mintaqasi, shart-sharoiti, turmush tarzi, udum, urf-

odatlari, tabiati bilan ham chambarchas bog'liq bo'lgan. Masalan, serquyosh o'lkalarda yashovchi xalqlarda qadim zamonlardan beri oq matodan kiyim kiyishni odat qilishgan. Chunki oq mato quyosh nurlarini bir qadar qaytarib, kishilarni issiq ta'siridan saqlagan.

Aksincha, iqlimi sovuq o'lka va yurtlar xalqlari esa odatda qora matodan kiyim kiyishga odatlanishgan. Chunki bu kiyim sal bo'lsada, chiroy ko'rsatgan quyosh nurlarini o'ziga singdirib, kiyim egasiga rohat baxsh etgan.

6-topshiriq. Matnni o'qing. Matnning asosiy mazmunini 6-7 ta gap bilan (o'zbek tilida) publitsistik uslubda bayon eting.

Смешанная экономика и ее модели

Смешанная экономика — это современная рыночная экономика, существующая в реальности в разнообразных формах и характеризующаяся сочетанием рыночных элементов и участием государства в регулировании экономики.

Современная рыночная система — это многообразие смешанных форм. Сравним, к примеру, американскую и японскую модели смешанной экономики. Признаками японской модели являются, во-первых, высокий уровень государственного регулирования, во-вторых, японцы придают первостепенное значение стимулированию труда. За счет определенного отставания уровня жизни населения (в том числе и уровня зарплаты) от роста производительности труда достигается снижение производственных издержек и резкое повышение конкурентоспособности продукции на мировом рынке. Такая модель возможна только при исключительно высоком развитии национального самосознания, готовности людей идти на определенные материальные жертвы ради процветания страны.

В отличие от японской, американская модель смешанной экономики имеет меньший уровень государственного регулирования: по праву считая себя страной свободного предпринимательства, американцы больше полагаются на развитие инициативы и предприимчивости самих бизнесменов, пре-

доставляя им максимум гарантий экономической свободы. Эта модель основана на высоком уровне эффективности труда и массовой ориентации на достижение личного успеха.

Своеобразием отличается шведская модель. Ее специфика - в наибольшей социальной направленности. В отличие от японской и американской моделей, где препятствий имущественному расслоению не ставится (в США, например, малообеспеченным слоям создается лишь приемлемый уровень жизни, за счёт частичных льгот и пособий), шведская модель отличается сильной социальной политикой, т.к. государство активно участвует в обеспечении экономической стабильности путем перераспределения доходов в пользу малообеспеченных слоев населения. Конечно, обеспечение высокого уровня жизни в стране возможно только в условиях высокой нормы налогообложения.

GRAMMATIKA

Annotatsiya

Annotatsiya – badiiy, ilmiy, metodik asarlarning muallifi, mavzusi, manbasi, unda ko‘tarilgan asosiy masalani ko‘rsatishga qaratilgan qisqa xabardir. Annotatsiya o‘zining kamso‘zligi, hajm jihatidan nihoyatda kichikligi bilan bayonning boshqa turlaridan ajralib turadi. Batafsil yozilgan annotatsiya quyidagi savollarga javob bera olishi lozim.

Ishda nima haqda so‘z boradi?
Muallif qanday savollarni o‘rtaga qo‘yadi?
Bu savollar qanday yoritib berilgan?
Ishning tuzilishi qanday?
Ishni qanday baholash mumkin?
Yozilgan ish kimlarga mo‘ljallangan?

7-topshiriq. Darslik yoki o‘quv qo‘llanmaga annotatsiya yozing.


8-topshiriq. Odob-axloq mavzusidagi kitobga annotatsiya yozing.

9-topshiriq. Matnini o'qib, so'zlab bering.

Muomala madaniyati odamlar bilan muomala qilish san'ati ham har bir kishidan katta mahoratni talab qiladi. Har qanday lavozimga nomzod deb qaralayotgan odamdan bunday fazilat bo'lishi va bu fazilat har qanday sharoitda namoyon bo'ishi maqsadga muvofiqdir. Siz mehmonxonada, restoranda, kutubxonada yoki laboratoriyada ishlashingizdan qat'iy nazar, eng muhimi-o'z fikringizni aniq va ravshan ifoda eta olishingizdir. Bu esa sizning muvaffaqiyatingizga zamin yaratadi.

Har bir odam o'z fikrini og'zaki yoki yozma ravishda ifodalay bilishi lozim. Sizning o'z individualligingizni saqlab qolishga intilishingiz va o'zingiz tanlab olgan hamkorlaringiz bilan ishlashni xohlashingiz-sizning "jamoaning yaxshi o'yinchisiga" aylanishingizga olib keladi. Nomzodning bo'lajak lavozimga ishga o'tish maqsadida suhbatda ishtirok etishining samaradorligi uning kommunikativligi va shaxslararo muomala qilish qobiliyatlarining rivojlanganligiga bog'liqdir. Masalan, agar suhbat mobaynida ish beruvchining ko'zlariga qarashga tortinsangiz, u sizni o'ziga ishonmaydigan odam deb o'ylaydi. Muloqotlarda passiv emas, balki faol qatnashuvchi bo'lishga intiling va savol-javob qilishni o'rganing. Shu sabab bilan siz ritorika imo-ishoralar va mimikalar yordamida suhbatlashishni o'rganing, suhbat usullari davomida o'zingizni tutib turishni, xulqingiz yaxshi bo'lishini ta'minlang, shunda siz qay ishda bo'lmang, qay lavozimni egallamang, sizga doim muvaffaqiyatlar hamroh bo'ladi.

10-topshiriq. Annotatsiya yozishda ishlatiladigan konstruksiyalarni daftaringizga yozing va uchta misol topib, qatorni to'ldiring.



11-topshiriq. Matnni o‘qing. Matndan foydalanib **Tushunchalar tahlili metodi** asosida majburiy sug‘urta va ixtiyoriy sug‘urta turlariga ta’tif bering.

Формы страхования

Обязательным называется такое страхование, когда государство устанавливает обязательность внесения соответствующим кругом страхователей страховых платежей.

Закон предусматривает обязательное государственное страхование, которое осуществляется страховыми организациями за счет средств государственного бюджета, и обязательное страхование, которое должно осуществляться за счет иных источников.

Примеры обязательного страхования:

- обязательное медицинское страхование;
- страхование военнослужащих;
- страхование пассажиров;
- страхование автогражданской ответственности;

• страхование профессиональной ответственности для некоторых специалистов (например, нотариусов).

Обязательное страхование устанавливается законом, согласно которому страховщик обязан застраховать соответствующие объекты, а страхователи –вносить причитающиеся страховые платежи.

Обязательное страхование предусматривает, как правило, сплошной охват указанных в законе объектов. Например, если предусмотрено обязательное страхование пассажиров соответствующих видов транспорта, то обязаны застраховаться абсолютно все, кто собирается совершить поездку.

Добровольное страхование действует в силу закона на добровольных началах. Закон может определять подлежащие добровольному страхованию объекты и наиболее общие условия страхования. Конкретные условия регулируются правилами страхования, которые разрабатываются страховщиком.

Добровольное участие в страховании в полной мере характерно только для страхователей. Например, при заключении договоров личного страхования страховщик не имеет права отказаться от страхования объекта, если волеизъявление страхователя не противоречит условиям страхования. Это гарантирует заключение договора страхования по первому требованию страхователя. Вместе с тем страховщик не обязан заключать договор страхования на условиях, предложенных страхователем.

Добровольное страхование всегда ограничено по срокам страхования. Есть начало и окончание срока в договоре. Непрерывность добровольного страхования можно обеспечить только путем повторного (иногда автоматического) перезаключения договора на новый срок.

Tushunchalar tahlili metodi

Tushunchalar	Tushunchalar tahlili
majburiy sug‘urta	
ixtiyoriy sug‘urta	

12-topshiriq. O‘qing. Nuqtalar o‘rniga mos qo‘shimchalarni qo‘yib annotatsiyani ko‘chiring.

Lug‘at hozirgi o‘zbek adabiy tili... keng iste’mol... bo‘lgan 80 ming... ortiq so‘z va so‘z birikmalari..., fan, texnika, san’at va madaniyat sohalari... oid terminlar..., bir necha sheva... qo‘llanadigan so‘zlar..., ba’zi tarixiy va eskirgan atamalar... o‘z ichi... oladi. Lug‘at... berilgan qo‘llanadigan so‘zlar... amal... qo‘llanishi XX asr o‘zbek adabiyoti va matbuoti... olingan misollar bilan dalillangan. Lug‘at o‘zbek tilshunosligi va turkiyshunoslik bo‘yicha mutaxassislar, tarjimonlar, ommaviy axborot vositalari xodimlari, oily ta’lim muassasalari... o‘qituvchilari va talabalari, shuningdek, keng o‘quvchilar ommasi uchun mo‘ljallangan.

13-topshiriq. Matnni o‘zbek tiliga tarjima qiling. Matnga nom bering.

Понятие “этикет” – это философское, этическое понятие. Вот как даётся определение этому понятию в словаре: “этикет (с французского: ярлык, этикетка) – это совокупность правил поведения, касающихся внешнего проявления отношения к людям (обхождение с окружающими, формы обращения и приветствия, поведение в общественных местах, манеры)”. Как видим, в этом определении содержится указание на внешнее проявление отношения к людям. Разумеется, в идеале эти отношения должны быть взаимно доброжелательными.

Этикет во многом определяет наше поведение. Это не только правила, которым мы следуем за столом или в гостях, это вообще все нормы наших взаимоотношений. При помощи таких с детства усвоенных правил мы регулируем наши

взаимоотношения с окружающими, устанавливаем или обнаруживаем в общении отношения типа "старший-младший-равный".

То, что понимается под речевым этикетом, используется в речи каждого из нас ежедневно и многократно. Мы по многу раз в день обращаемся к кому-то, приветствуем своих знакомых, прощаемся с людьми, кого-то благодарим, перед кем-то извиняемся, кого-то поздравляем, кому-то желаем удачи или делаем комплимент, кому-то соболезнуем, сочувствуем; мы советуем, просим, предлагаем и приглашаем ... Таким образом, речевой этикет представляет собой совокупность словесных форм учтивости, вежливости, то есть то, без чего нам с вами просто нельзя обойтись, в каком бы уголке Земли мы бы ни находились.

14-topshiriq. Matnning asosiy mazmunini rus tiliga tarjima qilib, qisqartirib yozing.

Ishbilarmon odamlarning etik tamoyillari va me'yorlari Etiket-Ishbilarmonlik sohasida, odamlarning bir-birini yaxshi tushunishlari uchun muhimdlr. Etiket "imidj"ning shakllanishida muhim vosita bo'lib xizmat qiladi. Ko'p mamlakatlarda firmaning qanaqaligini unga qo'ng'iroq qilib xodimi bilan gaplashish orqali bilishi mumkin. Bu qonuniyat nafaqat firmada, balki ko'p joylarda kuzatiladi. Qayerda etiket bo'lsa, shu yerda mehnat unumdorligi yuqori, faoliyat natijalari yuksak bo'ladi. Shuning uchun ham eng muhim qoidalardan biri: ishbilarmonlik etiketi tadbirkorning axloqiy-kasbiy xulqining muhim tomonidir. Ko'p tadbirkorlarimiz chet ellik firmalar bilan ishbilarmonlik etiketini yaxshi bilmaganlari tufayli aloqa o'rnata olmaydilar. Ishbilarmonlik munosabatlari amaliyotida har doim qandaydir standart vaziyatlar uchraydi, ulardan qutilib chiqib ketish juda mushkuldir. Bu vaziyatlar uchun xulq usullari va shakllari ishlab chiqiladi. Qoidalar majmuasi esa ishbilarmonlik etiketini yaratadi. Madaniyatli tadbirkor vazirni ham, kompaniya prezidentini ham, oddiy farroshni ham bir xil ravishda

hurmat qilishi shart. Bu samimiy hurmat inson tabiatining asosiy qismiga aylanishi kerak. Axloqiy xulq asosida quyidagi axloqiy baho yotishi kerak: ishbilarmon hamkor-yaxshi odam. Ishbilarmonlik etiketi mijozlar bilan bo'lgan muloqotda maxsus xulqni talab qiladi. Mijozlarga ko'rsatilayotgan har qanday xizmat turidan xulqqa oid kasbiy nozik alomatlar bor. Eng muhim tamoyil: mijoz-ofisning eng qadrdon va kutilgan mehmonidir. Ishbilarmonlik doirasida obro'-e'tibor katta ahamiyatga ega. Yaxshi obro' qozonish juda qiyin, Lekin uni yo'qotish juda ham oson. Obro' qozonishda hamma narsa muhim: nutq madaniyati, kiyinish, xulq-atvor, ofis interyeri va h.k. Bundan har bir o'zini hurmat qiladigan kompaniya uchun etikaning asosiy qoidasi kelib chiqadi. Shuning uchun ham har bir zamonaviy tadbirkor faoliyatining asosiy tamoyillaridan yana biri bu: tavakkal qila bilish va omadga ishonish, qarorlar qabul qilishda mas'uliyatdan qo'rqmay o'z zimmasiga olish.

33-MAVZU. NUTQ ODOBI

Notiqlikning eng ulug' fazilatlaridan biri zarur narsalarni aytishdagina emas, balki nozarur narsani aytmaslikda hamdir.
Sitseron Mark Tulliy

NUTQ ODOBI NIMA?

Nutq – tildagi ifoda vositalardan foydalangan holda voqelikka aylangan fikrdir.

Nutq, nutq odobi insonning ma'naviyatini – ma'rifatini belgilovchi asosiy mezondir. Demak kishining odobi, eng avvalo, uning nutqida ko'rinadi. Nutq odobi nima? Nutq odobi deganda aytilishi zarur bo'lgan xabarlarni tinglovchini hurmat qilgan holda, uning ko'ngliga mos holda adabiy me'yordagi ifodalar bilan yetkazishdir. Xunuk xabarni ham tinglovchiga beozor yetkazish mumkin. Buning uchun so'zlovchi tilni mukammal bilishi kerak. Muloyim, yoqimli, odobli so'zlash ham o'z-o'zidan paydo bo'lmaydi. Unga yoshlikdan ibratli kishilarga taqlid qilish, ulardan o'rganish orqali erishiladi. O'quvchi uchun eng yaxshi namuna o'qituvchidir. Buni o'qituvchi har doim his qilib turishi kerak.

Nutq odobi salomlashishdan boshlanadi. Salomlashishdagi xushmuomalalik undan keyingi yaxshi suhbatga debocha bo'ladi, tinglovchida yaxshi kayfiyat paydo qiladi. Salomlashishning ahamiyati boshlanadi. Salomlashishning ahamiyati haqida hindlarda shunday naql bor: "Bitta salom bilan beshta narsaga – o'zini yengil sezish, shon-shuhrat topish, qut-barakali, ilmli bo'lish va nihoyat uzoq umr ko'rishga erishiladi". Ha, salomda gap ko'p, salomlashish, salom berishning ham o'ziga yarasha qonun-qoidalari bor.

Madaniyatli kishi o'z aybini bo'yniga ola bilishi, aybi uchun kechirim so'rashni ham bilishi lozim. O'z aybi uchun uzr so'rash o'z g'ururini yerga urish emas, balki odoblilik va xushmuomalalik alomatidir.

Yetuk kishiga yana xos fazilatlardan biri xayrlashuv odobidir. Tilimizda xayrlashganda ishlatiladigan "xayr", "sog' bo'ling", "xayr, ko'rishguncha", "xayr, omonlikda ko'rishaylik" kabi ta'sirchan iboralar mavjud. O'qituvchi xonadan chiqayotganda "xayr, sog' bo'linglar", "xayr, yaxshi qolinglar" kabi iboralarni ishlatsa o'rinli bo'ladi.

1-topshiriq:

a) matnni o'qing;

b) matndagi termin va iboralarning ma'nosini izohlang;

d) matnga munosabat bildirib so'zlang;

e) kasbiy faoliyatda nutq madaniyatining ahamiyati haqida gapirib bering.

2-topshiriq. "Mutaxassisning nutq madaniyati" mavzusida matn tuzing.

3-topshiriq. Ish jarayonidagi muomala madaniyati haqida kasbiy o'yin ssenariysini tuzing va uni inssenirovka qiling.

GRAMMATIKA

Me'yor tushunchasi

Me'yor - jamiyat a'zolari tomonidan qabul qilingan, ma'qullangan va ularga tushunarli bo'lgan til birliklarining nutq jarayonida qo'llanish holati va imkoniyatidir.

Til va nutq tizimida me'yor o'ziga xos o'ringa ega. Til material sifatida nutq jarayonida xizmat qila boshlagan lahzalardanoq uni me'yorlashtirish jamiyat ehtiyojiga aylangan. Me'yor milliylik va tarixiylik mazmunini kasb etadi, necha yuz, ming yillar davomida shakllangan an'anaviylikka ega bo'ladi. Tildan foydalanishdagi an'anaviy me'yorlarning davrlar o'tishi bilan o'zgarib, yangilanib turishi ham tarixiy jarayondir.

Til me'yorini belgilash muammolarini hal qilish har bir milliy til madaniyatini rivojlantirishning uzviy qismiga aylanadi. Shuning

uchun ham me'yor masalalarining nutq madaniyati doirasida o'rganilishi bejiz emas.

Qo'llangan til birligi to'g'ri yoki noto'g'ri deyilganda, albatta ma'lum bir o'lchovga asoslanganligi tayin. Mana shu o'lchov tilshunoslikda ***adabiy til me'yori*** deb yuritiladi. Me'yor – tilning yashash shaklidir. Adabiy me'yor adabiy til bilan birga tug'iladi, badiiy adabiyotning, xalq madaniyati taraqqiyoti bilan rivojlanib o'z qonun-qoidalarini mustahkamlab boradi.

O'zbek adabiy tili me'yorlari ilmiy asarlarda quyidagicha tasnif qilinadi:

1. Leksik-semantik me'yor;
2. Talaffuz – (orfoepik) me'yori;
3. Yozuv (grafika) me'yori;
4. Fonetik me'yor;
5. Aksentologik (urg'uni to'g'ri qo'yish) me'yori;
6. Grammatik (morfologik va sintaktik) me'yor;
7. So'z yasash me'yorlari;
8. Imloviy (orfografik) me'yor;
9. Uslubiy me'yor;
10. Punktuatsion me'yor.


E'tibor bering!

Bu turfa olam

Qadimda so'z aytuvchi notiqni - voiz, uning nutqini esa va'z deb ataganlar. Ming-minglab xalq oldida va'z aytish juda og'ir ish bo'lib, uni hamma ham uddalay olmasdi. Chunki, voizlik bilimdonlikni, salohiyatni, so'zga boylikni, va'z ayta olish iste'dodini, yoqimli ovozni talab etardi. Biron gapni xalqqa ma'lum qilish, ularga oddiy, sodda qilib tushuntirish uchun notiqlar so'zlarning tovlanishini, sinonim-omonimlarni bilish bilan birgalikda davlat qonun-qoidalaridan, mamlakat hayotidan to'la xabardor bo'lishlarini taqozo etardi. O'z fikrini xalqqa manzur qila olmagan ikkinchi marta minbarga chiqa olmas edi. Shuning uchun notiqlar minbarga chiqishdan oldin doimo puxta tayyorgarlik ko'rardilar. So'z

aytishning turli-tuman xillarini, vositalarini o‘ylab topardilar. Shuning uchun O‘rta asrlarda notiqlik san’ati, ayniqsa, O‘rta Osiyoda keng rivojlangandi.

4-topshiriq. Me’yor haqidagi nazariy bilimlarni o‘zlashtirib o‘zbek adabiy tili me’yorlari bo‘yicha klaster tuzing.



5-*topshiriq.* Matnni o‘qing. Matndan foydalanib “Nutq odobi” mavzusida esse yozing.

MULOQOT MADANIYATI

Muloqot odobi – 1) og‘zaki va yozma adabiy til me’yorlari (talaffuz, urg‘u, so‘z qo‘llash, grammatika, uslubshunoslik qoidalari)ni egallash, shuningdek, turli aloqa – aralashuv sharoitlarida tilning tasviriy vositalaridan nutqning maqsad va mazmuniga mos ravishda foydalanish mahorati; 2) tilshunoslikning tilni madaniyat quroli sifatida mukammallashtirish maqsadida me’yorlashtirish (tartibga solish) muammolarini o‘rganuvchi bo‘limi. G‘arb tilshunosligida umumiy ma’noda “til madaniyati” termini ham qo‘llanadi.

1 – ma’nodagi “muloqot madaniyati” tushunchasi adabiy tilni o‘zlashtirishdagi ikki bosqichni qamrab oladi: a) nutqning to‘g‘riligi va b) nutqiy mahorat. Nutqning to‘g‘riligi muayyan tilda so‘zlovchilar va yozuvchilar tomonidan “ideal” yoki umum tomonidan qabul qilingan va an’anaviy saqlanib kelayotgan odatlar,

ibrat va namunalar tarzida idrok etiladigan adabiy me'yorlarga amal qilishdir. Nutqiy mahorat esa nafaqat adabiy me'yorlarga amal qilish, balki o'zaro mavjud bo'lgan variantlardan mazmunan eng to'g'ri, eng aniq, uslub va vaziyat nuqtai nazaridan eng maqbuli va ifodalanishini tanlab olish mahoratidir (masalan, aka – oka – ako; kelyapti – kevotti – kelopti variantlaridan birining adabiy me'yor sifatida tanlanishi). Yuksak muloqot madaniyati kishining umumiy yuksak madaniyatini, fikrlash madaniyatini, tilga nisbatan ongli mehr – muhabbatini namoyon qiladi.

Nutq madaniyati nazariyasining asosiy tushunchasi til me'yoridir. 2 – ma'nodagi Nutq madaniyatining asosiy vazifasi ijtimoiy til amaliyotiga faol ta'sir ko'rsatish maqsadida (tilning barcha sathlarida) obyektiv til me'yorlarini ularning barqarorlashgan shakllarida, ziddiyatlarida, vujudga keluvchi tamoyillarida va boshqalarda o'rganishdir.

Zamonaviy Muloqot madaniyati nazariy va amaliy fan bo'lib, u til amaliyotiga ta'sir etish maqsadida adabiy til tarixi, grammatika, uslubshunoslik va boshqa tilshunoslik bo'limlarining yutuqlari va xulosalarini umumlashtiradi. Muloqot madaniyati nazariyasida adabiy til milliy tilning oliy shakli deb e'tirof etiladi; badiiy adabiyot tili o'zining eng yaxshi namunalari bilan xalqning madaniyat sohasidagi yutuqlari va an'analarini mustahkamlaydi va boyitadi.

Muloqot madaniyati ijtimoiy hodisa bo'lib, u jamiyat, fan va texnika, madaniy va adabiy hayot rivoji bilan chambarchas bog'liq holda taraqqiy etadi. Jamiyat a'zolarining madaniy saviyasi ortgan sari nutqi ham jilolanib, sayqallashib, muloqot madaniyati qoidalari va me'yorlariga muvofiq holda takomillashib boradi. Muloqot madaniyatining shakllanishi va rivojlanishida adabiyot, san'at, radio, televidenie va davriy matbuotning alohida o'rni bor. Ayniqsa, adabiy tilni me'yorlashtirish va muloqot madaniyati nazariyasini rivojlantirishda leksikografiya, xususan, izohli, imlo, talaffuz, o'quv va boshqa maxsus lug'atlar muhim ahamiyatga ega. 15-asrdayoq o'zbek adabiy tilining Nutq madaniyati va uning o'ziga xos

me'yorlari bo'lgan – Alisher Navoiy o'zining butun hayotiy va ijodiy faoliyati bilan o'z davri muloqot madaniyatiga, muloqot odobiga mislsiz hissa qo'shgan bo'lsa, keyingi davrda yashagan Bobur, Muhammad Solih, Gulxaniy, Nodira, Ogahiy, Furqat, Muqimiy va boshqa shoirlarning asarlari tilida ham o'sha davr tili va muloqot madaniyati ma'lum darajada aks etgan. "Yaxshi so'z – jon ozig'i", "Bug'doy noning bo'lmasa ham, bug'doy so'zing bo'lsin", "O'ynab gapirsang ham o'ylab gapir", "Har neni yemak – hayvonning ishi, har neni demak – nodonning ishi", kabi maqol va hikmatli so'zlarning paydo bo'lishi ham o'zbek xalqida muloqot madaniyatiga avvaldan e'tibor kuchli bo'lganidan darak beradi.

O'tgan asarning 20-yillaridan so'ng o'zbek tilining muloqot madaniyati xalq tiliga yaqinlashtirilgan milliy adabiy til me'yorlariga asoslanadi. Bu me'yorlarni shakllantirish ishiga olimlar (Otajon Hoshim, T.N.Qori Niyoziy, S.Ibrohimov, Olim Usmon va boshqalar), adibu shoirlar (Qodiriy, Cho'lpon, Avloniy, Fitrat, Oybek, G'afur G'ulom, Abdulla Qahhor va boshqalar) munosib hissa qo'shdilar.

6-topshiriq. Nutq etiketiga rioya qilgan holda "So'zlashish odobi" mavzusida nutq tayyorlang.

7- topshiriq. Matnni o'qing. Ibrat oling. O'z fikr mulohazalaringizni bildiring.

RIVOYAT

O'tmishda ovi yursa ham dovi yurmay, tobora kambag'allashib borayotgan bir dehqon yo'l chetida o'ylanib tursa, faqirgina yo'lovchi o'tib qolibdi. Shunda dehqon:

- Ey donishmand, nima eksam, men boyib ketaman? - deb maslahat so'rabdi.

Yo'lovchi unga piyoz ekishni tavsiya etibdi. Qarangki, notanish yo'lovchining gapiga kirgan dehqon o'sha yili chindan ham boyib

ketibdi. Shodligidan bosar – tusarini bilmay qolgan dehqonga yana o'sha odmigina yo'lovchi uchraganida:

- Ey gado, nima eksam, men yanada boyib ketaman? – deb ikkinchi marotaba murojaat qilibdi.

Shunda u yana bir ekinning nomini aytib, yo'lida davom etibdi. Falakning gardishini qarangki, keyingi yili dehqonning omadi chopmay, ilgarigidan ham kambag'allashib ketibdi. Bundan g'oyatda g'azablangan dehqon haligi yo'lovchini sabrsizlik bilan kuta boshlabdi. Nihoyat, u notanish yo'lovchi bilan duch kelibdi va:

- Ey notavon yo'lovchi, nega meni aldading? Sening gapingga kirib, yanada boyish o'rniga butkul kambag'allashib ketdim-ku? - deb g'azab qilibdi.

- O'zingni bos, - debdi yo'lovchi. – Birinchi yili sen menga "donishmand" deb murojaat qilding. Men senga donishmandning javobini berdim. Natijada sen boyib ketding. Keyingi safar esa menga "gado" so'zini munosib ko'rding va men senga gadoning javobini berdim, - degan ekan...

8- topshiriq. Matnni tarjima qiling. Matnni nomlang.

Специалисты утверждают, что наши жесты говорят. Но разным людям они скажут о разном. Движения головой, плечами, руками, походка, взгляд означают разные понятия, например, во Франции, России, США или в странах Центральной Азии. Можно сказать, что в каждой стране - свое немое кино. Возьмем самые простые движения, которые означают «да» или «нет». Говоря "да", грек, турок, болгарин будут поворачивать голову вправо и влево, что для большинства европейцев равнозначно «нет».

Американцы и англичане, когда беседуют с кем-либо, предпочитают находиться на расстоянии вытянутой руки. Немцу же такое расстояние покажется совершенно недостаточным, и он непременно отступит на полшага. Напротив, итальянец или саудовец постараются подойти поближе к собеседнику. Вот почему порой могут возникнуть проблемы

при общении английского и итальянского, например, бизнесменов: для того, чтобы соблюсти нужную дистанцию, первый несколько отойдет, чем вызовет замешательство у второго, который, подойдя ближе, будет смущать первого.

Или другой жест, который имеет различные толкования: большой и указательный пальцы, сложенные в виде кольца. Этот жест означает: «о'кей» – для американцев; «ноль» или «ничто» - для француза; «деньги» - для японца; «я тебя убью» - для тунисца.

Специалисты говорят, что даже тогда, когда культура подвергается нападкам, а окружающая среда разрушается, традиционная жестикуляция того или иного народа выживает. Она часть нашей истории, культуры, своего рода речь без слов.

9-topshiriq. **"Har bir so'z - sehr" o'yini.** Berilgan so'zlardan so'z birikmalari tuzing, shu birikmalarni hamda ularning sinonimlarini qo'llab matn tuzing (ustoz, o'qituvchi, muallim; vatan, yurt, makon, diyor...).

Masalan:

Ota	**Ona**
O - ila boshlig'i	**O - ila bekasi**
T - arbiyachi	**N - amuna ko'rsatuvchi**
A - qlli maslahatchi	**A - ziz inson**
Aka	**Uka**
A - dolatpesha, adolatli	**U - mid chirog'i**
K - o'makchi do'st	**K - elajak tayanchi**
A - ql ko'zgusi	**A - hillik namunasi**
Do'st	**Yor**
D - ardkash birodar	**Yo'- ldosh,**
O'- rnak ko'rsatuvchi	**O - qibatli do'st**
S - irdosh inson	**R - ahmdil inson**
T - ayanch bo'luvchi	

Ustoz	Muallim
U - S - T - O - Z -	M - U - A - L - L - I - M -
Vatan	Yurt
V - A - T - A - N -	Y - U - R - T -

10-topshiriq. Quyidagi hadislarni o'qing va ma'nosini tushuntiring.

1. Otaga itoat qilish - Tangriga itoat qilishdir. Uning oldida gunoh qilish Tangri oldida gunohkor bo'lish bilan barobardir. 2. Qaysi bir ishni odamlar oldida qilish uyat deb bilsang, uni yolg'iz qolganingda ham qilma. 3. Halol kasbdan charchab uxlagan odam gunohlari kechirilgan holda uxlaydi. 4. Kimki musulmon mamlakatida yashovchi boshqa dinga mansub kishini haqorat qilsa, qiyomat kuni o'tdan yasalgan qamchi bilan uriladi. 5. Birodari bilan bir yil arazlashib yurishlik - uning qonini to'kish bilan barobardir. 6. Bir-birlaringga Tangrining la'nati, g'azabi yoki do'zaxini tilab so'kinmanglar.

11-topshiriq. Matnni tarjima qiling. Muloqot madaniyati va etiket mavzusida dialogga kirishing.

КУЛЬТУРА ОБЩЕНИЯ И ЭТИКЕТ

Культура общения – это часть культуры поведения, которая выражается главным образом в речи, во взаимном обмене репликами и беседе.

Существуют определенные правила ведения беседы, которые называются этикетом. Этикет (французское слово – ярлык, этикетка) – совокупность правил.

Культура речи – это также речевое мастерство, умение выразительно и доходчиво излагать мысли. Вершиной речевой культуры признается литературный язык (это образцовая, обработанная мастерами слова форма общенародного языка).

Правильность нашей речи мешают влияние диалектов, просторечия, жаргонов, а также засорение устной и письменной речи ненужными словесными штампами. Путь борьбы с этим – повышение общей и языковой культуры людей, развитие "языкового чутья", языкового вкуса и интереса к языку.

Понятие общей культуры непременно входит культура общения, культура взаимоотношений, доброжелательное отношение к людям. Как считают генетика, доброта полезна человеческому виду. А доброжелательность к другим стоит развивать в себе.

Этикет – это правила, которые человек должен выполнять в данном обществе при определенных обстоятельствах (какими формулами вежливости пользоваться, как вести себя в общественных местах, за столом и т.п.) и по которым складывается о нём первое впечатление, имеющее зачастую решающее значение для дальнейшего общения.

Знание правил этикета и умение их использовать даёт возможность человеку вести себя более уверенно, непринужденно, достойно при любых обстоятельствах.

- Вежливость воспринимается как настоящий талант общения.
- Культура общения помимо таких черт характера, как уважение к людям,
- доброжелательность и
- терпимость предполагает развитие
- вежливости и
- тактичности.

- **Вежливость** – это черта характера, основное содержание которой составляют соблюдение определенных правил поведения в различных ситуациях человеческого общения.
- **Тактичность** предполагает не только знание соблюдение приличий, но и чувство меры в отношениях между людьми.

33-MAVZU. SAN'AT VA MA'NAVIYAT

Adolat va ma'naviyat o'zaro chambarchas bog'liq tushunchalardir. Ma'naviyat bo'lmagan joyda hech qachon adolat bo'lmaydi.

Shavkat Mirziyoyev

Kamoliddin Behzod

Kamoliddin Behzod - buyuk o'zbek musavviri.

U 1455-yilda Hirotda kambag'al hunarmand oilasida tug'ilib, ota-onasidan juda erta yetim qoldi. Behzodning musavvirlikdagi iste'dodini payqagan Amir Ruhillo (Mirak Haqqosh) uni o'z tarbiyasiga oladi. Behzod musavvirlikni Pir Said Ahmad Tabriziydan o'rgandi. Musavvirlardan Shoh Muzaffar, Qosim Ali, Mavlono Hakim Muhammad kabi Behzod ham Alisher Navoiyning rahnamoligidan bahramand bo'lgan. Ijodi 1470-yillarda boshlangan.

Alisher Navoiy va Sulton Husaynning vafotidan so'ng Hirotni Shayboniyxon, 1512-yilda esa Eron shohi Ismoil I bosib oldi. Ko'p san'atkorlar Hirotdan chiqib ketdi. 1520-yilning boshida shoh Ismoil I Behzodni Tabrizga chaqirtirib, katta imtiyoz berdi. Shoh Ismoil I dan keyin uning o'g'li Tahmos taxtga chiqdi. Behzod Tahmosga musavvirlikni o'rgatadi. Lekin shoh Behzodning san'atini qadrlamaydi. Rassom ona yurti Hirotga qaytadi.

Shayx Sa'diyning "Bo'ston"iga ishlagan miniaturalari (1478-yil) musavvirning ilk asarlaridir. 1488-yilda Sulton Husayn buyurtmasi bilan u 4 ta miniatura ishlagan. Behzod asarida hayot manzaralarini jo'shqin tasvirlaydi. Turli ranglar bir-biriga mos, asarlaridagi shaxslar harakatchan, tabiatan jonli. Ilk asarlaridayoq Behzod mohir manzarachi rassom sifatida ko'zga tashlandi.

Nizomiy Ganjaviyning "Xamsa", "Layli va Majnun", Xisrav Dehlaviyning "Majnun va Layli" asariga ishlagan miniaturalari butun dunyoga mashhur.

Behzod miniatura san'ati tarixida maxsus - "Behzod maktabi"ni yaratdi. Darvesh Muhammad, Maqsud Muzahhib kabi rassomlar uning maktabida ta'lim olganlar. Behzod ustoz san'atkor sifatida Markaziy Osiyo, Eron, Ozarbayjon va boshqa o'lkalar tasviriy san'atining taraqqiyotiga samarali ta'sir etdi. Miniatura san'atini yangi bosqichga ko'tardi, uning tarixida yangi davr yaratdi. Behzod miniaturalari uning tirikligidayoq bu san'atning oliy yutug'i deb tan olingan.

Buyuk musavvir Kamoliddin Behzod 1535-yilda Hirotda vafot etgan.

1-topshiriq:

a) matnni o'qing;

b) matndagi terminlarning ma'nosini izohlang;

d) matnni ijodiy so'zlang.

2-topshiriq. Quyidagi tayanch so'zlarni yod oling.

Iste'dod [moyillik] - nihoyatda zo'r ijodiy qobiliyat, layoqat. *Iste'dodli rassom.*

Miniatura [*umal.* miniature - nafis, nozik qilib ishlangan rasm <*lot.* minium - qizil yoki qizg'ish-jigarrang bo'yoq] - O'rta asr qo'lyozma asarlari va kitoblarda bo'yoqlar bilan chizilgan nafis rasm, surat. *Behzod ishlagan miniaturalar o'rta asr tasviriy san'atining qimmatbaho durdonalaridandir.*

Musavvir [rassom] - turli tasvirlar ishlovchi, rasm chizuvchi ijodkor. *Kamoliddin Behzod - buyuk o'zbek musavviri.*

Mohir [mahoratli, malakali, usta] - yuksak mahoratga ega bo'lgan, mahorat qozongan, usta. *Mohir rassom.*

Kambag'al [qashshoq, yo'qsil] - muhtojlikda yashovchi, tirikchilik uchun kerakli narsasi yetarli bo'lmagan; qashshoq, faqir, bechora. *Kambag'al hunarmand oilasida tug'ilgan.*

San'atkor [san'at bilan shug'ullanuvchi] - san'at sohibi, san'atning biror sohasini egallagan ijodkor. Yuksak mahoratga ega bo'lgan yaratuvchi. *Mashhur san'atkor.*

Bahramand bo'lmoq - bahra olmoq; biror foyda, naf ko'rmoq. *Behzod Alisher Navoiyning rahnamoligidan bahramand bo'lgan.*

Ijod [yaratish, kashf etish; vujudga keltirish] - badiiy, ilmiy, san'atga oid asar yoki moddiy boylik yaratish, vujudga keltirish; yaratuvchilik faoliyati. *Kamoliddin Behzod ijodi.*


Qadrlamoq - obro'-e'tiboriga, qadr-qimmatiga yarasha izzat-hurmat ko'rsatmoq. *Ustozlarini qadrlamoq.*

Yetim [ota-onasiz, yakkayu yagona] - otadan, onadan yoki har ikkovidan ajralgan. *Ota-onasidan juda erta yetim qoldi.*

Hunarmand - uyida yoki o'z do'konida mahsulot ishlab chiqarish bilan shug'ullanuvchi kasb-hunar egasi, kosib. *Hunarmand oilasi.*

3-topshiriq. Xalq amaliy san'ati haqida taqdimot tayyorlang.

4-topshiriq. "Nima uchun?" sxemasini chizib, javoblaringizni yozing.



Eslab qoling!

Ma'naviyat. Bu – insonni ruhan poklanish, qalban ulg'ayishga chorlaydigan, odamning ichki dunyosi, irodasini baquvvat, imon-e'tiqodini butun qiladigan, vijdonini uyg'otadigan beqiyos kuch, uning barcha qarashlarining mezonidir.

Erkin fuqaro ma'naviyati. Bugungi kunda mamlakatimizda yangi hayot, yangi jamiyat poydevorini barpo etishda "Erkin fuqaro ma'naviyati"ni shakllantirish masalasi biz uchun g'oyat dolzarb ahamiyatga ega.

Yunus Rajabiy

O‘zbek xalqi dunyoga fan va madaniyatning boy yodgorliklarini berdi. Sharq olimlari qoldirgan asarlar hali ham o‘z ahamiyatini yo‘qotgani yo‘q. Bular fan va madaniyatning rivojlanishiga katta ta’sir etmoqda.

Boshqa ilmlar qatorida musiqa ilmi ham fanning yirik tarmog‘i - xalq merosidir.

Xalq yaratgan kuy va qo‘shiqlar avloddan-avlodga o‘tib hozirgi kungacha yetib keldi.

O‘zbek musiqasining bilimdonlaridan biri bastakor va olim Yunus Rajabiy bu sohada faol ish olib bordi. U o‘zbek musiqasini o‘rgandi, to‘pladi.

1960-yilda Yunus Rajabiyning ”O‘zbek xalq musiqasi” nomli besh tomlik kitobi nashr etildi. Bu besh tomlik kitob o‘zbek musiqa madaniyatida katta voqea bo‘ldi.

Xalq madaniy merosini hurmat bilan saqlab kelgan, o‘zbek musiqasini yanada rivojlantirgan akademik Yunus Rajabiy haqiqiy olim edi.

5-topshiriq:

a) matnni o‘qing;

b) matnga ijodiy yondashib, kengaytirib so‘zlab bering;

d) quyidagi tayanch so‘zlarni yod oling:

Tarmoq - asosiy yo‘l, oqimdan bo‘linib, ajralib chiqqan qism. Asosiy tashkilot yoki birlashma shoxobchasi. *Fanning yirik tarmog‘i.*

Kuy - ma’lum musiqa asari. Ashula, qo‘shiq hosil qiluvchi musiqiy tovushlar birligi, ohang. *Quvnoq kuy.*

Bastakor [ish, mashg‘ulot] - an’anaviy mumtoz musiqa asarlari ijodchisi; kompozitor. *O‘zbek bastakorlari.*

Dunyo [jahon, olam] - butun borliq, koinot. *Dunyoga mashhur.*

Jahon - yer yuzi va undagi butun borliq, dunyo, olam.

Yodgorlik - esdalik, eslab yuriladigan narsa; sovg‘a. Yodgor bo‘ladigan, esdalik sifatida saqlanadigan narsa. *Ulkan yodgorlik.*

Qo'shiq - keng ma'noda she'riy-musiqiy janr, ashula. *Xalq qo'shiqlari.*

6-topshiriq. "San'at mening hayotimda" mavzusida esse yozing.

7-topshiriq. San'atkorlarni ta'riflab, reklama matni tayyorlang.

8 -topshiriq. B/B/B jadvalini to'ldiring.

Matnni belgilash tizimi

(v) -Bilaman (-) - Bilishni xohlayman (+) - Bilib oldim

Tushunchalar	V	-	+
Musiqa san'ati			
Xalq amaliy hunarmandchiligi			
Kino san'ati			
Teatr san'ati			

9-topshiriq. Quyidagi san'atshunoslik terminlarini yod oling. Ularni qatnashtirib 200 ta so'zdan iborat matn tuzing.

Ajam – o'zbek, tojik xalqlari musiqa merosidagi cholg'u kuylar.

Akademik teatr – mustaqil davlatlar hamdo'stligi mamlakatlaridagi yirik va ko'hna teatrlarga beriladigan faxriy unvon.

Akt – (lotincha actus – harakat, actum – hujjat) dramatik asar yoki teatr tomoshasining tugallangan qismi (parda).

Anshlag – (nem. anselag.) – opera, balet, umuman, sahna asarlarida, konsertlarda hamma biletning sotilishi, zalning to'la bo'lishi.

Bandura – (lot. Pandura – uch torli soz) – torli tirnama ukraina xalq musiqa cholg'usi, dastasi kalta bo'lib, kosasi tuxum shaklida bo'ladi. Tarixiy manbalarga ko'ra, bandura 16-asrda ham ishlatilgan.

Belletristika - (frans. belles. letters. – badiiy adabiyot) 1) badiiy nazm; 2) 20-asr Yevropa adabiyotidagi yengil-yelpi, maishiy ko'ngilochar mavzulardagi ermak va ovunchoqlik uchun yozilgan asarlar. Bular odatda yuksak san'at namunalariga zid bo'lgan.

Butaforiya – teatr spektakllarida haqiqiy narsalar o'rnida qo'llaniladigan, spektakl xarakteri va sahna talablari, imkoniyatlaridan kelib chiqib, yasalgan, mebel, bezaklar, kostyum detallari, turli idishlar va shu kabilar.

Virtuoz - (lot.virtus – jasorat, iste'dod) – o'z san'atining ijro texnikasini mukammal egallagan san'atkor.

Girih - (fors. – muammo, tugun, chigal) – murakkab handasiy naqsh, me'morlik va badiiy hunarmandlikda keng ishlatiladi. Naqsh asosi uchburchak, to'rtburchak, aylana va yoy shaklli taqsimlardan tashkil topadi.

Diapason – (yun. diapason – hamma torlararo) ashulachining ovozi, musiqa cholg'usi, ovoz va musiqa cholg'ularidagi eng pastki va eng yuqori tovush oralig'i (intervali).

Inssenirovka – drama shaklida yozilmagan adabiy asarni teatr sahnasi, radio, televideniye uchun moslab qayta ishlash.

10-topshiriq. Umumxalq leksikasiga kirgan san'atshunoslik terminlariga 20 ta misol yozing. Ularni izohlang.

11-topshiriq. Savollarga javob bering.

1. San'atning qanday turlarini bilasiz?
2. Musiqa san'ati tarixi haqida qanday ma'lumotga egasiz?
3. Hunarmandchilikning qanday turlarini sanay olasiz?
4. O'zbekistonda naqqoshlik san'ati qaysi hududlarda ayniqsa rivojlangan?
5. Milliy zargarlik buyumlariga bugungi kunda talab qay darajada?

6. Kamoliddin Behzodning nomi nima uchun asrlar osha yashab kelayapdi?

7. O'zbek xalqi dunyo sivilizatsiyasiga qanday hissa qo'shgan?

8. Madaniy yodgorliklar rivojlanishga qanday yordam bermoqda?

9. Yunus Rajabiy kim edi?

10. 1960-yilda Yunus Rajabiyning qanday kitobi nashr etildi?

11. Nima uchun Yunus Rajabiyni haqiqiy olim deymiz?

12-topshiriq. O'zbek kinosining mavzulari va muammolari haqida publitsistik maqola yozing.

13-topshiriq. Madaniy hordiq odobi qoidalarini yozing.

14-topshiriq. Matnni o'qing. Matndan foydalanib "Menejment madaniyati ko'rinishlari" mavzusida esse yozing.

Madaniyat va menejment

"Madaniyat" tushunchasi rivojlanish darajasining umumlashtiruvchi ko'rsatkichi bo'lib, bir qancha ma'noni bildiradi. Masalan, jamiyat madaniyati, ayrim shaxs madaniyati. Shuningdek, inson faoliyatining ayrim turi madaniyati haqida so'z yuritish mumkin. Inson faoliyati moddiy va ma'naviy boyliklar yaratuvchi turlarga bo'linadi. Shu sababli moddiy va ma'naviy madaniyat farqlanadi.

Inson hayoti faoliyatining muhim tarkibiy qismi butun insoniyat tomonidan jamlangan madaniy boylikka ega bo'lish, shu jumladan, menejment madaniyatini egallashdir. Menejment madaniyati juda muhimdir. Insoniyat o'z rivojlanish jarayonida juda katta boshqaruv tajribasini jamlagan. Bozor sharoitida bu tajriba boshqaruv samaradorligini oshirishga xizmat qilishi kerak. Menejmentning vujudga kelishi va rivojlanishi, avvalo, menejment madaniyati darajasi yuksalishi bilan bog'liqdir. Chunki, boshqaruv yo'llari, usullari, vosita va uslublariga tanqidiy baho berish yo'li bilan ularning eng yaxshilarini jahon tajribasida qo'llash uchun ajratib olinadi.

15-topshiriq. Matnni o'zbek tiliga tarjima qiling.

Великий Шёлковый Путь

В течение VI-XIV веков существовали тысячи больших и малых дорог, пересекающих Азиатский континент и ведущих на Запад. По ним следовали караваны, и каждый из них был заполнен экзотической одеждой, восточными товарами и пряностями. На пути следования росли большие и малые города, караван-сараи.

Были созданы многочисленные центры национальных ремесел, художественные школы, медресе, замки, мавзолеи. Торговцы, миссионеры и паломники путешествовали, привнося новые религии, обычаи, товары (стекло, фарфор, мыло, порох) и самое интересное - различную культуру. Великий шелковый путь на протяжении многих веков соединял страны такими мирными актами, как торговля, обмен культурными и духовными ценностями, что является уникальным для всего человечества.

Главный туристический путь пересекается с 32 большими и малыми городами Центральной Азии. Жемчужинами Великого шелкового пути являются Ташкент, Самарканд, Бухара, Хива и города Ферганской долины. Вас ожидает захватывающее путешествие в прошлое.

Великий шелковый путь некогда связывающий Европу с Азией, способствовал развитию и процветанию региона Центральной Азии, и в частности, Самарканда, Бухары, Хивы и Шаша (современный Ташкент), сохранивших до наших дней неповторимый колорит восточных городов с их площадями, караван-сараями и средневековыми памятниками исламской архитектуры, Последние-то и создали всемирную известность этим городам Узбекистана, который постепенно превращается в один из мировых туристических центров в Азии.

16-topshiriq. Matnni o'qing. Matnga asoslanib "Kino san'atining turlari" mavzusida dialogga kirishing.

КИНОИСКУССТВО

Кино – молодое из искусств. Оно было изобретено почти одновременно в нескольких странах: во Франции (1885), в Германии (1895), в России (1896), в США (1897).

Первые фильмы были показаны во Франции братьями Люмьер. Эти фильмы были мало похожи на современные: на экране показывали летящий мяч, бегущего человека, мчащийся поезд. Затем стали показывать небольшие сюжеты, экранизировать литературные произведения.

Долгое время кино было «немым», затем появились звуковые фильмы, цветные, широкоэкранные, панорамные, стереоскопическое кино и т.д.

Кино является самым доступным и широко расспространенным видом искусства для всех слоев населения. Оно является важным средством формирования мировоззрения людей, их нравственного и эстетического воспитания.

За время развития киноискусства сформировались 4 основных его вида: художественный, документальный, научно-популярный, мультипликационный. Художественное кино широко использует литературные жанры (эпос, лирика, драма, комедия, трагедия). В документальном кино наши свое отражение жанры журналистики и публицистики (информация о текущих событиях, репортажи). Мультипликация – это вид искусства, который использует изобразительные жанры рисунка, компьютерной графики и т.д.

Научно-популярное кино знакомит зрителей доступными им средствами с научными открытиями, с творческим поиском ученых, с жизнью природы, общества.

Мультипликационные фильмы выполняют большую воспитательную и познавательную задачу в развитии детей младшего возраста.

34-MAVZU. MEN SEVGAN ASAR

"Mening fikrimcha, yozuvchilik - bu oddiy kasb emas, xudo bergan iste'doddir. Bu - qismat. Peshonaga yozilgan taqdirdir. Bu kasbga hech qayerda o'qitib, o'rgatib bo'lmaydi. Yozuvchilikning maktabi ham, dorulfununi ham bitta. U ham bo'lsa, bir umr hayotning ichida bo'lish, o'z xalqi bilan hamdardu hamnafas bo'lib yashash, haqiqat va adolatga sadoqat bilan xizmat qilishdir".

Islom Karimov

"Любимое произведение" - сколько за этими словами скрывается смысла, которому мы не уделяем внимания. Каждый человек-это индивидуальность и неповторимая личность, в связи с этим каждый имеет свои вкусы и предпочтения, тоже самое касается и взглядов в литературном искусстве. В частности каждый человек соотносит каждое произведение с определенными эмоциями и та работа где спектр данных эмоций был выражен в наибольшей мере становится любимой для человека. Нам нравится накладывать на себя маски главных героев произведений, пропуская через себя все их переживания, заботы и радости. И таким незамысловатым образом принимать участие в их путешествии, но одни бредят идеи быть участниками средневековых войн и балов аналогично Печорину из произведения "Герой нашего времени" написанного М.Ю.Лермонтовым или Евгению Онегину героя одноименного романа в стихах А.С. Пушкина, что являются представителями золотого века русской литературы, другие же предпочитают путешествия сквозь пространство и время с помощью машины времени как было рассказано в произведении Г. Уэльса. Перед людьми встала задача создания ориентиров для классификации книг, что будут служить сигналами для читателя, таким образом появились жанры и каждый читатель исходя из

предпочтений к жанру выбирает для себя наиболее подходящие новеллы.

Стоит сказать, что в мире невозможно найти людей что любили бы одинаковые книги, каждый читатель видит историю каждой книги по-своему выстраивая повествования уникальным и неповторимым образом и стилем, и даже читая одну и ту же книгу мы рассматриваем несколько совершенно разных историй.

1-topshiriq:
a)matnni o'qing;
b) o'zbek tiliga tarjima qiling;
d) matnni nomlang;
e)siz sevgan badiiy asar haqida gapirib bering.

2-topshiriq. Matnni o'qing. Matnga munosabat bildirib so'zlab bering.

Robert Kiyosaki o'zining moliyaviy-iqtisodiy janrda yozilgan "Boy ota Kambag'al ota" nomli asarida hozirgi kunda moliyaviy bilim yoshlar kelajagida qanchalik muhim ahamiyat kasb etishini dolzarb masala sifatida bayon etgan. Muallif yoshligida bu bilimni ikki usul, ikki dunyoqarash va ikki natija orqali o'zlashtiradi. Kiyosaki kitobda o'z otasi (Kambag'al ota) va yaqin do'stining otasi (Boy ota)ning pul va uni qanday qilib sarmoya qilish haqidagi flkrlarida katta tafovutni mohirlik bilan ifoda etgan. Uning ta'kidlashicha, "Kambag'al ota": "Men buni qila olmayman", deya fikrlash doirasini cheklasa, "Boy ota" esa "Men buni qanday uddalasam bo'ladi", deb savol beradi va har qanday muammoga yechim topishga va hech qachon taslim bo'lmaslik yo'lini ma'qul ko'radi. Shu jumladan, "Kambag'al ota" farzandiga ta'lim muassasasiga borishni, yaxshi o'qib, yaxshi ishga ega bo'lishni hamda pul munosabatlarida ehtiyotkorlikni o'rgatadi. "Boy ota" esa, aksincha, Kiyosakiga qay tarzda o'z atrofida aqlli va ishbilarmon odamlarni to'plash, iqtisodiy jarayonlarda tavakkalchilikka qo'l

urish hamda pulning kuch-qudrati haqida saboq beradi. "Boy ota" har doim kambag'allik va moddiy nochorlik o'rtasida farq borligini uqtirgan, ya'ni kambag'allik abadiy, moddiy nochorlik esa vaqtinchalik bo'ladi.

"Kambag'al ota" umr bo'yi pul topish uchun ishlaydi va farzandlariga qarab: "Men boy bo'la olmayman, chunki sizlar borsizlar", deb mulohaza yuritadi, shu o'rinda esa "Boy ota": "men pul topish uchun emas, balki pullar men uchun ishlaydi va men boy bo'lishim shart, chunki mening sizlardek farzandlarim bor", deb hisoblagan. Men "Boy ota" va "Kambag'al ota"ning farzandiga moliyaviy bilim berishidagi yer bilan osmoncha farqni ko'rsatib, "Kambag'al ota"ning bu sohadagi salbiy jihatlarini ko'rsatishdan yiroqman. Axir, bu dunyoda har bir inson o'z dunyoqarashi va flkrlash doirasiga egadir. Xulosa o'rnida shuni aytmoqchimanki, ko'proq pul topish moliyaviy muammolarni hal qilmaydi, balki yoshlikda olingan mustahkam moliyaviy bilim kelajakda barcha muammolarni yechishda muhim ahamiyat kasb etadi.

3-topshiriq. Zamonaviy o'zbek adabiyoti haqidagi ma'lumotlarni gapirib bering.

4-topshiriq. "Men sevgan asar" mavzusida insho yozing.

5-topshiriq. She'rni ifodali o'qing va yod oling. (Mashhur o'zbek shoirlari ijodidan namunalar yod oling)

Ayol

Yigitlar maktubin bitganda qondan
Kelinlar firoqdan chekkanda yohu,
Uning ham panohi qaytmadi jangdan
O'n to'qqiz yoshida beva qoldi u.
Sevgidan yetimu umrdan yarim,
Qurigan ko'ksida yolg'iz belanchak.
Abadiy firoqni, hayhot, do'stlarim,
Abadiy visol deb bildi kelinchak.

Qaqragan lablarda olovli nafas,
Kechalar kechmishin ayladi ko‘mir.
Parishon sochlari yor ko‘ksi emas,
Muzdayin bolishda qoldi bir umr.

Yillar ham o‘tdilar, hamon u yolg‘iz,
Mung‘ayib termular botguvchi kunga.
Ey nomard tabiat, bormi senda his,
Qaytadan baxt bersang b‘olmasmi unga?!

Nahot ishq qismati buncha berahm,
Bunchalar buyuksan vafo shevasi.
Sengadir hurmatim, senga sharafim,
Qahramon jangchining sodiq bevasi.

Siz-chi ey, sadoqat satridan nolib,
Nadomat komida qolganlar, ayting.
O‘zini ming bitta bozordan olib,
Ming bitta bozorga solganlar, ayting.

Shu cho‘lpon ko‘zlarning buyuk hurmati,
Shu aqiq lablarning rost so‘zi deya,
So‘ylang-chi, vafoning nadir qimmati,
Siz ham kutganmisiz biror soniya?!

Ba’zida tirnoqlar bezagi uchun
Sahardan shomgacha qilursiz toqat.
Biroq yoringizni kutgali nechun
Topilmas tirnoqcha sabru qanoat.


Nazokat paytimas, yaqinroq keling,
Buyuk zot qoshida aylangiz salom.
Shu sodiq bevaga sajdalar qiling,
Shu sodiq bevaga aylang ehtirom.

Hatto zeb-ziynatni yulqib ziyoda,
Haykal ham qo'yingiz bamisli xayol.
Shundaylar bo'lmasa agar dunyoda,
Bu qadar muhtaram bo'lmasdi ayol.

6-topshiriq. She'rni ifodali o'qing va yod oling.

Shunday yashar odatda odam
Yo'q, kerakmas, qo'ying, kerakmas,
Menga orom istamang, do'stlar,
Xilvat soz deb qistamang, do'stlar,
Qo'ying, bunday orom kerakmas.
Nogohonda xayolga botsam,
Yo uxlasam, uyg'oting darrov,
Nomim tutib, so'z qoting darrov.
Behudaga bir yoqqa borsam,
Qo'llarimdan ushlab o'shal dam,
Kurashlarning safiga qo'shing,
Qur, yarat deng, hayqir deng, jo'sh deng,
Shunday yashar odatda odam.

7-topshiriq. Venn diagrammasidan foydalanib mumtoz va zamonaviy she'riyatni taqqoslang va tahlil qiling.



GRAMMATIKA

Badiiy tasvir vositalari

Narsa-buyumning nomini aniq atamay, uni tasvirlab anglatadigan so‘z birikmasi *tasviriy ifoda* deyiladi. Tasviriy ifoda nutqning ta’sirchanligini oshiradi.

Masalan: *fazogirlar - samo lochinlari, makkajo‘xori - dala malikasi, qushlar - qanotli do‘stlar, shaxmat – aql gimnastikasi.*

Oddiy tasvir va badiiy tasvir

Narsa-buyum, kishi, harakat kabilarning tasviri ikki xil bo‘ladi: 1. Oddiy tasvir. 2. Badiiy tasvir.

Oddiy tasvirda narsa-buyumning hamma belgilari birin-ketin ko‘rsatiladi, tasvirlanayotgan narsa-buyumga muallifning munosabati ifodalanmaydi. Bunday tasvirda badiiy vositalar ishlatilmaydi.

Badiiy tasvirda narsa-buyumning hamma belgilari emas, balki muallif uchun muhim va aniq bo‘lganlarigina ko‘rsatiladi. Tasvirlanayotgan narsa-buyumga muallifning munosabati ifodalanadi. Badiiy tasvirda tasviriy vositalar, masalan, o‘xshatish, sifatlash, jonlantirish, mubolag‘a va boshqalar qo‘llanadi.

Kulolchilik

Oddiy tasvir:

Ko‘za yasash uchun sifatli tuproq tanlab olinadi. Kulol ushbu tuproqdan kulolchilik dastgohiga o‘tirib ko‘za yasaydi va olovda pishiradi.

Badiiy tasvir

Kulolchilik qadimiy hunar turlaridan bo‘lib, hunarmand- chilikning gultoji hisoblanadi. Kulol ko‘za yasar ekan, avvalo, ona yer qa’ridan o‘ziga mos keluvchi sifatli tuproqni tanlab oladi. Keyingi bosqichda kulolchilik dastgohiga o‘tirib o‘zining mohirona va nafis harakatlari bilan oddiygina loydan bejirim san’at asari yaratadi. So‘nggi bosqichda kulol ko‘zani alanga olib turgan otash qa’riga pishirishga qo‘yadi.

Bu matnlarning qaysi birida so‘zlar ko‘chma ma’noda qo‘llangan? Badiiy tasvirdan asosiy fikr ifodalangan gapni topib qayta o‘qing.

8-topshiriq. Keltirilgan parchalarda qo‘llangan tasviriy vositalarni toping va ularni izohlang.

Bahor... Bu kun olam uyg‘onmoqda. Ana, yam-yashil maysalar xuddi jajji qizaloqlar kabi qiqirlab bosh ko‘tarmoqda. Quyosh olam uzra iliq-iliq nurlarini taratmoqda. Osmon mo‘tabar otaxonlarimiz va onaxonlarimiz duolari singari oppoq va yaqin. Xullas, olam kundan-kunga go‘zallashib bormoqda.

Bu yil bahorni juda sog‘indik. Ayniqsa, yanvarning izg‘irinli kunlarida ko‘klamning qadri juda bilindi.

Mana, bobo quyosh charaqlab, kunlar iliy boshladi. Ona zamin qish uyqusidan uyg‘ondi. Odamlarning bahri-dili ochilib, kayfiyatlari ko‘tarilib, bahorgi tashvishlarga sho‘ng‘ib ketishdi. Hammaning niyati yaxshi, ularni qulay imkoniyatdan foydalanish istagi chulg‘ab olgan. Dehqonlar yerdagi namlikdan, tog‘dagi qor zaxirasidan xursand - bu yil obi hayot mo‘l bo‘lishidan umidvor. Dalalar esa xamirturushdek ko‘pchib turibdi. Dehqon yerga tezroq baraka urug‘ini qadash umidida yonmoqda.

9-topshiriq. O‘qing. Tasviriy ifodalarni bilib oling.

Pomir - dunyo tomi; televizor - zangori ekran, oynai jahon; shifokor -salomatlik posboni; bunker - po‘lat etak; yo‘lbars - hayvonlar podshosi; gaz - zangori olov; Farg‘ona - yashil vodiy; pilla - kumush tola; matematika - aql gimnastikasi; kitob - ilm kaliti; rassomlar - mo‘yqalam sohiblari; paxta uyumlari - oq oltin tog‘lari; mashhur kino artisti - kino yulduzi; bokschi - charm qo‘lqop ustasi; suv - ekinning qoni; o‘rmon - yashil boylik; archa - o‘rmon malikasi.

10-topshiriq. Tasviriy ifodalarini qo'llab gap tuzing.

Oq oltin tog'lari, aql gimnastikasi, yashil boylik, kumush tola, yashil vodiy.

11-topshiriq. Matnni o'qing. Tasviriy ifodalarni toping va daftaringizga ko'chirib yozing.

Har bir fasl o'ziga xos chiroy, tarovatga ega, lekin fasllarning go'zali kuz bo'lsa kerak. Uni oltin kuz, deb bejiz aytishmaydi. Atrofga qarang, daraxtlarning barglari oltinday tovlanadi. Barglarning ayrimlari daraxt tagidagi maysalar ustiga oltin tangalardek to'kiladi. Havo iliq, yoqimli shabada yuz-ko'zingizni silab o'tadi. Ariqlarda billurday zilol suv. Osmonda tiniq paxta g'aramlari kabi pag'a-pag'a bulutlar suzib yuradi. Kuz haqiqatdan ham oltin fasl.

Qorong'u kechada ko'kka ko'z tikib,
Eng yorug'yulduzdan seni so'rayman.
Ul yulduz, uyalib, boshini bukub,
Aytadur: men uni tushda ko'ramen.
Tushumda ko'ramen - shunchalar go'zal,
Bizdan-da go'zaldir, oydan-da go'zal! *(Cho'lpon).*

... Suqlanib qaradim tongning yuziga,
Bir qarashda oppoq shoxiga o'xshar,
Bir qarashda marmar... bir qarashda zar,
Bir qarashda esa sadafga o'xshar. *(Uyg'un).*

12-topshiriq. "Adabiyotning kishi ruhiy dunyosiga ta'siri" mavzusida esse yozing.

13-topshiriq. Yangi kitoblar haqida polilog matnini tuzing va uni inssenirovka qiling.

14-topshiriq. O'zbek adiblari va shoirlari haqida taqdimot tayyorlang.

15-topshiriq. Matnni o'qing. Tarjima qiling.

Oyi, dadam nega yig'layaptilar?

Yetti-sakkiz yoshlik chog'larim, shahar hovlida yashar edik. Dadam mudom o'tirib "O'tgan kunlar"ni yozardilar. Bir kun oyim, odatimizcha, ertalabki choyni bibimning uyiga hozirladilar-da, erta turib o'z xonasida yozib o'tirgan dadamni choyga chaqirgani chiqib ketdilar. Biz dasturxon tevaragida u kishining chiqishini kutamiz... Bir vaqt oyim negadir indamay chiqdilar va o'tirib bizga choy quyib bera boshladilar.

- Abdullani chaqirdingmi, Rahbar? - dadam chiqavermagach, oyimdan so'radilar bibim.

-Yo'q.

- Nega?

- O'g'lingiz yig'lab o'tiribdilar, - dedilar oyim.

Bibim bechora sakrab o'rinlaridan turib dadamning xonasiga yo'l oldilar. Kap-katta kishining yig'lashidan hayratga kelib men ham bibim ortidan ergashdim. Kirsak, darhaqiqat, u kishi yum-yum yig'lar, kursiga tirsaklanib olib, to'xtovsiz yozar edilar. Bibim dadamning bu holiga biroz qarab turdilar-da, bir narsani tushundilar, shekilli, indamay meni boshlab orqaga qaytdilar va o'tirib choyni icha boshladilar, Men bibimdan so'radim:

- Dadam nega yig'layaptilar?

- Dadang jinni bo'lib qolibdi...- javob qildilar bibim va boshqa so'z aytmadilar.

Keynchalik anglasam, o'shanda dadam o'z sevikli qahramoni Kumushning fojeali o'limi paytini tasvirlayotgan ekanlar...

Habibulla Qodiriy

16-topshiriq. She'rni ifodali o'qing. Matnni publitsistik uslubga aylantiring.

Tilla baliqcha

Tuxumdan chiqdi-yu keltirib uni
Shu loyqa hovuzga tomon otdilar.

Tashlandiq ushoq yeb o'tadi kuni,
Xoru xos, xazonlar ustin yopdilar.

Dunyoda ko'rgani shu tor hovuzcha
Va mudroq tollarning achchiq xazoni.
Menga alam qilar, tilla baliqcha
Bir ko'lmak hovuz deb bilar dunyoni...

Abdulla Oripov

16-topshiriq. Tarjima qiling.

ИНТЕРЕСНЫЕ ФАКТЫ О БИЗНЕСЕ

- Стив Джобс: «Я назову компанию Apple, если к 5 часам вы не предложите лучшего».
- Создателю символа NIKE заплатили за работу 35$.
- Название «Яндекс» образовано от Yet Another Indexer (еще один индексатор).
- Самый производительный день рабочей недели - вторник.
- «Шанель» стали первыми в мире духами с не цветочным запахом.
- Самый дорогой автомобиль в мире Bugatti Veyron Supersport имеет двигатель 1200 л.с. и стоит $2,6 млн.
- В 2004 японская Ассоциация Мороженого продвинула «сырое мороженое» с мясом в надеждах, что это повысит популярность мороженого.
- Самый большой в мире торговый центр находится в г.Дунгуань (Китай), имеет торговую площадь 659615 кв.м. и на 99% пустует.
- Первым в мире миллиардером был нефтяной магнат Джон Д. Рокфеллер.
- Первым продуктом, который выпустила Sony, была жаровня для риса.

- Компания Walt Disney производит приблизительно 120000 килограммов мусора каждый день.
- Yahoo! первоначально назывался «Справочником Джерри по Всемирной паутине».
- Первая реклама была напечатана в Англии в 1477 году. Это была реклама молитвенной книги.
- Ученые вычислили лучшее время, чтобы просить повышения зарплаты, – это среда каждой недели.
- Первые бумажные деньги появились в Китае.
- В большинстве рекламных объявлений время, показанное на часах, обычно 10:10.
- 80% игрушек в мире сделаны в Китае.

- Самая часто исполняемая песня в мире Happy birthday to you находится под защитой авторских прав.
- На первых автомобилях «Форд» устанавливались двигатели компании «Додж».
- Среднестатистический банкомат ошибается за год на 250$ - причем в пользу клиентов.
- Кофе - это второй крупнейший товар в международной торговле. Первый - бензин.
- Старейший в мире банк Banca Monte dei Paschi di Siena (Италия) основан в 1472 году.
- Миллион долларов в 100-долларовых купюрах весит около 10 кг.
- Первый настоящий ресторан открылся в Париже в 1764 году. Его держатель по имени Буланже продавал готовые блюда всю ночь.
- Самые дорогие города в мире: Осло (Норвегия), Цюрих (Швейцария), Токио (Япония).

Amaliy natijadorlik, inson manfaati va yana bir bor inson manfaati islohotlarning bosh maqsadi etib belgilandi.

Shavkat Mirziyoyev

Inflyatsiya

Inflyatsiya – iqtisodiyotga tegishli jarayon bo'lib, bunda muomaladagi qog'oz pulning haddan tashqari ko'payib ketishi ro'y beradi. U chiqarolgan qog'oz pullar miqdori o'zgarmagan sharoitda ishlab chiqarishning pasayishi natijasi ham ro'y berishi mumkin. Inflyatsiya baholar o'sishi, aholi turmush darajasining pasayib ketishi tufayli ham yuz beradi.

"Inflyatsiya" so'zi qayerdan kelib chiqqan?

Shimoliy Amerikada 1861-1865-yillardagi fuqarolar urushi davrida grinbek deb ataluvchi qog'oz pullarning haddan ortiq miqdori (450 mln qog'oz pullar) muomalaga chiqarilgan, ammo ularning xarid qobiliyati 2 yil ichida 60 foizga tushgan. Natijada ***inflation*** - bo'rtib chiqish ma'nosini beruvchi lotin so'zidan paydo bo'lgan "Inflyatsiya" tushunchasi ilk bor ishlatila boshlangan.

Inflyatsiya – iqtisodiy organizmning paydo bo'lgan moliyaviy buzilishga tezkor reaksiyasi, uning oldini olish harakati, tovarlar va pul o'rtasida muvozanatni saqlashga erishish lozimligini ko'rsatuvchi belgidir.

Yoyilish joyini hisobga olgan holda quyidagi inflyatsiya bo'lishi mumkin:

- lokal (bir mamlakat doirasida);
- jahon (bir necha davlatlar yoki mintaqalarda).

Rivojlanish tavsifiga bog'liq holda quyidagi inflyatsiyani ajratish mumkin:

- ochiq (hech kim uni ushlab turmaydi va boshqarmaydi);
- yashirin (bu holda davlat sun'iy yo'l bilan baholar o'sishini ushlab turadi va yangi deb aytiladigan tovarlarga baholarni oshradi va h.k.).

Baholar o‘sish sur’atlarini hisobga olgan holda inflyatsiya quyidagicha bo‘ladi:

-o‘rmalovchi, me’yorida bo‘ladigan inflyatsiya, bunda baholar sekin, lekin to‘xtovsiz o‘sadi;

- sakrab boruvchi. Bunda baholar keskin o‘sa boshlaydi. Sakrab boruvchi inflyatsiyada uzoq muddatli va ayrim o‘rta muddatli bahosi qimmat loyihalarning amalga oshirilishi to‘xtatiladi.

Inflyatsiyaning yana bir turi – giperinflyatsiyadir.

Bunda kreditlar faqat o‘ta qisqa muddatga beriladi. Giperinflyatsiya ro‘y bersa, aholi puldan qochadi, pullar o‘ta qadrsizlanadi. Aholi esa o‘z mablag‘larini pul shaklida tutib turishga bo‘lgan xohishini yo‘qotadi va ularni moddiy ne’matlarga sarflaydi.

Inflyatsiya, naqd pullarning qadrini yo‘qotib, har xil sinflar o‘rtasida daromadlar va boylikning qayta taqsimlanishiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi, mehnatkashlar ahvolining yomonlashiviga olib keladi, ularning hayot darajasini pasaytiradi, ishsizlikni ko‘paytiradi.

Davlat pul siyosatini mustahkamlash, daromadlarni tartibga solish, baholarni cheklash bilan inflyatsiya o‘sishiga bardosh beradi.

1-topshiriq:

a) matnni o‘qing, matndagi termin va iboralarning ma’nosini izohlang;

b) matn yuzasidan savollar tuzing va yozma javob bering;

d) matndagi asosiy fikrni ajratib so‘zlab bering;

e) matnni qismlarga ajrating va har bir qismga sarlavha toping.

2-topshiriq. Quyidagi matnning asosiy mazmunini o‘zbek tiliga tarjima qiling.

Интеграция Узбекистана в мировую экономику

В XXI веке интеграция становится доминирующей тенденцией мирового развития. Фактически весь мир сегодня – это совокупность региональных блоков. Особенностью современного этапа развития мировой экономики является то, что

регионализация экономических процессов происходит на фоне глобальной интернационализации производства.

Мировое хозяйство движется к единству путем сближения и объединения экономики регионов и отдельных стран в целостный мировой хозяйственный комплекс.

Среди факторов и условий, способствующих усилению интеграционных связей Узбекистана в мировую экономическую систему можно выделить:

- выгодное географическое положение республики на Евразийском континенте;
- стабильная политическая обстановка в стране. Это является существенным гарантом притока иностранного капитала, взаимовыгодного экономического сотрудничества;
- значительные запасы земельных, минерально-сырьевых и растительных ресурсов. Также имеются уникальные почвенно-климатические условия, благоприятные для развития сельского хозяйства;
- значительный экспортный потенциал;
- крупный производственный потенциал, позволяющий производить конкурентоспособную продукцию высокой степени готовности;
- наличие развитой производственной инфраструктуры. Имеются автомобильные и железнодорожные магистрали, системы телекоммуникаций, связывающие республику с другими государствами.

О масштабах интеграции Узбекистана в мировую экономику можно судить на основе изучения географии глобальных и региональных притоков прямых иностранных инвестиций.

GRAMMATIKA

Umumxalq leksikasiga kirgan iqtisodiy terminlar

Terminologiya muayyan fanning tushunchalar tizimi bilan o‘zaro munosabatda bo‘lgan terminlar jami sifatida ta’riflanadi. Har

qanday tushunchalar tizimiga muayyan terminlar tizimi to‘g‘ri keladi. Terminologik tizimlar fan taraqqiyoti bilan birgalikda rivojlanib boradi. Terminlar umumiste’moldagi so‘zlardan farqli ravishda joriy qilinib ularning qo‘llanishi ma’lum darajada nazorat ostida bo‘ladi. “Terminlar paydo bo‘lib qolmaydi”, aksincha, ularning zaruriyati anglangan holda “o‘ylab topiladi”, “ijod qilinadi”. Masalan, bo‘lajak iqtisodchilarning yozma yoki og‘zaki nutqida *kartel, kliring, tovar oboroti, mayda mulkchilik, mablag‘ ajratish, renta* kabi tor doiradagina qo‘llaniladigan terminlar ishlatilishi tabiiy bir holdir. O‘z-o‘zidan ayonki, bu xildagi terminlar iqtisodiyotdan uzoqroq biror kasb egasining nutqida ishlatilmaydi. Shu bilan birga, iqtisodiyot sohasining qator terminlari ham borki, ular muayyan til egalarining deyarli barchasi nutqida bab-baravar ishlatilaveradi: *bozor, mol, savdo, savdo-sotiq, pul, xaridor, bozorchi, olib-sotar, chayqovchi* kabilar shular jumlasidandir.

Ta’kidlash lozimki, nafaqat iqtisodiyot balki fan-texnika, ishlab chiqarishning xilma-xil soha va terminlar majmui, ya’ni yig‘indisi terminologiya deb ataladi. Masalan, matematika terminologiyasi, tibbiyot terminologiyasi, iqtisodiyot terminologiyasi va boshqalar.

3-topshiriq. Iqtisodiy terminlar tarkibidagi qisqartma otlar lug‘atini tuzing.

4-topshiriq. Umumxalq leksikasiga kirgan iqtisodiy terminlardan 10 tasini tanlang va ularni qatnashtirib 150 ta so‘zdan iborat bog‘lanishli matn tuzing.

5-topshiriq. Matnni o‘qing. Iqtisodiy atamalarni daftaringizga yozing va ularni izohlang.

Bozor iqtisodiyoti

G‘arbda bozor iqtisodiyoti deganda, iqtisodiy yechimlar asosan markazlashmagan tarzda qabul qilinadigan iqtisodiyot tushuniladi. Bozor iqtisodiyotining faoliyat ko‘rsatishi asosan bozor mexa-

nizmlari orqali amalga oshiriladi. G'arb adabiyotida bozorning ko'pgina ta'riflari mavjud. Lekin ularning hammasi shundan iboratki, bozor mustaqil ravishda qarorlar qabul qiluvchi alohida xo'jalik yurituvchi subyektlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlar, aloqalar shakli hisoblanadi. Har doim ham bozor iqtisodiyoti sharoitida erkin bozor bo'lmay, balki raqobatli bozor o'z faoliytini ko'rsatadi. Uning faoliyat ko'rsatishi uchun dastavval mulkchilikning xilma-xil shakllarini (xususiy, kooperativ, aksiyadorlik, davlat va boshqalarni) ro'yobga chiqarishini va bozor infrastrukturasini vujudga keltirishini talab etadi.

6-topshiriq. "Narx" so'ziga sinkveyn tuzing va umumlashtiruvchi xulosa chiqaring.

"Sinkveyn" (5 qator) texnikasi

1-qator – 1 so'zdan iborat tushuncha - ot
2-qator –2 so'zdan iborat sifat
3-qator –3 so'zdan iborat fe'l
4-qator –4 so'zdan iborat munosabat
5-qator –1 so'zdan iborat sinonim

7-topshiriq. "Iqtisodiyotimiz ravnaqi" mavzusida 200 ta so'zdan iborat matn tuzing.

8-topshiriq. **"Zanjir o'yini".** Ikki guruhga bo'lining. Iqtisodiyotga oid atamalardan foydalanib, tez aytish bo'yicha so'z zanjiri tuzing. Bunda so'zning oxiridagi tovushga qarab 2-guruh shu tovushdan boshlanuvchi so'z aytadi.

I guruh **II guruh**
divident tovar
rentabillik kredit

terminal likvidlik
kapital limit
to'lov balansi inflyatsiya

9-topshiriq. Quyidagi atamalar asosida ilmiy uslubga xos matn tuzing. Ilmiy uslubning o'ziga xos xususiyatlarini tushuntiring.

Aksiya, limit, inflyatsiya, audit, sug'urta, soliq, sof foyda, buxgalteriya, kredit, balans, avans, valyuta, auditor, bank, sarmoya, bankrot, bank hisobvarag'i, byudjet, valyuta bozori, moliya.

Pul nima?

Pul – bu maxsus tovar, u hamma boshqa tovarlar uchun umumiy ekvivalent vazifasini bajaradi. Hamma tovarlar singari pul ham, qiymat ham iste'mol qiymatiga ega. Shu ma'noda u boshqa oddiy tovarlardan farq qilmaydi.

Pul shunday kuch kasb etadiki, umumiy ijtimoiy qiymatga ega bo'lgan hamma tovarlarni xarid qilish vositasi sifatida xizmat qiladi. Pul tovar ishlab chiqarish va ayirboshlash jarayonida iste'molchilar o'rtasidagi ijtimoiy munosabatlarni ifoda etadi. Shu sababli tovar – pul munosabatlari paydo bo'ladi. Mohiyatan pul uchun ijtimoiy mehnat qaysi sohada sarflanganligi va qiymat qayerda yaratilganligi farqsizdir. Kimning puli bo'lsa u ijtimoiy mehnatning tegishli qismini o'zi istagan natural (tovar) shaklida olish huquqiga ega bo'ladi. Pulning hamma narsadan qudratli ekanligi ham shundan kelib chiqadi.

Umuman pul o'z taraqqiyotida 4 bosqich va 4 shaklga ega bo'lgan:

Tovar shaklida "qo'yma" miloddan avvalgi VII asrgacha
Tanga pullar – "tanga" miloddan avvalgi VII-XIX asrlar
Qog'oz pullar – "banknot" XIX-XX asrlar
Elektron pullar – "kartochka" XX - asr o'rtalaridan.

10-topshiriq:
a)matnni o'qing;


b) matn yuzasidan savollar tuzing va yozma javob bering;

d) pul so'zining sinonimlarini toping;

e) pul haqida yana qo'shimcha ma'lumot to'plang va so'zlab bering.

11-topshiriq. Lug'atdan foydalanib mutaxassisligingizga oid kichik atamalar lug'atini tuzing. Ularning ma'nosini puxta o'zlashtiring.

12-topshiriq. Jadvalni to'ldiring. Pulning xususiyatlarini ***klaster*** yordamida yoritib bering.



13-topshiriq. O'qing. Atamalarni aniqlab qaysi sohaga oidligini ayting.

Valyuta, depozit, byudjet, lizing, marketing, menejment, kredit, kelishik, kesim, huquq, prezident, istiqlol, affiks, duet, final, ring, sinonim, dialekt, tilshunoslik, adabiyot, bank, sug'urta.

14-topshiriq. Mamlakat iqtisodiyotida yuz bergan yangiliklar haqida xabar tayyorlang.

E'tibor bering!

Товар. Bu so'z jonli va jonsiz mol ma'nosida o'zbek va boshqa turkiy tillarda qadimdan ishlatilgan. Mahmud Qoshg'ariyning "Devoni lug'atit-turk" (XI asr) asarida keltirilishicha, tovar o'g'uz lahjasida ishlatilgan va tovar shaklida bo'lgan.

Turk va ozarbayjon tillarida dovar shaklida yuritiladigan bu "tovar" so'zi rus tiliga XII-XIII asrlarda o'zlashgan.

Товарищ. Rus tilidagi bu so'z asli turkiy "tovar" (mol-merek va ish, turkiycha "o'rtoq", "yaqin", "hamkor") so'zidan tashkil topgan va dastlab "savdo qiluvchi o'rtoq, savdodagi hamkor" ma'nolarini bildirgan. U XIV asrdan ishlatila boshlandi, keyinchalik ma'nosi kengaydi. "Товарищ" so'zi hamkor, hamdam ma'nolarida ham ishlatila boshlandi.

15-topshiriq. Iqtisodiyotga oid qiziqarli ma'lumotlar to'plang.

16-topshiriq. Matnni rus tiliga tarjima qiling.

Iqtisodiyotni nimaga o'rganish kerak?

Zamonaviy odamga iqtisodiy bilimlarsiz yashash qiyin. Ovqat, shart-sharoit, kiyim, bo'sh vaqtni o'tkazish bu - hammasi iqtisodiy kuch bilan aniqlanadi. Iqtisodni o'rganish - bu hayotni yaxshiroq tushunishga va to'laqonli hayot kechirishga imkon beradi. Iqtisodiy kuchlar biznes olamida qabul qilinadigan qarorlarga ta'sir qiladi. Iqtisodning keng tarqalgan belgilaridan biri bu - odamlar turmush talablarini qanday qondirishlari to'g'risidagi bilimdan iborat.

Zamonaviy iqtisodiyot faniga XVII asrda asos solingan. O'sha davrdan buyon iqtisodchilar tomonidan iqtisodiy resurslardan to'g'ri foydalanish, ularni o'rganish va tushuntirish usullari ishlab chiqilmoqda.

17-topshiriq. Matnni o'zbek tiliga tarjima qiling. Sitatalarga o'z munosabatingizni bildiring.

Цитаты известных предпринимателей, раскрывающие истинный смысл предпринимательства

1. "Предприниматель – это человек, у которого есть видение, и который хочет творить" – **Дэвид Карп**, основатель и генеральный директор Tumblr.

2. "Предпринимательство – это не наука и не искусство. Это практика" – **Питер Друкер**, один из самых влиятельных теоретиков менеджмента XX века.

3. "Предприниматель всегда ищет изменения, реагирует на них и использует их как возможность" – **Питер Друкер**, один из самых влиятельных теоретиков менеджмента XX века.

4. "Не переживайте из-за финансирования, если вы в нём не нуждаетесь. Сегодня начать бизнес дешевле, чем когда-либо" – **Ноа Эверетт**, основатель Twitpic.

5. "Существует множество плохих причин, чтобы открыть компанию. Но есть только одна хорошая, правильная причина, и я думаю, что вы знаете, что эта причина – изменить мир" – **Фил Либин**, генеральный директор Evernote.

6. "Предпринимательство, в особенности, если вы основатель, является призванием, а не работой. Это самый главный совет, который я мог бы дать любому предпринимателю. Проблема сегодня в том, что предпринимательство – это круто и модно. Предпринимательство для сумасшедших людей, таких как художники. Нельзя стать скульптором, художником или писателем. Это то, от чего вы не можете избавиться. Это внутри вас" – **Стив Бланк**, известный американский предприниматель, "крестный отец" Кремниевой долины.

7. "В бейсболе, как и в бизнесе, есть три типа людей: те, кто творят происходящее, те, кто смотрят на происходящее и те, кто удивляются, что это вообще происходит" – **Томми Ласорда**, один из лучших тренеров по бейсболу.

8. "Настоящий предприниматель – исполнитель, не мечтатель" – **Нолан Бушнелл**, американский предприниматель,

"отец" индустрии видеоигр, основатель компаний Atari Inc и Chuck E. Cheese's.

9. "Каждый из нас предприниматель. Единственные навыки, которые вам необходимы, чтобы стать предпринимателем: способность терпеть неудачи, способность генерировать идеи, умение продать эти идеи, способность реализовать эти идеи и способность быть настойчивым, чтобы несмотря на свои ошибки, учиться и двигаться дальше к следующему приключению" – **Джеймс Алтачер**, американский инвестор.

10."Не введитесь на 20-часовой день у предпринимателей. Это миф. Вы должны спать 8 часов в день, чтобы иметь сконцентрированный ум" – **Джеймс Алтачер**, американский инвестор.

11."Если вы хотите быть предпринимателем, то знайте, что это не работа, это образ жизни. Оно определяет вас. Забудьте об отпуске, о возвращении домой в 6 часов вечера. Последнее, что вы будете делать ночью – отправлять письма. А утром первым делом будете читать полученные за ночь письма, и вы будете просыпаться посреди ночи. Но это оправдывает себя, так как вы делаете что-то для себя" – **Никлас Зеннстрём**, шведский предприниматель, основатель и разработчик Skype.

12."Будучи предпринимателем, вы любите свой бизнес, как ребенок, и вас научили отдавать все силы на бизнес" – **Даймонд Джон**, американский предприниматель, инвестор и телеведущий.

13."Быть предпринимателем – это образ мышления. Вы должны всё время видеть в вещах возможности. Мне нравится брать интервью. Мне нравится копаться в историях, где не обязательно есть правильные или неправильные ответы" – **Соледад О'Брайен**, американская журналистка и телеведущая.

14."Предприниматель стремится откусить немного больше, чем он может прожевать, надеясь, что он быстро научится жевать" – **Рой Эш**, соучредитель Litton Industries.

15."Как предприниматель вы должны чувствовать, что можете выпрыгнуть из самолета, потому что уверены, что схватите птицу на лету" – **Рид Хастингс**, исполнительный директор Netflix

16."Что делают предприниматели? Первое – они видят проблему. Большинство людей не хотят видеть проблемы... Как только вы увидите проблему, вы найдете ответ" – **Билл Дрейтон,** социальный предприниматель, основатель и председатель некоммерческого фонда "Ашока: Инновации для общества".

17."Предприниматель – это не должность. Это состояние ума людей, которые хотят изменить будущее" – **Гай Кавасаки**, управляющий директор компании "Garage technology ventures", один из первых работников компании Apple Computer.

18."Для успеха в бизнесе нужны обучение, дисциплина и упорная работа. Но если это вас не пугает, возможности сегодня гораздо больше, чем когда-либо" – **Дэвид Рокфеллер**, американский финансист.

19."Быть предпринимателем... это не о превращении лимонов в лимонад. Это о превращении лимонада в вертолеты" – **Тина Силиг**, специалист по инновационному предпринимательству, профессор Стэнфордского университета.

20."Управление стартапом – это как есть стекло. Вам просто начинает нравиться вкус собственной крови" – **Шон Паркер**, американский предприниматель, основатель Napster, первый президент Facebook.

36-MAVZU. ISH YURITISH TILI VA USLUBI

1-topshiriq. Matnni o'qib, ajratilgan so'zlarning ma'nosini izohlang va shu so'zlar ishtirokida matn mazmuniga bog'liq gaplar tuzing.

Rasmiy-idoraviy uslub

Davlat idoralari tomonidan chiqariladigan **qarorlar, qonunlar, nizomlar,** xalqaro **hujjatlar rasmiy-idoraviy uslub**da yoziladi. Bunday uslubdagi hujjatlar qisqa, aniq, barcha uchun tushunarli qilib tuziladi. Bu uslubda jumlalar bir qolipda, bir xil shaklda bo'ladi. So'zlar o'z ma'nosida qo'llanadi, ko'pchilikka ma'lum bo'lgan ayrim qisqartma so'zlar ishlatiladi, har bir sohaning o'ziga xos terminlardan foydalaniladi. Rasmiy-idoraviy uslubda ko'pchincha darak gaplardan, qaror, **buyruq, ko'rsatma** kabilarda esa buyruq gaplardan foydalaniladi. Bu uslubda gap bo'laklarining odatdagi tartibda bo'lishiga rioya qilinadi.

Hujjat – rasmiy uslubda yozilgan, imzolangan, kelishuv va rozilik belgilari olingan, davlat standart talablariga javob beradigan qog'ozlardir. Hujjat matni aniqlik, ixchamlik, lo'ndalik, mazmuniy to'liqlik kabi talablarga javob berishi kerak. Hujjatlar matniga qo'yiladigan eng muhim talablardan yana biri – xolislik. Bu talablarga javob bermaydigan hujjat chinakam hujjat bo'la olmaydi, bunday hujjat ish yuritish jarayoniga xalaqit beradi, uning samaradorligini keskin pasaytiradi.

2-topshiriq. Ma'lumotni o'qing va konspektlashtiring.

Hujjatchilik tilining o'ziga xos uslubi, mazmuniy to'liqlikdan iborat zaruriy sifatlar, o'ziga xos so'z qo'llash, morfologik va

sintaktik xususiyatlar orqali ta'min etiladi. Hujjatlar o'ziga xos uslubga ega. Hujjatda ot va fe'lga tegishli so'zlar ko'proq qo'llaniladi. Sintaktik xususiyatidan kelib chiqib asosan, darak va buyruq gaplar ishlatiladi. Hujjatlar tilida turg'unlashgan, qoliplashgan so'z birikmalaridan ko'proq foydalaniladi. Masalan, buyruqda quyidagicha qoliplashgan tuzilmalar qo'llanishi mumkin:

1) ". . . so'm maosh bilan . . . lavozimiga tayinlansin";

2) ". . . o'z xohishiga ko'ra . . . lavozimidan bo'shatilsin";

3) ". . . boshqa ishga o'tganligi munosabati bilan . . . lavozimidan bo'shatilsin";

4) ". . . ga . . . dagi faol va samarali ishtiroki uchun tashakkur e'lon qilinsin";

5) ". . . ga o'z bo'limida intizomni bo'shashtirib yuborganligi uchun hayfsan e'lon qilinsin" va h.k.

Yoki xizmat yozishmalarida mana bunday qoliplashgan so'zlardan foydalanish mumkin:.

1) "Sizga . . .ni ma'lum qilamiz"; "Sizga . . .ni bildiramiz"; "Sizga . . .ni eslatamiz";

2) ". . . yordam tariqasida . . .", ". . . munosabat bilan . . . ", ". . . qaroriga muvofiq ravishda . . ."

3) ". . . ga zavod ma'muriyati qarshi emas"; ". . . ga zavod kafolat beradi" va h.k.

Hujjat (arabcha "guvohnoma, isbot, dalil") – axborot qayd etilgan hamda uni vaqt va makonda ishlatish imkonini beruvchi moddiy obyekt.

O'zbekiston Respublikasining "Normativ-huquqiy hujjatlar to'g'risida" gi qonuniga muvofiq qabul qilingan, umum majburiy davlat ko'rsatmalari sifatida huquqiy normalarni belgilashga, o'zgartirishga qaratilgan rasmiy hujjatlar normativ-huquqy hujjatlar deyiladi. Ushbu Qonunda normativ-huquqiy hujjatlarning quyidagi turlari belgilangan:

O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi;

O‘zbekiston Respublikasi qonunlari;

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining qarorlari va farmoyishlari;

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari.

Hujjatlarni to‘g‘ri va bexato yozish savodxonlik hamda yozma nutq madaniyati ko‘rsatkichidir. Bu xislatlar mutaxassisning ish yuritish faoliyatida juda muhim sanaladi, chunki har qanday tashkilotda hujjatlar aylaninshi mavjud.

Hujjat aylanishi - hujjatlarning muassasada ularning yaratilishi yoki qabul qilinishidan boshlab ijrosi yakunlangunga qadar harakatlaninshi demakdir.

Hujjatlarning qayta ishlanishi va harakatlanish jarayoni quyidagi bosqichlardan iborat:

❖ tashkilotga kelib tushadigan hujjatlarni qabul qilib, ularni dastlabki ko‘zdan kechirish va ro‘yxatga olish;

❖ hujjat ijrochisini aniqlash va ko‘rsatish, hujjat mazmuni va u bilan ishlash bosqichlarini belgilash;

❖ hujjatni o‘z muddatida ijro qilish, javob xatlarini tuzish va rasmiylashtirish;

❖ hujjat ijrosini nazorat qilish;

❖ hujjat ijrosi yakunlangach, uni hujjatlar yig‘majildiga tikish.

Ushbu bosqichlarning har biri an’anaviy tarzda, shuningdek, elektron tarzda ham bajarilishi mumkin.

Elektron hujjatlar - elektron shaklda qayd etilgan, elektron raqamli imzo bilan tasdiqlangan va identifikatsiya qilish imkoniyatini beradigan boshqa rekvizitlarga ega bo‘lgan axborot.

“Elektron hujjat aylanishi to‘g‘risida”gi qonuniga ko‘ra elektron hujjat qog‘oz hujjatga tenglashtirilgan va u bilan teng huquqiy kuchga ega.

Elektron hujjat aylanish tizimi “Elektron hukumat”ning asosiy elementlaridan biri hisoblanadi. Chunki ushbu tizimning muvaffaqiyatli yo‘lga qo‘yilishi nafaqat davlat hukumati va boshqaruvi organlari, xususiy sektor va aholi o‘rtasidagi samarali hamkorlikni

ta'minlaydi, balki mamlakatda axborot jamiyatini shakllantirishga yordam beradi.

Tashkilot muassasa va korxonalarda hujjat aylanishi jarayonini quyidagilar tashkil etadi:

❖ kirish hujjatlari - tashkilotga kelib tushadigan hujjatlar, jumladan, yuqori tashkilotlarning farmoyish hujjatlari, turli vazirlik va mahkamalarning xatlari, yiridik va jismoniy shaxslarning arizalari;

❖ ichki hujjatlar – tashkilotda tuzilgan hujjatlar: bildirgi, ma'lumotnoma, hisobot, bayyonnoma va sh. k.;

❖ chiqish hujjatlari – boshqa tashkilotlarga jo'natiladigan hujjatlar (so'rov xatlariga javoblar, ma'lumotnomalar, tashabbus xatlari va b.)

3-topshiriq. Qolipli birikmalarda tushirib qoldirilgan so'zlarni o'rniga qo'yib ko'chiring.

1. ... so'm maosh bilan ... lavozimiga tayinlansin.
2. ... o'z xohishiga ko'ra ... lavozimidan bo'shatilsin.
3. Sizga ...ni ma'lum qilamiz; Sizga ...ni bildiramiz; Sizga ...ni eslatamiz.
4. ...boshqa ishga o'tganligi munosabati bilan ... lavozimidan bo'shatilsin.
5. ... ga... dagi faol va samarali ishtiroki uchun tashakkur e'lon qilinsin.
6. ... ga zavod ma'muriyati qarshi emas"; "... ga zavod kafolat beradi.
7. ... ga o'z bo'limida intizomni bo'shashtirib yuborganligi uchun hayfsan e'lon qilinsin.
8. ... yordam tariqasida ..., ... munosabat bilan ... , ...qaroriga muvofiq ravishda... .

4-topshiriq. Berilgan so'z va so'z birikmalari ishtirokida rasmiy uslubda gaplar tuzing.

O‘qishga kirmoq, vazifasidan ozod etilmoq, belgilangan jadvalga muvofiq, zimmasiga yuklamoq, harorat pasayishi oqibatida, ruxsat bermoq, tashrif buyurmoq, qonunga binoan, ilova qilmoq, javob yozmoq, moliya bo‘limi, taklif kiritmoq, tavsiya qilmoq, hurmatli, eshitmoq.

5-topshiriq. Quyida berilgan jumlalardan foydalanib rasmiy so‘zlashuv uslubiga xos dialog tuzing.

Ilova: labbay, eshitaman, hechqisi yo‘q, uzr, o‘zingizni tanishtiring.

6-topshiriq. O‘zbek tiliga tarjima qiling va bog‘lanishli matn tuzing.

Внес предложение, утвердил, возложить на инспектора Валиева, объявить выговор, выступить на заседании Ученого совета, рассмотреть состав комиссии, установить контроль за исполнением.

Прошу выделить путевку в санаторий-профилактический университета. Прилагается больничный лист за №170632. Прошу выдать новый студенческий билет. Прошу соответствующие меры.

7-topshiriq. “Hujjatlar tarixi” mavzusida esse yozing.

8- topshiriq. Ish yuritish terminlarining lug‘atini tuzing.

37-MAVZU. HUJJAT TURLARI VA XUSUSIYATLARI

1-topshiriq. Ma'lumotni o'qing va konspektlashtiring.

Hujjatshunoslikda hujjatlar bir necha jihatlarga ko'ra tasnif qilinadi. 1.Tuzilish o'rniga ko'ra: ichki va tashqi hujjatlar farqlanadi:

Ichki hujjat – muassasa yoki korxonani o'zida tuziladigan va shu korxona ichida foydalaniladigan hujjatlardir. Bularga xodimning shaxsiy varaqasi, majlis bayonnomasi, ichki buyruq va boshqalar kiradi.

Tashqi hujjat – korxonaga, boshqa tashkilot va ayrim shaxslardan keladigan hujjatlardir. Bularga taklifnoma, ishonchnoma, yo'riqnoma, kafolat xati, tavsiyanoma va boshqalar kiradi.

2. Mazmuniga ko'ra sodda va murakkab hujjatlar farqlanadi:

Sodda hujjat – bir masalani o'z ichiga oladigan hujjatdir. Bularga ariza, e'lon, tilxat, kafolat xati va boshqalar kiradi.

Murakkab hujjat – bir necha masalani o'z ichiga olgan hujjatdir. Bularga shartnomalar, ma'lumotnoma, rejalashtirilgan hisobot hujjatlari va boshqalar kiradi.

3. Mazmun bayonining shakli jihatidan xususiy, namunaviy, qolipli hujjatlar farqlanadi.

Xususiy hujjatlar – tashkilotlarda matnning o'ziga xosligi, betakrorligi, mazmun bayoni erkin bo'ladigan hujjatlardir. Bularga *xizmat, so'rov, iltimos, javob, kafolat, axborot xatlari* va boshqalar kiradi.

Namunaviy hujjatlar – boshqaruvning muayyan bir vaziyatlari bilan bog'liq, bir-biriga o'xshash va ko'p takrorlanadigan masalalar yuzasidan tuzilgan matnlarni o'z ichiga oladigan hujjatlardir. Bularga *tavsiyanoma, ariza, e'lon, taklifnoma* va boshqalar kiradi.

Qolipli hujjatlar – odatda, oldindan tayyorlangan bosma ish qog'ozlariga yoziladigan hujjatlardir. Bu tur hujjatlarga nisbatan ko'pincha "yozmoq" emas, balki "to'ldirmoq" so'zi ishlatiladi.


Bularga *ish haqi yoki yashash joyi haqidagi ma'lumotnomalar, mehnatga layoqatsizlik varaqasi, ayrim dalolatnomalar, xizmat safari guvohnomalari* va boshqalar kiradi.

4. Tegishlilik jihatiga ko'ra xizmat (rasmiy) va shaxsiy hujjatlar farqlanadi:

Xizmat (rasmiy) hujjatlari – tayyorlanishiga ko'ra tashkilot yoki mansabdor shaxslarga tegishli hujjatlardir. Bularga *ishga qabul qilish buyruqlari* va boshqalar kiradi.

Shaxsiy hujjat – yakka shaxs tomonidan yoziladigan, ularning xizmat faoliyatlaridan tashqaridagi yoki jamoat ishlarini bajarish bilan bog'liq masalalarga tegishli bo'ladigan hujjatlardir. Bularga *shaxsiy ariza, shikoyat* va boshqalar kiradi.

Shuningdek, xizmat mavqeiga ko'ra hujjatlar bir necha turga bo'linadi:



Hujjatlarning tayyorlanish xususiyati va darajasi ham benihoya katta. Hujjatning birinchi yoki yagona nusxasi asl (rasmiy) nusxa deyiladi. Uning aynan qayta ko'chirilgan shakli nusxa deb yuritiladi. Hujjatning bir qismiga ehtiyoj tug'ilsa, undan ko'chirma olinadi (masalan, bayyonmadan ko'chirma buyrug'dan ko'chirma).

2-topshiriq. Quyida berilgan nutq qoliplari hujjat guruhlarining qaysi turlarida qo'llanishini ayting.

... ga ruxsat berishingizni so'rayman.

... shuni ma'lum qilamizki...

Buyruq ijrosini nazorat qilish ...zimmasiga yuklatilsin.

Fursatdan foydalanib, yana bir bor ... muborakbod etamiz

hurmat va ehtirom bilan
... ga tavsiya etiladi
... yilda ...ni tamomladim
ma'lumotnoma ilova qilinadi

3-topshiriq. Hujjat turlari bo'yicha krossvord tuzing.

Tashkiliy-farmoyish hujjatlari zaruriy qismlarining to'liq, ro'yxati quyidagicha:
1. O'zbekiston Respublikasining gerbi.
2. Tashkilot yoki korxonaning ramziy belgisi (emblemasi).
3. Mukofot tasviri.
4. Vazirlik yoki yuqori idoraning nomi.
5. Muassasa, tashkilot yoki korxonaning nomi.
6. Tarkibiy tarmoqning nomi.
7. Aloqa muassasasining shartli raqami (indeksi), tashkilot yoki korxona manzili, telefon raqami, faks raqami, bankdagi hisob-kitob raqami.
8. Matn sarlavhasi.
9. Sana.
10. Shartli raqam.
11. Keladigan hujjatlarning sanasi va shartli raqamiga havola.
12. Tuzilgan yoki nashr qilingan joyi.
13. Hujjatni oluvchi (adresat).
14. Tasdiqlash ustxati.
15. Munosabat belgisi (rezolyutsiya).
16. Hujjat turining nomi.
17. Nazorat haqida qayd.
18. Matn.
19. Ilova mavjudligi haqidagi qayd.
20. Imzo.
21. Kelishuv ustxati.
22. Rozilik belgisi (viza).
23. Muhr.

24. Nusxaning tasdiqlanishi haqidagi qayd.
25. Ijrochining familiyasi va telefon raqami.
26. Hujjatning bajarilganligi va uni hujjatlar yig'ma jildiga yo'naltirilganligi haqidagi qayd.
27. Axborot mashinaga ko'chirilganligi haqidagi qayd.
28. Hujjat kelib tushganligi haqida qayd.

Mazkur 29 ta zaruriy qismning o'ntasi nisbatan ko'p qo'llanadi, shuning uchun ular asosiy zaruriy qismlar deb ham yuritiladi: hujjat muallifi (muassasa nomi yoki shaxsiy hujjatda imzo qo'yuvchi shaxs), hujjat turining nomi, sarlavha, hujjatni oluvchi (adresat), kelishuv va rozilik belgilari, matn, tasdiqlash, imzo, muhr, ilova mavjudligi haqidagi qayd.

4-topshiriq. "Tushunchalar tahlili metodi". Berilgan tushunchalarni mosi bilan joylashtiring.

Hujjat tayyorlashning asosiy qoidalari

Tushuncha	Tushuncha izohi
Rekvizit	Qonun yoki boshqa normativ hujjatlarni tushuntirish maqsadida tuziladigaan huquqiy hujjat bo'lib, davlat organlari tomonidan chiqariladi
Viza (rozilik belgisi)	Tashkilotlarda matnning o'ziga xosligi, betakrorligi, mazmun bayoni erkin bo'ladigan hujjatlardir
Murakkab hujjatlar	Xodimning shaxsi va lavozimini tasdiqlaydi.
Xususiy hujjatlar	Tashkilotning tuzilishi, huquqlari, vazifalari, burchlari ishni tashkil qilishlari tartibotini belgilaydigan huquqiy hujjat

Qolipli hujjatlar	Ikki yoki undan ortiq masala aks ettiriladi
Guvohnoma	Tomonlarning fuqarolik burchlari va majburiyatlarini belgilaydi
Bildirishnoma	Mansabdor shaxsga biron-bir voqea va hodisa haqida xabardor qilish zarurati tug'ilganda taqdim etiladigan yozma axborot
Shartnoma	Amal qilish muddati tugaganda almashtiriladi
Guvohnoma	Odatda, oldindan tayyorlangan bosma ish qog'ozlariga yoziladigan hujjatlardir
Yo'riqnoma	Hujjatlarning asosiy zaruriy qismlari
Nizom	Mansabdor shaxsning muayyan hujjatdagi fikrga (iltimos yoki talabga) roziligini anglatadi

1.Hujjatlarning aksariyati A4 formatdagi qog'ozda tayyorlanadi, umumiy tarzda qabul qilingan shaklda va ma'lum tartibda tuziladi.

2.Hujjatlarning yaxlit va usluksiz matni uni tushunishni qiyinlashtiradi, shuning uchun matnni mazmun jihatdan abzats (xatboshi)larga bo'lish maqsadga muvofiq.

3.Hujjatlarda o'chirish yoki tuzatishga yo'l qo'yilmaydi.

4.Ish qog'ozlarining har bir turi umum qabul qilingan shaklda va muayyan izchillikda tuziladi.

5.Ish qog'ozlarida biror shaxsga murojaat etilganda "Siz" olmoshi (shuningdek, uning turlangan shakllari - "Sizga", "Sizning", "Sizdan" va sh.k) bosh harf bilan yoziladi.

6.Son, odatda, raqam bilan yoziladi. Pul hujjatlari (dalolatnoma, ishonchnoma, tilxat)da raqamdan so'ng qavs ichida shu raqamning so'zdagi ifodasi ko'rsatiladi.


7.Arab raqamlari bilan ifodalangan tartib sonlardan so‘ng qo‘shimcha yozilmay, uning o‘rniga defis (-) qo‘yiladi: 3-chorak, 4-kurs. Rim raqamidan so‘ng hech qanday qo‘shimcha yozilmaydi: I chorak, II kurs.

8.Turli belgi va son ifodalari bir xil shaklda yoziladi. Masalan №, §, %, (telegrammalarda bular so‘z bilan – raqamli, band, foiz kabi ifodalanadi.)

9.Ish qog‘ozlarda ularning imzolanishiga rioya etiladi: avval hujjatga imzo chekadigan mansabdor shaxs lavozimining nomi, so‘ng shaxsiy imzosi va familiyasi ko‘rsatiladi. Tavsifnoma, dalolatnoma kabi hujjatlarda, odatda, 3-shaxs imzo chekadi. Ishonchnomada uni beruvchi shaxs imzosidan tashqari ushbu imzoni tasdiqlovchi shaxs imzosi ham bo‘ladi.

10.Hujjatlarda sanalar arab raqami bilan yoziladi. Bunda ruscha shaklda – 15.11.04; 02.08.04 tarzda emas, balki quyidagi o‘zbekcha gap tuzilishidan kelib chiqqan shaklda berish kerak: 1991.04.09; 2004.04.09. Bunda dastlabki to‘rt raqam yilni, keyingilari kun va oyni bildiradi.

5-topshiriq. Hujjatlarning mavjud turlarini klaster shaklida ifodalang.



6-topshiriq. Matnni o'qing va sarlavha toping. Matn bo'yicha reja tuzing. Reja asosida matn mazmunini so'zlab bering.

O'zbekiston Respublikasi "Fuqarolik Kodeksi"ning 134-moddasida ishonchnomaga quyidagicha ta'rif berilgan: "Bir shaxs (ishonch bildiruvchi) tomonidan ikkinchi shaxs (ishonchli vakil)ga uchinchi shaxslar oldida vakillik qilish uchun berilgan yozma vakolat ishonchnoma hisoblanadi. Ishonchli vakil o'ziga ishonchnoma bilan berilgan vakolatlar doirasida ish olib boradi".

Muayyan ish-harakatni bajarishga vakolat berish kim tomonidan (muassasa tomonidanmi yoki ayrim shaxs tomonidanmi) rasmiylashtirilishiga qarab, ishonchnomalar rasmiy (xizmat) va shaxsiy turlarga bo'linadi.

Rasmiy (xizmat sohasidagi) ishonchnomalar davlat muassasalari, kasaba uyushmasi, jamoa xo'jaligi, jamoat tashkilotlari muayyan lavozimli shaxsga uning muayyan tashkilot tomonidan ish yuritishga vakil qilinganini bildirish uchun beriladi. Bunday ishonchnomalar muassasa rahbari tomonidan imzolanishi va muhr bilan tasdiqlanishi kerak. Ayrim hollarda ishonchnoma qonun talabiga ko'ra notarial tasdiqdan o'tishi zarur bo'ladi.

38-MAVZU. TASHKILIY HUJJATLAR VA ULARNING TURLARI

1-topshiriq. Ma'lumotni o'qing va konspektlashtiring.

Har qanday tashkilotning faoliyati hujjatlarning turli ko'rinishlarida o'z aksini topadi. Tashkiliy hujjatlar o'zaro bog'liq hujjatlar bo'lib, quyidagilarni qat'iy belgilab beradi.

- tashkilot, muassasa va korxonalarning tuzilishi va vazifalari;
- ularning ish faoliyatini qanday tashkil qilish;
- ularning rahbariyati hamda xodimlarining huquqlari, majburiyatlari va javobgarligi.

Tashkiliy hujjatlarda, shuningdek, boshqa tashkilotlar bilan aloqalarning huquqiy tomonlari kabi masalalarni aks ettiradi. Tashkiliy hujjatlar turlariga nizom, ustav, yo'riqnoma, shartnomalar, xizmat guvohnomasi, xizmat safari guvohnomasi, mehnat tartiboti qoidalari ana shunday hujjatlar turiga kiradi.

Ikki yoki undan ortiq tomonning fuqarolik huquqlari va majburiyatlarini belgilash, o'zgartirish yoki to'xtatish yo'lidagi kelishuv shartnoma deyiladi.

Shartnoma fuqarolik huquqiy bitimlarning turlaridan biri hisoblanadi. Uning farq qiluvchi xususiyati shundaki, u ikki yoki ko'p tomonlama bitimdan iborat bo'ladi.

Shartnoma davlat, kooperativ va jamoat tashkilotlari, korxonalar, muassasalar, shuningdek, fuqarolar o'rtasida tuzilishi mumkin.

Mazmuniga ko'ra shartnomalar ko'plab turlarga bo'linadi: yetkazib berish haqida, moddiy javobgarlik haqida, ijara shartnomalari, oldi-sotdi, hadya qilish shartnomalari va boshqalar.

2-topshiriq. Shartnomaning zaruriy qismlaridan foydalanib oldi-sotdi shartnomasini yozing.

3-topshiriq. Matnni o'qing va rus tiliga tarjima qiling.

Shartnoma munosabatlari muassasa bilan ayrim shaxs yoki shaxslar o'rtasida o'rnatilayotgan bo'lsa, bunda tuzilajak hujjat mehnat bitimi deb ataladi.

Shartnomalar o'z mazmuniga ko'ra juda xilma xil ko'rinishga ega:

Shartnomalar yozma, og'zaki ko'rinishda bo'lib, notarial idoralar tomonidan tasdiqlanishi lozim.

Shartnomalar korxonalarga tegishli bo'lganida tomonlar imzolagunga qadar korxona hisobchisi yoki adliya maslahatchilarining rozilik belgisi bo'lishi lozim. Shundan so'ng tomonlar shartnomaga imzo qo'yadi. Shartnomalar 2 nusxadan kam tuzilmasligi lozim.

Pul mablag'lari va moddiy-tovar boyliklarini saqlash uchun mas'ul bo'lgan shaxslar bilan to'liq shaxsiy moddiy javobgarlik haqida yozma shartnoma tuziladi.

4-topshiriq. "Ish yuritish" kitobidan shartnoma turlari haqidagi materiallar bilan tanishing. Mehnat shartnomasini tayyorlang.

Guvohnoma

Guvohnoma xodim shaxsi, ish joyi va lavozimini, talabaning shaxsini va o'qish joyini tasdiqlovchi hujjat bo'lib, ishga yoki o'qishga qabul qilish to'g'risidagi buyruq asosida kadrlar tomonidan beriladi.

Guvohnomaning asosiy zaruriy qismlari quyidagilar:

- hujjat nomi;
- O'zbekiston Respulikasining gerbi;
- guvohnoma beruvchi tashkilot nomi;
- xodim (talaba)ning surati;
- muhr (bir qismi suratga ham bosilishi kerak);
- hujjatning amal qilish muddati;

- guvohnoma seriyasi va raqami;
- guvohnoma berilgan shaxsning familiyasi, ismi, otasining ismi;
- lavozimi;
- tashkilot rahbarining imzosi;
- berilgan vaqti.

5-topshiriq. Quyidagi so‘z va so‘z birikmalarini o‘zbek tiliga tarjima qiling. Ular ishtirokida gaplar tuzing.

Выдать удостоверение, ответственность за хранение, предъявить документ, утеря личного удостоверения, реквизиты удостоверения, подпись руководителя.

Nizom

Nizom tashkilot yoki uning tarkibiy bo‘linmalari tuzilishi huquqlari, vazifalari, burchlari ishni tashkil qilishlari tartibotini belgilaydigan huquqiy hujjat. Shu bilan birga, nizom tashkilot yoki muassasaning huquqiy maqomini, uning boshqa organlar, tashkilot va muassasalar hamda fuqarolar bilan munosabatlarni belgilaydi. Nizom muassasa tashkil topishi paytida tuziladi va yuqori tashkilot buyrug‘i bilan tasdiqlanadi.

Nizomning asosiy zaruriy qismlari quyidagilar:

1. Tasdiqlash ustxati;
2. Muassasa (tarkibiy qism) nomi;
3. Hujjat nomi (Nizom);
4. Hujjat matni:
   - muassasaning maqsad va vazifalari;
   - muassasa tuzilishi;
   - muassasa huquqlari;
   - muassasada ishni tashkil qilish tartiboti.
5. Sana va joy.

6-topshiriq. Mehnat shartnomasi matnini tuzing. Mehnat shartnomasidagi tayanch so'zlarni ajratib yozing.

Yo'riqnoma

Yo'riqnoma qonun yoki boshqa normativ hujjatlarni tushuntirish maqsadida tuziladigan huquqiy hujjat bo'lib, davlat organlari tomonidan chiqariladi.

Yo'riqnomaning zaruriy qismlari quyidagilardan iborat:

1. Tasdiqlash ustxati;
2. Yo'riqnoma berilgan vaqt (sana) va uning tartib raqami, shartli raqami (indeksi);
3. Hujjat nomi
4. Hujjat matni:
- kirish qismi;
- bo'limlar va kichik bo'limlar;
- yakuniy qism
- yo'riqnoma tuzuvchining lavozimi, ismi, familiyasi, imzosi.

7-topshiriq. Oliy ta'lim muassasasi Nizomining tuzilishini yozing.

8-topshiriq. Tashkiliy hujjatlar bo'yicha domino shakllantiring.

39-MAVZU. FARMOYISH HUJJATLARI VA ULARNING TURLARI

1-topshiriq. Matnni o'qing va eslab qoling.

Farmoyish hujjatlarida vazirlik, idora, tashkilot faoliyatiga oid ma'muriy va tashkiliy masalalarning yechilishi belgilab beriladi. Bunday hujjatlar tashkilot faoliyatini boshqaradi va mufoviqlashtiradi, boshqaruv organiga uning oldiga qo'yiladigan vazifalarni amalga oshirishni ta'minlash imkonini beradi.

Farmoyish hujjatlari boshqaruv tizimi bo'yicha yuqoridan quyiga: boshqaruvchi organdan boshqariladigan organga, tashkilot rahbaridan tarkibiy tuzilmalar va xodimlarga yo'llanadigan qarorlarni o'z ichiga oladi.

Farmoyish hujjatlari rahbarlar tomonidan chiqariladigan hujjatlardir. Farmoyish hujjatlariga buyruq, farmoyish, ko'rsatma kiradi.

Buyruq

Buyruq muayyan muassasa oldida turgan asosiy va kundalik vazifalarni hal qilish maqsadida qo'llaniladigan hujjat bo'lib, muassasa rahbari yoki uning vazifasini bajaruvchi muovin tomonidan imzolanadi.

Asosiy faoliyat bo'yicha buyruqlar ishni tashkil qilish, muassasa yoki uning bo'limlari faoliyatini tartibga solishda qo'llanadi. Ularda, odatda, yuqori tashkilotlardan kelgan ko'rsatma hujjatlar xodimlarga yetkaziladi, bularning ijrosi yuzasidan aniq tadbir-choralar belgilanadi, mas'ul va bajarish muddati tayinlanadi. Asosiy faoliyatga oid buyruqlarda ularning mazmunidan kelib chiqib sarlavha qo'yiladi.

Buyruq doimiy ravishda shaxsan rahbar tomonidan tayyorlanadi.

Buyruqning farmoyish **"BUYURAMAN"** so'zi bilan boshlanadi. Farmoyish qismida kim qanday vazifani, qaysi muddatda bajarilishi ko'rsatiladi ("Amalga oshirsin", "Ta'minlansin", "Yuklatilsin", "Hisoblansin" va h.k.). Bajaruvchilar – muassasa yoki uning tarkibiy qismlari (bo'limlari), mansabdor shaxslar qayd qilinadi.

Buyruq farmoyish qismining oxirida mazkur buyruqni nazorat qilish kimga yuklatilganligi ko'rsatiladi: "Buyruq ijrosini nazorat qilish ...ga yuklatiladi".

2-topshiriq. So'zlarni o'rniga qo'yib, gaplarni to'g'ri tuzing.

1) asosiy va kundalik vazifalarni muovin oldida tomonidan imzolanadi buyruq muayyan qo'llaniladigan hujjat bo'lib, muassasa turgan hal qilish maqsadida muassasa rahbari yoki uning vazifasini bajaruvchi.

2) shaxsiy arizalar va shu kabilar asosida bo'limlar rahbarlari tavsiyanomasi, tayyorlanadi bunday buyruqlar, odatda.

3) huquqiy xizmat, loyiha tegishli zarur, hollarda moliya bo'limi bilan kelishiladi xodimlar va bo'limlar;

4) qaysi muddatda bajarilishi kim qanday vazifani, ko'rsatiladi farmoyish qismida

5) oid buyruqlarda ularning qo'yiladi asosiy faoliyatga mazmunidan kelib chiqib sarlavha.

Kadrlarning shaxsiy tarkibi bo'yicha buyruqlar biror xodim ishga qabul qilinganda yoki bo'shatilganda, boshqa bo'limga o'tkazilganda, muayyan xodim mukofotlanganda, mehnat ta'tiliga chiqqanda, xodimga intizomiy chora qo'llanganda va shu kabi hollarda beriladi. Bunday buyruqlar, odatda, bo'limlar rahbarlari tavsiyanomasi, shaxsiy arizalar va shu kabilar asosida tayyorlanadi. Bunday buyruqlarda kirish qismi esa bandlarga bo'linadi. Buyruq qismidagi "QABUL QILINSIN", "O'TKAZILSIN", "TASHAKKUR BILDIRILSIN", "BO'SHATILSIN" kabi so'zlar bosh harflar bilan yoziladi.

Buyruqning asosiy zaruriy qismlari:

1. Blank qismlari.
2. Buyruq raqami.
3. Buyruq loyihasini tayyorlagan tarkibiy tuzilma raqami.
4. Sarlavha.
5. Buyruq matni
6. Ilovalar haqida qayd.
7. Rahbar yoki muovin imzosi

Buyruq quyidagi tartibda rasmiylashtiriladi:

-hujjat loyihasi tayyorlanadi;

-loyiha tegishli xodimlar va bo'limlar, huquqiy xizmat, zarur hollarda moliya bo'limi bilan kelishiladi;

-hujjat tashkilot rahbari tomonidan imzolanadi va shu vaqtdan kuchga kiradi.

3-topshiriq. Buyruq haqidagi nazariy ma'lumotlarni o'zlashtirib, "Mehnat ta'tiliga chiqish haqida", "Mehnat shartnomasini bekor qilish to'g'risida" buyruq namunasini yozing.

Farmoyish

Farmoyish korxona ma'muriyati hamda bo'limlar rahbarlari tomonidan amaliy masalalar yuzasidan qabul qilinadigan hujjatdir. Odatda, farmoyishlarda harakat muddati cheklangan bo'lib uning kuchi bo'limlarning tor doirasiga ayrim mansabdor shaxslar va fuqarolarga taalluqli bo'ladi. Farmoyishning matni xuddi buyruqniki singari zaruriy qismlardan tashkil topadi. Faqat uning kirish qismida "BUYURAMAN" so'zi o'rniga "TAVSIYA QILAMAN", "RUXSAT BERAMAN" kabi so'zlar ishlatiladi.

4-topshiriq. Hujjat rekvizitlarini to'g'ri joylashtiring.

Hujjatning zaruriy qismi	Tartib raqami
Hujjat raqami	

Blank qismlari	
Hujjat loyihasini tayyorlagan tarkibiy tuzilma raqami	
Hujjat matni	
Rahbar yoki muovin imzosi	
Sarlavha	
Ilovalar haqida qayd	

Ko‘rsatma

Ko‘rsatma korxonalarda axborot metodik tusdagi masalalar, shuningdek, buyruqlar, yo‘riqnomalar va boshqa hujjatlarning ijrosi bilan bog‘liq bo‘lgan tashkiliy masalalar yuzasidan chiqariladigan huquqiy hujjatdir.

Ko‘rsatmaga birinchi bo‘lib rahbar, ularning o‘rinbosarlari imzo chekish huquqiga ega.

U ham buyruq kabi, odatda, sarlavha bilan yoziladi, asos va farmoyish qismlaridan tarkib topadi. Asos qismida, falon “maqsadda”, falon “buyruqni bajarish uchun” kabi taomilga kirgan iboralar qo‘llanadi va “YUKLAYMAN”, “TAVSIYA ETAMAN” so‘zlari bilan farmoyish qismi boshlanadi. Muayyan xodimga uning xizmat lavozimi vazifalariga kirmaydigan ishlar yuklatilsa “TAVSIYA ETAMAN” so‘zi qo‘llanadi. Ko‘rsatmaning farmoyish qismi buyruqning farmoyish qismiga o‘xshash bo‘ladi.

5-topshiriq. Farmoyish hujjatlarida qo‘llaniladigan tayanch so‘zlarni yozing.

6-topshiriq. Oliy ta’lim muassasasi buyrug‘ining matnini tayyorlang.

7-topshiriq. Hujjat so‘ziga senkveyn tuzing.

“Sinkveyn” (5 qator) texnikasi

Maqsad – kategoriyaga tavsif berish

1-qator – tushuncha - ot

2-qator –2 so‘zdan iborat sifat

3-qator –3 so‘zdan iborat fe’l

4-qator –4 so‘zdan iborat munosabat

5-qator –1 so‘zdan iborat sinonim

40-MAVZU. MA'LUMOT-AXBOROT HUJJATLARI

1-topshiriq. Matnni o'qing va eslab qoling.

Ma'lumot-axborot hujjatlari anchayin katta guruhni tashkil qiladi, ular ish yuritish jarayonida ko'p ishlatiladi. Ma'lumot-axborot hujjatlari qarorlarni qabul qilishga undaydigan ma'lumotlarni yetkazadi.

Ularning xususiyati shundaki, hujjatlar boshqaruv tizimida quyidan yuqoriga: xodimdan bo'lim rahbariga, bo'lim rahbaridan muassasa rahbariga, quyi tashkilotdan yuqori tashkilotga qarab harakatlanadi.

Ma'lumot-axborot hujjatlariga ariza, bayyonma, bildirishnoma, dalolatnoma, e'lon, ishonchnoma, Ma'lumotnoma, tarjimayi hol, taklifnoma, tavsifnoma, tavsiyanoma, tushuntirish xati va boshqalar kiradi.

2-topshiriq. B/B/B jadvalini to'ldiring.

Matnni belgilash tizimi

(v) -Bilaman (-) - Bilishni xohlayman (+) - Bilib oldim

Tushunchalar	V	-	+
Tarjimayi hol			
Tavsifnoma			
Bildirishnoma			

Tarjimai hol

Tarjimai hol ma'lum bir shaxs tomonidan o'z shaxsiy hayoti va faoliyati haqida bayon qilingan yozuv. U muallif tomonidan mustaqil tuziladigan hujjatdir. Garchi u erkin (ixtiyoriy) tuzilsa-da, biroq tarjimayi holda ayrim qismlarning bo'lishi shart. Matnni bayon qilish shakli hikoya uslubi bo'lib, I shaxs nomidan yoziladi. O'tgan va hozirgi zamon fe'llari ishlatiladi.

Barcha ma'lumotlar davriylik asosida aniq raqamlar bilan beriladi. Raqamlar arab raqamlarida yoziladi.


Tarjimai holning zaruriy qismlari:

1. Hujjatning nomi (tarjimai hol);
2. Matn.

a) Muallif familiyasi, ismi va otasining ismi;
b) tug'ilgan yil, kun, oy va tug'ilgan joyi;
d) millati, ijtimoiy kelib chiqishi;
e) ota-onasi haqida qisqacha ma'lumot (F.I.O.);
f) ma'lumoti (qayerda, qanday o'quv yurtini tugatganligi va ma'lumotiga ko'ra mutaxassisligi);
g) ish faoliyatining turlari;
h) oxirgi ish joyi va lavozimi;
i) mukofot va rag'batlantirishlar;
j) jamoat ishlarida ishtiroki;
k) oilaviy ahvoli va oila a'zolari;
l) pasport ma'lumotlari;
m) turar joyi (manzili) telefoni;

3. Sana.
4. Imzo.

3-topshiriq. Ma'lumot-axborot hujjatlarining xususiyatlarini FSMU jadvali yordamida tushuntiring.



4-topshiriq. Tarjimai holning zaruriy qismlaridan foydalanib, o‘z tarjimai holingizni yozing.

Tavsifnoma

Ma’lum bir shaxsning mehnat va ijtimoiy faoliyati, shuningdek, uning o‘ziga xos xislati va fazilatlarini aks ettiruvchi rasmiy hujjat.

Tavsifnoma muassasa ma’muriyati yoki jamoat tashkilotlari tomonidan xodimga bir qancha maqsadlar (o‘quv yurtiga kirishda, xorijiy mamlakatlarga ishlash va boshqa yumushlar bilan ketishda, lavozimga tayinlashda va b.) uchun beriladi.

Tavsifnomada xodimning jamoatchilik va xizmat faoliyati, uning ishchanligi va axloqiy sifatlari ham ko‘rsatib o‘tiladi.

Tavsifnomaning zaruriy qismlari:

1. Tavsiflanayotgan shaxs haqida asosiy ma’lumotlar:

a) ismi, otasining ismi va familiyasi;

b) tug‘ilgan yili;

d) millati;

e) partiyaviyligi;

f) ma’lumoti;

g) lavozimi;

h) ilmiy daraja va unvoni.

2. Hujjat nomi (Tavsifnoma).

3. Matn.

4. Imzolar.

5. Sana.

6. Muhr.

Tavsifnoma matnini o‘zaro mantiqan bog‘langan uch tarkibiy qismga ajratib ko‘rsatish mumkin.

Birinchi qismda shaxsning mehnat faoliyati, ya’ni mutaxassisligi, aynan shu korxona, tashkilot va boshqa joylarda qaysi muddatdan buyon ishlayotganligi, xizmat

vazifasidagi o‘zgarishlar va boshqalar haqida ma’lumot beriladi.

Ikkinchi qismda xodimning shaxsiy tavsifi, ya’ni ishga munosabati, mutaxassislik bo‘yicha mahorati, siyosiy saviyasi, tashkilotchilik qobiliyati, jamoat ishlarida ishtiroki, oilaviy ahvoli, xulq-atvori, hatto ba’zida siyrati, jamoa a’zolariga munosabati, qanday mukofotlarga sazovor bo‘lganligi va boshqa asosiy rag‘batlantirishlari qayd etiladi. Xolis bo‘lish uchun kamchiligi ham ko‘rsatilib, istak bildiriladi.

Uchinchi qismda esa yuqorida bayon qilinganlardan xulosa chiqariladi va tavsifnoma qanday maqsadda yoki nima uchun berilayotganligi ko‘rsatiladi.

Tavsifnoma matni uchinchi shaxs tilidan bayon qilinadi.

5-topshiriq. Tavsifnoma so‘ziga sinkveyn tuzing.

“Sinkveyn” (5 qator) texnikasi

1-qator – tushuncha - ot

2-qator –2 so‘zdan iborat sifat

3-qator –3 so‘zdan iborat fe’l

4-qator –4 so‘zdan iborat munosabat

5-qator –1 so‘zdan iborat sinonim

6-topshiriq. Xodimning shaxsiy tavsifi, ya’ni ishga munosabati, mutaxassislik bo‘yicha mahorati, siyosiy saviyasi, tashkilotchilik qobiliyati, jamoat ishlarida ishtiroki, oilaviy ahvoli, xulq-atvori, hatto ba’zida siyrati, jamoa a’zolariga munosabati, qanday mukofotlarga sazovor bo‘lganligi va boshqa asosiy rag‘batlantirishlari haqida tavsifnoma yozing.

Bildirishnoma

Muayyan muassasa (tarkibiy qism) rahbariga xizmat faoliyati bilan aloqador muhim masalalar yuzasidan yoki yuqori idora, mansabdor shaxsga biron-bir voqea va hodisa haqida xabardor qilish zarurati tug'ilganda taqdim etiladigan yozma axborot.

Kimga yo'nalganiga qarab bildirishnoma **ichki** va **tashqi** turlarga ajraladi.

Ichki bildirishnoma rahbar shaxs yoki bo'lim mudiri nomiga yoziladi. Tashqi bildirishnoma, ya'ni rahbar tomonidan yuqori idoraga yoki mansabdor shaxsga yoziladigan bildirishnoma. U ikki nusxada yoziladi.

Bildirishnomaning zaruriy qismlari:

1. Bildirishnoma yo'llangan rahbarning lavozimi, ismi va ota ismining bosh harflari hamda jo'nalish kelishigidagi familiyasi.
2. Bildirishnoma tayyorlagan shaxsning lavozimi, ismi va ota ismining bosh harflari hamda chiqish kelishigidagi familiyasi.
3. Matn sarlavhasi.
4. Hujjat turining nomi (Bildirishnoma).
5. Bildirishnomaning matni.
6. Qancha varaqligi ko'rsatilgan ilovalar ro'yxati (agar ilovalar bo'lsa).
7. Bildirishnoma tayyorlovchi xodim yoki rahbarning imzosi.
8. Bildirishnoma taqdim etilgan sana.

7-topshiriq. Bildirishnomaning zaruriy qismlaridan foydalanib fakultet dekaniga bildirishnoma yozing.

8-topshiriq. Do'stingizni shaxsiy fazilatlarini e'tiborga olib tavsifnoma yozing.

41-MAVZU. ISHONCHNOMA. TUSHUNTIRISH XATI.

1-topshiriq. Matnni o'qing va eslab qoling.

Ishonchnoma

Ishonchnoma muayyan muassasa yoki ayrim shaxs o'z nomidan ish ko'rish uchun ikkinchi bir shaxsga ishonch bildiradigan yozma vakolatli hujjatdir. Ishonchnomalar o'z mazmuniga ko'ra mol-mulkni boshqarish, pul va moddiy-buyum boyliklarini olish, sud hamda notarial idoralarida, shuningdek, boshqa davlat va nodavlat idoralarda ish olib borish va boshqa ishlarni amalga oshirishni ifodalaydi.

O'zbekiston Respublikasi "Fuqarolik Kodeksi"ning 134-moddasida ishonchnomaga quyidagicha ta'rif berilgan: "Bir shaxs (ishonch bildiruvchi) tomonidan ikkinchi shaxs (ishonchli vakil)ga uchinchi shaxslar oldida vakillik qilish uchun berilgan yozma vakolat ishonchnoma hisoblanadi. Ishonchli vakil o'ziga ishonchnoma bilan berilgan vakolatlar doirasida ish olib boradi".

Muayyan ish-harakatni bajarishga vakolat berish kim tomonidan (muassasa tomonidanmi yoki ayrim shaxs tomonidanmi) rasmiylashtirilishiga qarab, ishonchnomalar rasmiy (xizmat) va shaxsiy turlarga bo'linadi.

Rasmiy (xizmat sohasidagi) ishonchnomalar davlat muassasalari, kasaba uyushmasi, jamoa xo'jaligi, jamoat tashkilotlari muayyan lavozimli shaxsga uning muayyan tashkilot tomonidan ish yuritishga vakil qilinganini bildirish uchun beriladi. Bunday ishonchnomalar muassasa rahbari tomonidan imzolanishi va muhr bilan tasdiqlanishi kerak. Ayrim hollarda ishonchnoma qonun talabiga ko'ra notarial tasdiqdan o'tishi zarur bo'ladi.

Rasmiy ishonchnomaning zaruriy qismlari:

Ishonchnoma beruvchi muassasaning nomi.

Ishonchnoma tartib raqami va berilgan vaqti (sanasi).

Ishonchnoma berilayotgan (ishonchnoma bildirilayotgan) shaxsning lavozimi va to'liq nomi (ismi, ota ismi, familiyasi).

Qimmatli buyumlar olinadigan (beradigan) muassasaning nomi.

Ishonchnomaning berilish sababi.

Ishonchnomaning amal qilish muddati.

Ishonchnoma berilayotgan shaxs imzosining namunasi.

Moddiy-buyum boyliklarini oluvchining shaxsiyatini tasdiqlovchi hujjatning nomi (pasport, guvohnoma).

2-topshiriq. Tushunchalar tahlili metodi.

Tushuncha	Tushuncha izohi
Ishonchnoma	muayyan muassasa yoki ayrim shaxs o'z nomidan ish ko'rish uchun ikkinchi bir shaxsga ishonch bildiradigan yozma vakolatli hujjatdir
Rasmiy (xizmat sohasidagi) ishonchnomalar	erkin usulda, odatda, qo'lda yoziladi
Shaxsiy ishonchnoma	davlat muassasalari, kasaba uyushmasi, jamoa xo'jaligi, jamoat tashkilotlari muayyan lavozimli shaxsga uning muayyan tashkilot tomonidan ish yuritishga vakil qilinganini bildirish uchun beriladi
Tilxat	xizmatga aloqador masalani, uning ayrim jihatlarini yozma izohlovchi va muassasa (bo'lim) rahbariga (ichki) yoki yuqori tashkilotga (tashqi) yo'l-lanuvchi hujjatdir

Tushuntirish xati	pul, hujjat, qimmatbaho buyumlar yoxud boshqa biror narsa olinganligini tasdiqlovchi rasmiy yozma hujjatdir

3-topshiriq. Rasmiy ishonchnomaning zaruriy qismlaridan foydalanib ishonchnoma yozing.

Shaxsiy ishonchnoma

Shaxsiy ishonchnomalarning eng ko‘p tarqalgani pul (maosh, nafaqa va boshqalar) olish uchun yozilgan ishonchnomadir. Bunday yozma vakolat ba’zan vakolat beruvchining talabi, xohishi bilan notarial tasdiqlanishi ham mumkin, lekin uni majburiy notarial tasdiqdan o‘tkazish shart emas. Ishonch bildiruvchi shaxsning imzosi u ishlayotgan yoki o‘qiyotgan joy rahbariyati, u yotib davolanayotgan tibbiy muassasa ma’muriyati, harbiy qism qo‘mondonligi va shu kabilar tomonidan tasdiqlanishi mumkin.

Shaxsiy ishonchnoma erkin usulda, odatda, qo‘lda yoziladi, lekin unda, albatta, quyidagi zaruriy qismlar bo‘lmog‘i kerak:

Hujjatning nomi (Ishonchnoma).

Ishonch bildiruvchining to‘liq nomi (ismi, ota ismi, familiyasi).

Ishonchli shaxs (ishonchnoma berilgan shaxs)ning to‘liq nomi.

Ishonchnoma mazmuni (topshirilgan vazifalarni aniq ko‘rsatish).

Topshirilgan vazifalar amalga oshirilishi zarur bo‘lgan muassasaning nomi.

Ishonch bildiruvchining imzosi.

Berilgan (yozilgan) vaqti.

Ishonch bildiruvchining imzosini tasdiqlagan shaxsning lavozimi va imzosi.

Ishonch bildiruvchining imzosi tasdiqlangan sana va dumaloq muhr.

4-topshiriq. Shaxsiy ishonchnomaga namuna yozing.

Tilxat

Tilxat pul, hujjat, qimmatbaho buyumlar yoxud boshqa biror narsa olinganligini tasdiqlovchi rasmiy yozma hujjatdir.

Tilxat bir nusxada tayyorlanib, pulli va qimmatbaho hujjat sifatida saqlanadi.

Tilxatning asosiy zaruriy qismlari:

1. Hujjatning nomi (Tilxat).

2. Matn:

a) tilxat beruvchi shaxsning lavozimi, ismi va otasining ismi, familiyasi.

b) pul, hujjat, buyum yoki boshqa biror narsani beruvchi shaxsning lavozimi, ismi va otasining ismi, familiyasi (zaruriyat bo'lganda muassasa nomi);

d) pul, hujjat, buyum yoki boshqa biror narsaning nomi va ularning miqdori (zaruriyat bo'lganda bahosi) ;

e) olinayotgan buyumning texnik holati (agar u mashina, apparatlar va sh.k. bo'lsa).

3. Tilxat berilgan sana.

4. Tilxat muallifining imzosi.

Olinadigan pul miqdori yoki buyumning bahosi va uning soni tilxatda raqamlar bilan ko'rsatiladi, qavs ichida esa so'zlar bilan ham berilishi shart.

Matn va imzo oralig'idagi bo'sh joylar chiziladi. Tilxatdagi youvlarni o'chirish yoki tuzatish mumkin emas, aks holda, bunday hujjatning haqiqiyligi shubha ostiga olinishi mumkin.

5-topshiriq. Tilxat zaruruy qismlaridan foydalanib tilxat matnini tuzing.

Tushuntirish xati

Tushuntirish xati xizmat sohasidagi, xizmatga aloqador masalani, uning ayrim jihatlarini yozma izohlovchi va muassasa (bo'lim) rahbariga (ichki) yoki yuqori tashkilotga (tashqi)

yo'llanuvchi hujjatdir. Tushuntirish xati xuddi Ma'lumotnoma va bildirishnoma singari ichki va tashqi xususiyatga ega.

Ichki (shaxsiy) tushuntirish xatlari asosan xodim (ishchi, xizmatchi, jamoa xo'jaligi a'zosi, talaba) tomonidan muassasa rahbari nomiga yoziladi. Unda ish yoki o'qish jarayonida sodir etilgan ba'zi xatti-harakatlar (masalan, ish yoki o'qishga kech qolish, kelmay qolish, reja yoki ayrim topshiriqni bajarmaganlik, belgilangan tartib-qoidalarga rioya qilmaganlik va boshqalar) va ularning sabablari izohlanadi, dalillanadi. Bevosita xodim tomonidan imzolanadigan bunday tushuntirish xati oddiy qog'ozga yoziladi.

Shaxsiy tushuntirish xatlari odatda mansabdor (rahbar) shaxsning talabi bilan yoziladi, chunki u keyinchalik xodim haqida muayyan qarorga kelish, unga nisbatan tegishli intizomiy jazo chorasi qo'llash yoki dalillar asosli (uzrli) bo'lsa, qo'llamaslik uchun asos vazifasini o'tashi mumkin.

Tashqi tushuntirish xati yuqori tashkilotga yuboriladi va ko'pincha biror asosiy hujjat (rejalar, hisobotlar, loyihalar)ga ilova tarzida bo'lib, mazkur hujjatni umuman, uning ba'zi o'rinlarini qisman izohlab, tushuntirib beradi. Bu xildagi tushuntirish xati, shuningdek, muassasada bo'lib o'tgan voqea-hodisaga, rahbarning muayyan xatti-harakatiga rejalashtirilgan ishlarning bajarilmay qolishiga ham izoh beradi yoki dalillaydi.

7-topshiriq. Tushuntirish xatining zaruriy qismlaridan foydalangan holda tushuntirish xati yozing.

Tushuntirish xati quyidagi zaruriy qismlardan iborat: 1. Hujjat yo'llanayotgan tashkilot yoki mansabdor shaxsning to'liq nomi. 2. Hujjatni tayyorlagan (yozgan) muassasa yoki shaxsning to'liq nomi.	

3. Hujjat turining nomi (Tushuntirish xati). 4. Hujjat matni (mazmuni). 5. Imzo. 6. Sana (hujjat yozilgan vaqt).	

8-topshiriq. Darsga kech qolganligingiz to‘g‘risida fakultet dekaniga tushuntirish xati yozing.

9-topshiriq. Matnni o‘qing va mazmunini izohlang.

Men 2019-yil 14 apreldan 6-maygacha onamning qattiq betobligi sababli darslarga qatnasha olmadim. Qoldirgan 48 mashg‘ulotni mustaqil ravishda o‘zlashtiraman.

Ilova: onamning kasalligi to‘g‘risida tibbiy ma’lumotnoma.

42-MAVZU. DALOLATNOMA. MA'LUMOTNOMA

1-topshiriq. Matnni o'qing va eslab qoling.

Dalolatnoma

Dalolatnoma tashkilot yoki ayrim shaxslar faoliyati bilan bog'liq biron-bir bo'lib o'tgan (sodir bo'lgan) voqea, hodisa, ish-harakatni yoki mavjud holatni tasdiqlash, unga guvohlik berish maqsadida bir necha kishi tomonidan tuzilgan hujjatdir. Dalolatnoma tuzishdan maqsad - sodir bo'lgan voqea-hodisalarni yoki mavjud holatni qonuniy-huquqiy jihatdan isbotlash yoki tasdiqlashdan iboratdir.

Dalolatnoma asosan pul mablag'lari va moddiy boyliklarga bog'liq bo'lib, quyidagi hollarda tuziladi:

- tashkilot yoki bo'linma rahbari ko'rsatmasiga binoan tegishli taftish o'tkazilgandan keyin;
- rahbarlik almashayotganda;
- moddiy boyliklarni bir xususiy yoki yuridik shaxsdan ikkinchisiga o'tkazishda;
- qurib tugallangan inshootlarni qabul qilishdan oldin va keyin;
- mashina va uskunalarning yangi nusxalarini sinovdan o'tkazish chog'ida;
- tovarlarni miqdor va sifat bo'yicha qabul qilib olishda;
- baxtsiz hodisalar yoki tabiiy ofatlar oqibatlarini tekshirishda,
- xodimlarning moddiy, yashash sharoitlarini o'rganishda va boshqa hollarda tuziladi.

2-topshiriq. B/B/B jadvalini to'ldiring.

Matnni belgilash tizimi

(v) -Bilaman (-) - Bilishni xohlayman (+) - Bilib oldim

Tushunchalar	**V**	**-**	**+**
Dalolatnoma			
Ma'lumotnoma (shaxsiy)			
Ma'lumotnoma (rasmiy)			

3-topshiriq. Dalolatnoma qo'llanadigan so'z va so'z birikmalarini qatnashtirib gaplar tuzing va eslab qoling.

Hisobdan chiqarish, ishtirok etganlar, dalolatnoma, tuzildi, tomonidan, qabul qilib oldi, ko'rsatib o'tilsin, moddiy javobgar, hisobdan chiqarish, yo'qlama qilish, maqsadga muvofiq, aniqlandi, 3 nusxada.

Dalolatnomaning zaruriy qismlari:

1. Idora, muassasa va tarkibiy bo'linma nomi.
2. Tuzilgan sanasi va joyi.
3. Tartib raqami va tasdiq belgisi (zarur hollarda).
4. Matn sarlavhasi.
5. Hujjat turi nomi (Dalolatnoma).
6. Hujjatni tuzish uchun asos (muassasa rahbarining buyrug'i, idoraning qarori yoki ko'rsatmasi kabilar).
7. Komissiya tarkibi (rais va a'zolar).
8. Ishtirok etuvchilar (guvohlar).
9. Dalolatnoma matni.
10. Ilovalar (har bir ilovaning necha betligi ko'rsatiladi).
11. Tuzgan va ishtirok etganlarning imzolari.
12. Ijro haqidagi belgi.

4-topshiriq. Quyidagi nutq qoliplari ishtirokida gaplar tuzing.

(nimani?) tuzmoq

(nimada?) ishtirok etmoq
(nimaga asosan?) tekshirmoq
(nimani?) qayd qilmoq
(nimani?) aniqlamoq

Dalolatnoma matni murakkab tuzilishga ega bo'lib, kirish va ta'kid (qayd, tasdiq) qismlaridan tashkil topadi.

Kirish qismida asos, kim tomonidan tuzilganligi, ishtirok etganlar ko'rsatiladi. Ta'kid qismida maqsad va vazifalar, asos bo'lgan hujjatlar, aniqlangan holatlar, xulosalar va takliflar qayd etiladi.

Dalolatnomalar voqea-hodisalarni haqqoniy aks ettirish maqsadida bir necha shaxslar (tashkilot rahbarining buyrug'i bilan komissiyalar, doimiy komissiyalar) yoki maxsus vakolatli yakka shaxs (taftish, nazoratchi) tomonidan tuziladi. Keyingi holatda, umuman, dalolatnoma yakka shaxs tomonidan tuzilganda, guvohlarning ishtirok etishi va imzosi bo'lishi shart.

Dalolatnoma sodir bo'lgan voqea-hodisalarni aniqlashda va mavjud holatlarni tasdiqlashda ishtirok etgan barcha shaxslar tomonidan imzolanadi.

Agar dalolatnoma komissiya tomonidan tuzilsa, birinchi bo'lib komissiya raisi, keyin shu tartibda komissiya a'zolari ko'rsatiladi. Komissiya a'zolarining familiyalari, shuningdek, ishtirokchilarning familiyalari, odatda, alifbo tartibida yoziladi.

Dalolatnoma uch nusxada tuzilib, birinchi yuqori idoraga, ikkinchisi tashkilot rahbariga jo'natiladi, uchinchisi esa hujjatlar yig'majildiga tikiladi. Nusxalar soni hujjatning asosiy matni bilan ilovalar yoki imzolar oralig'ida ko'rsatiladi.

5-topshiriq. O'quv binosidagi tovar-moddiy boyliklarni inventtarizatsiya qilish natijalari bo'yicha dalolatnoma tuzing.

Ma'lumotnoma

Ma'lumotnoma bo'lgan voqea yoki mavjud holatlarni bildirish, axborot berish mazmunini ifodalaydigan hujjatdir. Ma'lumotnomalar, odatda, yuqori idora, mansabdor, xususiy va yuridik shaxslar hamda oddiy kishilarning ko'rsatmasi, talabi yoki iltimosiga ko'ra tuziladigan hamda biron-bir masalada iltimosni qondiradigan axborot va ma'lumotlarni o'zida aks ettiradi.

Ma'lumotnoma o'z xususiyati va mazmuniga ko'ra ikkiga: xizmat ma'lumotnomasi va shaxsiy ma'lumotnomaga bo'linadi.

Shaxsiy ma'lumotnoma – tashkilotlar tomonidan fuqarolarning turmushi va ish faoliyatidagi aksar voqea-hodisalar va holatlarni tasdiqlab beradigan hamda talab qilingan joylarga ko'rsatiladigan rasmiy hujjatdir.

Shaxsiy ma'lumotnoma zaruriy qismlari:

1. Ma'lumotnoma beruvchi tashkilotning nomi.
2. Ma'lumotnomaning tartib raqami va berilgan sanasi.
3. Hujjat turining nomi (ma'lumotnoma).
4. Ma'lumotnoma berilayotgan shaxsning ismi, otasining ismi va familiyasi.
5. Ma'lumotnoma matni (u tasdiqlayotgan voqea yoki holat bayoni)
6. Ma'lumotnomaning maqsadi (ma'lumotnoma ko'rsatiladigan, taqdim etilayotgan joy nomi).
7. Mansabdor shaxs(lar)ning imzosi (lavozimi va familiyasi).
8. Muhr.

Dastlabki uch zaruriy qism blankda yoki to'rtburchak muhrda aks ettirilgan bo'ladi.

Moliyaviy masalalarga oid ma'lumotnomalarga tashkilot bosh buxgalterining imzosi va muhri qo'yiladi.

6-topshiriq. Ma'lumotnoma so'ziga "Sinkveyn" tuzing.

"Sinkveyn" (5 qator) texnikasi

1-qator – tushuncha - ot

2-qator –2 so'zdan iborat sifat

3-qator –3 so'zdan iborat fe'l

4-qator –4 so'zdan iborat munosabat

5-qator –1 so'zdan iborat sinonim

Xizmat ma'lumotnomasi

Xizmat ma'lumotnomasi – muassasa faoliyatiga doir voqea-hodisalarni rasmiy ravishda aks ettiradi va tasdiqlaydi, axborot xususiyatiga ega bo'lgan xilma-xil ma'lumotlarni o'z ichiga oladi, zarur hollarda esa raqamli jadvallar ko'rinishida tayyorlanadi. Xizmat ma'lumotnomasi o'z navbatida ikkiga – ichki xizmat va tashqi xizmat ma'lumotnomalariga bo'linadi.

Xizmat ma'lumotnomasida hujjatning nomi yozilmaydi. Ma'lumotnoma sanasi u imzolagan va yo'llagan kuni qo'yiladi, chunki u chiqish hujjatlari daftarida qayd etiladi.

Xizmat ma'lumotnomasining zaruriy qismlari:

Hujjat jo'natiladigan yuqori idora yoki mansabdor shaxsning nomi (bosma ish qog'ozining yarmidan o'ng tomonga yoziladi).

Hujjat nomi (Ma'lumotnoma).

Ma'lumotnoma matniga sarlavha (xat boshidan yoziladi).


Asosiy matn (Ma'lumotnoma mazmuni).

Mansabdor shaxs (tuzuvchi yoki korxona rahbari) imzosi

7-topshiriq. Talabalar guruhining o'zlashtirish ko'rsatkichlari haqida ma'lumot tuzing.

8-topshiriq. Xizmat ma'lumotnomasi va shaxsiy ma'lumotnoma rekvizitlaridan foydalanib ma'lumotnomaga namuna yozing.

9-topshiriq. Venn diagrammasi asosida xizmat ma'lumotnomasining va shaxsiy ma'lumotnomaning o'xshash va farqli jihatlarini taqqoslang va tahlil qiling. Fikrlaringizni daftaringizga yozing.



10-topshiriq. So'z va birikmalarni quyidagi savollarga javoblar tartibida joylashtiring.

Kim?	Qayerda?	Kim bo'lib?	Nima qiladi?

Tuman soliq nazorati idorasida, ishlaydi, Shuhrat Ibrohimov, iqtisodchi, o'qiydi, Farg'ona akademik litseyida, ikkinchi bosqich talabasi, "Sharq tongi" tikuvchilik fabrikasida, bosh muhandis, tadbirkor, Yunusobod savdo markazida, lavozimida, hisoblanadi, dorishunos bo'lib, 18-sonli dorixonada, Buxoro shahar To'qimachilar tumanidagi.

43-MAVZU. MAJLIS BAYONI. HISOBOT.

1-topshiriq. Matnni o'qing va reja tuzing. Tuzgan rejangiz asosida matnni so'zlab bering.

Bayonnoma

Bayonnoma turli yig'ilish, kengash va boshqa tur anjumanlarning borishini, majlis qatnashchilarining chiqishlari va ular qabul qilgan qarorlarni qayd qiluvchi rasmiy hujjatdir.

Bayonnoma doimiy ish ko'ruvchi organlarning yig'ilishlarida doimiy kotiblari tomonidan tuziladi va rasmiylashtiriladi.

Vaqtinchalik ish ko'ruvchi organlar majlislarida esa yig'ilish jarayonida saylangan kotib aynan shu ishni bajaradi.

Bayonnomaning asosiy zaruriy qismlari:

- muassasa nomi.
- sarlavha (bamaslahat ish ko'ruvchi organ yoki yig'ilishning nomi)
- hujjatning nomi (Bayonnoma).
- yig'ilish sanasi.
- shartli raqami.
- yig'ilish joyi.
- tasdiqlash ustxati (agar bayonnoma tasdiqlanishi zarur bo'lsa).
- yig'ilish raisi va kotibining familiyasi.
- qatnashchilar ro'yxati yoki soni;
- matn:

1) KUN TARTIBI;
2) ESHITILDI;
3) SO'ZGA CHIQDILAR;
4) QAROR QILINDI.

- ilovalar (agar ular mavjud bo'lsa)
- imzolar.

1-topshiriq. So‘z va so‘z birikmalarining ma’nosini tushuntiring. Ular ishtirokida gaplar tuzing.

Majlis bayoni, eshitildi, so‘zga chiqdilar, qaror qilindi, qatnashdilar, muhokama qilindi, axborot berdi, ma’ruza qildi, axboroti tinglandi, fikr-mulohazalarini bildirdi, muhokamaga chiqdi.

3-topshiriq. Nuqtalar o‘rniga ilovadan mos so‘z va so‘z birikmalarini qo‘yib, ko‘chiring.

Kun tartibi ..., majlis raisi ..., ma’ruza yuzasidan ..., masala bo‘yicha ..., qaror ijrosini nazorat qilish ..., navbatdagi masala, topshiriqni bajarish muddati...

Ilova: so‘zga chiqdi, belgilab berildi, asosiy ma’ruzachiga berildi, o‘qib eshittirildi, yuklatildi, savollar berildi, qaror qabul qilindi, muhokama qilindi.

4-topshiriq. Guruhingizda o‘tkazilgan majlis bayonini tuzing.

Majlis bayonidan ko‘chirma

Zaruriyat tufayli majlis davomida qabul qilingan qarorlardan ko‘chirmalar rasmiylashtiriladi. Buyruqdan ko‘chirma bo‘lganidek, majlis bayonidan ko‘chirma ham imzo bilan tasdiqlanadi.

Majlis bayonidan ko‘chirma quyidagi rekvizitlardan iborat:

- tashkilot nomi;
- hujjat nomi (majlis bayonidan ko‘chirma);
- majlis o‘tkazilgan sana;
- majlis bayoni tuzilgan joy;
- matn:

1) KUN TARTIBI;
2) ESHITILDI;
3) QAROR QILINDI;

- Majlis raisi va kotibining imzolari;
- Nusxa tasdiqlanganligi haqida belgi, muhr.

Ba’zan majlis bayonidan olingan ko‘chirmada qatnashuvchilarning familiyasi yoki soni, shuningdek, ko‘rilgan

masala bo'yicha muhokamada ishtirok etganlar familiyalari ham ko'rsatib o'tiladi.

Bayyonning matn qismidan faqat tashkilot yoki shaxsga yetkazilishi kerak bo'lgan qismlargina olinadi, ya'ni, majlis bayonida ko'rsatilgan qaysi masala bo'yicha qaror so'ralsa, aynan shu masala alohida ko'chiriladi.

5-topshiriq. Quyidagi so'z va birikmalarning ma'nolarini izohlang va ular ishtirokida gaplar tuzing.

Axborot bermoq, bayonnoma, so'zga chiqmoq, so'z olmoq, so'z bermoq, ovoz bermoq, muhokama qilmoq, tavsiya etmoq, tayinlamoq, tasdiqlamoq, muhokamada chiqmoq, faol qatnashmoq, hay'at saylamoq, zimmasiga yuklamoq, topshirmoq, ta'sis etmoq, qaror qilmoq, ma'ruza qilmoq, fikr-mulohaza bildirmoq.

6-topshiriq. Berilgan so'z va birikmalar yordamida majlis bayonining qaror qismini tayyorlang.

Eshitildi, so'zga chiqdi, qaror qilindi, topshirilsin, tasdiqlansin, yuklatilsin, bajarilsin, muhokama qilinsin, tayinlansin, tasdiqlansin, jonlantirilsin, ogohlantirilsin.

Hisobot

Hisobot muayyan vaqt uchun rejalashtirilgan ish yoki vazifa, topshiriqlarning bajarilishi, amaliy dolzarb ishlar, xizmat va ilmiy safarlar yakuni haqida ma'lumot beruvchi hujjat.

Hisobotda keltirilgan ma'lumotlar aniq, ishonarli bo'lishi kerak.

Hisobotda quyidagilarga e'tibor beriladi: nima mo'ljallangan yoki topshirilgan edi, u qanday bajarildi, nimalarga e'tibor berildi, qanday yetishmovchiliklar bo'ldi, ularni bartaraf etish uchun nimalar qilish kerak. Hisobot oxirida muayyan topshiriq bajarilmagan bo'lsa, uning sababi ko'rsatiladi, bu borada takliflar qayd etiladi. Rejalashtirilgan

ish haqidagi hisobotlar amalda keng qo'llanadi. Bunday hisobotlar ish smenasi, hafta, o'n kunlik, oy, chorak, yarim yillik, yil yakunlari bo'yicha tuziladi, ular davriy hisobotlar deb ataladi. Bunday hisobotlar rahbar organ yoki shaxs nomiga yo'llanadi.

7-topshiriq. Berilgan iboralardan foydalanib, o'quv amaliyotining hisobotini yozing.

(kimning?) rahbarligida, (qayerda, qachondan qachongacha?), amaliyotda bo'ldim, (kim tomonidan?) berilgan topshiriqlarni bajardim, (nimani?) o'rgandim, (qaysi sohada?) tajriba orttirdim, (qanday?) malakalarni egalladim.

Hisobotning zaruriy qismlari:

1. Hisobot yo'llanayotgan rahbar organ nomi yoki mansabdor shaxsning lavozimi, ismi va familiyasi.
2. Hujjatning sarlavhasi: hisobot qaysi davr uchun, qanday bo'lim yoki shaxs tomonidan berilyapti.
3. Hujjatning nomi (Hisobot).
4. Hisobot matni.
5. Hisobot tuzuvchining lavozimi, ismi va familiyasi, imzo.
6. Sana.
7. Hisobotni tasdiqlovchi rahbar imzosi.

Xizmat safari va rahbarning muayyan topshirig'ini bajarish bo'yicha hisobotlar ma'lum davr ishlari bo'yicha hisobotdan qisman farq qiladi.

Hujjatning zaruriy qismlari:

1. Sarlavhasi: idora rahbarining lavozimi, ismi va ota ismining bosh harflari, familiyasi, kim tomonidan qanday topshiriq uchun hisobot berilayapti.
2. Hujjatning nomi (Hisobot).

3. Hisobot matni ("Sizning topshirig'ingizga binoan" kabi iboralar bilan boshlanadi, topshiriq qanday bajarilganligi aniq ma'lumotlar bilan bayon qilinadi; xulosa yasaladi).

4. Ilovalar ko'rsatiladi (ko'p hollarda).

5. Hisobot beruvchining lavozimi, ismi va ota ismining bosh harflari, familiyasi, imzo.

6. Sana.

8-topshiriq. Quyidagi so'z va so'z birikmalarinini qatnashtirib gaplar tuzing.

Hisobot, davr, topshiriq, vazifa, reja, rejalashtirilgan, xizmat safari, rahbarlik qilmoq, topshiriqqa binoan, rejaga asosan, buyruqqa binoan, muassasa qarori bilan, joriy yilda.

9-topshiriq. Hisobot matnidagi nuqtalar o'rnini tegishli so'z va qo'shimchalar bilan to'ldirib, matnni daftaringizga ko'chiring.

Sizning topshiriq... Binoan 10-15-sentyabr kunlari Buxoro shahrida xizmat safari... bo'ldim. Bundan maqsad viloyat gazlashtirish idorasi... xo'jalik... xususiy xonadonlarga gaz o'tkaz... ... ellik kilometr (30 mm) truba yetkazib berish... shartnoma tuzish edi.

Shartnoma tuzildi. Unga... trubalar shu yil... 20-noyabriga... xo'jaligimizga keltiriladi.

Ilova : 2019-yil 15-mayda tuzil... shartnoma nusxa...

10-topshiriq. O'tkazilgan tadbir to'g'risida hisobot yozing. Hisobot yozishda nimalarga e'tibor berish lozim tushuntirib bering.

44-MAVZU. XIZMAT YOZISHMALARI. XATLAR.

1-topshiriq. O'qing va eslab qoling.

Xizmat yozishmalari muassasa faoliyatiga oid turli masalalari bilan bog'liq talab, iltimos, taklif, kafolat kabilar aks ettiriladi. Ularga telefonogrammalar, taklifnomalar, xatlar, diplomatik yozishmalar, tijorat yozishmalari kiradi. Xizmat yozishmalarining eng ko'p tarqalgan qismi xatlardir.

Xatlar, vazirlik, idora, tashkilot va muassasalar orasida xizmat aloqalarini amalga oshiruvchi asosiy hujjat hisoblanadi. Ular vositasida turli ko'rsatmalar, so'rovlar, javoblar, tushuntirishlar, xabarlar, takliflar, iltimoslar, kafolatlar beriladi yoki qabul qilinadi. Bu hujjatlar umumlashtirilgan holda xizmat xatlari deb yuritiladi. Bajaradigan vazifasiga ko'ra xizmat xatlari quyidagi turlarga bo'linadi:

1) javob xati talab qiliuvchi xatlar (da'vo xat, so'rov xat, iltimos xat);

2) javob xatini talab qilmaydigan xatlar (ilova xat, tasdiq xat, eslatma xat, axborot xat, kafolat xat, farmoyish xat, taklif xat va boshqalar) ;

Shuningdek, mazmunida bir necha (kafolat berish, iltimos, eslatish) ma'no ifodalanadigan xatlar ham bor.

Xizmat xatlari asosan xatlar blanklariga, blank bo'lmagan hollarda oq qog'ozga yoziladi. Xat oddiy varaqqa yozilsa, uning yuqori chap burchagiga xatni jo'natayotgan muassasa nomi ko'rsatilgan to'rtburchak muhr qo'yiladi.

Xizmat xatlarining matnini uch qismga bo'lish mumkin. Birinchi (kirish) qismda xat bilan murojaat qilishga asos yoki sabab ko'rsatiladi. Ikkinchi qismda xatda qo'yilayotgan masalani hal qilish zarurligi asoslab beriladi. Uchinchi (xulosa) qismda xat yozishdan ko'zlangan asosiy maqsad bayon etiladi.

2-topshiriq. Guruhingizning obodonlashtirish ishidagi ishtiroki to‘g‘risida fakultet dekaniga xat yozing. Unga tegishli nom bering. Yaratgan matningizni xususiyatlarini sharhlang.

Xizmat xatlarining rekvizitlari

1. O‘zbekiston Respublikasining gerbi.
2. Vazirlik, idora nomi.
3. Tashkilot nomi.
4. Bo‘lim nomi.
5. Reyestr hujjatning xos raqami.
6. Tashkilotning xos raqami.
7. Pochta manzili, telefon va faks raqamlari,bankdagi hisob-raqami, elektron manzil.
8. Sana.
9. Shartli raqam (indeks).
10. Kelgan hujjatning shartli raqami.
11. Hujjatning kelish sanasi.
12. Hujjat jo‘natiladigan manzil.
13. Munosabat belgisi (rezolyutsiya).
14. Nazorat haqida belgi.
15. Matn sarlavhasi (xatning qisqacha mazmuni).
16. Matn.
17. Ilovalar haqida belgi.
18. Imzo.
19. Rozilik belgisi (viza).
20. Kelishuv haqida belgi.
21. Bajaruvchi haqida belgi va uning telefon raqami.
22. Bajarilganlik haqida belgi.

3-topshiriq. Da’vo xatining asosiy zaruriy qismlaridan foydalanib da’vo xatiga namuna yozing.

So‘rov xati. Iltimos xati. Javob xati.

So‘rov xati- javob talab qiladigan bunday yozishmalarda ma’lumotlar hujjatlar yoki boshqa zarur narsalar so‘raladi.

Birgina xatda turli masalalarga doir bir necha so'rov aks etmasligi, unda bayon qilinayotgan masalalar aniq va ravshan ifodalanishi lozim. Faqat shu holdagina, yo'llangan so'rovga tez va mukammal javob olish mumkin. So'rov xati, odatda, ikki asosiy qismdan- kirish va xulosadan iborat bo'ladi.

Iltimos xati – muassasalar ma'lum bir ishni amalga oshirish yoki tugatish maqsadida boshqa muassasalarga rasmiy xat orqali iltimos qilishi mumkin. Iltimos xatlarining asosiy zaruriy qismlari:

1. Xat oluvchi tashkilot va mansabdor shaxsnig nomi.
2. Matn.
3. Ilova (zarur bo'lgan hollarda).

Ilova xat. Da'vo xati. Talab xati.

Ilova xat – xatni qabul qilib oluvchilarni jo'natiladigan hujjatlar haqida yozma xabardor qilish uchun qo'llanuvchi qisqacha xabar qog'ozidir. Ilova xat ish yuritishda keng tarqalgan bo'lib, shartnoma loyihalarini, ziddiyatlar bayonnomalarini, da'vo materiallarini jo'natishda qo'llaniladi.

Da'vo xati – ma'lum bir muassasaning boshqa bir idora yoki transport tashkilotlariga nisbatan talab va e'tirozlari bayon qilingan xatlardir. Da'vo xatlari tovar yetkazib berish, qurilish ishlari, ijara, yuk tashish va shu kabi bir qancha ishlar bo'yicha tuzilgan shartnomalar bajarilmay qolganda, o'z qonuniy huquqlarini va manfaatlarini himoya qilish maqsadida tuziladi. Da'vo xatlarida asosan shartnomaga ko'ra o'z zimmasiga olgan majburiyatini buzgan tomon yetkazgan zararni qoplash talab qilinadi. Odatda da'vo xatlari uch nusxada tayyorlanadi.

Da'vo xatlarining zaruriy qismlari:

1. Da'vo qiluvchi muassasa nomi va adresi.
2. Xatning yozilish sanasi va tartib raqami.
3. Da'voni qabul qiluvchi muassasa nomi va adresi.

4. Da'vo bahosi (qiymati).
5. Xat matni.
6. Ilovalar ro'yxati.
7. Mansabdor shaxslarning imzosi.

4-topshiriq. Savollarga javob bering.

1. Da'vo xatlari qanday maqsadlarda yoziladi?
2. Iltimos xati qanday zaruriy qismlardan tashkil topadi?
3. Kafolat xati bilan da'vo xatining zaruriy qismlari o'rtasidagi farqlarni izohlab bering.
4. Ilova xati qaysi holatlarda yoziladi?
5. Xizmat xatlarining qaysi turlari uchinchi shaxs tomonidan yoziladi?

Axborot xati. Kafolat xati.

Axborot xati – ko'zlangan maqsad ma'lum tashkilot yoki shaxsni amalga oshirilayotgan tadbirdan xabardor qilishdir. Axborot xatlarining hajmi oddiy Ma'lumotnoma ko'rinishida bo'lib, bir jumladan to bir necha sahifagacha bo'lishi mumkin. Ba'zan axborot xatlardan ayrim tashkilotlar o'z faoliyatini targ'ib qilish maqsadida ham foydalanadi.

Kafolat xati – muayyan bir shart yoki va'dani tasdiqlash maqsadida tuziladi. Xatlarning bu turi, qoidaga ko'ra bajarilgan ish uchun haq to'lashda, ishning bajarilish muddati haqida, turar joy bilan ta'minlashda, ishga qabul qilishda, bajariladigan ishning sifati haqida kafolat berish uchun tayyorlanadi va tashkilot yoki alohida shaxslarga jo'natiladi.

Eslatma xati – jo'natilgan iltimos va so'rov xatlariga javob olinmasa, shuningdek, tuzilgan shartnomalar muddati buzilganda yoki unga amal qilinmagan hollarda eslatma xati yuboriladi.

Mazkur xatlar mazmun jihatidan uncha katta bo'lmaydi. Ular mazmun va hajm jihatdan telegrammalarga yaqin turadi.

Odatda, eslatma xat bir yoki bir necha jumladan iborat bo‘lib, kotib yoki referent tomonidan tasdiqlanadi.

5-topshiriq. Xatning matnini o‘qing. Uning tushirib qoldirilgan rekvizitlarini to‘ldiring. Xatning turini ayting.

Shuni eslatib o‘tmoqchimizki, institumiz tomonidan 2019-yil 27-mayda tuzilgan 126-raqamli shartnomaning 2-bandiga binoan yilning birinchi yarmida talabalar shaharchasining bosh loyihasini tayyorlashing kerak. Shunga ko‘ra, loyihani tayyorlash ishlari qanday borayotganligi haqida bizni xabardor qilishingizni so‘raymiz.


6-topshiriq. Savollarga javob bering.

1. Tilxatdagi yozuvlarni nega o‘chirish yoki tuzatish mumkin emas?
2. Tilxat notarial idoralarida tasdiqlanishi shart bo‘lgan holatlarni izohlang.
3. Buyum yoki pul miqdori tilxatda qanday ko‘rsatiladi?
4. Qaysi holatda tilxat matnida guvohlar ko‘rsatiladi?

7-topshiriq. Gaplarda qanday fikr ifodalanganligini aniqlang, gaplarni ko‘chirib, mazmuniga ko‘ra qaysi xat turiga tegishliligini qavsda ko‘rsating.

1. Anjumanda quyidagi masalalar ko‘rib chiqildi. 2. Ushbu qo‘lyozmalarni muhokama qilish va tegishli xulosa berish uchun yo‘llaymiz. 3. Ma’ruzachilarni taklif etish, kutib olish va turar-joy bilan ta’minlashni institut ma’muriyati o‘z zimmasiga oladi. 4. Mavjud buyurtmalarni bajarishga ulgurmayotganligimiz sababli iltimosingizni bajara olmasligimizni ma’lum qilamiz. 5. Birlashma tajriba-sinov o‘tkazish uchun barcha sharoitlarni yaratishga kafolat beradi. 6. Ilovani ushbu shartnomaning ajralmas qismi deb hisoblashingizni so‘raymiz. 7. Ro‘yxatda korsatilgan darsliklarni yetkazib berish uchun tegishli nusxada buyurtmalar qabul qilinadi.

8-topshiriq. Quyidagi qurilmalar asosida gaplar tuzing.



9-topshiriq. Xizmat xatlarining matnlarini tuzing.

MUSTAQIL ISHLASH UCHUN MATNLAR

O'ZBEK TILI

O'zbek tili - o'zbeklarning tili. Bu tilda so'zlashuvchilarning umumiy soni yigirma besh milliondan oshiq bo'lib, ularning asosiy qismini O'zbekistonda va unga chegaradosh bo'lgan mustaqil davlatlarda istiqomat qilib turgan o'zbek tilida so'zlashuvchi va o'zini o'zbek deb biluvchi aholi tashkil qiladi.

O'zbek tili 25 tildan iborat turkiy tillar oilasiga kiradi va so'zlashuvchilar soni jihatidan turk tili va ozarbayjon tilidan so'ng uchinchi o'rinda turadi. O'zbek tili eng qadimiy turkiy yozma tillardan biridir. Hozirgi o'rganilgan manbalarga ko'ra, u deyarli bir yarim ming yillik tarixga ega. Ammo o'zbek tilining asl tarixi bundan ko'proq bo'lib, miloddan avvalgi asrlar qa'riga borib taqaladi. Bu masalalar nazariy va metodologik jihatdan bir butun

etib zamon darajasida yoritilmagan, faktik jihatdan ham to'la o'rganilmagan. O'zbek tilining tarixi, umuman, uning rivoji turkiy tillar tarixining tarkibiy qismi ekanligi nazariy-metodologik jihatdan keng va qiyosiy miqyosda ko'rib chiqilmagan. O'zbek tilining asrlar davomida fors-tojik tilining yaqin hamrohi bo'lganligi va bu narsa ikkala tilning boyishiga hamda rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatganligi masalalari, arab tilining roli ham tilshunoslarning diqqat markazidan yetarli joy olganicha yo'q, chunki istibdod davrida bunday yo'nalishlar ma'qullanmas edi.

O'zbek tili jahondagi eng boy va rivojlangan tillardan biri. Bu tilning shakllanishida, ayniqsa, Alisher Navoiyning xizmati katta.

O'zbek tilining takomillashish jarayoni to'rt asosiy manbaning ishtirokida amalga oshgan:

a) asl turkiy tillar ta'siri;

b) fors-tojik tilining asrlar davomidagi har tomonlama ta'siri;

d) arab tilining o'rta asrlardagi Sharq fanlarining va islom dinining umumiy tili sifatida ta'siri;

e) XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlab Yevropa tillarining ta'siri. Ana shunday ko'p tomonlama ta'sir, o'zbek tilining grammatik jihatdan mukammal va lug'aviy boy bo'lishini, fonetik jihatdan xushohang til sifatida shakllanishini ta'min etdi.

O'zbek tili shevalarga boy tillardan biri hisoblanadi. Shevalar - umummilliy tilni boyitishning cheksiz manbaidir.

Hozirgi zamon o'zbek tili asosan uch ko'rinishga ega bo'lib, birinchidan, shevalardan, ikkinchidan, umummilliy adabiy tildan va uchinchidan, ularning qorishmasi bo'lmish kundalik jonli muloqot tilidan tashkil topgan.

Matn yuzasidan topshiriqlar:

1-topshiriq.

a) matnni o'qing.

b) matnni kichik qismlarga ajratib reja tuzing.

d) reja asosida matn mazmunini so'zlab bering.

e) o'zbek tili tarixi haqida qo'shimcha ma'lumotlar to'plab taqdimot tayyorlang.

2-topshiriq. Quyidagi tayanch so'z va iboralarning ma'nosini izohlang.

Til, istiqomat, turkiy tillar oilasi, so'zlashuvchilar, tarix, nazariy-metodologik, fors-tojik tili, sheva, grammatika, lug'aviy boy bo'lish, fonetik jihatdan xushohang.

URF-ODAT VA RASM-RUSUMLAR

Urf-odat va rasm-rusumlar - kishilar turmushiga singib ketgan, doim takrorlanib turadigan xatti-harakat, ko'pchilik tomonidan qabul qilingan xulq-atvor qoidalari va ko'nikmalar (masalan, o'zbeklarda kichiklarning kattalarga salom berishi, erta turib uy-hovlini supurib-sidirib, tartibga keltirib qo'yish, mehmonlarga alohida hurmatda bo'lish, bayram arafasida betob, ojiz va qiynalganlardan xabar olish, yordamga muhtojlarga hasharga borish va shu kabilar).

Urf-odat va rasm-rusumlar bir-birlariga juda yaqindan bog'liqdir, biri-ikkinchisining tarkibiy qismi hisoblanadi. Bugungi kunda ajdodlarimiz tomonidan qoldirilgan rasm-rusum va urf-odatlarni har tomonlama tiklash va rivojlantirish, ularni yosh avlodni tarbiyalashda samarali ravishda qo'llash kengayib bormoqda.

Urf-odat va rasm-rusumlar har bir millat va elatning tarixi, turmush tarzi va boshqa omillar ta'sirida o'ziga xos ravishda shakllanadi. Ular millat yoki elatning o'ziga xos qiyofasini belgilovchi xususiyatlaridan biridir. O'zbeklarda, masalan, qudachilik nihoyatda katta e'tiborni talab qiladi. "Kuyovni payg'ambarlar siylagan", deyiladi va shunga yarasha kuyovga hurmat-ehtirom bildiriladi. O'tmishda ota o'z qizi kelin bo'lib tushgan mahalladan otdan tushib, piyoda o'tgan. "Beshik to'yi" eskilik sarqiti, deb taqiqlangan edi. Holbuki, endilikda beshikning diqqatga sazovor kashfiyotlardan biri ekanligi ma'lum bo'lmoqda. Shunday urf-odat va rasm-rusumlar ko'p. Ular milliy an'analar, milliy til va

milliy ruh bilan bir qatorda milliy mustaqillik ma'naviyati va madaniyatining muhim qirrasini tashkil qiladi.

Urf-odat va rasm-rusumlar har bir millatda o'ziga xos tizimni tashkil qiladi, millat tomonidan turmush tarzining zaruriy sharti deb qabul qilinadi. Urf-odat va rasm-rusumlarga befarq kishi o'zini o'z millatidan uzoqlashtirib, uzib qo'yadi. Urf-odat va rasm-rusumlarga hurmat o'z millatiga hurmatning tarkibiy qismidir. Ko'pmillatli davlatda o'z millatining rasm-rusum, urf-odatlariga rioya qilish boshqa millatlar bilan bo'lgan do'stlik va totuvlik munosabatlariga putur yetkazmasligi kerak.

Matn yuzasidan topshiriqlar:

1-topshiriq.

a) matnni o'qing.

b) matnni kichik qismlarga ajratib reja tuzing, reja asosida matn mazmunini so'zlab bering.

d) o'z millatingizga xos urf-odat va rasm-rusumlar haqida ma'lumot to'plang.

e) o'zbek urf-odat va rasm-rusumlari haqida taqdimot tayyorlang.

2-topshiriq. Quyidagi tayanch so'z va iboralarning ma'nosini izohlang.

Xulq-atvor qoidalari, ko'nikmalar, bayram, betob, muhtoj, ajdod, avlod, turmush tarzi, qudachilik,o'tmishda, eskilik sarqiti, befarq kishi, totuvlik munosabatlari, shart.

HAYIT

Hayit qadimiy diniy bayram bo'lib, uning tarkibiga kirgan ko'pgina marosimlar islomdan oldin ham xalq taomilida bo'lgan. Islom ularni umumlashtirib, o'z qonunlarini qo'shib, hayit bayramlarining umrini uzaytirgan.

Hayitning ikki xili mavjud bo'lib, xalqimiz bu bayramlarga azaldan amal qilib keladi. Birinchisi - Qurbon hayiti katta hayit

hisoblanadi. Uning oldidan 2 kun qolganda, arafa kunlari nishonlanadi. Yolg'on arafa, bir kun qolganda chin arafa, uchinchi kun esa Hayit bayram qilinadi. Yolg'on va chin arafa kunlari har bir xonadonda is chiqarilib, chalpak, bo'g'irsoq, talqon, palov qilinadi. Qo'shnilar bir-birlarini Hayit bilan muborakbod etib, xonadonlarga pishiriqlar chiqaradilar. Bolalar va o'smirlar chopqillab yaqin-uzoq xonadon, qarindosh-urug'larni yo'qlashga borib keladilar.

Matn yuzasidan topshiriqlar:

1-topshiriq.

a) matnni o'qing.

b) matnni rus tiliga tarjima qiling.

2-topshiriq. Quyidagi tayanch so'z va iboralarning ma'nosini izohlang.

Marosimlar, diniy bayram, hayit bayramlari, arafa kunlari, chalpak, bo'g'irsoq, talqon, palov, qarindosh-urug'lar, qo'shnilar.

MILLIY MADANIY MARKAZLAR

Milliy madaniy markazlar - O'zbekistonda istiqomat qilib turgan barcha millatlar, elatlarning madaniyat, ma'naviyat, milliy urf-odatlar va an'analar sohasidagi o'zlariga xos talab va ehtiyojlarini qondirish, shu tariqa ularning O'zbekiston miqyosida yanada mustahkamroq jipslashtirishga xizmat qiluvchi ijtimoiy-ixtiyoriy tashkilotlar.

1989-yilda milliy madaniy markazlarning soni 12ta bo'lsa, 1997-yilning oxirida ular 90, hozir esa 130dan oshdi, shu jumladan rus, ukrain, koreys, gruzin, qozoq, qirg'iz, tatar, tojik, mahalliy yahudiylar, arman, ozarbayjon, polyak, nemis va boshqa milliy madaniy markazlari faol ish olib bormoqdalar.

Milliy madaniy markazlarning asosiy vazifalari uch yo'nalishga ega:

1) har bir millatning tili, madaniyati, urf-odatlari va rasm-rusumlarini tiklash, tarixiy Vatan bilan aloqa va munosabatlarni

jonlantirish, milliy his-tuyg'ularning namoyon bo'lishiga keng yo'l ochish;

2) mustaqil O'zbekistonni o'zining haqiqiy Vatani deb bilish va unga beminnat hamda sadoqat bilan xizmat qilish;

3) Vatan bilan mushtarak hayot kechirish, uning madaniyati, tarixi va tilini o'rganish, mustaqil davlatga nomi berilgan millat bilan do'stlikda, hamkorlikda va totuvlikda yashash. Ana shu uch yo'nalishda olib borilayotgan ishlar yil sayin yangidan-yangi shakllarda, turlarda, yo'nalishlarda rang-barang bo'lib bormoqda, shu jumladan:

- o'z milliy tarixini, madaniyatini, tilini, urf-odatlarini o'rganish to'garaklari ishlamoqda;
- O'zbekiston tarixini, madaniyatini va tilini o'rganish to'garaklari faoliyat ko'rsatmoqda;
- milliy musiqa, raqs va hunar to'garaklari o'z ishini kengaytirmoqda;
- milliy bayram kunlariga bag'ishlab tadbirlar o'tkazilmoqda, festivallar tashkil qilinmoqda;
- tarixiy Vatanning rassomlari, yozuvchilari, shoirlari, baxshilari, madaniyat va siyosat arboblariga bag'ishlangan ko'rgazmalar tashkil qilinmoqda;
- tarixiy Vatandan kelgan siyosiy arboblar va madaniyat namoyandalari bilan uchrashuvlar o'tkazilmoqda va hokazo.

Milliy madaniy markazlar O'zbekiston mustaqilligini mustahkamlashga katta hissa qo'shmoqdalar. Ular haqiqiy erkinlik va ozodlik asosida ish olib borib, o'z Vatanlari O'zbekistonga va o'zbek xalqiga bo'lgan muhabbat va hurmatlarini o'z faoliyatlari orqali namoyon qilmoqdalar.

Matn yuzasidan topshiriqlar:

1-topshiriq.

a) matnni o'qing.

b) matnni kichik qismlarga ajratib reja tuzing.

d) reja asosida matn mazmunini so'zlab bering.

e) o'zbek tiliga xos undosh tovushlarni aniqlang va ular talaffuziga e'tibor bering.

2-topshiriq. Quyidagi tayanch so'z va iboralarning ma'nosini izohlang.

Istiqomat, talab va ehtiyojlar, jipslashtirish, ijtimoiy-ixtiyoriy, milliy madaniy markazlar, munosabat, his-tuyg'ular, beminnat, sadoqat, hamkorlik, totuvlik, to'garak, festival, siyosiy arboblar, faoliyat, namoyon.

O'ZBEKISTON AYOLLARI

O'zbekistonda ayollar masalasi davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. Mamlakatimiz Prezidenti tomonidan 1998-yilning "Oila yili", 1999-yilning "Ayollar yili", 2000-yilning "Sog'lom avlod yili", 2001-yilning "Onalar va bolalar yili" deb e'lon qilinishi buning isbotidir.

Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasida aholining 50,3 %ni, faol mehnat resurslarining 45,1 %ni ayollar tashkil etadi. Ularning 42 %i ishlab chiqarish jarayoniga jalb qilingan, oliy va o'rta maxsus ma'lumotli mutaxassislarning har ikkinchisi ayoldir. Ilmiy xodimlarning 37%, jumladan, fan doktorlarining 11%, fan nomzodlarining 26% xotin-qizlardan iborat, 11 ayol akademik etib saylangan. Shu narsa ham diqqatga sazovorki, Oliy majlis mehnat va aholini ijtimoiy himoya qilish Qo'mitasining raisi, Oliy Majlisning inson huquqlarini himoya qilish va shahar hokimining inson huquqlarini himoya qilish bo'yicha vakili, shuningdek, Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimining o'rinbosarlari, xotin-qizlar qo'mitalarining raislari - ayollardir.

Oliy majlis deputatlaridan Senatda 15tasi ayol, Qonunchilik palatasida 21tasi, rahbar xodimlarning 24,4% ayollar, oliy rahbar-doiralarda ayollar 13,7 %ni tashkil qiladi. O'zbekiston parlamentida deputatlarning 16% ayollar, holbuki Italiyada - 14%, Fransiya va AQSHda - 10%. Hozir Respublikada 20 mingga yaqin tadbirkor ayol faoliyat ko'rsatmoqda. Mustaqillik yillarida O'zbekiston

Respublikasi terma komandasida sportning 29 turi bo'yicha 539ta xotin-qiz xalqaro musobaqalarda sovrinlar olib, davlatimizni dunyoga tanitmoqda.

Respublika Oliy Majlisining 14-sessiyasida "Xotin-qizlarga qo'shimcha imtiyozlar to'g'risida"gi qonun qabul qilinib, ushbu qonunda davlat va ijtimoiy sug'urtasidan o'tkazilishi lozim bo'lgan ishlarda kamida yigirma yillik ish staji bo'lgan ayollarga 54 yoshga to'lganda yoshga doir pensiyaga chiqish huquqi berilish nazarda tutilgan. 54 yoshida pensiyaga chiqish huquqi ayolning o'z istagi bo'lgan taqdirdagina amalga oshiriladi.

Fan, adabiyot, san'at, madaniyat sohasida ijodiy ish qilayotgan 25 yoshgacha bo'lgan iqtidorli xotin-qizlarimizga Zulfiya nomidagi Davlat mukofoti ta'sis etilgan.

Ayollar manfaatlari bilan shug'ullanayotgan nodavlat tashkilotlarning soni o'sib, bunday tashkilotlar qatoriga O'zbekiston Xotin-qizlar qo'mitasi, Tadbirkor Ayollar Uyushmasi, "Ayol liderlar" markazi, "Ayol va jamiyat" instituti va "Sog'lom avlod uchun" hamda "Ekosan" jamg'armalari kiradi.

Shunday qilib, mustaqillik yillari O'zbekiston ayollarining ijtimoiy holatida jiddiy ijobiy siljishlar sodir bo'ldi: ularning 98,5% O'zbekistonda o'tkazilayotgan islohotlarni ijobiy baholaydilar, qiyinchiliklarni tushunadilar, istiqbollari porloq ekaniga to'la ishonadilar.

Matn yuzasidan topshiriqlar:

1-topshiriq.

a) matnni o'qing.

b) matnni kichik qismlarga ajratib reja tuzing.

d) reja asosida matn mazmunini so'zlab bering.

e) tarjima qiling.

2-topshiriq. Quyidagi tayanch so'z va iboralarningma'nosini izohlang.

ayollar, davlat siyosati, mehnat resurslari, ishlab chiqarish,ilmiy xodim, fan doktori, fan nomzodi, akademik, ijtimoiy himoya, inson

huquqlari, vakil, xotin-qizlar qo'mitasi, ijtimoiy sug'urta, ish staji, siljish.

XALQARO TASHKILOTLAR

Xalqaro tashkilotlar - mustaqil davlatlar yoki milliy jamiyatlar (assotsiatsiyalar)ning, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy maqsadlarga erishishi uchun tuzilgan birlashmalar, mamlakatlar o'rtasida har tomonlama hamkorlik qilishning eng muhim turlaridan biri.

Xalqaro tashkilotlarni tuzish harakatlari qadim zamonlardan beri ma'lum. Lekin, hozirgi zamon xalqaro tashkilotlarini tuzish XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlangan. Ayniqsa, Ikkinchi jahon urushidan so'ng bu tashkilotlar keng rivojlana boshladi. Xalqaro tashkilotlarning umumiy xususiyati shundan iboratki, ularning vazifalari va faoliyati har bir davlat chegarasidan chetga chiqadi. Xalqaro tashkilotlar davlatlararo va jamoat birlashmalariga bo'linadi. Davlatlararo birlashmalar bevosita norma yaratish funksiyasiga ega. Chunki ular davlatlar - xalqaro huquqning asosiy subyektlari tomonidan tashkil etilgan. Ular o'z o'rnida tashkilotlar va oqimlarga bo'linadi (masalan, "Qo'shilmaslik" oqimi yoki "77 lar" guruhi).

Birlashgan Millatlar Tashkiloti terminologiyasida davlatlararo tashkilotlar «xalqaro hukumatlararo tashkilotlar» deb ataladi. Keyingilarning davlatlararo tashkilotlardan farqi shundan iboratki, ular doimiy shtab-kvartiraga, xalqaro fuqaroviy xizmatga, o'z budjetiga ega hamda bunga a'zo davlatlar xalqaro huquq subyektlari hisoblanadi, shuningdek, o'z vakolati doirasida xalqaro shartnomalar tuzishi, zimmasiga majburiyatlar olishi mumkin.

Hozirgi kunda jahonda 350 dan ortiq hukumatlararo tashkilotlar mavjud. Hududiy jihatdan ular universal va mintaqaviy, qatnashchilar soniga ko'ra ko'p tomonlama va ikki tomonlama (masalan, MDH davlatlari o'rtasidagi o'zaro xavfsizlik shartnomasi), kompetensiyasiga ko'ra (Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti va BMT), faoliyat sohasiga ko'ra (siyosiy, iqtisodiy) va a'zolik xususiyatiga ko'ra ochiq va yopiq tashkilotlarga bo'linadi. Xalqaro

huquq qoidalari bo'yicha hukumatlararo tashkilotlar hamda musohabadagi mansabdor shaxslar diplomatlardek imtiyoz va immunitetlarga egalar. Hukumatlararo tashkilotlarning xalqaro huquqda o'rni shundan iboratki, ular Ikkinchi jahon urushidan keyingi davrda mojarolarni tinch yo'l bilan hal qilish vositalari bo'lib xizmat qilmoqda.

O'zbekiston o'z mustaqilligini e'lon qilgandan so'ng 50 dan ortiq jahonning eng nufuzli tashkilotlariga a'zo bo'ldi. Bu - BMT, YUNESKO, Yevropada Havfsizlik va hamkorlik tashkiloti, Xalqaro valyuta jamg'armasi, Xalqaro moliya korporatsiyasi, Xalqaro mehnat tashkiloti, Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti va boshqa xalqaro, mintaqaviy tashkilotlar hamda assotsiatsiyalardir.

Mustaqil davlat xalqaro tashkilotlarda qanchalik keng qatnashsa, u xalqaro hamjamiyatga shu darajada keng kirib boradi, jahonda tinchlik, osoyishtalik, o'zaro hamkorlik uchun kurashda tegishli darajada faol qatnasha oladi, insoniyat taraqqiyotiga qo'shayotgan o'z ulushini yanada oshirib boradi, jahonning rivojlangan davlatlari bilan tobora yaqinlashadi, ularning fan, texnika va texnologiya sohasidagi yangiliklarini samaraliroq qabul qilib oladi. Shu nuqtai nazardan mustaqil O'zbekistonning xalqaro tashkilotlar bilan o'z aloqalarini yil sayin kengaytirishi juda katta ahamiyatga egadir.

Xalqaro tashkilotlarda faol qatnashish - mustaqil O'zbekistonni jahon miqyosida tanitishning, uning xalqaro mavqeini oshirishning muhim va samarali yo'lidir. Buning uchun xalqaro tashkilotlar darajasida fikr yuritib, xalqaro tillarda erkin so'zlab, Vatanimizni ulug'lay oladigan farzandlarimiz qatorini kengaytirishimiz lozim.

Matn yuzasidan topshiriqlar:

1-topshiriq.

a) matnni o'qing, reja tuzing.

b) reja asosida matn mazmunini so'zlab bering.

d) matnni tarjima qiling.

e) O'zbekistonning xalqaro aloqalari mavzusida klaster tuzing.

2-topshiriq. Quyidagi tayanch so'z va iboralarning ma'nosini izohlang.

Milliy jamiyatlar, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, vazifa, faoliyat, funksiya, subyekt, shtab-kvartira, xalqaro fuqaroviy xizmat, hukumatlararo, nufuzli, samarali, mavqe, mintaqaviy tashkilotlar, rivojlangan davlatlar.

AL-FARG'ONIY

Al-Farg'oniy Ahmad ibn Muhammad (Farg'ona vodiysida tug'ilgan, taxminan 861- yili (ba'zi ma'lumotlarda 865-yili)vafot etgan, tavallud sanasi esa aniq emas) Al-Xorazmiy bilan bir vaqtda Bag'doddagi "Bayt-ul hikma" ilmiy markazida ilmiy ishlar bilan shug'ullangan. Kitoblari o'rta asrlarda Yevropa universitetlarida astronomiyadan asosiy darslik va qo'llanma hisoblanib, muallifning ism-nasabi "al-Farg'oniy"ni lotinchasiga "Alfraganus" deb ataganlar. Al-Farg'oniy "Alfraganus" nomi bilan dunyoda mashhur va ma'lumdir.

Al-Farg'oniyning asosan oltita kitobi jahon bo'ylab tarqalgan:

1) "Kitob fy usul ilm an-Nujum". Bu risolaning asl qo'lyozmalari matni bir xil bo'lib, besh xil nom ostida saqlanib kelmoqda. Chunonchi, "Almajisti"ga bag'ishlangan astronomik risola, "Falak sferalari sababiyati", "Ayama-jisti" (Almagest), "Ilm al-haya" (Astronomiya ilmi). Bu qo'lyozmalar Angliya, Fransiya, AQSH, Marokash, Misr va Rossiya kutubxonalarida saqlanib kelinmoqda. Asar 1145 yili va 1175 yili lotin tiliga tarjima qilingan, chunki o'sha davrda lotin tili Yevropa mamlakatlarida mushtarak fan tili hisoblangan, har bir diqqatga sazovor yirik ilmiy asar shu tilda chop etilgan, lotin tili orqali butun fan olamiga tarqalgan va ma'lum bo'lgan. Asar 1193, 1533, 1590 va 1910-yillarda atoqli olimlar va noshirlar rahbarligida Yevropaning turli mamlakatlarida chop etilgan.

2) "Al-Farg'oniy jadvallari" (qo'lyozmasi Hindistonda saqlanmoqda).

3)"Oy Yerning ustida va ostida bo'lganida vaqtni aniqlash risolasi" (qo'lyozmasi Qohirada saqlanmoqda).

4)"Usturlob bilan amal qilish haqidagi kitob" (qo'lyozmasi Hindistonda saqlanmoqda).

5) "Yetti iqlim hisobi" (qo'lyozmasi Germaniyada saqlanmoqda).

6) "Usturlob yasash haqidaga kitob" (qo'lyozma nusxalari Fransiya yoki Germaniyada topilishi mumkin, chunki 1919-yilda asarni Eydeman nemis tilida nashr etgan).

Samoviy jismlar harakatini Nyuton va Laplas massa harakatining dinamikasi shaklida, Kepler esa geometrik yo'sinda bayon etgan bo'lsa, al-Farg'oniy ulardan bir necha asr avvalroq jadvallar qonuniyati shaklida izohlagan. Jadvalning fazilati va imtiyozi - uning jonli mushohadaga ochiq ekanligidir.

Stereografik proeksiyalar nazariyasining kashfiyotchisi ham al-Farg'oniydir. Quyosh, Oy, sayyoralar va yulduzlarning, binobarin, umuman osmonning bo'lajak manzarasini bilish uchun geometrik-kinematik usul astronomiya fanining umumiy usuli sifatida qabul qilib olingan bo'lsa, jahon munajjimlik fanining bunday umummaxrajga kelishida al-Farg'oniy topgan va asoslagan usturlob (Yevropachasiga - astrolyabiya) asbobining ahamiyati katta bo'lgan.

Matn yuzasidan topshiriqlar:

1-topshiriq.

a) matnni o'qing, reja tuzing.

b) reja asosida matn mazmunini so'zlab bering.

d) o'zbek allomalaridan yana kimlarni bilasiz?

e) jahon sivilizatsiyasiga o'z hissasini qo'shgan o'zbek olimlari haqida taqdimot tayyorlang.

2-topshiriq. Quyidagi tayanch so'z va iboralarning ma'nosini izohlang.

Tavallud, ilmiy markaz, ilmiy ishlar, astronomiya, darslik, qo'llanma, dunyo, mashhur, risola, qo'lyozma, kutubxona, lotin tili, olim, noshir, jadval, munajjimlik.

SENAT

Senat (lotincha senatus, senex so'zidan "yoshi ulug', hayotni ko'rgan, tajribali" degani) - jahon ijtimoiy-siyosiy tarixida qadimdan ma'lum muhim tushuncha. Miloddan avvalgi Rim davlatida urug'lar oqsoqollarining Kengashi "Senat" deb atalgan. Bu davlatda respublika tizimi o'rnatilgandan so'ng hokimiyatning oliy organi "Senat" deb atalgan. Tarixdan Afina senati, Sparta senati, Venetsiya senatlari ma'lum, Rossiyada 1711-1917-yillarda Senat hukumatning oliy organlaridan biri bo'lgan. Hozirgi davrda AQSH, Fransiya, Italiya kabi qator davlatlarda qonun chiqaruvchi oliy organ ikki palatasining biri.

U yoki bu davlatda senatning mavjudligi konkret vaziyatga bog'liq. Ammo, hokimiyat tizimida Senatning tashkil qilinishi har bir vaziyatda ham demokratiyaning, xalq hokimiyatining rivojlanish alomatidir, chunki qonunlar loyihalarining to'laroq muhokama etilishini, joylardagi fikr-mulohazalarni mukammalroq inobatga olish imkonini yaratadi, demokratiya tushunchasining mohiyatini kengroq va chuqurroq yoyilishiga xizmat qiladi.

Mustaqil O'zbekiston Respublikasi ana shu omillarni inobatga olib va o'zining 1991-2003- yillardagi tarixiy tajribasiga suyanib, davlat oliy hokimiyat tizimida Senat tashkil qilish to'g'risida Qonun qabul qildi. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining yuqori palatasi - Senat a'zolari, ya'ni senatorlar, Qoraqalpog'iston Jo'qorg'i Kengesi, viloyatlar, shaharlar va tumanlar davlat hokimiyati vakillik organlari deputatlari qatoridan yashirin ovoz berish yo'li bilan har biridan olti kishidan saylanadi; o'n oltitasi esa Respublika serqirra hayotida faol qatnashib turgan tajribali va obro'li fuqarolar O'zbekiston Prezidenti tomonidan tayinlanadi. Senat o'z faoliyatida O'zbekiston Konstitutsiyasiga, Oliy Majlisning Senat to'g'risidagi Qonuniga va boshqa qonunlarga suyanadi. Vakolat muddati - besh yil. Senatga yigirma besh yoshdan va O'zbekistonda besh yil muqim yashab turgan fuqaro saylanishi mumkin. Senat majlislari yiliga eng kamida uch marta o'tkaziladi. Senat va Qonunchilik palatasi muno-

sabatlari maxsus qonun va qoidalar asosida belgilanadi, shu jumladan ular qo'shma qaror qabul qilishi mumkin. Qonunchilik palatasi ma'qullagan qonun Senatga uzatiladi va vaziyat talab qilganda Senat bu qarorni qayta ko'rishga Qonunchilik palatasiga yuborishi mumkin. Qonunda ko'rsatilgan ma'lum vaziyatlarda O'zbekiston Prezidenti Senatni tarqatib yuborishi mumkin.

Mustaqil O'zbekiston Respublikasi Senati o'zining samarali faoliyatini boshlab yubordi. U demokratik jamiyat va huquqiy davlat xizmatida.

Matn yuzasidan topshiriqlar:

1-topshiriq.

a) matnni o'qing, reja tuzing.

b) reja asosida matn mazmunini so'zlab bering.

d) matnni rus tiliga tarjima qiling.

e) O'zbekiston Respublikasi boshqaruv tizimi haqida taqdimot tayyorlang.

2-topshiriq. Quyidagi tayanch so'z va iboralarning ma'nosini izohlang.

Urug'lar, oqsoqollar, hokimiyat, oliy organ, qonun chiqaruvchi, xalq hokimiyati, fikr-mulohazalar, viloyatlar, shahar, tuman, davlat hokimiyati, vakillik organlari, deputat, fuqaro, Senat, Qonunchilik palatasi, demokratik jamiyat, huquqiy davlat.

PARLAMENT

Parlament (fransuzcha "parler" - so'zlamoq; Parlament - rasmiy so'zlashish joyi, notiqlik koshonasi, suxandonxona) - Davlatning Qonun chiqaruvchi oliy organi.

Parlament birinchi bor XIII asrda Angliyada davlat hokimiyatining vakillik organi sifatida vujudga kelib, XVII-XVIII asrlarda boshqa mamlakatlarga yoyildi. Parlament davlatdagi konkret vaziyatga qarab bir palatali yoki ikki palatali bo'lishi mumkin. Parlament Fransiyada Senat va Milliy assambleyadan,

Angliyada Lordlar palatasi va Jamoalar palatasidan, AQSHda Senat va Vakillar palatasidan, Rossiyada Federasiya Kengashi va Davlat Dumasidan, O'zbekistonda esa Senat va Qonunchilik palatasidan iborat.

Mustaqil O'zbekistonning parlamenti ikki palatali bo'lib, Oliy Majlis deb ataladi.

Parlament qonun chiqaruvchi hokimiyatni amalga oshiradi. U qonun bo'yicha belgilangan sondagi deputatlardan iborat bo'lib, hududiy saylov okruglari bo'yicha, odatda, ko'ppartiyaviylik asosida, belgilangan yoshga to'lgan fuqarolardan saylanadi.

Parlament davlat, siyosat, xo'jalik, ijtimoiy-madaniy hayotning eng muhim masalalarini hal qilish huquqiga ega. U o'z faoliyatida, erkin muhokama qilish va oshkora hal etish, qonunchilik, fuqarolarni davlat va jamoat ishlariga jalb qilish, jamoatchilik fikrini doimo hisobga olish qoidalariga asoslanadi.

Parlament vakolatiga mamlakat Konstitutsiyasini qabul qilish, unga o'zgartirishlar, qo'shimchalar kiritish, ichki va tashqi siyosatning asosiy yo'nalishlarini belgilash, strategik davlat dasturini, qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi, sud hokimiyati tizimining vakolatlarini aniqlash, davlat tarkibiga yangi hududlarni qabul qilish yoki ularni davlat tarkibidan chiqarish haqidagi qarorlarni tasdiqlash, boj, valyuta va kredit ishlarini qonun yo'li bilan tartibga solish, ma'muriy-hududiy tuzilish masalalarini tartibga solish, respublika chegaralarini o'zgartirish, davlat byudjetini qabul qilish, uning ijrosini nazorat qilish va boshqa vakolatlarni amalga oshirish kiradi.

Mustaqil O'zbekiston Davlati parlamentining faoliyati uning yangi, insonparvar, demokratik jamiyat qurish manfaatlari yo'lida xizmat qilayotganidan dalolat berib turibdi.

Matn yuzasidan topshiriqlar:

1-topshiriq.

a) matnni o'qing, reja tuzing.

b) reja asosida matn mazmunini so'zlab bering.

d) Oliy Majlis haqida batafsil ma'lumot to'plang.

e) O'zbekiston Davlati parlamentini Venn diagrammasi orqali Fransiya, Angliya, AQSH, Rossiya Parlamentlari bilan solishtiring.

2-topshiriq. Quyidagi tayanch so'z va iboralarning ma'nosini izohlang.

Oliy organ, vakillik organi, palata, Milliy assambleya, Federatsiya Kengashi, Oliy Majlis, deputat, saylov okruglari, jamoatchilik fikri, vakolat, qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi, sud hokimiyati, boj, valyuta, davlat budjeti.

SIVILIZATSIYA

Sivilizatsiya (lotincha "sivilis" - fuqaroviy, ijtimoiy, ya'ni harbiylar va dindorlar hukmronligisiz) - jamiyatning o'z taraqqiyoti jarayonida yaratgan moddiy va ma'naviy boyliklarining hamda ularni yanada ko'paytirib takomillashtirib borish usullarining majmui.

Sivilizatsiya insoniyat tarixidagi uch katta tarixiy davrning (yovvoyilik, vahshiylik va sivilizatsiya) oxirgisi bo'lib, u yozuv ixtiro etilishidan, ya'ni bundan 5-6 ming yil muqaddam boshlanadi. Yozuv olamda yagona tafakkur egasi bo'lmish inson ishlab chiqaradigan, uning tarixiy tajribasini mujassamlashtiradigan va kelajagini rejalashtiradigan mahsulotni, ya'ni fikrni moddiylashtirish imkonini berib, jamiyat tarixida yangi davrni ochdi va uning rivojlanishini har asr sayin tezlashtirib boraverdi. Hozirgi zamon umumjahon sivilizatsiyasi XVI-XX asrlar davomida bozor munosabatlari va iqtisodiyotining tez sur'atlar bilan jahon bo'ylab tarqalishi, shu asosda qit'alar, mintaqalar, mamlakatlar va xalqdar orasidagi iqtisodiy, siyosiy va madaniy aloqalar yuzaga kelishi va rivojlanishi natijasida shakllandi. Umumjahon sivilizatsiyasi butun insoniyatga tegishli umumxislatlardan va shu bilan bir qatorda, har bir qit'a, mintaqa va xalqning o'ziga xos xususiyatlaridan tashkil topadi. Sivilizatsiya ayrim hududiy, bir-biri bilan bog'lanmagan sivilizatsiya maskanlari yoki o'choqlari sifatida shakllana boshlab (masalan, Qadimgi Misr sivilizatsiyasi, qadimiy hind sivilizatsiyasi,

O‘rtayer dengizi sivilizatsiyasi, Markaziy Osiyo sivilizatsiyasi va hokazo), bozor munosabatlari va iqtisodiyoti hukmronligi davrida (XVI-XX asrlar) umumjahon sivilizatsiyasiga aylandi.

Sivilizatsiya so‘zi lotincha bo‘lib, “harbiylarsiz va ruhoniylarsiz jamiyat”ni bildiradi, ma’rifatparvarlar rahnamoligidan hayot, urush-siz mutaassib ruhoniylar ta’siridan ozod jamiyat uchun XVI asrdan boshlab olib borilgan kurash jarayonida fanga va madaniyatga kirdi.

Sivilizatsiyaning tarixi urushlar va diniy jaholatparastlikka qarshi, dunyoviy jamiyat uchun kurash tarixidir. XX asrning ikkinchi yarmiga kelib, ilg‘or fan, texnika va texnologiya asosida ish ko‘rib, o‘zlarida demokratik, insonparvar jamiyat va huquqiy davlat qurgan mamlakatlargina haqiqiy sivilizatsiya yo‘liga chiqmoqdalar. Sivilizatsiya insoniyat taraqqiyotining mahsuli va ayni vaqtda zaminidir. U insoniyat jamiyatining nihoyatda nozik holati bo‘lib, vaqt jihatidan besh million yillik insoniyat tarixining bor-yo‘g‘i 0,1 foizini tashkil qiladi, ya’ni insoniyat o‘zining bosib o‘tgan yo‘lining 99,9 foizi davomida yovvoyilik va vahshiylik darajasida hayot kechirgan.

Mustaqil O‘zbekistonning maqsadi - hozirgi zamonning insonparvar, demokratik va huquqiy davlatiga, ya’ni sivilizatsiyali, ma’rifiy davlatiga aylanib, xalqning farovonligini ta’min etish hamda rivojlangan mamlakatlar qatoridan joy olishdir. Buning asosi va zaruriy sharti davlatimizda ta’min etilgan tinchlik, barqarorlik va hamjihatlikdir.

Matn yuzasidan topshiriqlar:

1-topshiriq.

a) matnni o‘qing;

b) matnni kichik qismlarga ajratib reja tuzing;

d) reja asosida matn mazmunini so‘zlab bering;

e) matndagi qo‘shma gap turlarini aniqlang.

2-topshiriq. Quyidagi tayanch so‘z va iboralarning ma’nosini izohlang.

Jamiyat taraqqiyoti, moddiy boyliklar, ma'naviy boyliklar, insoniyat tarixi, yozuv, jamiyat, yangi davr, qit'a, mintaqa, mamlakat, ma'rifatparvarlar, mahsul, xalq farovonligi, barqarorlik, hamjihatlik.

EKOSAN

"EKOSAN" ekologiya va salomatlik xalqaro jamg'armasining 1992-yili ta'sischilar konferensiyasida tashkil qilingan bo'lib, u notijorat, nodavlat (nohukumat) tashkilot hisoblanadi. Jamg'arma 14 mintaqaviy va 200 tuman (shahar) bo'limlariga ega. Korxona, tashkilot va o'quv muassasalarida qariyb 2,5 million jamg'arma faollari mavjud. Ular 15 mingdan ortiq "EKOSAN" boshlang'ich tashkilotlariga birlashganlar. Bir qator xorijiy mamlakatlarda (AQSH, Germaniya, Yaponiya, Pokiston, Shveysariya, MDH mamlakatlari) jamg'arma bo'limlari tuzilgan. Jamg'arma qoshida "EKOSAN" Toshkent klubi (mashhur Rim klubining o'ziga xos filiali), jurnalistlar, ayollar, faxriylar, yoshlar uyushmalari, "Ekosaninofirm" matbuot markazi faoliyat yuritmoqda, O'zbekiston "EKOSAN" jamg'armasi O'rta Osiyo mintaqasida yetakchi o'rinda bormoqda.

"EKOSAN"ning asosiy vazifalari ekologik muammolarni har tomonlama o'rganish, bu borada ilmiy konsepsiya ishlab chiqishga va shu maqsadda barcha kuchlarni birlashtirishga ko'maklashish, ekologik madaniyat va ekologik tafakkurni tarbiyalash, aholini atrof-muhit to'g'risida xabardor qilish, buning uchun turli xalqaro uchrashuvlar, seminarlar, ko'rgazmalar, simpoziumlar tashkil qilish, ekologik masalalar bo'yicha turli xalqaro tashkilotlar, kompaniyalar bilan aloqa o'rnatib ish olib borishdir. "EKOSAN" turli xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlik yo'llarini izlab topmoqda va shu jumladan, BMT, EXHK, YUNISEF, Xalqaro soliq tashkiloti (XST), YUNESKO va boshqalar bu ishda qatnashmoqdalar.

Matn yuzasidan topshiriqlar:

1-topshiriq.

a) matnni o'qing, reja tuzing;

b) reja asosida matn mazmunini so'zlab bering;

d) matnni rus tiliga tarjima qiling;

e) "EKOSAN"ning turli xalqaro tashkilotlar bilan hamkorligi haqida klaster tuzing.

2-topshiriq. Quyidagi tayanch so'z va iboralarning ma'nosini izohlang.

Ekologiya, salomatlik, xalqaro jamg'arma, ta'sischilar, konferensiya, korxona, tashkilot, o'quv muassasalari, jamg'arma, matbuot markazi, ekologik madaniyat, ekologik tafakkur, hamkorlik, seminar, ko'rgazma, simpozium.

YEVRO

Yevro - "Yevropa" qit'asi nomining qisqartirilgani bo'lib, shu qit'aga tegishli pul birligini bildiradi. "Yevro" - Yevropa Ittifoqiga birlashgan mamlakatlarning yagona valyutasidir. Yevroning kiritilishi - Ikkinchi jahon urushidan keyingi davrda qator Yevropa davlatlari amalga oshirayotgan izchil birlashishga qaratilgan siyosatning ijobiy hosilidir. Birinchi va Ikkinchi jahon urushlari, 1929-yil "buyuk iqtisodiy krizis"i, jahonning barcha burchaklarida tinimsiz olib borilgan milliy-ozodlik urushlari jahonning yetakchi kapitalistik davlatlarini mustamlakachilik va agressiya yo'lidan voz kechishga majbur qildi. Bu harakat Ikkinchi jahon urushidan keyin Fransiya va Germaniyaning iqtisodiy yaqinlashishidan boshlandi. Umumyevropa birligi uchun harakat asta-sekin mustahkamlanib borib, 1991-yilda Gollandiyaning Mastrixt shahrida Yevropa mamlakatlari iqtisodiyotini birlashtirishning strategiyasi belgilandi, yagona byudjet va moliya siyosati haqidagi shartnoma 1992-yil fevralda imzolanib, 1993-yilda kuchga kirdi, 1994-yilda qator yangi qadamlar qo'yildi; 1998-yilda bu jarayonning uchinchi bosqichi boshlandi va Yevropaning yagona valyuta-iqtisodiy fazosi yuzaga keltirildi. Yevropa Markaziy banki tashkil qilinib, Yevropa Ittifoqi mamlakatlarining umum pul-kredit siyosati amalga oshira boshlandi va 1-yanvardan Yevropa Ittifoqi bo'yicha yagona pul birligi "Yevro" kiritildi. 2002-yil 1-iyundan milliy valyutalar muomaladan

uzil-kesil chiqarildi. Yevropaning o'n bir mamlakati birlashib, AQSHning siyosiy va iqtisodiy tazyiqiga qarshilik ko'rsatish imkoniyatiga erishdi. Masalan, Yevropa Ittifoqining aholisi o'sha vaqtda 291 million, AQSHniki esa 268 mln. Barcha asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlar bo'yicha Yevropa Ittifoqi AQSH bilan yo barobar, yoki bir oz bo'lsada balandroq. Bozor iqtisodiyoti va bozor munosabatlarining shafqatsiz sharoitlarida Yevropa mamlakatlari birlashish, har tomonlama jipslashish va shu asosda ichki hamda tashqi siyosat muammolarini muzokara, mubohasa va hamkorlik asosida hal qilishning hozirgi zamondagi namunasini ko'rsatmoqda. Uning ijobiy tomonlarini ko'rgan Yevropaning boshqa mamlakatlari Yevropa Ittifoqiga kirish yo'llarini qidirib topmoqdalar. Bunday birlashish XV-XX asrlar tarixida birinchi bo'lib, insoniyatning tubdan yangi sharoitlarda bunyodkorlik hayotining umum manzarasini belgilab bermoqda.

Matn yuzasidan topshiriqlar:

1-topshiriq.

a) matnni o'qing;

b) matnni kichik qismlarga ajratib reja tuzing;

d) reja asosida matn mazmunini so'zlab bering;

e) turli davlatlarning pul birligi haqida ma'lumot to'plang.

2-topshiriq. Quyidagi tayanch so'z va iboralarning ma'nosini izohlang.

Qit'a, pul birligi, Yevropa Ittifoqi, iqtisodiy krizis, kapitalistik davlat, mustamlakachilik, strategiya, hamkorlik, bozor munosabatlari, pul-kredit siyosati, bunyodkorlik.

MAKROIQTISODIYOT

Makroiqtisodiyot (lotincha "makro" - "katta", "uzun", arabcha "iqtisodiyot" - xo'jalik yuritish) - iqtisodiy tizimdagi barcha ishtirokchilarning xususiyatlarini o'rganish. Makroiqtisodiyot umum jarayonlarga urg'u beradi. Umum jarayon faqat pul bilan tirik. Pul

bo'lmagan, pul muammolari rivojlanmagan joyda makroiqtisodiyot bo'lishi mumkin emas. Atoqli vatandoshimiz Abdulla Avloniyning yozishicha: "Iqtisodiyot deb pul va mol kabi ne'matlarning qadrini bilmoqqa aytilur. Mol qadrini bilg'uvchi kishilar o'rinsiz yerga bir tiyin sarf qilmas, o'rni kelganda so'mni ayamas".

Makroiqtisodiyot alohida mahsulot va xizmatlar bozorlarini o'rganadigan mikroiqtisodiyotdan farqli o'laroq, milliy iqtisodiyotni tizim ko'rinishida, ya'ni mahsulot va xizmatlar, pul va qimmatbaho qog'ozlar, yo'llanma ishchi kuchi bozorlari va jahon bozorlarini bir-biriga bog'lashda o'rganadi. Makroiqtisodiyot fanining vazifasi yuqorida qayd etilgan bozorlar harakatining davlat aralashuvi hisobga olingan holda makroiqtisodiy xususiyatlarini aniqlashdir.

Makroiqtisodiyot, mikroiqtisodiyotdan farqli ravishda, YaIM (Yalpi ichki mahsulot), inflyatsiya, ishsizlik, foiz stavkasi va valyuta kursi kabi ko'rsatkichlar tizimini qo'llaydi.

Mustaqil O'zbekistonda makroiqtisodiyot fanini o'rganishga jiddiy e'tibor berilmoqda. Makroiqtisodiyot fani majburiy umumnazariy fanlar qatoridan joy oldi va hozirda ushbu fanning asosiy atamalari iqtisodiyot bo'yicha maktab dasturlariga kiritilmoqda, chunki, u bizning har birimiz - talaba va o'qituvchi, firma hisobchisi va moliya vaziri, ishbilarmon va markaziy bank xodimi uchun amaliy ahamiyatga egadir. Makroiqtisodiyotni o'rganish tizimli iqtisodiy fikrlashni shakllantirish, iqtisodiy siyosat natijalarini to'g'ri baholash, xo'jalik sohasida qabul qilingan qarorlar bajarilishining natijasini oldindan belgilashga imkon beradi.

Makroiqtisodiy bilimlar, umuman olganda, har bir kishi uchun kerak. U, ayniqsa, kasbiy faoliyatda boshqaruvga oid qarorlarni qabul qilishda kerak bo'lgan, byudjet va kredit resurslarini taqsimlaydigan, iqtisodiy siyosat ishlab chiquvchilar uchun juda muhimdir.

Har birimizning farovon turmushimizni ta'minlash, aksariyat hollarda, aynan makrodarajada qabul qilinadigan qarorlarga bog'liq.

Milliy iqtisodiyotimiz dunyo darajasiga ko'tarilib borayotgan sharoitda, samarali iqtisodiy siyosatni ishlab chiqish mustaqil

O‘zbekistonga quyidagi muhim masalalarni hal etishda xizmat qilmoqda:

- barqaror iqtisodiy o‘sishni ta’minlash;
- mamlakatimizda o‘tish davrida va dunyo miqyosida yuz berayotgan jarayonlarni tahlil qilish;
- to‘g‘ri xulosalarni ishlab chiqish va ular asosida iqtisodiy siyosatni shakllantirish mexanizmini hayotga tatbiq etish.

Bularning hammasi iqtisodiyotning barqaror o‘sishini ta’minlaydi.

Matn yuzasidan topshiriqlar:

1-topshiriq.

a) matnni o‘qing, reja tuzing;

b) reja asosida matn mazmunini so‘zlab bering;

d) matnni tarjima qiling;

e) makroiqtisodiyot va mikroiqtisodiyot tushunchalarini Venn diagrammasi orqali solishtiring.

2-topshiriq. Quyidagi tayanch so‘z va iboralarning ma’nosini izohlang.

Pul muammolari, ne’mat, mahsulot, xizmatlar, milliy iqtisodiyot, yollanma ishchi kuchi bozorlari, jahon bozorlari, inflyatsiya, ishsizlik, foiz stavkasi, valyuta kursi, iqtisodiy fikrlash, iqtisodiy siyosat.

BUYUK IPAK YO‘LI

Buyuk Ipak yo‘li - bu Xitoy, O‘rta Osiyo va Yaqin Sharq mamlakatlari, keng ma’noda esa Sharq va G‘arb o‘rtasidagi qadimgi savdo-sotiq, tijorat va madaniy-ilmiy aloqalar yo‘li hisoblangan.

Buyuk Ipak yo‘li haqidagi ilk yozma ma’lumotlar miloddan avvalgi 138-yilga to‘g‘ri keladi: Xitoy imperatori Udi topshirig‘i bilan O‘rta Osiyoga yuborilgan elchi va sayyoh Chjan Syan Buyuk Ipak yo‘lini o‘rganadi va bu to‘g‘rida o‘z tasnifini beradi. Buyuk Ipak yo‘li Xitoydagi Xuanxe daryosining o‘rta oqimida joylashgan

Sian shahridan boshlanib, Lanchjou orqali Dunxuanga kelgan. Bu yerda yo'l ikkiga ayrilgan: birinchisi - Shimoliy-g'arbiy Buyuk Ipak yo'li - Turfon, Torim vohasi, Qashqar, Farg'ona orqali o'tib, Samarqandgacha kelgan. Bu yerda Buyuk Ipak yo'li yana ikkiga bo'linib, biri Marv, Nisa (Turkmanistonning janubida joylashgan shahar, hozir faqat xarobalari o'rganilmoqda), Hamadon, Bag'dod va Misr orqali O'rtayer dengizigacha yetib borgan. Ikkinchisi Buxoro va Xorazmga yo'nalgan va Xorazmda ikkiga bo'lingan: biri Orolning sharqidan Janubiy O'rol orqali Saqlab yurtiga (Rossiyaga) va Sabar (Sibir) turklari yurtiga borgan. Xorazmda davom etgan ikkinchi yo'l Mang'ishloq, Hazar (Kaspiy) dengizi sharqi-shimoli orqali Kavkaz, Itil (Volga), Bulg'oriya (Tataristonning eski nomi), Qrim, Qora dengiz yo'li bilan Yevropaga borgan.

Janubi-g'arbiy Buyuk Ipak yo'li - Xo'tan, Yorkent, Pomir-Tyan-Shan tizmalari orqali o'tib, Baqtriyaning poytaxti Zariaspa (Balx)ga borgan. Balxda janubiy yo'l ikkiga ajralib, biri Hindistonga, ikkinchisi g'arbga yo'nalgan va Marvda shimoliy yo'l bilan tutashgan. Marvdan Buyuk Ipak yo'li Parfiyaning poytaxti Nisa, Eronning Gekatompil, Apaliya va Ekbatana (Hamadon) shaharlari orqali Mesopotamiyaga chiqib, u yerdan Damashqqacha borgan, Quddus va Misrga yo'nalgan.

Buyuk Ipak yo'li orqali turli-tuman jihoz va buyumlar savdo qilingan. Ammo yo'lning nomida "ipak" so'zining borligi Buyuk Ipak yo'lining asosiy ahamiyati nimadan iborat ekanligiga ishora qiladi. G'arbni maftun qilgan narsa ipak edi. G'arb ipakni bilmasdi, ipak qurtini, uni parvarishlash, ipakni pilladan olish, qurtni nima bilan boqish kabi narsalar g'arb kishilariga noma'lum edi. Xitoy va ajdodlarimiz, Movarounnahr ustalari ipakdan turli gulli matolar tayyorlashda ham jahonning boshqa qismlaridan oldinda bo'lib, yevropaliklarni lol qoldirardilar. Mutaxassislarning yozishicha, ipak mato o'rami o'tgan zamonlarda, hali metall pul birligi qaror topmagan davrda, pul vazifasini ham bajargan.

Buyuk Ipak yo'li o'nlab mamlakatlar va xalqlar hududini kesib o'tgan. Uning asosiy yo'nalishlarini qo'lga kiritish yoki saqlab

qolish uchun ko‘p urushlar, to‘qnashuvlar bo‘lgan. Har bir davlatning hukmdori Buyuk Ipak yo‘lining imkoniyatlarini kengaytirishga intilgan, bekatlar, karvonsaroylar, bandargohlar qurdirgan, karvonlarni ot-ulov, tuya va turli abzallar bilan ta’minlagan. Bunday faoliyat, bir tomondan, yurtni, mamlakatni keng savdo-sotiqqa tortib, iqtisodni ko‘targan va ikkinchidan, davlat g‘aznasiga sezilarli daromad keltirgan.

Buyuk Ipak yo‘li XV-XVI asrlardagi buyuk geografik kashfiyotlar davri boshlangandan so‘ng o‘z-o‘zidan so‘na boshladi, chunki tuya va otga suyangan karvon G‘arbiy Yevropaning yelkanli kema va karabellari bilan tenglasha olmas edi. Ammo uning insoniyat taraqqiyotidagi ijobiy roli shubhasizdir. Shu jumladan, Buyuk Ipak yo‘li Markaziy Osiyoning va birinchi navbatda, Vatanimiz Movarounnahrning iqtisodiy va madaniy ko‘tarilishida jiddiy o‘rin tutgan.

Matn yuzasidan topshiriqlar:

1-topshiriq.

a) matnni o‘qing, reja tuzing;

b) reja asosida matn mazmunini so‘zlab bering;

d) gap tuzilishiga ahamiyat bering, qo‘shma gap turlarini aniqlang;

e) matnni qisqartirib daftaringizga ko‘chiring.

2-topshiriq. Quyidagi tayanch so‘z va iboralarning ma’nosini izohlang.

Sharq, G‘arb, savdo-sotiq, tijorat, madaniy-ilmiy aloqalar, yozma ma’lumotlar, miloddan avvalgi, elchi, sayyoh, dengiz yo‘li, ipak qurti, metall pul birligi, hukmdor, bekat, karvonsaroy, bandargoh, g‘azna, karvon, yelkanli kema.

SALOMATLIK - TUMAN BOYLIK

Dunyoning barcha mamlakatlarida salomlashish yuksak madaniyat belgisi hisoblanadi. Ko‘chaga chiqqanda uchragan

birinchi tanishga, do'stlarga, o'qish yoki ish joyiga kiriboq hamsaboqlar, hamkasabalarga, uyga qaytganda esa oila a'zolariga salom beriladi, salomga alik olinadi. Salom-alikning ma'nosi, eng avvalo, bir-biriga sog'liq, tinchlik, omonlik tilashdir. Shundan ham ko'rinadiki, inson uchun sog'liq, omonlik, tinchlikdan qimmatliroq boylik yo'qdir. Shuning uchun ham bir-birimiz bilan uchrashganda "Assalomu alaykum! Salomatmisiz? Sog'liqlaringiz yaxshimi? Sog'-omonmisiz?" desak, xayrlashayotganda esa, albatta, "Sog' bo'ling! Xayr, salomat bo'ling!" - deymiz.

Doim sog' bo'lish mumkinmi? Ha, mumkin. Buning uchun o'z vaqtida rejali ovqatlanish, zararli odatlardan voz kechish, o'qish yoki ishni qat'iy tartib asosida yo'lga qo'yish, ertalab badantarbiya qilish, tanani, o'qish yoki ish joyini doim toza-ozoda saqlash, asabiylashishdan o'zini tiyish, ko'proq quvnoq kishilar davrasida bo'lish, o'z vaqtida dam olish, turli meva, sabzavot va ko'katlardan iste'mol qilib turish lozim.

Afsuski, har doim ham vaziyat biz istagandek bo'lavermaydi. Doim ham bir-birimizni to'g'ri tushunavermaymiz. Oqibatda kishi asabiylashadi. Asabiylashish esa o'qish yoki ishdagi dilxiraliklarga, eng yomoni, salomatligimizning yomonlashuviga sabab bo'ladi. Shuningdek, ob-havoning tez-tez o'zgarishi, quyosh yoki tabiatdagi muvozanatning o'zgarishi, o'qish, ish yoki yashash joyimizdagi turli noqulayliklar ham salomatligimizga salbiy ta'sir etadi. Oqibatda kishi tanasi o'zining doimiy muvozanatini saqlab turolmay, tashqi yordamga muhtojlik sezadi. Shunda biz shifokorlarga murojaat etishga majbur bo'lamiz.

O'zbekiston Respublikasi hukumati aholi sog'ligini mustahkamlash uchun barcha sharoit va imkoniyatlarni yaratmoqda. 2000-yili respublikamizda "Sog'lom avlod yili" deb e'lon qilindi. Aholi sog'ligini mustahkamlash yo'lida alohida xizmat ko'rsatgan kishilar uchun "Sog'lom avlod uchun" ordeni ta'sis etilgan. Mamlakatimizda xalq hayotini farovonlashtirish, atrof-muhitning ifloslanishiga yo'l qo'ymaslik borasida bir qancha qonunlar qabul qilingan. Korxonalarda mehnatni muhofaza qilish va texnika

xavfsizligi qoidalariga qat'iy amal qilinadi. Ko'pchilik korxonalarning profilaktoriyalari, dam olish pansionatlari mavjud. Aholi sog'ligini tiklash va mustahkamlash uchun qishloq vrachlik punktlari, ambulatoriyalar, poliklinikalar, shifoxonalardan tashqari, o'nlab sanatoriylar, dam olish uylari yil bo'yi ishlab turadi.

Sog'lig'ini asrash har kimning o'z qo'lidadir. Buning uchun har birimiz uyda, o'qishda va ishda xushmuomala bo'lishimiz, rashk, ig'vo, fitnalarga barham berishimiz, bir-birimizga mehribon bo'lishimiz, ichkilikbozlik, kashandalik, giyohvandlik, fohishabozlik kabi illatlarni tag-tubi bilan yo'q qilishimiz, chang, tutun va shovqin-suronsiz sharoitda yashash, o'qish va ishlash imkoniyatini yaratishimiz, ovqatlanish va dam olishni to'g'ri tashkil etishimiz, asabga tegadigan har qanday omildan voz kechishimiz, sport bilan shug'ullanib chiniqishimiz, qisqasi - sog'lom hayot tarzini yaratishimiz lozim. Ana shundagina dunyoning barcha boyliklaridan ham qimmatroq bo'lgan sog'ligimizni asrab, baxtli hayot kechiramiz.

Matn yuzasidan topshiriqlar:

1-topshiriq.

a) matnni o'qing, reja tuzing;

b) reja asosida matn mazmunini so'zlab bering;

d) "Sport - sog'liq garovi" mavzusida insho yozing;

e) matndan foydalanib salomatlik formulasini yarating.

2-topshiriq. Quyidagi tayanch so'z va iboralarning ma'nosini izohlang.

Salomlashish, madaniyat, oila a'zolari, rejali ovqatlanish, zararli odatlar, badantarbiya, asabiylashish, vaziyat, muvozanat, ta'sis, farovonlashtirish, profilaktoriylar, dam olish pansionatlari, sport.

HAMID OLIMJON VA ZULFIYAXONIM

(Vafodorlikda tengi yoq)

Shunday insonlar bo'ladiki, ular qancha umr ko'rganidan qat'iy nazar xalq qalbida abadiy yashaydi. Ana shundaylardan biri Hamid

Olimjon edi. U qisqa umri davomida o'nlab o'lmas asarlar yaratib xalqimiz yuragidan mangu joy oldi. Hamid Olimjon she'riyat maydoniga porloq yulduzdek kirib keldi. Xuddi shuningdek, uning umr yo'ldoshi Zulfiyaxonim ham shu maqomga ega bo'ldi. Xo'sh, ularning bir-biriga muhabbatlari qanday edi?

Ular 1935-yilda sevib oila qurishdi. Biroq oradan to'qqiz yil o'tgach, nogahoniy falokat tufayli Zulfiya ikki nafar farzandi bilan eridan beva qoldi. Keyin esa u umrining oxirigacha Hamid Olimjonga bo'lgan muhabbatini boshi ustiga qo'yib, avaylab, asrab, gard yuqtirmay olib o'tdi. Ba'zan, Zulfiya opa to'g'risida ikki bolani otasiz katta qildi, deyishadi. Bu unchalik to'g'ri emas. Chunki Hamid Olimjon ruhan o'z xonadonini biron kun ham tark etgan emas. Devorlardagi suratlardan Hamid Olimjon yirik-yirik ko'zlari bilan muttasil Zulfiya opaga, farzandlariga qarab, ularning holidan xabar olib turardi. Javondagi kitoblardan uning salobatli ovozi eshitilib turgandek edi. Otaning ruhi tirik bo'lsa, u otaning hamma ishlarida, shu jumladan, bolalar tarbiyasida ham ishtirok etaverar ekan.

Zulfiya - atoqli shoira, yirik davlat arbobi, jamoat ishlarida faoliyat ko'rsatdi. Lekin u birinchi navbatda ayol, ayol bo'lganda ham o'zbek ayoli edi. U ayol sifatida muayyan burchga ega edi. Hamid Olimjondan erta ayrilgan farzandlarini o'stirib, odam qilib yetishtirmoq kerak edi. Bu esa dunyodagi eng qiyin, eng mashaqqatli ishlardan biri. Qizig'i shuki, siz farzandlaringizni moddiy ne'matlarga ko'mib yuborishingiz, ular yaxshi kiyinishi, yeb-ichishi, shuhratingiz shu'lasida gerdayib yurishlari mumkin, lekin bularning hech qaysisi farzandning qobil bo'lib chiqmog'i uchun yetarli bo'lmasligi hech gap emas. U aksincha o'g'ri, bezori bo'lishi ehtimoldan holi emas. Zulfiya opa 30 yoshida beva qolgan edi - u 30 yashar ayolga atalgan bu dunyoning butun qo'rini farzandlariga bag'ishladi. Buning oqibatida qizi Hulkar olima bo'ldi. Nafaqaga chiqquniga qadar O'zbekiston Milliy universitetida dars berdi, Oybek domlaga munosib kelin bo'ldi. O'g'li Omon

esa - mana qirq yildan oshdiki, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisida ishlaydi. Zulfiya opa o'zining onalik burchini ham juda o'rinlatib ado etdi. Jamiyat uchun yaxshi fazilatlarga ega bo'lgan ikki ajoyib insonni tarbiyalab yetkazib berdi.

Zulfiya opa o'zbek she'riyatida o'ziga xos bir maktab yaratib ketdi. Uning shogirdlari ko'p edi. Ular Zulfiya opaning chirog'ini so'ndirmaslikka harakat qilib kelishmoqda. Shoira shogirdlari bilan birga go'zal bir she'riyat chamanini ham bunyod etdi.

Shoiraning she'rlari haqida, ularning latofati, insoniy jozibasi, teranligi to'g'risida juda ko'p gapirish mumkin. Lekin Zulfiya opani odamlarga ardoqli qilgan, adabiyotimizning yorqin yulduzlaridan biriga aylantirgan, XX asrning buyuk ayollari qatoriga qo'shgan asosiy omil nima? Bu uning e'tiqodi, juda yuksak ma'naviy va axloqiy fazilatlari, dili bilan tilining birligi, she'rlarida madh etgan insoniylik, vafo, sadoqat va diyonat degan narsalarga o'zi hayotda og'ishmay amal qilganida.

Onasi uni yoshligida to'rt o'g'il ichida "gul g'uncham", "shoira qizim", der ekan. Onaning mehri daryodek toshib, oftob jilvasida xalq qalbiga ham yetib bordi. Endi uni elu yurt ham "shoira qizim", deb ardoqlaydigan bo'ldi. Chunki shoira shunday she'rlar bitardiki, o'qiganlar miriqadi, yuragida quvonch bo'lsa, to'lqin urardi, dardi bo'lsa... shoira she'rlari dardiga malham bo'ladi.

Shoira umrining so'nggi kunlarigacha sevgi, sadoqat, hijronni kuylab o'tdi.

U xalqaro "Nilufar" va Neru nomidagi mukofotlarning sohibasi bo'lgandi. Lekin mukofotu unvonlar orasida bitta unvon bor ediki, bu Zulfiya opani alohida mag'rurlantirgan. U O'zbekiston xalq shoirasi edi. Shuning uchun bo'lsa kerak, "Baxtim shulki, o'zbekning Zulfiyasiman" deya xitob qilgandi. Shoira haqiqatdan ham o'zbek ayollarining vafo va sadoqatda buyuk timsoli bo'lib qoldi. Respublikamizda Prezidentimiz

tashabbusi bilan "Zulfiyaxonim" mukofoti ta'sis etildi. Mana bir necha yildirki, mamlakatimizdagi san'at, adabiyot sohasida o'zini ko'rsatgan eng ilg'or qizlar ushbu mukofotga sazovor bo'lishmoqda.

Matn yuzasidan topshiriqlar:

1-topshiriq.

a) matnni o'qing;

b) reja tuzing, reja asosida matn mazmunini so'zlab bering;

d) o'zbek shoir va yozuvchilari haqida B\B\B jadvalini tuzing;

e) jahon adabiyoti namoyondalari haqida taqdimot tayyorlang.

2-topshiriq. Quyidagi tayanch so'z va iboralarning ma'nosini izohlang.

Qalb, abadiy, mangu, umr yo'ldoshi, muhabbat, oila, beva, falokat, ruhan, xonadon, tark etmoq, bolalar tarbiyasi, javon, davlat arbobi, jamoat ishlari, ayol, qobil, onalik burchi, xalq shoirasi, "Zulfiyaxonim" mukofoti.

BOTIR ZOKIROV

Hayotda shunday insonlar bo'ladiki, ularning muhabbati ham buyuk bo'ladi.

To'qqizinchi sinfni bitirish arafasida Botirning yuragiga ishq mehmon bo'ldi, u Farangis ismli qizni yaxshi ko'rib qoldi. Qiz ham uni nihoyatda sevardi. Ularning sevgisi buloq suvidek tiniq, osmon kabi musaffo edi. Lekin Farangisning ota-onasi, akalari bundan xabar topib, uni ancha koyishdi. Negaki ularning badavlat, dovrug'i elga ketgan oilasiga Botir mos ko'rilmadi...

Botir 1952-yili Toshkent Davlat konservatoriyasining vokal fakultetiga imtihon topshirib, muvaffaqiyatli o'tdi. Farangis Moskva Davlat universitetining filologiya fakultetida o'qiy boshladi. Ularning orasidagi elchi - xat bo'ldi.

Kutilmaganda Botirning hayotida og'ir kunlar boshlandi. 1955-yilda qattiq betob bo'lib, Toshkent tibbiyot institutining

yuqumli kasalliklar klinikasida davolana boshladi. Ahvoli og'ir, rangi za'faron, cho'pday ozib ketgandi. Uni shifokor Vali Majidov uzoq davoladi. Davolash jarayoni uzoq va og'ir kechsada, Botir ruhiy tushkunlikka tushmadi. Uning hayotga muhabbati, irodasi kuchli edi.

Botir Zokirov operatsiyadan so'ng ham qo'shiq kuyladi. Qiynaldi, izlandi, yo'lidagi to'siqlarni yengib, qayta-qayta kuyladi, oxiri o'z qo'shig'ini topdi. Lekin qanchalik kuyib-yonmasin, ko'zlari to'rt bo'lib axtarmasin, yuragiga armon solgan baxt yulduzini - Farangisni uchratolmadi. Bunga ikki oshiq yurak orasiga to'siq bo'layotganlar sababchi edi. Bir safar Moskvada konsert berayotganida qo'shiqchi uni zaldagi tomoshabinlar orasida tasodifan ko'rib qoldi. O'shanda gastrolning oxirgi kunlari edi. Uni ko'rgan zahoti, o'zini sahnada bir zum yo'qotdi. Uning ko'zlariga sevgilisidan boshqa hech kim, hech narsa ko'rinmasdi. Baxt yulduzi bo'lsa zalning beshinchi qatorida o'tirib, sochlari yelkalariga parishon, o'zini batamom unutgan holda xonandaning mungli qalb faryodini tinglardi. Xonanda esa undan ko'zlarini uzmay, faqat u uchungina yonib kuylardi:

Qaydasan, azizim, qaro ko'zligim,
Sevgili yulduzim, shirin so'zligim.
Qo'limda senga deb quyilgan harob,
Ko'zlarim yo'lingda, anor uzligim...

Konsertdan so'ng u Farangisni izladi. Topolmadi... bir necha marta uning suratini chizishga urindi. Chizolmadi. Yana qalblarni sog'inchlarga to'ldirib kuyladi:

Qaydasan, azizim, qaro ko'zligim...

... U qo'shiq kuylayotib, zalga qaradi. Qaradi-yu, bir nuqtaga termulib kuylashda davom etdi. Bu safar ham uning yetolmagan yulduzi o'sha qator, o'sha o'rindiqda o'tirgancha uni tinglardi. Shaloladay sochlari yelkalarini tutgan. Timqora

ko‘zlari qo‘shiq sehridan yonardi. Vujudi quloq bo‘lib sahnaga aylangan. Sahnada esa sevimli xonandasi odatdagiday bo‘g‘zida dard bilan xonish qilib, uni chorlayapti:

Bog‘imga noz ila kel,
Quvnoq ovoz ila yor kel,
Seniki bu chaman, bu gullar,
Seniki kuylagan bulbullar,
Kuy ila, soz ila kel.

Qiz ham uchib bormoqchi, lekin qanotlari yo‘q, yugurib boray desa madori yetishmaydi, javob qilay desa nafasi tiqilib qolaveradi. Qo‘shiq uni butunlay sehrlab tashlagan. Xonandaning savollariga xayolan javob berishdan o‘zga chora yo‘q.

“Sog‘-omon tuzalib qaytdingmi, qo‘shig‘im? Seni kutaverib ko‘zlarim yo‘llaringda sarg‘aydi, qayta ko‘rarmikanman, deb sho‘rlik qalbim yana pora-pora bo‘ldi. Qaydasan, qaylardasan joni-jahonim - qo‘shig‘im? Yolg‘iz plastinkang hamisha qalbim malhami. Uni eshitaverib-eshitaverib ovozingni tomirlarimga payvand etdim. Lekin seni qayta ko‘raman, seni tinglab yana qirg‘oqlariga sig‘magan daryoday bo‘laman deb sira-sira o‘ylamagandim.

Hozir olamda mendan baxtli, mendan baxtiyor inson yo‘q. Chunki sening o‘tli ko‘zlaringga termulib, nolayu afg‘onlaringni, dardu xasratlaringni qaytadan tomirlarimga, qalbimga jo qilyapman, qo‘shig‘im. Men bugun qaytadan dunyoga keldim, kelib yana seni ko‘rdim, faqat seni topdim, qo‘shig‘im!...

Konsert tugashi bilan Botirni shifokorlar o‘rab olishdi. Bu safar ham Uni ko‘rolmadi, diydoriga to‘yolmadi. Sog‘inch hislarini bayon etmoqchi, miriqib-miriqib dardlashmoqchi edi. Bo‘lmadi...1985-yil, 25-yanvar. Motamsaro osmon uning tobuti ustiga tinimsiz qor elardi...

Matn yuzasidan topshiriqlar:

1-topshiriq.

a) matnni o'qing, reja tuzing;

b) reja asosida matn mazmunini so'zlab bering;

d) matnni rus tiliga tarjima qiling;

e) "Musiqa san'ati" mavzusida insho yozing.

2-topshiriq. Quyidagi tayanch so'z va iboralarning ma'nosini izohlang.

Muhabbat, konservatoriya, vokal, fakultet, imtihon, tibbiyot instituti, yuqumli kasalliklar, klinika, tushkunlik, shifokor, iroda, operatsiya, qo'shiq, konsert, tomoshabin, surat, plastinka.

ILOHIY SO'Z QADRI

Xalqimizning ardoqli olimasi, Fozilaxonim Sulaymonovaning "Sharq va G'arb" kitobi quyidagi satrlar bilan boshlanadi: "Hayotim yo'ldoshi, do'stim va ustozim Hamid Sulaymonovning yorqin xotirasiga bag'ishlayman"...

Ular bir-birlariga ko'ngil berishgan, mehr qo'yishgan. Ahillikda, baxtiyorlikda qirq yil birga hayot kechirdilar. Lekin bir-birlariga hech qachon dil izhori bildirmadilar. Balki, muhabbatdek oliyjanob tuyg'uning sehri, ilohiyligi, buyukligi-yu pokizaligi ham shunda bo'lsa ne ajab...

Jajji Fozilaxonimning zukkoligi, o'tkir zehni Marg'ilon ahlini shoshirib qo'ygandi. Besh yasharligidanoq maktabga borgan qizaloq, so'ng texnikumni tamomlab, o'n uch yoshida Quvada o'qituvchilik qildi. Iqtidori, iste'dodi bois o'n olti yoshidanoq maktabga direktor bo'ladi. Keyin Toshkentdagi pedagogika institutiga o'qishga kiradi.

O'sha paytlar Hamid Sulaymonov jamoa ichida eng yosh o'qituvchi edi. Toshkentning ma'rifatparvar ziyolilari oilasida voyaga yetgan alp kelbatli yigit aksariyat qizlarga yoqardi-yu, biroq uning salobatidanmi yo o'ta jiddiyligi uchunmi hech kim yurak yutib ortiqcha bir so'z aytishga botina olmasdi. Oradan bir yil

o‘tadi. Kunlarning birida yigit Fozilaxonimni uyiga taklif etadi. Qiz talabalarning kursboshisi bo‘lgani uchun avvallari domlasi xastalanib qolganida “zachyot” qo‘ydirishga ularning uyiga borgani sababli bunga rozi bo‘ladi.

Negadir Hamidjon bir do‘sti bilan uyda yolg‘iz edi. Buni ko‘rgan Fozilaxonimning jahli chiqdi. “Obbo, domlamiz meni do‘sti bilan tanishtirmoqchi bo‘lib uyga chaqirdi - mi? Ensasi qotgan qiz ortga qaytmoqchi ham bo‘ldi. Biroq Hamid akaning taklifi bilan ular shahar markazidagi kinoteatrga yo‘l olishdi. Manzilga yetib kelganda do‘sti uzrini aytdi-da, qayoqqadir ketdi. Yolg‘iz qolgach ikki yosh xiyobon bo‘ylab muzqaymoq yegancha gaplashib ketishdi.

- Fozilaxon, bir yildan buyon Sizni kutaman, - dedi vazminlik bilan Hamid Sulaymon. - O‘tgan yili ko‘zimga kichkina qizcha bo‘lib ko‘ringandingiz. Hozir ulg‘aygansiz, endi aytsam bo‘laveradi. Yoshim yigirma yettida. Men ilmli, zamonaviy, oqila, xushaxloq qiz bilan oila qursam deyman. Siz bunga loyiq bo‘lgan yagona qizsiz. Uyimizni ko‘rdingiz, meni yaxshi bilasiz. Siz bunga nima deysiz?

Yigitning so‘zlari Fozilaxonni garang qilib qo‘ygandi...

- Bilmadim, bu ota-onamga bog‘liq, - deya oldi u.

Oradan birmuncha vaqt o‘tdi. Yigit va qizning ota-onalari uchrashib, ikki yoshning ahdu paymoni to‘g‘risida bir fikrga kelisholmadi. Boisi Fozilaxonimning oyisi dilbandini sira uzoqqa jo‘natgisi yo‘q edi.

Qarshiliklarga qaramay, 1939-yili vodiyda ham, poytaxtda ham gangir-gungir to‘y bo‘ldi.

Ularning dunyoqarashi, tafakkuri, ma’naviy olami, ruhiyati bir-biriga juda mushtarak edi. Domla Hamid Sulaymon ilmiy izlanishlarini tobora puxtaroq olib borishga intilar, Fozilaxon esa bu ishda unga yaqin do‘st, maslahatchi, ko‘makchi edi. Bu orada opa Leningradga borib ilmiy ishlarni davom ettirdi. Oila yumushlari, ikki o‘g‘lining tarbiyasi bilan esa Hamid Sulaymonning jannati, g‘amxo‘r volidasi mashg‘ul edi. Onaizor Fozilaxonni o‘z qizidan ham ortiq ko‘rardi.

Hamid aka va Fozila opalarning hayoti silliq, yengil kechdi, desak yanglishgan bo'lamiz. Mustabid tuzumning 50-yillardagi qatag'oni Hamid Sulaymonni ham chetlab o'tmadi. Yo'q yerdagi aybnomalaru, "xalq dushmani" degan tavqi la'nat bilan olimni hibsga oldilar. Domlani "aksil sho'roviy xatti-harakatlari uchun", degan ayblov bilan 25 yil qamoq jazosiga hukm etishdi. Fozilaxonim esa "xalq dushmanining umr yo'ldoshi" sifatida ishdan chetlatildi. Fozila opa Hamid Sulaymonning mutlaqo aybsizligini his etardi. Shu ishonch tuyg'usi uni 1954 - yilda Ittifoq prokurorining o'rinbosariga ariza yozishga undadi. Ko'p qiyinchiliklardan so'ng u bosh prokuror o'rinbosarining qabuliga kiradigan bo'ldi.

G'ala-g'ovur Moskva shahri, hech kimning birov bilan ishi yo'q. Opa asabiylashib uzoq vaqt navbat kutdi. Hozir uning xayolida beayb Hamid Sulaymonni tezroq qamoqdan chiqarib yuborishlariga erishishdan o'zga fikr yo'q edi. Dunyo bunchalar tor, buncha qorong'u bo'lmasa?! To'satdan ko'zi tinib, o'ng biqinida paydo bo'lgan kuchli sanchiqdan Fozilaxonim hushidan ketib yiqildi. Kotiba qiz unga dori hidlatib, o'ziga keltirdi. Shundan so'ng prokuror o'rinbosari qabuliga kirdi.

Oradan bir yildan ziyodroq vaqt o'tdi. Fozilaxonimning yugurib-yelishlari bejiz ketmadi. Hamid Sulaymon "oqlanib" oilasi bag'riga qaytdi. Ularga shodlik ulashib, qizlari dunyoga keldi. Hayotning turli og'ir sinovlari-yu, imtihonlari ularning muhabbatini yanada mustahkamladi, tobladi.

Fozila opa va Hamid Sulaymon umr bo'yi bir-birlarini ardoqlashdi, e'zozlashdi. Bir-birlariga sirdosh, yelkadosh, dardkash bo'lishdi. Faqat o'z og'zi bilangina "Sevdim" degan so'zni aytishmadi. Muqaddas kalomning qadrini hamisha yuksak bilishdi. Faqat ko'zlaru, yuraklar shu sehrli so'zni pichirlab aytardi...

Matn yuzasidan topshiriqlar:

1-topshiriq.

a) matnni o'qing, reja tuzing;

b) reja asosida matn mazmunini so'zlab bering;

d) "Zamonaviy muhabbat" mavzusida dialogga kirishing;

e) O'zbekistondagi olima ayollar haqida ma'lumot to'plang.

2-topshiriq. Quyidagi tayanch so'z va iboralarning ma'nosini izohlang.

Do'st, ustoz, ahillik, baxtiyorlik, oliyjanob tuyg'u, texnikum, o'qituvchilik, iqtidor, iste'dod, salobat, ma'rifatparvar, ziyoli, kursdosh, shahar markazi, kinoteatr, vodiy, poytaxt, dunyoqarash, tafakkur, ma'naviy olam, sirdosh, yelkadosh, dardkash.

Abdulla Oripov

Abdulla Oripov hozirgi o'zbek she'riyatining yirik vakili, mohir tarjimoni va jamoat arbobidir.

U 1941-yil 21-martda Qashqadaryo viloyatining Neko'z qishlog'ida tug'ilgan. 1958-yili o'rta maktabni bitirib, shu yili Toshkent davlat universitetining o'zbek filologiyasi fakultetiga o'qishga kiradi.

A.Oripov o'quvchilik yillaridayoq she'rlar yozishni mashq qila boshlagan. Uning ilk she'rlari dastlab tuman gazetalarida e'lon qilinadi.

Talabalik yillarida esa she'rlari respublika matbuotida bosilib chiqib, adabiy jamoatchilik e'tiborini tortdi.

Shoirning ilk to'plami 1965-yili "Mitti yulduz" nomi bilan nashr qilingan. Shundan so'ng 1966-yilda "Ko'zlarim yo'lingda", 1969-yili "Onajon", "Ruhim", 70-yillarda "Buloq", "O'zbekiston", "Yurtim shamoli", "Hayrat", "Yuzma-yuz", 80-yillarda esa "Najot qal'asi", "Yillar armoni" kabi qator to'plamlari chop etildi.

1968-yil Abdulla Oripov Oybek, Uyg'un, Mirtemir tavsiyalari bilan O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a'zoligiga qabul qilinadi. U avval "Yosh gvardiya" nashriyotida, keyinroq, G'afur G'ulom

nomidagi adabiyot va san'at nashriyotida bo'lim muharriri, "Sharq yulduzi" jurnalining she'riyat bo'limi mudiri, O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasining adabiy maslahatchisi, Yozuvchilar uyushmasi Toshkent bo'limi mas'ul kotibi, "Gulxan" jurnali bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasi Yozuvchilar uyushmasi raisi lavozimlarida ishladi.

Abdulla Oripov O'rta asr italyan shoiri Dantening "Ilohiy komediya"sidan "Do'zax" dramasini, venger dramaturgi Xeltonning "Soqov ritsar" nomli she'riy dramasini, Pushkin, Nekrasov she'riyatini o'zbek tiliga tarjima qilgan.

A.Oripov 1983-yili Hamza nomidagi Respublika Davlat mukofotiga sazovor bo'ldi. U adabiyot sohasidagi xizmatlari uchun 1989-yili "O'zbekiston Xalq shoiri", 1999-yilda esa "O'zbekiston Qahramoni" yuksak unvonlari bilan taqdirlandi. Abdulla Oripov 2016-yil 5-noyabrda vafot etdi.

Matn yuzasidan topshiriqlar:
1-topshiriq.
a) matnni o'qing, reja tuzing;
b) reja asosida matn mazmunini so'zlab bering.

Erkin Vohidov

O'zbek she'riyatining yirik vakillaridan biri shoir, mohir tarjimon va davlat arbobi Erkin Vohidovdir. U 1936-yilning 28-dekabrida Farg'ona viloyatining Oltiariq tumanida o'qituvchi oilasida dunyoga kelgan (2016-yilnung 30-mayida vafot etdi). Erkin Vohidovlar oilasi 1945-yilda Toshkentga ko'chib kelgach, bo'lg'usi shoir shu yerda o'rta ma'lumot oladi.

1960-yilga kelib, u Toshkent Davlat universitetining o'zbek filologiyasi fakultetini tugatadi, so'ngra turli nashriyotlarda muharrirlik qiladi. Avval "Yosh gvardiya" nashriyotida (1960-1963, 1975-1982), so'ng G'afur G'ulom nashriyotida (1963-1970) bosh muharrir, direktor bo'lib ishlaydi. Ayni chog'da "Yoshlik" jurnaliga boshchilik ham qiladi.

Uning birinchi she'ri 14 yoshida, 7-sinfda o'qib yurgan kezlarida chop etilgan. U 16 yoshga kirganda "Manzara" nomli she'ri bosildi. Unda tabiat go'zalligi samimiy tasvir etilgan bo'lsa, ko'p o'tmay, u do'stlariga qarata:

Istaymanki, xurramlik bo'lsin,
Sho'x qahqaha bog'lasin qanot.
Kuy shalola yanglig' quyilsin,
Qo'shiq bo'lib tuyulsin hayot.

deb, ijodning katta karvoniga o'zining yaxshi niyati, katta umidi, pokiza qalbi bilan kirib keldi.

Shoir G'ayratiy rahbarlik qilgan adabiy to'garaklarda pishgan, chiniqqan. Uning birinchi she'riy to'plami 1961-yilda "Tong nafasi" nomi bilan bosilib chiqqan edi. Shundan buyon shoirning o'ttizdan ortiq she'riy majmualari o'z o'quvchisiga yetib borgan. Jumladan, shoirning "Qo'shiqlarim sizga" (1962), "Yurak va aql" (1963), "Mening yulduzim" (1964), "Nido" (1965), "Lirika"(1965), "Palatkada yozilgan doston" (1967), "Yoshlik devoni" (1969), "Charog'bon" (1970), "Dostonlar" (1973), "Hozirgi yoshlar" (1971), "Muhabbat", "Tirik sayyoralar" (1980) kabi she'riy guldastalari va dostonlari o'z kitobxoniga manzur bo'ladi.

Erkin Vohidov faqat ijtimoiy, ishqiy she'rlar yaratib qolmay, balki hajviy-yumoristik she'rlar muallifi hamdir. Uning "Manfaat falsafasi", "Sen menga tegma", "Majlis qiling", "Donish qishloq latifalari" kabi she'rlari shular jumlasidandir. U bir qator ajoyib dramatik dostonlar muallifi sifatida ham ma'lum va mashhurdir. Xususan, uning "Ruhlar isyoni", "Istambul fojeasi" kabi dostonlari o'zining badiiy pishiqligi, o'tkir dramatik xususiyati bilan alohida ajralib turadi. Ayni chog'da u mohir dramaturg hamdir. Uning "Oltin devor" asari ko'p yillardan buyon teatr sahnasidan tushmay kelishi ham shundandir.

Erkin Vohidov mohir tarjimon sifatida S. Yesenin, L. Ukrainka, M. Svetlov, A. Blok, R. Hamzatov kabi iste'dodli shoirlarning

she'rlarini o'z ona tilida so'zlata oldi. Uning tarjima sohasidagi mahorati buyuk nemis shoiri Gyotening "Faust" asari tarjimasida (1974) yuqori cho'qqiga ko'tarildi.

Adabiyot va xalq oldidagi xizmatlari uchun u O'zbekiston Xalq shoiri (1987), Hamza nomidagi O'zbekiston Davlat mukofoti laureati (1983) bo'ldi. Samarali ijodi Erkin Vohidovga el-yurt e'zozini olib keldi. U tavalludining 60 yilligi munosabati bilan "Buyuk xizmatlari uchun" (1997) ordeni bilan taqdirlandi. "O'zbekiston Qahramoni" (1999) yuksak unvoniga sazovor bo'ldi.

Tong lavhasi

Ufqlarga qo'yib guldasta,
Tog' ortidan ko'tardi-da bosh,
Pastga boqdi cho'qqidan asta
Oltin qalam tutgan bir naqqosh.
Har nuqtaga sayqal berib u,
Vodiy uzra chizdi zar lavha.
So'ng quyosh deb imzo chekdi-yu,
Tongotar deb qo'ydi sarlavha.

Matn yuzasidan topshiriqlar.

1-topshiriq:

a) matnni o'qing;
b) matnni qismlarga ajrating va har bir qismiga sarlavha toping;
d) matn yuzasidan savollar tuzing;
e) javoblaringizni daftaringizga yozing.

O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi

O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi 1992-yilning 8-dekabrida qabul qilindi. U 6 bob, 26 bo'lim, 128 moddadan iborat.

O'zbekiston Respublikasining konstitutsiyasi O'zbekiston inson huquqlari va davlat suvereniteti g'oyalariga sodiq demokratik respublika ekanligini tantanali ravishda e'lon qildi.

O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga ko‘ra xalq davlat hokimiyatining birdan-bir manbaidir.

O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi barcha fuqarolarning bir xil huquq va erkinliklarga ega ekanliklarini, jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e’tiqodi, shaxsi va ijtimoiy mavqeidan qat’iy nazar, qonun oldida tengligini kafolatlaydi.

Davlat jamiyatning madaniy, ilmiy va texnikaviy rivojlanishiga g‘amxo‘rlik qiladi.

Qomusimiz biz uchun nazariy-huquqiy hujjat, burch va majburiyatlarimiz majmuasigina emas, balki hayotimizni farovon etish, uni chinakam qonuniy asosga qurish, o‘z haq-huquqlarimizni ta’minlash, jamiyatda qonun ustuvorligini o‘rnatishning hayotbaxsh manbaidir.

O‘zbekiston konstitutsiyasida inson huquqlari va davlat mustaqilligi g‘oyalariga sadoqat, xalqimiz oldidagi yuksak mas’uliyat, o‘zbek davlatining tarixiy tajribasiga tayanish, fuqarolarning farovon hayot kechirishlarini ta’minlash, insonparvar jamiyatni barpo etish kabi oliyjanob maqsadlarni amalga oshirish ko‘zlangan.

O‘zbekiston Respublikasining konstitutsiyasida fuqarolarning burchlariga ham alohida e’tibor berilgan. Uning 11-bobida fuqarolarning qomusda belgilab qo‘yilgan burchlarini bajarishga, qonunlarga rioya etishga, boshqa kishilarning huquqlari, erkinliklari, qadr-qimmatini hurmat qilishga, O‘zbekiston va uning ma’naviy merosini avaylab-asrashga, atrof-tabiiy muhitga ehtiyotkorona munosabatda bo‘lishga, soliqlarni to‘lashga majburliklari ta’kidlanadi.

Matn yuzasidan topshiriqlar.

1- topshiriq:

a) matnni o‘qing;

b) matnni rus tiliga tarjima qiling;

d) matn yuzasidan savollar tuzing;

e) huquq va burchlaringiz haqida so‘zlab bering.

Alisher Navoiy
(1441-1501)

Buyuk mutafakkir va davlat arbobi, o'zbek adabiy tilining asoschisi Alisher Navoiy 1441-yilning 9-fevralida Hirotda tavallud topgan. Otasi G'iyosiddin Muhammad zamonasining bilimdon kishilaridan va temuriylar xonadoniga yaqin shaxslardan bo'lgan. Alisher 4-5 yoshlarida shahzoda Husayn bilan birga maktabda ta'lim oladi. Shohrux Mirzo (1409-1447-yillarda hukmronlik qilgan) vafotidan keyin mamlakatda tartibsizliklar boshlangani tufayli G'iyosiddin Muhammad 1449-yilda oilasi bilan Iroqqa ko'chib ketishga majbur bo'ladi. Iroq yo'lida bo'lajak shoir Amir Temur va temuriylar tarixiga oid "Zafarnoma" asarini yaratgan, bir necha temuriylarni tarbiyalagan ulug' tarixchi olim Sharafiddin Ali Yazdiy bilan uchrashadi, uning duosini oladi.

Abulqosim Bobur Mirzo (1452-1459-yillarda hukmronlik qilgan) 1452-yilda Hirot taxtiga o'tirganidan keyin G'iyosiddin Muhammadni Sabzavor shahriga hokim etib tayinlaydi. Biroq, u oradan ko'p o'tmay vafot etganidan keyin Abulqosim Bobur mirzo Alisher va Husaynni Mashhad shahriga olib ketadi. O'spirin Alisher bu yerda adabiyot bilan birga mantiq, riyoziyot, tarix va falsafa ilmini ham qunt bilan o'rganadi, ilk g'azallarini bitadi.

Navqiron Alisher Sulton Abu Said Mirzo (1459-1469-yillarda hukmronlik qilgan) Temuriylar davlatini, ya'ni Xuroson va Movarounnahrni birlashtirgan davr (1460-1469)da ancha muddat (1466-1469) Samarqandda yashaydi, zamonasining yetuk olimlaridan, shu jumladan, Fazlulloh Abu Laysdan ta'lim oladi. Xuroson taxtini egallagan Sulton Husayn Bayqaro Mirzo (1469-1506-yillarda hukmronlik qilgan) Alisher Navoiyni Hirotga chorlaydi va muhrdor lavozimiga tayinlaydi.

Zamonasida kechgan deyarli barcha siyosiy, ijtimoiy, ma'rifiy, madaniy jarayonlarning bevosita ishtirokchisi bo'lgan Alisher Navoiydan ulkan adabiy, ilmiy va ma'rifiy meros qoldi. Bular: "Xazoyin ul-maoniy" ("Ma'nolar xazinasi", to'rt devondan iborat, 1469, 1491-1498) kulliyoti, "Hayrat ul-abror" ("Yaxshi kishilar

hayrati", 1483), "Layli va Majnun" (1484), "Farhod va Shirin" (1484), "Sab'ayi sayyor" ("Yetti sayyora", 1484), "Saddi Iskandariy" ("Iskandar devori", 1485) dostonlaridan iborat "Xamsa"si, "Vaqfiya" (yirik mulk sohibi Alisher Navoiyning o'z zamondoshlariga maktublarini va vaqf hujjatlarini qamraydi, 1482), "Nazm ul-javohir" (Hikmatli so'zlar manzumasi, 1485), "Holoti Sayyid Hasan Ardasher" (Sayyid Hasan Ardasher hayotidan lavhalar, 1490), "Majolis un-nafois" ("Nafis majlislar", tazkira, 1490), "Mezon ul-avzon" ("Vaznlar o'lchovi" 1492), "Muhokamat ul-lug'atayn" ("Ikki til bahsi", 1499), "Lison ut-tayr" ("Qush tili", 1499-1500), "Mahbub ul-qulub" ("Ko'ngillar suyuklisi", 1500).

Alisher Navoiyning ulkan merosi adabiyot va adabiyotshunoslik, falsafa, siyosatshunoslik, axloqshunoslik, tilshunoslik, tarix va boshqa ko'pgina sohalardagi umumiy va juz'iy muammolarni qamraydi. Mutafakkir shoir asarlarida borliq va uning mohiyatini, narsalar va hodisalarni idrok qilish, davlat, davlatchilik va boshqaruv usullari, inson va uning jamiyatdagi o'rni, yetuk va adolatli jamiyat, ijtimoiy birdamlik, komil inson, yaxshi xulq-odob va mukammal ta'lim-tarbiya haqida zamonasida qimmatli va o'zidan keyingi davrlar uchun barhayot ilg'or umuminsoniy g'oyalarni ilgari suradi. Alisher Navoiy 1501-yil 3-yanvar kuni Hirotda vafot etdi.

Matn yuzasidan topshiriqlar.

1-topshiriq:

a) matnni o'qing;

b) matn yuzasidan savollar tuzing;

d) matnni qismlarga ajrating va sarlavha qo'ying;

e) "Alisher Navoiy va zamonamiz" mavzusida taqdimot tayyorlang.

2-topshiriq. G'azal, ruboiylarni yod oling va tahlil qiling.

Sevungil ey ko'ngul...

Sevungil ey ko'ngul, oxirki jisming ichra jon keldi,
Quvon, ey joni mahzunkim, hayoti jovidon keldi.

Safardin ul pari yetdi, meni, mahzunni shod etdi.
Ko'ngildin eski ga'm ketti, tan ichra yangi jon keldi.

Xirad yig'bu masofingni, tahammul, qo'y gazofingni,
Vara', tark ayla lofingni, ki oshubi jon keldi.

Damekim andin ayrildim, ko'ngulni hamrahe qildim,
Bugun keldi ko'ngul, bildim, kim ul nomehribon keldi.

Kelubtur yoshurun ul shah, meni majnun emon ogah,
Pari ermas esa, bas vah, nechun ko'zdin nihon keldi?!

Falak boqti fig'onimg'a, ajal rahm etdi jonimg'a,
Xazonlig' bostonimg'a guli bog'i jinon keldi.
Mug'anniy, bir navoye tuz, Navoiy, nag'maye ko'rguz,
Ayoqchi, tomsa tut to'qquz, ki Doroyi jahon keldi.

Kecha kelgumdur debon...

Kecha kelgumdur debon ul sarvi gulro' kelmadi,
Ko'zlarimg'a kecha tong otguncha uyqu kelmadi.

Lahza-lahza chiqtimu, chektim yo'lida intizor,
Keldi jon og'zimg'ayu ul sho'xi badxo' kelmadi.

Orazidek oydin erkanda gar etti ehtiyot,
Ro'zg'orimdek ham o'lg'onda qorong'u kelmadi.

Ul parivash hajridinkim yig'ladim devonavor,
Kimsa bormukim, anga ko'rganda kulgu kelmadi.

Ko‘zlaringdin necha su kelgay deb o‘lturmang meni,
Kim boriqon erdi kelgan bu kecha su kelmadi.

Tolibi sodiq topilmas, yo‘qsa kim qo‘ydi qadam,
Yo‘lg‘a kim avval qadam ma’shuqi o‘tru kelmadi.

Ey Navoiy, boda birla xurram et ko‘nglung uyin,
Ne uchunkim boda kelgan uyga qayg‘u kelmadi.

Mehr ko‘p ko‘rguzdim...

Mehr ko‘p ko‘rguzdim, ammo mehribone topmadim,
Jon base qildim fido, oromi jone topmadim.

G‘am bila jonimg‘a yetdim, g‘amguzore ko‘rmadim,
Hajr ila dilxasta bo‘ldim, dilistone topmadim.

Ishq aro yuz ming malomat o‘qig‘a bo‘ldim nishon,
Bir kamon abro‘da tuzlikdin nishone topmadim.
Ko‘nglim ichra savr o‘qdir, g‘uncha paykon, gul tikon,
Dahr bog‘i ichra bundoq dilistone topmadim.
O‘z ishimdin bul ajabroq dostone topmadim,
Bir zamon ishqida mehnatdin amone topmadim.

Taob ganjidin Navoiy xo‘rdasin yuz qatla hayf,
Kim nisor etmakka shohi xurdadone topmadim.

Ruboiylar

So‘zdurki nishon berur o‘lukka jondin,
So‘zdurki berur jong‘a xabar jonondin.
Insonni so‘z ayladi judo hayvondin,
Bilkim, guvhare sharifroq yo‘q andin.

G‘urbatda g‘arib shodmon bo‘lmas emish,
El anga shafiqu, mehribon bo‘lmas emish.

Oltin qafas ichra gar qizil gul butsa,
Bulbulg'a tikondek oshyon bo'lmas emish.

Jondin seni ko'p sevarmen, ey umri aziz,
Sondin seni ko'p sevarmen, ey umri aziz.
Har neniki sevmak ondin ortiq bo'lmas,
Ondin seni ko'p sevarmen, ey umri aziz.

Zahiriddin Muhammad Bobur (1483-1530)

Zahiriddin Muhammad Bobur atoqli davlat arbobi, iste'dodli shoir, tarixchi, olim, shuning bilan birga tarjimondir.

Bobur keng va chuqur bilimli, zamonasining ulkan madaniyat arboblaridan bo'lib, u doimo ilm-fan, san'at va adabiyot ahllari bilan yaqindan aloqa tutar, ularga homiylik qilib, turli ilmiy, adabiy suhbatlar va munozaralar uyushtirar edi.

Bobur o'zbek mumtoz adabiyotining, ayniqsa, Alisher Navoiyning boy adabiy merosini o'rganadi. Bizgacha Boburning ikkita devoni yetib kelgan.

Bobur lirikasi o'zining hayotiyligi, badiiy soddaligi, joshqinligi va til boyligi bilan bilan o'zbek dunyoviy adabiyotining taraqqiyotiga katta hissa bo'lib qo'shildi. G'azal, ruboiy va tuyuq Bobur lirikasining eng xarakterli janrlaridir. Bobur Lutfiy, Navoiy, Xayyom, Hofiz kabi ustoz shoirlarning an'analarini davom ettiradi. Boburning eng yirik asari bo'lgan "Boburnoma" uni butun dunyoga tanitdi. "Boburnoma" tarixiy-badiiy asar bo'lishi bilan birga o'zbek nasrining qimmatli yodgorligi hamdir. Shu bilan birga, u geografiya, etnografiya, tabiiyot va boshqa ilmiy sohalar bo'yicha ham qimmatli ma'lumotlar beruvchi asar, o'zbek adabiy tilining muhim yodgorligidir.

Bobur 1503-1504-yillarda "Xatti Boburiy" deb nomlangan alifbe yaratadi. Uning muhim tomoni shundaki, alifbeda unlilar "zerzabar" tarzidagi belgilar bilan emas, balki maxsus harflar shaklida berilgan.

Bobur ilm-fanning turli sohalariga doir bir necha qimmatli asarlar yaratdi. Shulardan biri aruzga doir "Mufassal" ("Muxtasar") deb nomlangan risolasidir. Risola aruz nazariyasini to'ldiradi va boyitadi.

"Mubayyin" asari qonunshunoslikka bag'ishlangan bo'lib, masnaviy shaklida yozilgan.

Bobur, shuningdek, bizga yetib kelmagan musiqa nazariyasi va harbiy san'atga oid asarlar muallifidir.

Bobur o'z davrining barkamol farzandi va qomusiy aqlga ega shaxs bo'lgan. U o'zining g'ayrat-shijoati, o'tkir aqli, nozik ta'bi, faoliyatining ko'p qirraliligi bilan kishini hayratda qoldiradi. U o'lmas asarlari bilan juda ko'p xalqlarga manzur bo'ldi, badiiy adabiyot taraqqiyotiga samarali ta'sir etdi.

Matn yuzasidan topshiriqlar.

1- topshiriq.

a) matnni o'qing;

b) matn yuzasidan savollar tuzing;

d) matnning mazmunini so'zlab bering;

e) matnni qismlarga ajrating va ularni nomlang.

2-topshiriq. G'azal, ruboiylarni yod oling va tahlil qiling.

Jonimdin o'zga yoru vafodor...

Jonimdin o'zga yoru vafodor topmadim,
Ko'nglumdin o'zga mahrami asror topmadim.

Jonimdek o'zga jonni dilafgor ko'rmadim,
Ko'nglum kibi ko'ngulni giriftor topmadim.

Usruk ko'ziga toki ko'ngul bo'ldi mubtalo,
Hargiz bu telbani yana xushyor topmadim.

Nochor furqati bila xo'y etmisham, netay
Chun vaslig'a o'zumni sazovor topmadim.

Bore boray eshigiga bu navbat, ey ko'ngul,
Nechaki borib eshigiga bor topmadim.

Bobur o'zungni o'rgata ko'r, yorsizki, men
Istab jahonni muncha qilib, yor topmadim.

Charxning men ko'rmagan...

Charxning men ko'rmagan jabr-u jafosi qoldimu!?
Xasta ko'nglum chekmagan dardu balosi qoldimu!?
Meni xor etti-yu qildi muddaiyni parvarish,
Dahri dunparvarning o'zga muddaosi qoldimu?
Meni o'lturdi jafo-yu javr birla ul quyosh,
Emdi turgizmoq uchun mehr-u vafosi qoldimu?
Oshiq o'lg'ach ko'rdum o'lumni o'zumga, ey rafiq,
O'zga ko'nglumning bu olamda xarosi qoldimu?!

Ey ko'ngul, gar Bobur ul olamni istar, qilma ayb,
Tengri uchun de, bu olamning safosi qoldimu?

Ruboiylar

Har kimki vafo qilsa, vafo topqusidir,
Har kimki jafo qilsa, jafo topqusidir.
Yaxshi kishi ko'rmagay yomonlik hargiz
Har kimki yomon bo'lsa, jazo topqusidur.

Yod etmas emish kishini g'urbatda kishi,
Shod etmas emish ko'ngilni mehnatda kishi,
Ko'nglum bu g'ariblikda shod o'lmadi oh,
G'urbatda suyunmas emish, albatta kishi.

Kim yor anga ilm tolibi ilm kerak,
O'rgangali ilm tolibi ilm kerak.
Men tolibi ilmu tolibi ilm yo'q,
Men bormen ilm tolibi, ilm kerak.

Sport majmuasi

"Jar" sport majmuasi Chorsu bozoriga yaqin joyda joylashgan. Bu majmua juda salobatli va ko'rkam qilib qurilgan.

"Jar" sport majmuasida sportning deyarli barcha turlari bilan shug'ullanish imkoni bor. Bu yerda futbol, voleybol, qo'l to'pi, basketbol, o'zbek kurashi, shuningdek, kurashning boshqa turlari, qilichbozlik, karate, badiiy gimnastika, shaxmat, shashka, aerobika, boks, tennis kabi sport turlari bo'yicha to'garaklar ishlab turibdi. "Jar" sport majmuasida nufuzli xalqaro sport musobaqalari, turli tadbirlar o'tkazilib turadi. Ushbu majmua O'zbekiston hukumatining xalq salomatligi, ayniqsa, o'sib kelayotgan avlodning sog'lom, barkamol bo'lishi yo'lida ko'rsatayotgan jonbozligi, jonkuyarligi namunasidir. Bu yerga kuniga yuzlab, minglab odamlar tashrif buyuradilar, o'zlari istagan sport turlari bo'yicha mashg'uotlarda qatnashib salomatligini mustahkamlashadi.

Umuman, har bir inson salomatligini saqlashda, sog'lom turmush tarziga amal qilishda, albatta sport bilan shug'ullanmog'i zarur. O'zbek xalqida "Sog' tanda - sog'lom aql" degan ibora bor. Darhaqiqat, faqat jismonan sog'lom insongina teran fikrlar aytishi, fan-texnika sohasida buyuk kashfiyotlar qilishi, madaniyat va san'at sohasida ulkan yutuqlarga erishishi mumkin. Shunday ekan, bugundan boshlab sport bilan do'st bo'laylik, zero inson salomatligi o'z qo'lidadir.

Matn yuzasidan topshiriqlar.

1-topshiriq:

a) matnni o'qing;

b) matn yuzasidan savollar tuzing;

d) matnni rus tiliga tarjima qiling;

e) matn mazmunini kengaytirib so'zlab bering.

Oila – jamiyat tayanchi

Oila – bu jamiyat tayanchidir. Bu muqaddas maskanda inson dunyoga keladi, aynan mana shu yerda u ma'naviy va axloqiy jihatdan kamol topadi.

Shuning uchun bu qo'rg'onning mustahkam va barqaror bo'lishiga erishish nafaqat ma'lum bir mamlakat doirasida, balki dunyo miqyosida ham muhim ahamiyat kasb etadi. Birlashgan Millatlar Tashkiloti 1994-yildan e'tiboran har yili 15-may kunini Xalqaro oila kuni sifatida nishonlashga qaror qilgani tahsinga loyiqdir.

Oila to'g'risidagi g'amxo'rlikni amalga oshirish davlat ahamiyatiga ega bo'lgan g'oyat muhim vazifa hisoblanadi. Buning dalili sifatida 2012-yilning "Mustahkam oila yili" deb e'lon qilinishidir. Buning negizida yurtimizda oilani, avvalo, yosh oilalarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, ayollarimizning og'irini yengil qilish, oila farovonligini oshirish kabi maqsadlar mujassam.

Mamlakatimizda oila institutining rivojlanishi va jamiyatimizda oilaning kamol topishi yo'lida asos bo'ladigan mustahkam qonunchilik tizimi yaratilgan. Xususan, O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida ayni shu masalaga bag'ishlangan maxsus bob mavjud. Bu - O'zbekiston Konstitutsiyasining XIV bobi bo'lib, u "Oila" deb nomlangan. Mazkur bob 63-66-moddalarni o'z ichiga oladi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 63-moddasida quyidagi g'oyat muhim huquqiy norma belgilab qo'yilgan: *"Oila jamiyatning asosiy bo'g'inidir hamda jamiyat va davlat muhofazasida bo'lish huquqiga ega"*.

Odatda oilaning vujudga kelishida nikoh asos bo'ladi. Hayotni nikoh va oilasiz tasavvur qilish qiyin, chunki u turmushning juda muhim qismidir. Ota-onalar va bolalar har taraflama jipslashgan oila birligini tashkil qiladi. Ular oilaning negizi hisoblanadi.

Oila – jamiyatning asosi ekan, ezgulik yo'lini tanlagan ana shu jamiyatimizda oilalar faqat yaxshilik urug'idan vujudga kelsin. Zero, jamiyat mustahkam, ma'naviy, axloqiy jihatdan sog'lom oiladan g'oyatda manfaatdor.

Matn yuzasidan topshiriqlar.

1-topshiriq:

a) o'z oilangiz haqida tengdoshingiz bilan suhbatlashing;

b) matn yuzasidan savollar tuzing;

d) "Bizning oila" mavzusida bayon yozing;

e) matn bo'yicha qo'shimcha ma'lumot to'plang va matn mazmunini so'zlab bering.

MAHALLA

Mahalla (arabcha "mahalla" - joy, o'rin, makon) - O'zbekistonning muayyan tarixiy sharoitlarida, asrlar davomida shakllanib, faoliyat ko'rsatayotgan, aholi yashaydigan ma'muriy-hududiy birlik, uyushma. Mahallalar 1917-yilgacha bo'lgan davrda ish olib borib, mahalliy aholini birlashtiruvchi, uyushtiruvchi tashkiliy tuzilma bo'lgan. Mahalla kundalik ijtimoiy hayotni va turmushni tashkil qilishda o'zbek xalqi izlab topgan va asrlar davomida takomillashtirib kelgan a'molidir. Mahalla o'z mohiyati, faoliyati mazmuni va shakllari bilan sharqona fikrlash, ish yuritish tarzi kabi xalqimizning o'ziga xos fazilatlarini aks ettiradi. Mahallalar aholini ahil-totuv yashashga, sidqidildan mehnat qilishga, kasb o'rganishga, shular orqali hayot kechirishni sermazmun qilishga chaqiradi.

O'zbekiston mustaqilligi e'lon qilinishi bilan mahallalarga bo'lgan munosabat tubdan o'zgardi. Konstitutsiyaning 105-moddasiga va 1993-yil sentyabrida qabul qilingan "Fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari to'g'risida"gi Qonunga binoan, mahallalar o'z huquqiy maqomiga ega bo'lib, mahalliy hokimiyatning tarkibiga kirdi. Demak, mahallalar davlatimizning joylardagi muhim tayanchi, yuridik shaxs sifatida o'z mol-mulkiga, moliyaviy byudjetiga, bankdagi hisob-kitob raqamiga - jamg'armasiga egadir. Bu qonunga asosan har bir mahalla o'z hududida ishlab chiqarishni tashkil etishi, kichik korxonalar ochishi, o'zi ishlab chiqargan mahsulotni sotishi, uning bir qismini mahalladagi ehtiyojmandlarga bepul tarqatishi, o'z hududidagi aholini ish bilan ta'minlashi, aholiga madaniy-maishiy xizmat ko'rsatishi mumkin.

Hozirgi paytda mahalla qo'mitalari, bozor iqtisodiyoti qonunlari asosida o'z ishlarini tashkil qilishlari uchun barcha imkoniyatlar ochib berildi. Ular oldi-sotdi, to'y-ma'raka marosimlarini o'tkazish,

hasharlar uyushtirish, mahalladagi oilaviy nizolarni bartaraf etish, bemorlar holidan xabar olish ishlari bilan shug'ullanadilar.

Mahallalarning faoliyat mazmunini va shakllarini zamon talablari hamda sharoitlarini inobatga olgan holda takomillashtirish - mahallalarning vazifasidir.

Matn yuzasidan topshiriqlar.

1-topshiriq:

a) matnni o'qing;

b) matn yuzasidan savollar tuzing;

d) matnni rus tiliga tarjima qiling;

e) mahallangizda amalga oshirilayotgan ishlar haqida so'zlab bering.

"Shahidlar xotirasi" yodgorlik majmui

"Shahidlar xotirasi" yodgorlik majmui Toshkent shahrining Yunusobod tumanidagi Bo'zsuv sohilida 2000-yil 12-may kuni tantanali ravishda ochilgan ziyoratgohdir. Ushbu yodgorlik majmuini bunyod etish g'oyasi ilk bor O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1999-yil 12-maydagi Farmoyishiga ilova etilgan "Qatag'on qurbonlari" yodgorligi to'g'risida" nomli ma'lumot-nomada ko'tarilgan. "Ezgu va xayrli ishlarimizning mantiqiy davomi sifatida begunoh qurbon bo'lgan, surgun va qamoqlarda behad jabr-zulm ko'rgan, begona yurtlarga bosh olib chiqib ketishga majbur etilgan ming-minglab vatandoshlarimizning nomlarini xo-tirlash va qadrlash uchun poytaxtimiz Toshkent shahrida "Qatag'on qurbonlari" yodgorligini o'rnatish maqsadga muvofiqdir", - deyiladi mazkur hujjatda.

Uni qurish uchun Bo'zsuv kanalining Toshkent teleminorasiga yaqin sohili tanlangan. Chunki, 20-yillar oxiridan 40-yillarning boshiga qadar bu joyda uchta qatlgoh bo'lgan va ularda minglab vatandoshlarimiz o'ldirilib, ko'mib tashlangan.

Bu yodgorlikning sobiq qatlgohlardan birida qurilishi o'zbek xalqiga qarshi ongli ravishda va rejali asosda olib borilgan qirg'in

va qatag'onlarni achchiq tarixiy xotira sifatida eslatib, sho'ro tuzumining asl mohiyatini fosh etadi, xalqimizda mustaqillik va uning qadriyatlariga sadoqat uyg'otadi, ma'naviyat va milliy mafkuraning rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etadi.

17 gektarlik maydonni o'z ichiga olgan "Shahidlar xotirasi" yodgorlik majmuida baland ustunlarga tayangan moviy gumbazli rotonda qurilgan bo'lib, unda qatag'on qurbonlarining ramziy qabri joylashgan. Bog'ning o'rtasini Bo'zsuv kesib o'tadi. Daryo ustiga qurilgan ko'prik yodgorlik majmuining ikki muhim inshooti - rotonda bilan Qatag'on qurbonlari xotirasi muzeyini o'zaro bog'laydi.

Yodgorlik majmuining "yuragi" ramziy sag'ana bo'lib, u o'zida sobiq sho'rolar mamlakatining barcha qatlgohlarida otilgan va azobgohlarida qolib ketgan ajdodlarimiz yodini mujassamlashtiradi.

Matn yuzasidan topshiriqlar.

1-topshiriq:

a) matnni o'qing;

b) matn yuzasidan savollar tuzing;

d) matnni rus tiliga tarjima qiling;

e) Vatan ozodligi uchun jonini qurbon qilgan yurt farzandlari haqida bayon yozing.

Jaloliddin Manguberdi

Jaloliddin Manguberdi (1199-1231-yillar) - jasur sarkarda, davlat arbobi, dushman bosqiniga qarshi qahramonona kurashgan ulug' vatanparvardir. U o'z xalqi, Vatani - Xorazm davlatini saqlab qolish yo'lida mo'g'ul qo'shinlariga qarshi janglarda mislsiz matonat ko'rsatgan. Jaloliddin shaxsiyatining bunday shakllanishi tasodif emas edi. Zero, XII asrda Xorazm O'rta Osiyoning iqtisodiy-ijtimoiy hayoti, iqtisodiyoti va madaniyati eng rivojlangan davlati hisoblanardi. Uning tarkibiga Xorazm, Movarounnahr, Afg'oniston va Eronning bir qismi kirar edi. Asosan qang'il-qipchoq va turkmanlardan iborat muntazam qo'shin mavjud edi.

XIII asr boshlariga kelib, mamlakatda amaldorlar va lashkarboshilarning boshboshdoqligi, ichki nizolar, fuqarolar noroziligi, podsho saroyida fitnalar kuchaydi. Sharqdan Chingizxon qo'shinlari davlatga xavf sola boshladilar. 1219-yilda esa mo'g'ullar Xorazmshohga qarshi urush boshladilar, O'tror, Buxoro, Samarqand, Xo'jand va boshqa shaharlarni bosib oldilar. Sulton Muhammad Xorazmshoh mamlakatni boshqara olmay qoladi va 1220-yil 20-dekabrida vafot etadi.

1221-yil boshida Jaloliddin Manguberdi Xorazm davlatining sultoni deb e'lon qilinadi va mamlakatni mo'g'ullardan mudofaa etishga jiddiy kirishadi. Ammo, Qutlug'xon va boshqa qipchoq lashkarboshilari Xurosonda unga qarshi fitna uyushtiradilar. Jaloliddin Temur Malik bilan birga fitnani bostirish uchun Xurosonga jo'nab ketishga majbur bo'ladi, chunki, bunday sharoitda mo'g'ullarga qarshi mudofaani tashkil qilib bo'lmas edi. Vaziyatdan foydalanib, tez vaqt ichida shahzodalar O'zloqshoh va Oqshoh ham Urganchni tashlab ketadilar. Poytaxt taqdiri qo'rqoq va amalparast amir Xumortegin qo'lida qoladi. U o'zini sulton deb e'lon qiladi.

1221-yilning qishida 50 minglik mo'g'ul lashkarlari Urganchni qamal qilib, shaharni egallaydilar va yirik savdo va madaniyat markazlari bo'lmish Balx, Hirot, Marv va G'azna kabi shaharlarga yo'l oladilar. Ammo, bu yerlarda mo'g'ullar Jaloliddin Manguberdining qattiq qarshiligiga uchraydilar. Janglarda mo'g'ul qo'shinining atoqli lashkarboshilari ham Jaloliddinga qarshi tura olmadilar. Ammo, qo'lga kiritilgan o'ljalarni taqsimlashda Jaloliddinning lashkarboshilari o'rtasida o'zaro kelishmovchilik, nizo yuzaga keladi. Oqibatda, ba'zi lashkarboshilar Jaloliddin qo'shinidan ajralib, o'z viloyatlariga jo'naydilar. Natijada Jaloliddin qo'shinlari siyraklashib qoladi. Fursatdan foydalanib, Chingizxon G'aznaga lashkar tortadi. Hind (Sind) daryosi bo'yida 1221-yilning noyabrida ikki o'rtada qattiq jang bo'lib o'tadi.

Chingizxon bilan bo'lgan 12 jangda har doim g'alaba qozongan Manguberdi o'n uchinchi jangda safdoshlarining tarqoqligi sababli, mag'lubiyatga uchraydi. Uning jasoratiga qoyil qolgan Chingizxon

uni ta'qib qilish fikridan qaytadi. Jaloliddin shundan keyin ham ko'p yillar davomida ona yurt ozodligi yo'lida to'xtovsiz kurash olib bordi. U 1231-yil avgustida Kurdiston tog'larida halok bo'ladi.

El-yurt ozodligi uchun kurashgan milliy qahramon Jaloliddin Manguberdi xotirasini abadiylashtirish maqsadida, uning nomidagi harbiy orden ta'sis etildi, shuningdek, 1999-yilda sarkarda tavalludining 800 yilligi tantanali nishonlandi. Urganch shahrida tantanalar bo'lib o'tdi va unga atab yodgorlik majmuasi barpo etildi.

Matn yuzasidan topshriqlar.

1-topshiriq:

a) matnni o'qing, mazmunini so'zlab bering;

b) "Mangulik monumenti qarshisida" mavzusida dialog tuzing;

d) xalq qahramonlarining rasmlari asosida bayon yozing;

e) "Qahramonni xotirlab" mavzusida eshitgan yoki bilgan kishilaringiz to'g'risida hikoya qiling.

Afrosiyob

Mamlakatimizda temir yo'l transportini izchil rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Mustaqillik yillarida ushbu tizimda keng ko'lamli islohotlar, ulkan bunyodkorlik ishlari amalga oshirilmoqda, yo'lovchi va yuk tashish hajmi tobora oshmoqda.

O'tgan davr mobaynida minglab kilometr yangi temir yo'l liniyalari barpo etildi. Toshkent – Samarqand, Toshkent – Buxoro, Toshkent – Qarshi yo'nalishlarida "Registon", "Sharq" va "Nasaf" tezyurar poyezdlarining qatnovi yo'lga qo'yildi. Toshkent markaziy temir yo'l vokzali va boshqa shaharlarimizdagi vokzallar qayta rekonstruksiya qilindi, ta'mirlandi, yangilari barpo etildi. Xalqaro va mahalliy yo'nalishlarda qatnovchi poyezdlarda ko'rsatilayotgan xizmatlar sifati zamon talablari darajasiga ko'tarildi.

Elektropoyezd 2 lokomotiv, 8 yo'lovchi vagoni va 1 vagon-restorandan iborat. Nogironlar va imkoniyati cheklangan yo'lovchilar uchun maxsus qulayliklar ko'zda tutilgan. Maksimal tezligi 250 km/soatni tashkil etuvchi "Afrosiyob" Toshkentdan Samarqand-

gacha bo'lgan 344 kilometrlik masofani 2 soatda bosib o'tadi. Yangi elektropoyezdning bunday yuqori tezlik bilan yurishi vaqtni tejash bilan birga xarajatlarni ham keskin qisqartiradi.

"Afrosiyob" yo'lovchi elektropoyezdlari harakatini tashkil etish maqsadida Toshkent – Samarqand yo'nalishida temir yo'l infrastrukturasini modernizatsiya qilish va qayta qurish bo'yicha katta hajmdagi ishlar amalga oshirildi. 600 kilometrlik temir yo'l masofasi reabilitatsiya qilindi, 68 kilometr yangi temir yo'l qurildi. Shundan, Yangiyer – Dashtobod oralig'ida 35,32 kilometrlik ikki qator yangi temir yo'l, 142 metrlik tunnel hamda umumiy uzunligi 400 metr 4 zamonaviy ko'prik qurildi, liniya yo'llarini elektrlashtirish maqsadida metall ustunlar o'rnatildi, aloqa va signallashtirish tarmoqlari modernizatsiya qilindi, poyezd va aholining xavfsiz harakatlanishini ta'minlash maqsadida muhofaza zonalarida temir-beton devorlar va metall panjarali to'siqlar qo'yildi, piyodalar o'tish joylari zamonaviy arxitektura talablari asosida qurib bitkazildi. Yo'lovchilar xavfsizligini ta'minlash va ular uchun yangi qulayliklar yaratish maqsadida Toshkent va Samarqand vokzallari rekonstruksiya qilindi va jihozlandi.

Ispaniyaning "Talgo" kompaniyasi tomonidan bunyod etilgan tezyurar poyezd ikki soatu 10 daqiqa ichida 344 km.li masofani 254 km/soat tezlikda bosib o'tadi. Ushbu poyezd 2009-yili Ispaniya va O'zbekiston o'rtasida tuzilgan 54 mln dollarlik shartnoma asosida O'zbekistonga keltirilgan edi.

Matn yuzasidan topshiriqlar.

1-topshiriq:

a) o'z viloyat (shahar)ingizdagi sayr-sayohatgoh maskanlarini tavsiflang;

b) matnni rus tiliga tarjima qiling;

d) biror sayohatingiz to'g'risida taassurotlaringizni yozing;

e) biror joyga qanday borganingiz haqida kichik hikoya tuzing.

Toshkent metrosi

Toshkent – qadimiy va navqiron shahar. Uning diqqatga sazovor joylari juda ko'p.

Toshkent metrosi kishi diqqatini o'ziga tortadigan ajoyib inshoot.

Toshkent metrosining birinchi yo'nalishi 1977-yilda ish boshlagan, o'shanda atigi yettita bekat bo'lib, metro shahar markazini Chilonzor dahasi bilan bog'lagan.

Hozirda Toshkent metrosining uchta yo'nalishi bo'ylab poyezdlar qatnovi yo'lga qo'yilgan. Ular "Chilonzor", "O'zbekiston", "Yunusobod" deb nomlanadi.

Metroning har bir bekati o'zgacha go'zalikka ega. Ayniqsa, Alisher Navoiy, Hamid Olimjon, Paxtakor bekatlari antiqa usullarda bezatilgan.

Bu qulay va zamonaviy transport xizmatidan shahrimiz aholisi va mehmonlari juda mamnundirlar.

Toshkent metrosida qatnaydigan poyezdlarning o'rtacha tezligi 39 km/soat, maksimal tezligi 65 km/soat. Toshkent metrosida sutkasiga o'rtacha 270-300 ming yo'lovchi tashiladi. Yo'lovchilarga qulaylik yaratish uchun ba'zi bekatlarda eskalatorlar o'rnatilgan. Har bir bekatning badiiy me'morlik hamda haykaltaroshlik nuqtai nazaridan bezatilishi ramziy ravishda shu bekat nomini aks ettiradi. Ularda madaniy, monumental dekorativ va amaliy san'atning milliy an'analari o'z aksini topgan. Bekatlarga bezak berishda, asosan, O'zbekiston Respublikasida chiqadigan qora, qizil, kulrang granitlar, turli xil marmar, keramika, stomalit, yog'och, oyna, turli xil metalldan foydalanilgan.

Toshkent metrosi 9 balli zilzilaga bardosh beradi. Toshkent metrosining umumiy uzunligi 38,25 km, bekatlar soni 29 ta. Metro qurilishi va navbatdagi yo'l hamda bekatlarni loyihalash ishlari davom etmoqda.

Matn yuzasidan topshiriqlar.

1-topshiriq:

a) matnni o‘qing;
b) matn yuzasidan savollar tuzing;
d) rus tiliga tarjima qiling;
e) matnning mazmunini kengaytirib so‘zlab bering.

O‘zbekistonning hayvonot olami

O‘zbekistonning hayvonot dunyosi juda boy va turli-tumandir. Amudaryo, Sirdaryo, Zarafshon daryosi, qator suv omborlari va ko‘llarda o‘ttizdan ortiq baliq turlari, yuzlab turdagi suv qushlari yashaydi. Oqqayroq, tovonbaliq, zog‘orabaliq, laqqa, ilonbosh, olabug‘a, cho‘rtan baliqlar ko‘plab ovlanadi. Ondatra, qunduz, suvsar, tulki kabi hayvonlar chiroyli mo‘ynasi uchun ov qilinadi.

Bepoyon cho‘llarda, ulkan tog‘tizmalarida, vohalarda 60 turga yaqin sudralib yuruvchilar, 90 turdan ortiq sut emizuvchilar, 410dan ortiq turdagi qushlar tarqalgan.

Tog‘, o‘rmon va chakalakzorlarda ayiq, bo‘ri, olmaxon, burgut, kalxat, qarchig‘ay, tasqara, boltayutar, miqqiy, lochin, itolg‘i, qarg‘a, quzg‘un, kaklik, qirg‘ovullar yashaydi. Ayrim qushlar odamlar bilan qishloq va shaharlarda yonma-yon yashashga odatlangan. Bularga qaldirg‘och, chumchuq, musicha, mayna, kabutar, laylak kabilarni kiritish mumkin.

Hayvonlar qadimdan go‘sht va mo‘yna manbai bo‘lib kelgan. Hozir ham tirik tabiat mahsulotlaridan foydalanish muhim ahamiyatga ega. Har yili yurtimizdagi baliqchilik xo‘jaliklarida baliqlar ko‘paytiriladi, daryo va ko‘llardan ming sentnerlab baliq ovlanadi, minglab mo‘ynali hayvonlar terisi tayyorlanadi. Qirg‘ovul, kaklik, bedana kabi parrandalar ovlanib, parhez go‘sht tayyorlanadi.

O‘zbekiston hududida zaharli ilonlarning besh turi yashaydi. Ularning zaharidan qimmatli dori-darmonlar tayyorlanadi. Ilon zahridan dori-darmon tayyorlashda O‘zbekiston dunyoda yuqori o‘rinda turadi.

Har yili respublikamizda eksport uchun bir necha o‘n minglab dasht toshbaqalari, tibbiy tajribalar uchun yuz mingdan ortiq ko‘l baqalari tutiladi.

Hayvonlar tabiatda va qishloq xo'jaligida juda katta ahamiyatga ega. Hasharotxo'r hayvonlar zararkunanda hasharotlarning ko'payib ketishiga yo'l qo'ymaydi.

Yovvoyi hayvonlardan foydalanish bilan bir qatorda, ularni ayovsiz ov qilish, ba'zi hollarda butunlay yo'q bo'lib ketishdan saqlash lozim. O'zbekistonda yashayotgan sutemizuvchilarning 22 turi, qushlarning 31 turi, sudralib yuruvchilarning 5 turi, baliqlarning 5 turi "Qizil kitob"ga kiritilgan. Ularni muhofaza qilish zarur.

Hayvonot dunyosini muhofaza qilishda qo'riqxonalar muhim o'rin tutadi. Hozir respublikamizda o'ndan ortiq qo'riqxona mavjud. Ularda tabiatning mazkur burchagidagi tuproq, o'simlik va hayvonot dunyosi tabiiy holda saqlanib qolishi kerak.

Matn yuzasidan topshiriqlar:

1-topshiriq.

a)matnni o'qing;

b)matn yuzasidan savollar tuzing;

d) hayvonot olamiga munosabat haqida bahs-munozaraga kirishing;

e) matnni qismlarga ajrating va sarlavha qo'ying.

Navro'z

Navro'z (forschada "navro'z" yangi kun ma'nosini anglatadi) - Turkiston, O'rta va Yaqin Sharqda yashovchi o'zbek, ozarbayjon, tojik, hind, fors va boshqa xalqlarning qadimiy va an'anaviy yangi yil bayrami. Quyosh hisobida yilning birinchi kuni bo'lib, bahorgi tun va kunning tengligiga, ya'ni 21-22 martga to'g'ri keladi. Tarixiy manbalarga qaraganda, Navro'zni bayram qilib o'tkazish Ahmoniylar davri (miloddan avvalgi VI-V asrlar)dan boshlangan. Keyinchalik, Navro'zda islom dinining ayrim marosimlarini ham o'tkazish odat tusiga kiritilgan. Qadimda Navro'z bayrami 6 kun davom etgan, dalalarga ko'chatlar ekilgan, ko'chalar tozalanib, hasharlar uyushtirilgan, xullas, hammayoq pokiza etilgan. Navro'zga atab

yoshlar yangi kiyimlar kiyganlar. Bayram kunlari har xil shirinliklar, sumalak, turli ko'katlardan somsa, chuchvara kabi taomlar pishirilgan.

Navro'z kunlarida turli ommaviy o'yinlar, poyga musobaqalari, bog'larda sayllar, maydonlar, konsert zallari va teatrlarda san'atkorlar, shoirlar, yozuvchilarning chiqishlari bo'ladi, ota-onalardan, qarindosh-urug'lardan xabar olinadi, yoru birodarlarnikiga mehmonga boriladi. Navro'z kunlari gina-qudratlar unutilib, kishilar yaxshilikka intiladilar, yetim-yesirlarga va nogironlarga yordam berib, marhumlar qabrlarini ziyorat qilib, tartibga soladilar.

O'zbekistonda 1989-yildan Navro'zni keng nishonlashga e'tibor berildi. 1990-yildan boshlab, O'zbekiston hukumatining qaroriga binoan, 21-mart - Navro'z milliy xalq bayrami sifatida belgilanib, dam olish kuni deb e'lon qilindi.

Matn yuzasidan topshiriqlar.

1-topshiriq:

a) matnni o'qing, rus tarjima qiling;

b) O'zbekiston Milliy bog'i bayramda qanday bo'lishini ta'riflab bering;

d) tasvir asosida xalq sayli mavzusida ixcham bayon yozing;

e) Navro'z bayrami dasturini yozing.

A

Adabiy - вечный

Ado - исполнение, завершение, окончание

Ado etmoq - исполнять, выполнять, завершать

Adolat - справедливость

Afsonaviy - мифический

Afzallik - преимущество, превосходство, достоинство

Ahamiyat - особенность

Ahd - уговор, договор, соглашение, обещание

Aholi - жители, население

Ajdodlar - предки

Ajoyib - блестяще

Ajratma (mablag‘) - отчисление, ассигнование

Akkreditlash - аккредитация

Aks - отражение

Aksiya - акция

Aksiyador - акционер

Aksiyadorlar mablag‘i - акционерный капитал

Aksiyadorlik jamiyati - акционерное общество

Aktiv balans - активный баланс

Alohida shaxs - частное лицо

Aloqa - связь

Aloqa vositalari - средства связи

Aloqa-aralashuv - коммуникация

Aloqalarni tiklamoq - восстанавливать связи

Alpomish - богатырь

Amaldor - чиновник, должностное лицо

Amalga oshirmoq - воплощать, осуществлять

Amaliy - практический

Amaliyot - практика

Andoza - стандарт

Andisha - благоразумие, осторожность

Anjuman - собрание

Antiqa - необычный

An'ana - традиция

An'anaviy - традиционный

Aqliy boylik - умственный потенциал

Aqliy mehnat - умственный труд

Aralashma - смесь

Aralashmoq - вмешиваться

Ariza - заявление (письменное)

Asbob - инструмент, орудие

Ashyo - вещь, предмет

Asl - суть, существо, начало, оригинал, сущность

Asl nusxa - подлинник, оригинал

Asos - основа, основание

Asoschi - основатель

Asosiy - главный

Asosiy vositalar - основные средства

Atama - термин

Atamashunoslik - терминология

Atigi - всего лишь

Avvalgi - ранний

Avzo - вид, выражение

Axborot - известие, сообщение, информация

Aylanma - круг, кольцо, круговой

Ayniqsa - особенно

Ayovsiz - беспощадно

Ayrim - отдельный, раздельный, особый

Azob - мучение

B

Badal – взнос, возмещение

Baho - цена, стоимость, оценка

Bahra - наслаждение

Bajarmoq - исполнять, выполнять

Balans hisoboti - балансовый отчёт

Bandargoh - гавань

Bank foizi - банковский процент

Bank krediti - банковский кредит

Bank o'tkazmalari - банковский перевод

Banknotalar - банкноты

Barpo etmoq - построить

Barqaror - устойчивый, стойкий

Barqaror qilmoq - прочно устанавливать

Bayonnoma - протокол

Bayonotnoma - декларация

Bag'ishlamoq - посвящать

Behad - неизмеримый, безграничный

Bekat - остановка

Bekor qilmoq - аннулировать

Belgi - знак, отметка, примета, признак

Belgilamoq - отмечать

Belgilangan qiymat - номинал

Beminnat - безвозмездно

Bepul - безвозмездный

Bildirish - рапорт

Bildirish xati - извещение

Bildirishnoma - извещение, сообщение, объявление

Birgalik - совместность

Birikma - соединение, сочетание

Birlashma - объединение, ассоциация, соединение

Bitik - надпись, письмо

Bitilmoq - писаться, быть написанным

Bitim - соглашение, сделка, примирение

Boj - пошлина, таможенный сбор

Bojxona - таможня

Bolalik - детство

Boqimanda - недоимка, дебиторская задолженность

Boshqotirish - напряженно думать

Boshqarmoq - руководить, управлять, вести (дела)

Bosqich - ступень

Bozor - рынок

Bo'linma - частное, подразделение

Bo'nak - аванс, задаток

Bo'shamoq - освобождаться, увольняться

Bog'lamoq - соединять

Bog'lovchi - связывающий

Bunyod etish - строить

Burch - обязанность

Burgut - орёл

Butunlay - полностью

Buyruq - приказ, распоряжение, предписание

Buyuk - великий

Buyum - вещь, предмет

Buyurtma– заказ

D

Daha - массив

Dalil - довод, доказательство, аргумент

Dallol - маклер

Dalolatnoma - акт

Dam olish kuni - выходные

Daraja - степень, уровень, ступень

Daromad - доход, приход, подоходный

Daromad solig'i - подоходный налог

Daryo - река

Dastlabki - первоначальный, предварительный

Dastur - программа

Davlat - государство, богатство, достояние, благо

Davlat arbobi - государственный деятель

Davlat banki - государственный банк

Davlat korxonasi - государственное предприятие

Davlat mulki - государственное имущество

Davlatchilik - государственность

Da'vo - иск, претензия

Dekret - декрет

Demak - то есть

Deputat - депутат

Devonxona - канцелярия

Diqqat-e'tibor - внимание

Doim - всегда

Dono - мудрый

Dori-darmon - лекарство

Dovyurak - храбрый

Do'kon - магазин

Durdona – единственный

E

Ehtiyoj - потребность, нужда

Ehtiyojlar - потребности

Ekologik xavf - экологическая опасность

Elchi - посол

Evara - правнук

E'tiqod - вера

E'tiroznoma - рекламация

Egri - кривой, согнутый

Ekspeditor - экспедитор

Elektron hisoblash mashinasi - электронно-вычислительная машина

Elchixona - дипломатический корпус

Eng yuqori ko'rsatkich - наивысший показатель

Eskirish - износ

Eslatma - примечание

E'tirof - признание, сознание

E'lon - объявление

E'lonlar taxtasi -доска объявление

E'tiroz - возражение

Ehtiyoj - потребность, нужда

F

Falsafa - философия

Faqat - только

Farmon - указ

Farmoyish - распоряжение

Farmoyish xat - циркулярное письмо

Farq - отличие, разница

Farzand - ребёнок

Fazilat - качество

Faoliyat - деятельность

Foiz - процент

Foyda - выгода

Foydali taklif - дельное предложение

Fuqarolik– гражданство

G

Garov - залог, заклад

Gerb - герб

Gerbli muhr - гербовая печать

Go'dak - младенец

Gumbaz - купол

Guruh - группа

Guvoh - свидетель, очевидец

Guvohnoma - свидетельство (документ), удостоверение

H

Hadya shartnomasi - договор дарения

Hajm - объем, емкость

Hakamlik - арбитраж

Halqilmoq - решать

Hamkasb - коллега

Haqiqat - правда

Hayfsan - выговор

Hayvonot dunyosi - мир животных

Hay'at - коллегия

Hisobchi - учетник, бухгалтер

Hisobga olish varag'i – учётный лист

Hisob-kitob arizasi – отчётное заявление

Hisob-kitob daftarchasi – расчётная книжка

Hisob-kitob raqami – расчётный счёт

Hisobot - отчет

Hissa - доля

Hokimiyat - власть

Holat - положение состояние

Homiy - спонсор, покровитель

Hudud - территория

Hujjat - документ

Hujjatchilik - документация

Hujum qilmoq - нападать

Hukmdor - повелитель

Hukumat mukofoti - правительственная награда

Huquqiy - правовой

Huquqshunos– юрист

I

Idora - контора, правление, управление, учреждение

Ifloslanish - загрязняться

Ijara - аренда, наём

Ijarachi - арендатор, наниматель, съёмщик

Ijro - исполнение, выполнение

Ijro etuvchi hokimiyat - исполнительная власть

Ijrochi - исполнитель

Ijtimoiy - общественный, социальный

Ijtimoiy-ixtiyoriy - социально-добровольный

Ijtimoiy-siyosiy - социально-политический

Ijobiy - положительный

Ikki tomonlama bitim - двустороннее соглашение

Ilk - впервые

Ilmiy - научный

Ilmiy daraja - учёная степень

Ilmiy ishlanma - научная разработка

Ilova - дополнение, приложение, вставка

Ilg'or - лидер, передовой, прогрессивный

Imkoniyat - возможность

Imtiyoz - привилегия, преимущество, льгота

Imzo - подпись

Inflyatsiya - инфляция

In'om - дар, подарок

Inqiroz - банкротство

Inshoot - сооружение

Insonparvarlik yordami - гуманитарная помощь

Insoniyat - человечество

Investitsiya - инвестиция

Ipak - шелк

Iqtidor - талант

Iqtisod - экономика

Iqtisodchi - экономист

Iqtisodiy - экономический

Irq - раса

Irqchilik - рассизм

Ish - работа, труд, дело, деятельность

Ish yuritish - делопроизводство

Ishbilarmon - бизнесмен

Ishlab chiqarish munosabatlari - производственные отношения

Ishlab chiqaruvchi - производитель

Ishonch yorlig'i - верительная грамота

Ishsizlik - безработица, незанятость

Islohot - реформа

Iste'dodlar - способности

Iste'fo - отставка

Iste'mol - употребление, потребление

Iste'molchi - потребитель

Istilo - завоевание

Isyon - мятеж, бунт

Ixtisos - специальность

Izchil - тесно, последовательный

Izchillik - последовательность

Izoh va qo'shimchalar - примечания и добавления

Ixtisoslashgan - специализированный

Ixtiyorida - в распоряжении

J

Jabha - область деятельности

Jadallik - усиление, быстрота

Jahon - мир

Jahonshumul - всемирный, мировой

Jami - итого, всего

Jamiyat - общество, публика, народ

Jamoa - коллектив

Jamg‘arma - накопление, фонд

Jangovar - воинственный, боевой

Jarayon - процесс, течение, ход

Jarima - штраф

Javob - ответ

Javobxat - письмо-ответ

Javobgar - ответчик

Javobgar shaxs - ответственное лицо

Jihoz - мебель

Jild - чехол, сумка, том

Jins - пол

Jipslashtirmoq - объединять, соединять

Jismoniy shaxs - физическое лицо

Jismoniy tarbiya - физическое воспитания

Jonivor - живое существо

Jonlantirmoq - воплотить в жизнь

Joriy - действующий, текущий

Jo‘natma - посылка

Jo‘shqin - кипучий, бурливый

K

Kadrlar bo‘limi - отдел кадров

Kadrlar boshqarmasi - управление кадрами

Kafolat - поручательство

Kafolatnoma - гарантийное письмо

Kam maoshli lavozim - низкооплачиваемая должность

Kam mahsul - малопродуктивный

Karvon - караван

Kasaba uyushmasi - профсоюз

Kasallik varaqasi - больничный лист

Kasb - специальность, профессия, ремесло, занятие

Kasbiy fazilatlar - профессиональные качества

Kashfiyot - изобретение

Kassa - касса

Kassir - кассир

Kemacha - кораблик

Keng - просторный

Keng ko‘lamda - в широком масштабе

Keng yo‘lochmoq - прокладывать путь

Kengash - совет, совещание

Kengaytirish - расширить

Kimoshdi savdosi - аукцион

Kirim va chiqim - приход и расход

Komil - исключительный человек

Komissiya - комиссия

Kommunal xizmat - коммунальная услуга

Korxona - предприятие

Kotiba - секретарь

Kotibiyat - секретариат

Ko‘chirma - выписка

Ko‘lam - объём, размер, масштаб

Ko‘nikma - навык

Ko‘prik - мост

Ko‘rgazma - выставка

Ko‘rsatkich - указатель, показатель, указка

Ko‘rsatma - указание

Ko‘hna - древний, ветхий, старый

Ko‘maklashish - оказывать поддержку

Ko‘tarinki - приподнятый, возвышенный

Kun tartibi - повестка дня

Kun va tun - день и ночь

Kurka - индюк

Kurra - земной шар

L

Lavozim - должность

Lavozim yo‘riqnomasi - должностная инструкция

Lavozimni bajarishga kirishmoq - вступить в должность

Lochin - ласточка

Loyiha - проект

Loyihalashtirmoq - запроектировать, проектирования

Loyiq - достойный, подходящий

Lozim - следует

Lug‘at– словарь

M

Mablag'lar - ресурсы

Madad berish - поддерживать

Madhiya - гимн

Madaniy - духовное

Mafkura - идеология

Mahkama - учреждение

Mahsulot - продукт, продукция

Maishiy xizmat - бытовые услуги

Majburiyat - обязательства

Majlis - заседание, совещание

Majlis bayonnomasi - протокол заседания

Majmua - комплекс

Malaka - квалификация

Malaka darajasi - разряд квалификации

Malaka oshirish - повышение квалификации

Malakali - квалифицированный, опытный

Mamlakat - страна

Mamnun - довольный

Manba - источники

Manfaatdor shaxs - заинтересованное лицо

Manfaatdorlik - заинтересованность

Mansabdor shaxs - должностное лицо

Mantiq - логика

Mantiqiy - логический

Manzur - достойный внимания

Maosh berish - выдача заработной платы

Maqola - статья

Maqom - статус, мелодия, мотив

Maqsad - цель

Maqtovnoma - похвальный лист

Mardlik - храбрость

Marhum - покойник

Markaz - центр

Marosim - мероприятие, празднование

Masala - вопрос, проблема

Maslahatchi - консультант

Mas'ul - ответственный

Mas'ul shaxs - ответственное лицо

Mas'ul xodim - ответственный работник

Mas'uliyat - ответственность

Matbuot - печать, пресса

Matonat - отвага, храбрость

Mato - материал

Mavqe - должность

Mavsumiy ish - сезонная работа

Mavzu - тема

Mavzuli tekshiruv - тематическая проверка

Maxfiy - секретно

Maxsus bo'lim - спецотдел

Mazkur - нынешний

Ma'lumot - сведение

Ma'lumotnoma - справка

Ma'mur - администратор

Ma'muriy - административный

Ma'muriyat - администрация

Ma'rifiy - просветительный

Ma'ruza - доклад, лекция

Mehmon - гость

Mehnat - труд

Mehnat bitimi - трудовое соглашение

Mehnat daftarchasi - трудовая книжка

Mehnat taqsimoti - разделение труда

Meros - наследство

Mezon - критерий

Mijoz - клиент

Miloddan avvalgi - до нашей эры

Mintaqa - регион

Mintaqaviy - региональный

Misl siz - бесподобный, несравнимый

Moddiy - материальный

Mohir - искусный

Mohiyat - сущность, существо

Mol turlari - ассортимент

Moliya - финансы

Mo'yna - руно

Muammo - проблема

Muassasa - учреждение

Muddat - срок

Mudhish - страшный, ужасный

Mudir - заведующий

Mudofaa - оборона

Mufassal - подробный, детальный

Muhandis - инженер, специалист

Muhim - важный

Muhofaza qilish - беречь

Mukofot - награда

Mumtoz adabiyot - классическая литература

Munosabat - отношение

Munozara - дебаты

Muntazam - постоянно

Muqaddam - раньше, прежде

Muqobil - альтернативный

Murojaat - обращение

Musobaqa - соревнование

Mustahkam - крепкий, прочный

Mutafakkir - мыслитель

Mutaxassis - специалист, мастер

Muvofiq - благодаря, в соответствии

Muvozanat - равновесие

Muassasa - учреждение

N

Nasihat - совет

Natijasida - в последствии

Navbat - очередь

Navqiron - молодой

Nogiron - инвалиды

Noma'lum-неизвестный

Notiq - оратор

Ne'mat - исключительный продукт

Nashriyot - издательство, издательский

Nodir - редкий, ценный

Nazorat - контроль

Naqd pul - наличные деньги

Namuna - образец

Narx - цена

Narxnoma - прейскурант

Natija - результат

Nafaqa - пенсия

Nafaqaxo'r - пенсионер

Nashriyot - издательство

Nizom - устав

Nomenklatura - номенклатура

Nomzod - кандидат

Notarius - нотариус

Nuqson - дефект

Nusxa - копия

Nusxalash – *копирование*

O

Oila - семья

Olmaxon - белка

Olg'a bormoq - идти вперед, стремиться

Ommaviy - всеобщий

Orol - остров

Orzu - мечта

Osiyo -Азия

Og'zaki - устно

Odil - справедливый

Odim - шаг

Oid - относящийся к чему-либо

Olg'a - вперед

Omma - масса (людей)

Obuna - подписка

Ovoz berish - голосование

Ogohlantirish - предупреждение

Oddiy muhr - простая печать

Oilaviy ahvol - семейное положение

Oylik reja - месячный план

Oldi-sotdi shartnomasi - договор купли-продажи

Oliy ma'lumot - высшее образование

Ombor - склад

Omonat - вклад

Omonatchi - вкладчик

Order - ордер

Ochiq xat - открытое письмо

Oshkoralik - гласность

Og'irlik birligi - единица веса

P

Pilla - кокон

Parhez - диета

Poyga - скачки

Plyuralizm - плюрализм

Puxta - прочный

Pirovard - конец, исход

Pora - взятка

Pinhon - скрытый, тайный

Poklamoq - чистить, очищать

Pasayish - понижание

Passiv - пассивные баланс

Patta - квитанция

Patent - патент

Pochta manzili - почтовый адрес

Pochtamt - почтамт

Pudrat - подряд

Pul - деньги

Pul birligi - денежная еденица

Pul-buyum - денежно-вещевая лоторея

Pul islohoti - денежная реформа

Pullik - платный

Po'lat sandiq – сейф

Q

Qabul qilmoq - принимать

Qabulxona - приемная

Qadimiy - древний, исторический

Qadriyat - достояние

Qadrlamoq - ценить

Qalam haqi - гонорар

Qalam haqi jamg'armasi - гонорарный фонд

Qalb - душа

Qalbaki - подложный

Qamrab olgan - охватывающий

Qamrab olmoq - охватывать

Qarich - пядь

Qaror - решение

Qarz - долг

Qarzdorlik - задолженность

Qashshoqlik - нищета

Qatag‘on - раскулачивание, изгнание, ссылка

Qatlgoh - эшафот

Qator - ряд

Qavm - род

Qayd qilmoq - констатировать

Qaydlov bo‘limi - регистратура

Qaydlov-nazorat daftarchasi - регистрационно-контрольная карточка

Qaydnoma - ведомость

Qayta - многократно

Qaytarmoq - вернуть

Qimmat - дорогой, ценный

Qimmatbaho qog‘ozlar - ценные бумаги

Qirg‘in - многочисленное убийство, истребление, уничтожение

Qisqa bayonnoma - краткий протокол

Qisqacha sharh - аннотация

Qit’a - континент, материк

Qiymat - стоимость, ценность

Qiyomat - светопреставление

Qo‘llanma - руководство, пособие

Qo‘mita - комитет

Qo‘shimcha haq - доплата

Qo‘shin - войско

Qo‘shma korxona - совместное предприятие

Qobiliyat - способность

Qog‘oz - бумага, документ, грамота

Qog‘ozbozlik - бумажная волокита

Qoldiq - сальдо, остаток

Qomus - Конституция

Qondirmoq - удовлетворять

Qoniqtirmoq - удовлетворять

Qonun - закон

Qoyil qolish - восхищаться

Qulaylik - удобства

Qunt - старание

Qurbon - жертва

Qurolli - вооруженный

Quyidagi - следующее

R

Raqib - противник

Ragam - цифра

Ragamli hisobot - статистический отчет

Rahbariyat - руководство

Raq‘batlantirish - поощрение

Raqobat - конкуренция, соперничество

Raqobatbardosh - конкурентоспособный

Rasmiy - официальный, формальный

Rasmiy qog‘ozlar - деловые бумаги

Rasmiyatchi - бюрократ

Rasmiylashtirmoq - оформлять

Ravnaq - процветание, развитие

Ravshan - светлый, ясный

Rahbar xodim - руководящий работник

Reja - план

Rejadan tashqari jamg‘arma - сверхплановое накопление

Rejalashtirilgan daromad - плановая прибыль

Rejali ish - плановая работа

Rioya qilmoq - соблюдать

Risola - трактат, брошюра, послание

Rivoj - развитие, расцвет

Rivojlanmoq - развивать

Riyoziyot - астрономия

Ro‘y bermoq - происходить, случаться

Ro‘yobga chiqmoq - осуществляться

Ro‘yxat - список, перечнь

Ro‘yxatdan chiqarish - отчисление, списание

Ro‘yxatdan o‘tmoq - зарегистрироваться

Ro‘yxatga kiritmoq - включить в список

Royobga chiqmoq - сбываться

Rozilik - согласие

Rozilik belgisi - виза

Ruxsat turi - форма допуска

Ruxsat varaqchasi - карточка допуска

Ruxsatnoma - пропуск

S

Samarali - эффективный

Saboq - урок

Sabr - терпение
Sadoqat - верность
Safarbar - мобилизовать
Sahifa - страница
Salmoq - вес, тяжесть
Salmoqli - массивный
Saltanat - власть, господство
Samara - плод, результат
Sanoat - промышленность
Sanoq - счет
Sansalorlik - волокита
Sara - отборный, лучший
Sarf - расход
Sarflangan mablag'- расходный капитал
Sariq kasali - желтуха
Sarkarda - полководец
Sarkor - старший, начальник
Sarmoya - капитал
Sarqitlar - остатки
Savdo - торговля
Savdo ustama narxi - торговая наценка
Savdo-sotiq - купля-продажа
Saviya - уровень
Sayyor sessiya - выездная сессия
Sermahsul - продуктивный
Sermazmun - многозначительный
Shafqatsiz - безжалостный
Sifat - качество

Sifatida - в качестве
Sinishga uchrash - банкротство
Sipoh - фигура (в шахматах)
Siymo - облик, образ
Siyosat - политика
Siyraklashmoq - редкость
Sig‘im - емкость, вместимость
So‘rov varag‘i - анкетныйлист
So‘rovxat - письмо-запрос
Sobiq - бывший, прежний
Sodiq - верный, преданный
Sof - чистый
Soha - область, сфера
Sohibkor - знаток, специалист
Sohil - берег
Soliq - налог
Solishtirma og‘irlik - удельный вес
Sotqinlik - предательство
Sudralib yuruvchilar - ползучие
Sug‘urta - страховка
Suhbatlashmoq - общаться
Surgun - ссылка
Sutemizuvchilar - млекопитающие
Suverenitet - суверенитет
Sur’at - темп

T

Taajjub - удивление, изумление

Tadbirkorlik - предпринимательство

Tadbirkor - распорядительный, предприниматель

Tadbirlar rejasi - план мероприятий

Tadqiq - исследование

Tadqiqot - исследование

Tadqiqotchi - исследователь

Tafakkur - мышление

Taftishchi - контролёр, ревизор

Tahdid - угроза

Tahlil - анализ

Tahrir - редактирование

Tahririyat - редакция

Tajovuz - нападение, вторжение

Talab - спрос

Talabnoma - требование

Tamoyil - уклон, направление

Tanbeh - замечание

Tanlama - выборка

Tanlov komissiyasi - конкурсная комиссия

Tannarx - себестоимость

Tanqidiy - критический

Tantana - торжество

Taqchil[illegible]yoblik - дефицит

Taqd[illegible] ходатайство

Taqdim[illegible]езентация

Taqozo - требование, желание

Taqriz - рецензия,отзыв

Taraqqiyot - цивилизация

Tarif jadvali - тарифная сетка
Tarjimayi hol - биография
Tarmoq - ветвь, ответвление
Tarqoq - раздельный
Tartibsizliklar - беспорядки
Targ'ibot - реклама
Tasdiqlamoq - заверять
Tashabbus - инициатива, начинание
Tashakkurnoma - благодарственное письмо
Tashrifnoma - визитная карточка
Tasnif - классификация, составление
Tatbiq - применение, приспособление
Tavsifnoma - характеристика
Tavsiya - рекомендация
Tavsiyanoma - рекомендация
Tayyorlov idorasi - заготовительная контора
Ta'minlamoq - обеспечивать
Ta'minot - обеспечение, снабжение
Ta'mirlash - ремонт
Ta'sir - влияние
Ta'sis - основание, учреждение
Tejamkor - экономный
Tenglik - равенство
Tibbiyot - медицина
Tijorat - торговля, коммерция
Tikmajild - скоросшиватель
Tilxat - расписка
Tizim - система

Tobora - чем дальше, тем больше

Toifa - вид

Tortma, g‘aladon - выдвижной ящик

Tovon, badal - возмещение

To‘garak - кружок

To‘rtburchak muhr - штамп

To‘siq - препятствие

Turfa - разнообразный

Tushuntirish xati - объяснительная записка

Tuzuk - уложение

U

Uchburchak muhr - треугольная печать, штамп

Ulgirish - успевать

Ulgurji - оптом

Ulkan - великий

Ulush - часть, доля

Ulushbay - долевой

Ulg‘aymoq - взрослеть

Umid - надежда

Umumiste’mol - общее потребление

Umumiy - общий

Umumxalq - всенародный

Undirma nafaqa - алименты

Unsur - элемент

Unum - урожай, производительность

Ushlab qolish - удержать

Uslub - метод

Ustama - надбавка

Ustxat - гриф, надпись

Uyushma - объединение

Uyg'otmoq - пробуждение

Uzviy - неотъемлемый

V

Vakil - представитель

Va'da - обещание

Vafoli - верный

Vakil - представитель, уполномоченный, делегат

Vakolat - полномочие

Vakolatnoma - доверенность, верительная грамота

Valyuta - валюта

Valuta kursi - валютный курс

Valyuta muomalasi - валютная операция

Vaqtinchalik ish - временная работа

Varaqa - лист

Vasiyat qiluvchi - завещатель

Vasiyatnoma - завещание

Vatanparvar - патриот

Vazifa - задача, задание, поручение, обязанность

Vazifalarni taqsimlash - распределение обязанностей

Vazir - министр

Vazirlik - министерство

Vaziyat - ситуация, состояние

Vijdon - совесть

Voris - наследник, преемник

Vosita - средство, орудие

Vositachi - посредник

X

Xabar - вести

Xabarnoma - извещение

Xabarchi - курьер

Xazina - казна

Xalqaro xos raqam - международный код

Xalq xo'jaligi - народное хозяйство

Xatboshi - абзац

Xatlash, xatlov - опись

Xayriya - благотворительный

Xiyonat - измена

Xizmat - сервис

Xizmat - сервис

Xizmat yozishmasi - служебная записка

Xizmat safari - командировка

Xodim - сотрудник

Xodimlar qo'nimsizligi - текучесть кадров

Xoli - свободный, пустой

Xolis - беспристрастный, объективный

Xorijiy – иностранный

Xotira - память

Xos ish qog'ozi - фирменный бланк

Xufiya - тайный, сыщик

Xulosa - вывод, итог

Xususiylashtirish - приватизация

Xususiyat - свойство

Xususiy hujjat - индивидуальный документ

Xushmuomala - вежливый, обходительный

Xo‘jalik - хозяйство

Y

Yaxlit - целый

Yakdillik - единодушие, солидарность

Yalpi - валовый

Yalpi daromad - валовый доход

Yalpi mahsulot - валовая продукция

Yaqqol - ясный, отчетливый

Yashirin ovoz berish - тайное голосование

Yemirilish - амортизация, разрушение, свержение

Yengmoq - преодолевать

Yetakchi - ведущий, руководящий, руководитель

Yetarli asoslar - достаточные основания

Yetib kelish sanasi - дата прибытия

Yetkazib berish shartnomasi - договор поставки

Yigirmaga yaqin - около двадцати

Yig‘im - сбор (денежный)

Yig‘indi - совокупность, сумма

Yil choragi - квартал

Yillik reja - годовой план

Yirik korxona - крупное предприятие

Yodgorlik - памятник

Yolg‘izlik - одиночество

Yordam - помощь

Yorqin - светлый, яркий

Yovvoyi - дикий

Yo‘l solig‘i - дорожный налог

Yo‘lamoq, undirmoq - возместить

Yo‘llanma - направление, путёвка

Yo‘nalish - направление

Yo‘nalish bo‘ylab - по направлению

Yo‘qlama daftari - инвентарная книга

Yo‘riq - инструкция, указание

Yo‘riqchi - инструктор

Yuklamoq - возложить

Yuksaltirish - возвышать, развивать

Yukxat - накладная

Yuqori foyda - высокая прибыль

Yuqori idora - вышестоящий орган

Yuqori malaka - высокая квалификация

Yuqori martaba - высокое положение

Yuqori mehnat unumdorligi - высокопроизводительный труд

Yuqori rahbariyat - высшее руководство

Yuqori tashkilot - вышестоящая организация

Z

Zabardast - сильный, рослый

Zaif - слабый, бессильный

Zakovat - сообразительность

Zamonaviy - современный

Zararkunanda - вредитель

Zararli - вредный

O‘

O‘lchov - измерение

O‘quv rejasi - учебный план

O‘ram - виток, свёрток

O‘rinbosar - заместитель

O‘rindoshlik asosida - по совместительству

O‘smoq - расти

O‘spirin - подросток

O‘tkazmoq - переводить

O‘xshamoq - быть похожим

O‘g‘lonlar - сыновья

O‘z xarajatlarini qoplash - самоокупаемость

O‘zak - основа

O‘zaro kelishuv – компромисс

O‘zaro manfaat - взаимная выгода

G‘

G‘amlamoq - запасать

G‘animat - добыча, трофей

G‘arb - Запад

G‘oya - идея

Ch

Chuchvara - пельмени

Chunki - потому что

Chiqindi - отход

Chayqovchi - перекупщик, спекулянт

Chakana - розничный, мелкий

Chegirma - скидки
Chegirma yordam - дотация
Chek - чек
Chek daftarchasi - чековая книжка
Chiptalar - билетная касса
Chora - меры
Chorak - квартал, четверть
Chop etmoq - печатать

Sh

Shakllantirish - развивать
She'riyat - поэзия
Shaxsan - лично, самолично
Sharq - Восток
Shaxsiyat - личность
Shart - условие, необходимо
Shartnoma - договор
Shartli raqam - индекс
Shartnomaviy majburiyatlar - договорные объязательство
Sharh - коментарий
Shaxsiy - индувидуальный
Shaxsiy varaqa - личный листок
Shaxsiy varaqcha - личная карточка
Shaxsiy mulk - личная собственность
Shaxsiy hujjatlar yig'ma jildi - личное дело
Shahodatlash - аттестация
Shahodatnoma - аттестат
Sheriklar - партнерство
Shikoyat - жалоба

АДАБИЁТЛАР

1. Muhiddinova X., Salisheva Z., Po'latova X. O'zbektili (oliy ta'lim muassasalari rus guruhlari uchun darslik). – Toshkent: O'qituvchi, 2012. – 288 b.

2. Normatova SH., Abdurahmonova M. O'zbek tili (darslik). – Toshkent: JIDU, 2014. – 192 b.

3. Fayzullayeva SH., Azimova H., Usmonova G. O'zbek tili (oily o'quv yurtlarining iqtisodiy ta'lim yo'nalishlari talabalari uchun o'quv qo'llanma). – Toshkent: Iqtisodiyot, 2012. – 108 b.

4. Yuldasheva SH., Kabulova D., Sobirova M. O'zbek tili (o'quv qo'llanma). – Nukus: Bilim, 2013. – 156 b.

5. Husanov N., Xo'jaqulova R., Dilmurodova N. O'zbek tili (o'quv qo'llanma). – Toshkent: TMI, 2017. – 336 b.

6. Lafasov U. O'zbek tili (o'quv qo'llanma). – Toshkent: ToshDSHI, 2016. – 532

Қўшимча адабиётлар

7. Ўзбекистон Республикасининг "Давлат тили ҳақида"ги қонуни (янги таҳрирда) / ЎзР Олий Кенгашининг Ахборотномаси, 1989. – 26–28-сон, 453-модда; 1991. – 11-сон, 273-модда.

8. Ўзбекистон Республикасининг "Таълим тўғрисида"ги қонуни. ЎзР Олий Мажлиси Ахборотномаси, 1997. – 9-сон, 225-модда; 2013. – 41-сон, 543-модда.

9. Ўзбекистон Республикаси Президентининг "Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича ҳаракатлар стратегияси тўғрисида"ги Фармони / ЎзР ҚҲТ, 2017. – 6-сон, 70-модда; 20-сон, 354-модда.

10. Каримов И.А. Юксак маънавият – енгилмас куч. – Тошкент: Маънавият, 2008. – 176

11. Мирзиёев Ш.М. Танқидий таҳлил қатъий тартиб интизом ва шахсий жавобгарлик-ҳар бир раҳбар фаолиятининг кундалик қоидаси бўлиши керак. Т.: Ўзбекистон, – 2017. – 104 бет.

12. Мирзиёев Ш.М. Буюк келажагимизни мард ва олижаноб халқимиз билан бирга қурамиз. Т.: Ўзбекистон, – 2017. – 488 бет.

13. Аминов М., Мадвалиев А., Маҳкамов Н., Маҳмудов Н. Иш юритиш (амалий қўлланма). – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2014.– 456 б.

14. Asilova G. Bojxona tizimida me'yoriy hujjatlarni yuritish (rus guruhlari uchun o'quv qo'llanma). – Toshkent, 2016. – 176 b.

15. Iskandarova G. O'zbektili grammatikasi. –Toshkent, 2009. –67 b.

16. Iskandarova G., Gulibonu Keybatuli. O'zbektili darsligi (xitoyliklar uchun). – Pekin, 2016. – 348 б.

17. Миркосимова М., Алимова Ш., Зоитова О., Умарова Н. Ўзбек тили (техника университетининг русийзабон талабалари учун). – Тошкент: ТДТУ, 2004. – 101 б.

18. Alo Raun. Basic course in uzbek. Published by Indiana University, 1996.

19. Turdiyeva K., Ahmedova D. O'zbek tili (tibbiyot institutlarining rus guruhlari talabalari uchun darslik). – Toshkent: Musiqa, 2007. –206 b.

20. Qahhorova H., Muhammedova S. O'zbek tili. -Toshkent: Universitet, 2004. – 192 b.

21. Назаров К.Н., Хўжанова Г.Ў. Ўзбек тили (юридик институт ва университетларнинг ҳуқуқшунослик факультетлари рус гуруҳлари учун дарслик). – Тошкент: ТДЮИ, 2003. – 334 б.

22. Рафиев А. ва б. Чет элликлар учун ўзбек тили. II қисм (CD дискда). – Тошкент: Ўзбекистон, 2001.

23. Рафиев А., Маҳмудов Н., Юлдашев И. Культура речи и делопроизводство на узбекском языке. – Ташкент, 2011. – 143 б.

24. Rafiyev A., Mahmudov N., Yuldashev I. Nutq madaniyati va davlat tilida ish yuritish. – Toshkent, 2013. – 143 b.

25. Русча-ўзбекча луғат (2 жилдли). – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2013.

26. Тоғаев Т. Ўзбек тилининг кирилл ва лотин алифболаридаги имло луғати. – Тошкент: "Шарқ", 1999. – 368 б.

27. Usmonova Sh. O'zbek tili (koreyslar uchun). – Pusan, 2005. – 182 b.

28. Ўзбек тилининг изоҳли луғати (5 жилдли). – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2005–2008.

Интернет сайтлари

29. http://teachyourselfuzbek.com/resources/coursebooks/ – Самоучитель узбекского языка.

30. http://solver.uz/translate.php – Русско-узбекский переводчик.

31. http://sahifa.tj/russko_uzbekskij_razgovornik.aspx – Русско-узбекский разговорник.

32. http://sahifa.tj/uzbeksko_russkij.aspx – Узбекско-русский переводчик.

33. https://my.gov.uz/ - Ягона интерактив давлат хизматлари портали.

34. https://www.lex.uz. – Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси.

35. http://library.ziyonet.uz/ – таълим портали

MUNDARIJA

So‘zboshi....3
1-mavzu. O‘zbekiston - yagona Vatan....4
2-mavzu. O‘zbek tili - Davlat tili....19
3-mavzu. Milliy qadriyatlar – millat iftixori....30
4-mavzu. Tarix va zamonamiz....40
5-mavzu. Ulug‘ ajdodlarimiz....51
6-mavzu. Vatan va vatanparvarlik....62
7-mavzu. Muzeylar - o‘tmish va kelajak orasidagi ko‘prik....70
8-mavzu. Kelajak - bilimli yoshlar qo‘lida....79
9-mavzu. Zamonaviy dunyoda ta’lim....89
10-mavzu. Kitob mutolaasi....98
11-mavzu. Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutub-xonasi....107
12-mavzu. Adabiyot - ma’naviyatni yuksaltiruvchi manba....114
13-mavzu. Ommaviy axborot vositalari....127
14-mavzu. Internet hayotimizda....137
15-mavzu. O‘zbekiston va jahon....147
16-mavzu. XXI asrda innovasiyalar....156
17-mavzu. Davrimizning global muammolari....166
18-mavzu. Tabiat va inson....176
19-mavzu. Inson va salomatlik....185
20-mavzu. Huquqiy madaniyat....196
21-mavzu. O‘zbekistonda oliy ta’lim....207
22-mavzu. Ilm maskanimiz hayotidan....216
23-mavzu. Bo‘lajak kasbim....226
24-mavzu. Hayot mening tasavvurimda....238
25-mavzu. Ustoz maktabi....251
26-mavzu. Kasbim tarixi....260
27-mavzu. Iqtidor va mehnat....269
28-mavzu. Yetuk mutaxassis....282

29-mavzu. Kasb bayrami.....293
30-mavzu. Sharq akademiyalari 305
31-mavzu. Ilm sari yo'l 314
32-mavzu. Kasb etikasi 329
33-mavzu. San'at va ma'naviyat 351
34-mavzu. Men sevgan asar 360
35-mavzu. Iqtisod va hayot 371
36-mavzu. Ish yuritish tili va uslubi 382
37-mavzu Hujjat turlari va xususiyatlari 387
38-mavzu. Tashkiliy hujjatlar va ularning turlari.....394
39-mavzu. Farmoyish hujjatlari va ularning turlari 398
40-mavzu. Ma'lumot-axborot hujjatlari.....403
41-mavzu. Ishonchnoma. Tilxat. Tushuntirish xati 408
42-mavzu. Dalolatnoma. Ma'lumotnoma 414
43-mavzu. Majlis bayoni. Hisobot.....420
44-mavzu. Xizmat yozishmalari. Xatlar 425
Mustaqil ishlash uchun matnlar.....430
O'zbekcha-ruscha lug'at.....488
Adabiyotlar.....522

HUSANOV NISHONBOY ABDUSATTOROVICH
XO'JAQULOVA RA'NO SHARIPOVNA
DILMURODOVA NILUFAR ASATULLAYEVNA

O'ZBEK TILI

Darslik

Muharrir **Z.Bozorova**

Sahifalovch-dizayner **K.Boyxo'jayev**

«IQTISOD-MOLIYA» nashriyotida tayyorlandi.
100000, Toshkent, Amir Temur ko'chasi, 60a.

2020-yil 25-oktabrda chop etishga ruxsat berildi.
Bichimi 60x84 $^{1}/_{16}$. «Times New Roman» garniturasi.
Bosma tabog'i 33. Adadi 300 dona. Buyurtma № 8/15.

«Excellent Polygraphy» MChJ bosmaxonasida chop etildi.
100190, Toshkent shahri, Shayxontoxur tumani, Jangox
ko'chasi 12 uy,13 xonadon.

48 094 Bl.2

ISBN 978-9943-13-914-5

